8. Аллаярова М. М., Кучкаров Ж. С. Духовно-исторические корни национальной идеи узбекского народа //философия в современном мире. – 2017. – С. 21-24.
9. Usmonov, F.N. The role rationalization in the acceleration of life sequence //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 3. – С. 227-229.
10. Rizaev I. Liberalization of the social system: constructive and destructive aspects //TRANS Asian Journal of Marketing & Management Research. – 2021. – Т. 10. – №. 4. – С. 58-64.



“SITORA” SAYYOHLIK FIRMASI TARIXIGA BIR NAZAR

Murodov Halim Salimovich, Buxoro davlat pedagogika instituti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrası dotsenti, (PhD)

A LOOK AT THE HISTORY OF “SITORA” TOURISM COMPANY

Murodov Halim Salimovich, Associate Professor of the Department of
“Social Sciences” of the Bukhara State Pedagogical Institute, (PhD)

ВЗГЛЯД НА ИСТОРИЮ ТУРИСТИЧЕСКОЙ КОМПАНИИ “SITORA”

Муродов Халим Салимович, доцент кафедры “Общественные
науки” Бухарского государственного педагогического института,
(PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada Samarqand shahrida turizm sohasining rivojlanishi, “Sitora” sayyohlik firmasining tashkil etilishi, korxonaning sayyohlarni ko‘proq jalb etish borasida ijobiy burilishga turtki bergan chora-tadbirlari shuningdek, “Sitora” firmasi turistik faoliyatidagi muhim o‘zgarishlar hamda muammolari masalalari tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbek turizm, turistik firma, “Sitora”, mehmonxona, Ipak yo‘li, “Aziya Eyr”, eksport, Samarqand Deklaratsiyasi, Tolyatti, Ko‘ksaroy.

Abstract: In this article, the development of the tourism sector in the city of Samarkand, the establishment of the tourism firm Sitora, the measures of the enterprise that gave impetus to a positive turn in terms of attracting more tourists, as well as the issues of significant changes and problems in the tourism activities of the company “Sitora” were criticized.

Keywords: Uzbek tourism, travel company, “Sitora”, hotel, Silk Road, export, “Aziya Eyr”, Koksaroy.

Аннотация: В данной статье были проанализированы вопросы развития сферы туризма в городе Самарканд, создание туристической фирмы “Sitora”, меры предприятия, способствовавшие позитивному повороту в привлечении большего количества туристов, а также важные изменения и проблемы в туристической деятельности фирмы “Sitora”.

Ключевые слова: узбекский туризм, туристическая компания, “Ситора”, гостиница, Шелковый путь, экспорт, “Aziya Eyr”, Тольятти, Коксарой.

KIRISH. Mustaqillikni qo‘lga kiritilishi bilan ming yillik moddiy-madaniy meroslarga ega bo‘lgan O‘zbekistonda ko‘p yillar davomida e‘tibordan chetda qolgan sayyohlik sohasiga qiziqish kun sayin orta boshladi. 1990-yillar boshidagi iqtisodiy inqirozni og‘ir ta‘sirini yengib o‘tish hamda boshqa sohalar qatori sayyohlik tizimini ham qayta tashkil etish jarayonini amalga oshirish bosqichlari kun tartibidan o‘rin olgan edi. Turizmning jahondagi

ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi ta‘sirining o‘sib borishi O‘zbekiston hukumatining ham e‘tiborini torta boshladi, chunki u nafaqat yangi ish o‘rinlarini yaratish imkonini bergan, balki xorijiy valyuta ishlab topish vositasi ham bo‘lgani ayni muddao edi. 1992-1995-yillarda O‘zbekistonda 65ta turizm sohasida faoliyat ko‘rsatuvchi litsenziya olgan sayyohlik firmalari mavjud bo‘lib, bu borada respublikadagi boshqa viloyatlarni solishtiradigan bo‘lsak,



<https://orcid.org/0000-0001-5564-8531>

e-mail:

murodovhalim645@gmail.com

Toshkentda 51ta, Samarqandda 9ta, Buxoroda 1ta, Xorazm viloyatida 2ta, Andijon va Fargʻonada 1tadan turizm sohasida faoliyat koʻrsatuvchi litsenziya olgan sayyohlik firmalari faoliyat yuritgan[1]. 1994-1995-yillarda amalga oshirilgan turizm sohasidagi xususiylashtirish jarayoni “Oʻzbekturizm” MK tarkibidagi mintaqaviy boʻlimlarda ham ijobiy tendensiyaning boshlab berishi natijasida sohada tadbirkor va shijoatli, keng qamrovli ishlar olib borish tajribasiga ega boʻlgan sayyohlik tashkilotlari va ularning zamonaviy fikrlaydigan kadrlarini yetishib chiqishiga sharoit yaratdi. Shu jumladan mazkur yillarda tashkil topgan turistik firmalar faoliyatini tahlil qilganimizda, sayyohlik yoʻnalishida samarali faoliyatni olib borgan Samarqand shahridagi “Sitara” firmasi ayniqsa katta eʼtibor qozonganini arxiv va davriy matbuot nashrlari orqali tahlil qilindi.

ASOSIY QISM. “Sitara” firmasi 1994-yil yanvarda Samarqand shahar hokimiyatining qarori bilan tashkil topgan. “Oʻzbekturizm” milliy kompaniyasi mintaqaviy boʻlimiga qarashli boʻlib, faoliyat davrida Turkiya, Pokiston, Xitoy, Birlashgan Arab Amirliklari, Isroil, Hindiston, Olmoniya, Tailand, Malayziya, Singapur. Angliya kabi juda koʻp mamlakatlarga xalqaro sayohatlarni tashkil etgan. “Sitara” firmasi jamoasi asosan oʻz ishini puxta biladigan, suyagi turizm sohasida qotgan xodimlardan iborat edi. Ularning saʼy-harakatlari, ishbilarmonligi va fidoiyligi bois oʻtgan qisqa muddatda firma jahon turizmi aloqalarida oʻz oʻrnini topdi. Buning isboti sifatida shuni alohida taʼkidlash joizki, 1994-1995-yillarda firma dunyoning istalgan mamlakati yoki shahriga sayohat uyushtirish imkoniyatiga erishgan edi. “Sitara” firmasi oʻz faoliyatida bozor raqobatiga ijodiy yondashuvlarni joriy etdi. Jamoada 12 nafar xodim ish oʻrni bilan taʼmilangan boʻlib, ular asosan 2 guruhga boʻlinadi. Birinchi guruhga turizm bilan shugʻullanuvchi Marat Devushev rahbarlik qilsa, ikkinchi guruhga tijorat ishlari boʻyicha Bashorat Hamroyeva boshchilik qilib, turistik jarayonlarni tashkil etishgan. “Sitara” firmasining bu guruhlardagi har bir xodimi vazifasi hamda masʼuliyati aniq belgilab berilganligi tufayli ishlarning barchasi qatʼiy reja va tartib asosida olib borilishiga imkon yaratgan. Shu bois “Sitara”

firmasi faoliyatida doimiy izlanish natijasida ilgʻor tajribalar, chet el turizmining anʼanalari, xalqaro ishonchli hamkorlar bilan aloqalar kengayib borgan. “Sitara” firmasi faoliyatining dastlabki davrida yaʼni, 1994-yilning birinchi choragida 20 million 95 ming soʻm daromad qilib, ishni muvaffaqiyatli boshladi. Firma oʻzining asosiy turistik faoliyatidan tashqari sayohat bilan birga tijorat ishlari bilan ham “Elegiya” deb nomlangan qahvaxona ham ochgan boʻlib, bu yerda Samarqand aholisi va mehmonlar hordiq chiqarish, muzqaymoq, turli milliy va Yevropacha ovqatlar tanovul qilishlari, har xil ichimlik-sharbatlarlar isteʼmol qilishlari yoʻlga qoʻyilgan[2]. Firmaning asosiy faoliyati turizm hisoblanganligi bois sayohat sohasidagi ishlar tobora rivojlanib, xalqaro aloqalari kengayib bordi. Dastlab Turkiyaga sayohatlar uyushtirdik. Hozir ham har hafta ikki gruppaga sayohatchilar Turkiyaning Istanbul shahriga haftasiga bir marta, Pokistonning Karachi shahriga, Birlashgan Arab Amirliklarining Dubay shahriga, Hindistonning Dehli shaharlariga, Xitoyning Pekin shahriga, Tailandning Bangkok, Patayya shaharlariga, Olmoniyaning Frankfurt va Mayne shahriga, Angliyaning London shahriga, Isroilning Tel-aviv shahriga, shuningdek Malayziya, Singapur mamlakatlariga sayohatlarni tashkil etishni yoʻlga qoʻydi. “Sitara” firmasi bozor iqtisodiyatining murakkab kechayotgan oʻsha davr sharoitida mahalliy turistik tashkilotlar bilan hamkorlikda ish yuritgan holda faoliyatini yanada kuchaytirdi. Ayniqsa, firmaning “Aziya Eyr” xalqaro hissadorlik kompaniyasi bilan hamkorlikdagi faoliyati ikki tomon uchun ham foydali boʻlganligini koʻrishimiz mumkin. “Aziya Eyr” xalqaro kompaniyasining xalqaro maydonda oʻziga xos tashabbusi va nufuzi katta ekanligi ham “Sitara” firmasi uchun foydali boʻlib, ulardan xalqaro turizm sohasidagi yangiliklar va tajribalarni oʻrgandi hamda hamkorlikda charter reyslar tashkil etib, Suriya, Turkiya, BAAGA sayohatlar uyushtirildi. Kompaniyalar bilan oʻzaro hamkorligi yanada kengaytirish rejalarimiz davom ettirilmogda. “Sitara” firmasi qisqa muddatda Samarqand viloyati va shahri aholisi eʼtibori qozona oldi. “Sitara” firmasi har bir sayohatchining hujjatlarini tayyorlashga amaliy yordam koʻrsatish, guruh jamlangach, toki samolyot belgilangan

manzilga uchib ketgunga qadar bo'lgan barcha tashvish-u yumushlarni o'zi hamkorlar orqali hal qilishi va turistlar sayohatdan qaytib kelgach esa xoh Samarqand, xoh Toshkent aeroporti bo'lsin, hamma joyda transport xizmati tashkil etilgan. "Sitora" firmasi agar sayyohlar tunda qaytib kelsa, uy-uyulariga eltib qo'yishni ham o'z zimmasiga olar edi. Hatto, Urgut yoki Nurobod tumanlarida istiqomat qiluvchi sayyohatchilarni manzillariga yetkazib qo'yish ishlari amalga oshirilgan. Albatta, bu jihatlar mahalliy sayyohlarning firma xizmatlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qilgan. Firmaning boshqa turistik tashkilotlardan farqi yana shundaki, sayyohlar qaysi mamalakatga borishmasin, ularning talab-istaklari asosida mehmonxonalar tanlanadi, sayohat marshrutlari belgilanadi. Chet ellarda eng tajribali gid-tarjimonlar hamrohligi ta'minlanishi ham xorijiy firmalar bilan shartnomalarga qat'iy rioya etilayotganligidan dalolat beradi. "Sitora" firmasi qishloq aholisiga ham xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yib buning uchun tuman markazlari o'zining filiallarini ochishni boshlab yubordi. Jumladan, Nurobod tumani hokimiyati bilan kelishib, bu yerda "Sitora" firmasi turizm bo'limi ochildi. Nurobodning o'zida sayyohlik guruhlar tashkil etilib, firma shu joyning o'zida xizmat ko'rsatishni boshlab yubordi. Keyingi qadamlarda Kattaqo'rg'on va Urgut shaharlarida ham sayyohlik bo'limini ochish rejaları yakuniga yetgan. Mahalliy hududlarda bo'limlarning ochilishi tuman va qishloq aholisi uchun ham juda qulay sharoitlar yaratilishiga olib keldi.

Zamonaviy turizm yangiliklarini joriy etishda faol bo'lgan "Sitora" firmasi Samarqand shahrini sayyohatchilar shahriga aylantirish uchun xorijiy sayyohlar e'tiborini qozonadigan va qiziqishini orttiradigan xizmatlar va o'ziga xos obyektlarni bunyod etishga ham qiziqishlari katta bo'lgan. Masalan, Registon maydonida 50-60 metr balandlikka ko'tariladigan havo shari o'rnatilsa, har qanday sayyoh valyuta – dollar evaziga unga chiqib, yuqoridan Samarqand shahrini tomosha qilib zavq olishi rejasi mavjud bo'lib, havo sharini ishlatish uchun esa bitta mutaxassisni "Sitora" firmasiga ishonib topshirishsa, har jihatdan qo'llab-quvvatlashga tayyor ekanliklarini firma rahbari

Jamshid Nasrullayev o'z chiqishida taklif sifatida bildirib o'tgan[3]. Bu taklif sayyohlarni Samarqandda ko'poq vaqt davomida olib qolishga va bu boradagi daromadni oshirishga xizmat qiladigan zamonaviy yangicha xizmat turlaridan biri edi. Bu tashabbus yuqori tashkilotlar va shahar hokimiyatining e'tiborsizligi tufayli yana ancha yillar amalga oshmay qolib ketdi. Bu Samarqand turizm sohasida foydalanilmay kelayotgan imkoniyatlardan biri edi. Bu borada jahonning rivojlangan davlatlari amaliyotini tahlil qiladigan bo'lsak, xorijiy sayyohlarning o'rtacha bo'lish muddatini uzaytirish borasidagi holat rivojlangan sayyohlik mamlakatlarida 1992-yilda xorijiy sayyohatchilarning o'rtacha sayohat muddati quyidagilarni tashkil etadi: Avstriya 4,9; Fransiya 7,1; Turkiya 8,3; Ispaniya 11,4; Isroil 20 tun. Xorijiy sayyohlarning O'zbekiston Respublikasida sayohat muddati 1992-yilda o'rtacha 2-3 tunni tashkil etar edi[4]. Bundan ko'rinib turibdiki, bu omilni kengaytirish katta ahamiyat kasb etib, sayyohatchilarning ko'proq O'zbekistonda olib qolish orqali turistlardan keladigan daromadni oshiribgina qolmasdan, shu orqali soha bilan bog'liq tarmoqlarni rivojlantirish shuningdek, yangi turdagi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etishga ham, zarurat ham tug'diradi. Milliy sayyohlik tizimini barpo etishda har tomonlama mukammal hamda qadriyatlarga tayangan xizmat ko'rsatish sohasini yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'rsatiladigan qo'shimcha xizmatlar sohasini kengaytirish borasidagi xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, turistik majmua tuzilmalarida foyda olishning asosiy manbai sayyohlarga qo'shimcha xizmat ko'rsatish hisoblanadi. Qo'shimcha xizmat ko'rsatishdan tushumlar sohada olinadigan umumiy daromadning 50% tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasida 1993-yilda qo'shimcha xizmatlardan tushumlar valyuta daromadlarida 1%dan oshmadi[5]. Mustaqillikning dastlabki yillarida yuqoridagi muammolar va iqtisodiy yetishmovchilikning kuchayishi bilan O'zbekistonga keladigan sayyohlar soni kamayib, sayyohlarni chet elga jo'natish esa ko'payganligi iqtisodiy samara bermasligi tufayli bu borada islohotlarni amalga oshirishni taqozo qildi. Turizm sohasida o'tkazilgan

tajriba hamda jahon amaliyotii sayyohlarni jo‘natish va qabul qilish o‘rtasida quyidagi nisbatni, ya’ni 70:30% qariyb mukammal deya dalolatlaydi. 1990-yillar boshida O‘zbekiston Respublikasida ushbu ko‘rsatkich 40:60%ni tashkil etdi, ya’ni mamlakatdan sayyohlik maqsadlarida 60 ming fuqaro xorijga chiqqan bo‘lsa, xorijdan 40 ming sayyoh bu yerga keldi[6]. “Sitara” firmasi asosan O‘zbekiston fuqarolarini xorijiy sayohatlarga uyborish bilan shug‘ullanib, bu borada tashkilotning korxonalar va tashkilotlar, xo‘jaliklar, kichik korxonalar va birlashmalar hamda muassalar rahbarlari, sayohatsevar fuqarolar diqqatiga quyidagi shaharlar: London, Frankfurt na Mayne, Dehli, Agra, Pekin, Bangkok, Patayya, Dubay, Karachi, Istanbulga bir haftalik sayohatlar uyushtirgan edi [7]. Ushbu sayohatlar tashkil etilishi jarayonida reklama va targ‘ibot ishlarini ham olib borishgan. Sitara turistik firmasi bu sohadagi asosiy faoliyat yo‘nalishi asosiy daromad, ya’ni xorijiy valyuta olib keladigan kirish turizmini emas, balki chiqish – xorijga sayohatlarni ko‘proq qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilgan.

XULOSA qiladigan bo‘lsak, “O‘zbekturizm” MKning Samarqand mintaqaviy bo‘limida 1990 – yillar davomida turizm va ekskursiyalar sohasini inqirozli holatdan chiqarish uchun “O‘zbekturizm” boshchiligida me‘yoriy-huquqiy hamda tashkiliy jihatdan chora-tadbirlar amalga oshirilishi natijasida yigirmaga yaqin turizm sohasidagi tashkilotlar hududiy byurolar, mehmonxonalar, kempinglar, turistik firmalar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Bu borada asosiy kamchilik mazkur hududda boshqa tarixiy markzalardagi kabi asosan tarixiy-madaniy turizm turining rivojlantirilishi asosiy o‘ringa ko‘tarilib, sohaning ziyorat, agroturizm, tog‘, sport, rekreatsion, etnografik, ov sayohatlari, an’anaviy xalq bayramlari, doimiy ravishda turli tarixiy-madaniy tadbirlar, xalqaro forumlar va konferensiyalar, cho‘llarda ekstremal turizm, safari turizm, qishloq turizmi, turli sport turlari bo‘yicha xalqaro musobaqalar, ekoturizmni turistik mahsulot sifatida taqdim etish kabilar bo‘yicha aniq amaliy chora-tadbirlar, tizimli ishlar yo‘lga qo‘yilmadi yoki ilgari surilgan loyihalar qog‘ozda qolib ketdi. Jumladan

“Sitara” firmasi tashabbuslari kabi loyihalar. Tizimdagi kamchilik va muammolar ko‘p yillar davomida soha rivojiga salbiy ta‘sir qilgan holda yangi turistik mahsulotlar yaratilishiga, sayyohlar auditoriyasi va geografiasining kengayishiga, yangi servis xizmatlarining joriy etilishiga hamda turizm sohasining mamlakat iqtisodiyotida strategik mavqeni egallashiga imkon bermadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zR MA, M-141-fond, 1-ro‘yxat, 8-ish, 179-182-variantlar.
2. Ham sayohat ham tijorat. Samarqand gazetasi, 1994 -yil 4-iyun, №22-son.
3. Ham sayohat ham tijorat. Samarqand gazetasi, 1994-yil 4-iyun, №22-son.
4. O‘zR MA, M-141-fond, 1-ro‘yxat, 38-ish, 52-variantlar.
5. O‘zR MA, M-141-fond, 1-ro‘yxat, 38-ish, 53-variantlar.
6. O‘zR MA, M-141-fond, 1-ro‘yxat, 38-ish, 53-variantlar.
7. Ham sayohat ham tijorat. Samarqand gazetasi, 1994-yil 4-iyun, №22-son.
8. Murodov, H. (2024). Buxoro turizmi xizmat korsatish sohasidagi ijobiy o‘zgarishlar (2000-2016-yillar misolida). *Medicine, pedagogy and technology: theory and practice*, 2(12), 132-138.
9. Salimovich, M. H. (2024). Taraqqiyot va marifat uchun kurashganlar taqdiri.
10. Salimovich, M. H. (2024). Harakatlar strategiyasi davrida viza siyosati.
11. Salimovich, M. H. Buxoro turizmi xizmat ko‘rsatish sohasidagi ijobiy o‘zgarishlar (2000-2016 yillar misolida).
12. Murodov, H. (2024). Buxoro turizmi xizmat korsatish sohasidagi ijobiy o‘zgarishlar (2000-2016 yillar misolida). *Medicine, pedagogy and technology: theory and practice*, 2(12), 132-138.
13. Murodov, H., & Rabiyeva, Z. (2024). The fate of those who fought for development and enlightenment. *Modern Science and Research*, 3(5), 840-843.
14. Murodov, H., & Sadriyev, M. (2024). Koreya tarixiga bir nazar. *Modern Science and Research*, 3(12), 817-822.

TURKISTON ASSR DA ALOQA TIZIMI, POCHTA, TELEGRAF, TELEFON ALOQALARINING RIVOJLANISHI TARIXI

Odilov Azizillo Qamardin o'g'li, Andijon davlat texnika instituti "Tillar va gumanitar fanlar" kafedrasida stajor tadqiqotchisi

HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF THE COMMUNICATION SYSTEM, POSTAL, TELEGRAPH, TELEPHONE COMMUNICATIONS IN THE TURKISTAN ASSR

Odilov Azizillo Kamardin oglu, intern researcher at the Department of "Lands and Humanities" of the Andijan State Technical Institute

ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ СВЯЗИ, ПОЧТЫ, ТЕЛЕГРАФА, ТЕЛЕФОННОЙ СВЯЗИ В ТУРКЕСТАНСКОЙ АССР

Одилов Азизилло Камардин оглы, стажёр-исследователь кафедры "Языки и гуманитарные науки" Андийжанского государственного технического института

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkiston ASSRda aloqa tizimi, aloqa tizimining tarixi hamda bosqichlari, telegraf va pochta, temir yo'l va temir yo'l infratuzilmasi, telekommunikatsiya tarmoqlari va telekommunikatsiya infrastrukturasi rivojlanishi, televideniya va radio, mobil aloqa va internet tizimining shakllanish tarixi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: aloqa tizimi, telegraf, pochta, temir yo'l, telekommunikatsiya, televideniya, radio, mobil aloqa.

Abstract: In this article, the communication system in the Turkestan ASSR, the history and stages of the communication system, telegraph and post, railway and railway infrastructure, telecommunication networks and the development of telecommunication infrastructure, the history of the formation of television and radio, mobile communication and the Internet system are discussed in this article.

Keywords: communication system, telegraph, post, railway, telecommunication, television, radio, mobile communication.

Аннотация: В данной статье рассмотрена система связи в Туркестанской АССР, история и этапы развития системы связи, телеграфной и почтовой, железнодорожной инфраструктуры, сети электросвязи и развитие телекоммуникационной инфраструктуры, история становления телевидения и радио, подвижной связи. В этой статье обсуждаются связь и интернет-система.

Ключевые слова: система связи, телеграф, почта, железная дорога, телекоммуникации, телевидение, радио, мобильная связь.

KIRISH. XX asr ulkan texnologiya asri, global-lashuv va integratsiya jarayonlari jadal tus olgan, axborot oqimi butun umumbashariyat olamini qamrab olayotgan ayni bir paytda xabarlar, ma'lumotlar, jo'natma kabilarning o'zaro integratsiyalashuvida aloqa tizimlari, xususan pochta, telefon, telegraf aloqaning o'rni nihoyatda kattadir.

Bizga tarixdan ma'lumki, aloqa tizimi u xoh avtomobil, xoh temir yo'l, havo yo'llari orqali bo'lsin, yoki pochta va telegraf aloqalari bo'lsin, aholining turmush darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, ushbu soha inson ehtiyojlarini qondirish va uning rivojlanishi uchun sharoit yaratish kabi muhim hayotiy vazifalarni ham bajaradi.



<https://orcid.org/0009-0008-8685-6147>

e-mail:
odilovazizillo60@gmail.com

Pochta va telegraf aloqalari kabi xizmat ko'rsatish muassasalarining rivojlanish darajasi va ularning faoliyati samaradorligi iqtisodiyotning ijtimoiy yo'naltirilganligi darajasi hamda inson ehtiyojlarini qondirish uchun qulay sharoitlar yaratilganligining asosiy ko'rsatkichlaridan biridir. Turkistonda aloqa tizimi mamlakatda tartibsizliklar, qo'zg'olonlar avj olgan davrlarda og'ir talofat ko'rdi. Chunki qo'zg'olonlarda Chor hukumati ma'murlariga qarashli barcha obyektlar qatori, ularning markaziy boshqarma bilan aloqasini ta'minlashga xizmat qiladigan telefon, telegraf tizimi tarmoqlari uzib qo'yilganligini tarixdan bilishimiz mumkin. Shunday bo'lsa-da, mamlakatda aloqa tizimi o'zaro savdo-sotiqning rivojlanishi, tovar-pul munosabatlarining, bank va tijorat korxonalarining taraqqiy etishiga katta hissa qo'shdi. Dastlab xabar almashish oddiy ko'rinishda (og'zaki xabarlarini yetkazish, choparlar orqali, otliq pochta, savdogarlar) keyinroq birmuncha taraqqiy etgan aloqa tizimi insoniyatning xo'jalik faoliyati, jamiyat va davlat ravnaqi, turmush farovonligi xalqimiz tinchiligini ta'minlashda katta o'rin egallagan.

ASOSIY QISM. Insoniyat hayotining bir qismiga aylangan, jamiyatdagi o'zaro ijtimoiy munosabatlarning shakllanishida, ma'lumot va xabarlarini tarqatishda muhim sanalgan mazkur tizim faqatgina bugunning ixtirosigina emas, albatta. XIX asr oxirida O'rta Osiyoning butun hududida yagona, eng qadimiy aloqa turi – oddiy ko'rinishdagi pochta aloqa xizmati mavjud edi xolos.

Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi (Turkiston ASSR 1918-1924-yillar), so'ngra sovet hokimiyati tomonidan amalga oshirilgan milliy-hududiy chegaralanishdan so'ng tashkil topgan O'zbekiston SSR (1925-1991-yillar)da aloqa tizimlari o'zining tashkil etilishi va rivojlanishi jarayonida alohida ahamiyatga ega bo'lgan bir qancha yangi aloqa vositalarining yaratilishi va rivojlanishi jarayonida bir necha bosqichlarni boshdan kechirdi. Bu tizimning taraqqiyoti ayniqsa, o'sha davrning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sharoitlariga bog'liq bo'lib, podsho Rossiyasi imperiyachiligining qulashi, keyin esa bolsheviklar tomonidan sovet tizimining zo'rlik bilan o'rnatilishi hamda sotsializmning jahon miqyosiga yoyilishi davrida ko'plab o'zgarishlar yuz berdi. Bu davrda Turkiston ASSR, keyinroq esa O'zbekiston SSR aloqa tizimi taraqqiyotini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo'lib tadqiq qilish mumkin.

1. Turkistonda sovet hokimiyatining o'rnatilishidan oldingi davrdagi aloqa tizimi (XIX asrning oxiri – 1917- yillarda).

2. Turkiston ASSR tashkil etilgandan keyingi davrda aloqa tizimidagi o'zgarishlar (1918-1924 yillar).

3. O'zbekiston SSR tashkil topgandan keyingi dastlabki o'n yilliklarda aloqa tizimining kengayishi (1925-1945- yillar).

4. Ikkinchi jahon urushidan kegingi yillarda aloqa tizimining taraqqiyoti (1946-1960 yillar).

5. Sovet Ittifoqida turg'unlik yillarida aloqa tizimi, sohadagi yutuq hamda muammolar davri (1970-1980 yillar).

Biz ushbu maqolamizda Turkiston ASSRdagi aloqa tizimlari va uning o'ziga xos rivojlanish jarayoniga qisqacha tarzda to'xtalib o'tmoqchimiz. Dastlabki bosqichda Turkistonda sovet hokimiyatining o'rnatilishidan oldingi davrdagi aloqa tizimi XIX asrning oxiri – 1917-yillarda Turkiston hududida aloqa tizimi, asosan, Rossiya imperiyasining bir qismi sifatida rivojlanib borgan. Xalqaro va mahalliy aloqa tizimlari bir qator muammolarni hal qilishga qaratilgan bo'lib, temir yo'l tarmoqlari, pochta xizmatlari, telegraf va telefon liniyalari sekin-astalik bilan podsho ma'murlari tomonidan, o'z manfaatlaridan kelib chiqqan holda tashkil etilgan edi. Ammo, turli viloyatlar o'rtasida aloqa jarayonlari unchalik samarali bo'lmagan edi. Pochta aloqa tizimining rivojlanishida pochta xilarning vazifalarini davlatning piyoda xat tashuvchilari yoki "chopar", "elchi" deb ataladigan xabarchilar bajargan[8.121]. Oddiy aholi ularning xizmatlaridan foydalana olmagan, ular davlat amaldorlariga, yirik xon va boylarga, shuningdek, savdo yetakchilariga xizmat qilganlar. Oddiy xalqdan xabar yetkazish asosan aholi ko'p joylarda, ommaviy yig'ilish joylarida, choyxonalarda, bozor maydonlarida va masjidlarda og'izdan – og'izga o'tgan. Bu davrda maxsus aloqa korxonalari va pochta qutilari mavjud emas edi, chunki yozishmalar hajmi juda kichik va xizmat ko'rsatuvchi mijozlar doirasida juda tor edi. Pochta almashinuvi asosan hukumat yozishmalaridan iborat edi. O'rta Osiyoning mustamlakachilar tomonidan bosib olinishi, o'lkada general-gubernatorlikning tashkil etilishi va Turkiston harbiy okrugi aloqa vositalarini majburan rivojlantirishga olib keldi. Chor hukumati bu borada alohida e'tiborga ega edi. Aloqa tizimi yangi hududning tez "rivojlanishi"ga, yangi tashkil etilgan savdo-sotiqning kuchayishiga, Turkistonda

yangi savdo va iste'mol bozorining vujudga kelishiga xizmat qildi [9].

Telegraf va pochta aloqalari ham Turkistonga XIX asrning oxiridan, Rossiya imperiyasi o'lkani bosib olgan davrlarda vujudga keldi. O'z manfaatlaridan kelib chiqib Rossiya imperiyasi ma'murlari Turkistondagi pochta va telegraf tizimlarini kengaytira boshlagan. Ammo bu tizim XX asr boshlarida ham faqat asosiy shaharlar va iqtisodiy markazlarda faoliyat ko'rsatgan, kichik qishloqlar esa undan chetda qolgan edi.

Temir yo'l aloqalari. 1870-80-yillarda Turkistonda birinchi temir yo'l liniyalari qurila boshlandi. Birinchi temir yo'l 1888-yilda Kavkaz orqali Ashxobodga davom ettirilib, Samarqandga kirib keldi. Toshkent orqali temir yo'l liniyasi Andijonga 1899-yilda kirib kelgandi. 1905-yilda Orenburgdan Toshkentga qadar temir yo'l kirib keldi. Turkiston temir yo'llarining uzunligi Andijonga kelganda 3 ming kilometrdan ziyod masofaga yetgan edi [1.55-56]. Bu esa aloqa tizimlarining samaradorligini oshirdi, lekin hali ham mintaqaning katta qismini qamrab olmagan edi. Podsho Rossiyasi tomonidan o'lkaga temir yo'l transporti dastlab O'rta Osiyo (1880-1898-yillar), Toshkent-Orenburg (1901-1906-yillar) temir yo'llari davlat xazinasi mablag'i hisobiga, Farg'ona (1911-1916-yillar), Buxoro (1914-1916-yillar), Yettisuv (1912-1917-yillar) temir yo'llari esa hissadorlik jamiyatlari hisobiga qurildi [2.239].

Podsho ma'murlari tomonidan Turkistonda ham 1870-80-yillarda pochta va telegraf, telefon aloqa tizimlarini ham vujudga keltira boshladi. Bu bilan Turkistonning ayrim hududlari o'rtasidagi tizimlar yanada yaxshilana boshladi.

Ikkinchi bosqichda Turkiston ASSR tashkil etilishidan (1918-1924-yillar) so'ng, sovet hukumati ham o'z manfaatlaridan kelib chiqqan holda aloqa tizimini izchil tarzda rivojlantirishga harakat qildi. Bu davrda ko'plab yangi texnologiyalar va infratuzilma obyektlari qurildi.

Turkistonda bu davrga kelib telekommunikatsiya tarmoqlari ham bolsheviklar qo'lga o'tdi. Turkiston o'lka XKSning 1917-yil 23-noyabrdagi dekretiga muvofiq Pochta va telegraf xalq komissarligi tashkil etildi. Turkistondagi barcha pochta hamda telefon aloqalari boshqarma hamda shoxobchalari unga bo'ysundirildi [3.47].

Turkiston ASSR XKSning ko'rsatmasiga muvofiq 1918-yildan e'tiboran Toshkent, Samarqand, Qo'qon, Verniy, Andijon va boshqa shahar

hamda hududlardagi barcha pochta va telefon aloqa shoxobchalari hamda bo'limlar faoliyati to'lig'icha davlat ixtiyoriga o'tkazildi, ya'ni milliyalashtirildi [4.19-21].

Temir yo'l infratuzilmasi Temir yo'l tarmoqlari kengaytirildi va Turkistonni Rossiya bilan bog'lovchi muhim temir yo'l yo'nalishlari tashkil etildi, bu esa ham iqtisodiy, ham aloqa tarmoqlarining kuchayishiga xizmat qildi.

1920-yillarda Turkistonda telefon va telegraf aloqalari yanada rivojlandi. Telegraf tarmoqlari shaharlarda va muhim transport yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatgan. Pochta tizimi, pochta xizmatlari yanada markazlashdi [5.21-22]. Sovet hukumatining markaziy ko'rsatmalari asosida Turkiston ASSRda pochta aloqalari faollashdi. 1922-yil 9-sentabrdagi Turkiston ASSR XKS qaroriga muvofiq Turkiston ASSR Pochta va telegraf xalq komissarligi O'rta Osiyo aloqa boshqarmasiga aylantirildi [6.21-22].

XULOSA qilib shuni aytish mumkinki, Turkiston ASSRning aloqa tizimi tarixidagi asosiy bosqichlar, birinchi navbatda, mamlakatning siyosiy va iqtisodiy rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Dastlabki bosqichlarda Rossiya imperiyasining alohida mintaqaviy markazlashgan tizimlari o'rnida, Sovet davrida yagona markazdan boshqarilgan va modernizatsiya qilingan tarmoqlar tashkil etildi. Mustaqillikdan keyin esa O'zbekistonning aloqa tizimi yanada diversifikatsiya bo'lib, yangi texnologiyalar va xalqaro aloqalarni rivojlantirishga qaratildi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Tillaboyev S., Zamonov A. O'zbekiston tarixi (XIX asrning ikkinchi yarmi-XX asr boshlari). –Toshkent: Sharq, 2010.
2. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркестон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. –Тошкент: Шарқ, 2000.
3. Добромыслов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. –Ташкент, 1992.
4. Ўзбекистон ССР тарихи. Қадимги давлардан хозирги кунларгача. –Тошкент: Фан, 1974.
5. Ўз МА, Р-33-фонд, 1-рўйхат, 121-иш.
6. Ўз МА, Р-33-фонд, 1-рўйхат, 2-иш.
7. Ўз МА, Р-33-фонд, 1-рўйхат, 122-иш.
8. Rajabov Q., Zamonov A. O'zbekiston tarixi (1917-1991-yillar). –Toshkent: Sharq, 2017.
9. Ўз МА, Р-33-фонд, 1-рўйхат, 3216-иш.
10. Pochta texnikasi-vikipediya. https://uz.m/Wikipedia/org.wiki/Pochta_texnikasi.

Falsafa fanlari doktori Sh.Agzamxodjayeva tahriri ostida

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING IJTIMOY- AXLOQIY VA FALSAFIY G‘OYALARI

Maxsudjonova Aziza Kadamboevna, Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti “Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat” kafedrasida katta o‘qituvchisi

SOCIAL, MORAL AND PHILOSOPHICAL IDEALS OF MAHMUDKHO‘JA BEHBUDI

Makhsudjonova Aziza Kadamboevna, Senior Lecturer, Department of “Social Sciences and Physical Culture”, Tashkent Institute of Textile and Light Industry

СОЦИАЛЬНО-ПРАВСТВЕННЫЕ И ФИЛОСОФСКИЕ ИДЕИ МАХМУДХОДЖИ БЕХБУДИ

Махсуджонова Азиза Кадамбоевна, старший преподаватель кафедры “Общественные науки и физическая культура” Ташкентского института текстильной и легкой промышленности

Annotatsiya: Maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning ijtimoiy-axloqiy va falsafiy g‘oyalar, uning bugungi kundagi yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berildi. Mahmudxo‘ja Behbudi qalamga olgan barcha sohalar asosida keng qamrovli tarbiya masalalari yotadi, deyish ayni haqiqatni aytishdir. Uning gazeta va jurnallarda chop etilgan “Bizga isloh kerak”, “Haq olinur, berilmas”, “Yoshlarga murojaat”, “Samarqandda milliy ishlar haqida”, “Tahsil oyi” kabi o‘nlab maqolalari XX asr boshlarida Turkistondagi taraqqiyparvar insonlar va ayniqsa, mahalliy yoshlarning diqqat-e‘tiborini qozongan.

Kalit so‘zlar: yoshlar, tarbiya, ota-ona, targ‘ibot, tashviqot, maorif, maktab, milliy axloq, o‘zlikni anglash, ijtimoiy foydali mehnat.

Abstract: The article scientifically substantiates the importance of social, moral and philosophical ideas in the education of youth in modern conditions. In all areas addressed by Mahmudhoja Behbudi, there are issues of comprehensive education - this can be considered the truth. His dozens of articles published in newspapers and magazines, such as «We Need Reforms», «The Truth Is Taken Away, But Not Given Back», «Appeal to the Youth», «On National Affairs in Samarkand», «Month of Education» and others, attracted the attention of progressive people of Turkestan at the beginning of the 20th century and, especially, local youth.

Keywords: youth, education, parents, propaganda, advocacy, enlightenment, school, national ethics, self-awareness, socially beneficial labor.

Аннотация: В статье научно обосновано значение социально-нравственных и философских идей в воспитании молодежи в современных условиях. Во всех сферах, к которым обращался Махмудходжа Бехбуди, лежат вопросы всестороннего воспитания – это можно считать истиной. Его десятки статей, опубликованных в газетах и журналах, такие как «Нам нужны реформы», «Правду отнимают, но не отдают», «Обращение к молодежи», «О национальных делах в Самарканде», «Месяц обучения» и другие, привлекли внимание прогрессивных людей Туркестана начала XX века и, особенно, местной молодежи.

Ключевые слова: молодежь, воспитание, родители, пропаганда, агитация, просвещение, школа, национальная мораль, самосознание, социально полезный труд.



<https://orcid.org/0009-0008-9118-471X>

e-mail: angelochik86@mail.ru

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Mahmudxo‘ja Behbudiyning siyosat va huquq, tarix va geografiya, adabiyot va san‘at, iqtisodiyot va din, ilm-ma‘rifat, turmush tarzi va odob-axloqqa doir dolzarb muammolarni aks ettiruvchi maqolalari yangi davr, zamona talabidagi o‘qimishli yosh avlodning kamol topishida juda muhim va ishonchli targ‘ibot va tashviqot vositalaridan biri hisoblanadi. Ulardagi bosh maqsad maorif, maktab va milliy axloqni yangi o‘zanga solish, davr talablari ruhidan kelib chiquvchi nazariya va g‘oyalarni ilg‘or usullar asosida amaliyotga tatbiq etishdan iborat edi. “Mana shunday damlarda buyuk ma‘rifatparvar hazrat Behbudiy ijodiy faoliyatining yangi qirralari – yetuk muallimlik qobiliyati va tarbiyachilik mahorati yorqin namoyon bo‘ldi. Millat hayoti ta‘lim-tarbiya bilan belgilanadi, - degan marifatparvar, islohn maktab va madrasalardan boshlash zarur”, - degan g‘oya bilan chiqdi[1]. Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkash” asarini o‘rganish bugungi kunda dolzarb muammolardan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / MATERIALS AND METHODS).

Mahmudxo‘ja Behbudiyning ma‘rifatparvarlik g‘oyalari va falsafasini o‘rganishda xorijiy va o‘zbek olimlarining bir qator tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jadidlar harakatiga oid xorijiy olimlardan E.Olvort, Adib Xolid [2,38-b.], orleanlik professor E.Lazzeri, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarida Hoji Ne‘matulloh Muhtaram [3,61-b.], N.Xotamov [4, 23-b.], mamlakatimiz olimlaridan jadidchilikka oid Q.Rajabov [5, 26-29-bb.], D.Alimova [6,76-b.], S.Inoyatov, Q.Rajabov [7,54-b.], L.Muxamedjanova, M.Alimova [8,22-b.] va boshqalarning tadqiqotlarida jadid mutafakkirlari ma‘naviy merosining ijtimoiy-siyosiy va ma‘naviy qarashlari, ularning jadid ma‘rifatparvarligidagi alohida o‘rni qisman o‘rganilgan.

Tadqiqotda tarixiylik, mantiqiylik tamoyillari hamda qiyoslash, analiz va sintez, umumlashtirish va tahlil usullaridan foydalanilgan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).

Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkistondagi siyosiy so‘qirlik, huquqiy bilimsizlik, nodonlik, axloqiy noqislikning ayrim jihatlarini xalqning mustamlaka holidan deb bilsa, boshqa jihatlarini avom ommaning a‘moli hamda ruhiyatiga chuqur o‘rnashib qolgan sarqit va illatlarda deb bildi. Behbudiy rahnamoligidagi jadid ziyolilari o‘lka xalqini milliy istiqloq yo‘lidan ishonch va

sabot bilan yetaklash, millatga o‘zligini anglatish uchun unga savod o‘rgatish, keng ma‘nodagi ma‘rifatlilikni singdirishni o‘zlarining ziyolilik majburiyati, insoniylik burchi deb bildilar. Ular ommani, xususan, mahalliy yoshlarni ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilish, savodini chiqarish, umumiy va kasbiy bilimlarini oshirish, ko‘nikma va malakalarini chuqurlashtirishga butun kuch va qudratini, bilim va mahoratini, iroda va quntini sarfladilar. Jadid ziyolilari, jumladan, Behbudiy ham mahalliy yoshlarni yangi tashkil etilgan maktablarda zamonaviy bilimlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida o‘quvchilar uchun bir qator yangi darslik, qo‘llanmalar yaratdilar. Bunda o‘quvchi yoshlarning savodlilik darajalari, ruhiy tayyorgarliklari va qiziqishlariga alohida e‘tibor qaratildi.

Behbudiy va uning safdoshlari mustaqillik uchun kurashning dastlabki va zaruriy bosqichi sifatida o‘lka aholisini, xususan, yoshlarni jaholatdan qutqarish, ma‘rifat bilan “qurollantirish” yo‘lini tanladilar. Ilm, ma‘rifat orqali millatdoshlarida milliy ongni shakllantirishga, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini tarbiyalashga zo‘r berdilar. Behbudiy yoshlarni yangi tarixiy davr talablariga javob bera oladigan avlod bo‘lib shakllanishini, eng avvalo, ota-bobolari tomonidan boy berilgan erk va hurriyatni, Vatanni qaytarib olishni maqsad qilgan yoshlarni tarbiyalashga katta e‘tibor berish zarur, deb hisobladi. U yosh avlodni nafaqat har tomonlama bilimli, madaniyatli, balki diniy qadriyatlarga sodiq muslim bo‘lishini ham istadi. Uningcha, islom diniga sadoqat yoshlarning o‘z milliy xususiyatlarini, o‘zligini saqlab qolishlarida qalqon vazifasini o‘tashi lozim edi. Behbudiy yoshlarning “ibtidoiy tarbiya”siga ahamiyat beribgina qolmadi, balki davlat dumasiga a‘zo, sud idoralarida advokat bo‘lib, o‘z xalqining milliy manfaatlarini himoya qila biladigan kishilarni, fan va madaniyat, xalq xo‘jaligining barcha sohalari bo‘yicha malakali mutaxassislarini tayyorlash masalasini eng dolzarb masalalar sifatida kun tartibiga qo‘ydi.

Behbudiy ta‘lim-tarbiya jarayoni keng qamrovli va uzoq davom etadigan hodisa ekaniga e‘tibor qaratar ekan, bu ozchilikning xohishi va harakati bilan emas, butun bir millatning, uning ziyolilari sa‘y-harakati bilan amalga oshiriladigan hodisaligini uqtiradi: “Har millatning ulamosi, ahli qalami, mutafakkiri o‘z millatining oyandasi uchun

yo'l ko'rsatur, mashvarat berur, millat axloqining islohi uchun masjidlarda pand va nasihat berur, maktab va madrasalarda dunyo va oxiratda kerak ilm va fan, ta'lim berarlar, kitob va gazet ila ummatni muslihi uchun bahs va mukolamalar qilurlar"[9,52-b]. Behbudiy ommani, birinchi navbatda, boylarni ogohlikka, millatni himoya qilishga, uning ravnaq topishiga xizmat qilishga, xayr-ehsonga chaqiradi, aks holda buning oxiri xarobdur, deydi: "Yigirma, o'ttiz sana so'ngra yana yomonroq bo'lur, musulmonlik, ilm va odob ila qoim millat axloq, fazl va hunar ila boqiy qolur"[10]. Bilim olish uchun hech narsa to'siq bo'lmasligi kerak, deb yozgan edi Behbudiy. Odamlarga bor-yo'g'ingizni, mol-mulkingizni sotadigan bo'lsangiz, bu pullarni o'g'illaringizni Yevropada o'qitishga sarf qilingiz, deb yo'riq ko'rsatadi mutafakkir[11,38-b].

Mahmudho'ja Behbudiy "Hifzi sihati oila" ("Oila sog'ligini muhofaza qilish") nomli maqolasida o'quvchilarning diqqatini tibbiyot ma'rifati mavzusiga qaratadi. Inson uchun, eng avvalo, zarur bo'ladigan ilm bu "ilmi badan va hifzi sihatdur", - deb yozadi u. Behbudiy Qur'oni Karim va hadislarga hamda Gollandiya va Fransiya olimlarining statistik tadqiqotlari natijalariga suyangan holda erta oila qurish va erta nikohga kirishning zarari va oila qurmasdan yurishning, ko'p xotinlilikning zararlari hamda jinsiy tarbiya asoslari haqida fikr yuritadiki, bu o'sha davr matbuoti uchun ma'lum ma'noda musulmon axloqiyigidan tashqaridagi mavzu, ko'nikilmagan yangilik edi.

NATIJARLAR (REZULTATY / RESULTS). Behbudiy o'zining butun hayoti davomida eng ko'p va yuqori darajada e'tibor qaratgan narsa bu mentalitetimizdagi o'zbekning o'zligini belgilaydigan qadriyatlarimiz – to'y va azalarimiz edi. Mahmudxo'ja "Bizni kemiruvchi illatlar (1915)" nomli maqolasini quyidagi so'zlar bilan boshlaydi: "Bizni kemiruvchi illatlar deganda, zaxm-u maraznimi gumon etarsiz? Yoki...Yo'q... biz – turkistoniylarni shahri va qishloqi yoyinki yarim madaniy, yarim vahshiy sinflarimizg'acha istilo etib, butun tirikligimizg'a sorilgon va bizni inqirozg'a va tahlikag'a va jahannamg'a yumalaturgon to'y, azo ismindagi ikki qattol dushmani derman". Ma'rifatparvar fikrini rivojlantirib, "Tangrimiz...Qur'oni Karimda o'z qo'llaringiz ila o'zingizni tahlikaga otmangiz, der. Biz bo'lsa, badbaxtona va Xudoning amrig'a bo'yun qo'ymasdan kofirona bir suratda to'y va azo degan,

yo'q bo'lushimizg'a sabab bo'lgan odatlarga bor-u yo'qimizni sarf va isrof etarmiz". Behbudiy millatdoshlarining bor mol-mulki, eng achinarlisi, qarz-qavolaga botish hisobiga to'y-azalarni o'tkazishi barobarida, har turli bo'lar-bo'lmas marosimlarga, tadbirlarga oltindan aziz vaqtini ham zoye ketkazishiga afsuslanadi. "Ekin birgina kun keyin sepilgan uchun pishmay qolar. Birgina kun so'ngra yig'ilgan uchun yog'inga qolib, ba'zi xirmanlar chirib ketar, – degan Behbudiy vaqtning qadriga yetishni, tejashni boshqa millatlardan o'rganishni tavsiya qiladi, – ...yahudiylar ba'zan o'luklarni oqshom eltib ko'marlar. Na uchun? Kunduzi ishdan qolarlar. Biz bo'lsa, o'luk va to'y uchun haftalar, hatto, oylar ila ishdan qolurmiz". Mutafakkir kundalik turmushdan misollar keltirib, oddiy hayot haqiqatlaridan nazariy umumlashmalar chiqarib, millatdoshlarini aql-u farosat bilan ish ko'rishga undaydi, ogohlikka chaqiradi: "Samarqandda bir mahalla borki, aksar xalqi faqr-u zaruratdan, to'g'risi, aql noqisligidan havlilarini pulg'a qiziqib yahudiylarg'a sotgan uchun mahallag'a oz musulmon qoldi. Mahalla maktabi yo'q bo'ldi. Masjidi-da yaqinda yo'qolur... To'y va ta'ziyag'a sarf qilinaturgon oqchalarimizni biz, turoniylar, ilm va din yo'lig'a sarf etsak, anqarib ovropoyilardek taraqqiy etarmiz va o'zimiz-da, dinimiz-da obro'y va rivoj topar..."[12,3-4-bb]. Behbudiyning bir asrdan avvalroq aytgan bashoratomuz ehtirosli fikrlari hozirda ham o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Aksincha, eng muhim hayotiy muammolarimizdan biri bo'lib turibdi. 2019-yil 14-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi hamda Senat Kengashining "To'ylar, oilaviy tantanalar, maraka va marosimlar o'tkazilishini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qo'shma qarori qabul qilinganligi hamda mazkur qaror va u bilan tasdiqlangan nizom 2020-yilning 1-yanvaridan kuchga kirganligi fikrimiz tasdig'idir[13].

Behbudiyning adabiy tanqid masalalariga bag'ishlangan "Tanqid saralamoqdur" maqolasi tarbiyalilikning alohida namunasidir. Shunisi ibratki, adibning tarixiy-ilmiy mavzuga bag'ishlangan barcha maqolalari o'tmishga kamoli ehtirom va e'tiqod bilan yozilgan. Bu ma'rifatparvarning ruhiyatidagi, tiynatidagi yuksak insoniylikning, ibratli axloqiylikning go'zal namunasi sifatida namoyon bo'lishidir. Dog'istonlik buyuk mutafakkir Rasul Hamzatovning "Sen o'tmishga

to'pponcha o'qtalsang, kelajak seni zambarak bilan otadi", degan hikmatli iborasini ancha avval donishmand bobomiz kundalik amaliy hayotida qo'llaganligi timsolidir.

XULOSA (ZAKLYUCHENIE / CONCLUSION). Dramaturgning «Padarkush» dramasi zamona yoshlarining ilm-ma'rifatli, madaniyatli, odob-axloqli bo'lishi lozimligiga va bunda oila va undagi muhit, birinchi navbatda, otaning oiladagi maqomi, mavqei benihoya katta ekanligiga alohida ahamiyat qaratiladi. "Behbudiya" kutubxonasi ilm ahlining, ziyolilarning, xususan, mahalliy yoshlarning amaldagi ta'lim-tarbiya maskani bo'lganligi ayni haqiqat.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Oyna jurnali, 1913 yil, 1-son.
2. Khalid Adeeb. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidizm in Centarl Asia. - Berkeley: University of California Press, 1998.
3. Hoji Ne'matulloh Muhtaram. Tazkirat ush-shuaro. - Dushanbek, 1975, Sah.61.
4. Хотамов Н. Бухарские джадиды и основные этапы их деятельности. - Душанбе, 2000.
5. Rajabov Q. Yosh buxoroliklar // Buxoro mavjlari. 2005. № 2. - B.26-29.
6. Алимова Д.А. Историческое мировоззрение джадидов и их проекция будущего Туркестана // Туркистон мустақиллиги ва бирлиги учун кураш саҳифаларидан. - Тошкент: Фан, 1996.
7. Inoyatov S., Rajabov Q. Buxoro tarixi. - Toshkent: Tafakkur, 2016.
8. Muxamedjanova L., Alimova M. Buxoroda jadidchilik harakati tarixidan. - Buxoro: Durдона, 2019.
9. Naim Karimov. Mahmudxo'ja Behbudiy. - Toshkent, 2016. - B.52.
10. Samarqand gazetasi, 1913-yil, 30-iyul.
11. Alimova D.A., Rashidova D.A. Mahmudxo'ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri. - Toshkent: Akademiya, 1999. - B. 38.
12. Oyna jurnali, 1915 yil, 13-son. - B. 3-4.
13. To'ylar, oilaviy tantanalar, maraka va marosimlar o'tkazilishini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi hamda Senat Kengashining qo'shma qarori. //Xalq so'zi gazetasi, 2019-yil 15-sentyabr.



BADIIY ADABIYOT VA SINESTEZIYA HODISASI MUNOSABATI TARIXIGA DOIR

Matyazova Gulnora Saparboyevna, ZARMED universiteti o'qituvchisi

ON THE HISTORY OF THE RELATIONSHIP BETWEEN LITERATURE AND THE PHENOMENON OF SYNAETHESIA

Matyazova Gulnara Saparboevna, teacher at ZARMED University

К ИСТОРИИ ВЗАИМОСВЯЗИ ЛИТЕРАТУРЫ И ЯВЛЕНИЯ СИНЕСТЕЗИИ

Матязова Гульнора Сапарбаевна, преподаватель университета
ZARMED



<https://orcid.org/0000-0002-3955-1788>

e-mail:

gulnoramatyazova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur soha doirasida ko'plab nazariy munozaralar olib borilgan bo'lsa-da, empirik dalillar bilan asoslangan tadqiqotlar yetarlicha amalga oshirilmagan. Ulman tomonidan ilgari surilgan sinesteziyaning kognitiv qonuniyatlar madaniyatlararo kesimda keng ko'lamlilik tekshiruvdan o'tkazilishi, bular ichida ayniqsa, katta hajmdagi empirik tadqiqotlarga asoslangan chuqur testlardan o'tkazilishiga ehtiyoj juda yuqori hisoblanadi. Bundan tashqari, turli tillardagi sinesteziyaning madaniy xususiyatlari ham hozircha yetarlicha o'rganilmagan.

Kalit so'zlar: sinesteziya, nazariya, tadqiqot, tamoyil, kognitiv tamoyil.

Abstract: Although there is much theoretical debate in this area, there is a lack of empirically based research. There is a great need for a broad cross-cultural study of Ullman's cognitive regularities of synesthesia, especially in-depth testing based on large-scale empirical studies. In addition, the cultural characteristics of synesthesia in different languages are still poorly understood.

Keywords: synthesis, theory, research, principle, cognitive principle.

Аннотация: Несмотря на то, что в этой области ведется много теоретических дебатов, наблюдается отсутствие исследований, основанных на эмпирических данных. Потребность в широком кросс-культурном изучении когнитивных закономерностей синестезии, предложенных Ульманом, особенно в углубленном тестировании на основе масштабных эмпирических исследований, весьма велика. Кроме того, культурные особенности синестезии в разных языках еще недостаточно изучены.

Ключевые слова: синтез, теория, исследование, принцип, познавательный принцип.

KIRISH. Antropologik fanlar tadqiqi bilan shug'ullangan ko'plab olimlar lingvistik sinesteziyani tasodifiy qonuniyatlarga bo'ysunuvchi va ma'lum tamoyillarga hamda qonuniyatlarga bo'ysunmaydigan til hodisasi sifatida baholashgan. Faqat XX asrda olib borilgan ba'zi empirik tadqiqotlar (Karvoski va boshqalar, Ulman, Osgud, Uilyams) natijasida inson sezgisining kombinator tuzilishi ixtiyoriy tartibsizlik asosida emas, balki

sinesteziya analogiyalarni yaratishda ma'lum qonuniyatlarga asoslangan holda amalga oshadigan tabiiy mexanizm ekani haqidagi xulosalarni keltirib chiqardi. Yuqorida tilga olingan tadqiqotlar orasida eng muhimlaridan biri semantik tilshunoslik sohasining vakili, ingliz tilshunosi Stiven Ulman tomonidan o'tkazilgan [7].

Empirik ma'lumotlarga tayanib, Ulman sinesteziya semantik qonuniga oid muhim ilmiy

farazni ilgari surdi, uning fikricha sinestetik ko'chimlar, odatda, nisbatan boshlang'ich va yuqori sezish darajasigacha yetib bormagan sezgilardan (masalan, teginish, ta'm) yuqori sezish darajasida rivojlangan sezgilarga (masalan, ko'rish, eshitish) tomon rivojlanib boradi hamda bu tadrijiy rivojlanish bir tomonga yo'nalgan bo'ladi, buning aksi esa yuz berishi mumkin emas [7;280 b]. Ulmanning tadqiqotlari sinesteziya masalasini o'rganishda sezilarli hissa bo'lib qo'shilishi bilan birgalikda, keyingi izlanishlar uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunga qaramay, Ulmanning o'zi tan olganidek, uning tadqiqotida u faqat to'rtta mamlakat va uchta til (ingliz, fransuz va venger tillari)ni qamrab olganligi bois o'ziga xos chegaralanish mavjud bo'lgan. Shundan kelib chiqib ta'kidlash lozimki, joriy tadqiqot ishida ham olingan natijalar dunyoda mavjud bo'lgan barcha tillarga oid sinesteziya hodisasiga nisbatan umumiy, tatbiq qilinishi mumkin bo'lgan qoida sifatida qabul qilinishi imkonsiz, bordi-yu bunday farazlar ilgari surilgudek bo'lsa, ularni boshqa tillar misolida qo'shimcha dalillar bilan mustahkamlash lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. 1951-yilda Ulman tomonidan sinesteziyaning kognitiv qonunlariga oid peshqadam tadqiqot olib borilganidan beri sinesteziyaning kognitiv mexanizmlariga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Kognitiv tilshunoslikning rivojlanishi bilan birga, tadqiqotchilar (Gibbs, Kolston va boshqalar) sinesteziya hodisasini Lakoff va Jonsonning metafora nazariyalari nuqtayi nazaridan talqin qilishga urinmoqdalar, chunki sinestezik analogiyalar tabiatan metaforik xarakterga ega.

Qiyosiy-tipologik sath miqyosida olganda sinestezik metafora sohasida amalga oshirilgan birinchi ishlar qatoriga Ulman tadqiqotlaridan ilhomlangan holda, ingliz va nemis tillaridagi sinestezik ko'chish qonuniyatlarini qiyosiy tahlil qilgan Deyning tadqiqotlarini kiritish mumkin [2]. Shuni alohida ta'kidlash joizki, qarindosh bo'lgan tillar sirasiga kiruvchi ingliz va o'zbek kabi tarixan bog'lanmagan, tipologiyasi, yozuv tizimi hamda madaniyati tubdan farq qiluvchi tillar o'rtasidagi kontrast, qarindosh tillar o'rtasidagi solishtirishlarga

qaraganda sinestezik metaforani tushunishda ancha rang-barang va ko'p jihatlarni o'zida aks ettira oluvchi tadqiqot manbai bo'lishi mumkin.

Ulmanning ta'kidlashicha, "biz sinesteziyaga qaysi tomondan yondashmaylik, u bizni o'zining chegaraviy tabiati va qamrovining kengligi bilan lol qoldiradi"[7;266-267b]. Ayni jihatni e'tiborga olib, ishonch bilan ta'kidlash mumkinki, bunday tadqiqotlar odatda kamida to'rtta tutash soha: adabiyot, lingvistika, psixologiya va kognitiv tadqiqotlarni qamrab oladi. Ushbu maqolada sinesteziya va adabiyot rakursida mazkur hodisaning o'rganilishi tarixi haqida so'z yuritilishi maqsad qilingan.

Sinesteziya tilda biz o'ylagandan ko'ra kengroq tarqalgan. Mazkur hodisaning turli tillarda, G'arb va Sharq adabiyotlarida parallellikda rivoj topgan holati ko'plab uchraydi.

Sinestezik metaforalar allaqachon qadimgi davrlarda, xususan, miloddan avvalgi XIX-VIII asrlarga oid Homerning epik asarlarida ham mavjud bo'lgan. Masalan, "Iliada"dagi: "Go'yo o'rmondagi daraxtda o'tirgan chigirtkalar o'zlarining nilufar tovushini chiqaradi"[3] mashhur obrazli tasvirlash sinestezik metafora ko'rinishning nozik namunasi hisoblanadi.

Qadimgi Yunonistonning epik, mifologik va fojiali adabiyotlarida o'sha davrdagi sezgi haqidagi falsafiy qarashlar (sensorika) rivojlangan ekanligi bois sinestezik metaforalar keng qo'llanilga [8]. Qadimgi Rim adabiyotida esa, masalan, arxitekturaning benazir namunalariga nisbatan "muz qotgan musiqa" sinestetik metaforasi qo'llanilgan.

Yevropa klassik adabiyotida ham bunday namunalar yetarlicha uchrashi mumkin, jumladan Shekspirning: "Ba'zan sening nigohing ziyofatdek to'lib-toshib/Keyin esa, ko'z tashlashga zor qolib och qolaman" [4; 152 b.] sonetidan hayratlanmaslik mumkin emas; shuningdek, Rilkening she'rida ifodalangan: "Oq atirgul nafasini / Qo'llar ila tegish/" [1;152 b.] tasviri ham chuqur ta'sir uyg'otadi. Shellining: "Tilim pichoqdek yuragim tubiga kirib, sirni yulib olishi kerak" [5;446 b.] yorqin metaforasi o'quvchini larzaga soladi. Bunday ifodaning yanada qiziqarli o'xshashi Vankuver orolidagi Kvakiutl hindularining tilida uchraydi: "So'zlar mehmonlarga

nayza o'ljani urgandek yoki quyosh nurlari yerni urgandek zarba beradi" [7; 267 b].

TAHLIL VA NATIJALAR. Sinesteziya hatto sinesteziya tasavvurga unchalik qulay bo'lmagan O'rta asrlar davrida ham saqlanib qolgan. Jumladan, Dantening yoki Choserning asarlarida ko'p sezgilar aralashgan obrazlarga duch kelish mumkin. Uyg'onish davridan keyin esa, barokko she'riyati gullab-yashnadi — bu davrda o'ziga xos tasvirlar va noodatiy metaforalar badiiy adabiyotning ajralmas qismiga aylangan bo'lib, bunday metaforalarning aksariyati esa sinesteziya xususiyatiga ega metaforik ko'chimlar bo'lgan.

Undan keyingi davrlarga kelib, Nyutonning tovush va yorug'lik to'lqinlari orasidagi fizik uyg'unlik haqidagi mulohazalari sinesteziya izlanishlarga kuchli turtki bo'ldi. Ushbu fikrlarning o'ziga xos aksi esa, XVIII asrning ikkinchi yarmida G'arbiy Yevropa badiiy adabiyotida yuzaga kelgan romantizm harakati vakillari ijodiy ishlarida to'liq o'zlashtirilgan, natijada esa, san'atning barcha turlarida, ayniqsa adabiyotda sinesteziya asosiy mavzulardan biriga aylangan. O'sha davr adiblari sinesteziya o'xshatishlardan keng foydalanishgan, ba'zida bir necha sezgi turlarini birlashtirgan murakkab metaforalar yaratishgan.

Bunga Shellining "Epipsixidion" asaridagi quyidagi satrlar misol bo'la oladi:

Har bir harakat, hid, nurlar va ohang,
O'sha chuqur musiqaga hamnafas,
Ruhdagi ruhdek — ular go'yo

Tug'ilishdan oldingi tushlarning aks-sadosi [6. 446-449].

Keyinchalik bu uslub tanqidchilardan, jumladan Maks Nordau va Ezra Paunddan salbiy taqriz oldi¹ — ular bu uslubni "so'nish" va "chalkashlik" sifatida baholadi. Shunga qaramay, bu bahslar sinesteziya mavzusiga ilmiy e'tiborning oshishiga olib keldi. Xususan, XIX asrdan boshlab zamonaviy rassomlar, yozuvchilar va shoirlar turli sezgilar orasidagi sirli aloqani o'rganishda davom etmoqda.

G'arb adabiyotida sinesteziya — ya'ni turli sezgi tajribalarining birlashtirilgan ifodasi — qadimgi va zamonaviy tillarda keng tarqalgan. Biroq, shuni alohida ta'kidlash joizki, sinesteziya mavzular tarixiga nazar tashlash, ularning shunchaki misollarini keltirishdan ko'ra, adabiyotdagi rivojlanish jarayoni yanada chuqurroq anglashga yordam beradi.

Semantik nuqtayi nazardan sinesteziya hodisasining ilmiy o'rganilishi borasida dastlabki qadamlar yuqorida avval ham ta'kidlab o'tilganidek, ingliz olimi Stiven Ulman tomonidan amalga oshirilgan. Ulman inson tilida sinesteziyaning keng tarqalishi va turli xil ko'rinishlari ortida umumiy ustuvor tamoyillar yotishini taxmin qilgan. U taxminan o'n uch yil davomida 12 nafar g'arbiy shoir va yozuvchilarning asarlaridan 2000 ga yaqin sinestetik ko'chim holatlarini aks ettiruvchi misollar to'plagan va bu holatlarda muayyan umumiy qonuniyat mavjud ekanligini aniq ifodalab bera olgan. Ulman o'rgangan shoir va yozuvchilar qatoriga Bayron, Kits, Uilyam Morris, Uayld, Dawson, Filips, Alfred Duglas, Artur Simons, Longfello, Lekont de Lil, Gotye va Vereshmarti kiradi [7]. Ular til, uslub va temperament jihatidan bir-biridan farqlanuvchi uslubda ijod qilishgan.

Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish lozimki, Ulman qo'llagan tadqiqot metodologiyasi juda oddiy. U sinesteziya o'lchov me'yorlari sifatida an'anaviy hislar kategoriyalarini olgan, chunki bu sodda va tayyor toifalar bizning psixologik tasnifi-mizga mos keladi. Ulmanga ko'ra, hislar kam differensiyalanganlikdan ko'proq differensiyalangancha farqlanuvchi olti darajadan iborat bo'lib, quyidagi ko'rinishlardan iborat bo'ladi: teri orqali his qilish, issiqlikni sezish², ta'm bilish, hid bilish, ko'rish (akustik sezgi) va ko'rish (vizual sezgi). Ma'lumki, har bir sinesteziya metafora ko'chishiga asos bo'luvchi manba va maqsad bo'lishi kerak, ayni paytda har ikkisi ham inson sensor-his qilish a'zolari vositasida tasniflanuvchi kategoriya hisoblanadi. Ulman tadqiqotida sinestetik metaforalar manba va

¹ Max S. Nordau (1849–1923) Vengriyada tug'ilgan, sionistlar harakati yetakchisi, shifokor, yozuvchi va ijtimoiy tanqidchi bo'lgan. Ezra W.L. Pound (1885–1972) amerikalik muhojir shoir, tanqidchi va ziyoli bo'lib, 20-asrning birinchi yarmida

Modernizm harakatining yetakchi namoyandalaridan biri bo'lgan.

² Ulmanning nazariyasiga ko'ra, issiqlik taftini tuyish bu alohida sezgi organi faoliyati o'laroq kategoriyalangan.

maqsad nuqtayi nazaridan guruhlangan va tahlil qilingan.

Quyidagi jadval Ulman tomonidan tahlilga tortilgan muallifning she'riy asarlarini qamrab oladi,

Manba	Tegish (Touch)	Issiqlik (Heat)	Ta'm (Taste)	Hid (Scent)	Ovoz (Sound)	Ko'rish (Sight)	Jami (Total)
Tegish	-	1	-	2	39	14	56
Issiqlik	2	-	-	1	5	11	19
Ta'm	1	1	-	1	17	16	36
Hid	2	-	1	-	2	5	10
Ovoz	-	-	-	-	-	12	12
Ko'rish	6	2	1	-	31	-	40
Jami	11	4	2	4	94	58	173

Nazariy jihatdan olganda, sinestezik ko'chimlarning 30 turi mavjud bo'lishi kerak. Biroq yuqorida keltirilgan jadval shuni ko'rsatadiki, bu ko'chimlar soni teng proporsionallikda taqsimlangan emas: jumladan yuqorida keltirilgan Ulmanning jadvalida ham ayrim toifalar nihoyatda kam uchraydi, boshqalari esa muntazam ravishda qayd etilgan. Jadvallarning diagonali nafaqat sinesteziya yuzaga kelmaydigan, ya'ni manba va nishon bir xil sezgi sohasi doirasida bo'lgan holatlarni ifodalaydi, balki u ko'tariluvchi va pasayuvchi (tushuvchi) ko'chimlarni ajratib turuvchi chegaraviy chiziq vazifasini ham bajaradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Ulmanning ushbu iyerarxik taqsimlanishga doir ilmiy xulosalari sinesteziya tadqiqotlarida muhim burilish nuqtasini anglatadi. Garchi ba'zi olimlar bunday tendensiyalar mavjudligini ilgari intuitiv tarzda ilgari surgan bo'lishsa-da, aynan Ulman birinchi bo'lib bu boradagi dalillarni keng miqyosdagi empirik tadqiqotlar asosida taqdim etgan.

bu yerda gorizontal o'q maqsad sohasini, vertikal o'q esa manba sohasini ko'rsatadi [7; 281 b].

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Die Blinde. Werke, Insel Verlag, 1957, Bd. I, S. 152 p.
2. Day, Sean. Synaesthesia and Synaesthetic Metaphors. *Psyche: An Interdisciplinary Journal of Research on Consciousness*, Vol. 2, No. 32, 1996.
3. Diogenes Laertes, *Lives of Philosophers*, III. vii, Loeb, vol. I, P237 2002: 75-76)
4. Shakespeare, W., *The Sonnets*, 75 1990: 152.
5. Shelley, R B., *The Cenci. The Complete Poetical Works of Percy Bysshe Shelley*, Thomas Hutchinson ed., London: Oxford University Press, 1927: 296.
6. Shelley: *Epipsychidion*, L446-449. Tarjima muallifniki.
7. Ullmann, S. *The Principles of Semantics*. Oxford: Basil Blackwell, 1957. 348 p.
8. Rahimov, A. A. (2018). Genesis of early linguistic outlook on nominative activity. *Восточно-европейский научный журнал*, (2-5 (30), 27-29.



NOMINATIV FAOLIYATNING EMPIRIK VA RATSIONAL-GENERATIV TALQINLARI

*Rahimov Abror Ahmadovich, Samarqand davlat veterinariya
meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti dotsenti*

EMPIRICAL AND RATIONAL-GENERATIVE INTERPRETATIONS OF NOMINATIVE ACTIVITY

*Rahimov Abror Ahmadovich, Associate Professor, Samarkand State
University of Veterinary Medicine, Animal Husbandry and
Biotechnology*

ЭМПИРИЧЕСКИЕ И РАЦИОНАЛЬНО- ГЕНЕРАТИВНЫЕ ИНТЕРПРЕТАЦИИ НОМИНАТИВНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

*Рахимов Аброр Ахмадович, доцент Самаркандского
государственного университета ветеринарной медицины,
животноводства и биотехнологии*



<https://orcid.org/0000-0002-0594-5535>

e-mail:

Stipendiat.abror@gmail.com

Annotatsiya: Tilshunoslikda sistem-struktur nazariya ustuvor bo'lgan davrlarda biroz e'tibordan chetga chiqqan ushbu antropologik tamoyillarning qayta jonlanishi ratsional-generativ nazariya va uning mantiqiy davomi bo'lgan kognitiv tilshunoslikda kuzatiladi. Inson lisoniy qobiliyati va faoliyatini an'anaviy empirik-induktiv asosda emas, balki ratsional-deduktiv usulda tadqiq etish tashabbusi ilgari surilgan ushbu nazariyaga ko'ra, lisoniy qobiliyat (competence)ni taqozo etadigan til uning ifoda imkoniyati (performance) orqali tadqiq etilmog'i lozim.

Kalit so'zlar: ratsional-deduktivizm, tafakkur, ratsional-generativ, nominativ, empirik, tamoyil.

Abstract: The rational-generative theory and its logical offshoot, cognitive linguistics, demonstrate the resurgence of anthropological ideas that were largely disregarded during the linguistics system-structural theory's supremacy. Language, which necessitates linguistic ability, should be investigated via its expressive potential (productivity), according to this theory, which suggests studying linguistic capacities and human activity on a rational-deductive foundation rather than the conventional empirical-inductive one.

Keywords: thinking, rational-generative, nominative, empirical, rational-deductive, and principle.

Аннотация: Возрождение этих антропологических принципов, которые несколько игнорировались в периоды доминирования в лингвистике системно-структурной теории, наблюдается в рационально-генеративной теории и ее логическом продолжении — когнитивной лингвистике. Согласно этой теории, предлагающей изучать лингвистические способности и деятельность человека не на традиционной эмпирико-индуктивной, а на рационально-дедуктивной основе, язык, требующий языковой компетенции, следует изучать через его выразительный потенциал (производительность).

Ключевые слова: рационально-дедуктивный, мышление, рационально-генеративный, номинативный, эмпирический, принцип.

KIRISH. Narsa va nom munosabatining ratsional-generativ va empirik-ratsional talqinlari o'rta asrlarda Yevropada yuzaga kelgan "nominalistik" va "realistik" oqimlarda kuzatiladi.

Xususan, A.Kenterberiyский tomonidan nomlarning ilohiy porikulyalarga xos universalialar asosida vujudga kelgan mahsullar sifatida talqin etilishi, Per Abelyarning universalialar realiyalar hissiyoti

asosida yuzaga kelgan ikkilamchi mahsullar ekani haqidagi fikri shular jumlasidandir [12; 33]. Ratsional-deduktivizmning keyingi rivoji va takomili R.Dekartning “Kartezian falsafasi”da ko‘zga tashlanadi. U garchi inson gnoseologik faoliyatini hissiy, ratsional, intuitiv bilish hamda bevosita Xudoga murojaat etish kabi vosita va usullarini e’tirof etsa-da, ulardan ushbu hissiy bilishning nobarqarorligini e’tirof etgan holda, unga shubha bilan qaraydi va ratsional bilishning ustuvorligini qayd etadi. Unga ko‘ra, “inson o‘z kuzatishlarini bevosita tafakkur orqali g‘oyaga aylantiradi, bu jarayon tug‘ma qobiliyatiga xos g‘oyalar va borliq g‘oyalari uyg‘unlashuvi asosida sodir bo‘ladi. Shu bois g‘oyalar narsalar hissiyoti asosida emas, balki tug‘ma qobiliyatning ta’sirlanishi, narsalarga xos g‘oyalarning ratsional intuitsiyasini aks ettiradi. Tug‘ma g‘oyaning manbai esa hissiyot yoki ruh emas, balki insonga yaratganning in’omidir. Shuning uchun ham, borliq va inson munosabatini faqat ratsional nuqtayi nazardan izohlash mumkin” [3, 472-473].

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Narsa va nom munosabatining ratsional-deduktiv va empirik-induktiv talqinlariga oid munozaralarning yechimini inson lisoniy qobiliyati va faoliyatini o‘rganish asosida topish mumkinligiga birinchilardan bo‘lib e’tibor qaratgan tilshunos olim V.fon Gumboltdir [13]. Binobarin, ushbu olimning sa’y-harakatlari tufayli ushbu masala “borliq - ruh - tug‘ma qobiliyat - sezgilar - aql-idrok - til” izchilligida talqin qilindi. Uning nazarida “inson real borliqqa ruhning ichki quvvati yordamida o‘z hissiy ta’sirini o‘tkazadi va u haqidagi taassurotni o‘zida mujassamlantirgan ikkinchi bir borliqni, ya’ni lisoniy borliqni vujudga keltiradi”. “So‘z tabiat bilan inson, moddiy borliq bilan ruh o‘rtasidagi haqiqiy bog‘lanishni yuzaga keltiruvchi vosita” bo‘lib, u “inson hissiyoti, fantaziya va tasavvuri orqali shakllanadi”. “Tilning vujudga kelishini dastlab borliqning so‘zda aks etishi va mazkur so‘zlar ishtirokida nutqni shakllantirish tarzida izohlashni tasavvurga sig‘dirib bo‘lmaydi. Zero, so‘z lisoniy yaratuvchanlikning intihosi sifatida bevosita nutq jarayonida vujudga keladi” [4; 341- 430]. V.fon Gumboltdning empirik-ratsional ta’limotidagi ichki

forma haqidagi qarashlarini bevosita so‘z strukturasi ta’biq etgan A.A.Potebnyaning qayd etishicha, insonni fikrlashga majbur qiladigan manba tashqi borliq bo‘lib, uning hissiyotga ta’siri tufayli fikrlaydi. Ushbu jarayonda vujudga keladigan birlamchi mahsul subyektiv faoliyatining boshlang‘ich shaklini taqozo etadigan hissiy obrazdir[8;212]. Keyingisi tasavvur bo‘lib, u hissiy obrazdan kelib chiqishidan tashqari, so‘zda o‘z ifodasini topgan obrazli belgilar va tushunchalardan darak beruvchi vakil sifatida, so‘zning tovush qobig‘i va ma’nosini tutashtiruvchi vosita sifatida, eski va yangi, anglangan va anglanadiganlarning qiyosiy bog‘lovchisi sifatida ham namoyon bo‘ladi [8;218]. Ana shunday izchillikka asoslanuvchi ichki forma narsaga xos barcha belgilar asosida emas, balki ulardan biri asosida shakllanadi. Masalan, “stol” o‘ziga xos shakl-ko‘rinish va materialiga ko‘ra turlicha bo‘lsa ham, uning ichki formasi birgina “stlat” hissiy belgisi vositasida shakllanadi [8;138].

Xususan, N.Xomskiyning ratsional-generativ nazariyasi tilshunoslar diqqatini til tizimi va undagi alohida shakllar tavsifidan bevosita muloqot jarayoni va uning ishtirokchisi bo‘lgan inson ongida kechadigan jarayonlarga qaratish maqsad qilib qo‘yilgani bilan ajralib turadi. Bunday ko‘lamda izlanish olib borish uchun esa inson ongidagi lisoniy sxemalar asosida shakllanadigan botiniy strukturalarning zohiriy transformatsiyasiga asoslanadigan nutqqa e’tibor qaratish talab qilinadi[2;4]. Binobarin, “bola miyasida tilni bilish, tilni egallash imkonini beruvchi tug‘ma asosli ichki sxematizm” mavjud bo‘lgani bois, “xilma-xil nutqlar ta’sirida bolada universal grammatik ko‘nikma uyg‘onadi” hamda “o‘z ona tili bilan birga boshqa tillarni qiyinchiliksiz o‘zlashtiradi”[10;7].

Garchi ratsional-generativ nazariya borliq, tafakkur va til hamkorligi bilan bog‘liq lisoniy faoliyatni nutqning ontogenez va keyingi takomil bosqichlari ko‘lamida tadqiq etishga alohida e’tibor qaratgani bilan ibratli bo‘lsa ham, inson kognitiv qobiliyati va faoliyatining ratsional-deduktiv nuqtayi nazardan talqin etish maqsad qilib qo‘yilgan ushbu nazariya tanqidiy munosabat bildirish lozim bo‘lgan jihatlardan ham xoli emas. Xususan, A.Vejbitskaya ushbu nazariyani “grammatikani inson ongidagi

lisoniy materialni reprezentatsiyalovchi qoidalar tizimi” sifatida talqin qilish orqali “sintaksisni semantika bilan bog‘liq bo‘lmagan algoritmik asosli, formal tizim” sifatida tasavvur qilishga olib keladigan “semantikasiz lingvistika” deb ta’riflaydi[3;10-14]. Darhaqiqat, ushbu nazariyaga ko‘ra lisoniy faoliyatning boshlang‘ich fazasi bo‘lgan nutqning tug‘ma qobiliyatda belgilangan lisoniy sxemalar tufayli dastlab “sodda va jo‘n, keyinchalik murakkab shakllar” izchilligi asosida [10;37] talqin etilishi shunday taassurot uyg‘otadi. Shuningdek, undagi tilni bilish imkonini yaratadigan tug‘ma qobiliyat va unga xos ichki sxematizm ham vazifasi jihatdan tarixiy ratsionalizmdan deyarli farqlanmaydi. Unga xos irsiy asosni belgilashda esa K.Lorensning “jamiyat tadrijiy takomili bilan bog‘liq holda, subyekt bilan bog‘liq bo‘lmagan reallik darajasiga ega bo‘lishi” haqidagi evolyutsion epistemologik farazlarga tayaniladi[6;196].

Buning natijasida esa, “inson tafakkurini uning ongidagi tug‘ma bilim, g‘oyalar zahirasi asosida faollashishi haqidagi R.Dekart falsafasi” va “grammatikani bekam-u ko‘st nutqiy ketma-ketliklarni (gaplarni) tuzuvchi mexanizm” sifatida tasniflaydigan evolyutsion epistemologiya uyg‘unligiga asoslanuvchi hamda “insonni o‘z lisoniy faoliyatining tashabbuskori va ijodkori emas, balki genetik asosli tug‘ma qobiliyatga qaram, ijrochiga aylantirib qo‘yadigan” nazariya yuzaga keladi [11;170-171].

TAHLIL VA NATIJALAR. Shu bois, ikkilamchi nominativ vositalarga xos lingvokognitiv asoslarni belgilashda empirik-ratsional ta’limot tarafdorlari tomonidan (Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, V.fon Gumboldt, A.A.Potebnya) ishlab chiqilgan tamoyillarga tayanishni lozim topdik[2]. Ushbu ta’limotlarda “lisoniy yaratuvchanlikning intihosi” bo‘lgan va “bevosita nutq jarayonida vujudga keladigan” so‘z tavsifiga alohida e’tibor berilishi [4;341-430] nominativ faoliyat tadqiqidan ko‘zlayotgan maqsadimizga ham mos keladi.

Bunday yondashuvning zarurati nominatsiyani “narsa – faoliyat – so‘z” uzviyigidan iborat birlamchi va “so‘z – faoliyat – narsa” uzviyigidan tashkil topgan ikkilamchi fazalardan iborat faoliyat ekani e’tirof etilgani holda, bu

boradagi izlanishlarni ikkilamchi nominativ vositalar doirasida tadqiq etilishi bilan bog‘liq cheklanish orqali ko‘zga tashlanadi. Hozirga qadar tilda birorta yangi lisoniy ramzning ixtiro etilmaganining boisi, “tildan foydalanish unda mavjud bo‘lgan formalardan foydalanishdir” tamoyilining izchil amal qilib kelayotgani bilan bog‘liqdir [5;28]. Biroq bu tamoyil nominatsiyani derivatsiyadan kelib chiquvchi faoliyat sifatida talqin etilishi uchun asos bo‘la olmaydi. Zotan, derivatsiyani vujudga keltiruvchi vosita nominativ faoliyatdir. Shu bois, nominatsiyani diaxron va sinxron fazalar evolyutsion izchilligiga asoslanuvchi faoliyat sifatida tavsiflash orqali uni to‘laqonli yoritib bo‘lmaydi [14].

Insonni “o‘z qadr-qimmatiga ega bo‘lgan yuksak darajadagi zot sifatida shakllantiruvchi”, uning “ongiga til obrazini singdiruvchi” vosita “Geist”, ya’ni “ruh” bo‘lib [4;430], ushbu mo‘jizaviy qudrat tufayli “til inson shuuriga (заложенный в человеке) singdirilgan hodisa”ni taqozo etadi. Shu bois, “uning vujudga kelish sabablarini ming yillar qa’ridan axtarish befoyd” [4;341] bo‘lganidek, uni tug‘ma qobiliyatda belgilangan ichki sxematizmlar asosida izohlanishiga ham qo‘shilib bo‘lmaydi. Insonga til ijodkorligini taqdim etadigan ushbu mo‘jizaviy qudratni ro‘yobga chiqaruvchi dastlabki lisoniy vosita esa hissiyot va aql hamkorligi asosida voqelanadigan nominativ faoliyatdir. Lisoniy faoliyatni empirik-ratsional nuqtayi nazardan talqin etish tajribalari hamda keyingi lingvopsixologik izlanishlarda bildirilgan fikrlarga ko‘ra, mazkur faoliyat o‘zining birlamchi fazasiga nutqning ontogenez bosqichida ega bo‘ladi.

Xususan, A.R.Luriyaning guvohlik berishicha, bolaning ilk lisoniy faoliyati polifunksional xususiyatli g‘o‘ldirashsimon “amorf so‘zlar”ni hosil qilishdan boshlanadi. Keyinchalik ushbu “sinpraktik so‘zlar” o‘rnini “sinsemantik” xarakterli “diffuz so‘zlar” egallaydi. Mazkur so‘zlar izchilligi esa narsa va nom munosabatidagi morfologik kategoriyalarning tiniqlashib, takomillashib borishi asosida kechadi [7; 22-24].

XULOSA VA TAKLIFLAR. Tovushlar hissiyoti asosida vujudga kelgan amorf va diffuz so‘zlarning nom-nutq qorishiqligida hosil bo‘lishi

lisoniy ijodkorlikning intihosi sifatida e'tirof etilgan so'zning nutq bilan birga vujudga kelishi haqidagi V.fon Gumboldtning mulohazasi bilan mushtarak bo'lsa, bolalar tilida itning "wau-wau, waf- waf" tovush belgilari orqali nomlanishi A.A.Potebnyaning ichki forma narsaga xos barcha hissiy belgilar asosida emas, ulardan biri ishtirokida shakllanishi haqidagi mulohazasi bilan mushtarakdir.

A.A.Potebnyaning "стол" nominantini "стлать" hissiy belgisiga asoslanuvchi ichki forma vositasida shakllanishi[8;138], "язвить" (og'ritmoq, azoblamoq) yasamasining "язва" og'riq belgisiga asoslanuvchi ichki forma[8;82] vositasida yasalishi, ichki formaning hissiy obrazlar ichki qiyosi asosida ham vujudga kelishi [8;214] haqidagi tahliliy mulohazalari ham nominativ faoliyatning birlamchi va ikkilamchi fazalari o'rtasidagi ichki bog'lanishni qayd etish imkonini yaratadi. Garchi birlamchi va ikkilamchi nominativ birliklar ichki forma bilan bog'liq motivatsion mohiyat nuqtayi nazaridan farqlansa ham: a) diffuz nomlar, tub va yasama nominantlarga xos ichki formaning narsaga xos barcha hissiy belgilar asosida emas, ulardan biri ishtirokida shakllanishi, b) ularga xos nominativ ma'noning "o'zidan avvalgi va keyingi so'zga ishora qilish xususiyati"ga asoslanishi bilan bog'liq mushtarakliklar nominativ faoliyat fazalari o'rtasida birining faollashuvi ikkinchisi uchun zamin yaratishiga asoslanuvchi bog'lanish borligidan darak beradi. Empirik va ratsional hamkorlik asosida voqelanuvchi nominatsiya vositalari daxl qilib bo'lmaz darajada mo'jizaviy va mukammalki, ularda yashiringan barcha sir-sinoatlarni oxirigacha ochib bo'lmaydi. Zotan, "...inson o'z timsolida ham moddiy, ham ma'naviy xususiyat va alomatlarni mujassam etgan noyob xilqat, Yaratganning buyuk va sirli mo'jizasidir. Shuning uchun ham uning ichki dunyosi, unga ato etilgan fazilat va xislatlarni oxirigacha anglash, tushunishning o'zi o'ta murakkab bir masala"[1].

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. – Toshkent: O'zbekiston, 2008.
2. Chomsky Noam. Knowledge of language: Its nature, origin, and use. – New York: Praeger Scientific, 1986. – 309p.
3. Вежбицкая А. Семантические универсалии и описание языков. Пер. с англ. Шмелева А.Д. под ред. Т.В.Бульгиной. — М.: Языки русской культуры, 1999. — I-XII, 780 с. — ISBN 5-7859-0032-7.
4. Гумбольдт В. Язык и философия культуры. М.: Прогресс, 1985. - 452 с.
5. Кодухов В.И. Общее языкознание. Учебник для студентов филол. специальностей. — М.: Высшая школа, 1974. — 303 с.
6. Кубрякова Е.С. Язык и знание, (на пути получения знаний о языке: части речи с когнитивной точки зрения, роль языка в познании мира). - М.: Языки славянской культуры, 2004. - 560 с.
7. Лурия А.Р. Язык и сознание. / Под редакцией Е.Д.Хомской. —М: Изд-во Моск. ун-та, 1979 - 320 с.
8. Потебня А.А. Из записок по русской грамматике//Хрестоматия по истории русского языкознания. - М.: Высшая школа,1973. – 274 с.
9. Сафаров Ш. Тил назарияси ва лингвометодология. – Т.: Баёз, 2015. – 248 б.
10. Хомский Н. Картезианская лингвистика. - М.: КомКнига, 2005. — 232 с.
11. Хомский Н. Язык и мышление. М.: Изд. МГУ, 1972.- 123 с.
12. Шулежкова С.Г. - История лингвистических учений. – М.: Флинта: Наука, 2008. - 404 с.
13. Rahimov A.A. The role of internal form in formation of secondary nominative units (on the basis of scientific works of Alexander Potebnja) //Practical Conference. Topical Problems of Modern Science and Possible Solutions (September 28–29, 2016, Dubai, UAE). – С. 14.
14. Rahimov A. A. Genesis of early linguistic outlook on nominative activity //Восточно-европейский научный журнал. – 2018. – №. 2-5 (30). – С. 27-29.

ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ЗРИТЕЛЬНОГО ВОСПРИЯТИЯ И КОГНИТИВНЫХ ПРОЦЕССОВ В ТУРЕЦКИХ ВЕРБАЛЬНЫХ ВЫРАЖЕНИЯХ

¹Амирова Нигорахон Саидгани кызы, преподаватель Высшей школы тюркологии
Ташкентского государственного университета
востоковедения

²Абдугофурова Дурдона Музаффар кызы, преподаватель
Высшей школы тюркологии Ташкентского государственного
университета востоковедения

TURKCHA OG'ZAKI IFODALARDA VIZUAL IDROK VA KOGNITIV JARAYONLARNING O'ZARO TA'SIRI

¹Amirova Nigoraxon Saidg'ani qizi, Toshkent davlat
sharqshunoslik universiteti Turkshunoslik oliy maktabi
o'qituvchisi

²Abdug'ofurova Durдона Muzaffar qizi, Toshkent davlat
sharqshunoslik universiteti Turkshunoslik oliy maktabi
o'qituvchisi

THE INTERACTION OF VISUAL PERCEPTION AND COGNITIVE PROCESSES IN TURKISH VERBAL EXPRESSIONS

¹Amirova Nigoraxon Saidgani kizi, Lecturer of The Higher
School of Turkology Tashkent State University of Oriental Studies

²Abdugofurova Durдона Muzaffar kizi, Lecturer of The Higher
School of Turkology Tashkent State University of Oriental Studies

Аннотация: В исследовании продемонстрирована тесная взаимосвязь зрительного восприятия и когнитивных процессов в турецких вербальных выражениях, что подчеркивает критическую роль языка как связующего звена между сенсорным опытом и мыслительной обработкой, обеспечивая эффективную коммуникацию.

Ключевые слова: зрительное восприятие, когнитивные процессы, турецкий язык, вербальные выражения, жесты, мультимодальная коммуникация, зрительные метафоры, языковые конструкции, сенсорный опыт, когнитивная нагрузка, зрительно-пространственные способности.

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda turk tilidagi og'zaki ifodalarda ko'ruv idroki va kognitiv jarayonlarning chambarchas o'zaro bog'liqligi ko'rsatilgan. Bu tilning hissiy tajriba va fikrlash jarayonlari o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in sifatidagi muhim rolini ta'kidlab, samarali muloqotni ta'minlashini ko'rsatadi.



<https://orcid.org/0000-0003-1572-6042>

e-mail:

inni5767@gmail.com



<https://orcid.org/0009-0006-4595-896X>

e-mail:

mavi97d@gmail.com

Kalit so'zlar: ko'ruv idroki, kognitiv jarayonlar, turk tili, og'zaki ifodalar, imo-ishoralar, multimodal kommunikatsiya, ko'ruv metaforalar, til konstruksiyalari, hissiy tajriba, kognitiv yuklama, ko'ruv-makoniylar qobiliyatlar.

Abstract: *This study demonstrates the close interrelation between visual perception and cognitive processes in Turkish verbal expressions, highlighting the critical role of language as a connecting link between sensory experience and mental processing, thus ensuring effective communication.*

Keywords: *visual perception, cognitive processes, Turkish language, verbal expressions, gestures, multimodal communication, visual metaphors, linguistic constructions, sensory experience, cognitive load, visual-spatial abilities.*

ВВЕДЕНИЕ. Выражения турецкого языка показывают, каким образом язык связан с познанием и сенсорным опытом, тем самым предлагая богатую цель, с помощью которой можно исследовать сложное взаимодействие между визуальным восприятием и когнитивными процессами. Эти слова ценны не только своей синтаксической и семантической формой, но и тем, как они отражают когнитивные процессы, используемые носителями языка для объяснения и передачи своих впечатлений об окружающей среде. Это исследование основано на общепринятых лингвистических теориях, особенно тех, которые касаются перцептивных структур когнитивного осознания и лингвистики, предложенных такими учеными, как Топлу [1]. Вербальные выражения в турецком языке включают в себя тонкости, которые отражают визуальный опыт; следовательно, они расширяют наши знания о том, как язык действует как связующее звено между сенсорным восприятием и когнитивным анализом. В турецкой среде, где язык, зрение и когнитивные способности взаимодействуют, образуя единый ландшафт для вербального выражения, соединение языка, зрения и когнитивных способностей чрезвычайно важно с точки зрения культурных и лингвистических элементов. От восприятия к действию турецкий язык отражает многие аспекты визуального восприятия, используя различные вербальные формы и конструкции. Результатом является языковое богатство, которое заставляет переосмыслить способы использования и интерпретации языка. Это помогает проиллюстрировать взаимосвязь языка и познания, позволяя провести тщательное исследование когнитивных процессов, происходящих, когда говорящие формулируют визуально закрепленные мысли. Анализ этих изображений помогает лучше понять теоретическую

базу, лежащую в основе этого исследования, подчеркивая когнитивные и перцептивные аспекты разговорного турецкого языка. Исследования подчеркивают, что зрение не является самостоятельной способностью; скорее, оно тесно связано с когнитивными способностями, которые определяют использование языка. Таким образом, изучение вербальных выражений турецкого языка позволяет выявить не только конкретные методы вербального выражения их когнитивных процессов, но и более общие последствия для понимания универсальности этих событий в разных цивилизациях. Визуальное восприятие очень важно для развития когнитивных процессов, лежащих в основе использования языка. Целью настоящего исследования является выявление особенностей взаимодействия визуального восприятия и когнитивных процессов в турецких вербальных выражениях. Основные задачи исследования:

- проанализировать специфику репрезентации визуальных стимулов в лексико-синтаксических структурах турецкого языка;
- определить роль мультимодальности (жестов и визуальных образов) в когнитивной обработке;
- сопоставить исторические и современные аспекты визуально-когнитивной репрезентации в турецком языке.

Гипотеза исследования заключается в предположении, что в турецком языке визуальное восприятие системно структурируется на уровне грамматических и лексических средств, отражая специфическую когнитивную модель восприятия окружающего мира.

ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ. В турецком языке эта взаимосвязь особенно очевидна, поскольку богатство языковых выражений часто соответствует когнитивным

конструкциям и визуальной информации. Озер и Гексун [2] проводят глубокий анализ того, как вербальные и визуально-пространственные навыки взаимодействуют с носителями турецкого языка, что влияет на их методы общения. Те, у кого были развиты зрительно-пространственные способности, были более искусны в интеграции жестов в вербальную коммуникацию, чем те, кто в значительной степени зависел от вербальных навыков. Это открытие подразумевает, что взаимосвязь между тем, что можно увидеть, и тем, что говорится устно, в значительной степени определяет турецкий язык, богатый пространственными выражениями и контекстуальными аллюзиями. В своем исследовании Озер и Гексун [2,с.903] изучили, насколько по-разному зрительные и вербальные способности влияют на обработку жестов в сравнении с языком, на котором говорят носители турецкого языка. Многие турки передают свои действия или чувства, используя пространственные рамки, что требует от говорящих особого внимания к визуальному восприятию. Например, использование локативных конструкций типа *Şu Kitap Masanın Üstünde* (Эта книга лежит на столе) ясно показывает, как взаимодействие с местоположением формирует структуру языка. Эти структуры не только предоставляют информацию о физическом расположении предметов, но и помогают носителям языка представить себе эти связи, тем самым связывая визуальный опыт с когнитивной обработкой языка. Часто носители турецкого языка используют метафорический язык, основанный на визуальном восприятии, для передачи абстрактных идей. Например, такие выражения, как *Gözümün Önünde Canlanmak* (оживать на моих глазах), основаны на визуальных образах, которые демонстрируют живость мышления, демонстрируя, как когнитивные оценки могут быть закреплены в визуальном опыте. Когнитивные процессы, связанные с такими вербальными выражениями, выходят за рамки простого описания и охватывают оценочные и интерпретационные аспекты коммуникации. Соответствие жестике турецкому языку свидетельствует об одновременной обработке визуальной и вербальной информации, что повышает четкость и привлекательность

сообщений. Озер и Гексун также отметили [2, с. 911], что носители турецкого языка используют жесты как неотъемлемую часть своего общения. Жесты предназначены не только для того, чтобы подчеркнуть вербальное содержание, но и для того, чтобы прояснить и заполнить пробелы в понимании, которые могут возникнуть при абстрактном или сложном вербальном выражении. Результаты показывают, что зрительные впечатления активно формируют структуры турецкого языка, отражая уникальную когнитивную структуру, которая подчеркивает пространственность в общении. Использование ярких визуальных метафор в сочетании с жестами указывает на то, что носители турецкого языка способны использовать свой визуальный опыт для обогащения своих вербальных выражений. Это динамичное взаимодействие позволяет более полно передавать мысль, что особенно важно в контекстах, где ясность и связь с миром восприятия являются основополагающими. Короче говоря, взаимосвязь между зрительным восприятием и когнитивными процессами при использовании языка показывает, как языковые структуры турецкого языка отражают взаимодействие между зрением и мышлением. Работа Озера и Гексуна [2] представляет собой ценное доказательство того, что турецкие вербальные выражения являются не только лингвистическими конструкциями, но и тесно переплетены с визуальным и когнитивным опытом говорящих, способствуя более богатой и многоуровневой форме общения. Такие идеи способствуют более широкому пониманию языка не как изолированной системы, а как неразрывно связанного явления, связанного с сенсорными и когнитивными процессами, которые формируют человеческий опыт. При изучении явлений движения в рамках турецких языковых структур изучение форм глаголов и конструкций проливает свет на сложную взаимосвязь между зрительным восприятием и когнитивными процессами. Так Актан-Экиес и др. [3] говорят, что турецкий язык использует систему суффиксов для обозначения различных аспектов движения, таких как различия и направленность в порядке появления, которые могут живо вызывать мысленные образы у говорящих и слушателей. Турецкие глаголы

часто содержат описания движения, такие как *gitmek* (идти) или *gelmek* (приходить), которые часто объединяются морфемными элементами, указывающими способ передвижения. Добавление суффиксов может передавать оттенки, как если бы движение было завершено или находилось в процессе, а также пройденный путь. Например, глагол с корнем *git* может быть преобразован в *gidiyor* (идёт), что указывает на продолжающееся действие и позволяет более полно отобразить событие в сознании. Оживляя наблюдателя по отношению к движению и усиливая непосредственность изображений, эти лингвистические характеристики облегчают когнитивное отображение описываемого события. Кроме того, в турецком языке представлена эргативно-абсолютная система, которая может указать путь движения через сложное взаимодействие форм глаголов и тем. Когда говорящий ссылается на событие движения, он часто выбирает определенную структуру, которая выдвигает на передний план направление движения, касающееся говорящего и слушателя, тем самым способствуя созданию общей ментальной репрезентации. Например, использование суффикса *-e* в *Bakkala gideğim* (я пойду в магазин) не только иллюстрирует будущее время, но и указывает на пункт назначения, позволяя слушателям увидеть траекторию действия как в пространстве, так и во времени. Кроме того, Актан-Экиес и др. [3] отмечают, что эти конструкции движений часто обогащаются за счет включения визуальных деталей. Благодаря стратегическому выбору прилагательных и описательных наречий выступающие могут задействовать сенсорные аспекты, которые подчеркивают образы движения. Такие фразы, как *Hızla Koşarak* (бегущий быстро), повышают уровень когнитивной проработки, вовлекая зрительное восприятие слушателей, тем самым наполняя языковое выражение и ментальные образы. Когнитивные процессы, о которых идет речь, сложны и отражают сущность говорящего; они задействуют память и восприятие, заставляя слушателей выстраивать свое представление об описываемом событии. Таким образом, лингвистические структуры, связанные с событиями турецкого движения, не только отражают динамику визуального восприятия, но

и запускают когнитивные процессы, которые повышают эффективность коммуникации. Подробные морфологические и синтаксические характеристики турецкого языка позволяют говорящим передавать насыщенные и красочные образы, которые переключаются с когнитивными картинками слушателей, способствуя более глубокому пониманию и взаимодействию в процессе общения. Эти результаты подчеркивают важность изучения языка как инструмента, который сложным образом переплетает сферы видения и мышления, выявляя глубокие связи, устанавливаемые с помощью вербальных выражений в турецком языке.

Материалом исследования стали современные устные и письменные тексты турецкого языка, а также данные эмпирических работ по когнитивной лингвистике [2; 4; и др]. Отбор эмпирических данных осуществлялся по принципу репрезентативности визуально-когнитивных паттернов в коммуникации. Методологическую основу составили:

- дискурсивный анализ лексико-синтаксических конструкций;
- когнитивный анализ концептуальных метафор и мультимодальных репрезентаций;
- элементы сравнительно-исторического подхода при анализе древнетюркских источников.

Исследование глаголов визуального восприятия в контексте древнетюркского языка Анатолии дает важные идеи об исторической эволюции этих выражений и их когнитивном значении. Эмексиз и Рентш [4] провели исчерпывающий анализ трансформации глаголов визуального восприятия, который иллюстрирует, как эти лингвистические структуры не только передают чувственный опыт, но и инкапсулируют когнитивные процессы, связанные с представлением, с течением времени. При рассмотрении этих глаголов в их историческом контексте становится очевидным, что они служат лингвистическим мостом между внешним миром визуального восприятия и внутренним миром когнитивной обработки. В древнетюркском ана-толийском языке имелось богатое количество глаголов визуального восприятия, которые сильно зависели от

контекста и часто отличались нюансами значения. Например, такие глаголы, как *görmek* (видеть), не только ограничивались актом визуального восприятия, но и передавали уровни интерпретации, связанные с приобретением и пониманием знаний. Лексикон отражает культуру, в которой представление метафорически связывалось с видением и пониманием. Например, фраза *gözümle görmek* (увидеть своими глазами) подразумевает более глубокое когнитивное осознание реальности, выходящее за рамки простого визуального подтверждения. Эта фраза иллюстрирует, как зрительные представления тесно связаны с процессами когнитивной проверки. Эмексиз и Рентш [4, с.59] также указывают на частое использование визуальных метафор в рамках древнетюркского языка Анатолии, что демонстрирует параллельное развитие языковых и когнитивных схем. В словесных выражениях, встречающихся в исторических текстах, часто используются изображения для облегчения мыслительных процессов, что приводит в соответствие визуальное восприятие с когнитивными функциями. Фразы, которые отождествляют ясность видения с ясностью мысли, подчеркивают когнитивную модель, в которой акт видения усиливает понимание, прочно связывая чувственный опыт с когнитивной оценкой. Взаимодействие между визуальной и когнитивной областями отражает культурное понимание окружающей среды, поэтому оно показывает, что язык – это социальный феномен, который развивается вместе с человеческим восприятием и мышлением. Языковые структуры, присутствующие в литературных произведениях и исторических документах, служат не только средством коммуникации, но и зеркалом для когнитивных моделей, отражающих время. Историческое использование этих глаголов визуального восприятия предоставляет информацию о социальных ценностях и мировоззрении в старых тюркоязычных общинах Анатолии. Трансформация этих глаголов в современный турецкий язык иллюстрирует преемственность и адаптацию когнитивно-лингвистических связей. По мере развития языка некоторые из сложных ассоциативных значений, укоренившихся в древнетюркском анатолийском, изменились или уменьшились, но фундаментальные когнитивные связи между

актом видения и процессом понимания остаются неизменными. Современные выражения демонстрируют постоянную приверженность визуальному восприятию, хотя и сформулированы в соответствии с современными контекстами и коммуникативными потребностями. Современные значения включают в себя уровни символического понимания, аналогичные уровням понимания их исторических предшественников, что подчеркивает постоянное влияние визуального восприятия на когнитивное выражение с течением времени. Это исследование подчеркивает, что турецкие вербальные выражения, связанные с визуальным восприятием, дают глубокие представления о психологических и когнитивных ландшафтах, сформированных языком. Анализируя исторические аспекты и их эволюцию, исследователи могут обнаружить прочные связи, которые объединяют визуальное восприятие и когнитивные процессы, утверждая, что язык является живым хранилищем коллективных знаний и индивидуального понимания. Когнитивные ресурсы играют фундаментальную роль в понимании и производстве как визуальной, так и вербальной информации, особенно в контексте говорящих на турецком языке, которые часто работают в сложных информационных условиях. В исследовании Озера и Гексуна [2] изучается, как когнитивная нагрузка, связанная с обработкой визуальных стимулов, влияет на вербальное выражение. Их результаты показывают, что более высокие когнитивные нагрузки могут привести к большей зависимости от невербальных сигналов, таких как жесты, чтобы разгрузить некоторые когнитивные потребности, связанные с общением. Эта зависимость может быть особенно заметна в турецких вербальных выражениях, в которых мультимодальная интеграция визуального восприятия и языковых конструкций становится решающей для эффективного взаимодействия. Кроме того, Ишабилир и др. [5, с.395] представили данные, свидетельствующие о том, что, когда перед носителями турецкого языка стоит задача перевода визуально насыщенных сценариев на вербальный язык, запросы на когнитивные ресурсы усиливаются. Когнитивная нагрузка,

испытываемая во время этих процессов, часто включает в себя использование более упрощенных фразовых структур, которые могут не полностью отражать сложность визуальной информации, подлежащей разработке. Взаимодействие между жестом и языком становится особенно примечательным в этих случаях, поскольку говорящие могут использовать жесты для интеграции словесных описаний, тем самым увеличивая нагрузку на когнитивные ресурсы и способствуя наиболее четкой коммуникации. Турецкий язык, с его богатыми морфологическими особенностями и гибкостью синтаксиса, допускает различные способы кодирования визуальной информации, которые могут адаптироваться к коммуникативному контексту и когнитивным требованиям, предъявляемым к говорящему. Тенденция носителей турецкого языка использовать жесты не только поддерживает языковую продуктивность в ситуациях с высокой когнитивной нагрузкой, но и воплощает в себе форму когнитивной стратегии, используемой для повышения эффективности риторики и гарантии ясности передаваемой информации. Эта динамика между когнитивной нагрузкой и развитием языка подчеркивает значение лингвистических структур, возникающих на стыке зрения и мысли. Благодаря изучению этих феноменов становится очевидным, что когнитивные ресурсы, доступные говорящим, сильно зависят от сложности визуальной информации и связанных с ней вербальных запросов. Поскольку носители турецкого языка описывают сложные сцены или повествования на нескольких уровнях, возникающее когнитивное напряжение требует пересмотра коммуникативных стратегий, которые могут включать в себя приоритет некоторых языковых форм или интеграцию визуальных жестов для поддержания понимания. Таким образом, результаты исследований Озера и Гексуна [2] и Ишабилира и др. [5] отмечают, что когнитивная нагрузка значительно усредняет процессы продуцирования и понимания языка, усиливая взаимодействие между визуальными стимулами и когнитивными картинками в турецких коммуникативных контекстах. Эта взаимосвязь не только проливает свет на когнитивные механизмы, о которых идет речь, но и

подчеркивает лингвистическую адаптацию, которая облегчает фактическую передачу сложной визуальной информации в рамках турецкого языкового ландшафта. Понимание взаимосвязи между языком, зрительным восприятием и когнитивными процессами имеет решающее значение для понимания того, как работает коммуникация в различных языковых контекстах. Турецкий язык, обладающий богатой морфологической сложностью, представляет собой интересный пример для изучения того, как события движения артикулируются и когнитивно разрабатываются. Недавние исследования, такие как исследование, проведенное Юналом и др. [6], начали раскрывать сложную динамику между вербальными выражениями движений глаз и телодвижениями, отражающими лежащие в основе когнитивные механизмы, которые способствуют интеграции визуальных стимулов и языка.

ОБСУЖДЕНИЕ. В конечном счете, то, как используется турецкий язык, демонстрирует тесную взаимосвязь между визуальным восприятием и когнитивными процессами, что позволяет получить представление о механизмах познания и коммуникации с помощью жестов в сочетании с вербальной репрезентацией. Анализ, особенно если рассматривать его через уникальную призму турецких вербальных выражений, подчеркивает сложные способы взаимодействия жестов и речи, которые опосредуют наше понимание мира. Это побуждает к дальнейшим исследованиям того, как лингвистические структуры и когнитивные структуры в совокупности влияют на наше понимание мира. Лингвистические структуры турецкого языка, несомненно, служат сложными структурами, с помощью которых люди выражают свой чувственный опыт и когнитивные оценки, а не просто средством коммуникации. Анализ турецких словосочетаний, связанных со зрением, и когнитивных последствий, которые за этим следуют, выявляет тесную взаимосвязь, которая расширяет наши знания о человеческом восприятии в языковой среде. У тюрков есть особые черты, которые отражают когнитивные структуры, поддерживающие использование визуального языка. Например, то, как

когнитивные процессы функционируют в контексте визуальной информации, может быть раскрыто в языковых выражениях с помощью пространственных метафор и восприятий. Слова, передающие зрительные впечатления, не являются произвольными; скорее, они являются результатом когнитивного и культурного картографирования, которое формирует представление об опыте. Это лингвистическое отображение раскрывает основные когнитивные процессы, которые люди используют для осмысления окружающего мира, создавая, таким образом, критическую связь между тем, что они видят, и тем, о чем думают. Более того, нельзя недооценивать ту роль, которую культура играет в организации этих речевых проявлений. Согласно Озюреку и др. [7], культурные аспекты турецкого языка влияют на то, как воспринимается визуальная информация и как она передается. То, как носители турецкого языка структурируют визуальный опыт в диалоге, свидетельствует о когнитивном приоритете определенных особенностей восприятия, имеющих культурное значение. Такие культурные представления побуждают к дальнейшим исследованиям того, как носители турецкого языка могут отличаться от носителей других языков в использовании визуальных сигналов и когнитивных моделей. В частности, при изучении того, как меняются эти словесные выражения на различных диалектах или в рамках отдельных демографических групп в тюркоязычных сообществах, перспективы исследования представляются блестящими. С помощью языка мы исследуем, как возраст, образование и географические факторы влияют на визуальное восприятие и когнитивные процессы для генерации важных идей. Кроме того, расширение сферы исследования за счет включения психолингвистических теорий и компьютерной лингвистики могло бы помочь прояснить когнитивно-лингвистическую связь, наблюдаемую в турецких устных высказываниях. Возможно, было бы интересно расширить текущие исследования, чтобы выяснить, как носители турецкого языка воспринимают многоязычие и как это влияет на когнитивно-лингвистическое развитие. Владение многими языками обеспечивает когнитивную гибкость, которая помогает понять

различные методы когнитивной обработки и их влияние на визуальное восприятие и вербальное выражение. Это могло бы привести к лучшему пониманию того, как люди изменяют свои вербальные выражения в ответ на различные языковые требования и как это влияет на их когнитивные функции.

РЕЗУЛЬТАТЫ. В ситуации, когда описывается “кошка, прыгающая на забор”, взгляды участников перемещаются в направлении, указанном в выражении, что свидетельствует о четком взаимодействии между разговорной речью и зрительным вниманием. Анализ, представленный в работе Юнала и др. [6], показывает, что, поскольку говорящие произносят фразы, которые кодируют движение, их движения глаз не случайны, а скорее систематически зависят от словесного содержания. Эти данные подтверждают теорию о том, что вербальные выражения в турецком языке не только отражают языковые изменения, но и помогают более эффективному пониманию посредством когнитивной привязки к визуальным особенностям. Кроме того, было установлено, что для привлечения зрительного внимания участников были использованы различия, связанные с использованием турецкого глагола в таких элементах движения, как скорость, непрерывность и вид движения. Эти результаты свидетельствуют о том, что языковые модели, связанные с турецким языком, способствуют более аналитическому отношению к зрительному восприятию. Участникам было настоятельно рекомендовано сосредоточиться на элементах, которые соответствуют пути или направлению описываемой деятельности, тем самым укрепляя взаимосвязь между языком и когнитивными процессами. Согласно Юнала и др. [6], турецкие вербальные выражения занимают область визуального восприятия и когнитивной обработки, что позволяет понять, как речевые действия не только передают информацию, но и моделируют перцептивный опыт говорящих и слушателей. Повторяя более общие идеи когнитивной лингвистики, которые поддерживают динамическое взаимодействие между вербальным выражением и процессами восприятия, наблюдаемые модели движений глаз в сочетании с лингвистическим кодированием двигательных событий являются убедительным

Аннотация: Ўзбек тарихшунослиги кейинги йилларда юртимиз тарихининг барча қирраларини холисона ёритиб беришда катта ютуқларга эришган бўлса-да, мустақил Ўзбекистонда тарихий-меъморий обидаларни таъмирлаш ва қайта тиклаш тарихига оид масалалар ҳанузгача тарихшуносликда илмий асосини деярли топмаган. Мақола ушбу масала ечимини топишга қаратилган.

Калим сўзлар: Ўрта Зарафшон воҳаси, халқ меъморчилиги, тарихий-меъморий обидалар, таъмирлаш, қайта тиклаш, эволюцион тараққиёт.

Abstract: Although Uzbek historiography has achieved great success in recent years in objectively covering all aspects of the history of our country, issues related to the history of the repair and restoration of historical and architectural monuments in independent Uzbekistan have still not found a scientific basis in historiography. The article is aimed at finding a solution to this issue.

Keywords: Middle Zarafshan oasis, folk architecture, historical and architectural monuments, repair, restoration, evolutionary development.

Аннотация: Хотя узбекская историография за последние годы достигла больших успехов в объективном освещении всех сторон истории нашей страны, вопросы, связанные с историей ремонта и реставрации историко-архитектурных памятников в независимом Узбекистане, до сих пор не нашли в историографии научной основы. Целью статьи является поиск решения этой проблемы.

Ключевые слова: Среднезарафшанский оазис, народное зодчество, историко-архитектурные памятники, ремонт, реставрация, эволюционное развитие.

КИРИШ. Ўрта Зарафшон воҳасида жойлашган меъморий иншоотларга бевосита археологик обидалар, тепаликлар, мазор қўрғонлар тарихий архитектура ёдгорликлари – масжид, мадраса, хонақоҳ, намозгоҳ, сардоба ва

бозорларни киритишимиз мумкин. Зарафшон воҳасининг илк қадимий шаҳарларини ўраб турган ва уни атрофдаги кўчманчилардан ҳимоя қилиб турган Кампирак деворини девор харобалари ҳозирги вақтда воҳанинг турли

худудларида учрайди. У халқ орасида “Кампирак”, “Кампирдевор”, “Девори Кампирак” номлари билан машҳур. Тарихий китобларда Бухоро атрофида турли даврларда иккита девор барпо этилгани қайд этилган¹. Улардан бири бўлган “Кампирак девор” анча қадимийроқдир. Иккинчиси эса VIII-IX асрларга оид ҳисобланади. Девор миноралар кўринишидаги қалъалар ва истехкомлар каби қўшимча ҳимоя иншоотларига ҳам эга бўлган. 1930 йилларнинг охирида, Москва, Ленинград ва Ўзбекистон олимларининг ҳамкорлигида бир нечта археологик ёдгорликларни ўрганиш ва таъмирлаш ишлари бўйича А.Ю.Якубовский бошлиқ Зарафшон экспедицияси ташкил этилади. Экспедиция асосан Зарафшон дарёси қуйи оқимининг чап томонини текширган². Экспедициянинг ўрганиш бўйича белгиланган йўл харита чизмасида Карманадаги Ҳазора қишлоғи Диггарон масжиди деб кўрсатиб ўтилган. Экспедиция раҳбари А.Ю.Якубовский ўзининг тадқиқот ишлари ҳисобот маълумотномасида ушбу ёдгорлик тўғрисида биринчи бўлиб тўлиқ маълумот бериб ўтади³. А.Ю.Якубовский ўзининг масжид тўғрисидаги ўрганишлар бўйича қолдирган ҳисоботларида бинонинг жойлашган архаик позициясига қараб “Бу гўзал бино тимсолида бизда Исмоил Сомонийдан ёш бўлмаган, балки ундан ҳам каттароқ меъморий ёдгорлик бор”, - деган хулосага келади.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ. Ҳисоботга илова қилинган фотосуратлар ва чизмалар масжидни VIII-XIX асрларга тааллуқли деб кўрсатиб ўтилади. Хусусан, ўтган асрнинг 20-йилларида И.И.Умняков⁴, орадан олти йил ўтгач эса, Н.Б.Немцева⁵ ўзларининг тарихий-археологик тадқиқотларида Работи Малик қарвонсаройи, Мир Сайид Баҳром мақбараси

қурилиш даври, ўлчамлари, ушбу ёдгорликлар топографияси, уларнинг тарихий аҳамиятига тўхталиб ўтганлар. Аммо муаллифлар ушбу ёдгорликларнинг қурилиши тарихи, кимлар томонидан бунёд этилгани тўғрисида фикр билдирмаганлар. Шунингдек, А.Писарчик⁶ ўз тадқиқотларида Кармана обидаларининг меъморий хусусиятларига тўхталган, аммо бу обидаларнинг ким томонидан қурилганлигига ишора қилмайди. А.К.Писарчик томонидан ўрганилган мақбарага тегишли бўлган ўз муаллифлиги остида чоп этган иккита режа ва бир нечта фотосуратлар илова қилинган “Памятники Кармине” рисоласи мақбаранинг қисқача тавсифи бугунги кунда ёдгорлик ҳақидаги ягона адабий маълумотни ташкил этади.

МУҲОКАМА. Бугунги кунда дунё миқёсида қадимий шаҳарларни қайта қуриш ва модернизациялашда тарихий жойлар структурасини сақлаб қолиш ва меъморий-бадий кийматларга эга бўлган ёдгорликлардан самарали фойдаланиш ниҳоятда долзарб ҳисобланади. Ҳозирда жаҳон меъморчилигида қадимдан шаклланиб келган худудлар, жумладан, Мемфис, Бобил, Рим, Афина, Париж, Лондон, Вена, Ереван, Истамбул, Искандария, Балх, Боку, Дехли, Исфаҳон ва бошқа шаҳарларни ўрганилган тадқиқот натижаларидан келиб чиққан ҳолда муҳофаза қилиш ва уларнинг режавий ечимига эътибор бериш эҳтиёжи туғилмоқда.

Бу борада тарихий шаҳарларда муҳим аҳамиятга эга бўлган марказлар, мажмуалар, мукаддас қадамжолар, архитектура ёдгорликларини таъмирлаш, археологик қазилма ишларида аниқланган бино ва иншоотларни қайта тиклаш зарурати намоён бўлмоқда⁷. Жаҳон миқёсида тарихий шаҳарларнинг пайдо бўлиши,

¹ Ражабов Қ., Максутов Р. Қизилтепа тарихи – Тошкент: Мухаррир, 2011.Б.12. // М.Ҳожиёв., А.Нурмухаммадиев., М.Ҳошимова. Қизилтепа худудида сақланиб қолган “Кампир девор” ҳақида. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, Scientific Journal Impact Factor Advanced Sciences Index Factor. Volume 2 | Issue 5, May, 2022.*

² Якубовский А.Ю. Археологическая экспедиция в Зарафшанскую долину в 1934 г. ТОВЭ.Т.II.Л.1940.

³ Захидов П.Ш. Архитектурные памятники Зарафшанской долины.- Ташкент: Узбекистан, 1985.- Б.132.

⁴ Умняков И.И. К исторической топографии средневековой Бухары. Труды Туркестанского восточного института.-

Ташкент: 1925.-С.32. Ўша муаллиф: Рабат-и-Малик.-Сб.В.В.Бартольд – его ученики и почитатели.-Ташкент: 1927.-С.30.

⁵ Немцева Н.Б. Рабат-и-Малик. В кн: *Художественная культура Средней Азии IX-XIII века: [сборник статей].* - Ташкент: 1983.-С.112-120.

⁶ Писарчик А. Памятник Кармине. Сообщения Института истории и теории архитектуры...вып.4. – Москва: 1945.- С.23-25.

⁷ Матмусаев Т.Ш. Ўзбекистон тарихий шаҳарларининг шаклланиши ва ривожланиши. 18.00.01–архитектура назарияси ва тарихи. Архитектура ёдгорликларини

эволюцион таракқиёти, меъморчилик тизимларини сақлаш, қайта куриш ва модернизациялашга бағишланган илмий тадқиқотларда шаҳарларнинг генетик асосларини аниқлаш, ўрта асрларга мансуб ҳудудларни тиклаш, тарихий ва замонавий биноларни бир-бири билан уйғунлаштириш, ёдгорликларнинг муҳофаза зонасини аниқлаш, сайёҳлик маршрутларини тузиш, муҳандислик тармоқлари, йўл инфраструктурасини такомиллаштириш ва бошқалар муҳим аҳамият касб этмоқда. Ушбу тадқиқотларда қадимий шаҳарлар барқарорлигини таъминлаш, илк шаҳарларнинг вужудга келиш ва таракқий этиш жараёнларини, меъморчилик тарихидаги янгича илмий ёндашувларни тадқиқ этиш, кўҳна шаҳарларнинг режавий структурасига аниқликлар киритиш ва уларнинг замонавий шаҳарсозлик маданияти ривожига таъсирини очиб бериш, тарихий ҳудудларнинг сайёҳлик имкониятларини ошириш, меъморий ёдгорликлардан самарали фойдаланиш масалалари долзарб вазифалардан бири бўлиб қолмоқда.

Қадимги маданият ўчоқларидан бири бўлган Ўрта Зарафшон воҳаси худди шундай меъморий-бадий қийматга эга бўлган архитектура ёдгорликларига ниҳоятда бой ҳудудлардан бири ҳисобланади⁸. Воҳада халқ меъморчилигининг энг қадимий архитектура ёдгорликларидан эрамиздан аввалги IX асрдан то ҳозирги вақтгача барча тарихий даврларнинг ёдгорликлари мавжуд. Ўрта Зарафшон ҳудудининг таркибий қисми сифатида тилга олинадиган Бухоронинг тарихий ўтмиши ва ҳозирги даври кўплаб тарихий манба ва адабиётларда ўз аксини топган. Ўрта Осиёнинг тарихий ёдгорликлари Россия империя даври тарихчилари, топографлари ҳамда шарқшуносларни узоқ йиллар давомида қизиқтириб келган.

Рус шарқшуноси академик В.В.Бартольд ва бошқа рус тадқиқотчилари асарларида қадимги қалъа ва харобалар кўплаб тилга олинади. К.А.Иностранцев, Н.Веселовский,

таъмирлаш ва тиклаш. Архитектура бўйича фан доктори (DSc) диссертацияси автореферати.-Тошкент: Академия. 2019,Б.5.

⁸ Арциховский А.В. Археология асослари.- Тошкент: Ўқитувчи, 1970.-Б.268.

П.Лерх, В.В.Тарн, Захау, Томашек ва Маркварт тадқиқотлари бунга мисол⁹. Шарқшунос Н.Веселовский эса Бухоронинг ўтмиши ва бугунини ўрганиш борасида анча меҳнат сарфлайди¹⁰. “Эндиликда Бухорода ҳукмронлик қилаётган Манғитлар сулоласи”(1878), “Бухорода Қурбон байрами”(1888), “И.Д.Хохлов XVIII асрда Русиянинг Эрон ва Бухородаги Элчиси”(1891) ва ҳоказо асарлар ва ўрганишлар унинг қаламига мансубдир. Шундай шарқшунослардан яна бири академик К.Г.Залеман бўлиб (1849-1916) бу олим бор-йўғи икки маротаба, Бухорога ташриф буюрган бўлса-да, Зарафшон воҳаси тарихига оид қўлёзмаларни ўрганиш борасида самарали ишларни амалга оширади. Россия давлат ҳарбий тарих архиви жамғармаларида сақланаётган ҳужжатлар, ёзишмалар, статистик маълумотлар ўзининг сақланиши ва мазмуни нуқтаи назаридан нафақат бизнинг тадқиқот ишимиз учун, балким тадқиқотчи тарихчилар учун ниҳоятда бебаҳо ва нодир топилма ҳисобланиб, улар XIX аср иккинчи ярми — XX аср ўрталарида Бухоро амирлиги ҳудудига кириб кетадиган, Ўрта Зарафшон воҳаси тарихини янгича фикр ва талқин асосида янада чуқурроқ ўрганиш ва уни яратиш учун муҳим тарихий манба сифатида хизмат қилади. Кўҳна Зарафшон дарёси оқиб ўтадиган, яхлит водий (воҳа) қадимдан маъмурий давлатчилик заруратидан асосан беш катта бирликка, яъни тарихий Самарқанд, Миёнқол, Кармана, Бухоро ҳамда Қорақўл вилоятларига бўлиниб, ушбу шартли бўлиниш турли даврларда ҳукм сурган Тоҳирийлар, Сомонийлар, Қорахонийлар, Салжуқийлар, Чигатойлар, Темурийлар, Шайбонийлар, Аштархонийлар, Манғитлар сулолалари замонасида таркибий жиҳатдан ўзгаришларга учраса-да, ўз географик хусусиятлари билан мамлакат маъмурий қиёфасига мунтазам таъсир ўтказиб келган.

Бундан кейин янги терминология сифатида қайд этиладиган “Ўрта Зарафшон воҳаси”нинг Кармана, Зиёвуддин бекликлари ва Конимех, Қорақўл, Пирмаст, Ғиждувон, Ванғозе, Вобкент, Шофиркон, Ёртепа каби 9 та

⁹ Радлов В.В. Средняя Зарафшанская долина. – Записки Русского географического общества по отделению этнографии Т.IV, 1880.

¹⁰ Тўраев Х. Бухоро тарихи (ўқув қўлланма).- Бухоро:Дурдона, 2020.-Б.31.

туманликка бўлинган маъмурий қисмлари Бухоро амирлиги таркибига кирган эди¹¹. Тарихий сабабларни тавсифлашдан аввал, Кармана шаҳри Ўрта Зарафшоннинг қайси географик маконини қамраб олган, деган савол туғилиши табиий. Миёнкол вилояти¹² Оқдарё ва Қорадарёга айрилган Зарафшонни шакллантирган ўзига хос каттакон дарё ороли сифатида теваракдаги худудларни қамрагани назарда тутилса, Кармана моҳиятан ҳозирги Мирбозор яқинидаги Чаҳорминор мавзеидаги Дабусия қалъасидан то Ғиждувон музофотининг дарё устидаги Эшонқўприк, яъни Қизилтепа билан Ғиждувон туманларини ажратиб турувчи чегарасигача бўлган каттакон суғорма маданий худудни теваракдаги тоғлар ва даштлар билан яъни ҳозирги Пахтачи, Хатирчи, Навбахор, Навоий, Қизилтепа, Конимех туманларини тўлиқ, Нуробод тумани, Қарнаб даштини қисман ўз бағрига жамлаган маъмурий худуд бўлган. Бу худудга эса Кармана, Остона, Парда, Девхона, Бичанчи, Қарнаб, Маликчўл ва Ўртачўл даштлари ва бодиялари жойлашган ҳамда чорвачилик, хусусан кўйчилик худди деҳқончилик сингари бошқа вилоятларга қараганда анча ривожланиб келган¹³. Шу билан биргаликда Ўрта Зарафшонни азалдан, Самарқанд воҳасини шимолий томондан Туркистон тизмасининг давоми бўлган Ғубдинтоғ, Оқтоғ, Қоратоғ, жанубий томондан эса Зарафшон тизмасининг давоми бўлган Қоратепа, Зирабулок, Зиёвуддин тоғлари ўраб турган.

НАТИЖАЛАР. Ўрта Зарафшон воҳаси, Кармана тумани худудида торайиб, Қизилтепа ва Офтобоч қирлари яқинлашган қишлоқ ёнида Ҳазора йўлагини ҳосил қилади¹⁴. Ўрта Зарафшон воҳаси тарихини ўрганишда XIX аср охири —

XX аср бошларида ёзилган ва яратилган ёзма манбаларни шартли равишда иккига бўлиш мумкин. Биринчи тоифага бевосита рус тилида ёзилган ёзма асарлар мажмуасини, иккинчи тоифага эса маҳаллий олимлар, тарихчилар, ўлкашунослар томонидан маҳаллий тилда ёзилган асарларни киритиш мақсадга мувофиқдир.

Биринчи тоифага оид рус тилида битилган ёзма манбалар мажмуасига ўша даврда яшаб, ҳарбий ҳаракатлар ва мустамлака сиёсатини амалга оширишда иштирок этган ва унга гувоҳ бўлган рус ҳарбийлари, амалдорлари, рус олимлари ҳамда тарихчилари томонидан ёзилган ва яратилган тарихий асарлар, эсдаликлар, хотиралар, расмий хабар ва ҳисоботлар киради¹⁵. Ушбу гуруҳга мансуб ишлар бугунги кунда ҳақиқий маънода ҳар қандай илмий тадқиқот учун манба бўлиб хизмат қилади, чунки кутубхоналар ва айрим музейларда ушбу асарларнинг бир неча нусхаларигина сақланиб қолган, холос. Бу асарлар ўша даврнинг тирик гувоҳлари, тарихий жараён иштирокчилари томонидан ёзиб қолдирилганлиги билан қадрли ҳисобланади. Ушбу ёзма манба-асарлар жумласига М.А.Терентьев, Е.К.Мейендорф, М.Зиновьев, А.И.Макшеев, Графт Йорк Фон Вартенбург, Д.Н.Логофет, В.В.Крестовский, Н.Стремоухов, Н.А.Маев, С.В.Жуковский, И.Т.Пославский, А.Глуховский, А.Галкин, М.А.Варыгин, Н.Хаников, В.И.Массальский, Р.Ю.Рожовиц, Капитан Васильев, Капитан Лиленталь, В.В.Радлов, Л.Кун, А.Татаринов, Н.Н.Покатило, В.И.Липский томонидан XIX аср охири - XX аср бошларида ёзилган ва чоп этилган асарлар, эсдаликлар, ҳисоботлар ва илмий хабарлар киради¹⁶.

¹¹ Холиқова Р. Россия-Бухоро тарих чорраҳасида (XIX-асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари). -Тошкент: Ўқитувчи, 2005.-Б.168.

¹² Миёнкол вилояти. Миёнкол – форс-тожикча сўз бўлиб, икки дарё оралиғи демакдир. Маъмурий маркази Кармина бўлган. Вилоят саккизта ҳокимликка бўлинган. Кармина, Зиёвуддин, Хатирчи, Боғчаикалон, Нурота, Гужумсарой, Коми-миғ, Янгиқўрғон кабилар кирган.

¹³ Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар ан-Наршахий. Бухоро тарихи.-Тошкент:Камалак,1991.-Б.95; Наршахий Бухоро воҳасининг қадимий қишлоқлари тўғрисида маълумот бериб, даставвал Карминанинг тавсифини келтиради. Яна

қаранг: Ҳайитова О. Карманалик буюк сиймолар ва муқаддас қадамжолар.-Тошкент:Янги аср авлоди.-Б.4.

¹⁴ Санаев И. Зиёвуддин тарихи.-Тошкент: Шарк,1995.-Б.23.

¹⁵ Холиқова Р. Россия-Бухоро тарих чорраҳасида (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари).-Тошкент: Ўқитувчи, 2005.-Б.38.

¹⁶ Терентьев М.А. История завоевания Средний Азии. Съ картами и планами. Томъ I. 1-3 - Спб., 1906; Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – Москва:Наука, 1975.- С.180.; Зиновьев М. Осада Ура-Тюбе и Джизака // Военный сборник, 1868, № 3-4; Макшеев А.И. Исторический обзор Туркестана и наступательного движения в него русских, ч. 1-2. - Спб., 1890.; Йорк фон

Иккинчи тоифа эса бевосита Ўрта Зарафшон воҳасидаги қадимий жойларнинг номлари ва уларнинг пайдо бўлиш тарихи билан боғлиқ бўлиб, ёдгорликларни ўрганиш, уларнинг меъморчилик соҳасини тадқиқ қилиш, қурилиш лойиҳаларини таърифлаш ва археологик изланишлар билан бир қаторда турли мақсадларда уюштирилган экспедициялар фаолияти давридаги ўрганишларнинг бошланиши, XIX аср охири ва XX аср бошларига тўғри келади¹⁷. Бу даврда асосан воҳанинг ўрта асрлар даври ёдгорликлари тадқиқ этилади.

ХУЛОСА қилиб айтадиган бўлсак, Ўрта Осиё, жумладан, Ўрта Зарафшон воҳаси шаҳарсозлиги тарихи ва маданиятини тадқиқ этиш бошланганига 100 йилдан ошди. Ўзбек тарихшунослигида кейинги йилларда юртимиз тарихининг барча қирраларини холисона ёритиб беришда катта ютуқларга эришилган бўлса-да, мустақил Ўзбекистонда тарихий-меъморий обидаларни таъмирлаш ва қайта тиклаш тарихига оид масалалар ҳанузгача тарихшуносликда илмий асосини деярли топмаган.

Вартенбург. Рост России в Азии. –Т. 1900.; Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. –Т., 1-2. –Спб., 1911; Он же, Страна бесправия: Бухарское ханство и его современное состояние. –Спб., 1909; Он же, В горах и равнинах Бухары. (Очерк Средней Азии). – Спб.; 1913; Крестовский В.В. В гостях у эмира Бухарского: Путевой дневник. – Спб., 1887; Маев Н.А.Очерки Бухарского ханства. – Материалы для статистики Туркестанского края. Вып. V. стр. 77-129, – Спб., 1879; Он же, Географический очерк Гиссарского и Кулябского бегства. –Материалы для статистики Туркестанского края. Вып. V. стр. 255-280, – Спб., 1879; Жуковский С.В.Сношение России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотлетие – П. 2, 1915; Пославский И.Т. Город Бухара: Описание его и исследование вопроса о занятии его русскими. –Т., 1891; Глуховский А. Записки о значении Бухарского ханства для России. –Спб., 1867; Варьгин М.А. Опыт описания Кулябского бегства. — Известие Российского географического общества, Т. – L II., вып. 10, 1916.; Галкин А. Военно-статистический очерк Средней и Южной частей Сурханской долины. – Сборник географических, топографических и статистических материалов по Азии., вып. 57, – Спб., 1894; Он же, Краткий очерк Бухарского ханства. //Военный сборник, 1890, №11"II; Стремоухом Н. Поездка в Бухару.// Русский вестник, №6,1875; Рожовиц Р. Ю). Поездка в Южную и Среднюю Бухару в 1906 г. — Известие Российского географического общества, Т.XIV, Вып.9, 1908; Масальский В.И.Туркестанский край., Т. XIX., – Спб., 1913; Капитан Васильев. –Статистический материал для

Ўтган давр мобайнида ўлкамиз худудларидаги шаҳарлар тараққиётининг у ёки бу жиҳатларига қаратилган кўплаб тадқиқотлар натижалари мақолалар, монографиялар ҳамда диссертациялар мисолида нашр юзини кўрди. Таъкидлаш жоизки, улар ўз даврининг ғоявий-мафкуравий қарашлари таъсиридан ҳам холи бўлмаган. Шу боис тарихшунослик нуқтаи назаридан бундай тадқиқотларнинг қиймати уларда тадқиқот объекти ва унда жойлашган маданий мерос объектлари ҳақидаги бой фактологик, асосан ҳужжатли материаллар тизимга солинганлигидадир.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Ражабов Қ., Мақсудов Р. Қизилтепа тарихи – Тошкент: Мухаррир, 2011.Б.12.
2. М.Ҳожиёв., А.Нурмухаммадиев., М.Ҳошимова. Қизилтепа худудида сақланиб қолган “Кампир девол” ҳақида. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, Scientific Journal Impact Factor Advanced Sciences Index Factor. Volume 2 | Issue 5, May 2022.

описания Бухары. Бегство Шерабадское и часть Байсунского. – Сборник географических, топографических и статистических материалов по Азии. Вып. №57, 1894; Капитан Лилиенталь. Гиссарское и Кабадианское бегство. Сборник географических, топографических и статистических материалов по Азии. Вып. № 57,1894; Радлов В.В. Средняя Зарафшанская долина. – Записки Русского географического общества по отделению этнографии Т.IV, 1880; Кун. II Очерки Шахрисабзского бегства. –Записки Русского географического общества по отделению этнографии Т. IV, 1880; Липский В.И.Горная Бухара. Т.1., – Спб., 1902; Татаринов А. Семимесячный плен в Бухарию. // Библиотека Русского географического общества. – Спб., 1867; Покатило Н.Н. Путешествие в центральную и восточную Бухару в 1886 г. // Записки Русского географического общества – Спб., 1889.

¹⁷ Ситяновский Н.Ф.Заметки о Бухарской части долины Зерафшана//Известия Туркестанского отдела русского географического общества.–Ташкент,1900.–Т.I.–вып.2.–С.121-178; Зимин Л.А.Развалины Старого Пайкента//Протокол заседания и сообщения членов Туркестанского кружка любителей археологии год восемнадцатый (11декабрь 1912г.-11 декабрь 1913 г.) Протокол №4. 30 апрель 1913 г.–Ташкент,1913.–С.59; Якубовский А.Ю. Краткий полевой отчет о работах Зерафшанской археологической экспедиции Эрмитажа.ИИМК в 1939 г.//ТОВЭ.Т.П.–Л., 1940. –С.51-71; Шишкин В.А. Археологические работы 1937 года в западной части Бухарского оазиса.–Ташкент, 1940. –С.50.

3. Якубовский А.Ю. Археологическая экспедиция в Зарафшанскую долину в 1934 г. ТОВЭ.Т.П.Л.1940.
4. Захидов П.Ш. Архитектурные памятники Зарафшанской долины.- Ташкент: Узбекистан, 1985.- Б.132.
5. Умняков И.И. К исторической топографии средневековой Бухары. Труды Туркестанского восточного института.- Ташкент: 1925.-С.32. Ўша муаллиф: Рабат-и-Малик.-Сб. В.В.Бартольд – его ученики и почитатели.-Ташкент: 1927.-С.30.
6. Немцева Н.Б. Рабат-и-Малик. В кн: Художественная культура Средней Азии IX-XIII века: [сборник статей]. -Ташкент: 1983.- С.112-120.
7. Писарчик А. Памятник Кармине. Сообщение Института истории и теории архитектуры...вып.4. – Москва: 1945.- С.23-25.
8. Арциховский А.В. Археология асослари.- Тошкент: Ўқитувчи,1970. -Б.268.
9. Радлов В. В. Средняя Зарафшанская долина. – Записки Русского географического общества по отделению этнографии Т.IV, 1880.
10. Тўраев Ҳ. Бухоро тарихи (ўқув қўлланма).- Бухоро:Дурдона, 2020.-Б.31.
11. Холикова Р. Россия-Бухоро тарих чорраҳасида (XIX-асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари).-Тошкент: Ўқитувчи, 2005.-Б.168.
12. Санаев И.Зиёвуддин тарихи.-Тошкент: Шарқ,1995.-Б.23.
13. Терентьев М.А. История завоевания Средней Азии. Съ картами и планами. Томъ I. 1-3 - Спб., 1906; Терентьев М.А. История завоевания Средней Азии. Съ картами и планами. Томъ I. 1-3 - Спб., 1906.
14. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – Москва: Наука, 1975.- С.180.
15. Крестовский В.В. В гостях у эмира Бухарского: Путевой дневник. - Спб., 1887.
16. Шишкин В.А. Археологические работы 1937 года в западной части Бухарского оазиса.- Ташкент,1940.С.50.



CHORVA MAHSULOTLARI VA ULARNI QAYTA ISHLASH MASALALARI (QASHQADARYO VOHASI MISOLIDA)

Ro'ziboyev Dilshod A'zam o'g'li

Qarshi davlat universiteti doktoranti

LIVESTOCK PRODUCTS AND THEIR PROCESSING ISSUES (A CASE STUDY OF THE KASHKADARYA OASIS)

Ruziboev Dilshod Azam ugli

Qarshi State University, doctoral student

ПРОДУКТЫ ЖИВОТНОВОДСТВА И ВОПРОСЫ ИХ ПЕРЕРАБОТКИ (НА ПРИМЕРЕ КАШКАДАРЬИНСКОГО ОАЗИСА)

Рузибоев Дилшод Аъзам ўгли

Каршинский государственный университет, докторант



[https://orcid.org/0009-](https://orcid.org/0009-0001-7517-5089)

[0001-7517-5089](https://orcid.org/0009-0001-7517-5089)

drakon929292@bk.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada 1925-1991 yillarda Qashqadaryo vohasida chorcachilikning rivojlanishi, ayniqsa qorako'lchilik sohasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda chorcachilik mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va eksport qilish jarayonlari, mavjud muammolar va ularga ta'sir qilgan omillar yoritiladi. Shuningdek, qorako'l qo'ylari sonining ortishi va qorako'l terisi tayyorlash hajmining o'sishi, naslchilik ishlarining olib borilishi va ushbu jarayonlarga sovet hokimiyatining ta'siri tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: chorcachilik, qorako'lchilik, Qashqadaryo, sovet siyosati, qorako'l terisi, naslchilik, eksport, qayta ishlash, iqtisodiy muammolar, qishloq xo'jaligi

Annotation: This article analyzes the development of animal husbandry, particularly the Karakul sheep breeding sector, in the Kashkadarya oasis from 1925 to 1991. The study examines the processes of livestock production, processing, and export, as well as the challenges faced and the factors influencing them. Additionally, it explores the increase in the number of Karakul sheep, the growth of Karakul pelt production, breeding activities, and the impact of Soviet policies on these processes.

Keywords: livestock, Karakul sheep breeding, Kashkadarya, Soviet policy, Karakul pelt, breeding, export, processing, economic challenges, agriculture

Аннотация: В данной статье анализируется развитие животноводства, в частности отрасли каракулеводства, в Кашкадарьинском оазисе в 1925–1991 годах. В исследовании рассматриваются процессы производства, переработки и экспорта продукции животноводства, а также существующие проблемы и факторы, влияющие на них. Кроме того, изучается увеличение поголовья каракульских овец, рост производства каракулевых шкур, селекционная работа и влияние советской власти на эти процессы.

Ключевые слова: животноводство, каракулеводство, Кашкадарья, советская политика, каракулевые шкуры, селекция, экспорт, переработка, экономические проблемы, сельское хозяйство

KIRISH

Chorcachilik mahsulotlari mamlakatimiz iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi. Sanoat va aholi turmush tarzida katta ahamiyat kasb etgan ushbu soha turli mahsulotlarni yetishtirish imkonini beradi. Xususan, chorcachilik sohasi davlat manfaatlaridan

kelib chiqib bosqichma-bosqich o'zgartirilib borildi. Biroq chorcachilik mahsulotlarini qayta ishlash jarayonida qator muammolar yuzaga keldi. Xususan, zarur texnika va uskunalar yetishmasdi, mavjud texnologiyalar asosan markazdan olib kelinardi, ammo ularning faqat kichik qismi respublikaga yetib

kelgan. Shuningdek, ushbu texnikalardan samarali foydalana oladigan mutaxassislar soni ham cheklangan edi. Bu esa ishlab chiqarish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatdi va natijada chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash rejalari ko'p hollarda bajarilmay qoldi. Xorijiy va mahalliy adabiyotlar hamda arxiv hujjatlari tahlili shuni ko'rsatadiki, Qashqadaryoda qorako'lchilik sohasi yillar davomida turlicha rivojlangan. Bu jarayonda siyosiy-ijtimoiy omillar, iqtisodiy sharoit va texnologik imkoniyatlar katta rol o'ynagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolani tahlil qilar ekanmiz, chorvachilik sohasini rivojlantirishda 2020-yil 2-sentabrdagi PQ-4817-son "O'zbekiston Respublikasi pillachilik va qorako'lchilikni rivojlantirish qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori, 2021-yil 9-fevraldagi PQ-4984-son "Qorako'lchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, 2020-yil 2-sentabrdagi PF-6059-son "O'zbekiston Respublikasida "Pillachilik va qorako'lchilikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagi PQ-120-son "O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026-yillarga mo'ljallangan dasturni tasdiqlash to'g'risida", 2025-yil 30-yanvardagi PQ-34-sonli "Chorvachilik va parrandachilikni qo'llab-quvvatlash, sohada yuqori qo'shilgan qiymat yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida belgilangan vazifalar chorvachilik sohasini rivojlantirishda xizmat qiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

1924-1925 yillarda O'zbekistonda chorvachilik qiyin ahvolda bo'lib, jumladan, qorako'l qo'ylarining soni 600-700 boshga tushib, qorako'l teri ishlab chiqarish va uning eksporti keskin kamaygan [1]. Qashqadaryo okrugida 1926-yilda jami 185 ming dona qorako'l terilari tayyorlandi. Qishloq xo'jaliklarida 46 456 ta xom va 5306 ta tayyor ichak, 36 973 ta qo'y terisi, 15 928 dona echki terisi tayyorlandi [2]. Shu davrda Qashqadaryoda Qarshining "Кишпромторг" agentligi tomonidan 1925-1926-yillarda 46 456 dona ichak xomashyosi, 5 306 dona tayyor ichak, 36 973

bosh qo'y terisi, 15928 bosh echki terisi tayyorlandi. 1926-1927 yillarda Qashqadaryo "Окрсельсоюза" tomonidan 46 646 dona qorako'l terisi, 129 200 kg pilla, 21 282 bosh qo'y terisi, 45 762 dona echki terisi, 8 134 pud jun tayyorlandi [3]. Bu esa sohani bir qadar rivojlantirishga imkoniyat yaratdi.

1926-1927-yillarda okrugda 215,5 ming dona qorako'l teri, 21 ming kilogram kuzgi jun, 128 ming dona turli xil terilar tayyorlandi. 1927-1928-yillarda 229,9 ming dona qorako'l terisi, 308 ming kilogram bahorgi va kuzgi jun, 240,1 ming turli xil terilar, 1928-1929-yillarda 240 ming dona qorako'l terisi, 427 ming kilogram jun, 274,4 ming turli xil terilar tayyorlandi [4]. Bularning barchasi esa moliyaviy holatning barqaror va davomiy bo'lishini talab qilgan. O'zSSR Davlat reja byurosi ma'lumotlariga ko'ra, 1926-yilda chorvachilikka jami 66 564,7 ming rubl, dehqonchilikka 364 936,5 ming rubl, bog'dorchilikka 9 424,7 ming rubl hamda uzumchilikka 10351,4 ming rubl miqdorda pul ajratilgan. Mazkur ma'lumotdan ko'rinib turibdiki, eng ko'p mablag' dehqonchilikni rivojlantirish uchun ajratilgan. Chorvachilikka bog'dorchilik va uzumchilikka qaraganda ko'proq mablag' ajratilgan. Biroq buni dehqonchilikka ajratilgan mablag' bilan solishtirsa chorvachilikka ajratilgan mablag' bir necha barobarga kamligini ko'rishimiz mumkin. Chorvachilikka ajratilgan mablag'larni hududlar kesimida tahlil qilsak eng ko'p mablag'lar Zarafshon, Qashqadaryo va Farg'ona viloyatlariga ajratilgan. Zarafshon va Qashqadaryo hududlariga boshqa viloyatlarga qaraganda ko'proq pul ajratilishiga sabab mazkur mintaqalar O'zbekistonda asosiy qorako'l chorvalarini yetishtirib beruvchi hududlar hisoblangan hamda sovet hokimiyati chorvachilikning bu sohasidan manfaatdor bo'lgan. Xususan, Farg'ona viloyatida agrar sohaga ajratilgan umumiy mablag'ning 83 foizi dehqonchilik uchun sarflangan bo'lsa, faqatgina 8 foiz mablag' chorvachilik uchun sarflangan. Mazkur holatlarni Toshkent va Samarqand viloyatlari kesimida ham ko'rishimiz mumkin. Jumladan, Toshkent viloyatida 82 foiz ajratilgan mablag' dehqonchilik uchun va 14 foizi chorvachilik uchun sarflangan. Samarqand viloyatida esa 70 foiz mablag' dehqonchilik uchun va 17 foizi chorvachilik uchun ajratilgan. Qashqadaryo viloyatida esa jami ajratilgan mablag'ning deyarli 39 foizi chorvachilik uchun sarflangan. Xorazm, Toshkent va Samarqand

viloyatlarida chorvachilikni rivojlantirish ajratilgan mablag'lar ancha kam bo'lgan [5]. 1927-yilda okrugda 220 ming dona qorako'l terisi olish rejalashtirilgan bo'lib, ammo 1927-yilning 10 oyi ichida 250 ming dona qorako'l terilari tayyorlandi. Bundan tashqari okrug qishloq xo'jaliklarida 46 646 ming dona qorako'l terisi, 129 ming kilogramm pilla, 21 282 dona qo'y terisi, 45762 echki terisi, 8 134 sentner jun va boshqa ko'plab chorvachilik xomashyolari tayyorlandi [6]. 1928-yilda Qashqadaryo okrugining Koson, Qamashi, Beshkent rayonlarida 128 ming dona qorako'l terilari, 4 sentner jun, 35 ming qo'y terisi, 8 ming echki, 68 ming ichak tayyorlandi [7]. Qashqadaryo viloyatida 1928-yilda jami 247 000 dona qorako'l tayyorlash rejasi belgilanib, amalda esa 218 285 dona qorako'l terisi tayyorlandi yoki rejaning 63,1 foizi bajarildi. O'zbekiston SSRda 1928-yilda 823 600 dona qorako'l terisi tayyorlash rejasi belgilanib, amalda 547 338 dona qorako'l terisi tayyorlandi, reja 66,4 foizga bajarildi. Qashqadaryo viloyatida 1928-yilda jun tayyorlash rejasi 31 500 tonna belgilanib, amalda 18 228 tonna tayyorlandi yoki rejaning 57,8 foizi bajarildi [8]. 1928-yil Qashqadaryo chorvachiligi yuqori sur'atlarda rivojlandi, bu 1914-yil darajasidagi respublikaning butun podasini tashkil etdi. 1928-yilda chorvachilik mahsulotlarining umumiy hosildorligi 27 978 451 so'm, tovar mahsulotlari 10 100 871 so'mni tashkil etdi [9]. Ma'lumki, O'zbekiston SSR tashkil topgan dastlabki yillarida Qashqadaryo viloyati eng qoloq hududlar qatoriga kiritilgan edi. Bundan tashqari, ushbu mintaqada milliy istiqloq harakati uzoq davom etib, xalq xo'jaligiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Shunga qaramay, partiya va hukumat tomonidan ko'rsatilgan katta yordam tufayli viloyat iqtisodiyoti, xususan, chorvachilik sohasida jadal tiklanish jarayonlari amalga oshirildi[10]. 1928-yil oxirlariga kelib, Qashqadaryo viloyatida mavjud qoramollar soni qariyb ikki millionga yetgan bo'lib, ular uchun zarur sharoitlar yaratildi. 1929-yil yakunida esa viloyat qorako'l chorvadorlarining aksariyati chorvachilik kooperativ shirkatlariga birlashtirildi. 1928-1930-yillar oralig'ida ushbu kooperatsiyaning rivojlanishi haqida IV okrug partiya qo'mitasining 1930-yil may oyida o'tkazilgan hisobotida batafsil ma'lumot berilgan edi[11]. 1928-yil aprel oyida Qashqadaryo viloyati tumanlarida jami 10 ta omborxonalar, 5 ta baza, 3 ta qo'y hammomlari, 4 ta yarim yopiq qishki qo'ton, qorako'l terisini konservatsiya qilish

(tuzlash, quritish) uchun 3 ta maxsus baza hamda 3 ta ichak zavodi barpo etilgan edi. 1931-1933-yillarda "Muborak" sovxozidan "Nishon", "Qoraqum", "Tallimarjon", "Ko'kdala", "Qizil chorvador", "Kirov", "Qarnob", "Ulus" va "G'uzor" kabi chorvachilik xo'jaliklari ajralib chiqdi[12]. Shunga qaramay, ushbu xo'jaliklarning iqtisodiy holati murakkabligicha qolgan. Shu sababli, ular davlat rejasini to'liq bajara olmagan. Masalan, Beshkent qo'ychilik shirkati rejada ko'rsatilgan 25 ming dona qorako'l terisi o'rniga atigi 19 416 dona mahsulot yetishtira olgan. Tayyorlangan qorako'l terilarining sifati ham belgilangan talabga to'liq javob bermagan[13]. Qorako'l qo'ylarining ko'payishi, tabiiy ravishda, qorako'l terisi ishlab chiqarish hajmining ortishiga olib keldi[14]. B.A. Kuznetsovning ma'lumotlariga ko'ra, 1929-1930-yillarda tayyorlangan qorako'l terilari hajmi 1925-1926-yillarga nisbatan 236 foizga oshgan. 1939-yilda xomashyo tayyorlash hajmi 1934-yilga qaraganda 76 foizga, 1944-yilda esa 1940-yil bilan solishtirganda 59 foizga oshdi. Agar 1942-yilda SSSR bo'ylab tayyorlangan qorako'l terilarining umumiy hajmi 100 foiz deb olinsa, uning 63 foizi O'zbekiston hissasiga to'g'ri kelgan. Shu bilan birga, olimlar tomonidan qorako'l terisi sifatini yaxshilash yo'nalishida ham muhim ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan[15].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur maqolada 1925-1991-yillarda Qashqadaryo vohasida chorvachilik, ayniqsa qorako'lchilikning rivojlanishi va uning iqtisodiy ahamiyati tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sovet davrida qorako'lchilik sohasi davlat manfaatlaridan kelib chiqib rivojlantirildi, biroq texnik ta'minot, moliyaviy yetishmovchilik va mutaxassislar tanqisligi kabi muammolar mavjud edi. Qorako'l terisi ishlab chiqarish hajmining o'sishi va naslchilik ishlarining rivojlanishi qator islohotlar natijasi bo'lsa-da, ushbu jarayonlar markaziy hokimiyat tomonidan boshqarilgan va mahalliy sharoitlarga har doim mos kelmagan. Shunday qilib, ushbu davrda qorako'lchilik va chorvachilikning umumiy rivojlanishi qator yutuqlarga erishgan bo'lsa-da, u murakkab ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda amalga oshirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Всесоюзный научно-исследовательский институт каракулеводства. – М.,1975. – С. 8-10.
2. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi, 83-fond, 1-ro‘yxat, 139-ish, 32-varaq; 189-fond, 1-ro‘yxat, 25-ish, 36-varaq.
3. Очерки истории Кашкадарьинской и Сурхандарьинской областей Узбекистана. –Т.: “Фан”, 1968. – С.154.
4. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi, 36-fond, 5-ro‘yxat, 87-ish, 37-varaq.
5. O‘zMA, R-86-fond, 1-ro‘yxat, 2483-ish, 12-13-varaqlar.
6. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi, 182-fond, 1-ro‘yxat, 33-ish, 272-varaq.
7. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi, 182-fond, 1-ro‘yxat, 35-ish, 26-varaq.
8. O‘zMA, R-837-fond, 6-ro‘yxat, 286-ish, 40-varaq.
9. Очерки истории Кашкадарьинской и Сурхандарьинской областей Узбекистана. –Т.: “Фан”, 1968. – С.156.
10. КППС в резолюциях и решениях съездов конференций и Пленумов ЦК. Изд. 8-е. Т. 3. 1970. с 68.
11. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi, 36-fond, 1-ro‘yxat, 170-ish, 68-varaq.
12. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi, 36-fond, 1-ro‘yxat, 170-ish, 70-varaq.
13. O‘zMA, R-91-fond, 1-ro‘yxat, 173- ish, 101-132-varaqlar.
14. O‘zMA, R-91-fond, 2-ro‘yxat, 160-ish, 343-varaq.
15. A.A.Rahimov. Qorako‘lchilik. O‘quv qo‘llanma. “O‘qituvchi” nashriyoti. Toshkent. 1967, bet 11.



Qabul qilindi: 03.04.2025

Chop etildi: 31.05.2025

UDK: 81-115

BOTANIK TERMINLARNING ELEKTRON LUG‘ATLARDA SEMANTIZATSIYALANISH HOLATI

*Bahriddinova Yulduzxon Bahriddin qizi, Termiz davlat
universiteti, tayanch doktorant*

THE STATUS OF SEMANTISATION OF BOTANICAL TERMS IN ELEKTRONIC DICTIONARIES

*Bahriddinova Yulduzxon Bahriddin kizi, Termez State
University, basic doctoral student*

СОСТОЯНИЕ СЕМАНТИЗАЦИИ БОТАНИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В ЭЛЕКТРОННЫХ СЛОВАРЯХ

*Бахриддинова Юлдузxon Бахриддин кызы, Термезский
государственный университет, базовый докторант*

0009-0006-7576-5974

el.pochta:

yulduz.bahriddinqizi@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada botanik terminlarning elektron lug‘atlardagi semantizatsiyalanish jarayoni va holati o‘rganiladi. Xususan, ingliz tilidagi bir nechta elektron lug‘atlarda botanik terminlarning semantizatsiyalanish holatining bir biriga o‘xshash va farqli jihatlari taqqoslanadi. Tadqiqot natijalari elektron botanik lug‘atlar ishlab chiqishda lingvistik va amaliy jihatdan muhim tavsiyalarni taqdim etadi.

Kalit so‘zlar: botanik terminlar, semantizatsiya, semantizatsiyalash vositalari, elektron lug‘atlar, termin ekvivalenti, terminologik ta’rif, verbal va noverbal izoh.

Abstract: This article examines the process and state of semantization of botanical terms in electronic dictionaries. Specifically, it compares the similarities and differences in the semantization of botanical terms across several English electronic dictionaries. The research findings provide important linguistic and practical recommendations for the development of electronic botanical dictionaries.

Keywords: botanical terms, semantization, means of semantization, electronic dictionaries, term equivalent, terminological definition, verbal and non-verbal explanation.

Аннотация: В данной статье изучается процесс и состояние семантизации ботанических терминов в электронных словарях. В частности, сравниваются сходства и различия в состоянии семантизации ботанических терминов в нескольких англоязычных электронных словарях. Результаты исследования предоставляют важные лингвистические и практические рекомендации для разработки электронных ботанических словарей.

Ключевые слова: ботанические термины, семантизация, средства семантизации, электронные словари, эквивалент термина, терминологическое определение, вербальное и невербальное пояснение.

KIRISH. Leksikografiyada har qanday turdagi lug‘at tarkibiga kirgan leksik birliklarni izohlash uchun o‘zining tavsifiy vositalaridan foydalanadi. Rus tilshunosi Morkovkinning fikricha tasniflash vositalarini lug‘at tuzuvchi yaratayotgan lug‘atining turi, maqsad va vazifasiga ko‘ra belgilashi tufayli bu jarayonda barcha lug‘atlar uchun bir xil amal qiladigan, umumiy qabul qilingan ma’lum bir universal tasnif majmui mavjud emas. Bu esa leksik birliklarning semantizatsiyalanish

hodisasini belgilaydi. Semantizatsiya – bu keng ma’noda foydalanuvchilarning shu so‘zdan nutqida to‘g‘ri qo‘llashi uchun so‘zning semantik tuzilishi hamda ma’nosini ochib berish demakdir [1, 166].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Tilshunos Tabanakovanning fikriga ko‘ra agar semantizatsiyani tor ma’noda, ya’ni leksikografik jihatdan tahlilini ko‘rsak, lug‘atda so‘zning ma’nosini ochib beruvchi har qanday tavsifiy usullarni tushunishimiz kerak [2, 167]. U

terminlarning semantizatsiya holatini "Multitran" elektron lug'atini tahlil qilish orqali ochib bergan. Unga ko'ra, terminning semantikasi ikki xil ta'rif bilan ochib beriladi: 1) qiyoslanayotgan tillardagi jins hamda tur nomining ta'rif; 2) terminning tarjimasini yoki terminologik ibora ko'rinishidagi qisqa ta'rif. Lug'at maqolasida keltirilgan ruscha hamda inglizcha havolalar tizimi esa termin haqidagi ta'rif, tarjima va uning boshqa xususiyatlarini aniqlashga ma'lum bir tizimli yo'l vositasini bajaradi [3, 78-88]. Belarus tilshunosi A.V.Ermalovich semantizatsiya so'zning barcha ichki va tashqi mazmunini aks ettiruvchi jarayon deb fikr bildirgan [4, 17]. A.A. Gulezovaning fikricha, yangi terminlar bilan tanishish bosqichining eng muhim muammosi semantizatsiya hisoblanib, u terminlarning denotativ hamda konnotativ munosabatlarini tushuntiradi, qolaversa, semantizatsiya - bu til birligining ma'nosi, tarkibiy qismi to'g'risida kerakli ma'lumotlarni foydalanuvchilarga yetkazish jarayoni hisoblanadi [5, 164-169]. O'zbek tilshunoslaridan G'.G'.Abduvaxobov shuni ta'kidlaydiki, an'anaviy lug'atlardan farqli o'laroq, elektron lug'atlarda so'zlarni nafaqat alifbo tartibida, so'z va iboralarni tabaqalashtirilgan iyerarxik tartibda sanab o'tish, ularni misollar bilan tushuntirish, keng lug'at yozuvlari, eng so'nggi multimedia vositalari bilan zamon talablari asosida taqdim etilishi kerak, ya'ni so'zlarning elektron lug'atlarda ifodalanishi rangli, obrazli, grafik, tovushli va videotasvirlar shaklida bo'lishi mumkin. Qolaversa, elektron lug'atlarda so'zlarning izohi til me'yorlariga muvofiq berilishi hamda so'zning ma'nosini ochib berishda matn tarkibidagi situatsion ma'nolar, omonimlar, sinonim va antonimlar, frazeologik birikmalardan foydalanish zarur. Qo'shimcha sifatida, elektron lug'atlarda ko'p tillilik funksiyasini ham rivojlantirib, so'z va matnlarni turli tillarga qisqa vaqtning ichida tarjima qilish imkoniyatini ham qo'shish shart [6, 49].

MUHOKAMA. So'z yoki terminning semantikasi haqida gap borar ekan, lug'atdan foydalanuvchi har qanday shaxs, xoh u tarjimon, xoh talaba yoki qaysidir soha mutaxassisi bo'lsin, albatta shu terminning izohi yoki tarjimasidan tashqari bo'lgan ma'nosi, etimologiyasi, sinonim - antonimlik holati, matnda qo'llanilish holati haqidagi ma'lumotlarga ham qiziqish bildiradi. Qozoq tilshunosi A.M.Ahmetbekova esa terminlarning lug'atlarda semantizatsiyalashning

mikrostrukturasini: 1) lemma (termin); 2) termin talaffuzi (pronunciation); 3) grammatik ma'lumot (grammatical information); 4) termin tahlili (term analysis); 4) terminning boshqa tillardagi ekvivalentlari (equivalents of term); 6) termin ifodalagan ma'noning izohi (explanation of meaning); 7) termin ishtirok etgan so'z birikmalar (collocations); 8) termin ishtirok etgan matnlardan misollar (examples) 9) termini uchratish mumkin bo'lgan boshqa qo'shimcha ma'lumotlarga havolalar (cross-references) kabi tarkibdan iborat deb hisoblaydi [7, 491-495].

Polyak tilshunosi Robert Lyov elektron lug'atlarda so'zlarning semantizatsiyasini ifodalashda quyidagi vositalardan foydalanish o'rinni deb fikr bildirgan hamda o'z tadqiqotlarida misollar asosida izohlagan. Ular quyidagilar:

- so'zning yozma izohi (verbal mode) - lug'at tarkibiga kiritilgan so'zlarning semantik ma'nosi hamda bu ma'noni ochib berish uchun ham bir qancha lingvistik vositalardan, ya'ni izoh (*definition*), so'zning ekvivalenti, so'z ishtirok etgan biror jumla yoki kichik matn beriladi.

- so'zga berilgan izohning ovoqli varianti (audio presentation mode) - bu nafaqat so'zning talaffuz audiosi, balki izoh, ekvivalent hamda so'z ishtirok etgan matn yoki jumlaning ham lug'at yaratilgan tildagi ovoqli variantining taqdim etilishi elektron lug'atlarning foydalanuvchilarga taklif qiladigan avzalliklaridan biridir. Bu orqali ular so'zni nafaqat o'qish orqali tushunadi, balki uning talaffuzi va izohini urg'u, intonatsiya, ritm bilan o'qilgan ovoqli varianti orqali uni tushunish hamda eslab qolishi mumkin.

- so'zning yozma bo'lmagan izohi (non-verbal mode) - ushbu vositalar lingvistik bo'lmagan tovushlarning audiolari (hayvonlar, qushlar, tabiat hodisalari musiqa asboblari kabilarning tovushlari), tasviriy fotosuratlar illustratsiyasi (so'zlarning faqat rasmi beriladigan lug'atlar), animatsiya va videokliplarni qamrab oladi [8, 290-306].

NATIJALAR. Botanik termini semantizatsiya qilish jarayonida har bir lug'at o'z yondashuviga ega, bu esa avval ta'kidlaganimizdek, har qanday elektron lug'atning tuzilishini uni yaratgan muallif yoki mas'ul tashkilot belgilagan. Sababi, bitta terminning semantizatsiyasini ifodalashda ular o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlarining mavjudligidadir. Bu jihatlarining tahlilini quyida keltirilgan jadvalda ko'rishimiz mumkin:

Elektron lugʻatlarda ingliz tilidagi botanik terminlarning semantizatsiyalanishidagi oʻxshash (+) va farqli (-) jihatlar

Semantizatsiyalash vositalari	Elektron lugʻatlar			
	Cambridge Online Dictionary	Merriam Webster Online Dictionary	Oxford Dictionary English	Longman Dictionary English
termin	+	+	+	+
termin talaffuzi va transkripsiyasi	+	+	+	+
grammatik maʼlumot	+	+	+	+
termin ifodalagan maʼnoning izohi	+	+	+	+
terminning boshqa tillardagi ekvivalentlari	+	-	-	-
termin ishtirok etgan soʻz birikmalar	+	+	-	-
termin ishtirok etgan matnlardan misollar	+	+	-	+
terminni uchratish mumkin boʻlgan boshqa qoʻshimcha maʼlumotlarga havolalar	+	+	-	-
illustatsion rasmlar	+	-	+	-
terminning koʻchma maʼnoda qoʻllanilishi	+	+	+	-
semantizatsiya vositalarining zonalarga ajratilishi	-	+	-	-

Berilgan jadvaldan koʻrinib turibdiki, Kembrij elektron lugʻatida botanik terminlarni semantizatsiyalash holati qolgan lugʻatlarga nisbatan kengroq hamda maʼlumotlar izchillik bilan yoritilgan. Shunga qaramay, ushbu lugʻatda maʼlumotlar maxsus zonalarga ajratilmaganligi bilan Merriam Webster lugʻati bilan deyarli bir xil funksiyalarga egaligini ham koʻrishimiz mumkin. Chunki tahlilga olingan har toʻrtta lugʻatdan faqat Webster elektron lugʻatigina zonalar funksiyasiga ega, bu esa foydalanuvchilarga oʻziga kerakli boʻlgan maʼlumotlarni tez va oson topishga imkoniyat berganligi bois, lugʻatning boshqa lugʻatlardan ustunlik tarafini ochib beradi.

XULOSA. Elektron lugʻatlarda botanika terminlarining semantik holatini taqdim etish aniq, tizimli va foydalanuvchiga qulay shaklda boʻlishini talab etadi. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, elektron lugʻatlarda botanika terminlarining leksik maʼnolari,

ularning kontekstual qoʻllanilishi, sinonimik va antonimik munosabatlari, shuningdek vizual tasvirlar bilan mustahkamlanishi muhim ahamiyatga ega. Ingliz va oʻzbek tillari orasidagi tarjima jarayonida koʻp maʼnoli birliklar, xalqaro nomenklaturaning taʼsiri va ekvivalentlarni tanlashdagi qiyinchiliklar mavjud. Bu muammolarni hal qilish uchun lingvistik va kompyuter texnologiyalariga asoslangan yondashuvlardan foydalanish zarur. Tadqiqot natijalari botanika terminlarini elektron lugʻatlarga samarali integratsiya qilishning nazariy va amaliy asoslarini yaratishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Морковкин В.В. Опыт идеографического описания лексики. –М.: МГУ, 1977. – с. 166.

2. Табанакова В.Д. Семантизация термина в одноязычных терминологических словарях: дис...канд. фил. наук. – Л: ЛГУ, 1981. -с 167.
3. Табанакова В. Д. Словарь “Мультитран” как свернутая функциональная модель семантики, синтактики и прагматики термина. Вестник Тюменского государственного университета. Гуманитарные исследования. Humanitates. 2015. Том 1. № 2(2). – СС. 78-88
4. Ермалович А.В. Семантизация речевых единиц при обучении русскому языку как иностранному. “Технологии обучения русскому языку как иностранному и диагностика речевого развития” Материалы XX Международной научно-практической конференции. - Минск, 2019. – с. 17.
5. Гулезова А. А. Словообразовательный анализ как один из способов семантизации экономических терминов в обучении профессионально ориентированному французскому языку. УДК 811.133.1’243. 2021. – СС. 164-169.
6. Abduvaxobov G. Amaliy Tilshunoslik: Elektron lug‘atlar yaratish konsepsiyasi. Farg‘ona Davlat Universiteti, 2023, 28(1), - b. 49.
7. Akhmetbekova A. M. Microstructure features of dictionaries of linguistic terms. Life Science Journal 2014;11(6). – pp. 491-495.
8. Lew R. Multimodal lexicography: The representation of meaning in electronic dictionaries. Lexikos, 20 (AFRILEX-reeks/series 20: 2010): - PP. 290-306.



REGISTRATION OF THE POPULATION IN THE UZBEK SSR AND THE RESULTS OF THE IMPLEMENTATION OF THE DEPOPULATION MEASURE IN 1937

*Gulomov Ilkhomjon, Associate professor at the Tashkent Information
Technology University, (PhD)*

ИТОГИ УЧЕТА НАСЕЛЕНИЯ И МЕРОПРИЯТИЙ ПО ДЕПОПУЛЯЦИИ В УЗБЕКСКОЙ ССР В 1937 ГОДУ

*Гуломов Илхомжон, доцент Ташкентского университета
информационных технологий, (PhD)*

O‘ZBEKISTON SSRDA AHOLINI RO‘YXATGA OLISH VA 1937-YILDA AHOLISIZLANTIRISH CHORASINI AMALGA OSHIRISH NATIJALARI

*G‘ulomov Ilhomjon, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
dotsenti, (PhD)*

Abstract: The article discusses the process of conducting a population census in the Uzbek SSR in 1937. It also sheds light on the underlying motives of the Soviet government representatives in charge of conducting the census, as well as the specific goals outlined.

Key words: population census, census regulations, population count, gender composition, population natural growth.

Аннотация: В статье обсуждается процесс проведения переписи населения в Узбекской ССР в 1937 году. Также освещаются коренные мотивы представителей советской власти, ответственных за проведение переписи, а также конкретные поставленные цели.

Ключевые слова: перепись населения, правила переписи, учет населения, гендерный состав, естественный прирост населения.

Annotatsiya: Maqolada 1937-yilda respublika hududlarida o‘tkazilgan aholini ro‘yxatga olish jarayonida Markaziy statistika boshqarmasi tomonidan aholi statistikasi shakllantirilib, ushbu tadbirning yakuniy natijalari hududiy statistika manbalari asosida alohida tahlil qilingan. Bundan tashqari, keyingi yillarda respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayot mazkur ro‘yxat natijalari asosida tartibga solinishi ko‘zda tutilganligi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: aholini ro‘yxatga olish, aholini ro‘yxatga olish qoidalari, aholi soni, jinsiy tarkibi, aholining tabiiy o‘sishi.

INTRODUCTION. After the Turkestan region was annexed by the Russian Empire, the imperial administration, and later the Soviet government, conducted various “population registration campaigns” over the years to determine information such as the population size (by regions), ethnicity, religious beliefs, and daily lifestyle patterns. The initial campaign was held in 1897, followed by similar events, including one in

November 1917, where a census was conducted in all rural areas of the Russian Empire (including districts and villages in the Turkestan region). Population registration activities were also carried out in 1920 and 1926 in all of Russia and its allied republics.

During the 1937 population registration campaign in the Uzbek SSR, individuals who participated and those who were subjected to the



<https://orcid.org/0000-0003-0076-5289>

e-mail:

ilkhomjon@bk.ru

final outcomes of the campaign faced accusations of “negligence in their duties, failure to take the campaign seriously”, or were labeled as providing unreliable information. Many individuals were subsequently deported or faced other consequences due to the information gathered about them during this campaign.

Many of those who devised the plan for the events of 1937 and those responsible for registering the population, as well as the majority of analysts tasked with analyzing the gathered information, were either exiled or subjected to various forms of punishment due to the failure to provide positive outcomes from these processes. Moreover, statistical data compiled about the population wasn't genuinely acknowledged by the authorities, leading to the concealment of even more information under the labels of “confidential” and “ultra-confidential” for nearly half a century.

2. Amaniýazov, A. (1993). *Qaraqalpaq xalq poeziyası: metaforalar va obrazlar*. Nukus: Qaraqalpaqstan.

3. Cruse, D. A. (1986). *Lexical Semantics*. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Dospanov, N. (2012). *Qaraqalpaq she'riyati: ruhiyat, obraz va konseptlar*. Nukus: Bilim.
5. Dubrow, H. (1996). *Captive Victors: Shakespeare's Narrative Poems and Sonnets*. Cornell University Press.
6. Greenblatt, S. (2004). *Will in the World: How Shakespeare Became Shakespeare*. New York: W. W. Norton.
7. Karimov, N. (1996). *Sharq mumtoz adabiyoti va tasavvuf*. Tashkent: Fan.
8. Kövecses, Z. (2000). *Metaphor and Emotion: Language, Culture, and Body in Human Feeling*. Cambridge: Cambridge University Press.
9. Kövecses, Z. (2010). *Metaphor: A Practical Introduction*. Oxford: OUP.
10. Kövecses, Z. (2010). *Metaphor: A Practical Introduction*. Oxford: Oxford University Press.
11. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. Chicago: University of Chicago Press.
12. Lakoff, G., & Turner, M. (1989). *More Than Cool Reason: A Field Guide to Poetic Metaphor*. Chicago: University of Chicago Press.
13. Shakespeare, W. (1609/2002). *The Sonnets*. Ed. Katherine Duncan-Jones. London: Arden.
14. Tassi, M. J. (2011). *Shakespeare's Philosophy: Discovering the Meaning Behind the Plays*. London: Continuum.



Qabul qilindi: 03.04.2025

Chop etildi: 31.05.2025

UDK: 3703.796.01

**BUYUK MUTAFAKKIRLARIMIZ ASARLARIDA
SALOHIYATLI YOSHLARNI TARBİYALASH
MUAMMOLARI**

*Sadiqova Roza Ismailovna, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat
instituti katta o'qituvchisi*

**PROBLEMS OF EDUCATION OF LITERATED
YOUTH IN THE WORKS OF OUR GREAT THINKERS**

*Sadykova Roza Ismailovna, Senior Lecturer Tashkent Institute of
Textile and Light Industry*

**ПРОБЛЕМЫ ВОСПИТАНИЯ
ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ МОЛОДЕЖИ В ТРУДАХ
ВЕЛИКИХ МЫСЛИТЕЛЕЙ**

*Садыкова Роза Исмаиловна, старший преподаватель
Ташкентского института текстильной и легкой
промышленности*



<https://orcid.org/0009-0001-4509-1378>

e-mail:

Roza.sadykova@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilmiy merosini o'rganib, ularning ilmiy qarashlaridan yoshlar tarbiyasida foydalanishni tahlil qiladi. Bugun olgan bilimlarimiz kelajagimizni belgilaydi. Bizning asosiy vazifamiz zamonaviy pedagogika, yoshlarni tarbiyalash va ta'limning dolzarb muammolarini hal etishdan iborat.

Kalit so'zlar: olim, ta'lim, tarbiya, yoshlar, pedagogika, jamiyat, farovonlik, komil inson, mafkura, zamon, pedagogika.

Abstract: In this article, the author studies the scientific heritage of Central Asian thinkers and analyzes the use of their scientific views in the education of youth. The knowledge we receive today determines our future. Our main task is to solve urgent problems of modern pedagogy, education and upbringing of youth.

Keywords: scientist, scholar, education, upbringing, youth, pedagogy, society, well-being, perfect man, ideology, modernity, pedagogy.

Аннотация: В данной статье автор изучает научное наследие мыслителей Средней Азии и анализирует использование их научных взглядов в воспитании молодежи. Знания, которые мы получаем сегодня, определяют наше будущее. Наша главная задача – решение актуальных проблем современной педагогики, воспитание и образование молодежи.

Ключевые слова: ученый, учёный, образование, воспитание, молодёжь, педагогика, общество, благополучие, совершенный человек, идеология, современность, педагогика.

KIRISH. Mukammal inson tarbiyasi har bir xalq ideali hisoblanadi. Har bir xalq o'z avlodini mukammal inson qilib shakllanishini ishlab chiqqan. Ayrim xalqlar kuchli qo'rqmas, jasur, vatanparvar avlodni tarbiyalash uchun o'ziga xos tarbiya uslub va usullarni ishlab chiqishgan. Ba'zi xalqlar ilmi, dono avlodni tarbiyalash tadbirini ishlab chiqishgan. O'rta Osiyoda islom dini kirib kelgandan keyin komil inson g'oyasi keng tarqaldi. Ulug' mutafakkirlar asarlarida komil inson tarbiyasi bosh g'oya hisoblanadi. So'fiylik ta'limotida har bir so'fiylik tariqati komil inson

g'oyasini shakllantirgan. Ilm va fanni dunyoning eng yuqori darajasiga olib chiqqan buyuk mutafakkirlarimiz Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, al-Hakim Termiziy, imom al-Buxoriy kabi shaxslar buyuk salohiyat egalari bo'lishgan. Ular o'z asarlarida yoshlarni iste'dodli, salohiyatli va ilmi bo'lib shakllanishini tadqiq qilishgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. "Al-adab al-mufrad" asarida Imom Ismoil al-Buxoriy barcha islom dunyosi uchun yuksak axloq, odob va komil inson tarbiyasi

muammolari va yechimlarini keng yoritib bergan. “Al-adab al-mufrad” asarida Imom Ismoil al-Buxoriy hazratlari payg‘ambarimiz Muhammad sallolohu alayhi vasallamdan va uning sahobalari tomonidan qilingan rivoyat, nasihat va axloqiy o‘gitlarga e’tibor berib, hadislar yosh avlodni tarbiyalashda juda katta ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatib bergan[1]. Buyuk turkistonlik ma’rifatparvarlardan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxonov, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitratlar yosh avlodni ilm egalari bo‘lishi uchun jonkuyar vatanparvarlardan bo‘lishgan. Bu ulug‘ mutafakkirlar yosh avlodni ilm olishi uchun yangi uslubdagi maktablarni tashkil qilish va zamonaviy texnika yangi ilmlarini o‘zlashtirish uslub va usullarini yaratishgan. Ilm olishda farzandlar uchun axloqiy fazilatlar ham muhim rol o‘ynaydi. Ilmi bo‘lish uchun yagona qobiliyatning o‘zi yetarli emas. Insonning ilm olishi uchun bolalarning bilim olishlariga va shaxsiy fazilatlariga, qiziqish va qobiliyatlariga doir ko‘plab qimmatli fikrlarni bildirishgan. Turkiston o‘lkasi rivojlangan davlatlardan ilm-fan sohasida ancha orqada qolib ketishganini anglagan ulug‘ jadidchi ma’rifanparvarlardan Mahmudxo‘ja Behbudiy yosh avlod zakovatli, yuksak bilimli, o‘z-o‘zini anglagan shaxs sifatida Turkiston kelajagi uchun muhimligini anglagan. Vatan kelajagi uchun yosh avlodni zamon talablariga mos ilm berib, zamonaviy kasb-hunarga o‘rgatib yangi kasb mutaxassislarini tayyorlash masalalarini hal qilgan. Jadidchi ma’rifatparvarlardan Abdulla Avloniy tarbiya milliy ijtimoiy ishdir, xususiy ish emas deb “Al-hosil tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir”, - deya uqtirgan[2]. Ulug‘ mutafakkir “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida XX asr zamon pedagogikasi va ma’naviyatini uzviy bog‘laydi. Pedagogikani nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilib chiqib, hayot tarzi bilan bog‘lab yoshlar tarbiyasi, ilm olish va yoshlar iste’dodi va salohiyatini shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha ko‘p amaliy tavsiyalarni ishlab chiqqan.

MUHOKAMA. “Qobusnoma” asarida Kaykovus tarbiya masalalariga to‘xtalar ekan, ota-onalarga shunday nasihat qiladi: “Farzandingga, hunar va fazl o‘rgatmaqda taqsir qilmag‘il va har ilmni o‘rgatuvchi muallimlar ta’lim uchun ursalar, sen shafqat ko‘rguzg‘il, mayli ursunlar, nedinkim, yosh o‘g‘lon ilm va adabni tayoq bilan o‘rganur va o‘z ixtiyori bilan o‘rganmas. Ammo, farzanding

beadab bo‘lsa va sening ul sababdin qahring kelsa, o‘z qo‘ling birla urmag‘il, muallimlarning tayog‘i birla qo‘rqutg‘il. Bolalarga muallimlar adab bersunlar, toki sendin o‘g‘lingning ko‘nglida gina qolmasin. Farzandga adab, hunar o‘rgatmakni meros deb bilg‘il”[3]. Ulug‘ mutafakkirning bu o‘gitlari jamiyatda odamlarning ijtimoiy-ma’naviy birlashuviga sabab bo‘lishini ko‘rish mumkin. Bilamizki hozirgi bizning jamiyatimizda ta’lim sohasida yuz berayotgan asosiy muammolardan biri o‘quvchi bilan muallim o‘rtasida, ota-ona bilan maktab ma’muriyati, talaba bilan ustoz, talabalarning ilm olishdagi ma’naviy axloqi, o‘quvchilar ilm salohiyati va iste’dodi, mas’uliyatining susayib ketishi kabi muammolarni ko‘rish mumkin. Kaykovus uqtiradiki, ota-onalar farzandini o‘z qo‘li bilan urmay Muallimning tayog‘i bilan urishini aytib jamiyatdagi bir qator muammolarning yechimiga o‘rgatadi. Ya’ni, ota-ona ham, farzandlar ham ustozga bo‘ysunishi orqali bir xil tarbiya va tartib bo‘lishini ta’minlaydi. Agar ota-onalar jamiyatda, ilm olishda o‘z tartibini ilgari surib, o‘zboshimchalik qilsalar o‘quvchi bilan muallim orasida, ijtimoiy munosabatlarda psixologik, axloqiy murosasizlik va konfliktlar kelib chiqadi. Ijtimoiy tarmoqlarda tez-tez uchrab turadigan maktab va oliy o‘quv yurtlaridagi talabalar, o‘quvchilar muammolari asosan umumiy axloqiy tartiblarga bo‘ysunmaslik oqibatida kelib chiqmoqda. Bu kelishmovchiliklar asosida ta’lim sifati tushib ketmoqda. Bitta tarbiyasiz talaba salbiy xatti-harakati, xarakteri tufayli bir butun dars, ilm olish tartibi buzilishi oqibatida boshqa ilm oluvchi talabalarga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Eng yomoni shundaki, ba’zi ota-onalar farzandlarini bu salbiy xatti-harakatini qo‘llab-quvvatlab ta’lim muassasi xodimlari bilan asossiz janjallar ko‘tarishadi. Oqibatda ustozni psixologik emotsional holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va boshqa talabalarning ilm olish ishtiyoqining susayishiga olib kelmoqda. Ko‘pincha bu muammolar yechimsiz qolyapti, chunki bizning jamiyatimizda bu masalalarda qat’iy talablar ishlab chiqilmagan. Hozirgi zamon pedagogikasi talabalaridan kelib chiqib bu muammolarni hal qilish uchun qonun kuchi talab qilinadi. Ta’lim tizimiga adolat kerak. Chunki pedagogika sohasida ancha oldin ishlab chiqilgan ta’lim sifati me’yorlari zamon talablariga ijobiy javob bermayapti. O‘quvchialarga, talabalarga ularni ilm olishdagi mas’uliyatini va javobgarligini oshiruvchi talablarni ishlab chiqib, hayotga amaliy tatbiq qilish kerak. Aks holda biz ta’lim sifatini yuqori darajada ta’minlay

olmaymiz. Mutafakkir Kaykovus farzand tarbiyasida ilm olish va kasb o'rganishda muallimning beqiyos o'rnini ko'rsatib bergan. Kaykovus farzand tarbiyasi va ilm olishda ota-ona ta'sirida shakllanishini ko'satib, shu bilan birgalikda ustoz haqiqiy ilm va tarbiya beruvchi ekanligini ta'kidlaydi.

NATIJALAR. Luqmoni Hakimdan so'rabdilar: "Nega o'g'lingga nasihat qilaverasan?" Hakim javobida shunday debdi: "Yodingda bo'lsin, keksalarning yoshlarga nasihati hamisha suv-havoddek zarurdir. Bola bir nihol kabidir. Ulug'lar bog'bonning o'zidir. Bog'bon hamisha nihol parvarishida hushyor va qattiqqo'l, ayni vaqtda mehribon bo'lishi zarur. Niholning yon atrofdagi shox-butoqlarini vaqtida kesib turmasa, suv-o'g'itini bermasa, avj yaxshi bo'lmaydi. Zero, nasihat eshitmagan, tarbiya berilmagan farzand ham qarovini yo'qotgan ko'chat bilan barobar. Undan maqsad va orzuning mevasini hech qachon tera olmaysan..."[4] Ulug' mutafakkirlardan biri bo'lgan Luqmoni Hakimning farzand tarbiyasidagi bu fikrlari juda qimmatli nasihatlardan bo'lib, bolani yoshligidanoq to'g'ri tarbiyalash lozimligini uqtiradi. Farzand nihol kabi bo'lib uni yoshligidanoq chiroyli odob axloqqa o'rgatishimiz kerak. Aks holda yoshligida go'zal xulqqa o'rgatilmagan farzand qo'pol, dag'al, salbiy xislatli bo'lib shakllanadi. "Fozil odamlar shahri" asarida Abu Nasr Forobiy yozadi: "Inson aqliy qobiliyati esa u tug'ilgan vaqtidayoq (bola miyasida), tabiiy holda, salohiyat holida aqliy tushunchalarni (olam haqidagi bilimlarini) idrok etishga (qabul qilishga) tayyorlangan bo'ladi"[5]. Forobiy inson bilish qobiliyatini tadqiq qilar ekan, innellektual bilim olish qobiliyati insonga tug'ilishi bilan tabiiy holda berilgan. Inson tashqi ta'sir ya'ni tarbiya va bilim berish orqali komil inson fazilatlarini darajasigacha shakllanish imkoniyatiga tabiiy holda ega. Forobiy jamiyatda shaxslarining ilm olishi, axloqiy tarbiyasi bilan ustozlar, muallimlar shug'ullanishi lozim deb hisoblaydi. Forobiy komil inson shakllanishi haqida fikrlar ekan, o'zida 12 ta tug'ma axloqiy xislatni birlashtirgan inson komillikka erisha olishini ko'rsatadi: 1)sog'lom; 2)ziyrak; 3)kuchli xotiraga ega; 4)aqli; 5)notiq; 6)ilmi bo'lish; 7)nafsini tiyish; 8)odil; 9)ulug'likka intiluvchi bo'lish; 10)molparast bo'lmaslik; 11)adolatli; 12)qat'iyatli bo'lish. Mutafakkir jamiyatdagi insonlar tinch-totuv, ahillikda yashashi va baxt-saodatga eltuvchi jamoani yaratish uchun ilohiy axloqiy tarbiya muhimligini ko'rsatib beradi. To'g'rilik, jasurlik, do'stga sadoqat,

haqiqatni sevish kabi fazilatlarini egallashi lozim deb ta'kidlaydi.

XULOSA. Xulosa qiladigan bo'lsak, ulug'allomalarning bizga qoldirgan noyob merosini o'rganar ekanmiz, ularning bebaho o'g'itlari, nasihatlarini o'qib beixtiyor hozirgi zamon pedagogikasidagi muammolarni ko'z oldimizga keltiramiz. Ilm-fan, texnikaning rivojlanishi va uning jamiyatning barcha sohalariga ta'siri, shu jumladan ta'lim sohasiga ham ta'siri kuchli ekanligini ko'ryapmiz. Bu jarayon ko'plab tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, hali yakunlanmagan. Uning rivojlanishidagi ko'plab salbiy tomonlari axborotlarning ko'pligi va ilmiy rivojlanishlarni jamiyat a'zolari qay darajada o'zlashtirilishiga bog'liq. An'anaviy ta'lim tizimi va odob-axloqning tartibga soluvchi roli susayganligi sababli, zamonaviy jamiyatda ko'p narsa shaxsiy omillarni, malakali mutaxassislar qobiliyatini, yoshlar iste'dodini rivojlantirish jamiyatimiz oldidagi asosiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda. "Kishining o'z farzandini chiroyli odob-axloq bilan tarbiyalashi ko'p miqdordagi nafl sadaqa berishidan yaxshiroqdir"[6] deyiladi hadislarda. Eng asosiy tarbiyani muallim beradi, ammo birinchi tabiiy axloq oilada shakllanadi. Farzandlar odob-axloqi va ilm olishida ota-onaning ham xizmatlari beqiyosdir. Ulug' mutafakkirlarning bebaho ilmiy merosini o'rganib shunday xulosa qildikki: jamiyatni rivojlantirish, farovonlikka erishining birdan bir yo'li hozirgi ta'lim tizimini isloh qilish, yangi amaliy ta'lim va tarbiya berish uslublarini yaratish va hayotga tatbiq qilish lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad (Odob durdonalari). – Toshkent: O'zbekiston, 1990. –B. 258.
2. A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. –T. O'qituvchi, 1993.B.15.
3. Kaykovus. Qobusnoma. Yangi asr avlodi. 2019. B.83
4. Usmonxon Alimov. Oilada farzand tarbiyasi. Movarounnahr, 2017-yil. B.5.
5. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993-y. B.228
6. Oltin Silsila: 1-juz. Sahihul Buxoriy. - Toshkent, Hilol-nashr. 2016, B.136.

THE PART DIRECT ADDRESS AND PRONOUNS PLAY IN CHANGING VISITOR PERCEPTIONS IN TURKISH TOURISM ADVERTISING

*Djurayeva Zilola Djamolidinovna, Doctoral student of Tashkent State
University of Oriental Studies*

TURK TURIZM REKLAMALARIDA BEVOSITA MUROJAAT VA OLMOSHLARNING MEHMON TASAVVURLARINI O'ZGARTIRISHDAGI ROLI

*Djurayeva Zilola Djamoliddinovna, Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti tayanch doktoranti*

РОЛЬ ПРЯМОГО ОБРАЩЕНИЯ И МЕСТОИМЕНЕЙ В ИЗМЕНЕНИИ ВОСПРИЯТИЯ ПОСЕТИТЕЛЕЙ В ТУРЕЦКОЙ ТУРИСТИЧЕСКОЙ РЕКЛАМЕ

*Джураева Зилола Джамолиддиновна, докторант Ташкентского
государственного университета востоковедения*



<https://orcid.org/0009-0008-1691-4460>

e-mail:

djurayevazilola5@gmail.com

Abstract: This study explores the pragmatic functions of direct address and personal pronouns in Turkish tourism advertising, focusing on how linguistic strategies foster emotional engagement, cultural identification, and enhance the perceived hospitality of Türkiye as a travel destination.

Keywords: Turkish tourism, direct address, personal pronouns, pragmatics, advertising discourse, emotional engagement, cultural identification, hospitality, second-person pronouns, imperative verbs.

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot Turkiya turizm reklamalarida bevosita murojaat va shaxs olmoshlarining pragmatik funksiyalarini o'rganib, til strategiyalari qanday qilib hissiy bog'lanish, madaniy identifikatsiya va Turkiyaning mehmondo'st turistik yo'nalish sifatida qabul qilinishini kuchaytirishini tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: Turkiya turizmi, bevosita murojaat, shaxs olmoshlari, pragmatika, reklama nutqi, hissiy bog'lanish, madaniy identifikatsiya, mehmondo'stlik, ikkinchi shaxs olmoshlari, buyruq fe'llari.

Аннотация: Настоящее исследование анализирует прагматические функции прямого обращения и личных местоимений в турецкой туристической рекламе, сосредотачиваясь на том, как языковые стратегии способствуют эмоциональной вовлеченности, культурной идентификации и укреплению восприятия Турции как гостеприимного туристического направления.

Ключевые слова: туризм в Турции, прямое обращение, личные местоимения, прагматика, рекламный дискурс, эмоциональная вовлеченность, культурная идентификация, гостеприимство, местоимения второго лица, повелительные глаголы.

INTRODUCTION. In tourism marketing, direct communication and pronouns employed significantly influence a visitor's impression of sites and services. A pragmlinguistic study of Turkish tourist ads shows the many ways these elements interact communally, therefore providing

information on linguistic strategies and cultural implications. Strategic direct address using pronouns like *Sen* (you) or *Siz* (you, plural/formal) generates a conversational tone including the audience that also promotes personal connection. This is particularly relevant in the context of Turkish society, where

hospitality and personal relationships are much valued.

MATERIALS AND METHODS. One persuasive strategy that increases participation possibilities and draws potential visitors to a conversation is a direct approach. This strategy encourages the reader to participate, therefore creating a direct contact between the advertising and its target market. For example, the consistent inducement in lines like *Keşfet* followed by *Sen* (you) shapes the message with an enticing tone, thereby transforming the introduction of a mere advertising tool into a cheap invitation. Ads engage with culturally based hospitality traditions by using the comfort of second-person pronouns, therefore putting the reader as an active participant in the trip being offered.

DISCUSSION. Pragmatically, the use of pronouns and the background of direct address expectations and viewpoints on the journey experience. By using *Sen* one not only exhibits informality but also a cultural norm supporting intimacy and personal engagement. Conversely, using *Siz* might show formality and respect, which would appeal to many demographics of guests, especially if the target audience is the global one. This duality is a unique opportunity for Turkish tour ads to bridge cultural divides and suit various communication media preferences. Increasing Türkiye's appeal as a travel destination relies on this balance; as Skubis and Mosek [1] illustrate, the intricacies of language in advertising directly influence consumer behavior, therefore impacting not just attention but also the perceived quality of the experience being advertised.

This initial research offers a structure for understanding how language evolves dynamically with cultural implications. Apart from shifting perceptions, the varied usage of pronouns and direct speaking reflects the bigger society dynamics. It highlights how adding the values and goals of the Turkish society may help language serve as a cultural carrier. These language tools highlight the need for clear messages that connect with the different identities of visitors, as they help tourists see themselves more in the experiences offered.

RESULTS. Moreover, the effects of these communication strategies extend beyond the direct involvement of the customer. From a broader cultural standpoint, they present Türkiye as a

welcoming destination available for travel and personal interaction. This reveals an awareness of tourism not just as an economic transaction but also as a required component of experimental life in which connection and shared experience take center stage. Therefore, our analysis of pronouns and direct address in Turkish tourist advertising not only reveals the purpose of language in consumer perception but also emphasizes underlying cultural narratives that govern the construction and effectiveness of these ads in the global travel market. works of literature, Direct direction in Turkish tourist marketing is a fundamental communication tactic that significantly boosts emotional connection and supports a different cultural image of Türkiye as a healthcare destination. Direct addresses let marketing professionals create a personal connection with potential guests, thereby not only attracting attention from bystanders but also motivating them to picture themselves within the given tourist experience. This personal touch – which embodies Turkish cultural values of hospitality and community – evokes an immediate sensation of connection and heat related to using pronouns in the second person, including *Sen* (you) and *Siz* (you, formal/plural) and imperative verbs.

Taronna [2] claims that the visual standards used in advertising significantly contribute to building cultural identity; this is particularly true for Türkiye's travel campaigns. The intentional use of imperatives such as *Keşfet* (Discover), *Gel* (Come), or *Yaşa* (Experience) reveals a clear path pointing toward involving prospective visitors. Such verb use drives action and accentuates the immersive experiences Türkiye delivers, therefore generating a believable tale appropriate for the emotional demands of the audience.

Analyzing this via a pragmatic lens, El-Dakhs et al. [3] highlight the role interactional metadiscourse contributes to defining visitor perceptions. Including personal pronouns along with imperatives helps to improve the openness of communication, which produces a tone of discourse that reduces the gap separating the marketer from the target market. This strategy encourages an informal commitment by stating that the marketer promotes discussion and participation in addition to providing travel statistics. This approach so allows Türkiye to be a welcoming and comfortable location, thereby

fostering the points of view to participate in a shared cultural experience.

Moreover, crucial to establishing the scene of enjoyment and adventure are compelling linguistic elements used in Turkish travel advertising. Phongphon et al. [4] claim that the connection between language and communication style not only provides required information but also improves the general beauty of destiny. Direct direction lets advertisers design rich scenarios, historical allusions, and cultural experiences that motivate viewers to participate actively on the trip. Apart from providing the depth of its offers, this interaction aims to have a long-lasting impact on the cultural character of Türkiye.

CONCLUSION. Furthermore, the cultural effects of these communication strategies go beyond their mere business appeal. They reflect broader widespread societal misconceptions on the Turkish identity that highlight friendliness, hospitality, and inclusiveness. Direct language mixed with culturally appropriate images indicates an invitation that is both obvious and implicit, therefore promoting the sense that Türkiye is a place where individuals may form actual connections with the people themselves as well as with the surroundings. This clarifies the expectations and perceptions of visitors from the beginning, thereby promoting a familiarity and expectation very necessary to influence travel decisions.

The effective use of direct direction and pronouns in Turkish tourist announcements helps to summarize emotional commitment and promotes an image of Türkiye rich in culture. From a pragmalinguistic standpoint, we may see how these language strategies not only boost tourism but also deliberately foster sentiments consistent with a welcoming national identity. The study of pragmatic elements in tourism advertising not only highlighted the intended marketing objectives but also the many consequences these ads have on the impressions of international guests in view of globalization. Appreciating the significance of direct address and pronouns for guiding visitors' expectations and experiences becomes easier when we use a pragmatic approach. Particularly, the intentional use of second-person *Sen* (you) pronouns in approaching probable guests establishes a direct link, therefore promoting intimacy and personal engagement. This direct approach encourages visitors to see

themselves as active participants in the Turkish cultural scene and helps to create pleasant surroundings.

In addition, the effects expand beyond linguistic choices to encompass the more general socio-pragmatic events coming from an ever-connected society. Language and cultural identity interact to demonstrate in ads that not only provide information about places but also encourage sharing unique cultural experiences. The intentional use of inclusive language and images helps to strengthen narratives emphasizing hospitality – a basic aspect of Turkish civilization. Such advertisements, viewed through the lens of Wattanawong's [5] findings, represent how localized communication strategies can appeal to an international audience while maintaining a distinct national identity.

Globalization challenges the traditional concepts of cultural contact and generates a dynamic interaction wherein localized advertising strategies may influence and change the perceptions of global-scale visitors. For example, pragmatic decisions made in Turkish advertising might reflect a flexibility in various cultural environments, presumably inspired by international cosmopolitan ideals maintained by foreign guests. By means of direct contact, ads express cultural heat and actively sell Türkiye as a desirable destination in the mind of the traveler.

Moreover, included in the research are translation strategies, underlining the opportunities and challenges given when cultural nuances are spread across language borders. Vaňková [6] claims that if ads are effective in many markets, they must navigate the complexity of cultural perspective. Thus, the emotional and cultural context of the target audience should find resonance in the pragmatic aspects of language, including pronouns and styles of address. Reiter et al. [7] stress the need for marketers to consider local cultural norms by means of tale development for international audiences, thus ensuring that generated reality meets the expectations of different identities.

These findings have significant consequences for tourism marketing strategy depending on which research provides. Apart from fulfilling the emotional needs of potential visitors, the direct address and personal pronouns used in the narrative help to portray Türkiye as a travel destination in an inclusive and attractive manner. As globalization

promotes increased interaction across civilizations, the effectiveness of tourism marketing depends on their ability to communicate culturally relevant themes that cut over language barriers. Thus, the study of pragmatic aspects defines the careful balance between universal appeal and local character as it provides necessary information on how Turkish tourist marketing may remain effective in a globalized tourism environment.

REFERENCES:

1. Skubis I., Mosek M. Language of advertising in the tourism industry // Scientific Papers of Silesian University of Technology. Organization & Management. Issue: 203, 2024.
2. Taronna A. Aesthetic conventions and pragmalinguistic devices in computer-mediated communication: Q&A websites as a case study // Anglistica AION: An Interdisciplinary Journal. Volume: 21, 2017. pp. 31–51.
3. El-Dakhs D.A.S., Yahya N., Pawlak M. Investigating the impact of explicit and implicit instruction on the use of interactional metadiscourse markers // Asian-Pacific Journal of Second and Foreign Language Education. Volume: 7, Issue: 1, 2022. Article 44.
4. Phongphon B., Chumpavan S., Kardkarnklai U.M. persuasive linguistic features used in the consequence of setting in tourism brochures produced by a tourism organization in Thailand. Doctoral Dissertation. Srinakharinwirot University, 2017.
5. Wattanawong W. English for tourism: presentation of speech acts in relation to language interactions in Thai hotel settings. Doctoral Dissertation. University of Auckland, 2023.
6. Vaňková I. Translating tourism promotional materials. 2023.
7. Reiter R.M., Downing R.H., Iveson M. Global expectations, local realities: all-inclusive hotel reviews and responses on tripadvisor // Contrastive Pragmatics. Volume: 1(aop), 2023. pp. 1–33.



BIOGRAFIK METODNING SHAKLLANISHI VA ADABIYOTSHUNOSLIKDAGI AHAMIYATI

*Bobokulova Zulxumor Fayzullayevna, Guliston davlat universiteti
magistranti*

THE FORMATION OF THE BIOGRAPHICAL METHOD AND ITS SIGNIFICANCE IN LITERARY STUDIES

*Bobokulova Zulxumor Fayzullaevna, Master's student at Gulistan
State University*



<https://orcid.org/0009-0000-6026-0136>

e-mail:

charosbobokulova@gmail.com

СТАНОВЛЕНИЕ БИОГРАФИЧЕСКОГО МЕТОДА И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ В ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ

*Бобокуллова Зулхумор Файзуллаевна, магистрант
Гулистанского государственного университета*

Annotatsiya: Maqolada biografik metodning paydo bo'lishi, shakllanish bosqichlari hamda adabiyotshunoslikda yuzaga kelgan ilk qo'llanmalari tahlil qilinadi. Shuningdek, biografik metodning nazariy asoslari, uni adabiy tahlilda qo'llash usullari va adabiy tanqidagi roli tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: metod, biografik metod, tarixiy haqiqat, davr koloriti, badiiy to'qima, yondashuv.

Abstract: The article analyzes the emergence of the biographical method, the stages of its formation, and its first applications in literary studies. The theoretical foundations of the biographical method, methods of its application in literary analysis, and its role in literary criticism are also studied.

Keywords: method, biographical method, historical truth, color of the era, artistic texture, approach.

Аннотация: В статье анализируется возникновение биографического метода, этапы его становления и первые применения в литературоведении. Были также изучены теоретические основы биографического метода, способы его применения в литературном анализе и его роль в литературной критике.

Ключевые слова: метод, биографический метод, историческая правда, колорит эпохи, художественная фактура, подход.

KIRISH. Biografik metod — bu muallif hayoti, uning ruhiy kechinmalari va ijtimoiy-madaniy muhitini o'rganish orqali adabiy asarni tahlil qilishga asoslangan yondashuvdir. Ushbu metodning tarixiy ildizlari qadimgi davrlarga borib taqaladi. Biografik metodning shakllanishi tarixiy va falsafiy tafakkur taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq bo'lib, u orqali adabiy ijod shaxsiyat va davr kontekstida yoritila boshlangan. Qadimgi yunon va rim mualliflari (Plutarx, Suetonius) mashhur shaxslar biografiyasi orqali tarixni yoritganlar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Adabiyotshunoslikda biografik

metod tamoyillarining ishlab chiqilishi va umuman, shu metod asoschisi sifatida fransuz tanqidchisi va shoiri Sharl Ogyusten Sent-Byovga qarash bo'ladi. Uning "Adabiy portretlar" kitobi aynan biografik metod tamoyillari asosida yozilgan. Bu asarda XVI asr poeziyasi, Kornel, Rasin, Molyer, Lafonten ijodi; XVIII asr yozuvchilaridan Volter, Didro, Bomarshe, Russo ijodini hamda XIX asrdan Shatobrian, Gyugo, Myusse, Jorj Sand va Flober ijodini tadqiq qilgan. U adiblarning biografiyasi va ijodini bir butunlikda talqin etadi. Bu haqda Sent-Byov "Adabiy portretlar" to'plamida: "Meni har doim xatlar, suhbatlar, fikrlar, xarakterlarning o'ziga xos

fazilatlarini, ma'naviy-ruhiy qiyofasi, bir so'z bilan aytganda – mashhur yozuvchilarning biografiyasini o'rganish o'ziga jalb etib keladi”, – deb aytib o'tadi.

NATIJALAR. XIX asrda Vilgelm Diltay tomonidan biografik metodning nazariy asoslari ishlab chiqilgan. Adabiyotshunoslikda biografik metod XIX–XX asrlar tanqidida muallif shaxsi va asar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishda keng qo'llanilgan. Adabiyotshunoslikda biografik metod yozuvchi hayoti, uning shaxsiy tajribalari, ruhiy holati, ijtimoiy muhiti va tarixiy davri orqali adabiy asarlarni chuqurroq anglash imkonini beradi. “Adabiyotshunoslikda biografik tadqiq usulidan foydalanish jiddiy adabiy muammoni tarixan to'g'ri, adolatli yechishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki u orqali yozuvchilarning sirli o'tmishi ayonlashadi. Ular yaratgan asarlarning janriy, g'oyaviy xususiyatlari yanada yorqinlashadi”¹. Adabiy asarni yozuvchining hayoti bilan bog'lab o'rganish — matndagi obrazlar, g'oyalar, mavzular va syujetlar qanday sharoitda yaratilganini tushunishga xizmat qiladi. Bu metod asarning ideya-ma'noviy qatlamlarini chuqurroq anglashga yordam beradi.

MUHOKAMA. Biografik metod adabiy asarni muallifning hayotiy tajribalari va dunyoqarashi bilan uzviy bog'liq holda tahlil qiladi. Ushbu yondashuv orqali yozuvchi ijodiga ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy, siyosiy va madaniy omillar aniqlanadi. Biografik metod shaxsiyat va ijodiylik o'rtasidagi ichki aloqalarni yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. “Biografik metod esa yozuvchi va badiiy asar juftligiga asoslanadi. Ijodkorning shaxsiy hayotiga, yashagan muhitiga, ruhiy-psixologik holatiga, shaxsiy qiziqishlariga, asarni yozishga turtki bergan ilhom faktorlariga, ijodkor laboratoriyasiga va shu kabi qator tarixiy-individual masalalarga jiddiy e'tibor beradi”². Abdulla Qodiriy asarlaridagi ijtimoiy-siyosiy muammolar uning hayoti va davr bilan chambarchas bog'liq. Cho'lponning she'riyati va nasriy asarlarida shaxsiy kechinmalari va milliy uyg'onish davri aks etgan.

“Jahon adiblari adabiyot haqida” kitobida amerikalik mashhur yozuvchi Irving Stoun “Biografik qissa haqida” nomli maqolasida biografik

asar yaratishda yozuvchining mahorati hamda qanday tamoyillarga e'tibor qaratmog'i haqida qimmatli fikrlarni keltirgan:

“Garchi biografik qissa muallifi yaxshi kitob uchun material sifatida xizmat qilishi mumkin bo'lgan biografiyalarni o'z xohishicha izlashga va tanlashga qonuniy haqi bo'lsa-da, u xayolida pishitib qo'ygan syujet liniyasini qiziqarliroq qilish maqsadida bunday biografiyaning ayon ko'rinib turgan faktlaridan ko'z yumishga haqli emas. Yozuvchi tarixiy haqiqatni ag'dar-to'ntar qilib yoxud rasvosini chiqarib, uni o'zi uchun ma'qul qolipga solmoqchi bo'lsa yoxud kitobxonga manzur bo'ladigan ko'yga keltirsa, u o'zini bu janrga bag'ishlab fojiona xatoga yo'l qo'ygan bo'ladi. Boshqa tomondan qaraganda, biografik qissalarning muallifi pand-nasihat yo'lga o'tib ketsa yoxud siyosatga berilsa, u publitsistga aylanadi. Biz biografik qissalar yozadigan amerikalik mualliflarning noxush tajribalariga guvoh bo'ldik. Ular tarixni o'z qarichlari bilan o'lchab, uni o'z qarashlariga xizmat qildirish maqsadida o'zlaricha yangidan to'qib-bichdilar. Bunaqa to'qib-bichishlar oqibatida yuzaga kelgan narsa na biografiya bo'ldi, na qissa bo'ldi, ular oddiy tashviqotdan nariga o'tolmadi”³. Maqola biografik qissa haqida yozilgan bo'lsa-da, ammo undagi tahliliy fikrlar biografik metodda yaratilgan barcha janrdagi asarlar uchun birdek taalluqlidir. Demak, yozuvchi o'zining badiiy konsepsiyasi uchun ayon bo'lib turgan tarixiy haqiqatlardan ko'z yuma olmaydi. Shu bilan bir qatorda, biografik asar muallifi siyosatga berilib ketishi, didaktikaga haddan ortiq urg'u berishi ham uning badiiy uslubiga salbiy ta'sir o'tkazadi.

Zamonaviy o'zbek adabiyotida ham bir qator biografik metodda yaratilgan bir qator asarlar mavjud. Jumladan, Isajon Sulton ijodiga mansub “Alisher Navoiy”, “Bilga Xoqon”, “Ma'suma”, “Abu Rayhon Beruniy” kabi romanlari shular jumlasidandir. Yozuvchi ushu bu asarlarining barchasida o'zbek xalqining o'tmishiga nazar tashlab, millatning eng ilg'or, ziyoli, ma'rifatparvar va jonkuyar prototiplarini yaratishga urinadi. Shu bilan bir qatorda, yaratayotgan obrazi va tarixiy koloritni ham uyg'un holda tasvirlaydiki, kitobxon,

¹ Obodon Adizova. Sharl Ogyusten de Sent-Byov – biografik metod asoschisi. O'zbekistonda xorijiy tillar ilmiy-metodik jurnal. № 4/2019. <https://journal.fledu.uz/uz/sharl-ogyusten-de-sent-byov-biografik-metod-asoschisi/>

² Bahodir Karimov. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. – T. Muharrir. 2011-yil. – B. 18.

³ Irving Stoun. Biografik qissa haqida. Jahon adiblari adabiyot haqida (Ozod Sharafiddinov tarjimalari). – T. Ma'naviyat. – B. 99.

beixtiyor, o'sha davr qahramoniga aylanadi va voqealar rivojini yaqindan ko'ra oladi, his qiladi, ta'sirlanadi va ishonadi. Bu esa, albatta, yozuvchining o'ta sinchkov ekanligi, yaratayotgan obrazlari va tarixiy davr haqida mufassaal ma'lumotlarga ega ekanligini, badiiy mahoratining yuqori darajadiligini ham ko'rsatib beradi. Ayniqsa, "Abu Rayhon Beruniy" romanida yaratgan Beruniy obrazi o'zbek romanchiligida yangi hodisa bo'ldi, deyish mumkin. Negaki hali shu vaqtgacha qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy haqida bunday katta hajmli va ko'lamdor badiiy asar yaratilmagan edi. Yozuvchi ushbu asarni yaratishda, eng avvalo, Beruniyning o'z asarlari, xususan, "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Mineralogiya", "Hindiston" asarlariga, shuningdek, Mirkarim Osimning "Jayxun ustida bulutlar", Aziz Qayumovning "Beruniy va adabiyot" kabi asarlari bilan yaqindan tanishib, ushbu asarlarda keltirilgan ma'lumotlardan samarali foydalanadi. Ushbu roman haqida tadqiqotchilardan Anvar Allambergenov o'zining "Abu Rayhon Beruniy obrazi Isajon Sulton talqinida" nomli maqolasida quyidagi fikrlarni keltiradi: "Roman alloma obrazi talqin qilingan boshqa asarlarga qaraganda qator jihatlari bilan o'ziga xoslik kasb etadi. Jumladan, yozuvchi Beruniy davrini to'laqonli aks ettirishga urinish bilan bir qatorda hazrat Beruniyning hayotini, shaxsiyatini, uning diniy, falsafiy, siyosiy qarashlarini to'laqonli ochib berishga harakat qilgan. Qolaversa, Abu Rayhon Beruniyning ilmiy faoliyati, olib borayotgan tadqiqot ishlari uchun asqatarlik, o'z qo'llari bilan yasagan moddalarning solishtirma og'irliklarini o'lchovchi asbob, qimmatbaho toshlarning og'irligini aniqlash uchun nozik tarozu, tutash idishlar qoidasiga asoslangan uskuna, yuqori aniqlikdagi usturlob va armilla kabi har xil hajmdagi asbob-uskunalaridan iborat qo'l ixtirolari, aniq ilmiy dalillar bilan ilgari surgan aql kashfiyotlarini asarning boshidan to oxiri qadar goh sharoit

⁴ Anvar Allaambergenov. Abu Rayhon Beruniy obrazi Isajon Sulton talqinida. "O'zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari" mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy onlayn-onlayn anjumani. – B. 705.

<https://uzresearchers.com/index.php/Conferences/article/view/2031/1853>

⁵ Sevara Babayeva. Isajon Sultonning "Abu Rayhon Beruniy" romanida tarixiylik tamoyillari. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Xorazm Ma'mun akademiyasi "Beruniy va Ibn Sino – Ikkinchi ming yillikning taqdirini o'zgartirgan daholar: Ma'mun akademiyasining jahon fani taraqqiyotidagi

taqozosiga ko'ra voqealar yordamida, goh obrazlar tilidan har xil shaklda ko'rsatib o'tadi"⁴.

"Abu Rayhon Beruniy" romani Isajon Sultonning tarixiy romanlaridan biri bo'lib, ushbu asar X-XI asrlar Movarounnahr, Xuroson, Hindiston tarixi, G'aznaviyalar sulolasi hukmronligidagi ijtimoiy va siyosiy vaziyat, shu davrdagi ilm-fanning davlat va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati haqida, shuningdek, insoniyat tarixida turli davr va makonda paydo bo'lgan e'tiqodiy qarashlar haqida ham hikoya qiladi. Muallif ushbu asarni yozishdan avval shu davr va tarixiy shaxslar haqida anchagina faktlarni to'plaganligi romanning tarixiylik mezonlarini to'laqonli ochib berishga xizmat qiladi"⁵. Ayniqsa, yozuvchi o'z davrida ilm-fan raqnaqiga hissa qo'shgan, olim-u fozillar rahnamolari bo'lgan hukmdorlarga nisbatan noto'g'ri talqinlarni tuzatishga urinadi. Bu borada muallifning o'zi quyidagi fikrlarni keltirib o'tadi: "Avvallari xoh Shamsulmaoliy, xoh Mahmud G'aznaviy – qahri qattiq, johil, olimni haqorat qilib, zug'um o'tkazgan hukmdorlar sifatida tasvirlangan edi. Aslida esa zamona olimlari va Beruniyning o'zining e'tiroficha, unday bo'lmagan"⁶. Ya'ni Beruniy o'z asarlarida doimo hukmdorlar rahnamoligida ilm-fan bilan mashg'ul bo'lganligi, buning uchun yetarli sharoit va imkoniyat mavjud bo'lganligini yozib o'tadi. Isajon Sulton Beruniy haqidagi asarini yozishdan oldin olimning hayot yo'li haqida keng qamrovli "Beruniyning aql mash'ali"⁷ deb nomlangan maqolasini "Tafakkur" jurnalida e'lon qiladi. Maqolada yozilishicha, adib Xorxe Luis Borxesning "Marvlik hakim yoxud niqobli bo'yoqchi" hikoyasini o'qib, undagi bosh qahramon Muqanna obrazining tarixini yaqindan bilish uchun "Osor ul-boqiya" asarini o'qib chiqadi va Beruniy zakosi, tasavvur hamda tafakkur olamiga mahliyo bo'lib qoladi"⁸. Shundan so'ng adib Beruniyning barcha asarlari va u haqidagi tarixiy asarlar bilan ham tanishib chiqadi.

tutgan o'rni" mavzusidagi Xalqaro ilmiy konferensiyasi materiallari. Xiva, 4-may 2023-yil. – B. 163.

⁶ "Beruniy bir kishi hayoti mobaynida nimalar qila olishi mumkinligining yorqin timsolidir" – yozuvchi Isajon Sulton bilan suhbat <https://oyina.uz/uz/article/2053>.

⁷ Isajon Sulton. Beruniyning aql mash'ali. //Tafakkur. 2023-yil 1-son.

⁸ Isajon Sulton. Pargor, chizg'ich, usturlob va armilla bilan olamshumul kashfiyotlar qilgan Beruniyning hayot xaritasi. <https://www.oyina.uz/uz/article/1668>.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, biografik metodning paydo bo'lishi — adabiy tanqidda shaxsga, ruhiyatga va tarixiy kontekstga e'tiborning ortganligini bildiradi. Ushbu metod bugungi kunda ham adabiy tahlilning muhim vositasi bo'lib qolmoqda. Adabiyotshunoslikda biografik metod adabiy asar va uning muallifi o'rtasidagi aloqani o'rganishga imkon berib, asar mazmunini chuqurroq anglashni ta'minlaydi. Bu metod ayniqsa tarixiy-badiiy tahlil, adabiy portretlar yaratish va muallif tafakkurini tadqiq qilishda muhim vosita hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Irving Stoun. Biografik qissa haqida. Jahon adiblari adabiyot haqida (Ozod Sharafiddinov tarjimalari). – T.: Ma'naviyat. – B. 99.
2. Bahodir Karimov. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. – T.: Muharrir. 2011-yil. – B. 18.
3. Obodon Adizova. Sharl Ogyusten de Sent-Byov – biografik metod asoschisi. O'zbekistonda xorijiy tillar ilmiy-metodik jurnal. № 4/2019. <https://journal.fledu.uz/uz/sharl-ogyusten-de-sent-byov-biografik-metod-asoschisi/>
4. Anvar Allambergenov. Abu Rayhon Beruniy obrazi Isajon Sulton talqinida. “O'zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari” mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy oflayn-onlayn anjumani. – B. 705. <https://uzresearchers.com/index.php/Conferences/article/view/2031/1853>
5. Isajon Sulton bilan suhbat. Beruniy bir kishi hayoti mobaynida nimalar qila olishi mumkinligining yorqin timsolidir. <https://oyina.uz/uz/article/2053>.
6. Isajon Sulton. Beruniyning aql mash'ali. //Tafakkur. 2023-yil 1-son.
7. Isajon Sulton. Pargor, chizg'ich, usturlob va armilla bilan olamshumul kashfiyotlar qilgan Beruniyning hayot xaritasi. <https://www.oyina.uz/uz/article/1668>.
8. Sevara Babayeva. Isajon Sultonning “Abu Rayhon Beruniy” romanida tarixiylik tamoyillari. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Xorazm Ma'mun akademiyasi “Beruniy va Ibn Sino – ikkinchi ming yillikning taqdirini o'zgartirgan daholar: Ma'mun akademiyasining jahon fani taraqqiyotidagi tutgan o'rni” mavzusidagi Xalqaro ilmiy konferensiyasi materiallari. Xiva, 4-may 2023-yil. – B. 163.



ADABIYOTSHUNOSLIKDA IJODKOR SHAXS VA BADIY KONSEPSIYA MASALASI

*Babayeva Sevara, Guliston davlat universiteti katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

THE ISSUE OF THE CREATIVE PERSON AND THE ARTISTIC CONCEPT IN LITERARY STUDIES

*Babaeva Sevara, Senior Lecturer, Gulistan State University,
Doctor of Philosophy in Philology (PhD)*

ПРОБЛЕМА ТВОРЧЕСКОЙ ЛИЧНОСТИ И ХУДОЖЕСТВЕННОЙ КОНЦЕПЦИИ В ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ

*Бабаева Севара, старший преподаватель Гулистанского
государственного университета, доктор философии по
филологическим наукам (PhD)*



<https://orcid.org/0009000505973156>

e-mail:

abrorbabaev01@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiyotshunoslikdagi muhim masalalardan biri ijodkor shaxs hamda badiiy tafakkur kabi nazariy tushunchalar tadqiqi haqida so'z boradi. Shu bilan bir qatorda, badiiy konsepsiya masalasi tahliliga ham alohida to'xtalib o'tilgan. Ushbu nazariy masalalar jahon hamda o'zbek adabiyotshunosligidagi olimlar, faylasuflar hamda ijodkorlar qarashlaridan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: ijodkor, ijodkor shaxs, badiiy konsepsiya, badiiy tafakkur, ijodiy ong, shaxsiy "men", poeziya, san'at, adabiyot.

Abstract: This article discusses the study of such important issues in literary studies as the creative person and theoretical concepts such as artistic thought. Along with this, special attention is paid to the analysis of the issue of the artistic concept. These theoretical issues are discussed using the views of scholars, philosophers and artists in world and Uzbek literary studies.

Keywords: creator, creative person, artistic concept, artistic thought, creative consciousness, personal "I", poetry, art, literature.

Аннотация: В статье рассматривается один из важных вопросов литературоведения — изучение таких теоретических понятий, как творческая личность и художественная мысль. Кроме того, особое внимание уделяется анализу проблемы художественной концепции. Эти теоретические вопросы основаны на взглядах ученых, философов, творческих деятелей мирового и узбекского литературоведения.

Ключевые слова: творец, творческая личность, художественная концепция, художественное мышление, творческое сознание, личностное "Я", поэзия, искусство, литература.

KIRISH. Ijodkor shaxs doimo o'zligini anglashga va shu bilan birgalikda, o'zi yashab turgan olam, u mansub bo'lgan jamiyat va hayotdan ma'ni izlashga, inson umrining mohiyatini tushunishga urinadi. Bu esa muttasil davom etuvchi jarayon, negaki ijodkor bu rivojlanishning intihosiga yetar ekan, uning ijodiy yaratuvchanligi ham o'z nihoyasiga yetadi. San'at – bu inson ongi va

tasavvuri tomonidan yaratilgan eng muhim qadriyatlardan biridir. Jamiyat taraqqiyoti darajasini belgilovchi omillar orasida san'at va san'atkorning o'rni hamisha alohida salmoqli bo'lib kelgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. "San'at hissiyot va tafakkurning estetik o'lchovidir. Bu inson qalbiga naqsh solgan go'zalliklarning butunligidir. San'atdan,

san'atkorlardan mahrum xalqning sog'lom o'tmishi ham, kelajagi ham bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun ham san'at barcha davrlar va qalblarning umumiy maxrajidan joy oladi"¹. Demak, san'atning sehrli kuchi ijtimoiy hayotni mazmunli qiladigan, dunyoning qayerida bo'lmasin, unga rang va hayajon qo'shadigan yagona hodisadir. San'atning barcha sohaları, u xoh tasviriy, xoh so'z san'ati bo'lishidan qat'iy nazar, insoniyat ruhiyatining nozik qatlamlariga o'z ta'sirini o'tkazib boraveradi. Shuning uchun ham barcha davrlarda ijod va ijodkor dunyoqarashi kabi tushunchalar o'zining muhim ahamiyatiga ega bo'lgan. Belinskiy badiiy adabiyotga san'at turi sifatida yondashar ekan, uning qolgan barcha san'at sohalaridan yuqorida turishini aytib o'tgan. U poeziya erkin inson so'zida ifodalanishi, so'z esa – ham tovush, ham kartina, ham aniq va ravshan aytilgan tasavvuri ekanligini, ayni shu sababdan poeziya (badiiy adabiyot) boshqa san'at turlarining barcha elementlarini qamrab olishi va ularning har biridan unumli foydalanishini ta'kidlaydi.

NATIJARLAR. Dunyoga mashhur faylasuf Artur Shopengauer o'z asarlarida ijod va ijodkor dunyoqarashi haqida inson erkini belgilaydigan ma'nisiz va uzun hayotga mazmun bag'ishlaydigan, hayot sahrosidagi yolg'izgina buloq – bu estetik zavq, ya'ni ijodkorlik deb hisoblaydi. Inson ijod qilish va yaratish orqali dunyoning tushkunligini ham, ma'nisizligini ham yengib o'tadi, uni o'z erkiga bo'ysundiradi, uni o'zi yaratishga kirishadi, shu orqali o'zligini va dunyoni yaratadi. Tasavvurdagi dunyo bu ijodiy dunyodir. Demak, ijodkor shaxs butun dunyoni o'zining ratsional va irratsional tasavvurlariga bo'ysundirib, yangi bir olamni, o'z botinidagi individual borliqni obrazlar va majozlar vositasida asarlarida akslantiradi. Faylasufning fikriga ko'ra, ijodkor insonning botinida ilohiy mag'iz bo'ladi va aynan mana shu narsa insonni butun olam va undagi yaratilqlar bilan bog'lab turadi. Shuningdek, Shopengauer o'zidan boshqa hech narsa mavjud emasligi, borliq va undagi narsalar faqat uning tasavvuri va irodasi tufayli mavjudligini o'z nazariyalarida ta'kidlab o'tadi. Ya'ni, olamni anglash, avvalo, insonni, uning botinini anglashdan boshlanadi, agar inson ruhiyatidagi murakkabliklar

chuqur o'rganilmas ekan, olamni anglash jarayoni hech qachon mukammallikka erishmaydi.

MUHOKAMA: Psixanalitika fanining asoschilari Zigmund Freyd va Karl Yung nazariyalariga ko'ra, inson botinining asosini aql inobatga olmagan, chetga surgan, ong ostida saqlanib qolgan turli fikrlar, kechinmalar, iztiroblar, tasavvurlar, axborotlar, mayllar tashkil etadi. Voqelikni obrazlar shaklida qabul qilish – Yung nazarida psixik-ruhiy qabul qilishdir. Shuning uchun ham ijod – bu ong osti kechinmalarining o'zini namoyon qilishidir. Ya'ni, ijodkor yangi asarini yaratish jarayonida har qanday obrazni tasvirlamasin, uning tag zamirida muallifning o'z qiyofasi, iztiroblari, kechinmalari aks etadi. Zigmund Freydning fikriga ko'ra, o'zini baxtli hisoblagan emas, balki o'z hayotidan qoniqmagan inson badiiy ijod bilan shug'ullanadi, go'yoki yaratayotgan asarlari orqali ruhiyatidagi bo'shliqlarni to'ldiradi, o'zi erishmagan ma'naviy va ruhiy ehtiyojlarini qondiradi. Polyak adabiyotining mashhur namoyandalaridan biri Yan Parandovskiy ham yuqoridagi fikrlarga mushtarak tarzda ilhom va ijod jarayoni to'g'risida o'zining "So'z kimyosi" nomli asarida quyidagi so'zlarni aytadi: "U ko'proq emotsional xarakterda bo'ladi. Qayg'u, g'amdan tez quvonch, shodlikka o'tish yoki, aksincha, sezgi organlariga ta'sir etish (yorug'lik, rang, ovoz, tovush, hid va hokazo) bizni o'ziga xos hayajonga soladi va qattiq ta'sirlanish, ekzaltatsiya (kuchli hayajon), chuqur qayg'u, alam yoki qattiq og'riq, ichki osoyishtalik yoki shod-xurramlik paytida fikrimizning yashirin, sir tutilgan ish samarasi ong sirtiga chiqadi"². Ya'ni bu holat yozuvchida uzoq vaqt davomida sodir bo'ladi. Uning tafakkuriga o'mashib olgan kuchsiz bir murtak oylar, yillar davomida yetiladi. Ijodkorning miyasi va ko'nglida sodir bo'layotgan evrilishlardan oziqlanib, o'sib boradi. Va qachondir, kutilmagan bir vaqtda, u birdaniga yashovchan obraz qiyofasida o'zini namoyon etadi³. Bu borada adabiyotshunos olim H.Umurov shunday fikrlarni keltirib o'tadi: "Har birimizda butun odamzod shu vaqtgacha boshidan kechirgan insoniy xususiyatlarning kurtagi yashirin tarzda mavjud. Ular har bir qalbning chuqurida yota beradi. Lekin, ulardan birortasini uyg'otish zarurati

¹ Sanatuzerinedusunceler <https://www.hurriyet.com.tr/sanat-uzerine-dusunceler-227189>

² Parandovskiy Y. So'z kimyosi. – T.: Yangi asr avlodi, 2022. – B. 145-146.

³ O'sha manba. – B. 146.

tug'lsa, shunga tashqi talab, ehtiyoj bo'lsa, tasavvurimizda jonlanishi mumkin"⁴. Demak, ijodkorning negizi uning botinidagi ko'zga ko'rinmas bir kurtak bo'lsa, uning yuzaga chiqishi, o'sib-unishi uchun ma'lum bir ehtiyoj, talab bo'lmog'i darkor. Adib Yuxan Borgen esa "yozuvchi bo'lmoq qalbingni odamlarga ishonib ochib bermoqdir... muallif qalbining eng teran puchmoqlarida ardoqlab yurgan boyligini sizga ishonib ochib beradi"⁵, deydi. Ya'ni yozuvchi boshqa insonlar singari o'zining inja tuyg'ulari, ardoqli xayollarini o'zgalardan berkita olmaydi. U har qancha urinmasin, har bir asarida o'zining qaysidir botiniy qirrasini namoyon etib boraveradi. Ijod jarayoni esa bevosita xayolot va tasavvur bilan bog'liq jarayon. Xayolot insonning hayoti davomida to'plagan axborot va sezimlari majmuasidir. "Xayolot tajribani ilib oladigan bir uskuna. U bizning fikrlarimizni kerakli tomonga yo'naltirib turadi..."⁶ Mana shu xayollar orqali inson ijod jarayonida turli mushohadalar yuritadi, dard chekadi, azoblanadi, sevinadi, rohatlanadi va h.k. O'zi uchun chin deb bilgan xayollardan badiiy to'qima yaratadi hamda bu to'qima unga hayotiy haqiqatdan ko'ra yaqinroq va ishonchliroq bo'lishi mumkin. Bu jarayonda ong ham bevosita ishtirok etadi. Insonning miya faoliyati va ong oqimi sohasi bo'yicha dunyoga mashhur tadqiqotlarni yaratgan kanadalik olim Jon Kexo o'zining "G'ayriixtiyoriy ong mo'jizalari" nomli asarida insonning ichki shuuri (ong osti) uning hayotidagi har bir jihatga ta'sir ko'rsatuvchi qudratli kuch ekanligi va u o'z egasining mohiyatini tashkil etishini ta'kidlab o'tadi: "Har bir narsa, aslida, energiyadir. Tafakkur jarayonida siz bu energiyaning ulkan hajmini tezkor, yengil va harakatchan shaklda – o'y-fikr shaklida qayta ishlaysiz"⁷. Bundan anglashiladiki, tafakkur jarayonida paydo bo'ladigan har qanday fikr o'zining botindan zohirga ko'chishini talab qiladi, ya'ni o'zining moddiy ekvivalentiga ega bo'lishni xohlaydi. Ushbu

ekvivalent dunyoga kelganidan keyin esa qanchalik ko'p energiya sarflangan bo'lmasin, undan-da yuqori kuchlanish paydo bo'ladi. Ayniqsa, bu holat ijodkor insonlarda kuchli tarzda namoyon bo'ladi.

Mashhur rus tadqiqotchisi Vigotskiy esa insonning olamni qabul qilish tarzini ikki turga bo'lib o'rganadi: "Birinchisi, hayotni boricha qabul qiluvchi va an'analarni davom ettiruvchi ijrochilar. Ikkinchisi, hayotni to'g'ridan-to'g'ri qabul qilmay, o'zgacha fikrlovchi, yangilanish tarafdorlaridir"⁸. Ushbu tasnifdan anglashiladiki, ijodkorlar ikkinchi turdagi toifaga, ya'ni atrofidagi sobit va o'zgarmas olamni boricha qabul qila olmasdan, uni o'z tasavvuridagi mukammallikda ko'rishni xohlaydigan, har bir mayda detallargacha e'tibor berib, ularda turli majoz va obrazlarni ko'ra oladigan, yarata oladigan, hayotning mohiyatini, inson umrining mazmunini belgilab, aniqlashtirib, buni atrofidagilarga ham o'ziga xos yo'sinda tushuntirib bera oladigan insonlardir. "Ijodkor uchun yozish – tiriklik sharti, u tafakkurida shakllangan voqelik – modelini tasvirlash orqali o'z "men"ini ifoda qilishga intiladi. Yozuvchi inson qalbi va tafakkuri, estetik didini shakllantirish, his-tuyg'usiga ta'sir qilish faoliyatiga o'zini mas'ul deb biladi. Ijodkorning hayotiy formulasi: yozish, anglash, anglatish, ishontirish, strukturani shakllantirish, voqealar tizimini tashkillashtirish, fikrga chorlash, hisga ta'sir etish, turtki berishdan tarkib topadi"⁹. Demak, ijodkorlik tabiatiga singib ketgan inson uchun asar yaratish jarayoni ham bevosita tabiiy ravishda kechadi va yozish uning hayotiy formulasiga aylanadi. "Ijodkor shaxs, asosan, bilish motivatsiyasining dominantligi, tadqiqiy ijodiy faollik, subyektning yangilik topishga bo'lgan qobiliyati va muammolarni ijodiy idrok etishi, yechimni topishidagi o'ziga xoslikda ko'rinadi"¹⁰. Bundan tushunish mumkinki, ijodkor shaxs, birinchi navbatda, tadqiqotchi, yangilikka o'ch, mavjud muammolarni to'g'ri idrok etib, uning yechimi

⁴ Умуров Х. Адабиётшунослик назарияси. – Т.: А. Қодирий номидаги нашриёт, 2004. – Б. 64.

⁵ Борген Ю. Ёзувчи бўлмоқ нима дегани? /Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида (Озод Шарафиддинов таржималари). – Т., 2010. – Б. 363.

⁶ Борген Ю. Ёзувчи бўлмоқ нима дегани? /Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида (Озод Шарафиддинов таржималари). – Т., 2010. – Б. 363.

⁷ Кexo J. G'ayriixtiyoriy ong mo'jizalari. – Т.: DAVR PRESS, 2021. – Б. 14.

⁸ Выготский Л. Воображение и творчество в детском возрасте. – М.: Просвещение, 1991. – С. 23,93.

⁹ Тўлаганова С. Ижодкор шахсияти ва бадий қаҳрамон муаммоси (Абдулла Қодирий ижоди мисолида). Филол. фан. д-ри (DSc) дисс. – Т., 2019. – Б. 19.

¹⁰ Муҳаммаджонова Г. Мустақиллик даври ўзбек насрида ижодкор инсон концепцияси. Филол. фан. д-ри. ... дисс. автореф. – Фарғона, 2022. – Б. 18.

ustida bosh qotiradigan, tahlil qila biladigan inson bo‘lmog‘i darkor.

NATIJALAR. Shuningdek, badiiy asar yaratishning o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri uning ijodkor ko‘nglining, his-tuyg‘ularining aksini ifodalashida ham ko‘rinadi. Majburan yozilgan, yurakdan chiqmagan satrlar kitobxonlarning ham yuragini zabt eta olmaydi. Adabiyotshunos Damin To‘rayev o‘zining tadqiqotida yozuvchi mahoratining mukammallik kasb etishi uning o‘zi yashayotgan davrda ijod ahli oldiga qo‘yilgan vazifalarni yuksak darajada ado etib, badiiy haqiqat va inson ruhiyati tahlilidagi mas‘uliyatni his qilgandagina o‘z maqsadiga to‘laqonli erishishi mumkinligini ta’kidlab o‘tadi. “Tabiiy iste’dod yozuvchi shuhratini ona xalqi orasiga yoyib, ijodiy individuallik fazilatini yuzaga chiqaradi. Undagi alohidalik yozuvchi ijodining mustaqilligini, ayrimlik va umumiylik o‘rtasidagi aloqani tashkil qiluvchi, ta’minlovchi va bir maqsadga biriktiruvchi qudratli kuchdirkim, bularning barchasi birikib, yozuvchi mahoratini takomil tomon yo‘naltiradi”¹¹. Demak, ijodkorning mahorati uning individualligi va tabiiy (ilohiy) iste’dodga ega ekanligi bilan belgilanadi. Uning siyratida yashiringan ijodiy qiyofa bilan insoniy qiyofaning uyg‘unligi adabiyotshunoslikning asosiy masalalaridan biri sanaladi.

XULOSA. Ijodkor dunyoqarashi va badiiy tafakkur tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog‘liq va bir-birini to‘ldiradigan tushunchalar bo‘lib, hissiy va aqliy idrok orqali dunyoni bilish, ko‘rish, ifodalash kabi jarayonlarni obrazlar vositasida amalga oshiradi. Ijodkor shaxs butun dunyoni o‘zining ratsional va irratsional tasavvurlariga bo‘ysundirib, yangi bir olamni, o‘z botinidagi individual borliqni

obrazlar va majozlar vositasida akslantiradi. Badiiy tafakkur ijtimoiy hayot, makon va zamon bilan bog‘liq holda doimo yangilanishda, o‘zgarishda bo‘lishi ham nazarda tutiladi. Badiiy asar uchun aniq qolip joriy etish mumkin emasligi undagi tafakkur va ruh erkinligi bilan bog‘liqdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Выготский Л. Воображение и творчество в детском возрасте. – М.: Просвещение, 1991. – С. 23,93.
2. Тўлаганова С. Ижодкор шахсияти ва бадий қаҳрамон муаммоси (Абдулла Қодирий ижоди мисолида). Филол. фан. д-ри (DSc) дисс. – Т., 2019. – Б. 19.
3. Муҳаммаджонова Г. Мустақиллик даври ўзбек насади ижодкор инсон концепцияси. Филол. фан. д-ри. ... дисс. автореф. – Фарғона, 2022. – Б. 18.
4. Тўраев Д. Ҳозирги ўзбек романларида бадий тафаккур ва маҳорат муаммоси (60-80 йиллар). Филол.фан. д-ри. дисс. –Т., 1994. – Б. 234.
5. Борген Ю. Ёзувчи бўлмоқ нима дегани? /Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида (Озод Шарафиддинов таржималари). – Т., 2010. – Б. 363.
6. Кехо J. G‘ayriixtiyoriy ong mo‘jizalari. – Т.: DAVR PRESS, 2021. – В. 14.
7. Parandovskiy Y. So‘z kimyosi. – Т.: Yangi asr avlodi, 2022. – В. 145-146.
8. Умуров Х. Адабиётшунослик назарияси. – Т.: А.Қодирий номидаги нашриёт, 2004. – Б. 64.
9. Sanatüzerinedüşünceler<https://www.hurriyet.com.tr/sanat-uzerine-dusunceler-227189>.



¹¹ Тўраев Д. Ҳозирги ўзбек романларида бадий тафаккур ва маҳорат муаммоси (60-80 йиллар): Филол.фан. д-ри. дисс. –Т., 1994. – Б. 234.

Qabul qilindi: 03.04.2025

Chop etildi: 31.05.2025

UDK:332.1:316.422(575.171)

1991-2024 YILLARDA XORAZM VILOYATI
MATBUOTI FAOLIYATIDA SAMARALI
MEXANIZMNING YO‘LGA QO‘YILISHI

Qadamboyev Shahriyor Sharifboy o‘gli, TATU Urganch filiali “O‘zbek tili va ijtimoiy fanlar” kafedrasida o‘qituvchisi

THE ESTABLISHMENT OF AN EFFECTIVE
MECHANISM IN THE ACTIVITIES OF THE PRESS OF
THE KHOREZM REGION IN 1991-2024

Kadamboyev Shahriyor Sharifboy o‘gli, Teacher of the Department “Uzbek language and Social Sciences” of TATU Urgench Branch

СОЗДАНИЕ ЭФФЕКТИВНОГО МЕХАНИЗМА В
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕССЫ ХОРЕЗМСКОЙ
ОБЛАСТИ В 1991-2024 ГГ

Кадамбоев Шахрияр Шарифбой оглы, преподаватель кафедры “Узбекский язык и социальные науки” Ургенчского филиала ТУИТ

Annotatsiya: “Xorazm haqiqati” gazetasi Xorazm viloyatining ijtimoiy-siyosiy hayotini yorituvchi yetakchi ommaviy axborot vositalaridan biridir. Maqolada ushbu gazeta o‘zining boy tarixi, bugungi faoliyati va kelajakdagi rejalariga ega bo‘lib, viloyat aholisi orasida katta obro‘ga ega ekanligi, mamlakatimiz mustaqillik yillaridan keyingi faoliyatining samarasi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Xorazm haqiqati, gazeta, madaniy-ma’rifiy, toshbosma, tipografiya, mudarrislar, Xiva bosmaxonasi, teleradiokompaniya, nashriyot.

Annotation: The newspaper “Khwarezm truth” is one of the leading media covering the socio political life of the Khwarezm region. This newspaper has its rich history, activities today and plans for the future, reflecting on the effectiveness of the activities of our country after the years of independence, that it has a great reputation among the inhabitants of the region.

Keywords: Khwarezmian reality, newspaper, cultural and educational, stone printing, typography, Mudarris, Khiva printing house, broadcasting company, publishing house.

Аннотация: В этой статье рассматривается газета “Хорезмская правда” одно из ведущих средств массовой информации, освещающее общественно-политическую жизнь Хорезмской области. Эта газета имеет богатую историю, сегодняшнюю деятельность и планы на будущее, пользуется большим авторитетом среди населения области, что свидетельствует о плодах деятельности многих лет после независимости.

Ключевые слова: Хорезмская правда, газета, культурно-просветительская, литография, типография, мударрисы, хивинская типография, телерадиокомпания, издательство.

KIRISH. Bugungi kun haqiqati shuni ko‘rsatmoqdaki, shiddatli davr yoshlarda siyosiy ong va huquqiy savodxonlikni ham shakllantirib borishni talab etmoqda. Yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashga intilayotgan ekanmiz, bunda yangilanishlar jarayoniga ularning daxldorligini oshirish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tarixga nazar tashlasak, siyosiy tuzumning o‘zgarishi va qayta qurish jarayonlari insonlarga

islohotlar mazmun-mohiyatini tushuntirish orqali yetib borgan. Va bunda bosh rolni aynan matbuot o‘ynagan. Tarixan yetarlicha misollarni ko‘rib chiqish mumkin. Bugunga kelib ayrim shaxslarning gazetalarga befarq munosabati esa ularning siyosiy bilim va madaniyati qanchalik darajada ekanligini ham ko‘rsatmoqda.

Tajriba (tadqiqot) obyektiv uslubiyati. XIX asrda Xorazm taxtida hukmronlik qilgan shoh va shoir,



[https://orcid.org/0009-0005-5348-](https://orcid.org/0009-0005-5348-5712)

[5712](https://orcid.org/0009-0005-5348-5712)

e-mail:

shahriyorbek.kadamboyev@mail.ru

musiqa ilmining zukko bilimdoni Muhammad Rahimxon II Feruz doimo ilm-fan, madaniyat va san'at rivojiga katta e'tibor bilan qaragan, homiylik qilgan. O'sha davrda badiiy adabiyot va tarixnavislik, musiqa san'ati shu darajada yuksaldiki, bu yuksalish ta'siri nafaqat O'rta Osiyo madaniy-ma'rifiy hayotida, balki Yevropada ham sezildi.

Haqiqatdan ham mintaqada birinchi bo'lib suratga olish, kino ishlash boshlangan. "Tanbur chizig'i"ning ixtiro qilinishi bilan maqom yo'llarini qog'ozlarda muhrlash imkoni tug'ildi. Feruzning adabiyotga qiziqishi, badiiy asarlarning avlodlarga o'z holicha yetkazish yo'lida qayg'urgani tufayli 1874-yilda O'rta Osiyoda birinchi toshbosma ham Xivada tashkil qilinadi. Shu davrgacha barcha ilmiy, tarixiy, badiiy asarlar mohir xattotlar tomonidan qo'lyozma ko'rinishida ko'chirilar, shu sababdan ham kam nusxani tashkil qilardi. Feruz Eron, Rossiya, Hindiston, Xitoy kabi mamlakatlardagi toshbosmalar faoliyati haqida to'la tasavvurga ega bo'lgach, Xivada ham toshbosma tashkil etishga qaror qilgan edi. Shartnomada ishga taklif qilingan eronlik mutaxassis Ibrohim Sulton Ko'hna Arkda shu tariqa matbaachilik ishlarini boshlab yuboradi. Shoir Tabibiy bu sho'baning boshlig'i etib tayinlanadi. Toshbosmada avvaliga xonlikning hujjatlari, keyinchalik kitoblar bosila boshlanadi. Chop qilingan kitoblar savdoga chiqarilmas, faqat shoir-u olimlarga, fozil-fuzalolarga, mudarrislariga berilardi.

"Podshoi zamon tipografiyasi"da ilk chop qilingan kitob Abu Nasr Forobiyning "Nasob us-Sibiyon" ("Bolalar nasibasi") asari bo'ldi. Shartnoma muddati tugagach, ortiga qaytib ketishni o'ylagan Ibrohim Sulton bu vazifani sidqidildan uddalay oladigan shogird qidiradi. U o'ta zehnliligi, uquvli, jismonan baquvvat bo'lishi bilan birga, forsiy, arabiy, turkiy tillarni mukammal biladigan, ishtiyoqmand yoshlar topilishiga ishonardi. Kunlardan bir kun usta yoniga "Meni shogirdlikka olasizmi?" deb bir o'spirin keladi. Usta undan "Forsiyini bilasanmi?" deb so'raganida "ha" deb javob bergan. Usta quvonib, bu hunarni shogirdi Otajonga asta-sekin o'rgata boshlaydi. Keyinchalik Ibrohim Sulton shogirdi Otajon Abdol o'g'li bilan birga 1874-yilda Alisher Navoiyning "Xamsa" asarini va Munis Xorazmiyning "Munis ul-ushshoq", "Oshiqlar do'sti" asarini bosmadan chiqaradi. Ibrohim Sulton bir yildan keyin yurtiga qaytib ketadi, Otajon Abdolov kitob bosishni davom ettiradi. Xiva litografiyasida 1876-yilda Abu Nasr Farobiyning "Nisobus-sibiyon" ("Bolalar

nasibasi"), 1879-yilda Shermuhammad Munisning "Munis ul-ushshoq", 1880-yilda Alisher Navoiyning "Xamsa"sidan "Hayrat ul-abror" va 1882-yilda "Hazoyin ul-maoniy" va Muhammad Rizo Ogahiyning "Ta'viz ul-oshiqin", 1897-yilda Muhammad Rahimxon Feruzning "Devoni Feruz", 1990-yilda Tabibiyning "Majmuot ush-shuaro" kitoblar bosiladi. Xiva toshbosmaxonasida birinchilardan bo'lib rus ishchisi Aleksey Ivanovich Salapov va nemis millatiga mansub bo'lgan Gustav Shneydellar ham ishlab, toshbosma sirlarini Otajonga o'rgata boshlaydilar. Natijada mahalliy xalq o'rtasida "Otajon bosma" nomi mashhur bo'lib ketgan.

Tajriba (tadqiqot) natijalari va ularning muhokamasi. Vaqt o'tishi bilan Xiva bosmaxonasidagi ishlar rivojlanib, Otajon Abdolov xonning ruxsati va homiyligi bilan Moskva shahriga borib matbaachilikning nozik sir-asrorlarini mukammal o'rganib qaytadi. Bu sohaning yetuk, bilimdon kishisi bo'lib taniladi. Ko'plab shogirdlar yetishtiradi. Ko'pgina shoirlarning bayozlari va devonlari bosmaxonada qayta-qayta chop qilinadi. "Xorazm haqiqati" gazetasi — Xorazm viloyatining ijtimoiy-siyosiy hayotini yorituvchi yetakchi ommaviy axborot vositalaridan biridir. Ushbu gazeta o'zining boy tarixi, bugungi faoliyati va kelajakdagi rejalariga ega bo'lib, viloyat aholisi orasida katta obro'ga ega[1].

1920-yilda Xorazm Xalq Respublikasi ixtiyoriga bosmaxona jihozlari, elektromotor harflar yuboriladi. Shundan keyin Xivada gazeta chiqarish yo'lga qo'yiladi. Shu yilning 8-mart kuni "Inqilob quyoshi" (hozirgi "Xorazm haqiqati") gazetasining birinchi soni chiqadi.

Tarixiy hujjatlarda Xiva toshbosmasida ishlagan insonlarning tabarruk nomlari qayd qilingan: Otajon Abdolov, Ota Miskinov, Nizomiddin Shamsiddinov, Sodiq Halimov, Boybobo Mahmudov, Rahimbergan Xudoyberganov, Matyoqub Kamolov, Rahmonqul Otajonov, Qodir Abdullayev, Boyjon Otajonov... Gazeta muharririyatida esa Zokir Bekchurin, Madrahim Saydashov, Habib Samigullin, Muhammad Zokirov, Umar Qurboniylar o'sha davr hayotini yoritishda faollik ko'rsatganlar. Ular o'z kasblarining mohir ustalari bo'lishlari bilan birga bu kasbni san'at darajasiga olib chiqdilar.

1927-yilda Otajon Abdolov vafot qiladi, biroq uning ishlarini shogirdlari davom qildiradilar. "Inqilob quyoshi" gazetasi 1928-yil iyun oyining oxirigacha

Xiva shahrida chop qilinadi. 1928-yilning 1-iyulidan boshlab bosmaxona Urganch shahriga ko‘chirildi.

Barchamizga ma‘lumki, matbuot va ommaviy axborot vositalari faoliyatini olib borish og‘ir va mas‘uliyatlidir. Mamlakatimiz yangi taraqqiyot bosqichiga ko‘tarilayotgan, ochiqlik va oshkorolik, so‘z va fikr erkinligi hayotimiz asosiga aylanib borayotgan ayni damda bu mas‘uliyat yanada kuchaymoqda.

Bugungi kunda markaziy nashrlarda mamlakatimiz kundan-kunga bosib o‘tayotgan murakkab, ammo shonli va sharaflı yo‘l aks etayotir. O‘zining gazeta o‘qimasligi haqida faxr bilan aytayotganlar bu yo‘lning hayotbaxsh nurlaridan, ulardagi rangorang jilolardan to‘la bahramand bo‘layotir, deya olmaymiz. Axir aynan gazeta nafaqat bugungi kun panoramasini ko‘rish va kuzatish, balki kelgusidagi istiqbolni ham yaqqol tasavvur qilishga yordam bera oladi. Gazeta xuddi darslik singari barcha mavzularni, mamlakatning butun tarixiy yilnomasini qamrab oladi. Maqolaga har doim qaytish mumkin. Kerak bo‘lganda, yana boshdan mulohaza qilasan, muhim joylarini belgilab, o‘qiganlarni keyinchalik foydalanish uchun saqlab qo‘yish mumkin. Efirida ketgan ma‘lumotlarni olganda bo‘lganidek nimanidir o‘tkazib yuborish zinhor mumkin emas.

Izlasak, yurtimizda zamon talabiga ko‘ra faoliyat yuritayotgan bosma nashrlar ko‘p. Keyingi yillarda gazetalarimizda muntazam ravishda iqtisodiy sharhlar berib borilyapti, ijtimoiy sohadagi o‘zgarishlar, islohotlar qanday borayotgani, Prezident farmon va qarorlari insonlar hayotiga qanday ta‘sir ko‘rsatayotgani keng yoritilmoqda. Tahlil va sharhlar tayyorlash uchun milliy va xorijiy ekspertlar, siyosatchilar, turli soha mutaxassislari jalb etilyapti. Gazetalarga katta mas‘uliyat yuklatilgan bo‘lib, vatandoshlarimizga kelajak yo‘lida hamqadam bo‘lish, ta‘bir joiz bo‘lsa, hamrohi, sirdoshiga aylanishdir.

Shu jumladan Xorazm viloyatida 1991-2024-yillar davomida matbuot va matbaa faoliyatini yuksak darajada salmoqli faoliyatini aytish joizdir. 24 ta bosma va 12 ta elektron nashrlar, 3 ta telekanal, 2 ta radiokanal faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu yil 6 iyul sanasida Respublikamizda shonli tarixga ega nashrlardan biri – “Xorezmskaya pravda” gazetasining ilk soni chop etilganiga 100 yil to‘ladi. O‘tgan yillar mobaynida gazeta viloyat ijtimoiy-siyosiy hayotining chinakam ko‘zgisiga aylandi,

tahririyatdan o‘nlab taniqli ijodkorlar etishib chiqdi. Vohamizning bir asrlık tarixi solnomasi bo‘lgan mazkur nashr faoliyati yanada kengaydi. Bu yil Xorazmda televideniye ish boshlaganiga 60 yil, radio dasturlari efirga uzatila boshlaganiga 85 yil to‘ladi. Muhtaram Prezidentimizning tashabbusi bilan 2019-yilda Xorazm viloyati teleradiokompaniyasi umumiy qiymati 26 milliard so‘m bo‘lgan, barcha shart-sharoitlar yaratilgan zamonaviy binoga ega bo‘ldi. 2021-yil davlat Investitsiya dasturiga muvofiq viloyat teleradiokompaniyasiga 39,8 milliard so‘mlik eng so‘nggi rusumdagi texnik vositalar o‘rnatiladi.

“Xorazm haqiqati” — ijtimoiy-siyosiy gazeta. Urganch shahrida haftada 2 marta chop etiladi. Muassisi Xorazm viloyati hokimligi edi. 1939-yil 1-yanvardan hozirgi nomda. 1921-yil Xorazmga kelgan H.H.Niyoziy gazeta faoliyatini mustahkamlashga yordam bergan. Davlat va jamoat arboblari Karim Boltayev, Qurbon Beregin, Xudoybergan Devonov; yozuvchi va shoirlar Faqiriy, Mutrib, Partav, Chokar, Mug‘anniy, Sayd Nazariy, Umar Qurboniy, Mahmud Ismoilov, Eshmurod Devonov, Hayit Eshmurodov va boshqalar gazetaning ilk muxbirlari bo‘lgan. Sahifalarida viloyat hayotiga doir iqtisodiy-ijtimoiy, ma‘naviy masalalar yoritib boriladi. 1996-yil 3-apreldan “Xorazm haqiqati” va “Xorezmskaya Pravda” gazetalari Birlashgan tahririyati tashkil etildi. Gazetaga turli davrlarda Bekjon Rahmonov, Afzal Tagirov, Sharif Bulatov, Rahmat Majidiy, Qurbon Beregin, Otaxon Toshxo‘jaev, Egam Rahimov, Erkin Samandarov, Karim Qurbonov muharrirlik qilganlar. Hozirgi muharriri Rustam Iskandarov (1996-yildan). Adadi 3443 (2005). 2019-yilgi ma‘lumotlarga ko‘ra, “Xorazm haqiqati” gazetasi haftasiga 3 500 nusxada chop etilgan. Bu ko‘rsatkich viloyatdagi boshqa nashrlar orasida yuqori o‘rinlardan birini egallaydi[2].

“Xorazm haqiqati” gazetasi o‘zining rasmiy veb-sayti — xorezm-news.uz orqali ham o‘z faoliyatini olib bormoqda. Sayt orqali o‘quvchilar gazetaning so‘nggi yangiliklari, maqolalari va e‘lonlari bilan tanishishlari mumkin. Shuningdek, gazeta elektron pochta orqali obunachilarga yangiliklarni yuborish xizmatini ham yo‘lga qo‘ygan[3].

“Xorazm haqiqati” gazetasi kelajakda o‘z faoliyatini yanada kengaytirishni rejalashtirmoqda. Bu borada, gazeta raqamli platformadagi ishtirokini kuchaytirish, yosh jurnalistlarni tayyorlash va viloyatdagi muhim ijtimoiy masalalarni yoritishda

faolroq bo'lishni maqsad qilgan. Shuningdek, gazeta viloyatdagi ta'lim muassasalari, madaniyat markazlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirishni rejalashtirmoqda[4].

Umuman olganda, "Xorazm haqiqati" gazetasi o'zining boy tarixi, faol jamoasi va zamonaviy yondashuvi bilan Xorazm viloyatining ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim o'rin egallab kelmoqda. Jamiyatning madaniyati yuksalishida ham matbuotning o'rni beqiyos. Aynan gazeta til sofligini, uning adabiy-badiiy xususiyatlarini, so'z yuki va qudratini nafaqat saqlab qoladi, balki oshirib ham boradi. Bosma nashrlarda har bir so'z chuqur va keng ma'no-mazmunga ega. Gazeta adabiy til qoidalariga to'liq amal qilgani uchun ham qadrlidir. Aynan bosma nashrlarda ishlovchi jurnalistlar shu bois ham axborot maydoni elitasi hisoblanadi. Ular o'z auditoriyasi oldida yuksak mas'uliyatni his etgan holda, mulohazakorlik, haqqoniylik, halollik va burchga sodiqlikni faoliyatining asosiy tamoyillari deb bilishadi. Xullas, gazeta o'qishni xohlamaydigan kishi — hayotga panjaraning kichik bir tirqishidan qarashga mahkum inson kabidir.

Mustaqillikdan keyin O'zbekistonda so'z va matbuot erkinligini ta'minlash uchun ochiq maydon yaratildi. Bunday imkoniyatdan foydalanish yo'lidagi turli g'oyalar: ma'muriy, norasmiy cheklovlar deyarli olib tashlandi. Jamiyatda har kim o'z fikrini bemalol bildirishi, murojaat va e'tirozlari, taklif hamda shikoyatlarini erkin ifoda etishi uchun zarur huquqiy baza yaratildi va u rivojlantirilmoqda. Fuqarolar, jurnalistlar, blogerlarga katta minbarlar berildi. Bular internet, undagi ijtimoiy tarmoqlar, portallar, gazeta-jurnallar, TV va radio, xullas, axborot yetkazishning barcha vositasini, onlayn va oflayn, an'anaviy va noan'anaviy instrumentlarni qamrab oldi. Shunday ekan, insonning so'z va axborot olish erkinligi, jurnalistik faoliyat erkinligi kafolatlari tubdan mustahkamlandi, bunday huquqlarga daxl yoki qarshilik qilganlarga nisbatan tegishli javobgarlik choralarini kuchaytirildi[5].

XULOSA. Bugungi globallashtirish jarayonida kundalik voqea-hodisalar to'g'risida fuqarolarga xolis va ishonchli axborot yetkazish, jamiyatni turli informatsion xurujlardan saqlash, davlat boshqaruvida ochiqlik va oshkorlik tamoyillarini qaror toptirish, korrupsiyaga qarshi kurash va jamoatchilik nazoratini shakllantirishda ommaviy axborot vositalari, blogerlar, mahalliy hokimliklar, davlat tashkilotlari matbuot xizmatlari muhim o'rin

tutadi. Axborot almashinuvining jadallashishi, mafkura poligonlarida axborot resurslariga egalik qilish uchun keskin kurash avj olayotgan hozirgi murakkab davrda jamiyatimiz barqarorligi va taraqqiyotini ta'minlash soha xodimlari zimmasiga juda katta mas'uliyat yuklaydi. Shu jumladan, so'nggi yillarda mamlakatimizda davlat va jamiyat o'rtasida sifatli muloqotni yo'lga qo'yish, aholiga islohotlarning maqsadi, vazifalari va natijalari haqida tezkor, xolis va to'liq axborot yetkazish, davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash maqsadida viloyatimizda barcha shahar va tuman hokimliklarida, shuningdek, 30 dan ortiq viloyat tashkilotlarida axborot xizmatlari tashkil etildi. Matbuot kotiblari lavozimiga ko'ra rahbar o'rinbosariga tenglashtirilib, axborot siyosati bo'yicha maslahatchi maqomi berildi. Bugun ular ommaviy axborot vositalari, blogerlar bilan yaqin muloqot va hamkorlikni yo'lga qo'yib, ijtimoiy tarmoqlardagi tanqidiy chiqishlarga, murojaatlarga tezkor munosabat bildirishmoqda, tashkilotlarning internetdagi veb-saytlari, kanal va sahifalari orqali zarur axborotlarni aholining barcha qatlamlariga yetkazib berishmoqda. Matbuot xizmatlari tomonidan viloyatimizda islohotlar jarayonining borishi, umumdavlat dasturlarining ijrosi yuzasidan doimiy ravishda matbuot anjumanlari, brifinglar, media-turlar, ochiq muloqotlar tashkil etilmoqda, bu esa matbuot bilan axborot almashinuviga imkon beradi.

Aynan vohaning matbuotdagi faoliyati samaradorligini oshirishda ijtimoiy hayotdagi mavjud muammolarni, fuqarolarning murojaatlarini o'rganish, jamoatchilik nazoratining samarali mexanizmini yo'lga qo'yishda blogerlarning o'rni benihoya katta. Viloyatimizning bir guruh faol blogerlari mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, islohotlarni jadallashtirishda mahalliy davlat hokimiyati organlariga yaqin ko'makdosh bo'lmoqdalar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://qomus.info.uz>
2. <https://www.zarnet.uz>
3. <https://www.xorezm-news.uz>
4. <https://malumot.ru/xorazm-haqiqati.ru>
5. Fuqarolik jamiyatida jurnalistikaning o'rni. <https://www.insonhuquqlari.uz>

O'zbekiston Respublikasi Inson huquqlari bo'yicha Milliy markazi rasmiy veb-sayti.

МАДАНИЯТНИНГ ИЖТИМОЙЛАШУВИ – МИЛЛИЙ ЎЗЛИКНИ АНГЛАШ ОМИЛИ СИФАТИДА

¹Кўлдошев Шерали Темиралиевич, Маданиятшунослик ва номоддий маданий мерос илмий-тадқиқот институти катта илмий ходими

²Умарходжаев Босит Баходирович, Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти мустақил тадқиқотчиси

SOCIALIZATION OF CULTURE AS A FACTOR IN UNDERSTANDING NATIONAL IDENTITY

¹Koldashev Sherali Temiralievich, Senior Researcher, Research Institute of Cultural Studies and Intangible Cultural Heritage

²Umarkhodjaev Bosit Bahodirovich, Independent Researcher, State Institute of Arts and Culture of Uzbekistan

СОЦИАЛИЗАЦИЯ КУЛЬТУРЫ КАК ФАКТОР ОСОЗНАНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ

¹Колдашев Шерали Темиралиевич, старший научный сотрудник НИИ культурологии и нематериального культурного наследия

²Умарходжаев Босит Баходирович, независимый научный исследователь Государственного института искусств и культуры Узбекистана



<https://orcid.org/0000-0002-8144-5639>

e-mail:

sherali.kuldashov@mail.ru



Аннотация: Ушбу мақолада маданиятнинг ижтимоийлашувида миллий ўзликни англашда муҳим омил сифатидаги масалага эътибор қаратилган. 2016–2024 йилларда мамлакатимиз ижтимоий ҳаётида амалга оширилган ўзгаришлар, ислохотлар, жумладан, ижтимоий институтлар билан бирга, аҳолининг ижтимоий онгида содир бўлаётган трансформация жараёнларига доир туб ислохотларнинг динамикаси очиб берилган. Янги жамият барпо этиши давомида замонавий маданият институтларининг трансформациялашуви ҳолати ҳамда ушбу ижтимоий аҳамиятга эга тенденциянинг илмий ва амалий хусусиятларига асосий эътибор қаратилган.

Калим сўзлар: маданият, ижтимоийлашув, миллий ўзликни англаш, трансформация.

Abstract: This article focuses on the issue of the socialization of culture as an important factor in the understanding of national identity. The dynamics of fundamental reforms in the social life of our country in 2016–2024, along with the changes and reforms carried out in the social life of our country, including social institutions, are revealed, as well as the transformation processes taking place in the social consciousness of the population. The main attention is paid to the state of transformation of modern cultural institutions in the process of building a new society, as well as the scientific and practical characteristics of this socially significant trend.

Keywords: Culture, socialization, understanding of national identity, transformation.

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос социализации культуры как важного фактора понимания национальной идентичности. Раскрывается динамика коренных реформ в

общественной жизни нашей страны в 2016-2024 годах, включая изменения и реформы социальных институтов, а также трансформационные процессы, происходящие в общественном сознании населения. Основное внимание уделено состоянию трансформации современных культурных институтов в процессе построения нового общества, а также научной и практической характеристике этого общественно значимого направления.

Ключевые слова: культура, социализация, осознание национальной идентичности, трансформация.

КИРИШ. Жамиятда маданият масаласи доимий эътиборда турадиган феномен ҳисобланади. Шунинг учун, маданиятнинг ижтимоийлашуви бу функциялардан бири сифатида маданиятшунос олимлар томонидан эътироф этилган. Ушбу функция жамият ҳаёти учун унинг ҳақиқий аъзоси сифатида зарур ҳисобланган маълум миқдордаги шартларни ўзлаштиришга ёрдам беради¹.

Бу функция идрок, тафаккур, нутқ, сўзларнинг қўлланиши, оҳанги, имо-ишора, типик ҳодисаларга муносабат тарзи, шунингдек, талаб ва қадрият йўналишлари тизимини шакллантириш каби андозавий усулларнинг мустаҳкамланиши билан боғлиқдир. Ижтимоийлашув кишилиқ маданияти, хусусан, миллий маданият анъаналарини ўзлаштириб бориш жараёни сифатида ҳам талқин этилиши мумкин. Маданий муҳитга мослашиш жараёни сифатида ижтимоийлашув инсоннинг бутун умри бўйи давом этади, бироқ бу жараён боланинг 2 ёшдан 6 ёшгача бўлган даврида бошланади. Мазкур даврда ёш авлод вакили маданий қадриятларни ўрганиш жараёнидан узиб қўйилса, ижтимоийлашув жараёни тўхтаб қолади.

Бизнингча, маданиятнинг ижтимоийлашуви функцияси билан миллий ўзликни англаш ўзаро ҳамоҳанг, бир йўналишдаги ижтимоий ҳодиса ҳисобланади. Айнан маданиятнинг шу вазифаси сифатида қадимги одамни цивилизация кишисига айлантириб боради. Жамият ичида ўзининг “мен”ини қидиргани каби миллат ўзининг “ўзлигини” топишга ҳаракат қилади. Жамиятда ижтимоийлашув деганда одамларнинг бир хил тарзда фикрлаши, бир хил тарзда ҳаёт тарзини шакллантириш тушунилмайди. Кўриниб турганидек, инсон ҳар қандай шароитда ҳам

ўзининг индивидуал “қиёфаси”ни сақлаб қолишига маданиятнинг мазкур функцияси ёрдам берганидек, ҳар бир миллат, халқни миллий ўзлигини англаб, уни сақлаб қолишга йўналтиради.

Маданиятнинг ижтимоийлашувида миллий ўзликни англаш омили ниҳоятда катта роль ўйнайди. Бунда санъат, маданий муассасалар фаолиятининг ўрни беқиёслигини кўришимиз мумкин. Биргина санъат инсонни маънавий жиҳатдан такомиллаштиради, жамият аъзоларида ватанпарварлик, инсонийлик, юксак ахлоқ каби фазилатларини шакллантиришга ёрдам беради. Бироқ, ижтимоийлашув инсонда моддий неъматларга бўлган эҳтиёжни инкор этмайди. Маданиятли, ижтимоийлашувга мойил одамлар моддий неъматларни ўзининг янада такомиллашуви йўлидаги восита сифатида кўрадилар. Агар тарихга назар ташласак, буюк зотлар, мутафаккир-алломаларнинг аксарияти турмушнинг моддий томонларига кўпинча бефарқ бўлишган. Шунингдек, агар жамиятда инсонларнинг ижтимоийлашув жараёни содир бўлмаса, бунинг натижасида одамларда жамиятда содир бўлаётган воқеа-ҳодисаларга нисбатан бефарқлик, лоқайдлик ҳолатлари юз беради. Бу айниқса, мустабид тузум шароитида кўпроқ кўзга ташланган эди. Бу бизга совет тоталитар тузумидан яхши маълум. Фикримизча, муҳим тарбиявий аҳамиятга молик бўлган маданиятнинг гуманистик функцияси шахснинг ижтимоийлашуви ҳамда индивидуаллашуви жараёнларида намоён бўлади. Инсоният ўзи яратган барча моддий ва маънавий маданият дурдоналарини ўзлаштириш натижасида инсон ижтимоийлашув жараёнига фаол киришади ва янги социал мақомга эга бўлади. Лекин бу мавқе ва мақомни ҳар бир шахс ўз индивидуал хусусиятига мувофиқ идрок этади. Бу албатта

¹ Маврулов А., Маврулова М. Маданият назарияси. – Тошкент: 2023. – 46 б.

табий равишда инсон борлигининг рухий ва ирсий хусусиятларига, хусусан, характери, дунёқараш, майллари, қобилияти даражаларига бевосита боғлиқдир. Демак, маданият ижтимоийлашув ва индивидуаллашув жараёнини амалга оширишнинг реал механизми бўлиб, ўзлигини таниган баркамол шахс камолоти учун барча шарт-шароитларни яратиб берувчи бебаҳо қадриятдир.

МУҲОКАМА. Бугун Янги Ўзбекистон шароитида бошқарувнинг ўзи, юқорида таъкидлангани каби, инсоннинг ижтимоийлашувидан манфаатдорлигини ҳам кўришимиз мумкин. Шунинг учун ҳам, “Ўзбекистон – ижтимоий давлат” деган тамойил кун тартибига қўйилган. Чунки, “инсон қадр” тушунчаси “ижтимоий давлат” тушунчаси билан чамбарчас боғлиқдир. Ушбу ғоянинг туб негизида ҳам аввало, инсон қадрини улуғлаш, инсонга хизмат қилишдек олижаноб мақсад мужассамлигини кўришимиз мумкин. Маълумки, ижтимоий давлат ҳар бир инсон учун ижтимоий тенглик ва адолат принциплари асосида муносиб яшаш шароитларини яратиб беради. У ижтимоий тафовутларни камайтириш, мухтожларга ёрдам бериш бўйича самарали сиёсат олиб борадиган давлат моделидир².

Инсоннинг маданий анъаналарни ўзлаштириш жараёни унинг индивидуаллигининг шаклланиши билан ҳамоҳангдир. Шу боис, ижтимоийлашув жараёнининг интиҳосида шахс тарихий типининг индивидуал вариантлари юзага келади. Ушбу жараён давомида шахс томонидан ижтимоий ролларнинг ўзлаштирилиши “лаззатланиш – азобланиш” (Фрейднинг таъбирига кўра) тамойили ёрдамида мувофиқлаштириб борилади. Фикримизча, ижтимоийлашув жараёни мураккаб механизмга эга. Бу механизмнинг рухий ва ижтимоий-маданий жиҳатлари мавжуд. Ижтимоийлашув механизмнинг рухий жиҳати индивид томонидан маълум ижтимоий ролларнинг қабул қилиниши (*ёки қабул қилинмаслиги*)да намоён бўлади. Унинг ижтимоий-маданий жиҳати эса инсоннинг тил, санъат, дин ва шу кабилар орқали маданий қадриятларни ўзлаштириш жараёнини камраб олади.

Хусусан, ижтимоийлашув жараёни ўз босқичларига эга. Бу босқичларни аниқлашда турли ёндашувлар асос қилиб олинади. Масалан, Ж.Миднинг онтогенетик ёндашуви индивидуал ижтимоийлашув босқичларини белгилаб беради. Унинг фикрига кўра, бу босқичлар қуйидагилардан иборат: 1) психогенетик босқичда индивид ўз эҳтиёжларини қондириш йўлларини ўрганади; 2) символик босқичда индивиднинг символлари (образлар, идеаллар ва бошқалар) шаклланади; 3) ақлий-концептуал босқичда индивид символлари тизими унинг фаолиятини бошқарувчи механизмга айлантиради. Фикримизча, онтогенетик ёндашувдан фарqli ўларок, филогенетик ёндашувда (*М. Петров*) ижтимоийлашувнинг тарихий эволюциясига эътибор қаратилади. У қуйидаги босқичларга бўлинади: 1) номинация босқичида исмларнинг аҳамияти катта бўлади; ҳар бир исм ўз мазмунига эга ва маълум фаолият тури билан боғлиқ бўлади; 2) касбий-қабилавий босқичда маълум мазмунга эга бўлган номлар алоҳида индивидларга эмас, балки бирор фаолият тури билан машғул бўлган оила, уруғ ва қабилаларга берила бошлайди (*масалан, қадимги Юнонистонда табиблик қилувчилар ўзларини асклепидлар, темирчилик қилувчилар эса гефестидлар деб атаганлар*); 3) универсал-мантиқий босқичда ижтимоий фаолиятнинг ҳар хил турлари шаклланиб, ўзлаштирила бошлайди, махсус таълим институтлари вужудга келади. Бу эса, ижтимоийлашув жараёнини тадқиқ этишда ҳам онтогенетик, ҳам филогенетик ёндашувларни инобатга олиш зарур.

Шунингдек, ижтимоийлашувнинг ижтимоий функциялари қуйидагилардан иборат: 1) ижтимоий-тарихий жараён субъектини шакллантиради; 2) маданият ва цивилизация тараққиётида ворисийликни таъминлайди; 3) индивидни ижтимоий муҳитга мослаштириш орқали жамиятнинг тўқнашувларсиз тараққий этишига замин яратади.

Бугунги кунда жамият ҳаётида ижтимоийлашув муаммоларини ўрганишда фалсафий, социологик, ижтимоий-психологик ва тарихий-этнографик таҳлил натижасида яратилган услуб ва ёндашувлардан комплекс фойдаланиш тенденцияси юзага келмоқда. Ўзбек

² Халқ сўзи. 2022 йил 21 июнь.

миллати Янги Ўзбекистон шароитида яшамоқда. У мустақиллик йилларида қанчалик улкан муваффақиятларни қўлга киритмасин, глобаллашувнинг кучли босими остида яшашга мажбур бўлмоқда. Бундай шароитда, албатта миллий ўзликни англаш воситасида миллий тарбияни олиб бориш ва уни кучайтириш тақозо этилади. Тарихий тараққиёт тажрибаларидан маълумки, қарамлик ҳолатига тушган миллатларда ўз заминларига интилиш кучли бўлади. Бунинг асосий сабаби, у қарамлик ҳолатида ўзликдан маҳрум бўлиб қолишдан ҳадиксираб яшайди, шунинг учун ҳам у қарамлик шароитида ҳам зимдан бўлса ҳам миллий ўзликни англашни сақлаб қолишга қаратилган миллий тарбияни олиб боришга ҳаракат қилади.

Бунда асосан анъанавий ижтимоий муносабатларнинг роли беқиёсдир. Маълумки, жамиятда юзага келган урф-одат, анъаналар негизида тарбиянинг у ёки бу шакли ётади. Шу маънода миллат ўз вакиллари, ёшларни тарбиялашда тарбия усуллари авлоддан-авлодга етказиш жараёнининг тақдорланиши натижасида анъанавий тизимлар юзага келади. Бу эса ўз навбатида, миллий ўзликни англашда анъанавий тизимнинг нечоғлик муҳим эканини кўрсатиб беради. Шу боисдан ҳам биз миллий тарбияда асосан анъанавий тизимдан унумли фойдаланамиз. Зеро, бу миллий ўзликни англашда асосий омил бўлиб хизмат қилади.

Фикримизча, миллий тарбия билан миллий ўзликни англаш орасидаги ўзаро боғлиқлик уларни бир-бирисиз тасаввур қилиш қийин. Жумладан, агар миллий заминлар чуқур ва бой бўлсаю, миллат вакиллари, айниқса, уни ёшларнинг онгига сингдирилмаса, уларнинг миллий онги, миллий маданияти ва руҳияти шаклланмайди, миллий ўзлигини англай олмайди, худди шунингдек, миллий ўзликни англашнинг ўзини асраш, уни ривожлантириш ва кейинги авлодга етказиш муҳим асосий омиллардан бири сифатида ҳам миллий тарбияни олиб боришни тақозо қилади.

Бизнинг фикримизча, миллий ўзликни англаш орқали миллий тарбия билан миллий ўзликни англаш, ёшларни турли зарарли ғоялар, ахлоқсизликлар ҳамда “оммавий маданият”дан ҳимоя қилиш имкониятини беради.

НАТИЖАЛАР. Демак, миллий ўзликни англаш нафақат миллий-маънавий

тараққиётнинг муҳим омили, худди шу билан бирга, зарарли ғоявий маънавият ва ахлоқий таъсирлардан ҳимояланиш омили ҳисобланади. Бунинг учун эса миллий ўзликни англашни аҳоли, айниқса, ёшлар онги ва қалбига сингдиришга ёрдам берадиган миллий тарбия билан боғлиқ маданий тадбирлар, спектакллар ва бошқа томошалар билан изчилликда олиб бориш лозим.

Миллий тарбияни янада кучайтириш учун урф-одат, анъана, қадриятлар ва маросимларга боғлиқ маданий тадбирларни кучайтириш, миллий ўзликни англашни ўстириш каби вазифаларни амалга ошириш заруратининг кучайиб бораётганлиги билан боғлиқ бўлиб қолган.

Иккинчидан эса, глобаллашувнинг таъсири оқибатида ривожланган давлатлар халқларининг “оммавий маданиятларини” турли воситалар ёрдамида энди тараққиёт йўлига кираётган мамлакатлар, уларнинг халқларига таъсирини ҳам кўриш мумкин. Тарбия орқали уларнинг дунёқарабини ўзгартириш лозим. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев шу мақсаднинг кенг қамровли жиҳатида эътибор қаратиб, “Учинчи Ренессанс” даврида бу тизим юзага келадиган муҳит миллатни юқори даражага кўтаришини кўрсатиб ўтган.

Таҳлиллар давомида биз ўтказадиган тадбирларнинг миллий тарбиядаги ўрни ва роли шундан иборатки, уларда оммавийлик кенг қамровли бўлиб, аҳолининг турли табақа вакиллари иштирок этади; уларда миллийликнинг ўзига хос жиҳатлари яққол намоён бўлганлиги учун ҳам миллат вакилларида “яқинлик” кучли бўлади. Шунинг учун ҳам миллий урф-одат, анъана, қадриятлар билан боғлиқ тадбирлар ва маросимлар эскирмай, такомиллашиб боради. Бунда албатта, маданият муассасаларининг ўрни ва фаолияти катта ҳисобланади. Миллий ўзликни англаш ҳар бир халқларнинг миллийлигига мансуб барча хусусият ва жиҳатларни кўзда тутаяди. “Ўзбек халқи миллат бўлиб шаклланган ва ундан кейинги ижтимоий-иқтисодий жараёнларда юзага келган миллий ўзликка хос белги ва хусусиятлар шароитлар ўзгарганда ҳам миллий ўзликни ташкил этувчи омиллар сифатида

сақланиб қолаверади”³. Бунда аввало, миллий ғояни тарғиб этувчи тизим таркибига кирувчи жамиятнинг турли ижтимоий институтлари ҳамда маданий уюшмаларининг жамият ижтимоий-сиёсий ҳаётидаги фаоллик даражасини аниқлаш керак. Миллий ўзликни англаш тузилмасида унинг муҳим элементлари бўлган тарихий хотира, ўзбек тили, миллий маданият, ўтмишни ҳам алоҳида эътиборга олиш зарур⁴.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев ёшларимизнинг қалби ва онгида мафкуравий иммунитетни кучайтириш билан боғлиқ вазифаларга қисқача тўхталиб, таъкидладики, “Бу борада биз асрлар мобайнида шаклланган миллий анъаналаримизга, аждодларимизнинг бой маънавий меросига таянамиз”⁵.

ХУЛОСА ўрнида, маънавий-маърифий тадбирларни олиб боришда тадбирларнинг мазмун-моҳиятига эътибор берган ҳолда, тадбирлар учрашув иштирокчиларининг қизиқишлари, истаги, хоҳиши, эҳтиёжларини инобатга олган ҳолда ташкил этилиши мақсадга мувофиқдир. Уларнинг хоҳиш-истаклари инобатга олинмасдан ташкил этилса, учрашув иштирокчиларини бир хил фикрлаш, бир хилда мушоҳада қилиш, бир хил хулоса чиқаришга ўргатиб қўйиш мумкинлигини назардан четда қолдириш мумкин эмаслигини таъкидламоқчимиз. Энг асосийси, тадбир

иштирокчиларининг (айниқса, ёш авлоднинг) “ўзлиги” ни англашига салбий таъсир кўрсатиши мумкин.

Маданият муассасалари фаолиятини янгича ташкил қилиш ва бошқариш, улар томонидан олиб бориладиган маънавий-маърифий, тарбиявий ишлар сифати ҳамда тарбиявий моҳиятига эътибор қаратиш ҳам куннинг энг долзарб муаммоси бўлиб, уларнинг маънавий-маърифий фаолиятига эътибор берилиши лозим.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-том. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 126 б.
2. Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирлиги ҳузурида Маданият ва санъатни ривожлантириш жамғармасини ташкил этиш тўғрисидаги Президент қарори // Халқ сўзи газетаси. 2017 йил 17 октябрь.
3. Сапаров Б.Б. Миллий ғоя тизимида миллий ўзликни англашнинг тузилмавий-функционал таҳлили. Ф.ф. бўйича фалсафа доктори (PhD) учун тайёрланган диссертацияси. – Тошкент: 2019. – 31 б.
4. Маврулов А., Маврулова М. Маданият назарияси. – Тошкент: 2023. – 46 б.



³ Сапаров Б.Б. Миллий ғоя тизимида миллий ўзликни англашнинг тузилмавий-функционал таҳлили. Ф.ф. бўйича фалсафа доктори (PhD) учун тайёрланган диссертацияси. – Тошкент: 2019. – 31 б.

⁴ Сапаров Б.Б. Миллий ғоя тизимида миллий ўзликни англашнинг тузилмавий-функционал таҳлили. Ф.ф. бўйича

фалсафа доктори (PhD) учун тайёрланган диссертацияси. – Тошкент: 2019. – 35 б.

⁵ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-том. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 126 б.

IJODIY INDIVIDUALLIKNI YUZAGA CHIQUARUVCHI KOMPONENTLAR TIG‘IZLIGI, FRANS KAFKA AN’ANALARI VA ASAD DILMUROD IJODINING O‘ZIGA XOSLIGI

*Toirova Zubayda Omongaldiyevna, Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi*

ПЛОТНОСТЬ КОМПОНЕНТОВ ВЫРАЖАЮЩИХ ТВОРЧЕСКУЮ ИНДИВИДУАЛЬНОСТЬ, ТРАДИЦИИ ФРАНЦА КАФКИ И ИНДИВИДУАЛЬНОСТЬ ТВОРЧЕСТВА АСАДА ДИЛЬМУРАДА

*Таирова Зубайда Омонгалдиевна, независимый научный
исследователь Ургенчского государственного университета
имени Абу Райхана Беруни*

THE DENSITY OF COMPONENTS THAT EXPRESS CREATIVE INDIVIDUALITY, TRADITIONS OF FRANCES KAFKA AND THE CHARACTERISTICS OF ASAD DILMURAD'S CREATIVE WORK

*Tairova Zubayda Omongaldiyevna, Independent researcher of the
Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni*



<https://orcid.org/0009-0008-9321-1515>

e-mail:
toirovazubayda@gmail.com

Annatotsiya: Mazkur ilmiy tadqiqotda ijodiy individuallik tushunchasi va uni shakllantiruvchi asosiy komponentlar tahlil qilinadi. Xususan, XX asr modernistik adabiyotining yorqin namoyandasi Frans Kafka ijodidagi falsafiy-anglash mezonlari, mavjudotga nisbatan begonalik kabi g‘oyaviy-estetik jihatlar chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘zbek zamonaviy adabiyotining iste‘dodli vakili Asad Dilmurodning ijodiy uslubi Kafka an‘analari bilan qiyosiy asosda ko‘rib chiqilib, uning adabiy tafakkuridagi o‘ziga xos poetik qiyofasi ochib beriladi.

Kalit so‘zlari: badiiylik modusi, badiiy tasvir vositalari, badiiy qolip, muallif, hikoya, qahramon, badiiy obraz, adabiy streotiplar, ijodkor badiiy konsepsiyasi, polifoniya.

Аннотация: В данном научном исследовании анализируется понятие творческой индивидуальности и основные компоненты, ее формирующие. В частности, глубоко анализируются философские и концептуальные критерии в творчестве Франца Кафки, выдающейся фигуры модернистской литературы XX века, а также такие идейно-эстетические аспекты, как отчуждение от бытия. Также творческий стиль Асада Дильмурода, талантливого представителя современной узбекской литературы, рассматривается на сравнительной основе с традициями Кафки, раскрывая его неповторимый поэтический образ в литературной мысли.

Ключевые слова: художественный модус, художественные средства, художественная форма, автор, сюжет, герой, художественный образ, литературные стереотипы, творческая художественная концепция, полифония.

Abstract: This scientific study analyzes the concept of creative individuality and the main components that form it. In particular, the philosophical and conceptual criteria in the work of Franz Kafka, a prominent figure in modernist literature of the 20th century, as well as ideological and aesthetic aspects such as alienation from existence, are deeply analyzed. Also, the creative style of the talented representative of modern

Uzbek literature, Asad Dilmurod, is considered on a comparative basis with the traditions of Kafka, revealing his unique poetic image in literary thought.

Keywords: *artistic mode, artistic means, artistic form, author, story, hero, artistic image, literary stereotypes, creative artistic concept, polyphony.*

KIRISH. Insoniyat shu choqqacha bosib o'tgan hayot murakkabliklarini badiiy so'zga ko'chirar ekan, har bir yozuvchining olamni anglash va odamni anglatish manerasi o'ziga xos tarzda maromiga yetadi. Sayqallanib, saralanib, uning inson fenomeniga boshqacha nazarda munosabatga kirishishi – ijodiy individuallik pafosi bilan o'lchanadi, albatta! Buning negizida millat, xalq va odamlar tabiati, ularning maslagi, yashash a'moli kabi qator unsurlar bir butun yaxlitlik sari intiladi. Falsafiy-psixologik talqin hamda odamlararo munosabatlarni mavhumlikdan murakkablikka, oddiylikdan buyuklikka qadar olib chiquvchi shunday kriteriyalar mavjudki, badiiylikning qism va butun orasidagi uzil-kesil o'zgarishlarini tartiblashtiradi. Bu badiiy adabiyot modusida ijodkor dunyoqarashi hosilasi deb ham yuritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Frans Kafka an'analari va Asad Dilmurod ijodining o'ziga xosligi. G'arb adabiy tafakkurining pirovard maqsadida insoniyatning erkin va farovon hayot kechirish tamoyili aks etganligining shohidi bo'lamiz. Frans Kafka haqida so'z borganda bu zavol bilmas adabiyot har bir davrning tashxis barmog'i bilan o'z o'lchov manerasini dalolatlab bera olganligini tushunib yetamiz. Kafka an'analari nafaqat Asad Dilmurod, balki Nazar Eshonqul, Xurshid Do'stmuhammad, Ulug'bek Hamdam, Isajon Sulton, Shodiqul Hamro, Salomat Vafo kabi yozuvchilar ijodida yanada bo'y ko'rsatdi. Bu traditsiya Asad Dilmurodning "Rang va mehvar", "Xilvat" to'plamidagi bir-birini mutlaqo takrorlamaydigan hikoyalari timsolida yanada go'zal mohiyatga aylandi. "Bugun uning nomi voqelikni reallik qadar majozlashdirtirgan degan maqom olgan, XX asrda dunyo badiiy tasavvurini larzaga solgan ikkita buyuk adib – Joys va Bekket bilan bir qatorda sanaladi: bu adiblar adabiyotning tasvir chegarasini taxayulning imkoniyati qadar kengaytira olishdi, shu xizmatlari uchun adabiyotning "uch ma'budi" degan nomga sazovor bo'lishdi. Bugun mazkur uch nomni, garchi asarlarini o'qishmagan bo'lsa ham, bilmagan ziyolining o'zi yo'q. Hozir ularning iboralaridan, hikmatlaridan, majozlaridan tadbirkorlar ham, faylasuflar ham, siyosatchilar-u jurnalistlar ham,

olimlar-u voizlar ham, qalloblar-u tovlamachilar ham xuddi bu hikmatlarni birgalikda yaratishganday bemalol foydalanishadi, bu hikmatlarni ham o'zlariga va maqsadlariga xizmat qildirishga urinishadi"[7.272]. Darhaqiqat, Kafkalar avlodining bugungi kun dunyo adabiyotiga qoldirgan majoziy-ramziy poetik talqinlari hech qachon eskirmaydigandek. Odamni o'ylashga, fikrlashga, tafakkur sarhadlarini yanada kengaytirishga xizmat qilishi muhimligi oydinlashadi. Chunonchi Kafkalarining biz insoniyat botiniy go'zalligini ramzlar simfoniyasi bilan idrok etish muhimligini dalolatlab, har bir epizod va ramzlarda INSON erki va ozodligi, jamiyatga mansubligidan qat'i nazar baxt-u saodat rutbalarida yashash qaydnomasi yaqqol namoyon bo'ladi. Ayni paytda, Kafkalarining dunyoqarashidan sizib chiqayotgan olmos so'zlar, bebaho hikmatlar shodasi har bir fikrlovchi insonga baxt-u omad keltirishini hech qachon unutmaslik lozim! Shunday ekan, G'arb adabiy tafakkur durdonalarining Asad Dilmurod hikoya va yirik janrdagi asarlarida bo'y ko'rsatishi, unga ilhom bag'ishlashi, milliy adabiy qahramonlarni yaratishga rahbat oshirishi sinalgan hodisaligi ma'lum bo'ladi. Frans Kafkaning "Evrilish" hikoyasidagi jamiyatga mansub Gregor Zamza taqdiri "Qo'ng'iroq", "Armon qushlari" hikoyalaridagi badiiy-tasvir vositalari, insonning mifologiyaga oid qarashlarini, xarakterlararo o'ziga xos ifodalarni ko'z o'ngimizda gavdalandiradi. Frans Kafka ijodiyotida "Evrilish" hikoyasi alohida bir mavqe kasb etadi. Hikoya muqaddimasiga e'tibor beraylik: "Gregor Zamza kunlardan birida ertalab notinch uyqudan uyg'onib, o'z to'shagida qo'rqinchli maxluqqa aylanib qolganligini sezdi. U orqa tomonidagi toshdek qattiq to'shda chalqancha yotar ekan, boshini xiyol ko'tarishi bilan o'zining qabariq, qo'ng'irtus, yoysimon tangachalar bilan bir tekis bo'laklangan, ko'rpasi arang ushlanib, salga sirpanib tushib ketishi mumkin bo'lgan qornini ko'rib turardi. Uning ko'p sonli, tanasining boshqa joylariga qaraganda majruh ingichka oyoqchalari ko'zi o'ngida bir-biriga chirmashib yotardi. "Menga nima bo'ldi?" o'yladi u. Bu tush emasdi. Xonasi haqiqiy, mo'jaz bo'lsa ham odatdagi xona, unga

yaxshi tanish to'rt devor ichida sukut saqlardi. Movut namunalari taxlab qo'yilgan stol ustida – Zamza kommivoyajer edi, u yaqinda bezakli jurnaldan qirqib olib, chiroyli tillarang ramkaga joylashtirgan surat osig'lik turardi. Rasmda mo'ynali shlyapada va boa (ayollarning mo'ynali yoki patli uzun sharfi) qaddini tik tutgan ayol o'tirgan holda tomoshabinga qo'llari yashiringan muftasini (qo'llar oldinda birlashtirilganda ular issiq bo'lishiga mo'ljallangan mo'ynali yoki jungli yengcha, qo'lqopning bir turi) uzatgan holda tasvirlangandi"[3.22-23]. Keltirilgan lavhaning o'zida Gregor Zamzaning hayoti bir hashoratga aylanib qolishi, ishlab yurgan vaqtida onasi, singlisi va dadasiga qanchalik kerak bo'lsa, bu maxluq shakliga kirganida keraksiz buyum kabi bo'lishiga ishora qilinmoqda. Har bir inson jamiyatda o'z missiyasini bajarar ekan, insonlik rutbasi, omadi va baxt-u saodati ufurib turganida atrofdagilarga, yaqinlariga qanchalik kerak bo'lsa, shunchalik qadrlil bo'lishini F.Kafka XX asr boshlarida tushuntirishga urinmoqda. Asli yahudiy oilasidan chiqqan Kafkaning butun umri azob-uqubatlarda o'tdi. Uning marom bilan o'tayotgan biror kunini eslash qiyin. Yozuvchi o'zining taqdirini o'zi oldindan ko'ra olgandek hikoyada omadsizliklar, baxtsiz hodisalarning uchrashi tamomila yangicha tasvir moduslarida ramziy-majoziy, mifologik kartinalarda ifodasini topadi. Kafka tabiatidagi to'g'riso'zlik kuchliligi, maqtanish hissi yo'qligi bilan boshqa adiblardan tamomila ajralib turadi. U o'zining taqdiriga esh bo'lgan hayot sirlarini bilishga qiziqishi oilasini yaxshi ko'rishi "Otamga maktub" essesinde ham yaqqol namoyon bo'ladi. Uning otasidan chekkan aziyatlari murg'ak qalbini azoblarga tashlaydi. Shunday ekan, Kafka butun insoniyatga Yagona Alloh bandalari bo'lib xizmat qilish lozimligini o'z asarlarida borligicha inkishof qiladi. Din, millat, irq va qabilalar, toifalar, boylar, kambag'allar deb ajratish bu Allohga shirk keltirish bilan barobardir, degan qizil ip uning asarlarini o'qiganingizdayoq ko'z oldingizda gavdalanadi.

O'zbek adibi Asad Dilmurodning "Armon qushlari" nomli hikoyasida bir-birini to'ldiruvchi ikki tasvir predmeti ziddiyatga kirishadi. Tarix va bugun orasida kechadigan voqelik hikoyaning badiiy qoliplarini yaxlitlashtirishga xizmat qiladi: "Ba'zan juda og'rinib, qon bo'lib ketaman, negaki hunarni behad qadrlagan salohiyatli me'mor-u naqqoshlar poyqadami bo'sag'asini tabarruk qilgan

ustaxonamizni ko'plar bilishmaydi. Aslida, birov ishi tushmaganidan keyin bunga ko'pam ajablanmaslik kerak. Tag'in u Afrosiyob arxeologik qo'riqxonasi shimolida, hatto gado ham birrov nazar solmas xilvat chekkada joylashgan... Xayriyat, ikki yilcha burun turli gul va manzarali daraxt nihollari o'tqazilgach, cho'lday qaqshab yotadigan hovliga sal son kirdi. Atrof temir panjara bilan o'raldi, kiraverishda qo'sh tabaqali ulkan temir darvoza o'rnatildi. O'shanda ham bizni kamdan-kam hollarda yo'qlashardi va shahar hayotidan uzilib qolgan edik"[1.142]. Hikoya muqaddimasidagi qahramon tushuntirishlaridan bilish mumkinki, inson mehnati qadrlanishi, qanday vaziyat va holat ro'y berishidan qat'i nazar bu dunyoda qilayotgan eng suyumli ishiga rag'bat olishi lozimligi haqida so'z bormoqda. Xuddi Kafka talqinlarida inson insoniy munosabatlar orasida ulg'ayib, jamiyatda qadr-qimmat topishi haqida tasavvur uyg'otsa, Gregor Zamzaning hashoratga aylanishdagi kayfiyati, odamlarning unga bo'lgan munosabati – o'lim bilan olishish instinktini yodimizga soladi. A.Dilmurod ayni "Armon qushlari" hikoyasida Xumor ismli qizga oshiq bo'lishi, moziyning hali ochilmagan sir-sinoatidan bahra olish, boshqacha aytganda "bilinish", "tanilish" istagi yaqqol ko'zga ko'rinadi. Hikoyadagi tasvir usuli – murakkab va mifopoetik talqin ustuvorligiga qarab o'sib bormoqda. Mif – insonni o'rab turgan muhit bo'lsa, tasavvur uni qayta ishlashga sharoit yaratishga qodir bir tushunchalar yig'indisidir. Demak, yozuvchi badiiy obrazni quyuqlashtirib, tarixiy-madaniy jabhadagi uzilishlarni, ko'ngil ko'zi bilan his etish muhimligini asoslamogda. Buning natijasida, Xumorga erishish va unga bo'lgan pokiza muhabbatini namoyon etish ilinjida qahramon ko'p xayollarni tuzadi, boshidan o'tkazadi. Uning muhabbatiga musharraf bo'lish ilinjida hayot kechiradi. Asad Dilmurodning badiiy izlanishlaridagi G'arb badiiy tafakkurining sezilarli darajada tasvir me'yorlarida aks etishi ayni haqiqatdir. Chunki tasvir quyuqlashgani sayin o'quvchi fikrlash sahnasiga o'zini jiddiy tayyorlay boradi. "Armon qushlari" hikoyasidagi sopol idishlarga, ko'zalarga naqsh bezash ishlari usta Quli va oddiy qishloq oilasining taqdiri, tirikchiligi, tarixiy obidalarni avlodlarga meros qilib qoldirish muhimligini ham taqozolaydi. Natija shu bo'ladiki, odam o'zining mehnati bilan tuproqdan bino bo'lgan sopol idishlarga qanday chiroyli va haybatli, ko'rgan odamga ko'zni qamashtirgudek naqshlar chizishi

lozim. Inson qalbiga ham xuddi shunday bejirim yaxshiliklar, muhabbat bilan naqshlar bezash muhimligini yozuvchi turli xil mezonlar tufayli idroklamoqda.

TADQIQOT METODLARI. Badiiy nutq tabiati va polifonizm masalasi. Rus munaqqidi M.Baxtin har bir asarda bir-biridan farqlanuvchi va hamma voqelikni “parda” orqasida birlashtiruvchi ovozlar uygʻunligini – polifonik nutq deya taʼriflar ekan, buni talqin qilgan professor U.Joʻraqulov shunday izohlaydi: “Polifoniyadagi har bir ovoz mustaqil odamni bildiradi. U muallif ovozining takrori yoki aks-sadosi emas. Bu ovoz polifoniya deb atalgan maydon aro muallif va boshqa qahramonlar ovozi bilan bir qatorda harakatlanishi, oʻzga ovozlar bilan qoʻshilishi, ulardan ajralib chiqishi, ularni tasdiq yoki inkor etishi, hatto oʻzga ovozlarga qarshi isyon koʻtarishi mumkin. Har bir ovozning oʻz dunyosi, nuqtayi nazari, gʻoyasi bor. U bularning barchasini himoya qilish, polifoniya doirasida namoyon etish va bu maydonda gʻolib yoki magʻlub boʻlish huquqiga ega. Qizigʻi shundaki, hatto muallif ovozining toʻla maʼnodagi magʻlubiyati ham boshqa ovozlar faoliyatining oʻzgarishi va soʻnishiga olib kelmaydi. Shunga koʻra polifoniya, baʼzi oʻzbek adabiyotshunoslari qayd etganidek, maʼno serqatlamligi, koʻpmaʼnolilik emas. Undagi har bir ovoz bir mustaqil olam, ulkan dunyo ichidagi dunyodir”[6.78]. Binobarin, U.Joʻraqulov har qanday badiiy asar tabiatidan kelib chiqib, oʻz qarashlarini talqin qilar ekan, masalaning uchinchi bir jihatini ham mantiqiy urgʻulaydi. Asarning qaysi makon va zamonda yozilgani, mafkuradan xoli boʻlishi, insonning ulkan dunyo ichidagi dunyocha ekanligini ham toʻlaqonli his etish zarurligini taʼkidlaydi. Asad Dilmurodninng eng xarakterli uslubidan biri – hayotdagi odamlarni moziy va bugun orasida jiddiy sinovlar modusidan oʻtkazganligida koʻrinadi. Mana shu tamoyil adibning pirovard uslubiy-shakliy yoʻsindagi sintezlash qobiliyatining teranligini ham kafolatlaydi.

XULOSA shuki, “Armon qushlari” hikoyasida bir oila va uning oʻz baxtidan mosuvo boʻlgan Xumorning qismatiga mantiqiy urgʻu beriladi. Uning bebaxtligi ham usta Quli nafsoniyati sabab roʻy berishini xilma-xil ong osti sezimlari bilan yuzaga chiqara olgan Asad Dilmurod ijodiy konsepsiyasining mevasi deb qarash ishonchni oqlaydi. Inson bu dunyoga baxt izlab keladi hamda shu ehtiyoj bilan jazolanadi, degan hikmatlar bejiz aytilmaganiga imon keltiramiz. Yaʼni insonning qalbiga chizilgan muhabbat naqshi, har qanday balo-qazolar bilan ham oʻchmasligini, u abadiyatga olib boruvchi, Haq taoloni tanishga yoʻnaltiruvchi chiziqalar ekanligiga shak-shubha qilmaymiz.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Asad Dilmurod. Armon qushlari. –T: Yangi asr avlodi. 2017. –B.142.
2. Boboxonov M. Oʻzbek qissalarida badiiy psixologizm. –T: Bayoz. 2014. –B.132.
3. Frans Kafka. Evrilish. –T.: Yangi asr avlodi. 2020. –B.22-23.
4. Haqqul I. Ijod iqlimi. – T.: Fan, 2009. – B. 375-376.
5. Jon Golsuorsi. Adabiyot va hayot. –T: “Maʼnaviyat”. 2010. –B.77-78.
6. Joʻraqulov U. Nazariy poetika masalalari. –T.: Gʻ.Gʻulom nomidagi nashriyot matbaa uyi. 2015. –B.78.
7. Nazar Eshonqul. “Men”dan “men”gacha. –T.: Akadernashr. 2014. –B.272.
8. Quronov D., va boshq. Adabiyotshunoslik lugʻati. –T: Akadernashr. 2010. –B.402.
9. Toʻlaganova S. Ijodkor shaxsi va adabiy qahramon muammosi. –T: 2013. –B.28.
10. <https://journal.fledu.uz/wp-content/uploads/sites/3/2021/12/monologik-nutkning-funkczional-va-psiholingvistik-hususiyatlari.pdf>
11. Бахтин М. Автор и герой в эстетической деятельности. Собрание сочинений. Т. - 1.– М.: Искусство, 2003. – С. 216.

Qabul qilindi: 03.04.2025

Chop etildi: 31.05.2025

UDK: 821.51

FOLKLOR VA YOZMA ADABIYOT UYG‘UNLIGI*Otaboyeva Dilnoza Davronbek qizi, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi***HARMONY OF FOLKLORE AND WRITTEN LITERATURE***Otaboyeva Dilnoza Davronbek qizi, Independent researcher at Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni***ГАРМОНИЯ ФОЛЬКЛОРА И ПИСЬМЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ***Отабоева Дилноза Давронбек кызы, независимый исследователь Ургенчского государственного университета имени Абу Райхона Беруни*

<https://orcid.org/0009-0009-2905-8621>

e-mail:

Otabayevad91@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada folklor va yozma adabiyotning uyg‘unligi, G‘arb-u Sharq an‘analarining yozma adabiyotda ifoda etilishi, yangi inson konsepsiyasining mohiyati, folklordagi obrazlar va motivlar haqida so‘z yuritiladi. Folklorda ibtidoiy qarashlar va mifologik olam manzaralari tahlil qilinadi. Shuningdek, Tog‘ay Murod ijodida folklorzimlarning qo‘llanilishi hamda yangilanishlar sintezidagi adib badiiy mahorati e‘tirof etiladi.

Kalit so‘zlar: xalq og‘zaki ijodi, folklor motivi, G‘arb-u Sharq an‘analari, ibtidoiy qarashlar, mifologik talqin, voqelik.

Abstract: This article discusses the harmony of folklore and written literature, the expression of Western and Eastern traditions in written literature, the essence of the new concept of man, images and motifs in folklore. Primitive views and mythological worldviews in folklore are analyzed. Also, the use of folklore in the work of Togay Murad and the writer's artistic skill in the synthesis of innovations are recognized.

Keywords: oral folk art, folklore motif, Western and Eastern traditions, primitive views, mythological interpretation, reality.

Аннотация: В статье рассматриваются гармония фольклора и письменной литературы, выражение западных и восточных традиций в письменной литературе, сущность новой концепции человека, образы и мотивы в фольклоре. Фольклор анализирует первобытные воззрения и мифологические картины мира. Отмечено также художественное мастерство писателя в использовании фольклорных элементов и синтезе новаторства в творчестве Тогая Мурада.

Ключевые слова: устное народное творчество, фольклорный мотив, западные и восточные традиции, первобытные представления, мифологическая интерпретация, реальность.

KIRISH. Insoniyat badiiy tafakkurining ajralmas halqasi sifatida azaliy qadriyatlar in‘ikosi sanalmish folklor qadimiy ohanglar jamuljamini o‘zida aks ettirgan san‘at turlaridan biridir. Antik yunon va turkiy xalqlar adabiyotidagi eposning zamonaviy yozma adabiyotga ta‘siri XX asr nasrida alohida o‘rin tutadi. Mifologik kiritmalar, maqol va matallar, topishmoq hamda ertaklarning yozma adabiyotda ifodalanishi, qariyb ming yillik an‘analarni o‘ziga singdirganligi bilan quvonarlidir. Demak,

folklor o‘z-o‘zidan har qanday badiiy adabiyotning tagzamini, ilk debochasidir. San‘atning turlari ko‘p bo‘lganidek, uni ifodalash “izm”lari ham turfalanadi. Mana shu mavjudlik jumbog‘i, insonning hayot tarzi hamda umriy mazmunini inkishof etish faqatgina yozuvchi badiiy mahorati bilan tutashuvini yodda tutmoq joiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Ibtidoiy qarashlar va mifologik olam manzarasi. Yangilayotgan badiiy tafakkurning shu choqqacha

erishilgan yutuqlari zamirida azim qadriyatlar (xalq og‘zaki ijodi) in‘ikosi aks etganligini hech bir davr inkor qilolmasa kerak. G‘arb-u Sharq an‘analarining yozma adabiyotda ifoda etilishi, yangi inson konsepsiyasining mohiyatini tashkil qiladi. Jumladan, folkloridagi obrazlar hamda motivlarning bir-birini to‘ldiruvchi ahamiyat kasb etishi, asrlar davomida milliy qadriyatlarning sayqallanib, takomillashib kelayotganini dalolatlaydi. Har qanday badiiy asarning mohiyatida – voqelik yotadi. Voqelik o‘z-o‘zidan xarakterlar sistemasining ro‘yobga chiqish manerasini belgilaydi. “Xalq og‘zaki ijodidagi obraz va hodisalar ham xuddi shunday. Garchi har qanday obraz va hodisa zamirida voqelik yotganini inkor etmagan holda shuni ta’kidlash joizki, obraz va hodisalardan to‘liq reallik izlash asarni yuzakilashtiradi. Obrazning tarixiyliigi eng avvalo, unda mujassam etilgan ifoda va tasavvurda ko‘rinadi. Bu ifoda hamda tasavvur turkiy xalqlarning birlamchi tasavvurlariga mos va hozirgi kunga qadar ham shu tasavvurni tashiydi. Uni antogonistik sinfiy nuqtayi nazardan ifodalab bo‘lmagani kabi quruq xayolot deb ham bo‘lmaydi. Bu kabi obrazlar xalq tafakkur tarixining, xayoloti va dunyoqarashining bir bo‘lagi sifatida tadqiq qilinmog‘i shart. Shundagina biz an‘anaviy obrazlar va xalq og‘zaki ijodiga to‘g‘ri baho bergan bo‘lamiz”[4]. Binobarin, hayotiy haqiqat hamda badiiy to‘qima orasida mifologik talqin qamrovi hiyla kengaya boradi. Shu ma’noda, badiiy adabiyotning inson taqdirini talqin etishga qaratilgan kommunikatsion birligi hayotiy ziddiyatlar teranligi bilan o‘lchanadi. XX asrning tongotarida yozma adabiyotga folklor an‘analarini mohirlik bilan singdirgan ilk o‘zbek romani muallifi Abdulla Qodiriy bo‘lsa, keyinchalik bu an‘anani boshqa-da yozuvchilar tadrijiy davom ettirdi. Asosan, tasvir va talqindagi yangilanishlar sintezi hayotning puchmoqlarigacha kirib borishni dalolatlaydi. Demak, folklor – yozma badiiy adabiyotning tasvir ekzistensiyasini hamda modusini yangiladi. Uning miqyoslarini, tasvir hamda tasavvur chegaralarini kengaytirdi. Undan yangidan-yangi mifologik kiritmalar, inson shaxsini talqin etishdagi ifoda madaniyatining rang-baranglashuviga jiddiy zamin hozirladi. Aleksandr Genisning qayd etishicha: “G‘arb va Sharq poetikalari o‘rtasidagi tafovutning mohiyati shundan iborat deb belgilamoq mumkinki, ularning birinchisi metaforaga, ikkinchisi esa metonimiyaga tayanadi. Buning ma’nosi shuki, G‘arb san’ati obraz tevaragida quriladi. Sharq san’ati esa iz

tevaragida quriladi. Agar G‘arb muallifi bu narsa boshqa narsa desa, Sharq muallifi, qismni butun deb ko‘rsatadi. Ana shunday metonimik fikrlash tarzining namunasi sifatida quyidagi xitoy maqolini ko‘rsatish mumkin: “Bitta yaproq uzilib tushsa, butun dunyo kuz boshlanganidan xabardor bo‘ladi”[2]. Ko‘rinadiki, estetik idrok hamda falsafiy qamrov sintezi har ikki hududning tutashuviga sharoit hozirlamoqda. G‘arb-u Sharq an‘analari negizida, asosan, folklor motivi turadi.

MUHOKAMA. Darhaqiqat, XX asr o‘zbek nasrida dramatik, tragik vaziyatlar talqini nasriy polotnolarda keng qamrovda namoyon bo‘ldi. Uning fojeaviyligi hamda sahnaviyligi keskin ziddiyatlar qurshovida qolgan bani bashariyat taqdiri bilan bevosita uyg‘unlashib ketdi. Zulm va kufr urchigan jamiyatda insonlik sha’nini asrab qolishning o‘zi katta san’at, mahorat, mardlik ekanligini tushunib olish lozim. Dunyo adabiyotining mohiyatida – folklor turadi. Uni istifoda qilish yozuvchi yoki shoirning iste’dodi hamda mahoratiga bog‘liq ekanligi namoyon bo‘ladi. Professor B.Sarimsoqov alohida ta’kidlaganidek: “Adabiyotning xalqchilligi masalasi nuqtayi nazaridan qaralsa, bilingvizm – ijobiy hodisa. Chunki Chingiz Aytmatov ijodi orqali butun dunyo qirg‘iz xalqining kundalik va o‘tmish hayoti, bu xalqning tarixi va ruhiyati, dunyoqarashi va intilishlari bilan tanishdi. Endi qiyoslang, agar Chingiz Aytmatov faqat qirg‘iz tilida ijod qilganda, bu qadar tez olamga tanilmagan bo‘lardi. Chunki uning asarlari rus tilida yozilishi orqali keng xalqchillik kasb etdi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri rus tilida ijod qilish uni dastlab sobiq Ittifoq miqyosida tanishga olib keldi, uning asarlaridagi xalqchillik miqyosi esa ana shu paytda juda kengaydi. Rus tilidan G‘arb va Sharq xalqlari tillariga tarjima qilish esa adib xalqchilligini butun dunyo miqyosiga olib chiqdi”[7].

Haqiqatdan ham, badiiy adabiyotning xalqchilligi, folklor an‘analarining singdirilishi natijasida Ch.Aytmatov butun ittifoq bo‘ylab keng miqyosda o‘qila boshlandiki, bizning adabiyotimizda ana shunday yo‘sinda ijod qiladigan adiblarning yo‘qligi ham yuqoridagi mulohazalarimizni quvvatlaydi. Demak, xalqchillik, xalq og‘zaki ijodining sintezlashuvi, yangi badiiy nasr istiqbolini ham belgilab berishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma’noda, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Tog‘ay Murodning ko‘pchilik asarlarida folklor an‘analarining in‘ikosi muayyan janrlarning yo‘qolib ketmasligiga, aksincha, ifodalanish xususiyatining

turfalanishiga olib keldi. Yangi davr odamlarining ruhiyatini folklor tabiatidan kelib chiqib tasvirlash modusi ijobiy hodisadir. Bir qarashda juda oddiydek tuyulgan voqelikning mohiyatiga teran nazar tashlansa, hayot haqiqati o'zining yorqin qiyofasini namoyon etishi tayin. Tog'ay Murod ijodida folklorizmlarning qo'llanilishi milliy va umuminsoniy mezonlar tabiatidan kelib chiqadi. Negaki, milliy koloritni o'zidek qilib berish, iste'dod hamda mahorat, talant bilan bog'liq ijodiy jarayon ekanligini yodda tutish muhim.

Abdulla Qodiriy asarlarida folklorizmlarning ifodalanishi, "doston va ertak" o'qib yuruvchi xalqning ko'ngliga yaqin hayotiy voqealarni ifodalash uchun ham katta salohiyat zarur edi. A.Qodiriy buning uddasidan chiqa oldi. Bu an'ana keyinchalik A.Qahhor, Oybek, G'.G'ulom, P.Qodirov, O.Yoqubov, O'.Hoshimov, Sh.Xolmirzaev, O'.Umarbekov asarlarida davom ettirilgan bo'lsa, Tog'ay Murod badiiy olamida alohida bir sahifa bo'lib yuzaga chiqdi. Tog'ay Murodning aksariyat asarlarida – qo'shiq xirgoyi qilganidek, ruhiyat va inson tuyg'ulari uyg'unlashib, yangicha bir shaklda inkishof etiladi. Mana shu an'anaviylik va hayotiylik mezonlari adib izlanishlarining konsepsiyasini belgilab beradi.

Folklorizmlarni badiiy asarda qo'llash mifologik talqin bilan bevosita bog'lanib ketadi. Chunki mif – universal hodisa. Jahon adabiyotini chuqur o'rganish, Tog'ay Murod ijodining eng katta yutug'idir. U koinot, osmon, jonivorlar hayotini chuqur o'rgandi. Shuning zamirida katta konseptual aqidalarni ilgari surdi.

"Adabiyotda mifologik tasvirga ehtiyoj hech qachon pasaymagan. A.Navoiy asarlarining asosi mifga qurilgan. Buyuk shoir mifga o'z g'oyalarini, inson haqidagi tadqiqot va ta'limotini singdirdi. Yevropada XIX asrda bunyodga kelgan mifologik nazariyalar adabiyotning yana mifga yuz burishini boshlab berdi. Nitsche birinchi marta mif va insonni yaxlit holda tadqiq etdi. Freyd, Yung, Adler mifshunoslikning, mifga bo'lgan munosabatning yangi nazariyasiga asos soldilar. Bu nazariya mif bilan adabiyotning aloqasini mustahkamlab berdi: bu nazariyaga ko'ra, mif ajdodlarimizning timsollar tiliga asoslangan ong osti his-kechinmalari in'ikosidir", – deya yozadi professor J.Eshonqulov. Ko'rinadiki, folklor an'analar sintezi har bir davr, ayniqsa, XX asr nasriy mahsullari uchun g'oyat murakkab fragmentlarni namoyon qildi. Unda din,

axloq, tarix va zamon mafkurasi sinkretik ifodalandi. Jamiki mavjud an'analar mifologik maktab, qadriyatlar kesishgan chorrahada obrazli aks ettirildi. Har bir xalqning fetishi sanalgan mifik qadriyatlar yanada xilma-xillashdi. Aksariyat yozuvchilar mifni, folklor an'analarini atayin ifoda usuli sifatida o'z asarlarida aks ettirish yo'lidan bordi. Biroq zo'raki talqin o'zining iste'dodini namoyon qilishga soya soldi. Mana shu konsepsiya Tog'ay Murod ijodida boshqacha rakursda inkishof etilib, hayot haqiqatini "qadriyatlar tig'iz"ligida akslantirish yo'lidan borishga zamin hozirladi. Yozuvchi buni sidqidildan uddalay oldi. O'zi mifik qarashlar sistemasida yangicha olamni idrok etishga erishdi. Buning yorqin namunasi sifatida "Oydinda yurgan odamlar" qissasini keltirish mumkin. "Ma'rifatparvarlik prozasi uchun hayotiy va ijtimoiy masalalarni keng ko'lamda, dunyo miqyosida qo'yish va tasvirlash xarakterlidir. Inqilob oldi adabiyotida Turkistonning hayoti bilan bir qatorda boshqa xalqlarning hayoti, madaniyati, urf-odatlari badiiy aks ettirildi. Ma'rifatparvar yozuvchilarning asarlarida rus, ozarbayjon, tatar, Yevropa, hattoki Amerika va Yaponiya xalqlarining turmushi ham tilga olindi. Ularning qahramonlari Rossiya, Yevropa, Amerikada va boshqa yerlarda yashaydigan turli mamlakatlarga borib, ta'lim oladi va malakasini oshiradi. Turkiston xalqlari turmushi umumbashariy hayotning bir qismi sifatida tasvirlanadi. Bu hol ma'rifatparvarlik prozasining epik janrida yozilgan asarlarning eng yirik yutuqlaridan edi. Proza janridagi asarlarda hayot keng ko'lamda va butun murakkabligi bilan muayyan bir falsafiy konsepsiya nuqtayi nazaridan badiiy aks ettiriladi"[1]. Darhaqiqat, mana shu konsepsiya XX asrning 60-yillar prozasida yaqqol namoyon bo'ldi. Chunonchi, 60-70 yillar avoldining yutug'i ham, kamchiligi ham umuminsoniylik tamoyiliga katta e'tibor qarata olmaganida ko'rinadi. Masalan, Ch.Aytmatovning juda ko'pchilik asarlari turkiy xalqlarning og'zaki ijodi, xususan, miflar, rivoyatlar, afsonalar asosiga quriladi. Adib ana shu katta mezonni yangiladi. O'zining o'tmishi va tarixini, kelajagini shu asosda bino qilgan badiiy polotnolarni yarata oldi.

O'zbekiston Qahramoni Said Ahmad yozuvchi haqida shunday e'tirof etadi: "Biz Abdulla Qodiriyi salkam yetmish yildirki, boshimizga ko'tarib kelamiz. Bunga sabab, Qodiriy milliy qahramonlar yaratdi. Otabek ham, Yusufbek hoji ham, Oftob oyim ham, Solih maxdum ham aslo

takrorlanmas obrazlardir. Bu kishilar Qodiriy ta'kidlamasa ham o'zbekligini bilamiz. Turgenev, Gogol, Tolstoy rus xalqini butun bor bo'yi bilan tasvirlagan buyuk ijodkorlardir. Nexlyudovga do'ppi kiydirsang, Kareninaga paranji yopintirsang, o'zbek bo'lib qolmaydi. Tolstoy ularni qon-qoni bilan, o'y-xayollari bilan, gap-so'zlari bilan rus qilib yaratdi.

Bunday asarlar yaratish uchun adib rassomdek ranglarni bir-biridan farq qiladigan, bastakordek tovushlarni tiniq eshitadigan bo'lishi kerak. Tog'ay Murod ana shunday rassom adibdir"[6]. Haqiqatdan ham, Tog'ay Murod o'zbek prozasida noyob iste'dod sohiblaridan biri edi. Adibning mungli va hazin ohangdek eshitiluvchi "qo'shiq"larida dard, alam, iztirob, eng muhimi katta millatning qayg'usi, yurt obodligi, xalq farovonligi ufurib turardi. Said Ahmad to'g'ri e'tirof etganidek, oila naqadar muqaddas dargoh ekanligini, Vatan oiladan, er-xotinning o'zaro munosabatidan boshlanishi, tarixiy ildizlarimiz qayerlarga borib taqalashini ko'rishimiz mumkin.

NATIJALAR. Adibning birin-ketin nashr qilingan asarlarida – G'arb va Sharq badiiy tafakkurining sinkretik mahsulini uchratamiz. O'tgan asr boshlarida J.Joys, F.Kafka, A.Kamyu yoki E.Xemingueylar badiiy asarlarida ramzlar, ishoralar, metaforalarni hayrantlanarli tarzda inkishof qilgan bo'lsalar, bugungi kun adabiyotida Tog'ay Murodning xizmatlari alohida bir o'rinni egallaydi desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Adibning ilk hikoyalari jahon adabiyotining, ayniqsa, novellistlarning uslubiy-shakliy izlanishlari ta'siri hiyla sezilsa-da, keyinchalik xuddi qo'shiq kabi o'qiladigan qissa va romanlarida folklorizmlarning yangicha qiyofasini uchratamiz. Mana shu modifikatsiya adib yaratgan epik mahsulotning bir-biriga uzviyligini taqozo etadi.

XULOSA. Tog'ay Murod ijodiy izlanishlarida realistik talqin ustuvorligi borasida ko'plab nazariy-ilmiy mulohazalarni bayon qilish mumkin. "Adabiyot tarixidan ma'lumki, har qanday adabiy usuldagi yangilik o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi: adabiyotdagi yangi oqimlar, an'analar o'z davrining estetik, ijtimoiy, g'oyaviy, mafkuraviy, tafakkur ehtiyoji, in'ikosi sifatida so'z san'atida bo'y ko'rsatadi. Qadimgi davr adabiyotimi yoki keyingi yuz yillik adabiyotmi, qaysi davr adabiyoti bo'lishidan qat'i nazar, yangi bir oqimlar, so'zga munosabat, shakliy va badiiy izlanishlar aslida o'sha jamiyatda paydo bo'layotgan ijtimoiy fikr va ijtimoiy

ong ostining ehtiyojini namoyon qiladi"[5]. Darvoqe, ijtimoiy ehtiyoj shaxsning maqsadlarini belgilaydi. Unda millat sajiyasi o'z ifodasini topadi. Inson o'zining ehtiyoji yonida yashashga mahkum xilqat. Biz ayni paytda sobiq ittifoqning nayrangli siyosatini bilib, shunga ich-ichidan qarshi bo'lgan avlod ijodi bilan tanishar ekanmiz, nega o'sha vaziyatda jahonning ilg'or an'analari tamomila kirishga ruxsat berilmaganiga xos javob olgandek bo'lamiz. Negaki, insoniyat hamma davrlarda mafkura va siyosat orasida umr kechiradi. Bunga misol xalqimiz ham, adabiyot va san'atimiz ham, sobiq sho'rolar mafkurasi tomonidan bir yoqlama olib borilgan siyosatni ko'rdi. Uning jabridan, zulmidan bir avlod aziyat chekdi. Nechalab ziyolilar qatag'on qurboni bo'ldi. Millatparvar adiblar yo'q qilindi. Tog'ay Murodni qattiq yozishga undagan tarix ham, aslida zamonni ifoda qilishning yangicha mezonini topishga urinish bilan belgilanadi. Umuman, badiiyat hodisasi folklor an'analardan oziqlanar ekan, unda o'zbek xalqining shajarasi, nasl-nasabi, taraqqiyoti, ajdodlarimizning shonli tarixi o'z aksini topadi. Tog'ay Murod o'z asarlarida folklorning barcha qatlamlarini sintezlay oldi. Demak, hayot haqiqatining yuzaga chiqishida qadim an'analar ham o'z ahamiyatini singdirar ekan, insoniyatning tamaddun quyoshi asrlar osha porlab turayotganini dalolatlaydi. Tog'ay Murod ana shu konsepsiyani o'z asarlarida keng qamrovli motivda yuzaga chiqargan alohida bir fenomendir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Adabiy turlar va janrlar. –T.: Fan nashriyoti, 1991.1 –B.36.
2. Aleksandr Genis. Qalb fotografiyasi. –T.: Ma'naviyat. 2010. –B.122.
3. Arastu. Poetika. –T.: Yangi asr avlodi. 2018. – B.59.
4. Eshonqulov J. Folklor: obraz va talqin. –Qarshi. Nasaf.1999. –B.7.
5. Лучанов М.Ф. История мировой литературы. – Омск, 2004.
6. Said Ahmad. Tog'ay Murod qo'shiqlari. –T.: Sano-standart. 2017. –B.3-4.
7. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – T: BOOKMANY PRINT. 2022. –B.154.
8. Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. –T.: Zukko kitobxon. 2024. –B.380.

ETNOLEKT VA MULTIETNOLEKT: NEMIS TILIDAGI TIL O'ZGARISHLARINING YANGI KO'RINISHLARI

*Israilova Nigoraxon Xudaberdiyevna, Andijon davlat chet tillari
instituti doktoranti*

ЭТНОЛЕКТ И МУЛЬТИЭТНОЛЕКТ: НОВЫЕ ФОРМЫ ЯЗЫКОВЫХ ИЗМЕНЕНИЙ В НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКЕ

*Исраилова Нигорахон Худабердиевна, докторант
Андижанского государственного института иностранных
языков*

ETHNOLECT AND MULTIETHNOLECT: NEW FORMS OF LANGUAGE CHANGE IN GERMAN

*Israilova Nigoraxon Khudaberdiyevna, PhD student at the
Andijan State Institute of Foreign Languages*



<https://orcid.org/0009-0007-1233-5202>
israilova.n@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada etnoлект, sotsioлект va multietnoлект tushunchalarining sotsiolingvistik jihatlarini hamda nemis tilidagi ijtimoiy identifikatsiya jarayonlariga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada nemis tilida yuzaga kelgan etnoлект va multietnoлектlarning jamiyatdagi kommunikativ va identifikatsion roli empirik misollar asosida yoritiladi.

Kalit so'zlar: etnoлект, sotsioлект, multietnoлект, sotsiolingvistika, til identifikatsiyasi, til tabaqalanishi, an'anaviy dialekt.

Abstract: This article analyses the sociolinguistic aspects of the concepts of ethnolect, sociolect and multiethnolect and their impact on social identification processes in German. Furthermore, the article examines the communicative and identificational role of the ethnolects and multiethnolects that have emerged in German on the basis of empirical examples.

Keywords: ethnolect, sociolect, multiethnolect, sociolinguistics, language identification, language stratification, traditional dialect.

Аннотация: В данной статье анализируются социолингвистические аспекты понятий этнолекта, социолекта и мультиэтнолекта, а также их влияние на процессы социальной идентификации в немецком языке. Кроме того, в статье на основе эмпирических примеров рассматривается коммуникативная и идентификационная роль этнолектов и мультиэтнолектов, сформировавшихся в немецком языке.

Ключевые слова: этнолект, социолект, мультиэтнолект, социолингвистика, языковая идентификация, языковая стратификация, традиционный диалект.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Til ijtimoiy hodisa sifatida jamiyatning turli tabaqalari tomonidan o'ziga xos shakllarda namoyon bo'ladi. Har bir til o'zining ichki tizimli xususiyatlari bilan bir qatorda, jamiyatning ijtimoiy, madaniy va tarixiy jarayonlari ta'sirida shakllanadi. Ushbu

maqolada etnoлект, sotsioлект va multietnoлект tushunchalarining sotsiolingvistik tafovutlari hamda nemis tilida ijtimoiy identifikatsiya jarayonlariga ta'siri tahlil qilinadi. Til ijtimoiy identifikatsiyaning asosiy omillaridan biri bo'lib, individlarning qaysi guruhga mansubligini belgilashda muhim rol

o'ynaydi. Migratsiya jarayonlari, madaniy aralashuv va ijtimoiy tabaqalanish natijasida yangi til shakllari yuzaga keladi. Etnolektlar ma'lum bir etnik guruhga mansub bo'lgan kishilar tomonidan qo'llanadigan tildan hosil bo'lsa, sotsiolektlar esa ijtimoiy tabaqalanish natijasida shakllanadigan til variantlaridir. Multietnolekt esa bir nechta etnik guruhlarning o'rtasidagi muloqot natijasida paydo bo'ladigan til shakli bo'lib, ko'p madaniyatli jamiyatlarda keng tarqalgan hodisa hisoblanadi.

Nemis tilida etnolekt va multietnolektlar Kiezdeutsch kabi variantlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu til shakllari an'anaviy dialekt va mintaqaviy variantlardan farq qiladi, chunki ular asosan shahar muhitida va turli etnik guruhlarning vakillari o'rtasida rivojlanadi. Shuningdek, migratsiya va globalizatsiya jarayonlari ushbu fenomenlarning shakllanishida muhim omillardan biridir. Maqola doirasida ushbu lingvistik birliklarning shakllanishi, ijtimoiy funksiyalari va nemis tilidagi umumiy o'zgarishlarga ta'siri keng tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / MATERIALS AND METHODS). Etnolekt, sotsiolekt va multietnolekt kabi tilshunoslik tushunchalarini tadqiq qilishda sotsiolingvistika, psixolingvistika va kommunikativ lingvistika bo'yicha ilmiy adabiyotlarga asoslanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqot yo'nalishlarida yetakchi olimlar tomonidan til va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqalar, migratsiya jarayonlari ta'sirida til tizimining o'zgarishi, shuningdek, ijtimoiy identifikatsiya vositasi sifatida tilning roli keng tahlil qilingan. Etnolekt, sotsiolekt va multietnolekt kabi lingvistik fenomenlar so'nggi o'n yilliklarda tilshunoslik va sotsiolingvistika sohalarida keng o'rganilmoqda. Ayniqsa, migratsiya jarayonlarining kuchayishi va jamiyatda ko'p madaniyatlilikning ortishi natijasida ushbu tushunchalar atrofidagi ilmiy bahslar yanada dolzarb bo'lib bormoqda.

Etnolekt atamasi dastlab William Labov tomonidan sotsiolingvistika doirasida ilgari surilgan bo'lib [1], keyinchalik Heike Wiese tomonidan keng tadqiq qilingan. Wiese o'zining "Kiezdeutsch: Ein neuer Dialekt entsteht" asarida nemis tilidagi Kiezdeutschni etnolekt sifatida ko'rib, uning lingvistik xususiyatlari va jamiyatdagi o'rnini tahlil qiladi. Uning ta'kidlashicha, Kiezdeutsch nafaqat

migratsiya fonidagi etnolekt, balki yangi, barqaror grammatik qoidalar bilan shakllangan lingvistik tizimdir [2:45b.]. Bundan tashqari, Auer & Hinskens o'z tadqiqotlarida Gasterbeiterdeutsch va Türkendeutsch kabi til hodisalarini o'rganib, ularning grammatik jihatdan nemis tiliga moslashgan, ammo fonologik va leksik jihatdan ajralib turuvchi xususiyatlarini aniqlagan [3:112b.]. Bu variantlarda so'z tartibi, fe'l va predloglarning ishlatilishida muayyan o'zgarishlar kuzatiladi.

Sotsiolektlar jamiyatning muayyan guruhlari tomonidan shakllantirilgan lingvistik variantlar bo'lib, nemis tilida yoshlar tili, kasbiy jargonlar va ijtimoiy guruhga xos leksika shaklida namoyon bo'ladi. Labov va Cheshire sotsiolektlarni aniq belgilangan ijtimoiy qatlamlar, masalan, yoshlar, kasbiy guruhlarning va submadaniyatlar orqali o'rganadi. Nemis tilida yoshlar sotsiolektlari bo'yicha ko'plab tadqiqotlar mavjud. Masalan, Androutsopoulos yoshlar tili va nemis hip-hop madaniyati o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganib, muayyan ijtimoiy guruhlarning o'zaro identifikatsiyasi uchun sotsiolektlarning qanday ishlatilishini tahlil qiladi [4:133b.]. Bundan tashqari, kasbiy jargonlar bo'yicha Klaus Mattheier tomonidan olib borilgan tadqiqotlar nemis tilidagi tibbiyot, huquq va texnika sohalaridagi sotsiolektlarni tavsiflaydi [5:57b.]. Masalan, nemis shifokorlarining tilida mavjud "Intensivbettenmangel" (reanimatsiya bo'limlarida o'rin yetishmovchiligi) yoki huquqshunoslikda ishlatiladigan "Tatbestandsmerkmal" (huquqiy faktlar belgilari) kabi so'zlar ushbu qatlamning o'ziga xos sotsiolektion birliklari hisoblanadi. Multietnolektlar migratsiya va ko'p madaniyatli jamiyatlarning lingvistik mahsulidir. Heike Wiese Kiezdeutschni multietnolekt sifatida tavsiflab, uning leksik va sintaktik jihatdan an'anaviy nemis tilidan farqli ekanligini isbotlaydi. Boshqa tomondan, Fandrych & Salim Kanakpraks deb nomlanuvchi lingvistik fenomenini o'rganib, uning migratsiya madaniyatining ta'siri ostida shakllangan multietnolekt ekanligini ko'rsatgan. Ular Kanakpraksni o'ziga xos sintaktik soddalashuv va nemis grammatikasiga nomuvofiq bo'lgan so'z birliklarining keng tarqalishi bilan tavsiflaydi [6:94b.].

Mazkur tadqiqot etnolekt, sotsiolekt va multietnolekt tushunchalarining lingvistik va sotsiolingvistik jihatlarini nemis tilidagi mavjud ilmiy adabiyotlar va empirik materiallar asosida tahlil qilishga asoslanadi.

Korpus sifatida Germaniyada shakllangan Gastarbeiterdeutsch, Türkendeutsch, Kiezdeutsch va Kanaksprak kabi fenomenlarga oid matnlar, yozma nutq namunalari va transkriptlar tahlil qilinadi. Ushbu materiallar asosan ilmiy manbalar, tilshunoslik tadqiqotlari va onlayn resurslardan olinadi.

Etnolekt va multietnolektlarning sotsial kontekstdagi ishlatilishini o'rganish maqsadida yozma va og'zaki matnlarni semantik va pragmatik jihatdan tahlil qilish. Ushbu tahlilda Kiezdeutsch va boshqa til variantlari qanday kommunikativ vazifalarni bajarishi va ularning ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi rolini ko'rsatish maqsad qilingan. Etnolekt, sotsiolekt va multietnolekt tushunchalarini an'anaviy nemis dialektlari bilan taqqoslash. Ushbu metod orqali ularning fonologik, morfologik va sintaktik jihatdan qaysi jihatlari bilan farqlanishi yoki o'xshashligi aniqlanadi. Masalan, Kiezdeutschning sintaktik xususiyatlari Germaniyaning turli mintaqaviy dialektlari bilan qiyoslanishi mumkin.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/ DISCUSSION)

Etnolektlar tilshunoslikda

muayyan etnik guruhlar tomonidan ishlatiladigan til variantlari sifatida tavsiflanadi. Nemis tilida bu hodisaning eng yaqqol misollaridan biri "Gastarbeiterdeutsch" bo'lib, 1950-1970-yillar oralig'ida Germaniyaga mehnat muhojirlari sifatida kelgan turk, italyan va yugoslav ishchilari tomonidan shakllangan. Ushbu til varianti grammatikaning soddalashtirilgan shakllaridan va ona tilidan olingan so'zlashuv elementlaridan iborat edi. Masalan:

"Ich nix verstehen,," (Standart nemis tilida: "Ich verstehe nicht. ,,)

"Du machen sauber,," (Standart nemis tilida: „Du machst sauber.“)

Bundan tashqari, "Türkendeutsch" (Turklar nemis chasi) ham etnolektga misol bo'lib, bu variant Germaniyada yashovchi turk kelib chiqishiga ega yoshlar tomonidan ishlatiladi. Ushbu variantda o'z ona tili ta'siri ostida nemis tilining o'zgacha sintaktik va leksik xususiyatlari kuzatiladi.

Sotsiolektlar ma'lum bir ijtimoiy guruhga tegishli bo'lgan kishilar tomonidan ishlatiladigan til shakllaridir. Nemis tilida sotsiolektlar yoshlar tili (Jugendsprache) va kasbiy jargonlarda (Fachjargon) yaqqol ko'rinadi. Yoshlarga xos tilda quyidagi xususiyatlar uchraydi:

"Chillen" (dam olish, standart: sich entspannen)

"Läuft bei dir!" (hamma narsa yaxshi ketyapti, standart: Du hast Erfolg!)

"Cringe" (uyatli yoki noqulay vaziyat, standart: peinlich)

Multietnolekt turli etnik guruhlar tomonidan yaratilgan va shahar muhitida shakllangan til shaklidir. Nemis tilidagi eng mashhur multietnolektlardan biri Kiezdeutsch bo'lib, asosan Berlin va boshqa yirik shaharlarda yashovchi yoshlar orasida tarqalgan. Kiezdeutsch xususiyatlari orasida soddalashtirilgan sintaktik tuzilmalar va boshqa tillardan olingan leksik birliklar mavjud:

„Gib mal Stift!“ (Standart nemis tilida: „Gib mir mal einen Stift!“)

„Isch geh Schule.“ (Standart nemis tilida: „Ich gehe zur Schule.“)

Bundan tashqari, "Kanaksprak" ham ko'p etnik guruh vakillari o'rtasida paydo bo'lgan multietnolekt bo'lib, u Germaniyada turli migratsion qatlamlar ta'sirida shakllangan. Ko'rinib turibdiki, etnolektlar muayyan etnik guruh tilining xususiyatlarini aks ettirsa, multietnolektlar ko'p madaniyatli muhitlarda shakllanadi. Nemis tilida, xususan, migratsiya fonida Kiezdeutsch multietnolekt sifatida rivojlanmoqda. Bu til shakli leksik jihatdan turk, arab, rus va boshqa tillardan olingan so'zlarni o'z ichiga oladi. Germaniyada Kiezdeutschning keng tarqalishi jamiyatda turlicha baholanmoqda. Ba'zi tilshunoslar buni yangi til shakli deb hisoblashsa, boshqalar uni nemis tilining "buzilishi" sifatida ko'radi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).

Tadqiqot natijalariga ko'ra, etnolekt va multietnolektlar migratsion jarayonlarning bevosita natijasidir. Nemis tilida Kiezdeutsch kabi til shakllari nafaqat yoshlar o'rtasida, balki ijtimoiy aloqa vositasi sifatida ham muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot davomida Gastarbeiterdeutsch va Türkendeutsch singari nemis tilidagi etnolektlarning asosiy lingvistik xususiyatlari aniqlandi. Ushbu etnolektlar nemis tili grammatikasiga moslashgan bo'lsa-da, fonologik va sintaktik jihatdan nemis tilining standart variantidan farq qiladi. Misol uchun, "Wallah, ich kann nicht machen!" ("Vallohi, men qila olmayman!")

"Lass mal haram Sachen nicht machen." ("Keling, harom narsalarni qilmaylik.")

Ushbu misollarda arabcha va turkcha so'zlar nemischa gap strukturasi integratsiya qilingan. Sotsiolektlar jamiyat ichidagi muayyan guruhlariga

xos bo'lib, ayniqsa yoshlar tili va kasbiy jargonlar nemis tilida muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot davomida quyidagilar aniqlandi:

"Ich chill heute mit meinen Jungs." ("Bugun do'stlarim bilan dam olaman.")

"Das ist voll krass, Alter!" ("Bu juda zo'r, aka!")

Ushbu jumalarda "chillen" (ingliz tilidan olingan), "krass" (shiddatli, hayratlanarli) va "Alter" (yoshlar orasida "aka" yoki "do'st" ma'nosida ishlatiladi) kabi sotsiolektal birliklar mavjud.

Multietnolektlar, xususan Kiezdeutsch va Kanaksprak, urbanistik muhitda shakllangan bo'lib, nemis jamiyatidagi ko'pmadaniyatlilikning lingvistik aksidir.

Kiezdeutsch sintaksisi standart nemis tilidan sezilarli darajada farq qiladi. Misol uchun: "Isch geh Kino." ("Ich gehe ins Kino."), "Hast du Problem?" ("Hast du ein Problem?"). Garchi Kiezdeutsch ko'proq norasmiy muhitlarda ishlatilsa ham, ba'zi olimlar uni kelajakda yangi dialekt sifatida shakllanishi mumkin bo'lgan til varianti deb hisoblashmoqda [2:101b.]. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tilshunoslar va sotsiolingvistlar orasida etnolekt va multietnolektlarning standart nemis tiliga ta'siri bo'yicha turli qarashlar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar ushbu lingvistik hodisalarni nemis tilining buzilishi deb baholashsa [7], boshqalar ularni tilning tabiiy evolyutsiyasi doirasida ko'rib chiqishadi [2].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, nemis tilidagi etnolekt, sotsiolekt va multietnolektlar lingvistik o'zgarish jarayonlarining muhim qismidir. Ular kommunikativ maqsadlarga xizmat qiladi, ijtimoiy guruhlarni o'zaro bog'laydi va madaniy identifikatsiyani shakllantiradi. Kelajakda bu til variantlari o'z holicha saqlanib qolishi yoki yangi rasmiy til shakliga aylanib borishi mumkin. Ularning shakllanishi va rivojlanishi lingvistik hamda ijtimoiy o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq. Ushbu

maqola doirasida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, multietnolektlarning nemis tilidagi o'rni ortib bormoqda va bu jarayon kelajakda ham davom etishi kutilmoqda. Kelgusida ushbu mavzuni yanada kengroq o'rganish uchun lingvistik tahlil usullaridan foydalangan holda til xususiyatlarini empirik tadqiq qilish va ularning jamiyatda qabul qilinish darajasini o'rganish zarur. Ayniqsa, nemis tilidagi etnolekt va multietnolektlarning ta'lim tizimiga ta'siri, ularning nemis tili grammatikasi va leksik tarkibiga kiritilish imkoniyatlari bo'yicha tadqiqotlar olib borilishi lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Labov, W. (1972). Sociolinguistic Patterns. Philadelphia: University of Pennsylvania Press.
2. Wiese, H. (2012). Kiezdeutsch: Ein neuer Dialekt entsteht. München: C.H. Beck.
3. Auer, P., & Hinskens, F. (2005). The role of interpersonal accommodation in a theory of language change. In: Theories and methods in language variation.
4. Androutsopoulos, J. (1998). Deutsche Jugendsprache: Untersuchungen zu ihren Strukturen und Funktionen. Frankfurt am Main: Lang.
5. Mattheier, K. (1996). Soziolinguistik: Eine Einführung. Tübingen: Niemeyer.
6. Fandrych, C., & Salim, S. (2010). Jugendsprachen: Theoretische und empirische Perspektiven. Berlin: de Gruyter.
7. Schlobinski, P. (2013). Kiezdeutsch: Ein neuer Dialekt entsteht? Tübingen: Narr Francke Attempto.



Qabul qilindi: 03.04.2025

Chop etildi: 31.05.2025

UDK: 9(575.1)02(575.1.) (09)

XIVA XONLIGIDA IQTISODIY HAYOT (XIX ASR)

Matyakubova Muborak Madrimovna,
UrDU, Tarix kafedrasi dotsenti

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЖИЗНЬ В ХИВИНСКОМ
ХАНСТВЕ (19 ВЕК)

Матьякубова Муборак Мадримовна,
УрГУ, доцент кафедры истории

ECONOMIC LIFE IN THE KHIVA KHANATE
(19TH CENTURY)

Matyakubova Mubarak Madrimovna,
UrSU, associate professor of the Department of History



E-mail:

muborakmatyakubova477@gmail.com

ORCID: 0009- 0008 -2653-092X

Annotatsiya: Xiva xonligida XIX asrga kelib iqtisodiy hayotda ko'pgina o'zgarishlar yuzaga keldi. Bu davrda xonlikning Rossiya va boshqa davlatlar bilan ichki va tashqi savdo aloqalari taraqqiy qildi natijada tovar-pul munosabatlarida o'zgarishlar yuzaga keldi. Ushbu maqolada XIX asrda Xiva xonligi iqtisodiy hayotida muhim o'rin tovar-pul munosabatlarining ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Xiva xonligi, iqtisodiy hayot, iqtisodiy ahvol, tovar-pul, sug'orish inshootlari, bozorlar.

Аннотация: К XIX веку в экономической жизни Хивинского ханства произошли значительные изменения. В этот период развивались внутренние и внешние торговые связи ханства с Россией и другими странами, что привело к изменениям в товарно-денежных отношениях. В статье анализируется значение товарно-денежных отношений в экономической жизни Хивинского ханства в XIX веке.

Ключевые слова: Хивинское ханство, хозяйственная жизнь, экономическое положение, товары и деньги, ирригационные сооружения, рынки.

Abstract: By the 19th century, many changes had occurred in the economic life of the Khiva Khanate. During this period, the khanate's internal and external trade relations with Russia and other countries developed, resulting in changes in commodity-money relations. This article analyzes the importance of commodity-money relations in the economic life of the Khiva Khanate in the 19th century.

Keywords: Khiva Khanate, economic life, economic situation, goods and money, irrigation facilities, markets.

Kirish. Mamlakatdagi ichki ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy ahvol hamda tashqi aloqalari uning madaniy-ma'naviy hayotini aks etuvchi muhim belgi hisoblanadi. Ayniqsa, hududiy jihatdan qo'shni bo'lgan davlatlar va xalqlarning o'zaro ta'sir jarayoni, turli sohalarda, jumladan, ilm-fan, san'at, aholining etnik tarkibida, urf-odat va qadriyatlardagi mushtaraklikda kuzatish mumkin [1, b128].

Ma'lum bir hududda yashovchi xalqlar o'zaro va qo'shni xalqlar bilan yaqinlashib, ular bilan aloqada bo'lishida Buyuk ipak yo'li ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Bu hududda qadimdan ikki

til turkumida: fors-eron va turkiy so'zlashuvchi xalqlar yonma-yon yashab kelganlar. Natijada fors-eron tilli aholining ayrim guruhlari so'g'diy'larga, xorazmiylar va boshqalarga aralashib ketganlar. Shu tariqa aholining tarkibi o'zbeklardan tashqari turkman, qoraqalpoq, fors, tojik, qirg'iz va qozoq tashkil etgan Xorazm etnik jarayonlarning murakkab bosqichini bosib o'tdi. Bu jarayonda aholining soni goh ko'payib, goh kamayib borgan. Xususan, XIV asrda Xorazmda bo'lgan arab sayyohi Ibn Battuta o'z xotiralarida Urganch shahri haqida "Shaharda hayot qaynaydi, aholisi shunchalik ko'pki, u

mavjlanib turgan dengizni eslatadi” deb ta’riflaydi [2,b.292]. XIV-XVIII asrlar davomida Xorazmda siyosiy vaziyat murakkab bo’lib, yuz bergan ziddiyatlar mamlakat aholisining etnik tarkibiga, joylashuviga va soniga ta’sir etmay qolmadi. XIV-XVI asrlar davomida Xorazm aholisining ma’lum qismi Movarounnahrqa ko’chirilgan [3b. 167-215].

Tahlillar va natijalar: XIX asrning ikkinchi yarmida Xiva xonligi shimolda Elba (Ural) daryosigacha, sharqda Sirdaryo havzasigacha, g’arbda Kaspiy dengizi qirg’oqlarigacha, janubda esa janubiy Turkmanistonni o’ziga birlashtirgan edi. Rossiya istilosiga qadar Xiva xonligining umumiy maydoni 130 ming 598 kv. km.ni tashkil qilgan. Xonlik yerlari Qizilqum, Qoraqum va Ustyurt cho’llari bilan o’rab olingan.

Tarixiy ma’lumotlarda keltirilishicha, XIX asrda Xiva xonligida 800 mingdan ortiq aholi yashagan. Aholining asosiy qismi o’zbek, turkman, qoraqalpoq, qozoqlar tashkil qilgan. Xonlik hududida eroniyalar va boshqa xalqlarning vakillari ham yashagan. O’rganilayotgan davrga oid rus sharqshunoslari asarlarida jumladan, V.Grishfeld va M.N.Galkinlarning ma’lumotlariga ko’ra, xonlikda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida, ya’ni 1900 yilda 519439 kishi yashagan. Bu aholining 488922 kishisi, ya’ni 94,1 % muqim yashagan, 30515 aholi esa ko’chmanchi aholi hisoblangan [4b.56]. Shuningdek, V.Lobachevskiy bergan ko’rsatmaga ko’ra, 1910-yilda xonlikda 646000 kishi istiqomat qilgan va ulardan 397000 nafarini o’zbeklar, 184200 nafarini turkmanlar, 34200 nafarini qoraqalpoqlar, 23000 nafarini qirg’iz va qozoqlar tashkil etgan[5]. Milliy hududiy chegaralanishdan so’ng Xivada 16375 nafar o’zbek, 394 nafar tatar, 205 nafar eroniy, 101 nafar qozoq, 46 nafar qoraqalpoq, 33 nafar turkman, 122 nafar boshqa millat vakillari istiqomat qilganlar[6, b. 66].

Xonlik davrida o’zbek aholisining ahvoli qoraqalpoq va turkmanlardan yaxshi emas edi. 380025 desyatina ishlanadigan yerdan 100 000 desyatini “xonga, uning qarindosh-urug’lariga, amaldorlariga va badavlat kishilarga tegishli edi” [4b. 45].

G.I. Danilevskiy Xiva shahri aholisi haqida: “Xivadagi erkak-u ayollar soni 4000 dan ortiq emas. Ular asosan amaldorlar, dindorlar va savdogarlardan iborat. Shaharliklar orasida o’zbeklar va forslar ko’pchilikni tashkil qiladi” [7], deb qayd etgan.

Ruslar bosqini arafasida Xiva xonligining umumiy maydoni 1305909 kv. chaqirim bo’lib, o’ng qirg’oqdagi yerlar Amudaryo bo’limi ixtiyoriga tortib olingach, 54 698 kv. chaqirim maydon qolgandi, xolos. Xiva xonligining so’l qirg’oqda qolgan maydonining uzunligi 360 va kengligi 10-60 chaqirimni tashkil qilardi. O’zlashtirilgan yerlar 2005520 tanob bo’lib, u umumiy yer maydonining 35 % tashkil etardi. Xonlikda muhim o’rin egallagan xalqlar orasida o’zbeklar, turkmanlar, qozoq, qoraqalpoq, rus, tatar, boshqird, eroniy urug’ – qabilalarga mansub aholi bor edi. Ularning milliy tarkibi va soni haqidagi ma’lumotlar bir-biriga mos kelmas, ba’zi vaqtlarda strategik maqsadlarda ham yashirilib turilardi. Aholi soni haqida bir vaqtlar Xivaga kelgan rus ofitserlari qoldirgan ma’lumotlar diqqatga sazovordir. 1819-yilda kapitan N.N.Muravev xonlik aholisi 300 ming kishi, 1842-yilda podpolkovnik G.I.Danilevskiy – 294 ming kishi, 1843-yilda savdogar M.N.Ivanin – ko’chmanchilar bilan birga 650 ming kishi, 1861-yilda sharqshunos V.V.Grigorev 300 mingdan oshmaydi va 1873-yilda polkovnik L.F.Kostenko xonlikdagi xonadonlar 40 ming va aholi soni 700 ming kishi, agarda bunga qullar ham qo’shilsa, 800 mingdan oshiq deb yozgandilar[8,b.240]. Rus ma’muriyati 1897-yilda ilk bor imperiyadagi aholini ro’yxatga olish ishlarini amalga oshirdi. Shu jumladan, Turkiston o’lkasi bilan bir qatorda Buxoro amirligi va Xiva xonligida yashayotgan fuqarolar sonini aniqlashga harakat qilindi. Xiva xonligida 519437 kishi yashaganligi va ularning 488 924 nafari (94,1 %) o’troq, 30515 nafari (5,9 %) ko’chmanchilik bilan kun kechirganligi ma’lum bo’ldi.

Xiva xonligida yer egaligining uchta shakli mavjud bo’lgan: 1. Davlat (xonlik), 2. Mulk (xususiy mulk yerlari), 3. Vaqf (diniy muassasalariga qarashli yerlar) yer egaligi. M.Y.Yo’ldoshev Xorazm xonligida yerga egalik shakllari xususiy mulk yerlari, vaqf yerlari, davlat yerlaridan iborat bo’lganligi qayd qilingan.

Mulkdorlarga, amaldorlar, o’rta va kambag’al dehqonlarga ajratilgan yerlar mulk egaligi bo’lib, ular atoi mulk va yorliqli mulk shaklida bo’lgan. Ba’zi hujjatlarda “atoi mulk”- “mulki xolisi”, “yorliqli mulk” yerlar miqdori bo’yicha 3 xil: “a’lo”, “avsat”, “adno” nomlariga ega bo’lganini qayd qilgan[9,b.57]. Xiva xonligida xon va saroy amaldorlari egalik qilgan yerlarda ishlovchi

bevatanlar haqida ham ma'lumotlar uchraydi. Bevatanlar - qonunda ijarachi dehqonlar bo'lib, ularning faoliyatini avlodlari davom ettirgan. 1873-yilda qabul qilingan qonunga ko'ra, qulchilik munosabatlariga chek qo'yilishi bevatanlar sonining ko'payishiga sabab bo'lgan[9].

Soliq va majburiyatlar olg'ut (bir yo'la olinadigan yig'imlar, solg'ut bunga kirmaydi), solg'ut (yer solig'i), miltiq solig'i (aholidan qo'shinga qurol-aslaha sotib olish uchun olinadigan pul solig'i), arava puli (aravalarni davlat ehtiyoji uchun safarbar qilish, uloq tutuv (tuya va otlarni, aholini safarbar qilish), qo'nalg'a (dehqonlar tomonidan amaldorlarga kechasi tunash uchun joy berish), so'ysin (uy egasi tomonidan qo'noqda qolgan kishini qo'y yoki buzoq so'yib mehmon qilishi), chopar puli (soliq yig'ish xabarini yetkazganlik uchun to'lanadigan haq), tarozi haqi (soliq to'lash jarayonida tarozibonga beriladigan pul), mirobona (mirob foydasiga beriladigan pul), darvozabon puli (yuk bilan shaharga kirganda shahar darvozaboniga beriladigan pul), otlanuv (xalq lashkari va xon qatnashadigan ovda majburiy qatnashish), ipak moli (aholining ipakchilik dardmadining qirقدan bir qismini olish), mir tumon haqi (mahalliy hokim haqi), shig'ovul puli, qorovul puli, pul solig'i to'lash vaqtida xazinachiga to'lanadigan soliq, qo'ruvbon puli (daraxt qorovuli yoki yaylovni nazorat qilib turuvchi shaxsga to'lanadigan haq), mushrifona (hosilni tekshiradigan va miqdorini belgilaydigan kishiga beriladigan pul), afanak puli, chiviq puli, ommaviy ishlar o'tkazish davrida ruhoniylar foydasi uchun yig'iladigan pul va boshqalar[10,b.45]. Majburiyatlarga begor, qazuv (balo qazuv deb ataluvchi olti kunlik majburiy mehnat va suv taqsimlovchi tarmoqlarini tozalash), qochuv (ehtiyot dambalarini qurish uchun safarbar qilish) kabilar kirgan.

O.Qo'shjonov asarida xonlikda "suv puli", "mirobona", "chig'ir puli", "asiya puli" kabi soliqlar ham mavjud bo'lganligi, Xiva dehqonlari alohida yig'im-"suv puli" (10 tanob yer bir suv puli hisoblanib, 20 so'm olingan) to'lashgani, bundan tashqari xonlikda "mirobona" (mirob foydasiga), "chig'ir puli" - ichki hokimiyatga (suv g'ildiraklari uchun), "nabaki puli" (ariqlarni qazish uchun), "asiya puli"- xazinaga (xonga qarashli yoplardan, solmalardan suv olgani uchun), "bakiya puli" (irrigatsiyadagi boshqa zaruriyatlar uchun) kabi bir

qator soliq va yig'imlar olib borilganini qayd qilgan[10,b.57].

XIX –XX asr boshida Xiva xonligida rasmiy jihatdan 24, amalda esa 70 dan ortiqroq soliq turlari mavjud bo'lib, uning asosiy turi yer solig'i bo'lganligi qayd qilingan. Bu soliq va majburiyatlardan birortasi ham ma'lum miqdorda qo'yilgan normadan kam olinmagan. Soliq yig'uvchilar soliq to'laydigan xalqning ovomligidan va savodsizligidan ko'proq yulib olishga intilganlar. Masalan, o'rnatilgan tartib bo'yicha "begor"ning muddati 12 kundan oshmasligi lozim bo'lsa, u 15-20 kunga, ayrim vaqtlarda 50 kunga cho'zilib ketgan[12,b.71]. Chig'iriy bilan sug'orma dehqonchilik mehnati juda og'ir bo'lgan. Chig'iriy bilan sug'oriladigan yerdagi ishga nisbatan to'rt marta ortiq mehnat sarf bo'lgan[13].

Xorazm dehqonlari uchun kanallarni har yili loyqadan tozalash og'ir majburiyat hisoblanar edi. Qazu, ya'ni Xorazmda kanallarda loy to'planib qolishi vohaning hamma joyida muqarrar yuz beradigan hodisadir. Unumdor Amudaryo loyqasi dala uchun juda yaxshi o'g'itdir, shu bilan birga irrigatsion tarmoq uchun ofat hamdir. Kanallarni loyqadan har yili tozalash (qazuv) qadimdan ikki zonaga bo'lingan: 1) saqo qazuvi (bosh qismini tozalash) va 2) obxo'ra qazuvi (taqsimlovchi tarmoqni tozalash).

Xorazmda mana shunday yangi kanal qurish, kanal boshlarini tozalash, katta qirg'oq dambalari (qochilar) ni qurish, daryo shoxobchalarida to'g'onlar qurish, istehkomlar va katta imoratlar qurish kabi davlatning katta tadbirlari aholining mehnat majburiyati (begor) hisoblanardi. Begor uchun har bir kishiga bir yilga 12 kun belgilangan edi. Begor uchun har bir kishiga bir yilga 12 kun belgilangan edi.

V.V. Sinzerlingning yozishicha: "Xiva vohasida yoplarni tozalash uchun har yili bir mln. ishchi kuni sarflangan" [14,b.573]. M.Georgivskiy esa Janubiy Xorazmda kanallar va ariqlardan har yili yetti mln.kubometr tuproq chiqarilgani haqida ma'lumot bergan. Xiva xonligida suv soliqlari ham mavjud bo'lib, unda 10 tanob yer uchun har yili bahorda 12-15 kun ishlab berish lozim bo'lgan. Arxiv hujjatlarida bu haqida general-mayor Susaninning Turkiston general-gubernatoriga yozgan xatida 12 kunlik qazuv ishining mavjudligi, uzoqdan kelib ishlovchilarning kelib ketishi bilan hisoblaganda 30 kuni ketishi haqida ma'lumot mavjud. Mamlakatni

suv bilan ta'minlash xonlikning iqtisodiy hayotidagi hayot-mamot masalalaridan biri bo'lgan. Xonlik hududida sug'orish inshootlari har yili bahorda tozalanib, bu tadbirga xonlar boshchilik qilganlar. K.Zubrek: "O'rta Osiyo respublikalarining birontasida Xorazmdagidek suv inshootlarini tiklash uchun mehnat sarflanmaydi", [15,b.214] deb yozgan edi.

Xulosa. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Xiva xonligi Rossiyaning vassal davlati sifatida ichki va tashqi savdoni amalga oshirdi. Ichki va tashqi savdo aloqalarini kuchayishi natijasida tovar-pul munosabatlari ham yanada rivojlandi. Bu davrda Xiva xonligi ichki bozorlari, do'konlari va rastalarining ko'pligi jihatidan ajralib turgan va bu bozorlar orqali xonlik jahon bozorlarida o'z o'rniga ega bo'lgan.

Iqtiboslar/Snoski/Referens

1. Хамраева Н. Абулғози Баҳодирхоннинг илмий мероси ва унинг тарихий аҳамияти. Қарши – 2023. тар.фанлари номз. дисс. – Б. 128.
2. Ибрагимов Н. Ибн Баттута и его путешествие по Средней Азии. – Москва:Наука, 1988. – 292 б.
3. Дженкинсон А. Путешествие в Среднюю Азию 1558-1560 гг // В кн.: Английские путешественники в Московском государстве в XVI в. Перевод с английского Л.Готье. – Ленинград:1932. – Б.167-215.
4. Гришфельд В., Галкин М.Н. Военного – статистическое описание Хивинского оазиса. Часть . – Т., 1903. – С. 561-599

5. Лобачевский В. Хивинский район. – Т., 1912.
6. Абдурасулов А. Хива (Тарихий – этнографик очерклар). Т.: Ўзбекистон, 1997. – Б. 66.
7. Данилевский Г.И. Описание Хивинского ханства // Записки русского географического общества. –М.1851.
8. Йўлдошев М. Хива хонлигида феодал ер эгаллиги ва давлат тузилиши. – Т.: Ўздавнашр, 1959. –Б.240.
9. Маткаримова С. Хива хонлигининг Қўнғиротлар сулоласи даври тарихшунослиги (XIX аср- XXI аср боши) . Тошкент: Янги нашр, 2016. –Б. 57.
10. Гуломов Я. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Тошкент. 1959.-Б.246. Хоразм тарихи. – Б. 303., Яна қаранг: Абдурасулов А. Хива. – Б. 107., Худойберганов К. Хива хонлари шажараси. – Урганч , 1997. – Б. 45.
11. Кошчанов А.Из истории аграрных отношений в Хивинском ханстве в конце XIX – начале XX в. Авторефер. Дис.... канд.истор.наук.-Т, 1966. –с.16.
12. Ор.Шкапский. Аму-Дарьинские очерки, Ташкент, 1900. 71-бет.
13. Ўзбекистон халқлари тарихи. 2-том, Тошкент,1947, 193-бет.
14. Цинзерлинг В.В. Орошение на Амударье.....-С.573.
15. Зубрек К. Земледелие и ирригация Хорезма в связи с вопросом экономического объединения среднеазиатских республик . // Новый Восток, 1923.-№ 3. –С.214.



SHAXS MA'NAVY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING AYRIM MA'RIFIY MASALALARI

Kamronjon Makhsudjonov

Qarshi davlar universiteti mustaqil tadqiqotchisi

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЙ КУЛЬТУРЫ ЛИЧНОСТИ

Камронджон Махсуджонов

*Независимый исследователь Каршинского государственного
университета*

CERTAIN EDUCATIONAL ASPECTS OF SHAPING AN INDIVIDUAL'S SPIRITUAL CULTURE

Kamronjon Makhsudjonov

Independent researcher of Karshi State University

Annotatsiya. Maqolada shaxs ma'naviy madaniyatini shakllantirish jarayonida ayrim ma'rifiy yondashuvlarning tarixiy-falsafiy asoslari tahlil qilingan. Bunda shaxs ongini shakllantirishga doir ma'rifatparvarlik an'analarining zamonaviy talqini Turkistondagi jadidchilik harakati misolida yoritilgan va masalaning huquqiy, axloqiy, diniy va madaniy jihatlariga e'tibor qaratilgan.

Tayanch so'z va iboralar: shaxs madaniyati, ma'naviyat, ma'rifat, jadidchilik, axloqiy qadriyatlar, huquqiy ong, tarixiy tafakkur, ma'rifiy tashkilotlar, jamiyat taraqqiyoti, fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy ong, axborot-ma'rifiy muhit.

Аннотация. В данной статье проводится философско-исторический анализ роли просветительских подходов в формировании духовной культуры личности. А также, в ней рассматриваются особенности просветительской мысли на примере уделения особого внимания джадидскому движению в Туркестане, как уникальной ценности национального просветительства и некоторые вопросы воздействия правового, нравственного, религиозного и культурного на общественное развитие.

Ключевые слова: культура личности, духовность, просвещение, джадидизм, нравственные ценности, правосознание, историческое мышление, просветительские организации, развитие общества, гражданская позиция, социальное сознание, информационно-просветительская среда.

Annotation. This article analyzes the historical-philosophical foundations of certain educational approaches in the process of shaping an individual's spiritual culture. It explores modern interpretations of enlightenment traditions related to the formation of personal consciousness, with a particular focus on the Jadid movement in Turkestan. Special attention is given to the legal, ethical, religious, and cultural dimensions of the issue.

Keywords: personal culture, spirituality, enlightenment, Jadidism, moral values, legal consciousness, historical thinking, educational institutions, social development, civic stance, social consciousness, informational-educational environment.

KIRISH. Bugungi globallashuv va raqamli moddiy resurslar, texnologik imkoniyatlar yoki taraqqiyot jarayonida insoniyat taraqqiyotining eng iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan emas, balki inson asosiy ko'rsatkichi bu — insonning ma'naviy kapitalining sifat darajasi, ya'ni uning bilim, tafakkur va ma'naviy qadriyatlar bilan belgilash tobora va ma'naviy qadriyatlar bilan belgilash tobora zamon talabiga aylanib bormoqda. Shu nuqtai immunitetidir. Zero, jamiyat taraqqiyotini faqat



<https://orcid.org/0009-0004-3771-3191>

kmaqsudjonov@gmail.com

nazardan shaxsning ma'naviy madaniyati jamiyat barqarorligi, ijtimoiy birdamlik va taraqqiyot uchun hal qiluvchi o'rin tutishi masalalarini atroflicha o'rganish, bizningcha, ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega.

Ma'rifat, ma'naviyat, madaniyat tushunchalari jamiyatning ma'naviy hayoti bilan bevosita bog'liq bo'lib, "ma'rifat (arabcha bilish, bilim, ma'lumot, tanish, tanishish) –tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi bilimlar, ma'lumotlar, ta'lim-tarbiya va maorif tizimini ifodalaydigan tushuncha. Tor ma'noda ma'rifat bilimli, ma'lumotli, ma'naviyatli insonga nisbatan qo'llaniladi. Keng ma'noda, kishilarning bilimi, madaniyatini oshirishga qaratilgan maorif va ta'lim-tarbiyaga ham ma'rifat deb qaraladi. Bu so'z ilm-u irfon ma'nosida ham ishlatiladi. Ma'rifat tushunchasi bilim va madaniyatni yo'yish hamda yuksaltirishning hamma turlari va sohalarini qamrab oladi"[1].

Ma'lumki, insoniyat tarixi ilm-fan masalalari taraqqiy etmagan davlatda erkin va farovon, adolatli jamiyat qurib bo'lmagligidan guvohlik beradi. Xuddi shuningdek, zamonaviy jamiyat uchun ham o'ziga xos bo'lgan ma'naviy ehtiyojlari mavjud bo'lib, ular orasida ilmga bo'lgan ehtiyoj yetakchi o'rinni egallaydi. Negaki, jismonan va ruhan sog'lom bo'lgan shaxs tinmay ma'rifat va bilim olishga intiladi hamda jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lish uchun harakat qiladi. Milliy ma'rifatparvarlik harakatimizning yetakchi namoyandasi bo'lgan Abdulla Avloniyning: "Ilmning foydasi shu qadar ko'pdurki, ta'rif qilg'on birla ado qilmak mumkin emasdur. Bizlarni jaholat qorong'uligidan qutqarur, madaniyat, insoniyat ma'rifat dunyosiga chiqarur yomon fe'llardan, buzug' ishlardan qaytarur, yaxshi xulq va adab sohibi qilur ..." [2] degan da'vatida ham ushbu munosabat yaqqol ko'zga tashanadi.

ADABIYOT TAHLILI VA METODOLOGIYA.

XIV-XVI asrga kelib Yevropa mamlakatlari cherkovning zulmkorona yakka hukmronligidan batamom azob chekayotgan bir davrda "gumanizm" g'oyasi ijtimoiy hayotda o'z kurtaklarini yoya boshladi. Bu hodisa Yevropada "Uyg'onish davri" bilan parallel ravishda kechdi. Cherkov tomonidan o'rnatilgan majburiyatlar va cheklovlar insonlarning hayotdan to'laqonli lazzat olishga, haqiqiy inson sifatida yashashga to'sqinlik qilayotgan edi. Gumanistik g'oyalarning Yevropada keng tarqalishi cherkov ta'sirida bo'lgan ilm-fanni tor doiradan olib chiqdi va keng tarqalishiga zamin yaratdi. G'arb

sivilizatsiyasi uchun xos bo'lgan ilm-ma'rifat taqatish g'oyalari XVIII asrda shakllangan "Ma'rifatparvarlik davri" (Enlightenment)da o'zining eng yuksak cho'qqisiga chiqdi. Ushbu davr tarixiy nuqtai nazardan din hukmron mavqega ko'tarilgan, ilmsizlik va jaholat avj olgan vaziyatga qarshi kurashga asoslangan g'oya va harakatlarning uyg'unlashuvi sifatida paydo bo'ldi. G'arbda bu davr tafakkurda erkinlik, aqlni mutlaq qadriyat deb tan olish, bilishda shubha va tajribaga asoslangan usullar afzal hisoblangan, insonning tafakkur erkinligiga tayanib jamiyatni qayta tashkil qilish kabi tamoyillar ustivorlashayotganligi bilan ajralib turadi.

Fransuz faylasufi **Volter (1694–1778)** cherkovning har qanday hukmronligiga keskin qarshi chiqdi. U insonni din peshvolarining emas, aqlning yo'rig'i bilan yashashga undadi. Uning "menga fikr bildirganing uchun emas, uni bildirishing huquqi borligi uchun hurmat qilaman" degan iborasi G'arb ma'rifatparvarligining erkin so'z, tolerantlik va mulohazakor fikrlar ochiqligi tamoyillariga asoslanganini ko'rsatadi. Volterning asarlari orqali din va siyosat o'rtasidagi keskin ajralish G'arb tafakkurida ilk bor huquqiy va siyosiy qadriyat sifatida qarash boshlanganligi shaxs ma'rifatini shakllantirishda yangicha yondashuv kirib kelayotganligidan darak bera boshladi.

Asli qishloq ruhoniysi, keyinchalik esa Irlandiyadagi Dublin ibodatxonasi rahbari bo'lgan Jonatan Svift (1667-1745) marifatparvarlarning oliyanob g'oyalari odamlarni o'zgartirmaganligini mukammal ijtimoiy voqeilikdan ancha yiroq ekanligini o'zining "Gulliverning sayohatlari" romanida ochib berdi. Shunday bo'lsa-da, muallifning maqsadi inson tabiatini beparvo kuzatish emas, balki shaxs ma'naviyatini shakllantirishda odamlarga sidqidildan achinish, ularga insoniylikni saqlab qolishda ko'maklashish, yovvoyilashib ketishdan ogohlantirish edi. "Inson siz o'ylagandan ko'ra qadriliroqdir "deb hisoblagan Sviftning aql yolqini va qobilyat kuchi "Ma'rifat asrini "so'nmas nur bilan yoritib turadi. Uning og'ir holatda ham insoniylikni saqlab qolish borasidagi da'vati bugungi davr madaniyati uchun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan"[3].

Nemis mumtoz falsafasining asoschisi bo'lgan I.Kant esa mazkur tushunchaning mazmun va mohiyatini ochib berishga harakat qilgan. U o'zining "Ma'rifat nima? degan savolga javob" nomli maqolasida bayon qilishicha, ma'rifat inson shaxsini

tarbiyalash, uning aql axloqi imkoniyatlaridan jamiyatning ilgari, ya'ni yuksalish tomon taraqqiyoti manfaatlari yo'lida foydalanishdir,"[4] deb o'z fikrini bildirib o'tadi.

Sharq tafakkurida esa, ma'rifat tushunchasi nafaqat bilish, balki ruhiy yetuklik, axloqiy kamolot va ilohiy haqiqatga yaqinlashish bilan bog'liq. Bu yondashuv, ayniqsa, islomiy tafakkurda chuqur o'rin egallagan bo'lib, ilmning Allohga yaqinlashtiruvchi kuchi sifatida ko'rilishi bilan ajralib turadi. "Kim ilm talab qilsa, Alloh unga jannat yo'lini yengillashtiradi"[5] degan mazmundagi hadis bunga dalil bo'ladi.

VIII–XII asrlar oralig'ida "Movarounnahr va Xuroson kabi hududlarda ilm-fan va diniy-falsafiy tafakkurning gullab-yashnashi kuzatildi. Bu davrda Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Imom Moturidiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Rushd kabi mutafakkirlar diniy va dunyoviy bilimlarni uyg'unlashtirish orqali ilmiy maktablar yaratdilar"[6]. Forobiy o'zining "Fozil shahar ahlining qarashlari" asarida "ideal jamiyat konsepsiyasini ilgari surar ekan, bu jamiyatda hokimiyat bilim va axloq bilan asoslangan bo'lishi"[7] kerakligini ta'kidlagan.

G'arb sharqshunos olimlaridan A. Oldenburgning ta'kidlashicha, Sharq tafakkuri G'arbning yangi davrdagi ma'rifatparvarlik harakatlariga katta turtki bergan. Uning so'zlariga ko'ra: "G'arb ma'naviyatining eng yuqori nuqtasi ham Sharqning o'rta asrlardagi tafakkuriy darajasi bilan taqqoslanganda, faqat go'dakning chuq'urchuq'ur holatiga teng"[12]. Bu baho Sharq ilmiy merosining global ta'siri qatori, uning chuqur e'tirofini ham anglatadi.

Turkiston hududida XX asr boshlarida shakllangan **jadidchilik harakati** Sharq ma'rifiy tafakkurining yangi bosqichi, milliy uyg'onishning ijtimoiy-siyosiy va madaniy ifodasi bo'ldi. "Jadidchilik o'z mohiyatiga ko'ra faqat yangilikka chaqiriqdan iborat emas, balki o'zlikni anglash, milliy qadriyatlarni asrab qolgan holda zamonaviy taraqqiyot sari intilish harakati" [15]. U islomiy ta'limotga tayanar ekan, G'arbning ilg'or ilmiy yutuqlari, texnologik taraqqiyoti va madaniy ko'nikmalarini milliy kontekstda tatbiq qilishni ko'zlagan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jadidlar Turkistondagi mustamlaka siyosatining ma'naviy tanazzulga olib kelayotgan

oqibatlarini chuqur angladilar. Ular zamonaviy bilimlarsiz, mustaqil fikrlovchi fuqarolarsiz milliy tiklanish va ijtimoiy uyg'onish imkonsizligini tushundilar. Shuning uchun ham Mahmudxo'ja Behbudiy o'z maqolalarida va sahna asarlarida doimo "Bizni qutqaradigan kuch nima?" degan savolni qo'yar edi va bunga javob sifatida "faqat va faqat ma'rifat" [16] jekanligini ta'kidlar edi.

Jadidlar nafaqat maktablar orqali, balki matbuot va teatr tomoshalari orqali ham xalqni uyg'otishga harakat qildilar. Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan nashr etilgan "Tarjimon", "Shuhrat", "Taraqqiy", "Sadoi Turkiston" kabi ro'znoma va oynomalar orqali ma'rifiy maqolalar, tanqidiy fikrlar va ijtimoiy ogohlik g'oyalari keng yoyildi. Ularda siyosiy islohotlar, ta'lim tizimi, xotin-qizlar huquqlari, milliy o'zodlik masalalari ochiq muhokama qilinar edi.

Shuningdek, Behbudiy o'zining "Padarkush", "Barcha millatlar do'st bo'lsin" kabi sahna asarlari orqali milliy ongini uyg'otishga intildi. "Teatr jadidlar uchun nafaqat san'at, balki og'zaki targ'ibot vositasi" [18]. sifatida ishladi

Jadidlar G'arb madaniyati va ilmiy yutuqlarini "kofirlik unsuri" sifatida inkor etishmadi, balki uni islomning haqiqat va tafakkurga chaqiruvchi mohiyati bilan uyg'unlashtirishga intildilar. Behbudiyning "Islom aql dinidir, aql esa ilmni talab qiladi" deya G'arb ilmining zarurligini diniy asosda asoslab berishga harakat qilganligi fikrimizga yaqqol dalil bo'la oladi [19].

Shaxs ma'rifatini o'rganish uning turlariga e'tibor qaratishni ham taqozo etadi. E.N.Tyurikova ma'rifatni dialektik o'zaro bog'liq bo'lgan ijtimoiy va siyosiy turlarga ajratadi. Ijtimoiy jihati bilimlarni tarqatish, ma'rifat, ilm-fanning rolini kuchaytirish, uning yordamida ijtimoiy-iqtisodiy, davlat hayotining yangi shakllarini izlash bilan bog'liq. Ushbu yo'nalish siyosiy yo'nalishdan ko'ra qadimiy kelib chiqishga ega edi. Davlat reaksiyasi davrida ma'lum bir siyosiy mafkurani targ'ib qilish, uni odamlar ongiga singdirishda ifodalangan ma'rifatning siyosiy jihati faollashadi. Ma'rifatning siyosiy tomoni tahsqi sharoitga mavjud hokimiyatning xususiyatlariga, uning jamiyatga bosimi darajasiga bog'liq edi; ma'rifatning ijtimoiy jihati o'zgaruvchan va lahzali siyosiy jihatlardan farqli o'laroq barqarordir[20].

So'nggi paytlarda ma'rifatning tipologik va mintaqaviy xususiyatlarini o'rnatishga qiziqish ham

ortib bormoqda. Bu borada, bizning fikrimizcha, A.S.Milnikovning nuqtai nazari katta qiziqish uyg'otadi. Biz uning ma'rifatparvarlik mazmunini, uning umumiy va mintaqaviy xususiyatlarini, vaqtinchalik va geografik chegaralarini aniqlashning ahamiyati haqidagi fikrlariga yaqinmiz.

Diniy ma'rifat (islomiy ma'rifat) – islom diniy radikalizmning oldini olish imonlilarining ijtimoiy moslashuvi va madaniyatlararo muloqotni yo'lga qo'yish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan katta mafkuraviy salohiyatga ega. Ushbu potensialni amalga oshirishning eng muhim vositasi diniy ma'rifat, "islomning asosiy diniy va huquqiy qoidalarini, uning axloqiy va axloqiy qadriyatlarini va zamonaviy jamiyatdagi ahamiyatini tushuntirishdir". [22] Biroq, F.N.Kozyrev to'g'ri ta'kidlagandek, "na dindorlik, na diniy ta'lim diniy bag'rikenglikning kafolati bo'la olmaydi. Boshqacha qilib aytganda, diniy ma'rifat diniy adovatning oldini olish vositasi va uni kuchaytirish vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin"[23]. Shuning uchun ushbu jarayonning tashkil etilishi va mazmuni davlat va fuqarolik jamiyati nazorati ostida bo'lishi kerak. Zamonaviy jamiyatda diniy ma'rifat nafaqat diniy, balki ijtimoiy ahamiyatga ega maqsadlarga ham intilishi kerak. Bunday holda u jamiyatning ma'naviy va axloqiy asoslarini mustahkamlash, jamiyatning siyosiy tashkilotini mustahkamlash, "o'zaro ishonch tamoyillari asosida bozor iqtisodiyotini rivojlantirish, ijtimoiy va madaniy aloqalarni kengaytirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari diniy ma'rifat diniy bag'rikenglik va o'zgacha fikrlaydiganlarga (boshqa din vakillari) hurmatni tarbiyalashning eng muhim usuli sifatida qaralishi kerak" [24].

Estetik ma'rifat. Estetik tarbiya (ma'rifat), insonning voqeilikka estetik munosabatini shakllantirishning maqsadli jarayoni bo'lib, insoniyat jamiyatining paydo bo'lishi bilan ushbu munosabat ham rivojlanib, odamlarning moddiy va ma'naviy faoliyati sohasida namoyon bo'ladi.

Iqtisodiy ma'rifat tushunchasi iqtisodiy faoliyatning nazariy asoslarini tashkil etuvchi bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirishni anglatadi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, har qanday jamiyat taraqqiyotining markazida aynan ma'rifatga tayangan, ma'naviy jihatdan yetuk, axloqiy tamoyillarga sodiq shaxs turadi. Shaxs ma'naviy madaniyati bu faqat bilimlar majmuasi emas, balki ijtimoiy mas'uliyat, tarixiy xotira, axloqiy

qadriyatlar va madaniy ongning uyg'unlashgan shaklidir. Uni shakllantirish va yuksaltirishda esa ma'rifiy yondashuvlar hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Adabiyotlar:

1. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. Birinchi jild. "O'zbekiston faylasuflari milliy nashriyoti". "Ma'naviyat" nashriyoti. Toshkent-2019. 774-bet
2. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. www.ziyo.uz.com kutubxonasi. 11-bet.
3. R.Farmonov, U. Jo'rayev, Sh.Ergashev. Jahon tarixi (XVI-XIX asrning 60-yillari). Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2019. 61-bet.
4. Ответ на вопрос: Что такое Просвещение?» — (философский ответ И.Канта и вопрос М.Фуко (По материалам Международного конгресса, посвященного
5. Al-Buxoriy. *Sahih al-Buxoriy*. Hadislar to'plami. – Qohira, 1986.
6. Nasr S.H. *Science and Civilization in Islam*. – Harvard University Press, 1968.
7. Forobiy A.N. *Fozil shahar ahlining qarashlari*. – T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 1993
14. Mirzaev H. *Jadidlar merosi va zamonaviylik*. – T.: O'zbekiston, 2005.
15. Mirzaev H. *Jadidlar merosi va zamonaviylik*. – T.: O'zbekiston, 2005.
16. Behbudiy M. *Tanlangan asarlar*. – T.: Fan, 1997.
18. Qodirov H. *Jadid teatrining shakllanishi va g'oyalari*. – Samarqand: Registon, 2014.
19. Abdullaev A. *Islom va modernizm*. – T.: Movarounnahr, 2010.
20. Тюрикова Е.Н. Просветительство // *Общественная мысль России XVIII – начала XX в.: энциклопедия*. – М.: Российская политическая энциклопедия, 2005.431-с.
22. Элмир Кулиев. Роль религиозного просвещения в противодействии религиозному радикализму в исламе. Журнал социально-политических и экономических исследований. Кавказ и Глобализация. Том 3. Выпуск 2-3. 2009.177-с.
23. Козырев Ф.Н. Воспитание веротерпимости как педагогическая задача. В кн.: Образование и гражданское общество (материалы «Круглого стола» 15 ноября 2002 г.; Серия «Непрерывное гуманитарное образование (научные исследования)». Выпуск 1. СПб: Санкт-Петербургское философское общество, 2002. С.75.

YOSHLAR TARBIYASIDA ADABIYOTNING O'RN*Egamov Yusufboy Ergashbek o'g'li**Urganch davlat pedagogika instituti Filologiya va tarix fakulteti
Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq asoslari yo'nalishi talabasi***THE ROLE OF LITERATURE IN THE EDUCATION
OF YOUTH***Egamov Yusufboy**Student of the Faculty of Philology and History of Urgench State
Pedagogical Institute***РОЛЬ ЛИТЕРАТУРЫ В ВОСПИТАНИИ
МОЛОДЕЖИ***Эгамов Юсуфбой Эргашбекович**Студент факультета филологии и истории Ургенчского
государственного педагогического института***Orcid: 0009-0006-3149-0913**

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiyotning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati, uning inson ma'naviy olamini shakllantirishdagi roli, milliy qadriyatlarni singdirish va yoshlarni barkamol shaxs etib yetishtirishdagi beqiyos o'rni haqida so'z yuritiladi. Adabiy asarlar orqali yoshlar qalbiga ezgulik, vatanparvarlik va hayotga muhabbat tuyg'ularini singdirish muhimligi ta'kidlanadi. Milliy g'oyamizning asosiy maqsadlaridan biri bo'lgan komil insonni tarbiyalashda badiiy adabiyotning ahamiyati, uning millat tarbiyasidagi roli, shuningdek, mamlakatimiz istiqboli bo'lmish yosh avlodga yuksak intellekt, mustahkam e'tiqod va tarbiya, milliy o'zligini badiiy adabiyot orqali singdirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Yoshlar tarbiyasi, adabiyot, ma'naviyat, milliy qadriyatlar, kitobxonlik, ma'rifat, barkamollik, ezgulik, vatanparvarlik.

Annotation: In this article, the importance of literature in young people is discussed the invaluation of its role in the formation of the human spiritual world, and the cultivation of young people as a harmonious person. Through literary works, it is noted that it is important to instill the feelings of love for goodness, patriotism and life. The importance of artistic literature in the upbringing of a perfect person, as well as the role of his nation, as well as the prospects of our country, is covered by the importance of high intelligence and educational, national identity through artificial literature.

Keywords: Youth Education, literature, spirituality, national values, reading, enlightenment, perfection, goodness, patriotism.

Аннотация: В статье рассматривается значение литературы в воспитании молодежи, ее роль в формировании духовного мира человека, ее уникальная роль в воспитании национальных ценностей, развитии молодых людей как всесторонне развитой личности. Подчеркивается важность воспитания в сердцах молодежи чувств доброты, патриотизма, любви к жизни через литературные произведения. Подчеркивается значение художественной литературы в воспитании совершенного человека, одной из главных целей нашей национальной идеи, ее роль в воспитании нации, а также поднимаются вопросы воспитания высокого интеллекта, крепкой веры и образованности, национального самосознания у молодого поколения, которое является будущим нашей страны, посредством художественной литературы.

Ключевые слова: Воспитание молодежи, литература, духовность, национальные ценности, чтение, просвещение, совершенство, добро, патриотизм.

Bugungi globallashuv davrida yosh avlodni ma'naviy barkamol insonlar etib tarbiyalash jamiyat oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Bu borada adabiyotning o'rni beqiyosdir. Adabiyot inson qalbini tarbiyalaydi, unga ezgulik, vatanparvarlik, do'stlik, sabr-toqat kabi yuksak fazilatlarini singdiradi. Adabiy asarlar yoshlarning tasavvurini kengaytiradi, ularga hayotiy tajriba, to'g'ri yo'l tanlashda madad beradi. Ayniqsa, ona tilida yaratilgan milliy adabiyot yoshlarda o'zlikni anglash, milliy g'urur va iftixor tuyg'usini kuchaytiradi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "...hozirgi notinch va tahlikali zamonda butun bashariyat oldida paydo bo'layotgan, biz ilgari duch kelmagan g'oyat murakkab muammolar, global xavf-xatarlarni birgalikda bartaraf etish, shu yo'lda barcha ezgu niyatli insonlarni birlashtirishda, dunyo aholisining qariyb uchdan bir qismini tashkil etadigan yoshlarni gumanistik g'oyalar ruhida tarbiyalashda badiiy so'z san'atining o'rni va mas'uliyatini har qachongidan ham yuksaltirish zarurligini bugun hayotning o'zi taqozo etmoqda[1]".

Yoshlar tarbiyasida adabiyotning bebaho o'rni haqida gapirganda eng avvalo, adabiyotning inson ma'naviy-axloqiy kamolotidagi o'rni va ta'sirini alohida ta'kidlash kerak. Adabiyot faqatgina so'z san'ati emas, balki xalq ruhining orzu-umidlarining, qadriyatlarining ifodasidir. Ayniqsa, yosh avlod tarbiyasida adabiyotning ahamiyati nihoyatda katta. Adabiyot orqali yoshlar vatanparvarlik, insonparvarlik, halollik kabi yuksak tuyg'ularni o'zlashtiradilar. O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotning durdonalari orqali xalqimiz tarixiy merosi, urf-odatlar bilan tanishadilar. Hayotiy tajriba orttiradilar yaxshi bilan yomonni ajrata olishni o'rganadilar, til boyligini oshiradi, fikrlash va ifoda qilish qobiliyati rivojlanadi.

Adabiyot hayot maktabidir. Unda insoniyat boshidan kechirgan tajribalar, azob-uqubatlar, quvonch va iztiroblar aks etadi. Ayniqsa, o'zbek adabiyotining namoyandalari – Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov kabi ulug' adiblar asarlarida yosh avlod uchun bebaho ma'naviy meros mujassam. Ularning har bir satrida milliy g'urur, yurtparvarlik, vatan va xalqqa sadoqat, adolat va mehr-oqibat singari oliyjanob tuyg'ular tarannum etiladi. Davlatimiz rahbari 2017

yilning 3 avgustida O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvda "...adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor — bu, avvalo, xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor ekanini, buyuk shoirimiz Cho'lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo'q"-, degan edi [2].

Badiiy adabiyot inson ma'naviyati va e'tiqodini shakllantiruvchi vositadir. Chunki, badiiy asarlarning qahramonlari timsolida muayyan millatga mansub eng ezgu va go'zal fazilatlar aks ettiriladi. Buning ustiga, millatning ijobiy sifatleri shunchaki aytib qo'yilmaydi, balki kishining tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatadigan, uni loqayd holdan chiqarib yuboradigan tarzda aks ettiriladi. Badiiy adabiyot insonning tafakkuriga qalbi orqali ta'sir ko'rsatadi va aqli bilan anglaganlarini uning tabiatiga singdirib yuborishga xizmat qiladi. Ya'ni adabiyot kishining xarakter xususiyatlarini shakllantirishda, uning tuyg'ular tizimini qaror toptirishda qator afzalliklarga ega bo'lgani uchun ham shaxs estetik tarbiyasini shakllantirishida katta samara berishi tabiiydir. Turli davrlarda, turli ijodkorlar tomonidan yaratilgan matnlarni o'qish jarayonida insonda, yoshlarimizda iftixor, g'urur tuyg'usi paydo bo'ladi, u yoki bu hayotiy hodisaga o'z nuqtai nazari bilan qaray boshlaydi, nimanidir yoqlab, nimanidir inkor etadi, qaysi bir adabiy qahramonga o'xshagisi kelsa, o'zgasidan nafratlanadi. Shu bois badiiy adabiyot shaxs estetik tarbiyasida eng avvalo so'z va ruhiyat san'ati bo'lib hisoblanadi.

"Adabiyot zamon bilan hamnafas" degan gapni teranroq tushunmoq lozim. Biz ko'pincha bu fikrni yonimizda umrguzaronlik qilayotgan zamon odamlari va voqealarini qanday qilib qog'ozga mukammalroq tushirish deb bilamiz. Ammo bu jarayonda adabiyotning o'zi qay tarzda o'zgarishi lozimligi haqida deyarli fikrlamaymiz. Qahramonlar fe'l-atvorini yaratish, hayotni badiiy bir tarzda kitobxonga yetkazish kerakligi va shunga o'xshash uch-to'rt muhim adabiy qonuniyatlar qobig'idangina qaraymiz. Albatta, sof realistik adabiyot nuqtai nazaridan bu juda to'g'ri. Biroq yangi zamon tasviri endi faqat bu o'lchamdagi qonuniyatlarga sig'maydi. Chunki zamon bilan nafas olayotgan adabiyotning o'lchamlari ham boshqa manzara kashf etmog'i lozim [3].

Insoniyat tomonidan asrlar davomida qadrlanib kelinayotgan, ijobiy mazmun kasb etgan, g'oya, qarash va nazariyalarning amaliy faoliyatini tashkil etishda yetakchi tamoyillar sifatida e'tirof etiluvchi, o'y-fikrlari, maqsadi va xatti-harakatlarining salbiy xususiyatlardan holi bo'lishiga erisha oladigan shaxsgina komillik darajasiga ko'tarila oladi. Mustaqillik bizga o'tmishdagi boy ma'naviy merosimiz durdonalarini haqiqiy, ilmiy ma'noda o'rganish baxtiga musharraf etdi. Badiiy adabiyot insondagi xush xulq-atvor pokiza, adolatli sa'i-harakatlarni xalqdan ajralmasdan, avval o'zida paydo qilish orqali komillik darajasiga yetishishni, so'ngra esa boshqalarni ham halollik, mehr-muruvvat, ezgulik, adolatlilikka chaqirishga da'vat etadi.

“Badiiy adabiyotning falsafiy axloqiy-estetik g'oyalari milliy istiqloq mafkurasi uchun negiz, poydevor bo'lganligi uchun uni tadqiq etish dolzarb masaladir. Shuning uchun ham bugungi kunda badiiy adabiyotning falsafiy, axloqiy-estetik qirralarini o'rganish fan, maorif, ma'naviy ijtimoiy sohalarga olib kirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Inson ma'naviy olamni his-tuyg'ulari, aql idroki va iroda ixtiyori yordamida o'zlashtirib boradi. Shaxs his-tuyg'ularini shakllantirish va tarbiyalash, go'zallikka nisbatan mehr uyg'otish bugungi kunning dolzarb muammosiga aylangan [4]”.

Hayotiy tajribamiz shuni ko'rsatmoqdaki, aniq maqsadni ko'zlagan, ishonchli g'oya bilan qurollangan xalqgina jahon siyosiy maydonida o'z o'rniga ega bo'la oladi. Milliy g'oyamizni yoshlar ongiga singdirishda badiiy adabiyot bizning asosiy qurollarimizdan biri bo'lishi lozim. Chunki, birinchidan, badiiy adabiyot milliy g'oyamizning badiiy, ma'naviy ildizidir. Badiiy adabiyot mustaqil O'zbekistonda Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, o'zaro hamkorlik va yosh avlodni tarbiyalashda asosiy vositalardan biri bo'lib xizmat qila oladi.

Ikkinchidan, badiiy adabiyotdagi go'zallikni bilish, idrok etish inson badiiy estetik tafakkurini o'stiradi. Badiiy adabiyot namoyondalarining estetik qirralarini o'rganish, baholash, ibratli tomonlarini ko'rsatish hozirgi davr shaxsini komil inson qilib shakllantirishda alohida o'rin egallaydi;

Uchinchidan, badiiy adabiyot bizni xalqdan ajralmasdan, insonning nafaqat jismoniy va ichki ruhiy, ma'naviy dunyosini mukammal tarbiyasini

qamraganligi bilan ham yuqori kamolot darajasiga – ya'ni komil inson bo'lishiga erishish uchun xizmat qiladi;

Shu bilan birga, zamonaviy adabiyotda ham yoshlarning hayotga, jamiyatga, ilm-fanga munosabatini shakllantiruvchi asarlar yaratilmoqda. Ma'rifatparvar asarlar yoshlar qalbida ma'naviy immunitet hosil qiladi va ularni turli yot g'oyalardan asraydi. Shunday ekan, yoshlar tarbiyasida adabiyotning kuchidan oqilona va muntazam foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Adabiy tadbirlar, kitobxonlik musobaqalari, yozuvchilar bilan uchrashuvlar yoshlar qalbida kitobga mehr uyg'otadi, ularda fikrlash, tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Har bir oila va ta'lim muassasasi yoshlarni bolalikdan adabiyot bilan oshno qilishni o'zining muhim vazifalaridan biri deb bilmog'i kerak.

Yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda adabiyotning o'rni beqiyosdir. Chunki adabiyot inson qalbining, orzu-umidlarining, ma'naviy dunyosining ifodasidir. She'r, hikoya, roman kabi badiiy asarlar orqali yoshlar hayot ma'nosini chuqurroq anglaydi, yaxshi va yomonni ajratishni o'rganadi. Ularda insoniylik, do'stlik, mehnatga hurmat kabi qadriyatlar shakllanadi. Ayniqsa, milliy adabiyotimiz namunalarida tariximiz, an'analарimiz va qadriyatlarimiz aks etgani uchun ular yoshlarning milliy g'ururini, o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, adabiyot yoshlarning fikrlash doirasini kengaytiradi, ularni mustaqil fikrlashga, hayotiy masalalarga teran qarashga undaydi. Yaxshi adabiy asar yoshning o'zini, jamiyatdagi o'rnini anglashga, katta maqsadlar sari intilishga ilhomlantiradi. Yoshlar tarbiyasida adabiyotdan faol foydalanish, ularga badiiy kitoblarni o'qishga rag'bat uyg'otish, adabiyotni sevishtga o'rgatish har bir ota-ona, ustoz va jamiyat oldidagi muhim vazifasidir.

Abdulla Avloniy o'z asarida yoshlar tarbiyasi haqida: “Adab – tarbiyaning ko'zгusi, adabiyot esa ma'naviyatning to'kin dasturxonidir[5]”,- deya ta'kidlab o'tadi. Adabiyot insoniyatning intellektual va madaniy merosini saqlash, unga yanada boylik qo'shishda muhim rol o'ynaydi. Har bir xalqning adabiyoti milliy madaniyatining ajralmas qismi bo'lib, ta'lim jarayonida muhim o'ringa ega. Adabiyot shunchaki san'atning bir turi emas, balki o'quvchilarni tarbiyalash, ularning ijodiy fikrlash

qobiliyatini rivojlantirish hamda estetik his-tuyg'ularini shakllantirish vositasi sifatida qaraladi. Ushbu maqolada adabiyotning ta'limdagi o'rni, uning axloqiy, ma'naviy va shaxsiy rivojlanishga ta'siri, milliy va umumbashariy qadriyatlarini shakllantirishdagi ahamiyati keng tahlil qilinadi.

Ona zaminimizda ming yillar davomida yaratilgan badiiy merosimiz xalqimizning yuksak salohiyati, kuch-qudrati, bunyodkorlik an'analari haqida, vatanimizning shonli tarixi to'g'risida tasavvur va tushunchalar beradi. Shu muqaddas diyorda yashaydigan har bir inson qalbida g'urur-iftixor tuyg'ularini o'yg'otadi. Milliy mafkuraning asosiy vazifalaridan biri vatandoshlarimizning tafakkurida o'zlikni anglash, tarixiy xotiraga sadoqat, muqaddas qadriyatlarimizni asrab-avaylash, vatanparvarlik tuyg'usini kamol toptirishdan iborat ekan, badiiy meros va undagi g'oyalar yoshlarimizda yurtga nisbatan vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishning muhim omillaridan biri ekanligiga shak-shubha yo'q. Shunday ekan, o'lmas badiiy-adabiy merosimiz g'oyaviy tarbiyaning eng muhim vositalaridan biribo'lib qoladi. Adabiyot yosh avlodni har tomonlama rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Uni zamonaviy metodlar yordamida o'qitish orqali yoshlarning intellektual, ma'naviy va ijodiy qobiliyatlarini yanada rivojlantirish mumkin.

Adabiyot darslarining maqsadi faqatgina bilim berish emas, balki barkamol shaxsni shakllantirishdir. Shuning uchun ta'lim tizimida adabiyotga e'tibor qaratish nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatning kelajagi uchun muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Ўзбек мумтоз ва замонавий адабиётини халқаро миқёсда ўрганиш ва тарғиб қилишнинг долзарб масалалари» мавзусидаги халқаро конференция иштирокчиларига // Халқ сўзи газетаси, 2018 йил 8 август, №162 (7120).

2. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston ziyolilari bilan uchrashuvdagi nutqi // <https://president.uz/oz/lists/view/855>. 2017-yil 3-avgust.

3. Usmon Azim. Adabiyoti bor elning ruhi baquvvat bo'ladi // <https://yuz.uz/uz/news/adabiyoti-bor-elning--ruhi-baquvvat-boladi> 2022-yil 26-oktabr.

4. Husanov B.E. Shaxs va jamiyat munosabatlarida go'zallikning namoyon bo'lish xususiyatlari. Falsafa fanlari nomzodi, diss. Avtoreferati. – Toshkent, 2002. 4-bet.

5. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq.-Toshkent: "O'qituvchi", 1992-yil. 4-bet



QORAQALPOG'ISTONDA XALQ
DEHQONCHILIGI TAJRIBASI VA QISHLOQ
XO'JALIGI QUOLLARINING TARIXIY-
ETNOGRAFIK TAHLILI

Eshmuratova Muxabbat Oralbayevna

QDU, Tarix fakulteti, "Arxeologiya" kafedrasida tayanch doktoranti

[https://orcid.org/0009-](https://orcid.org/0009-0005-7796-4873)

[0005-7796-4873](https://orcid.org/0009-0005-7796-4873)

merajeshmuratova@gmail.com

ИСТОРИКО-ЭТНОГРАФИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ
НАРОДНОГО ЗЕМЛЕДЕЛЬЧЕСКОГО ОПЫТА И
СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ОРУДИЙ В
КАРАКАЛПАКСТАНЕ

*Ешмуратова Мухаббат Оралбаевна, базовой докторант,
кафедры Археологии, Исторического факультета
Каракалпакского государственного университета*

HISTORICAL AND ETHNOGRAPHIC ANALYSIS
OF TRADITIONAL FARMING PRACTICES AND
AGRICULTURAL TOOLS IN KARAKALPAKSTAN

Eshmuratova Mukhabbat Oralbaevna

*Doctoral student at the Department of Archaeology, Faculty of
History, Karakalpak State University (KSU)*

Annotatsiya: Maqolada asosan qoraqalpoq dehqonlarining tajribalari, ularning yerni o'zlashtirishdagi usullari, mehnat qurollari tarixiy-etnografik jihatdan tahlil etiladi. Shuningdek, mehnat qurollarining turli xilligi, qo'shni xalqlar turmushidagi qishloq xo'jalik qurollarining o'xshashliklari qiyosiy ko'rsatilib, ayrim mehnat qurollarining o'zgarishi dala yozuvlari misolida keltirilgan.

Kalit so'zlar: qoraqalpoqlar, dehqonchilik, qishloq xo'jaligi, mehnat qurollari, sug'orish tarmoqlari, yerni o'zlashtirish usullari.

Аннотация: В статье проводится историко-этнографический анализ опыта каракалпакских дехкан, их методов освоения земли и орудий труда. Также сравнительно представлено разнообразие орудий труда, показаны сходства сельскохозяйственных орудий в быту соседних народов, приведены примеры изменений некоторых орудий труда на основе полевых записей.

Ключевые слова: каракалпаки, земледелие, сельское хозяйство, орудия труда, оросительные системы, методы освоения земель.

Abstract: This article primarily analyzes the experiences of Karakalpak farmers, their methods of land cultivation, and their labor tools from a historical and ethnographic perspective. Additionally, it comparatively illustrates the diversity of tools and the similarities in agricultural implements used by neighboring peoples. Changes in certain labor tools are presented using examples from field notes.

Keywords: Karakalpaks, farming, agriculture, labor tools, irrigation networks, land cultivation methods.

Kirish. Sharq mamlakatlari singari O'rta Osiyo mamlakatlari ham asosan agrar xo'jalikka moslashgan. Bir necha ming yillar davomida Janubiy

Orolbo'yi xalqlari iqtisodiy va qishloq xo'jalik faoliyati jarayonida madaniy landshaft yaratishga erishdilar, to'plangan iqtisodiy tajriba avlodidan

avlodga o'tib bordi [2; B.3]. Ular to'plagan tajribalari asosida qo'shni xalqlar e'tirof etgan mashhur dehqonlarga aylandilar. Qishloq xo'jaligini yuritishda qoraqalpoq dehqonlari, yerni o'zlashtirishda xalq yer ilmini o'rganish usuli bilan birga o'ziga xos bo'lgan dehqonchilikda qo'llaniladigan taqvim, matematik hisoblash usullarini yaxshi o'zlashtirgan bo'lsa, qishloq xo'jaligini yuritish texnikasini, ya'ni mehnat qurollaridan ham mohirona foydalana olgan.

Adabiyotlar tahlili va metodi. XIX asr va XX asr boshlarida qishloq xo'jaligi ekinlari uchun yangi yoki "lalmikor" yerlarni o'zlashtirish dehqonlar uchun katta kuch sarflashni talab qiladigan murakkab davr bo'ldi, chunki asosiy qurol ketmon va shudgor edi [10; B.53]. Bunday masalalar dehqonchilikdagi va qoraqalpoq dehqonlarining ekinzor yerlarini ishlash, sug'orish ishlari juda katta jismoniy mehnatni talab etishi, chunki dehqonchilikda foydalaniladigan texnikaning yaroqsiz ekanligi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan tilga olinadi [9: B.281]. Ayniqsa, tadqiqotchilar M.V.Sazonova [8], T.A.Jdanko [10], S.Kamalov [4], V.Shalekenov[9], I.Jabborovlar [3] ishlarida mehnat qurollarining taqchilligi va ularning turlari haqidagi asosiy ma'lumotlar keltiriladi. R. Balliyeva[2] qoraqalpoq dehqonlarining yerni o'zlashtirishdagi alohida mahorati haqidagi ma'lumotlarni keltirsa, G.Karamanova tadqiqotlarida qishloq xo'jaligi sug'orish sohasidagi masalalar, shuningdek, ularning dehqonchilik va irrigatsiya holati talabga javob bermasligini ko'rsatadi [5]. Tadqiqotchilardan Z.Qurbonova qoraqalpoq bog'dorchiligi va polizchiligini o'rganishi orqali qoraqalpoq dehqonlarining yerni o'zlashtirish usullarini to'liq ochib bergan [6].

Natijalar. Qoraqalpoqlarning dehqonchiligi sun'iy sug'orish, shuningdek, nam yerlardan, daryo deltasidagi orollar va tekisliklardan, qurigan ko'llarning tubidan, shuningdek, ko'plab qo'ltiqlardan foydalanishi bilan ajralib turadi. Sun'iy sug'orishning asosiy suv manbai - Amudaryo bilan bog'liq edi.

Sun'iy sug'orish tizimlaridan foydalanishga asoslangan qishloq xo'jaligi katta qo'l kuchi va tajribani talab etadi. Amudaryodan magistral kanal (o'zan, ariq, jar) burilib, undan ariq, ariqdan ariq chiqarilib dashtga suv keltirildi [6; B.374]. Qoraqalpoqlar dehqonchiligi sun'iy sug'orish, shuningdek, nam yerlardan, daryo deltasidagi orollar

va tekisliklardan, qurigan ko'llarning tubidan, hamda ko'plab qo'ltiqlardan foydalanishi bilan ajralib turadi. Sun'iy sug'orishning asosiy suv manbai bo'lgan Amudaryodan asosiy suv kanallari va o'zanlari - Kegeyli, Quvonch-jarma, Sho'rtonboy, Shumanay, Qiyot-Jarg'on va boshqa irmoqlar vujudga kelgan. Namgar va daryo bo'yidagi dehqonchilikning (daryo suvi to'lib-toshib, ma'lum muddatdan so'ng, daryo suvi qaytgach, namlangan yerlarida dehqonchilik bilan shug'ullanish) qadimiy ko'rinishlari asosida, botqoqli yerlarni meliorativ holatga keltirish, suv toshqinlarini tartibga solish hamda qurib qolgan delta kanallari va ko'llarni tartiblashtirish usullarining ishlab chiqilishi [1; B.223] natijasida qoraqalpoqlarning dehqonchiligida bu borada ham tajribalari ortdi.

Qoraqalpoq dehqonlari yerlarni o'zlashtirishda, avval yerni tekislab, uni loy qo'rg'on ya'ni chel bilan o'rab olib, tuproqni sug'orishga kirishdi. Buning uchun ekin maydoni yoki kulcha ekin maydoni suv bilan to'ldiriladi. Sug'orish vaqtida tuproq tez namlanib to'yinadi va yer qurigandan keyin, ekinzor yerlarning chuqurlari yuvilgan oq tuz bilan qoplanar edi. Keyin ekin maydoni yana suv bilan to'ldiriladi va butun ish jarayonida bir necha marta takrorlanadi. Agar tuproq kuchli sho'rlangan bo'lsa, unda suv bir necha marta yuborilgan va qurigandan so'ng, yer belkurak bilan biroz ag'darilib, bir necha kun davomida shu holatda qoldiriladi. Ekishdan oldin bu ekin maydonlari yana suv bilan to'ldirilgan, keyin haydab yumshatilgan va ekishga tayyorlangan[10; B.53]. Tuproqning sho'rligini aniqlashning boshqa xalq usullari ham bor edi. Buning uchun bir necha joyda chuqur teshiklar qazilgan, bir necha tuproq namunalari olingan, ular idishga solingan va yomg'ir suvi bilan aralashtirilgan. Bunda suv tuproqni to'liq qoplashi kerak. Yaxshilab aralashtiriladi, keyin tuproq cho'kib ketgandan so'ng suvning ta'mi tatib ko'riladi. Agar uning ta'mi o'zgarmagan bo'lsa, demak yer yaxshi. Agar suv sho'r bo'lsa, bu holda yer sho'rlangan bo'ladi. Agar yerdan yomon hid chiqsa, "bunday yerlar ekin yetishtirish uchun yaroqsiz" deb hisoblanadi. Qoraqalpog'iston sharoitida tuproqning sho'rlanishi har doim muhim masala bo'lib kelgan. Yerlarni yuvish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: "Ekinlik uchun mo'ljallangan yerlar yovvoyi o'tlardan tozalanadi, tekislanadi, maxsus maydonlarga bo'linadi, keyin ariqlar tortiladi, kanallar qazilgandan so'ng qazilgan

tuproq ariqlarning chetlari bo‘ylab tepalik qilinadi. Ushbu tartib tugagandan keyin tuproqning tuzlarini yuvishni boshlaydi, buning uchun dala suv bilan to‘ldiriladi va sho‘r eritma drenajlanadi. Tuproqni yuvish har yili amalga oshirilishi kerak. Yerlar yuvilgandan keyin dalalar yana shudgorlanadi. Shudgordan so‘ng yerlar sug‘oriladi, loy, qum va balchiqdan iborat o‘g‘it berishni boshlaydi” [10; B.53]. Shunday ko‘rinishda dehqonlar mehnat qurollarini takomillashtirishi, dehqonchilik bilimi va tajribalari asosida yerlarni o‘zlashtirgan.

Shuningdek, qoraqalpoq dehqonlari tuproq, iqlim va landshaftning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olib mehnat qurollarini takomillashtirib borishga intilgan. Biroq, oddiy mehnat qurollari ham qoraqalpoqlarning barcha dehqonlarida bo‘lmagan. Mehnat vositalarining boy dehqonlar qo‘lida to‘planishi ular uchun arzon xarajatni ta‘minlagan bo‘lsa, kambag‘al va o‘rtahol dehqonlar ishlab chiqarish vositalarining juda yetishmasligi tufayli yerga asosan qo‘l mehnati bilan ishlov berishga va ko‘proq mehnat sarflashga majbur bo‘lganlar [10; B.66]. Shunday holatlarga ko‘ra xalq og‘zaki ijodida quyidagi satrlar uchraydi:

- Quroling soz bo‘lsa,

Mehnating oz bo‘lar [7; B.173].

Qoraqalpoq dehqonlari yerlarni o‘zlashtirish jarayonida mehnat qurollarini takomillashtirish bilan birga, yerga qayta ishlov berish, samarali o‘g‘it (dori) qo‘llash kabi usullarni ham yaxshi o‘zlashtirgan.

Demak, xalqning azaldan asosiy kasblaridan biri bo‘lgan dehqonchilik bilan shug‘ullanganligi, dehqonchilikda asosan yig‘im-terim qurollari bo‘lgan: ketmon, bel, bolta, o‘roq, kurak va yaba kabi mehnat qurollaridan keng foydalanib, ularni takomillashtirib borganini ko‘rishimiz mumkin. Shunday bo‘lsa-da, bu mehnat qurollari qishloq xo‘jalik ishlarida yetishmovchilikni yuzaga keltirgan va ko‘plab dehqonlarning yer unumdorligini oshirish maqsadida qilgan harakatlarini qiyinlashtirgan. Chunki yangi yerlarni o‘zlashtirish, chel, to‘g‘on, kulchalarni barpo etish, undan sug‘orish tarmoqlarini ishlab chiqish uchun juda katta kuch va zaruriy mehnat qurollari kerak edi.

Tadqiqotchi T.A.Jdanko rahbarligidagi tadqiqotlarda mehnat quroli bo‘lgan ketmonning dehqonlar uchun bajaradigan vazifasini shunday ta‘riflaydi: “...Ketmon - yerga ishlov berishda temir uchli, uzun dastali asbob. Ketmon yordamida yangi

va kuzgi yerlarni shudgorlashga tayyorlash, ildizi bilan tikanni kesib, yangi ekin maydonlarini tekislash, yerga ariqlar ochish amalga oshirilgan. Ketmon yordamida ekin maydonlarini sug‘orishda suvni ushlab turish uchun har tomondan kichik marza qilingan. Bundan tashqari, ketmon qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekish va magistrat kanallarining tarmoqlarini tozalash uchun tuproq ishlarida ishlatilgan” [10; B.68] deb ko‘rsatadi.

Tadqiqotchi V.Shalekenov ketmonning qishloq xo‘jaligidagi ahamiyatini “imkonsiz dala ishlari uchun temir o‘tkir tishli va uzun dastali ketmon ishlatilgan” [9; B.287] - deb ko‘rsatadi. T.A.Jdanko tadqiqotlarida qishloq xo‘jaligi ishlarida ko‘p foydalaniladigan yana bir mehnat quroli “bel” haqida ham to‘xtaladi. Amudaryoning quyi oqimida bel dalada va uyda keng qo‘llanilgan. Qoraqalpoq bellari, xorazm o‘zbeklarining bellari singari qishloq xo‘jalik ishlariga juda mos kelishini [10; B.68] keltiradi. Tadqiqotchilardan M.V.Sazonova o‘z asarida ko‘rsatilganidek, Xorazm o‘zbeklariga xos bo‘lgan bellar qoraqalpoq qishloq xo‘jaligida ko‘plab tarqalgan deb u haqida shunday deydi: “Qazish paytida oyoqni qo‘llab-quvvatlash uchun konus shaklidagi uchi o‘tkir ikki tepkili quloqli temirdan yasalgan” [8; B.257]. Keltirilgan bu ta‘rif qoraqalpoq xalqiga xos bo‘lgan bellarda ham uchraydi. I.Jabborov tadqiqotlarida ham Xorazm o‘zbeklariga xos bellar shunday ta‘riflanadi va u Surxondaryo vohasida bir tepkili quloqli bellarning mavjudligini ko‘rsatib beradi [3; B.101].

Mehnat qurollarining yana bir turi “gurek”ni tadqiqotchilar shunday ta‘riflaydilar: “...Shamolda donni tozalab, sovurish uchun maxsus yog‘ochdan yasalgan bel gurekdan foydalanilgan” [10; B.69] - deb ko‘rsatiladi. Informator A.Risbayev xotiralarida: “yog‘ochdan yasalgan bel gurek qishloq xo‘jaligida donni qobiqlaridan tozalash maqsadida foydalanilar edi, vaqt o‘tishi bilan bu belgureklar qishloq xo‘jaligi turmushidan uzoqlashib, qish oylarida qor tozalaydigan asbob bo‘ldi” [ADYo; №1] - deb ko‘rsatadi. Darhaqiqat, hozirgi kunda bu mehnat qurolini ishlab chiqarishda qishloq orasida uchratish qiyin, ko‘rsatilgan bu belgurek o‘rnini hozirda zamonaviy elaklar egalladi. S.K.Kamalov asarlarida, yig‘im-terim vaqtida tishli pichoqli o‘roqlardan foydalanganligini keltirsa [4; B.93], tadqiqotchi T.A.Jdanko o‘roqning ishlatilish sharoitiga ko‘ra ikki turini ko‘rsatadi: o‘roq va keskirt. O‘roq donli mahsulotlarni yig‘ish uchun qoraqalpoqlar

xo'jaligida keng foydalanilgan. Keskirt ekinlarni o'tash uchun ishlatilgan, u o'roqdan kichikroq bo'lganligini [10; B.68] keltirgan. Ko'rsatilgan o'roqning bu ikki turi bugungi kunda qishloq xo'jaligi hayotida o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, qoraqalpoqlarda dehqonchilik mehnat quollarining takomillashuvi, yerni o'zlashtirishdagi xalq tajribalari va bilimlari asosida ekin maydonlarini kengaytirdi, hosildorlikni oshirdi. Shuningdek, yerlarni o'zlashtirish, yerga ishlov berish kabi dehqonchilik amaliyotlarida tajribali usullardan keng foydalanildi. Bu dehqonchilik usullari bugungi kunda ham qishloq xo'jalik ishlarida o'z ahamiyatini yo'qotmasdan qo'llaniladigan usullarning asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Андриянов Б.В. Древние оросительные системы Приаралья (В связи историей возникновения и развития орошаемого земледелия). – М., 1969.
2. Баллыева Р. Каракалпакский этнос и традиционное природопользование: Автореф. дис. ... д-ра ист. наук. – М., 2003.

3. Жаббаров И. Ўзбек халқи этнографияси. Т. «Ўқитувчи», 1994.
 4. Камалов С.К. Каракалпакии в XVIII-XIX веках. Ташкент, 1968.
 5. Караманова Г. Аграрные реформы в Каракалпакстане 30-х годов XX-века: страницы истории // Вестник ККО АН РУз. 2008г. №4.
 6. Курбанова З.И. Садоводческие и бахчеводческие традиции у каракалпаков // Историческая этнология. 2022. Т.7, №3. С. 371-387. <https://doi.org/10.22378/he.22-7-3.371-387>
 7. Каракалпак фольклоры. Көп томлық. Нөкис. 2015. 88-100 т.
 8. Сазонова М.В. К этнографии узбеков южного Хорезма // Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. Т.1.- М.1952.
 9. Шалекенов У. Быт каракалпакского крестьянства Чимбайского района в прошлом и настоящем // Труды ХАЭЭ. Т.III. Под ред. С.П. Толстова. – М., 1958.
 10. Хозяйство каракалпаки в XIX- начале XX-века. Ташкент, 1972.
- Авторнинг дала ёзувлари* (АДЁ)- №1 2024. Чимбой тумани, информатор А.Рысбаев.



Qabul qilindi: 03.04.2025

Chop etildi: 31.05.2025

UDK: 378

**INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK
BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARNING
KASBIY-GNOSTIK TAYYORGARLIGINI
TA’MINLASH**

Bekniyazov Qonisbay Isakovich

F.f.n., dotsent, “Qoraqalpoq tili” kafedrası

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

**ОБЕСПЕЧЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-
ГНОСТИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ
УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА
ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА**

Бекниязов Конысбай Исакович

К.ф.н., доцент, Кафедра каракалпакского языка

Нукусский государственный педагогический институт имени

Ажинияза

**ENSURING THE PROFESSIONAL-GNOSTIC
TRAINING OF FUTURE PRIMARY SCHOOL
TEACHERS BASED ON AN INTEGRATIVE
APPROACH**

Bekniyazov Konisbay Isakovich

Ph.D., Associate Professor

Department of Karakalpak Language

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz



el.pochta:

bekniyazov75@bk.ru

[https://orcid.org/0009-](https://orcid.org/0009-0008-1844-196X)

[0008-1844-196X](https://orcid.org/0009-0008-1844-196X)

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘qituvchilarning kasbiy-gnostik tayyorgarligini ta’minlashda integrativ yondashuvi nazariy asoslari tahlil qilinadi. Kasbiy-gnostik kompetensiya o‘qituvchining bilim olish, tahlil qilish va amaliyotga tatbiq etish qobiliyatini o‘z ichiga olgan muhim pedagogik tushuncha hisoblanadi. Maqolada mazkur kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlari – kasbiy-gnostik tayyorgarlik, o‘qituvchining bilish faoliyati, tahlil, sintez, umumlashtirish, muammoli vaziyatlarni hal etish kabi ko‘nikmalarini shakllantirishni o‘z ichiga oladi. Muammoli ta’lim, reflektiv pedagogika, interfaol metodlar va ta’lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: kasbiy-gnostik, kompetensiya, integrativ yondashuvi, o‘qituvchilar, ta’lim, nazariy tahlil.

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические основы интегративного подхода к обеспечению профессионально-гностической подготовки учителей. Профессионально-гностическая компетентность является важным педагогическим понятием, включающим в себя способность учителя получать знания, анализировать и применять их на практике. В статье рассматриваются основные компоненты данной компетенции - профессионально-гностическая подготовка, познавательная деятельность учителя, анализ, синтез, обобщение, формирование таких навыков, как решение проблемных ситуаций. Рассматриваются возможности проблемного обучения, рефлексивной педагогики, интерактивных методов и использования информационных технологий в образовательном процессе.

Ключевые слова: профессионально-гностический, компетенция, интегративный подход, учителя, образование, теоретический анализ.

Abstract: This article analyzes the theoretical foundations of the integrative approach to ensuring the professional-gnostic training of teachers. Professional-gnostic competence is an important pedagogical concept, including the teacher's ability to acquire knowledge, analyze it, and apply it in practice. The article includes the main components of this competence - professional-gnostic training, the formation of such skills as the teacher's cognitive activity, analysis, synthesis, generalization, and problem-solving. The possibilities of using problem-based learning, reflexive pedagogy, interactive methods, and information technologies in the educational process are considered.

Keywords: professional-gnostic, competence, integrative approach, teachers, education, theoretical analysis.

Kirish. Boshlang'ich ta'lim tizimi bugungi kunda o'zgaruvchan ijtimoiy talablar va zamonaviy innovatsion yondashuvlar asosida rivojlanmoqda. Bu holat bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligiga nisbatan yangi talablarga asoslangan yondashuvni zarur qiladi. Kasbiy-gnostik tayyorgarlik — o'qituvchining bilish faoliyati, tahlil, sintez, umumlashtirish, muammoli vaziyatlarni hal etish kabi ko'nikmalarini shakllantirishni o'z ichiga oladi. Bu tayyorgarlik darajasi, ayniqsa, integrativ yondashuv orqali yuksak samaradorlikka erishadi.

1. Integrativ yondashuvning mohiyati. Integrativ yondashuv — turli fanlararo aloqalar, psixologik, pedagogik va metodik jihatlarning uyg'unlashtirilgan holda o'qitilishidir. U bilish jarayonining yaxlitligini, nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar orasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlaydi. Bu yondashuv bo'lajak pedagoglarni shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy moslashuv va kasbiy mustahkamlikka yo'naltiradi.

2. Kasbiy-gnostik tayyorgarlikning tarkibiy qismlari. Kasbiy-gnostik tayyorgarlik quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi:

Bilish faoliyati malakalari (analitik va reflektiv fikrlash);

Metodik tafakkur (fanlararo bog'liqlikni tushunish va qo'llash);

Axborotni qayta ishlash va saralash ko'nikmalari;

Kreativlik va mustaqil qaror qabul qilish layoqati;

O'z-o'zini rivojlantirish va baholashga tayyorlik.

3. Pedagogik yo'nalishlar. Dars jarayonida integratsiyalashgan o'quv topshiriqlaridan foydalanish;

Faoliyatga yo'naltirilgan va muammoli o'qitish metodlarini qo'llash;

Rivojlantiruvchi ta'lim prinsiplari asosida kognitiv faoliyatni rag'batlantirish;

Metakognitiv ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan treninglar o'tkazish.

4. Psixologik yo'nalishlar.

Talabalarda ichki motivatsiyani shakllantirish;

Mustaqil fikrlash va qaror qabul qilishga rag'batlantirish;

Emotsional-intellektual salohiyatni rivojlantirish;

Refleksiya va o'z-o'zini baholash madaniyatini oshirish.

5. Yakuniy maqsad. Integrativ yondashuv orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisida chuqur bilim, keng tafakkur, mustaqil va mas'uliyatli qaror qabul qilish qobiliyatlari shakllanadi. Bu esa ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida samarali ishlashini, o'quvchilarning individual rivojlanishini ta'minlaydi.

V.K. Yelmanova pedagogning gnostik ko'nikmalarini "faoliyat sharoitida tahlil qilish, kuzatish, taqqoslash, tasniflash, umumlashtirish, ko'nikmalarni boshqa vaziyatlarga o'tkaza olish hamda shu asosda faoliyatga tuzatishlar kiritish qobiliyatlari" deb mazmunli ta'riflagan [1.21].

Adabiyotlar sharhi. Gnostik kompetensiyaning shaxsiy komponenti ta'limga shaxsiy-faoliyatli yondashuv asosida ko'rib chiqiladi. Uning asosiy tamoyillari A.N. Leontyev va B.G. Ananyevning ishlarida aks etgan bo'lib, ularda shaxs faoliyat subyektini sifatida qaraladi, faoliyat va boshqa insonlar bilan muloqot jarayonida shakllanib, ayni paytda shu faoliyat va muloqotning tabiatini ham belgilaydi [2.127].

Ta'limga shaxsiy-faoliyatli yondashuv uning shaxsiy va faoliyatli jihatlari birligi sifatida moddiy-amaliy faoliyatni ijobiy emotsional-motivatsion

muhit yaratadigan muayyan ijtimoiy kontekstda tashkil etishni talab qiladi [3.204].

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning mohiyatini S.L.Rubinshteyn quyidagicha ifodalagan: "*Insonning butun psixologiyasi... shaxs psixologiyasidir, chunki, birinchidan, psixik jarayonlarning har qanday individual xususiyatlari shaxsning umumiy xususiyatlari bilan belgilanadi; ikkinchidan, har qanday psixik funktsiya alohida rivojlanmaydi, balki shaxsning umumiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir; uchinchidan, insonda psixik jarayonlar ongli ravishda boshqariladigan harakat yoki amallarga aylanib, shaxs tomonidan o'zlashtiriladi va hayotiy vazifalarni hal qilishga yo'naltiriladi*" [4.31-46].

Shaxsiy yondashuv rivojlanishining manbalari V.S.Biblarning dialogik madaniyat konsepsiyasida ham mavjud bo'lib, u dialogning inson ongining asosi sifatida umumbashariy ahamiyatini asoslaydi. "Dialogik munosabatlar... inson nutqi va inson hayotining barcha munosabatlari va ko'rinishlarini qamrab oluvchi, umuman, mazmun va ahamiyatga ega bo'lgan hamma narsani qamrab oladigan umumiy hodisadir... Ong paydo bo'lgan joyda dialog ham boshlanadi" [5.413].

Ushbu tadqiqotda shaxsiy-faoliyatli yondashuv g'oyalari asosida, E.V.Bondarevskaya va I.S.Yakimanskaya qarashlariga tayanamiz [9]. Ular ta'lim markazida ta'lim oluvchining o'zi – uning motivlari, maqsadlari, psixologik xususiyatlari turishini ta'kidlaydi. O'qituvchi esa o'quvchining qiziqishlari, bilim va ko'nikmalari darajasidan kelib chiqib, mashg'ulotning o'quv maqsadini belgilaydi hamda ta'lim jarayonini shaxsni rivojlantirishga yo'naltiradi va to'g'rilaydi.

Gnostik kompetensiyaning shaxsiy komponenti talabalarda gnostik kompetensiyani shakllantirish uchun zarur bo'lgan qator sifatlarni o'z ichiga oladi. B.G.Ananyev tahlil qilish, baholash va tuzatish qobiliyatini insonning moslashuvchan xulq-atvorining muhim ko'rsatkichi deb hisoblaydi.

Moslashuvchan xulq-atvor zarur axborotni idrok qilish va shu asosda axloqiy normalar hamda muloqot sheriklarining manfaatlariga muvofiq qarorlar qabul qilish qobiliyatini anglatadi [4.280].

G.I.Xozainov gnostik kompetensiya tarkibiga shaxsning shaxslararo muloqot, pedagogik jarayon ishtirokchilarining xulq-atvorini bilish, tahlil qilish va o'z xulq-atvorini tuzatishga tayyorligini

kiritadi. Bu bo'lajak pedagoglarda ijtimoiy-perseptiv sifatlarning shakllanishini nazarda tutadi [5.].

A.U. Xarash nuqtai nazariga ko'ra, shaxsning ijtimoiy-perseptiv sifatlari kommunikativ jarayonning bir qismi bo'lib, u individual ishtirokchilarning qo'shma faoliyat subyektiga integratsiyasi bilan bog'liqdir. Ijtimoiy persepsiyani odamlarning har qanday shaxslararo munosabatining zarur va yetarli sharti sifatida tahlil qilib, u: "Shaxslararo idrok harakati shunday qilib, individual subyektlarni yagona faoliyat subyektiga — jamoaga birlashtirish harakatiga aylanadi", deb ta'kidlaydi [6].

Shunday qilib, me'yoriy va psixologik-pedagogik adabiyotlar tahlili natijasida, talabalar gnostik kompetensiyasini shakllantirishda ijtimoiy-shaxsiy kompetensiyalarni hisobga olish va ularni maxsus tashkil etish zarurligi ko'rsatildi: shaxsiy jihatlarni tanqidiy baholash, axloqiy normalar va boshqalarning manfaatlariga mos keladigan qarorlarni qabul qilish, ijtimoiy-perseptiv sifatlarni rivojlantirish.

Muhokama. Bugungi kunda ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan ko'plab pedagoglar ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik mahoratning dolzarbligini chuqur anglab yetmoqdalar. Shu sababli ular o'z malakalarini muntazam oshirib borishga, zamonaviy bilimlar va ilg'or tajribalarni o'zlashtirishga, ijodiy yondashuv bilan faoliyat olib borishga intilmoqdalar. Bo'lajak o'qituvchida kasbga qiziqish uyg'otish esa bevosita uning pedagogik faoliyati bilan chambarchas bog'liq [7].

Inson hayot tarzida eng muhim tarkibiy omil hisoblangan muloqot har qanday kasbiy faoliyatning barcha sohalarida mavjud. Biroq ayrim kasb egalari uchun (masalan, boshlang'ich sinf o'qituvchi, shifokor, san'atkor va boshqalar) muloqot oddiy hamroh bo'lib qolmaydi, balki kasbiy faoliyatning ajralmas va asosiy kategoriyasiga aylanadi. Bunday sharoitda muloqot insonlar o'rtasidagi oddiy o'zaro ta'sir shakli emas, balki kasbiy faoliyat muvaffaqiyatining muhim omili sifatida namoyon bo'ladi. Aksariyat hollarda, pedagogik faoliyatda muloqot zarur funksional vosita bo'lib, boshlang'ich sinf o'qituvchi uchun kasbiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi va o'zaro ta'lim-tarbiyaviy ta'sir vositasi sifatida ko'riladi, bunda muloqotning asosiy shartlari, qonuniyatlari hamda qo'shimcha vazifalariga amal qilinishi zarur bo'ladi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, har qanday kasb egasining

insonlar bilan odatiy o‘zaro muloqot jarayoni o‘z-o‘zidan sodir bo‘ladi [8].

Ma‘lum bir maqsadga qaratilgan ta‘lim-tarbiya jarayonida esa muloqot ijtimoiy vazifa tusini oladi, natijada boshlang‘ich sinf o‘qituvchi pedagogik muloqot qonuniyatlarini mukammal bilishi, kommunikativ qobiliyat va kommunikativ madaniyatga ega bo‘lishi talab etiladi. Pedagogik ta‘limda boshlang‘ich sinf o‘qituvchi faoliyatining muhim mikroelementlari nostandart yechimlardan iborat bo‘ladi; garchi ular faoliyatidagi pedagogik vaziyatlar bir qarashda o‘xshash ko‘rinsa-da, boshlang‘ich sinf o‘qituvchining ushbu vaziyatlardagi har bir harakati mutlaqo noyob va o‘ziga xosdir.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchining ijodiy pedagogik faoliyati tahlil qilinganda, u mukammal shakllangan tizimlardan tashkil topganligini ko‘rish mumkin:

boshlang‘ich sinf o‘qituvchining sinfda o‘quvchilar jamoasi bilan ta‘lim-tarbiya maqsadlariga qaratilgan ijodiy tayyorgarligi; o‘quvchilar bilan bevosita o‘zaro hamkorlik asosidagi kasbiy tayyorgarligi.

Pedagogik nuqtayi nazardan boshlang‘ich sinf o‘qituvchining faoliyati bir nechta shaklda namoyon bo‘ladi:

boshlang‘ich sinf o‘qituvchining o‘quvchilarni mukammal o‘rganish jarayonidagi ijodkorligi;

o‘quvchilar bilan o‘zaro hamkorlik tizimidagi ijodkorligi;

o‘quvchilarga bevosita ta‘sir ko‘rsatish jarayonidagi ijodkorligi;

o‘z xatti-harakatlarini boshqarish (muloqotni ongli ravishda muvofiq olib borish)dagi ijodkorligi;

o‘quvchilar bilan o‘zaro munosabatlarni tashkil etishdagi ijodkorligi [10].

Bugungi kunda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari jamiyat, madaniyat va ta‘lim taraqqiyoti sharoitida ta‘lim mazmunini insonparvarlik tamoyillari asosida shakllantirish, doimo o‘qitishning yangi tashkiliy shakllari va innovatsion texnologiyalarini izlab topish va ularni qo‘llash zaruratini sezmoqdalar.

XULOSA. Ta‘lim olish va ta‘lim berish jarayonida an‘anaviy va noan‘anaviy metodlarni taqqoslab, dars jarayonini zamon talablari asosida tashkil etish zarur. Yurtimizda sifatli kadrlar, jumladan, yuqori malakali boshlang‘ich sinf

o‘qituvchilarini tayyorlash doimo ustuvor vazifa bo‘lib kelgan. So‘nggi yillarda esa bu yo‘nalishda milliy istiqloq g‘oyasi tamoyillariga tayangan holda, xalqaro tajribalardan keng foydalanilayotganligi quvonarli holatdir.

Integratsiya jarayonlari haqidagi ilmiy tasavvurlar rivojlanishi natijasida *konvergensiya* (lot. *convergo* – yaqinlashtiraman) tushunchasi jamiyat hayotining turli sohalariga nisbatan dolzarblashtirildi. Tadqiqotchilarning fikricha, ilmiy taraqqiyot manfaati avval tor ixtisoslashuvdan fanlararo o‘zaro aloqalarga, so‘ngra fanlar ustunligiga va nihoyat, fanlarning o‘zaro integratsiyalashuv zaruriyatiga olib kelgan. Ammo bu jarayon oddiy geometric qo‘shilish emas, balki sinergik ta‘sir va o‘zaro integratsiyalashuvni anglatadi [11]. Ta‘lim tizimida konvergent strategiya an‘anaviy o‘qitish modeliga nisbatan ijtimoiy-madaniy ehtiyojlardan kelib chiqqan holda real strategik muqobillarni izlash zaruratidan kelib chiqdi.

Ta‘lim tizimida integratsiya va differensiasiyani mavjudligi obyektiv qonuniyat sifatida *integrativ-differensiasiyalashgan yondashuv* tamoyillarida o‘z ifodasini topdiki, u istalgan ta‘lim tizimining barcha tarkibiy qismlarining birligi va o‘zaro bog‘liqligini asoslaydi. Asosiy muammo ta‘lim tizimida integratsiya va differensiasiya jarayonlari o‘rtasida dinamik muvozanatni ta‘minlashdan iborat. Bu vazifani hal etishda konvergent strategiya nihoyatda samarali ko‘rinadi, chunki konvergent ta‘limning asosiy talabi — ta‘lim jarayonining barcha tashkiliy va mazmuniy komponentlarini ta‘lim sifatining eng yuqori darajasiga erishish maqsadida uyg‘unlashtirishdan iboratdir. Oliy ta‘lim tizimida konvergent strategiya ilgari mavjud bo‘lgan “*fundamental-amaliy*”, “*fan-texnologiya-amaliyot*” uzviy hamkorlik modellaridan o‘tib, ilmiy va texnologik yo‘nalishlarni birlashtirish hamda ularning o‘zaro o‘tishini ta‘minlash imkoniyatini beradi.

Shu bilan birga, yana bir fikrni ta‘kidlash joizki, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, professor-o‘qituvchilar va pedagogik xodimlarning dunyoqarashi, shaxsiy mas‘uliyati va kasbiga bo‘lgan munosabati tubdan o‘zgaras ekan, oliy ta‘lim tizimidagi islohotlar samaradorligiga erishish qiyin bo‘ladi. Chunki bunday keng ko‘lamdagi islohotlarni amalga oshirish uchun pedagogik kadrlar, ilmiy jamoalar va oliy o‘quv yurtlari

rahbariyati yangi talablar asosida faoliyat yuritishi lozim.

Shu sababli, qaror bilan boshlang'ich sinf o'qituvchilari va professor-o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, pedagogik xodimlarning malakasini takomillashtirish, ularni xorijiy hamkor oliy ta'lim muassasalarida malaka oshirish va qayta tayyorlash, shuningdek, respublika oliy ta'lim muassasalari huzurida tayyorlov va malaka oshirish kurslarida ishtirok etishini ta'minlash bo'yicha aniq choralar belgilangan. Albatta, ushbu qaror asosida oliy ta'lim tizimida o'rta va uzoq muddatli prinsipial o'zgarishlar amalga oshiriladi. Bu jarayonlarning o'z vaqtida va samarali bajarilishi esa har birimizdan qat'iy tartib-intizom va shaxsiy mas'uliyatni talab qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. *Елманова В. К.* Формирование гностических умений у будущих педагогов: автореф. дис. ... канд. пед. наук. Л., 1973. - 21с.
2. *Леонтьев, А. Н.* Деятельность, сознание, личность. - М.: Политиздат, 1977.-703.
3. *Шипилина, Л. А.* Методология и методы психолого-педагогических исследований. - Омск: Полиграфический центр КАН, 2010.-204 с.
4. *Ананьев, Б. Г.* Избранные психологические труды / Б. Г. Ананьев. - Санкт-Петербург: Изд-во С.-Петерб. ун-та, 2007. - 280 с.
5. *Hmelo-Silver, C. E.* (2004). Problem-based learning: What and how do students learn? *Educational Psychology Review*, 16(3), 235-266.
6. *Prince, M.* (2004). Does active learning work? A review of the research. *Journal of Engineering Education*, 93(3), 223-231.
7. *Schön, D. A.* (1983). The reflective practitioner: How professionals think in action. Basic Books.
8. *Zeichner, K.* (1994). Research on teacher thinking and different views of reflective practice in teaching and teacher education. *Teachers College Record*, 105(4), 727-759.
9. *Utebaev T., Sarsenbaeva Z.* Sprachliche analyse von sprichworten. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. Vol. 1 Issue 1.5 Pedagogical sciences [Электронный ресурс].
10. *Islomovich I. T.* et al. Perspectives of employing world experience in providing academic and financial independence to higher education //Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 232-235.
11. <https://science-education.ru/ru/article/view?id=14269> (дата обращения: 28.03.2025).



XORAZM KULOLCHILIK LEKSIKASI TAHLILI

*Atabayeva Mehriniso Ruzmat qizi,
tayanch doktorant, Urganch davlat universiteti “O‘zbek
tilshunosligi” kafedrasi o‘qituvchisi*

**АНАЛИЗ ХОРЕЗМСКОГО ЛЕКСИКОНА ПО
КЕРАМИЧЕСКОМУ ДЕЛУ**

*Атабаева Мехринисо Рузमत кизи,
базовый докторант, преподаватель кафедры узбекского
языкознания Ургенчского государственного университета*

ANALYSIS OF KHOREZM POTTERY LEXICON

*Atabaeva Mehriniso Ruzmat qizi,
principal doctoral student, teacher of the Department of Uzbek
Linguistics, Urgench State University*



<https://orcid.org/0000-0001-6694-6307>

atabayevanisa@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalq amaliy san'at turlaridan hisoblanmish kulolchilikning jamiyatimiz taraqqiyotida tutgan o'rni va ahamiyati, kulolchilik leksikasi bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar, Xorazm kulolchilik maktablari hamda kulolchilik leksikasining ayrim xususiyatlari lingvistik jihatdan tahlil ostiga olingan.

Abstract. This article analyzes the role and importance of pottery, a type of folk applied art, in the development of our society, research conducted on the vocabulary of pottery, the Khorezm pottery schools, and some features of the vocabulary of pottery.

Аннотация. В данной статье анализируется роль и значение гончарного дела, вида народного прикладного искусства, в развитии нашего общества, исследования, проведенные по лексике гончарного дела, хорезмийские гончарные школы, а также некоторые особенности лексики гончарного дела.

Kalit so'zlar: kulolchilikning o'rganilishi, kulolchilik leksikasi, kulolchilik maktablari, kulolchilikning leksik xususiyatlari.

Key words: the study of pottery, pottery vocabulary, pottery schools, and lexical characteristics of pottery.

Ключевые слова: изучение гончарного дела, гончарной терминологии, гончарных школ и лексических характеристик гончарного дела.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Xorazm O'rta Osiyoning eng qadimiy madaniy markazlaridan biri hisoblanib, u o'zining boy tarixi, ajoyib arxeologik yodgorliklari, etnografik materiallari jihatidan behisobdir. Xorazm madaniyatining tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va geografik o'rni Xorazm xalq badiiy madaniyatining o'ziga xos tomonlarini tashkil etadi. [9.3.] Kulolchilik sohasi madaniyatimiz va tarixni tutashtirgan nuqta vazifasini o'tab bera oladi.

Uning leksik xususiyatlarini o'rganish va tahlil qilish doimo muhim vazifadir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / MATERIALS AND METHODS). Xorazm kulolchilik tarixini yoritishda S.P.Tolstov, N.N.Vakturskaya, M.G.Vorobyova, A.M.Itina, E.S.Nerazik va boshqa olimlarning ishlari muhim manba vazifasini o'taydi. XIX-XX asr Xorazm badiiy kulolchiligi to'g'risida L.I.Rempel,

G.A.Pugachenkova, D.A.Faxretdinovlarning qator asarlarida qisqacha aytib o'tiladi.

M.K.Rahimovning "Художественная керамика Узбекистана" nomli asarida Xorazm kulolchilik san'atining bezak turlar jadval ko'rinishida yoritiladi. Biroq asarda hududning o'ziga xos xususiyatlari yoritilmaydi. V.V.Yekimova, I.M.Jabborovlarning maqolalarida ham umumiy ma'lumotlar berib o'tilgan.

Bundan tashqari san'atshunos olimlar N.S.Sicheva, M.X.Olimova, O.Sultonov, Sh.Shoyoqubov, O.A.Xo'janiozovalar tomonidan Xorazm an'anaviy kulolchiligi to'g'risida dissertatsiya va turli maqolalar bilan o'zlarining ulkan hissalarini qo'shib kelishgan.

Ko'rinib turganidek, mazkur tadqiqotlarning asosiy yo'nalishi tarix va san'at sohasiga yo'naltirilgan. H.Ne'matov, R.Rasulov, R.Safarova, G.Ne'matova, Sh.Iskandarovalar tomonidan qator ilmiy izlanishlar soha terminologiyasi tadqiqini sistem ko'rinishga bura oldi.

Shevalar kasb-hunar leksikasi ustida dastlabki tadqiqot ishlari olib borgan olim S.Ibrohimovning "Farg'ona shevalari kasb-hunar leksikasi" monografiyasida turli sohalar leksikasi, jumladan, kulolchilik va terminologiyaning nazariy masalalari o'rganilganligi alohida ahamiyat kasb etadi. Monografiya 1-jildida kulollar, tandirchilar, shuvoqchilar leksikasi haqida ma'lumotlar berilgan. Mazkur monografiya lingvistik jihatdan kulolchilik leksikasi tahliliga bag'ishlangan yirik va yagona tadqiqot ishi hisoblanadi.

Mavzuni yoritishda tavsifiy, tarixiy-qiyosiy hamda tarixiy-etimologik metod usullaridan foydalanishni maqsadga muvofiq deb hisobladik.

MUHOQAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Bugungi davr kulolchiligi tayyorlanish usuli, badiiy bezak va shakllariga ko'ra Farg'ona (Rishton, G'urumsaroy), Buxoro-Samarqand (Samarqand, Urgut, G'ijduvon, Uba), Xorazm (Xiva, Madir, Kattabog'), Toshkent kabi kulolchilik maktablari faoliyat yuritmoqda. Barcha maktablar ijodiy tamoyillari, o'zining rivojlanishi, markazlari va ustalari, o'ziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi.

Rishton kulolchilik maktabi ustalari tomonidan ishkorli sir tayyorlash usuli yo'lga qo'yilgan. Ular yaratgan buyumlar, laganlar, kosa, don mahsulotlari uchun xum shakl jihatidan, bezak jihatdan ham rang-barangdir. G'urumsaroy

kulolchilik maktab vakili usta M.Turopov buyum tayyorlash jarayonida faqat an'anaviy usuldan foydalangan, bu an'anani shogirdi V.Buvayev va boshqalar davom ettirmoqda. Farg'ona kulolchiligining o'ziga xos buyumlari sifatida lagan (charx tovoq, miyona tovoq), kosa (dukki kosa, kosa duobi, miyona kosa, torkash, naqshin kosa, shokosa), xurma, qo'shquloq, ko'zalar hisoblanadi.

Buxoro-Samarqand kulolchilik maktabi o'zining qo'rg'oshinli sir va jigarrang, sarg'ish-yashil bo'yoqlar bilan ajralib turadi. "Afrosiyob sopoli" an'alariga asosan handasiy naqshlar, hayvonlar tasvirlar (dumi burgut, murg'i safid (oqqush), boy qush, guli tovus)ga qaraganda o'simliksimon naqshlar (bodongul, dastagul, parra gul, tovus pati, madoxil, segul, tup etti, se barg, chorbargi kungura, chorbargi mavj)dan foydalaniladi. Laganlar (Samarqanda – tovoqi langar, G'ijduvonda – naqshin tovoq, Shaxrisabz – langari tovoq, to'y tovoq, tovoqi oshxo'ri), xushpullak va boshqa shu kabi buyumlari mazkur maktabning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. [4.]

Xorazm badiiy an'anaviy kulolchiligi xususiyatlari va shakllariga ko'ra 3 turga bo'linadi:

1. Past bo'yli yotiq shaklli kulolchilik buyumlari. Bunga *chonoq, chuqur chonoq*, bodiyalarning barcha turlari – *koshin bodiya, katta bodiya, chuqur bodiya, tog'ora* va boshqalar kiradi.

2. Tikka shakldagi katta hajmli idishlar. Salobatli *xumlar, kupi, digir, katta ko'zalar, tandirlar* shu guruhga mansub.

3. Tikka shakldagi kichik hajmli buyumlar. Xususan, har xil *ko'zachalar, guldon, xumcha, cho'girma qolip (sarri), ibrik, chorquloq, beshiktuvak, tuzdon* va boshqa kulolchilik buyumlari uchinchi turga misoldir.

O'z navbatida ushbu buyumlar vazifalariga ko'ra:

1. Oshxona idish-tovoqlari.

2. Uy-ro'zg'or, xo'jalik buyumlari kabi turlarga ajratish mumkin.

Oshxona idish-tovoqlariga turli xil *bodiyalar, chonoqlar, tuzdon, qopshirma* (qopqoqli va ikkita quloqli xumcha) va boshqalar kiradi. Uy-ro'zg'or, xo'jalik buyumlariga esa *xumlar, turli ko'zalar, digir, ibrik* (suv idishlari), *guldon, doshchiroq, beshiktuvak, kupi, tandir* kabilar misol bo'la oladi.

Xorazm badiiy kulolchiligida an'anaviy naqshlardan *to'g'ri, siniq, hoshiya, ilon izi* chiziqlar, *rayhon gul, xushro'y gul, yaproq gul, to'rt yaproq*

hamda *taroq gul, bigiz naqsh, miltiq, pichoq, taroq, dutor, baliq, ilonboshi, qarg‘atish qarg‘atumshuq* kabi geometrik va o‘simliksimon predmet, hayvonot olamiga xos naqshlar asosiy o‘rinni egallaydi. Uslubiy jihatdan chizma, bosma va qalamiy (mo‘yqalam), an’anaviy o‘yma uslublaridan keng foydalaniladi. Burama naqsh, ilon izi naqshi, g‘isht naqsh, doira va tugmacha naqsh, to‘lqinsimon o‘yma naqshlar an’anaviy o‘yma uslubining asosiy naqsh turlari hisoblanadi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).

Asosiy foydalaniladigan kulolchilik maktablarining leksikalari bir-biridan yetarlicha farq qiladi. Yuqorida keltirib o‘tilgan Xorazm kulolchiligi buyumlarining nomlari bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Shulardan *bodiya, chonoq, qopshirma* (qopqoqli va ikkita quloqli xumcha) *digir, ibrik* (suv idishlari), *doshchiroq, beshiktuvak, kupi, cho‘girma qolip (sarri)* kabi leksemalar, ayniqsa, bizning e‘tiborimizni tortdi. **Bodiya** so‘zi lug‘atlarda tagi baland, qirg‘og‘i tik, katta sopol idish (lagan) tarzida izohlangan. [9.: 514.] Faqatgina Xorazm bodiyalariga xos shakl – qalin va dumaloq taglikdan iborat, katta chuqur tovoqlar O‘zbekistonning boshqa birorta hudud kulolchiligida uchramasligi bilan farqlanadi. [4.: 76.] Ushbu so‘z ayrim lug‘atlarda sahro, biyobon, cho‘l ma‘nosida ifodalangan, *bodiye* so‘zi esa fors tilida piyola, jom ma‘nosini anglatadi. Shuning uchundir olimlar O.Xo‘janiyozova o‘z dissertatsiyasida “bizningcha, bodiya o‘rniga, bodiye yozilsa, maqsadga muvofiq bo‘lur edi” deya taklif bildirgan. Biz ushbu fikrga qarshi chiqmaymiz, biroq so‘z uzoq davrlardan buyon bodiya tarzida qo‘llanib kelingan va shu shaklni saqlanib qolishi tarafdorimiz.

Ayrim shevalarida *diyir* shaklida ham qo‘llanilgan **digir** – suv chiqarish qurilmasi bo‘lgan chig‘irlarga suvni bir joydan ikkinchi joyga uzatish maqsadida ishlatilgan. Fors tilidagi aylanuvchi, ishlab turmoq *doyer* so‘ziga yaqin hisoblanadi. Digir shakli ko‘zalarga yaqin bo‘lib, baland bo‘yli dastasiz va chig‘irga bog‘lash vazifasini bajargan kichkina kapdan iborat bo‘lgan.

Aholi uchun qatiqni chayib, yog‘ olish vazifasini **kupilar** bajargan. *Gupi, guppi* variantlari sheva vakillari tilida faol qo‘llanilib kelinmoqda.

Bugungi kunda ushbu leksemalarning ayrimlari davr o‘tishi bilan iste‘moldan chiqib boshlagan. Shakl xususiyatiga ko‘ra xamir qorishga mo‘ljallangan *chonoq* (sopol tog‘ora)lar XX asrning

50-60-yillarigacha uy-ro‘zg‘or buyumi vazifasini o‘tab kelgan. *Sarri* (cho‘girma qolip) ham XX asrning o‘rtalarigacha keng qo‘llanilgan. XX asrning 70-yillarida sopol qolip o‘rnini yog‘och qoliplar egallagan.

Sopol qopshirmalar qadimdan mahalliy xalq uchun muzlatkich vazifasini o‘tab kelgan. Ichki va tashqi tomoni sirlanganligi bois oziq-ovqat, go‘sht, yog‘ mahsulotlari yaxshi saqlangan.

Shunga ko‘ra Xorazm kulolchilik buyumlari leksikasini 2 guruhga ajratish mumkin:

1. Bugungi kunda iste‘molda mavjud bo‘lgan Xorazm kulolchilik buyumlari leksikasi.

2. Iste‘moldan chiqqan Xorazm kulolchilik buyumlari leksikasi.

Birinchi guruhga yuqorida izohlaganimizdek, *chonoq, digir, sarri, doshchiroq, kupi, ibrik* kabi leksikalarni kiritsak, ikkinchi guruhga *bodiya, beshiktuvak, qopshirma* singari leksikalar misol bo‘la oladi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).

Har bir kulolchilik maktabi o‘zining foydalanayotgan naqsh uslublari, yasayotgan buyumlarining nomlari, ularning leksik xususiyatlari bilan bir-birida farq qiladi. Xorazm kulolchilik maktabi ham o‘ziga xos noodatiy maktab yarata olgan. Ularda mavjud bo‘lgan va faol qo‘llanilayotgan leksikalar lingvistik tahlilga muhtojdir. Kulolchilik jamiyatimiz, xalqimiz ma‘naviyati, milliyligining ajralmas bo‘lagi. Uni o‘rganish, tadqiq qilish, leksikasining o‘ziga xos xususiyatlarini saqlab qolgan holda keyingi avlodga yetkazish barcha olimlar oldida turgan muhim masalalardan biridir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Агзамова Г. Ўрта Осиё хонликлари тарихи: манбаларга оид чизгилар// Тарихий манбашунослик муаммолари. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент, 2008.

2. Агзамова Г.А. XVIII асрнинг биринчи чорагида Бухоро хонлиги: элчи Флорио Беневени талқинида // Ўрта Осиёнинг қадимги ва ўрта аср шаҳар маданияти аънаналари. Ўзбекистон Миллий университети археология

кафедрасининг 70 йиллигига бағишланган илмий анжуманга йўлланган маърузалар тўплами.

3. Агзамова Г.А. Бухара – Амуль - Ургенч: к истории караванной дороги//Туркменская земля – колыбель древних культур и цивилизаций. Материалы международной научной конференции. Ашхабад, 1-3 октября 2008 г.

4. Алиева С.Ш. 1970-90 йилларда Ўзбекистон халқ кулолчилиги (анъаналарининг сақланиш ва ривожланиш муаммолари) // номзодлик диссертацияси. Т.1996. 141 б.

5. Дмитриева Н.А., Акимова Л.И. Античное искусство. – М.:Детская литература, 1988.

6. Masharipov Jaloladdin. Kulolchilikda an'ana va urf-odatlar. Guliston 2017.

7. Пещерова Е.М. Гончарное производство Средней Азии. –М-Л., 1989.

8. S.Ibrohimov Farg'ona shevalarining kasbhunar leksikasi. II-III. – Toshkent: Fan, 1959.

9. Хўжаниёзова О.А. XIX-XX аср Хоразм халқ бадийи кандакорлиги ва кулолчилиги // номзодлик диссертацияси. Т.1995. 138 б.

10. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. J. I. A–D / Mas'ul muharrirlar A. Madvaliyev, D. Xudayberganova. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 964-bet.



“AJOIB AL-MAQDUR FI TARIXI TAYMUR” MANBASINING TARIXIY AHAMIYATI

Begimqulova Laylo Mashrabovna
Farg‘ona Davlat Universiteti Tarix fakulteti
O‘zbekiston tarix kafedراسi dotsenti

Ma‘murova Sarviniso Kamoliddinovna
Farg‘ona Davlat Universiteti Tarix fakulteti
Tarix yo‘nalishi 23- 71 guruh talabasi

ИСТОРИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ИСТОЧНИКА «АДЖАЙБ АЛЬ-МАКДУР ФИ ИСТОРИЯ ТАЙМУРА»

Бегимкулова Лайло Маширабовна
Исторический факультет Ферганского
государственного университета

Доцент кафедры истории Узбекистана
Мамурова Сарвинисо Камолитдиновна
Исторический факультет Ферганского
государственного университета

История специальность студент 23-71 группы

HISTORICAL SIGNIFICANCE OF THE SOURCE "AJAIB AL-MAQDUR FI HISTORY OF TAYMUR"

Begimqulova Laylo Mashrabovna
Faculty of History, Fergana State University
Associate Professor, Department of History of Uzbekistan
Mamurova Sarviniso Kamoliddinovna
Faculty of History, Fergana State University
Student of History, Group 23-71

Annotatsiya: Ushbu maqola Ibn Arabshohning "Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur" asarining tarixiy manba sifatidagi o‘rni va ahamiyatini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Asarda XIV-XV asrlar davomida Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq mintaqalarida yuz bergan muhim voqealar, xususan Amir Temurning shaxsiyati, uning harbiy yurishlari va siyosiy faoliyati haqida qimmatli

ma‘lumotlar keltirilgan. Muallif, o‘z davrining bevosita guvohi sifatida, voqealarni o‘ziga xos tarixiy yondashuv bilan yoritgan. Mazkur maqolada asarning tarixiy ishonchliligi, muallifning qarashlari va uslubiy xususiyatlari tahlil qilinib, uning Temuriylar davri tarixini o‘rganishdagi o‘rni va ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, ushbu asarning boshqa tarixiy manbalar bilan taqqosiy tahlili orqali uning tarixiy jarayonlarni aks ettirishdagi ahamiyati ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, Ibn Arabshoh, V.V.Bartold, A.Yu.Yakubovskiy, I.P.Petrushevskiy, M. Ivanin, Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Damashq, Samarqand.

Аннотация: Статья посвящена анализу роли и значения сочинения Ибн Арабшаха «Аджаиб альмакдур фи тарихи Теймур» как исторического источника. В труде даны ценные сведения о важных событиях, происходивших в Средней Азии и на Ближнем Востоке в XIV-XV вв., в частности, о личности Амира Темура, его военных походах и политической деятельности. Автор, как



e-mail:

begimqulova@internet.ru



sarvinisomamurova@gmail.com

[com](mailto:sarvinisomamurova@gmail.com)

непосредственный свидетель своего времени, освещал события с уникальным историческим подходом. В статье анализируются историческая достоверность произведения, взгляды автора, методологические особенности, а также освещаются его роль и значение в изучении истории эпохи Тимуридов. Также посредством сравнительного анализа данного произведения с другими историческими источниками демонстрируется его важность в отражении исторических процессов.

Ключевые слова: Амир Тему́р, Ибн Арабшах, В.В. Бартольд, А.Ю. Якубовский, И.П. Петрушевский, М. Иванин, Низомиддин Ша́ми, Шарафиддин Али Язди, Дамаск, Самарканд.

Annotation: This article is devoted to the analysis of the role and significance of Ibn Arabshah's work "Ajoib al-maqdur fi tarixi Taimur" as a historical source. The work provides valuable information about the important events that took place in the regions of Central Asia and the Middle East during the 14th-15th centuries, in particular, about the personality of Amir Temur, his military campaigns and political activities. The author, as a direct witness of his time, covered the events with a unique historical approach. This article analyzes the historical reliability of the work, the author's views and methodological features, and highlights its role and significance in the study of the history of the Timurid era. Also, through a comparative analysis of this work with other historical sources, its significance in reflecting historical processes is shown.

Key words: Amir Temur, Ibn Arabshah, V.V. Bartold, A.Yu. Yakubovsky, I.P. Petrushevsky, M. Ivanin, Nizomiddin Shami, Sharafiddin Ali Yazdi, Damascus, Samarkand.

KIRISH. Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq mintaqalari tarixining XIV-XV asrlari eng muhim tarixiy davrlaridan biri hisoblanadi. Bu davrda Amir Temur (1336-1405) Temuriylar davlatiga asos soldi va u Markaziy Osiyodan Hindistongacha, Kavkazdan Kichik Osiyogacha bo'lgan hududlarda o'z hukmronligini o'rnatdi. Markaziy Osiyo tarixida o'chmas iz qoldirgan sohibqiron Amir Temur hayoti va harbiy siyosiy faoliyati haqida ko'plab tarixiy asarlar yozilgan. Shunday muhim manbalardan biri tarixnavis Ahmad ibn Muhammad ibn Arabshoh (1389-1450) qalamiga mansub "Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur" ya'ni ("Temur tarixida taqdirajoyibotlari") asaridir. Ibn Arabshohning ushbu asari Amir Temur haqidagi tanqidiy yo'nalishdagi tarixiy manbalarning eng muhimi va ahamiyatlisi hisoblanadi. Asarning o'ziga xos jihati shundaki, muallif Amir Temurga nisbatan salbiy munosabatda bo'lib, uni asarida shafqatsiz, zolim va vayronkor hukmdor sifatida tasvirlaydi. Shuningdek, asar juda ko'p faktik ma'lumotlarga boy bo'lib, Amir Temur davri tarixini o'rganishda muhim manbalardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ibn Arabshohning "Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur" asari Amir Temur davri tarixini o'rganishda muhim manbalardan biri. Chunki asarda keltirilgan ma'lumotlarning katta qismi ushbu davrning boshqa manbalarida ham o'z tasdig'ini topgan. Misol uchun Amir Temurning harbiy yurishlari, janglar tavsifi, siyosiy

qarorlari, diplomatik munosabatlari haqidagi ma'lumotlarning ko'p qismi haqiqatga to'g'ri keladi. Shu bilan birga, asarda bir necha noaniqliklar, mubolag'alar va subyektiv talqinlar ham ishlatilgan. Bu esa avvalo, Ibn Arabshohning Amir Temurga nisbatan salbiy munosabati bilan bog'liq. Muallif ko'p hollarda sohibqironning salbiy xatti-harakatlarini bo'rttirib ko'rsatadi va uning qilgan ishlarini ko'p hollarda salbiy tomonlariga urg'u beradi. Misol uchun u Amir Temurning Damashq va boshqa shaharlariga harbiy yurishlarini, aholini qirg'in qilishini juda dahshatli tasvirlaydi, ammo bu tasvirlar ko'p hollarda mubolag'ali ko'rinadi. Ibn Arabshoh asarida xronologik xatoliklar ham uchraydi. Ba'zi voqealarning sanasi noto'g'ri ko'rsatilgan yoki voqealar ketma-ketligida chalkashliklar mavjud. Bu esa ehtimol, asarning sohibqiron vafotidan 30 yil o'tgach yozilganligi va muallif ba'zi ma'lumotlarni xotirasiga tayanib yozgani bilan bog'liq bo'lishi ehtimoldan holi emas. Asarning manba sifatidagi qimmatli shundaki, unda boshqa manbalarda uchramaydigan ko'plab ma'lumotlar mavjud. Xususan, Ibn Arabshoh Amir Temur saroyidagi hayot, uning kundalik turmushi, shaxsiy fazilatlar va kamchiliklari, saroy a'yonlari va sarkardalari davlatning ma'muriy tuzilishi, harbiy tashkili, soliq tizimi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. "Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur" asari ko'p vaqtlar mobaynida ko'plab sharqshunos olimlar va tarixchilar diqqatini o'ziga jalb qilgan. Asar avval

qo'lyozma shaklida, keyinchalik matbaa usulida ko'p nusxalarda tarqalgan. Asarning ilk ilmiy nashri XVII asrda Leyden shahrida arab tilida nashr etilgan. Keyingi davrlarda esa asar ko'plab tillarga tarjima qilingan. XVIII asrga kelib asar fransuz tiliga S.Petis de la Crua tomonidan, XIX asrda esa nemis tiliga G.Veil tomonidan va Nazmizoda tomonidan turk tillariga tarjima qilingan. XX asrning boshiga kelib asar rus tiliga ham tarjima qilindi. X.D.Frenn asrni Ruscha tarjimasini amalga oshirdi. O'zbek tilidagi tarjimasi esa 1990-yillarda Ubaydulla. Uvatov tomonidan amalga oshirildi. Asar ko'plab sharqshunos olimlar va tarixchilar tomonidan o'rganilganva tahlil qilingan. Rossiyaning manbashunos olimlari V.V.Bartold, A.Yu.Yakubovskiy, I.P.Petrushevskiy kabi olimlar asarni chuqur tahlil qilganlar va ilmiy izlanishlar olib borishgan. O'zbekistonda esa B.Ahmedov, A.Ahmedov, T.Fayziev, O. Bo'riyev, B. Usmonov, Sh. O'ljayeva kabi olimlar va olimalar asarni o'rganishgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mashhur arab tarixchisi Ibn Arabshohning to'liq ismi Shahobuddin Ahmad ibn Muhammad ibn Abdulloh ibn Ibrohim bo'lib, u 791 xijriy yili zu-l-qa'da oyining o'rtasida milodiy 1389-yilning 5-noyabrida Damashq hozirgi Suriya shahrida tavallud topgan. Ibn Arabshoh asli damashqlik bo'lganligi uchun unga ad Damashqiy, deb nisbat berigan, ammo 1411-1421-yillar oralig'ida tarixchi usmoniy turklar huzurida ya'ni Kichik Osiyoda hududida yashaganligi uchun ar-Rumiy, hamda yoshlig yillaridan vatanidan ketib, ko'p muddat xorijiy yurtlarda yashagani uchun unga al-Ajamiy deb ham nisbat berilgan va umrining ko'p qismini sayohatlarda o'tkazganligi uchun Ibn Arabshoh laqabini olganligi manbalarda qayd qilinadi. Ibn Arabshohning hayoti bevosita Amir Temur faoliyati bilan bog'liq. 1400-1401-yillarda Amir Temurning Damashqqa tomon yurushlari davomida, Ibn Arabshoh oilasi bilan birga Samarqandga asir sifatida olib ketilgan. O'sha vaqtlarda u 11 yoshda edi Tarixchi Samarqandda 10 yildan ortiq vaqt davomida yashagan va u yerda yangi bilimlarini o'zlashtirgan. Turkiy va forsiy tillarni o'rgangan. 1409-yilda, Amir Temur vafotidan keyin, Ibn Arabshoh Samarqanddan ketib, Xorazm, Dashti Qipchoq orqali Qrimga, undan Turkiyaga o'tgan. Bundan ko'rinib turibdiki u

Samarqandda bo'lgan yillarida asir bo'lmagan hattoki u yerda bilim olgan. U Turkiyada bir qancha yillar yashagan, keyinchalik Misr va Suriyaga qaytgan. Tarixchi umrining oxirgi yillarini Qohira va Damashqda o'tkazgan va 1450-yilda Qohirada vafot etgan. Ibn Arabshoh bir qancha asarlar muallifi bo'lib, ularning orasida "Ajoyib al-ma'qdur fi tarixi Taymur" asari eng mashhuri hisoblanadi. Bu asar 1436-1437-yillarda, ya'ni Amir Temur vafotidan so'ng yozilgan. Ushbu asar arab tilida yozgan bo'lib, unda tarixchi o'zining Amir Temurga bo'lgan salbiy munosabatini ochiq ifoda etgan. Shu bilan birga, Ibn Arabshoh ba'zi o'rinlarda Amir Temurning ijobiy fazilatlarini ham e'tirof etadi. Misol uchun u Amir Temurning jasorati, aql-zakovati, tashkilotchiligi, harbiy mahorati va qat'iyatini tan oladi. Ayniqsa, Amir Temurning ilm-fan va san'at vakillariga bo'lgan hurmatini, saroydagi ilmiy muhitni alohida ta'kidlaydi va tavsiflaydi. Ushbu asar Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma", Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" kabi asarlardan farq qiladi. Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiy Amir Temurni ulug'lagan, uni ideal hukmdor sifatida tasvirlagan bo'lsa, Ibn Arabshoh ko'proq uning salbiy jihatlariga e'tibor qaratgan. Ibn Arabshoh asaridan Amir Temurni o'rganishda tanqidiy yondashish manbasi sifatida foydalanish mumkin. Saroy tarixchilari Amir Temurni faqat ijobiy jihatdan ko'rsatishga intilgan bo'lsalar, Ibn Arabshoh uning turli jihatlarini ochib berishga harakat qilgan. Asarda muallif o'z ko'rganlari, eshitganlari va boshqa manbalardan olgan ma'lumotlarni sintez qilgan. U tilning badiiy imkoniyatlaridan unumli foydalangan, she'riy parchalar, hikmatli so'zlar, maqollar, rivoyatlar keltirgan. Bu asar nafaqat tarixiy manba, balki badiiy jihatdan ham qimmatli asar hisoblanadi. Ibn Arabshoh asarda Amir Temur siymosi quydagicha tasvirlaydi Amir Temur – Tarag'ay o'g'li bo'lib, bobosi Abag'aydir. U Xo'ja Ilg'or nomli kishilar yashaydigan joyda tug'ilgan. Uning tug'ilgan sanasi haqida turli manbalarda xilma-xil ma'lumotlar mavjud. Sharafuddin Ali Yazdiy "Zafarnoma" asarida: "Sha'bon oyining yigirma beshida, 1336-yil 8-aprel kuni Kesh viloyatida tavallud topgan", – deb yozadi. Ibn Arabshoh "Ajoyib al-ma'qdur" asarida Temur tug'ilgan kecha osmonda temir qalpoqchaga o'xshash yorqin bir narsa paydo bo'lib, u kenglikka tarqalib, butun yer yuzini qoplagani haqida rivoyat qiladi. Yana bir rivoyatda aytilishicha, Temur

tugʻilganida uning qoʻllari qon bilan boʻyalgan boʻlgan. Folbinlar bu holatni turlicha sharhlab, “shurta boʻladi”, “yoʻltoʻsar boʻladi”, “qonxoʻr boʻladi” va hatto “jallod boʻladi” degan fikrlarni bildirganlar. Arabshoh Temur va uning otasi oddiy choʻponlar boʻlgan, diniy bilimdan yiroq va past tabaqadan chiqqan odamlardandir, deb daʼvo qiladi. Ammo bu kabi fikrlar haqiqatga yaqin emas chunki bu davrdagi boshqa manbalar Sharifiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asarlarida bunday maʼlumot keltirilmagan.

XULOSA

Ibn Arabshohning "Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur" asari Amir Temur davri tarixshunosligida muhim oʻrin tutadi va bu davrni oʻrganishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Bu asar Amir Temurga nisbatan tanqidiy qarashni aks ettirishi bilan qimmatli boʻlib, uning davri va faoliyati haqida koʻproq muvozanatli va xolis tarix yaratishga imkon beradi. Asar, shuningdek, oʻz davridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, xalqaro munosabatlar, madaniy hayot haqida ham qimmatli maʼlumotlar beradi.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Ibn Arabshoh. Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur: Temur tarixida taqdir ajoyibotlari. / Soʻz boshi, arab tilidan tarjima va

izohlarni U. Uvatov tayyorlagan. 1-kitob. - T.:Mehnat, 1992. -B. 17.

2. B.A.Usmonov “Amir Temur va temuriylar davri siyosiy tarixi”. Fargʻona 2024, b. 17.

3. Ahmedov B. Ibn Arabshoh va uning "Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur" asari // Oʻzbekiston tarixi, 2002, №3. – B. 45-52.

4. Бартольд В.В. Работы по историографии и источникам Средней Азии // Т. 8. – М.: Наука., 1973. – S. 256-268

5. Якубовский А.Ю. Темур: опыт политической оценки // Вопросы истории, 1946, №8-9. – S. 42-74

6. Muhammadjanov A. Ibn Arabshoh va uning Amir Temur haqidagi asari // Oʻzbekistonda ijtimoiy fanlar, 1998, №4. – B. 63-72

7. Uvatov U. Arabshunos olimlar va adiblarning Temur va temuriylar davri haqidagi asarlari. – Toshkent: Fan, 1997. – B. 45-67

8. Бегимкулова Л.М. XV аср бошларида Мовароуннахрда ҳокимият учун кураш (кучлар нисбати ва натижалар таҳлили). Монография – Фарғона. 2021

9. Gibbs H.A. The Life of Ibn Arabshah // Journal of the Royal Asiatic Society. – London, 1934. – Vol. 66. – P. 245-256.

10. Ртвеладзе Э., Саидов А. История Амира Темура и Мировой. - Ташкент: Восток, 2001. – S. 34-46.

O‘ZBEK TILIDA UCHRAYDIGAN EVFEMIZMLAR O‘RGANILISH TARIXI, YUZAGA KELISH SABABLARI VA TAHLILI

Egamberdiyeva Shahnoza

ToshDO‘TAU Tayanch doktoranti

ИСТОРИЯ ИЗУЧЕНИЯ, ПРИЧИНЫ ПОЯВЛЕНИЯ И АНАЛИЗ ЭВФЕМИЗМОВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Эгамбердиева Шахноза

базовый докторант в ТауГУУЯИЛ

THE HISTORY OF RESEARCH, CAUSES OF EMERGENCE, AND ANALYSIS OF EUPHEMISMS IN THE UZBEK LANGUAGE

Egamberdieva Shahnoza

PhD student in TSUULL



Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilida evfemizmlarning o‘rganilish tarixi, ularning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan madaniy, diniy va ijtimoiy omillar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, zamonaviy o‘zbek nutqida qo‘llaniladigan evfemizmlarning tilshunoslik tahlili va ularning kommunikativ funksiyalari tahlil qilinadi. Alohida e‘tibor tabu so‘zlarga va ularning evfemistik iboralar bilan almashtirilishiga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: evfemizm, o‘zbek tili, tabu, tilshunoslik, madaniyat, nutq, kommunikatsiya, ijtimoiy me‘yorlar.

Аннотация: В статье рассматривается история изучения эвфемизмов в узбекском языке, раскрываются их основные причины появления, такие как культурные, религиозные и социальные факторы. Также проводится лингвистический анализ эвфемизмов, используемых в современной узбекской речи, с указанием их функций в коммуникативной практике. Особое внимание уделено табуированной лексике и способам её замещения эвфемистическими выражениями.

Ключевые слова: эвфемизм, узбекский язык, табу, лингвистика, культура, речь, коммуникация, социальные нормы.

Abstract: This article explores the historical study of euphemisms in the Uzbek language and identifies key reasons for their emergence, such as cultural, religious, and social influences. It also includes a linguistic analysis of euphemisms commonly used in modern Uzbek speech and their communicative functions. Special attention is paid to taboo vocabulary and its replacement through euphemistic expressions.

Keywords: euphemism, Uzbek language, taboo, linguistics, culture, speech, communication, social norms.

Kirish. Hozirgi kunda globallashuv davrida ilm-fanga qaratilayotgan ulkan e‘tibor tufayli barcha sohalarda faoliyat yuritayotgan mutaxassislar shaxsiy rivojlanish uchun keng imkoniyatlar yaratilib berilmoqda. Bu o‘z navbatida turli tillar doirasida lisoniy tadqiqotlar ko‘lamini tilshunoslikning barcha yo‘nalishlarida, jumladan morfologiya, leksikologiya, sintaksis, orfografiya, pragmatika va stilistika

singari bo‘limlarida kengayib borishiga xizmat qilmoqda. Ma‘lumki, o‘zbek tili lisoniy imkoniyatlari nutqiy voqelanishining o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lgan evfemizm va disfemizmlarda til va ma‘naviyat, til va ruh mushtarakligi yaqqol namoyon bo‘ladi¹. Tilshunos olimlar tilning barcha jabhalarini tadqiq etganidek, evfemizm hodisasi ularning e‘tiboridan chetda qolgani yo‘q. Chunki evfemizm-

¹ Kadirova X. O‘zbek tilida evfemizm va disfemizm.

“Bookmany Print”, Toshkent – 2022.

lar semantikasini, ularning ishlatilish o‘rinlari hamda sabablarini bilmagan shaxslar nutqdan ko‘zlangan maqsadni to‘laqonli anglay olmaydi.

Tilda evfemizmlarning voqelanishi tasodifiy hodisa emas, balki nutqiy etiket zaruratidir. Hozirgi tilshunos olimlar tomonidan evfemizmlarga barcha tillarda mavjud bo‘lgan umumiy hodisa siatida qaraladi. Ularning mavzu doirasi, ishlatilishi o‘rni va ko‘lami tilning lug‘at doirasiga bog‘liq holda, u tildan bu tilga farq qilishi mumkin.

Maqolamiz avvalida evfemizm o‘zi nima ekanligiga to‘xtalib o‘tishimiz joiz. Shu o‘rinda evfemizmlarning kelib chiqishiga e‘tibor qaratamiz. Evfemizm so‘zi yunon tilidan olingan bo‘lib, unga o‘zbek tilining izohli lug‘atida quyidagicha ta‘rif berilgan: Evfemizm ² [yun. euphemismos <eu-yaxshi+phemi-gapiraman] biror sababga ko‘ra qo‘llanilishi ta‘qiqlangan yoki qo‘llanilishi noqulay bo‘lgan qo‘pol, dag‘al so‘z, ibora o‘rniga boshqa yumshoqroq so‘z yoki ibora qo‘llash. Masalan, “chayon” so‘zi o‘rnida “eshak, oti yo‘q”³ so‘z va iborasining qo‘llanilishi⁴.

Yuqoridagi berilgan ta‘rif orqali evfemizmlar nutq jarayoni, badiiy asardagi personajlar nutqini qo‘polligini bartaraf etish, uni yumshoqroq, ijobiyroq tarzda tinglovchiga yetkazish uchun foydalanilishini ta‘kidlash mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlar doirasida ham evfemizm hodisasiga berilgan izohlarga ko‘plab duch kelishimiz ularning keng miqyosda o‘rganilayotgani va qiziqish bildirilayotganidan dalolat beradi. Jumladan, ingliz tilida evfemizmga “... is a polite or mild expression used to replace a word or phrase that might be considered rude, harsh, or unpleasant, euphemism is also used to avoid offending someone, or to soften the impact of a negative or sensitive topic”⁵ kabi izohga duch keldik. Tildagi bunday so‘z yoki iboralar qo‘pol, yoqimsiz tushunchalardan anglashiladigan ma‘no orqali insonlarni haqorat qilishni oldini olish uchun yoki salbiy munosabatlar jarayonini yumshatish uchun nutq jarayoniga kiritiladi.

² O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-chi jild. 77-sahifa. G‘.G‘ulom nashriyot-matbaa ijodiy uyi

³ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-chi jild. 77-sahifa. G‘.G‘ulom nashriyot-matbaa ijodiy uyi

⁴ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-chi jild. 77-sahifa. G‘.G‘ulom nashriyot-matbaa ijodiy uyi

⁵ <https://www.facebook.com/share/r/15kPLiKmYK/?mibextid=WwXlfr>

Evfemizm hodisasi har qanday tilda ham salmoqli o‘rin tutadi. Tilning lug‘at boyligi nafaqat so‘zlar, iboralar bilan, balki ayrim so‘zlarning o‘rnida ishlatiladigan, nutqni ifodaliligini oshiruvchi birliklar bilan ham salmoqlanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.

Evfemizmlarning tildagi o‘rnini tadqiq etish yoki tadqiqot obyektidan chiqarish masalasi turli davr tilshunoslarining bahs-munozaralariga sabab bo‘lib kelgan. Ayrim olimlar ularni oddiy sinonimik qatordagi so‘zlar doirasiga kiritgan bo‘lsa-da, ko‘pchilik boshqa olimlar ularni chuqur o‘rganilishi shart bo‘lgan hodisa deya izohlashgan.

Lingvistik jihatdan tabu va evfemizmlarni o‘rganish XIX asr oxirlaridan boshlangan. A. Mayo esa qadimiy tillardan foydalanib, tabu va evfemizmlarning lingvistik xususiyatlarini tahlil qilib, bu jarayonni so‘z semantikasining o‘zgarishi deb ta‘riflaydi. XX asrning 60-80 yillarida esa S.Vidlak, Dj.Keyn va Dj.Lorens tadqiqotlari orqali tabu va evfemizmlarni chuqur o‘rganish jarayoni kengayadi.

A.A. Reformatskiy⁶ “Эвфемизмы – это за- менные, разрешенные слова, которые употребляют вместо запрещенных (табуированных)” – evfemizmlarga ta‘qiqlangan (tabulangan) so‘zlar o‘rniga qo‘llanishga ruxsat berilgan so‘zlar deya ta‘rif beradi⁷.

Evfemizm hodisasi turkiy tilshunoslarining ham e‘tiborini o‘ziga tortgan. Bunga turli tilshunoslarni monografiyalarini keltirishimiz mumkin. Bulardan o‘zbek tilshunos olimi N. Ismatullayev⁸ ning nomzodlik dissertatsiyasi ham misol bo‘la oladi. U tadqiqotida tabu va evfemizm ma‘lumotlarini jamlab, o‘z xulosalarini ilmiy ishi doirasiga kiritgan.

Shuningdek, evfemizm tasnifi xususida turli tilshunos olimlar qarashlariga fikr bildirib, o‘z ishlarida uning yaratilish sabablariga ko‘ra tasnifini taklif etadi. 1997-yilda A.Omonturdiyev evfemizmni uslubshunoslikning tadqiqot objekti sifatida allaqachon o‘z yechimini topishi kerak bo‘lgan

⁶ А.А.Реформатский. Введение в языковедение. Аспент Пресс, Москва: - 1996. – С.56

⁷ Kadirova X. O‘zbek tilida evfemizm va disfemizm. “Bookmany Print”, Toshkent – 2022.

⁸ Ismatullayev N. Zamonaviy o‘zbek tilida evfemizmlar: Avtoref. Kand.filol.nauk. – T.,1963.

mavzusi sifatida keng doirada o'rganib, o'zbek nutqining evfemik asoslarini tadqiq qiladi. U ham yuqoridagi fikrga qo'shilgan holda, evfemizmlarni etimologik, ijtimoiy-madaniy xususda o'rganish kerakligini aytgan⁹.

Bungacha 1983-yilda nashr etilgan "O'zbek tili stilistikasi" o'quv qo'llanmasida evfemizm hamda kakofemizm (disfemizm) haqida o'z fikrlarini bayon etgan. Til taraqqiyoti, global muammolarning yechimi uslubshunoslikni professional nutqning barcha tarmoqlarini fundamental tadqiq qilish, evfemik vositalarini yozib olish, evfemiologiyani ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan o'rganildi.

A.Omonturdiyev o'zining "Professional nutq evfemikasi" nomli doktorlik dissertatsiyasida chorvador nutqiga xos evfemik vositalarni etnolingvistik nuqtai nazardan tushuntirishga qaratilgan masalalarni tadqiq etdi. Ushbu ishda chorvadorlar nutqidagi evfemizmlar, xususan, chorvadorlarning hayoti, yashash tarzi, dunyoqarashi, urf-odatlar, an'analari va marosimlari bilan bog'liq jihatlar o'rganilgan. Shuningdek, evfemizm o'zbek tilshunosligida disfemizmga nisbatan kengroq ko'rib chiqilgan¹⁰. Hozirgi kunga kelib, yuqorida sanab o'tilgan olimlar tomonidan evfemizmning ko'proq nutqiy qatlam sifatidagi xususiyatlari sistematik tarzda tadqiq etilgan

Muhokama. Shu o'rinda evfemiya hodisasining vujudga kelish sabablariga ham alohida to'xtalib o'tishni taqozo etadi. Qadimgi davrlardan buyon nutq jarayonida evfemik birliklardan foydalanish nutqni boyitishga, uning uslubiy hamda stilistik bo'yqadorligini oshirishga xizmat qilib kelgan. Asrlar mobaynida nutqiy madaniyatni yuksaltirishga bo'lgan urinishlar kuchayib ilohlar, inson tana a'zolari, salbiy ijtimoiy vaziyatlar bilan bog'liq tushunchalarni nomini ishlatmaslikka harakat qilingan va bu qadimgi davr adabiyotlarida, badiiy asarlarda o'z aksini topgan.

XIX asrga kelib yangicha madaniy hayot tarzi shakllanishi natijasida nutqiy madaniyat yanada rivoj topa boshlaydi va keyingi asrlarda nafaqat inson a'zolari, balki hayvonlarni ifodalash avj ola boshlaydi.

A.A.Reformatskiy tabu o'rnida qo'llanilayotgan evfemik birliklarni etnik taraqqiyot bilan bog'liq deb hisoblaydi. Tabuning paydo bo'lishiga turli bid'at va xurofotlar sabab bo'lganligini aytib, evfemizmlar uning nomini yopish uchun xizmat qilishini ta'kidlaydi¹¹.

R.A. Budagov¹² tabuning paydo bo'lishiga insoniyatning e'tiqodini sabab qilib ko'rsatadi va tafakkur rivojining asosi deb aytgani holda, evfemizmga tabuning ahamiyati doir emas deb hisoblaydi. Evfemizm esa nutqiy madaniyat yuzasidan vaziyatni yumshatish uchun qo'llanadi. Evfemizmlar nafaqat aytish mumkin bo'lmagan narsa-predmet, voqea-hodisaning nomini yashirish maqsadida, balki madaniy, badiiy nutq hosil qilishda, shuningdek, uslubning rang-barang ko'rinishlarini yaratishda ham xizmat qiladi. Uning tadqiqot ishlarida evfemizmlar ikki yirik guruhlariga sinflangan: badiiy til evfemizmlari, qo'pol so'zni ifodalamaslikka intilishi natijasida yuzaga kelgan turli jargon evfemizmlaridir.

Badiiy adabiyotlarda evfemizmlarning aksariyati insonni, uning xususiyatlari va xatti-harakatlarini ifodalash uchun ishlatiladi. Aksariyat rus olimlarining fikricha, evfemizmlar qadimgi hind yevropa xalqlari turmush tarzida mavjud bo'lib, asosan hayvon va salbiy hodisalar nomini aytmaslikka intilish natijasida yuzaga kelgan, bunga misol tariqasida "умер" so'zi o'rnida "отправился к праотцам, отдал богу душу" birikmalarini keltirishimiz mumkin.

Evfemizmlar yuzaga kelishi va nutq jarayoniga kirib kelishining yana bir asosiy sabablaridan biri sifatida jamiyatda senzuraning kuchayishi, ayrim insonlar ismini aytmaslik, harbiy yoki siyosiy vaziyatlarni ochiqchasiga tilga olmaslik ham keltirilishi mumkin. Bu holat uchun A.A. Reformatskiy¹³ kitobida namuna aks ettirilgan bo'lib, birinchi jahon urushi davrida G. Rasputin o'ldirilganidan keyin, jurnalistlar uni ismini tilga olmaslik uchun *одно значительное лицо* evfemizmida keng foydalanishgan.

Evfemizmdan foydalanishning yana bir holati nutqda madaniyatli muhitga intilish, odob-axloq qoidalariga amal qilish, qo'pol va odobsiz

⁹ Omonturdiyev A.J. O'zbek tili uslubiyati. – T., 2012

¹⁰ Omonturdiyev A.J. O'zbek tili uslubiyati. – T., 2012

¹¹ Реформатский А.А. Введение в языковедение. АСПЕКТ ПРЕСС, Москва: - 1996. – С.56

¹² Будагов Р.А. Очерки по языкознанию. Монография Москва: – 1953.

¹³ А.А.Реформатский. Введение в языковедение.Аспент Пресс, Москва: – 1996. – С.57

iboralardan qochish jarayonida uchraydi. Masalan, *време – вы ошибаетесь, вы не вполне правы; операция – здесь необходимо хирургическое вмешательство; unemployed – in between jobs; slums – substandard housing; pora – konvert orqali ulashilgan badal; homilador – yuklik, og‘ir oyoq* kabi birliklarni evfemizlar turli tillarda keng ko‘lamda uchrashiga, nutqni badiiylashtirish, muloyimlashtirish vazifasini bajarishiga dalil sifatida keltirishimiz mumkin.

Tilshunoslar duch keladigan yana bir katta masalalardan biri – evfemizmlar klassifikatsiyasi. Evfemiya hodisasini sinflash orqali tadqiq etish tilshunoslik tarixida ko‘plab uchraydi. Dunyo tilshunos olimlari evfemizmlarni o‘rganish jarayonida ularni turli hil jihatlariga asoslanib, bir necha usullarda tasniflashgan. Bunday tasniflarni eng ko‘zga tashlanadigan turi bu ma‘no guruhlariga ajratishdir.

Evfemizmlarni R. Holder¹⁴ leksik-semantik jihatdan oltmishta guruhga bo‘lib o‘rgangan va har bir guruh doirasiga kiradigan evfemizmlarni misollar tariqasida berib o‘tgan. U o‘zining evfemizmlar lug‘atida badiiy asarlar hamda kundalik hayotda ko‘p uchraydigan, turli xil mavzularga oid evfemik birliklarni ta‘riflab berish bilan bir qatorda, ularning etimologiyasi, asl ma‘nosi, metaforik tushunchasi, nutq jarayonida ishlatilish holatlarini misollar bilan ko‘rsatib o‘tgan.

Uning ta‘kidlashicha, ijtimoiy munosabatlar, irqchilik, kasallik nomlari, xayriya, farzand tug‘ilishi, erkak-ayol muloqoti, iqtisodiy jarayon, noqonuniy moddalar iste‘moli kabi mavzularga oid evfemik birliklar inglizxabon xalqlar nutqida ko‘plab uchraydi. A.M. Katsev evfemizmlarning denotativ mazmuni xilma-xilligiga ko‘ra bir qator guruhlariga ajratgan: 1) ilohiy kuchlar nomi; 2) o‘lim va kasallikni anglatuvchi birliklar; 3) nuqson bilan bog‘liq nomlar; 4) jins bilan bog‘liq nomlar; 5) kambag‘allikni anglatuvchi nomlar; 6) ayrim kasblarni anglatuvchi nomlar; 7) aqliy va jismoniy nuqson nomlari; 8) kiyim qismlari nomlari.

Uning yana bir evfemik vositaning ontologik xarakteriga ko‘ra tasnifi ham mavjud: shaklga kirgan evfemizmlar; tabiiy ravishda vujudga kelgan

evfemizmlar; uslubiy bo‘yoq (ironiya yoki yumor) asosida tabiiy vujudga kelgan evfemizmlar¹⁵.

O‘zbek tilshunos olimlari tomonidan ushbu hodisa kengroq tasniflanganligi uning mavzu doirasi yanada katta ko‘lamga ega ekanligini ko‘rsatib bergan. Jumladan, N.Ismatullayev evfemizmlarni 5 yirik guruhga ajratadi: 1) tabu bilan bog‘liq evfemizmlar (zaharli hasharotlar nomi; yirtqich hayvonlar nomi; kasallik nomi; er va xotinning bir-birlari nomlarini aytmasliklari; xotin-qizlar tilida uchraydigan evfemizmlar); 2) bid‘at, irim qilish bilan bog‘liq evfemizmlar; 3) ma‘nosi qo‘pol, aytish noqulay bo‘lgan so‘z va iboralar o‘rnida qo‘llanadigan evfemizmlar; 4) nutqiy bemazalik, ko‘tarinkilik va diniy maqsadlar uchun qo‘llanadigan jargon evfemizmlar; 5) stilistik evfemizmlar.

Mavzuiy guruhlariga ajratilgan ifodalar tasnifi esa A.Omonturdiyev tomonidan tadqiq qilingan ilmiy ishda o‘z aksini topadi: 1) oila qurish bilan bog‘liq evfemik vositalar; 2) axloqsizlik bilan bog‘liq evfemik vositalar; 3) intim munosabat bilan bog‘liq evfemik vositalar; 4) murojaat bilan bog‘liq evfemik vositalar; 5) inson a‘zolari va ular bilan bog‘liq kiyim nomlari evfemasi; 6) jismoniy nuqsonlar bilan bog‘liq evfemik vositalar; 7) ovqatlanish va uning hazmi bilan bog‘liq evfemik vositalar; 8) insonning salbiy faoliyati bilan bog‘liq evfemik vositalar; 9) ayrim odat-an‘ana bilan bog‘liq evfemik vositalar; 10) qarilik tushunchasi bilan bog‘liq evfemik vositalar; 11) o‘lim bilan bog‘liq evfemik vositalar¹⁶.

Tilshunoslik sohasini chuqur o‘rganish jarayonida tilning imkoniyatlarini batafsil ochib berishga erishish uchun tilshunos olimlar nafaqat terminologiyani, balki matn yoki nutqda uchragan evfemik birliklarning to‘liq semantikasi bilishi kerak. Shuni ta‘kidlash kerakki, intensiv rivojlanayotgan tilshunoslik sohasida faoliyat olib borayotgan mutaxassislar qardosh bo‘lmagan tillararo tadqiqotda, u xoh badiiy, xoh ilmiy bo‘lsin evfemik birliklarga, ayniqsa ularning to‘g‘ri qo‘llanishiga, ulardan foydalanishdan ko‘zlangan maqsadga e‘tibor berishlari kerak.

Xorijiy tillarni o‘qitishning kompleks tizimini yaratish hamda respublikaning jahon

¹⁴ Holder R.W. How not to say what you mean. Oxford University Press, 2002

¹⁵ Kadirova X. O‘zbek tilida evfemizmlar va disfemizmlar. “Bookmany Print”, Toshkent – 2022.

¹⁶ Kadirova X. O‘zbek tilida evfemizmlar va disfemizmlar. “Bookmany Print”, Toshkent – 2022.

hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuviga alohida e'tibor qaratilishi nafaqat xorijiy tillarni o'rganish yoki o'qitishda, turli xil lug'atlar tuzishda, balki tarjima adekvatligiga erishishda ham muhim ahamiyat kasb etib, bu o'z navbatida maxsus nazariy tadqiqotlarni taqozo qilad¹⁷. Tilning har bir e'tiborga molik joylarini o'rganib, uni bo'lajak tilshunos olimlarga tilshunoslik oliy o'quv dargohlaridagi darslar mobaynida batafsil tushuntirish uchun tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Tahlil. Evfemizmlar har bir tilda gapiruvchining so'z tanlash madaniyati, ijtimoiy munosabati va axloqiy qadriyatlarini ifoda etadigan muhim leksik-stilistik vositadir. O'zbek tilida ham evfemizmlar nafaqat tabu mavzularni yumshatish, balki oddiy, hayotiy holatlarni ham muloyim, hurmatli, hissiy jihatdan maqbul shaklda bayon etishga xizmat qiladi. Evfemizmlar orqali gapiruvchi tinglovchida mulohazali, diplomatik va ijobiy taassurot qoldirishga intiladi. Quyida o'zbek tilida keng qo'llaniladigan, tabu bilan bog'liq bo'lmagan bir qator evfemizmlar misolida ularning mazmun-mohiyati va funksiyasi tahlil etiladi. Misol uchun: "U kishi hozir xizmatda, vaqtlari bo'lsa o'zlari kelar".¹⁸ Bu misolda *xizmatda* so'zi *ishda* degan ma'noni anglatadi. Bir qarashda oddiy so'z, ammo *ishda* so'zi o'rniga *xizmatda* deyish orqali gapga rasmiy, hurmatli va ijobiy tus beriladi. Bu evfemizm rasmiy muomalada va kattalarga murojaatda keng ishlatiladi.

Yana bir misolni tahlilga tortsak: "Bir oila bor, juda qiynalib qolgan, yordam kerak ekan".¹⁹ Bu yerda "yordam kerak" degan ifoda aslida moddiy yoki moliyaviy yordam (pul) talab etilayotganini bildiradi. Ammo "pul kerak" deyish ko'pincha og'ir va noqulay eshitiladi. Shuning uchun "yordam kerak" yumshoq, evfemistik va ijtimoiy jihatdan qabul qilingan ifoda hisoblanadi.

Yuqoridagi misollar shundan dalolat beradiki, evfemizmlar faqat tabu so'zlar bilan cheklanib qolmaydi. Ular quyidagi vaziyatlarda qo'llanishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Nutqni yumshoq va muloyim qilish;
2. Hurmat va rasmiyatni saqlash;
3. Munosabatni qaltis tus bermay ifoda qilish;
4. Ijtimoiy "nazariy" me'yorlarga moslashish uchun ishlatiladi.

Xulosa. Evfemizmlar o'zbek tilida muhim leksik vosita sifatida qo'llanadi. Ular orqali gapiruvchilar turli ijtimoiy vaziyatlarda, ayniqsa, salbiy yoki yomon taassurot qoldirishi mumkin bo'lgan so'zlarni yumshatib, muloyim va hurmatli shaklda ifoda etadilar. Bu til vositalari tabu mavzularni yoki faqatgina salbiy ma'noli so'zlarni tinglovchiga kamsitmasdan, ehtiyot bilan yetkazishga yordam beradi.

Shuningdek, evfemizmlar madaniy qadriyatlar va axloqiy me'yorlarni saqlashga xizmat qiladi. Evfemizmlarni qo'llash muhimki, chunki ular ijtimoiy munosabatlarda hurmat, inson huquqlari va me'yorlarni ta'minlaydi. Jamiyatda mulohazali va rahm-shafqatli muomala qilish uchun tildagi bu xil amaliy vositalardan foydalanish insonlar orasida yagona xursandchilik hamda yaxshi munosabatlarni shakllantiradi.

Demak, evfemizmlar tilning ijtimoiy va madaniy ahamiyatini namoyon qiladi. Ular orqali til, jamiyatdagi axloqiy va ijtimoiy me'yorlarga muvofiqlashib, ehtiyotkor ko'rsatmalar beradi. Bu esa tilni o'zining ijtimoiy vazifalarini to'g'ri bajaradigan samarali vosita sifatida ishlatishni ta'minlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-chi jild. 77-sahifa. G'.G'ulom nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-chi jild. 77-sahifa. G'.G'ulom nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
3. <https://www.facebook.com/share/r/15kPLiKm-YK/?mibextid=WwXlfr>
4. А.А.Реформатский. Введение в языковедение. Аспент Пресс, Москва: - 1996. – С.56
5. Будагов Р.А. Очерки по языкознанию. Монография Москва: – 1953.
6. А.А.Реформатский. Введение в языковедение. Аспент Пресс, Москва: – 1996. – С.57
7. Holder R.W. How not to say what you mean. Oxford University Press, 2002.
8. Khudjaeva, R.M. 2022. "Translation Interpretation of English-Uzbek Phraseological homonyms" Uzbekistan: language and culture, 3 (2): 88-107.
10. ЎзР Фанлар академияси тил институти мақолалари тўплами, 2021.
11. "Маҳалла ҳаёти" газетаси, №4, 2022.

¹⁷ Khudjayeva, R.M. 2022. "Translation Interpretation of English-Uzbek Phraseological homonyms" Uzbekistan: language and culture, 3 (2): 88-107.

¹⁸ ЎзР Фанлар академияси тил институти мақолалари тўплами, 2021.

¹⁹ "Маҳалла ҳаёти" газетаси, №4, 2022.

ULUG'BEK HAMDAM ASARLARIDA DEYKSISNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Turobova Nargiza Arolovna

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti tayanch doktoranti*

ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ДЕЙКСИСА В ТВОРЧЕСТВЕ УЛУГБЕКА ХАМДАМА

Туробова Наргиза Ароловна

*Базовый докторант Ташкентского государственного
университета узбекского языка и литературы имени
Алишера Навои*

PRAGMATIC FEATURES OF DEIXIS IN THE WORKS OF ULUGHBEK HAMDAM

Turobova Nargiza Arolovna

*Base doctoral student of Tashkent State University of Uzbek
language and Literature named after Alisher Navoi*



nargizaralovna@gmail.com,
+998945139605

[https://orcid.org/0009-0005-
6648-6407](https://orcid.org/0009-0005-6648-6407)

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek nasrida deyksis vositalarining pragmalinqvistik jihatlari o'rganilgan. Deyksis hodisasining asosiy turlari — shaxs, makon, zamon, diskurs va ijtimoiy deyksislar yozuvchi Ulug'bek Hamdam asarlari misolida tahlil qilinib, ularning badiiy asarda tutgan o'rni yoritilgan. Shuningdek, misollarni tahlil qilishda deyksis birliklarining kommunikativ vazifalari, ya'ni nutq ishtirokchilarini aniqlash, zamonga ishora, shaxsning emotsional holati va matnni shakllantirishdagi roli ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: deyksis, pragmatika, shaxs olmoshlari, makon va zamon ko'rsatkichlari, kommunikatsiya, kontekst, emotsional baho, ishora ko'rsatgichlari.

Аннотация. В статье изучаются прагмалингвистические аспекты дейксисных приемов в современной узбекской прозе. На примере творчества писателя Улугбека Хамдама анализируются основные типы явлений дейксиса в языкознании: личность, пространство, время, дискурс, социальный дейксис, а также освещается их роль в художественном произведении. При анализе примеров также рассматриваются коммуникативные функции единиц дейксиса, а именно их роль в идентификации участников речи, указании времени, эмоциональной оценке человека, формировании контекста.

Ключевые слова: дейксис, прагматика, личные местоимения, показатели пространства и времени, коммуникация, контекст, эмоциональная оценка, указательные местоимения.

Abstract. This article studies the pragmatic aspects of deixis in modern Uzbek prose. The main types of deixis in linguistics - person, place, time, discourse and social deixis - are analyzed using the works of the writer Ulugbek Hamdam as an example, and their role in the work of art is highlighted. Also, the analysis of the examples considers the communicative functions of deixis units, namely, the identification of speech participants, reference to time, emotional assessment of the person and their role in the formation of the context.

Keywords: deixis, pragmatics, personal pronouns, place and time indicators, communication, context, emotional assessment, deictic indicators.

KIRISH. Til – insoniyat tafakkuri, madaniyati va ijtimoiy hayotining eng muhim omili bo‘lib, uning vositasida axborot almashinuvi (kommunikatsiya) amalga oshadi. Tilshunoslikda so‘nngi yillarda nutq faoliyatini muloqot jarayonida o‘rganishga keng e‘tibor qaratilmoqda. Bu o‘z navbatida antroposentrik tilshunoslikning yangi yonalishi bo‘lgan pragmalingsvistikaning shakllanishiga olib keldi. Pragmalingsvistika – bu so‘zlovchining ma‘lum bir maqsadlarga erishish uchun suhbatdoshiga ta‘sir qilishdir ya‘ni aniq muloqot sharoitida tildan qanday foydalanishini o‘rganadigan fan. Nutqiy faoliyatda kimga, nimani, qayerda, qachon, qanday yetkazishidir.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida modernizm, falsafiy tafakkur va ijtimoiy ongning yangi shakllari o‘z ifodasini topgan. Bu borada yozuvchi Ulug‘bek Hamdamning adabiy ijodi alohida e‘tiborga loyiqdir. Uning asarlarida inson psixologiyasi, ijtimoiy munosabatlar, qahramonlarning ichki kechinmalari chuqur ochib beriladi. Yozuvchining asarlari muloqotga boy bo‘lib, obrazlar o‘rtasidagi nutqiy munosabatlar orqali ko‘plab pragmalingsvistik vositalar yuzaga chiqadi.

Ma‘lumki, tilshunoslikda nutq jarayonida matn (kontekst) bilan bog‘liq bo‘lgan birliklarni tahlil qilish pragmatikaning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda deysis hodisasi asosiy o‘rinda turadi. Deysis — bu matnga asoslangan ishoraviy til hodisasi [1]. U til va nutqning kontekstual xususiyatlarini o‘rganishda muhim vosita hisoblanadi.

Badiiy matnni pragmatik tahlil qilishda (natijalarimizga ko‘ra), Ulug‘bek Hamdam asarlarida deysis keng qo‘llanilgan va badiiy matnda muhim kommunikativ vazifa bajaraganini kuzatdik. Shuningdek, deysis vositasining turlari, ularning til va nutqdagi ifodalash shakllari matnda til birliklarining pragmatikasini ochib beradi.

NATIJARLAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Matnda yuzaga chiqqan har qanday muloqot lisoniy birliklarning shaxsga, makonga, emotsional holatga va suhbatdoshlarning ijtimoiy mavqeyiga oid pragmatik axborotni o‘z ichiga oladi. Negaki har qanday muloqot hodisasi ma‘lum sharoitda kommunikativ vaziyatni amalga oshiradi. Bu o‘z navbatida suhbatdosh axborotni qabul qilish jarayonida uning qachon, qayerda va qanday

maqsadda amalga oshayotganini tushunishga harakat qiladi. Bu kabi jarayonlarda har bir nutq ishtirokchisi voqelikda yuz berayotgan hodisani o‘zicha tahlil qiladi va muloqot jarayonini zamon, vaziyat ichida tahlil qilish orqali unga lisoniy shakl beradi. Demak, nutqiy faoliyatda doimo lisoniy omil voqelik bilan aloqador bo‘lgan holda nutq vaziyatiga shaxsiy munosabat bildirish ehtiyojini tug‘diradi. Bunday nutqiy faoliyat deysis vositalari orqali amalga oshiriladi.

“*Deysis*” terminining ma‘nosi yunoncha (“*deixis*”) “ko‘rsatish”, “ishora” bo‘lib, ilmiy adabiyotlarda “*voqelikka ishora, ko‘rsatish*” ma‘nolarini ham anglatadi va til birliklarining ishora qilish belgisini aks ettirishga xizmat qiladi. Ko‘rsatish, ishora vazifasini bajaruvchi birliklar deysis iboralar yoki “indikatorlar” atamasi bilan ham yuritiladi. Bunday turdagi iboralarni muloqot samaradorligini ta‘minlovchi ekspressiv, emotiv, baholovchi componentlar deb atash mumkin [5]. “*Deysis*” so‘zi ilk bor qadimgi yunon faylasuflari asarlarida qo‘llanilgan. Deysis tushunchasi antik davrlardan buyon ma‘lum bo‘lsa-da, uning olmoshga xos bosh xususiyat ekanligi tilshunoslarning diqqat-e‘tiborini tortgan. Tilshunoslikda deysis hodisasi dastlab nemis olimi K.Brugmann tomonidan o‘rganilgan [7]. Deysis nazariyasining ishlab chiqilishida K.Byulerning ham xizmatlari katta. U til nazariyasiga oid tadqiqotida deysisning mohiyati, turlari, deysis birliklarning vazifalari xususida ma‘lumot bergan [2]. Tilda deysisni hosil qiluvchi vositalarga dastlab ko‘rsatish va kishilik olmoshlari, ravish vazifasida qo‘llanuvchi olmoshlar kiritilgan bo‘lsa, keyinchalik tilning boshqa birliklariga ham deysis xususiyatning xosligi aniqlandi. Bu boradagi tadqiqotlarda ayrim leksik hamda grammatik birliklarning ham deysis vazifa bajarishi ko‘rsatildi [7]. Qator tadqiqotlarda nominativ birliklar verbal muloqot jarayonida bajaradigan vazifalariga ko‘ra deysis nomlashning o‘ziga xos turi sifatida e‘tirof etildi. Deysis birlikning nominativ birlikdan farqi shundaki, u anglatgan ma‘no nisbatan noaniq bo‘lib, faqat muayyan matnda reallashadi [4]. Deysis iboralar S.Rahimov (1989) va Sh.Safarovlarning (2008) tadqiqotlarida har tomonlama keng o‘rganilgan.

Pragmatikada muloqot jarayonidagi suhbatdoshlarning o‘zaro munosabatlari deysisning quyidagi turlari o‘rganiladi: 1) shaxs deysisi; 2)

zamon (makon) deyksisi; 3) diskurs deyksisi (Ch.Filmor); 4) emotsional deyksis, 5) ijtimoiy deyksis (Ch.Filmor);

MUHOQAMA(OBSUJDENIJE/DISCUSSION)

Shaxs deyksisi. Ulug‘bek Hamdam asarlarida shaxs deyksislari juda faol qo‘llanilganini ko‘rishimiz mumkin. Deyksisning ushbu turi nutq ishtirokchilarini (*men, sen, siz, u* va h.k.) ko‘rsatadi. Shaxs omoshlari vositasida muloqot ishtirokchilarining indentifikatsiyasi ta‘minlanadi [6]. Masalan, “Sabo va Samandar” asaridan olingan quyidagi jumlada: “*Men sizni kecha ko‘rdim. Ko‘zlarimizdagi g‘am meni o‘ylantirdi.*” Bu yerda “men” birinchi shaxs, “siz” esa ikkinchi shaxs olmoshidir. Muallif yoki qahramon o‘z fikrini bevosita boshqa ishtirokchiga yo‘naltirib, kommunikativ yaqinlik hosil qiladi. Bu pragmatik jihatdan suhbatdosh bilan emotsionallikni kuchaytiradi.

Makon deyksisi. Muloqot jarayonida uning ishtirokchilari egallagan o‘ringa ishora makon deyksisi mazmunini tashkil qiladi, voqelikning idrok qilinishi va bu idrokning lisoniy ifoda topishi ikki asosiy lisoniy – tafakkur harakatini talab qiladi: birinchidan, voqelik, ikkinchidan, uni ma‘lum makonda joylashtirish talab qilinadi [5]. Makon deyksislari kontekstda o‘rin ravishlari, ko‘rsatish olmoshlari orqali ifodalanadi (*bu yerda, u yerda, shu yerda, narida* va h.k.). Masalan, “*Bu yerda jimjitlik. Atrofda odam yo‘q, faqat daraxtlar shivirlaydi.*” “Bu yerda” deyksisi muallif tasvirlayotgan joyga o‘quvchini olib kiradi. Bu vosita orqali matn ichida badiiy makon yaratiladi va o‘quvchi u bilan emotsional aloqada bo‘ladi.

Zamon deyksisi. Matnda tasvirlanayotgan voqea-hodisalar bayoni va ular haqida axborot uzatishda uning kechish davrga, paytiga ishora qiluvchi iboralar qo‘llaniladi. Bunday ishora vazifasini zamon (vaqt) deyksisi vositalari bajaradi. Deyksisning bu turi ish-harakatning biror bir nutqiy akt ijrosidan oldingi yoki keyingi vaqtiga ishora qiladi. Masalan, “*O‘sha kuni quyosh g‘ira-shira yorug‘lik taratgan, Samandar esa tog‘ etagida o‘tirgan edi.*” Bu o‘rinda “O‘sha kuni” iborasi aniq bo‘lmagan, lekin kontekst orqali ma‘lum bir vaqtga ishora qilinmoqda. Bu vaqt deyksisi voqeaning sodir bo‘lgan lahzasini bildiradi va o‘quvchini xayoliy vaqtga ko‘chirishga xizmat qiladi. Zamon deyksislar ham Ulug‘bek Hamdam asarlarida voqealar ketma-ketligini belgilashda emas, balki

vaqtning nisbiyligini, inson xotirasi va eslash bilan bog‘liq hodisani ifodalashda xizmat qiladi. “O‘sha payt”, “kecha”, “bugun” kabi birliklar ba‘zida real vaqtni emas, balki qahramon ongidagi subyektiv vaqtni ifodalaydi. Bu esa matnning talqini (interpretatsiyasini) murakkablashtiradi va ko‘p qatlamli ma‘no yaratadi. “*Kecha u bilan so‘nggi marta uchrashganimni endi angelayapman.*” Bu yerda “kecha” deyksisi grammatik jihatdan yaqin o‘tgan vaqtni bildirsada, real vaqtni emas, balki qahramon ongidagi xotira lahzasini ifodalayapti. Qahramon “kecha”ni bugungi tushunchalar bilan baholayapti, u uchun bu voqea hali ham ichki ongda sodir bo‘layotgandek. Bu deyksisning psixologik zamoni ifodalashda qo‘llanayotganiga misoldir.

Diskurs (matn) deyksisi. Ushbu turdagi deyksis matnning ma‘lum bir qismga ishora qiluvchi birliklarning qo‘llanilishda namoyon bo‘ladi. Jumladan, “har holda”, “aksincha” kabilar matnning oldingi yoki keyingi qismlariga ishora vositasidir. Bunday iboralar deyxliklar qatoriga kiritilishining sababi ular ishtirokida tuzilgan nutqiy strukturalarning referentini matndan izlash imkoni mavjudligidadir [6]. Masalan, (Samandar) “*Bu gap uni ancha o‘ylantirib qo‘ydi.*” “Bu gap” birligi matndagi oldingi bir bayonga ishora qilmoqda. Diskursiv deyksis orqali muallif matn ichidagi o‘zaro bog‘liqlikni ta‘minlaydi va o‘quvchini matnni uzluksiz (ketma-ket) o‘qishga undaydi.

Sotsial (ijtimoiy) deyksis. Deyksis kategoriyasiga kiruvchi mazkur tur muayyan gap tarkibida emas, muloqot matni tarkibida muloqot ishtirokchilarning (kommunikantlarning) ijtimoiy mavqeyi qanday holatlarda aks etishini ifodalaydi [5]. Shaxs deyksisining uch qisimli ekanligini (“men”, “sen”, “u”) qayd etayotib, e‘tiborni dunyoning ko‘p tillarida so‘zlovchi, adresat va uchinchi (kuzatuvchi yoki muloqot ishtirokchisi bo‘lmagan) shaxs-jamiyatda tutgan ijtimoiy mavqeyiga nisbatan nomlanishlariga e‘tiborni qaratadi. Eng asosiysi, bu tillarda shaxs ijtimoiy mavqeyi maxsus lisoniy birliklar, grammatik shakllar vositasida ifodalanadi [10]. Masalan, “*Sizga bu yerlar tanish bo‘lsa kerak, janob!*” Samandar nutqidan olingan ushbu jumladagi “Siz” va “janob” birliklari orqali hurmat va ijtimoiy masofani ko‘rsatgan. Muallif bu vosita bilan ijtimoiy kontekstni, ya‘ni shaxslar o‘rtasidagi rasmiy yoki masofali munosabatni ifodalaydi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION).

Deyktik vositalarining pragmatik vazifasi shundaki, ular muallif, qahramon va o'quvchi o'rtasidagi masofani qisqartiradi. Bu vositalarning bevosita yoki bilvosita qo'llanilishi matnning yo'nalishini belgilaydi, kommunikativ maqsadga xizmat qiladi va o'quvchi e'tiborini muayyan nuqtaga yo'naltiradi. Ulug'bek Hamdam asarlarida tilning nafaqat estetik, pragmatik xususiyatlari ham kata ahamiyatga ega. Ayniqsa, deyktik vositalarining qo'llanishi orqali yozuvchi o'quvchi bilan o'ziga xos kommunikativ aloqa o'rnatadi. Deyktik birliklar kontekstga bog'liq bo'lgan tildagi ishtiroki bilan matnda kommunikatsiyaning ishoraviy vositalari sifatida namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Арутюнова Н.Д. Дискурс и дейксис. – Москва: Наука, 1981.
2. Бюлер К. Теория языка. Репрезентативная функция языка. – М.: Прогресс, 2001. – 528 с.
3. Бондаренко О. Г. Функционально-семантическое поле дейксиса в современном английском языке: Дисс. ...канд. филол. наук. – Ростов –на-Дону, 1998. – С. 170.
4. Ehlich K. Anaphora and deixis: Same, similar or different? // *Speech, Place and action: Studies in Deixis and related topics.* – Chichester etc.: Wiley, 1982. – P. 331.
5. Ko'chiboyev A. *Matn pragmatikasi. (O'quv-uslubiy qo'llanma)* Samarqand: 2015.



XORAZM XALQ MAQOLLARINING LINGVODIDAKTIK XUSUSIYATLARI

Xaytbayeva Muxlisa Muxtor qizi
UrDU Filologiya va san'at fakulteti talabasi

ЛИНГВОДИДАКТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ХОРЕЗМСКИХ НАРОДНЫХ ПОСЛОВИЦЫ

Xaytbaeva Muxlisa Muxtorovna

Студентка факультета филологии и искусств УрГУ

LINGUODIDACTIC FEATURES OF KHOREZM FOLK PROVERBS

Haytbayeva Mukhlisa Mukhtor kizi

Student of the Faculty of Philology and Arts of the UrSU

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm shevalarida qo'llanadigan xalq maqollarining lingvodidaktik xususiyatlari tahlil qilingan bo'lib, adabiy tilning boyishida, qolaversa, o'zga til egalariga o'zbek tilini o'rgatishda Xorazm shevalarining ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: maqol, Xorazm shevalari, lingvodidaktika, ta'limiy korpus, paremiologiya, milliy realiya.

Аннотация: В статье анализируются лингводидактические особенности народных пословиц, используемых в хорезмских диалектах, подчеркивается значение хорезмских диалектов в обогащении литературного языка, а также в обучении узбекскому языку носителей других языков.

Ключевые слова: пословица, хорезмские диалекты, лингводидактика, учебный корпус, паремология, национальная действительность.

Annotation: This article analyzes the linguodidactic characteristics of folk proverbs used in Khorezm dialects, highlighting the importance of Khorezm dialects in enriching the literary language, as well as in teaching Uzbek to speakers of other languages.

Key words: proverb, Khorezm dialects, linguistic didactics, educational corpus, paremiology, national reality.

Kirish. Ma'lumki, biror tilni o'rganmoqchi bo'lgan o'quvchi shu tildagi muayyan sintaktik birliklardan, tasviriy ifodalardan, ibora va maqollardan ham boxabar bo'lishi talab qilinadi. Aslida faqat xorijiy tilni emas boshqa hudud so'zlashuv tiliga oid bo'lgan paremiologik birliklarni o'rganish ham zarur hisoblanadi. Shevalar xalq tarixi, madaniyati bilan bevosita chambarchas bog'liqligi bilan u yoki bu sheva elementlarini o'rganish ham til o'rganuvchilari uchun foydadan holi bo'lmaydi.

Adabiyotlar tahlili. O'zga til va uning tarkibida o'rganiluvchi birliklarning pedagogik asoslarini tadqiq qilish bilan shug'ullanuvchi soha lingvodidaktika deb nomlanib, bu sohaga 1969-yilda N.M.Shanskiy tomonidan asos solingan.

“Lingvodidaktika til o'qitishning umumiy qonuniyatlarini, o'rganilayotgan materialning didaktik maqsadlari, vazifalari va xarakteriga, bir tillilik yoki ikki tillilik o'qitilishiga qarab, muayyan tilni o'qitish mazmuni, uslub va vositalarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi [1:59]”. Rus tilshunosi L.L.Nelyubin lingvodidaktikani “pedagogika va amaliy tilshunoslikdagi chet tillarni o'qitish mazmuni, usullari va shakllarini asoslovchi bo'limi” deb ta'riflaydi [10:52].

O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda shu tilga xos bo'lgan madaniyat bilan bog'lab dars jarayonlarini olib borish juda muhim va samarali hisoblanadi. Chunki har qanday xalqning tilida uning madaniyati mujassam bo'ladi. Bu ikki tushuncha bir-biri bilan uzviy bog'liq va ularni ayri holda ko'rish



xaytboyevamuxlisa04@gmail.com

mumkin emas. Shuning uchun ham ta'lim o'zga tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tilini o'qitish jarayonida milliy realiyalardan foydalangan holda darsni tashkil etish tilimiz va madaniyatimizni o'zga tilli o'quvchilariga o'rgatishda samaradorlikka erishish osonlashadi [4:78]. Milliy realiyalar, ayniqsa, xalq so'zlashuv tilida, aniqrog'i shevalarda o'z aksini topganligini ta'kidlagan holda, adabiy tilda mavjud bo'lmagan ayrim sheva elementlaridan foydalanish milliy madaniyatimizni yana ham aniqroq ko'rsatishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Lingvodidaktika til o'rgatish, xorijiy tillarni o'rganish jarayonini ifoda etish uchun qo'llanilmoqda. Bunda o'quvchilarning tilga munosabati, yangi lingvomadaniyat doirasidagi muloqotni e'tiborga olish talab qilinadi. Shuning uchun xorijiy tillarni o'rgatish metodikasi maqsadini o'zga til qurilishi tizimini nafaqat shakily tuzilish – kodlar asosida, balki shu tildagi olam manzarasini anglash va mental xususiyatlarni o'zlashtirish negizida o'rganish usullari tashkil etadi [5:186]. Lingvodidaktika umumiy holda chet tillarini o'qitish tamoyillari bilan shug'ullanuvchi soha sifatida talqin qilinayotgani ayni haqiqat. Biroq yuqoridagi fikrlarda ta'kidlanayotganidek, madaniyatlar va shaxslararo muloqot va munosabat ko'nikmalarini shakllantirishda nafaqat o'zga til, balki bir til doirasida boshqa hudud dialektlariga xos bo'lgan til birliklarini ham turli metodlar asosida o'rgatish ham aslida lingvodidaktikaning asosini tashkil qiladi. Maqollar hamisha til o'rganuvchilari uchun qiziqarli muhim til birligi bo'lib qolaveradi. Shu nuqtayi nazardan o'zga dialekt namunalari o'qish jarayonida, til ta'limida maqollar vositasida amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Tahlil va natijalar. Lingvodidaktikaning asosi til turi hisoblanadi. Tilni o'qitishda tilda va o'quv jarayonida amal qiladigan qonunlar lingvodidaktikaning asosiy qonunlaridir. Shu bilan birga, o'quv jarayonida amal qiladigan qonunlar, avvalambor, tilni o'zlashtirish jarayoniga tegishli bo'lganlarni anglatadi (ular fan sifatida metodologiya uchun muhimdir) va didaktik nutqning tuzilishi va ularning o'quv jarayonidagi faoliyati bilan bog'liq [6:88]. Ma'lumki, adabiy til ichki va tashqi manba asosida boyiydi. Bu boyishda ichki manba sifatida shevalardan so'z olish muhim jarayon hisoblanadi. Shevalardan olingan so'zlarning asli mohiyatini bilish, tushunish uchun ularning sintaktik

qoliplardagi o'rni dastavval kuzatiladi. Bu borada muayyan sintaktik qolip darajasidagi, qolaversa, hudud etnografiyasiga bevosita aloqador bo'lgan xalq maqollaridan foydalanish ancha samara beradi. Xorazm shevalarida faol qo'llanuvchi "Aya majuz olti gun, olti oy qishdan qotti gun" maqolida *aya majuz* birikmasining ma'nosi butun maqol mazmunidan anglashiladi. Turkiy xalqlar talqinida fasllar ayolga qiyoslangan: bahor – kelinchak, yoz – farzandli ayol, kuz – ona va farzandlarining yetilishi, qish esa yoshi o'tayotgan momo ya'ni aya deyilgan. "Ma'juz" sovuq. Qishning oxirgi pallasi va bahorning kirib kelishi davrida bo'ladigan 6 kunlik sovuq havo oqimi aya ma'juz deb nomlanadi [2:30] va uning barcha qish kunlaridan ham sovuq kelishi maqolda ifodalangan. Shunga o'xshash yana bir maqolda o'tmishda ishlatilgan so'zning maqoldagi ifodasi orqali mazmuni anglashilishini ko'rish mumkin: "Begora borsam yetar, ig'ransam gunim o'tar". Ushbu maqoldagi *begor* so'zi xonlik uchun bepul ishlab beriladigan soliq turi ya'ni hasharni bildiradi. Arna (kanal) va yoplarni qazishda xalq begorga jalb qilingan. Ayrim ishyoqmaslar qazuv payti o'zlarini xuddi ishlagandek ko'rsatishgan. Bugungi kunda ham bu maqol juda dolzarb hisoblanadi [2:33]. Ko'rinadiki, qadim xorazmiy tiliga, shuningdek, shevalariga mansub turlicha so'zlarning maqollarda qo'llangani va ularni til ta'limi jarayonida o'rgatish juda muhim masala hisoblanadi.

Maqollar xalqning ruhi, aqli, donishmandligini ifodalovchi asaridir. Ularda odamlar hayotining ijtimoiy, falsafiy, ma'naviy, tarixiy va boshqa jihatlari aks ettirilgan. Maqollar, odatda, to'liq jumla shakliga ega bo'lgan va uni paremiyaning boshqa turlaridan ajratib turadigan turli belgilarga ega bo'lgan o'rinli majoziy so'z deb tushuniladi. Bu belgilarga quyidagilar kiradi: umumiy qo'llanish, milliylik, obrazlilik, metafora, qisqalik, ixchamlik, tarkibiy-semantik to'liqlik va didaktiklik. Bu belgilar chet tilini va boshqa hudud so'zlashuv tilini o'rgatishda maqollardan foydalanish muhimligini ko'rsatadi, chunki ular til haqidagi bilimlarni, xalq madaniyati, tarixi va mentalitetini tushunishni kengaytiradi [9:153].

Maqollar lisoniy iboraning alohida turi bo'lib, muomala qoidalarini belgilab beruvchi, hodisa va harakatlarga bugungi kun amaliyoti nuqtayi nazaridan me'yoriy baho beradi. Aytish mumkinki, maqollar butun til hamjamiyati uchun

maxsus madaniy va qadriyat kodining tashuvchisi; maqollar inson xulq-atvori va dunyoqarashining o'ziga xos axloqiy tartibga soluvchisi vazifasini bajaradi. Ko'pchilik maqollardagi qoidalarga ishonadi va ularga amal qiladi; yosh avlodni tarbiyalash tizimi ana shu qadimiy xalq donishmandligi namunalardagi nasihatlariga asoslanadi. Aksariyat kishilar ongida maqollar turli dinlarning muqaddas kitoblari bilan bir qatorda axloqiy va axloqiy me'yorlar haqidagi bilimlarning asosiy manbai hisoblanadi [8:33]. Darhaqiqat, maqollarda muayyan hududga xos bo'lgan til elementlari nihoyatda sinchkovlik bilan tartibga solinadi.

O'zbek tili Xorazm shevalarini birinchilardan bo'lib tadqiq qilgan olim F.Abdullayev 325 ta maqolni to'plab, shevalar tasnifi o'rinda keltirib o'tgan. Ushbu manba Xorazm shevalaridagi maqollarni o'rganishda juda qimmatli hisoblanadi. Mazkur maqollarning aksariyati faqat Xorazm shevalarida qo'llanilsa, ayrimlari adabiy tilga xos bo'lgan maqollarning shevalardagi variantlari hisoblanadi. Xususan, "*Shamol bo'lmayincha ag'ach bashi darpanmiydi*", "*Qo'ngishi qo'ngishidan rang oladi*", "*Bola yig'lob-yig'lob kala vo'ladi*" [7:311] kabi maqollar shular jumlasidandir. F.Abdullayev Xorazm shevalaridagi maqollar turli hududlarda turlicha variantlarda qo'llanishini ham alohida tasnif qilgan.

Xorazm shevalarida qo'llanib kelayotgan xalq maqollarini to'plab kelayotgan va kitobxonlarga havola qilgan yana bir ijodkor V.Sultonovdir. Uning "Xorazm xalq maqollari" nomli to'plamida 28 ta mavzuiy guruhga xos bo'lgan 675 ta maqollar jamlangan. Quyida mazkur to'plamga kiritilgan ayrim maqollar haqida to'xtalamiz.

"*Ichinda sultoni yo'q*" [2:16]. Ushbu maqol ishni ishtiyoqsiz bajaradigan kimsalarga nisbatan qo'llanilib, ko'nglida qaysidir ishni oxiriga yetkazishga qalban turtki yo'qligini bildiradi.

"*Qora darim o'kchama oqdi*" [2:16]. Ter so'zi (terlamoq) Xorazm o'g'zu shevalarida *dar* (*darlamak*) tarzida qo'llaniladi. Ushbu maqolda qattiq mehnat qilinganligi va mubolag'aviy holatda terning o'kchadan ham oqqanligi ifodalangan.

"*Cho'pni go'rsang, holi go'rma*". "holi" so'zi e'tiborsizlik bilan qarash mazmunini bildiradi. Ushbu maqol kuch-qudrat hamma narsada

mavjudligi va har bir insonning o'ziga yarasha xislati borligi haqida [2:17].

Gech ochilgan gul tez so'vilar. Kech gullagan daraxtning meva bermasligi aniq bo'lgani kabi kech boshlangan ishning ham qiyin bo'lishi to'g'risida [2:14].

"*Kadxudo bo'lin dasang, Gurlana qo'nib o't*". Kadxudo so'zi fors tilidan olingan bo'lib, el-yurt ichida so'zi o'tadigan, gapiga hamma quloq soladigan kishiga nisbatan ishlatiladi. Gurlan kadxudolar eli deb xalq orasida ko'p ishlatiladi. Ya'ni boshqalarga nasihat qiladigan, o'zgaralar ishiga ko'p aralashadigan va o'z so'zini o'tirishga harakat qiladigan kishilar viloyatning Gurlan tumanida ko'pchilikni tashkil qiladi. Bu maqolda o'g'uz va qipchoq lahjasi elementlarini ko'rish mumkin. Gurlana so'zidagi jo'nalish kelishigining qisqargan shakli o'g'uz dialektiga xos xususiyat bo'lsa, *qo'nib o't birligi* qipchoq lahjasiga xos bo'lgan shimoliy Gurlan shevasi elementidir. *Qo'nmoq* yotib qolmoq ma'nosini bildiradi.

"*Yetti qozig' o' oshno atadi*". Xiva xonligi davrida o'ta qiyin masalalarni yechish maqsadida saroyda yetti qozidan iborat maxsus guruh tashkil qilingan. Yetti qozi da'vogarga ketma-ket savollar berishib uni gangitib qo'yishgan. Ushbu qozilar guruhi Isfandiyorxon davriga kelib tugatilgan. Bu bilan bironta yomonroq odamga ishi tushgan insonning har xil bahonalar bilan ovora qilishi aytilmoqda [2:20].

"*Bilma-biluv bo'lmasa, durtma biluv naylasin*"; "*Quyini qozor kimlar, suvini ichar kimlar?*"; "*Go'naltirganni kuni ortiq*"; "*Ishtoni yo'q, diyzi yirtiq gulibdi*" kabi xalq jonli tiliga oid og'izdan og'izga o'tib kelayotgan juda ibratli maqollar Xorazm shevalarida faol qo'llanib kelibmoqda. Aytish joizki, "Har bir maqolning vujudga kelishida birorta ibratli voqea ro'y bergan va bu barchaga ibrat qilib ko'rsatish maqsadida maqolga aylantirilgan" [3:92]. Lingvodidaktik yondashuv asosida bunday xalq maqollarini o'rganish va tadqiq qilish, nafaqat shu hudud kishilari hamda boshqa sheva vakillari uchun, shu bilan birga til o'rganuvchi o'zga millat vakillari uchun ham foydali ma'lumotlarni beradi.

Xulosa. Umuman olganda, maqollar o'zida juda katta didaktik yukni jamlagan xalqning buyuk madaniy merosi va noyob til birligi hisoblanadi. Xorazm shevalaridagi maqollarning boshqa hududlarda qo'llanadigan muqobil variantlarini

aniqlash, varianti bo'lmagan holda, adabiy tilga kiritish, shuningdek, bu jihatdan til o'rganuvchilarga qulayliklar yaratish sohaning dolzarb masalasi desak bo'ladi. Endilikda kognitiv-intellektual yondashuv asosida maqollarni ham lingvodidaktik takomillashtirishga zarurat mavjud. Bu borada ta'limiy korpuslarni yaratish va mutaxassislarni jalb qilish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Raximova J. Lingvodidaktik atamalarning metodologik jihatlari. "Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar" ilmiy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2024. – B.59.
2. Sulstonov V. Xorazm xalq maqollari. – Xorazm, – 2024.
3. Tafakkur gulshani. T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.1981.
4. Tursunova J. O'zbek tili darslarida milliy realiyalarni o'rgatish xususiyatlari. "Lingvodidaktikaning dolzarb muammolari", – Toshkent, -2024.
5. Xolmonova Z. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent, – 2019.
6. Shodmonova D. Ona tili darslarida lingvodidaktikaning ahamiyati. – Toshkent-2024.
7. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. – Тошкент: 1964.
8. [Фролова Т.А.](#) Основные особенности пословиц и поговорок русского языка. Филологические науки. 26 ноября 2016 г.
9. Камбарова М. Лингвотеоретические и лингвометодические аспекты пословиц английского языка. <https://lingvospektр.uz/index.php/lingsp/article/view/153>
10. Нелюбин Л.Л. Компьютерная лингвистика и машинный перевод. – М.: ВЦП, 1991.



RAQAMLI TA'LIMNING INSON KOGNITIV QOBILIYATIGA TA'SIRI

To'roqulova Ra'no Ibrogimovna

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti

“Ijtimoiy gumanitar fanlar va tarix” kafedrasida katta o'qituvchisi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti falsafa va milliy go'ya kafedrasida mustaqil izlanuvchisi

ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА КОГНИТИВНЫЕ СПОСОБНОСТИ ЧЕЛОВЕКА

Турокулова Раъно Иброгимовна

*Старший преподаватель кафедры Социально-гуманитарные науки и история, Ташкентский Международный финансовый университет менеджмента и технологий
Независимый исследователь кафедры Философии и национальной идея Самаркандский государственный университет имени Шарафа Рашидова*


IMPACT OF DIGITAL EDUCATION ON HUMAN COGNITIVE ABILITY

Turokulova Rano Ibrogimovna

*Senior teacher of the department of social humanities and history
Tashkent International University of the financial management and technology*

Independent researcher of the department of Philosophy and national idea

Samarkand State University after named Sharof Rashidov



rano.toraqulova@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada raqamli ta'limning insonning xotira, e'tibor va fikrlash kabi kognitiv qobiliyatlariga ta'siri ko'rib chiqiladi. Raqamli texnologiyalar va an'anaviy usullardan foydalangan holda o'qitilgan talabalar o'rtasida o'tkazilgan tadqiqot natijalari taqdim etildi. Raqamli ta'limning afzalliklari, shu jumladan qisqa muddatli xotira va ijodiy fikrlashni rivojlantirish, shuningdek, uzoq muddatli xotira va kontsentratsiyaning pasayishi kabi kamchiliklar aniqlandi. Ta'im samaradorligini oshirish uchun raqamli va an'anaviy yondashuvlardan muvozanatli foydalanish zarurligi to'g'risida xulosa chiqarildi.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim, kognitiv qobiliyat, xotira, e'tibor, ijodiy fikrlash, ta'lim texnologiyasi, ma'lumotlarning haddan tashqari yuklanishi.

Аннотация: В статье рассматривается влияние цифрового образования на когнитивные способности человека, такие как память, внимание и мышление. Представлены результаты исследования, проведенного среди студентов, обучавшихся с использованием цифровых технологий и традиционных методов. Выявлены преимущества цифрового образования, включая развитие кратковременной памяти и креативного мышления, а также его недостатки, такие как снижение долговременной памяти и концентрации. Сделан вывод о необходимости сбалансированного использования цифровых и традиционных подходов для повышения эффективности обучения.

Ключевые слова: цифровое образование, когнитивные способности, память, внимание, креативное мышление, образовательные технологии, информационная перегрузка.

Abstract: The article examines the impact of digital education on human cognitive abilities such as memory, attention, and thinking. The results of a study conducted among students who studied using digital technologies and traditional methods are presented. The advantages of digital education, including the development of short-term memory and creative thinking, as well as its disadvantages, such as decreased long-term memory and concentration, are revealed. The conclusion is made about the need for a balanced use of digital and traditional approaches to improve the effectiveness of learning.

Key words: digital education, cognitive abilities, memory, attention, creative thinking, educational technologies, information overload.

Kirish. Zamonaviy jamiyat raqamli texnologiyalarga faol ravishda o'tmoqda, bu ayniqsa ta'lim sohasida yaqqol namoyon bo'ladi. An'anaviy o'qitish usullari asta-sekin elektron platformalar, onlayn kurslar va virtual sinflar bilan almashtirilmoqda. Raqamli ta'lim butun umr davomida mutaxassislarni tayyorlash va o'qitish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Xotira, e'tibor, fikrlash va o'rganish qobiliyati kabi kognitiv qobiliyatlar ta'lim jarayonida asosiy rol o'ynaydi. Raqamli texnologiyalarning ushbu jarayonlarga ta'sirini o'rganish ta'lim tizimlarini optimallashtirish va ularning samaradorligini oshirish uchun juda muhimdir. Ushbu maqolaning maqsadi raqamli ta'limning insonning kognitiv qobiliyatiga qanday ta'sir qilishini aniqlash, uning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash, shuningdek, o'rganishda raqamli texnologiyalarni yanada samarali qo'llash bo'yicha tavsiyalar berishdir.

Mamlakatimizda raqamli jamiyatga o'tish, ta'lim tizimi rivojlanishning postindustrial bosqichida innovatsion va intellektual texnologiyalari rivojlanishi bilan nelgilanadi. Raqamli texnologiyalarning ta'lim, ishlab chiqarish va amaliyotga joriy qilinishi jamiyat hayotining iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy-madaniy sohalarining modernizatsiyasini tezlashtiradi. Buning mazmun-mohiyati esa 2020 yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son «Raqamli O'zbekiston – 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qonun xujjatlarida aks etgan¹.

Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz shart va zarur. Bu bizga yuksalishning eng qisqa

yo'ldan borish imkoniyatini beradi"². Raqamli ta'lim - texnologiyalar va onlayn resurslardan foydalanishni o'z ichiga olgan raqamli ta'lim inson hayotining turli jabhalariga, jumladan, ta'lim, ish, ijtimoiy munosabatlar va o'z-o'zini rivojlantirishga ta'sir qilishi mumkin.

“Raqamlashtirish” amerikalik olim N.Negroponte tomonidan 1995-yili birinchi bo'lib ilmiy atama sifatida kiritilgan³.

Metodlar. Raqamli ta'limning kognitiv qobiliyatga ta'sirini tahlil qilish uchun quyidagi usullardan foydalanilgan: adabiyot tahlili bunda ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish, shuningdek, ularning kognitiv funksiyalarga ta'siri bo'yicha ilmiy nashrlar ko'rib chiqildi. Shuningdek, eksperimental tadqiqot usulidan foydalanilgan. Ishtirokchilar 18 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan 50 nafar talaba bo'lib, ikki guruhga bo'lingan: Birinchi guruh raqamli texnologiyalar (onlayn kurslar, interaktiv platformalar) yordamida o'qitildi. Ikkinchi guruh an'anaviy tarzda o'qitildi (ma'ruzalar, darsliklar). Maqolani tayyorlashda kognitiv qobiliyatlarni baholash usulidan foydalanib, ikkala guruh ishtirokchilari o'quv jarayonidan oldin va keyin sinovdan o'tkazildi, xususan, diqqat testi (masalan, Burdon tuzatish testi), qisqa muddatli xotira hajmini tekshirish, ijodiy fikrlash testlari ishlatilgan.

Tahlil va natijalar. Raqamli ta'lim - bu ta'lim mazmunini yetkazib berish va o'quv jarayonini tashkil qilish uchun raqamli texnologiyalar va onlayn resurslardan foydalanishga asoslangan ta'lim shakli. An'anaviy o'qitish usullaridan farqli o'laroq, raqamli ta'lim Internet orqali ta'lim materiallari va

¹ <https://lex.uz/uz/docs/-5030957?query=raqamli%20o%27zbekiston%202030#sr-1> (Murojaat vaqti – 12.04.2024)

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi (2020 yil 24 yanvar).

³ Negroponte N. Being Digital. - New York, 1995. URL: <http://inance.ru/2017/09/cifrovaya-ekonomika/>.

manbalariga kirishni taklif qiladi va kompyuterlar, smartfonlar, planshetlar, onlayn platformalar va ilovalar kabi turli xil raqamli vositalardan foydalanadi.

Raqamli ta'limning asosiy tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi:

Birinchi, onlayn kurslar va platformalar. Coursera, edX, Udey va Khan Academy kabi turli xil ta'lim kurslari va platformalari onlayn darslar, video ma'uzalar, topshiriqlar va testlardan foydalanish imkoniyatini beradi.

Ikkinchi, elektron darsliklar va manbalar. Darsliklar, maqolalar, jurnallar va boshqa o'quv materiallarining elektron versiyalariga Internet orqali osongina kirish mumkin.

Uchinchi, vebinarlar va onlayn konferensiyalar. Vebinarlar va onlayn konferensiyalar o'qituvchilar va o'quv jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan Real vaqtda interaktiv muloqot qilish imkoniyatini beradi.

To'rtinchi, multimedia manbalari. Audio, video va grafik materiallardan foydalanish o'quv materialini talabalar uchun yanada qiziqarli va qulay qilishga yordam beradi.

Beshinchi, interaktiv topshiriqlar va testlar. Interaktiv topshiriqlar va testlar talabalarga o'z bilim va ko'nikmalarini onlayn tekshirish imkonini beradi.

Oldinchi, adaptiv o'rganish. Ba'zi platformalar har bir talabaning individual ehtiyojlari va bilim darajalariga mos keladigan moslashuvchan ta'limni taklif qiladi.

Rus olimi N.L.Sokolova raqamli texnologiyalarning jamiyat madaniy sohalarida keng tarqalishi bilan bog'liq ravishda sodir bo'layotgan uning keng transformatsiyalarini ta'kidlab o'tgan⁴.

Raqamli ta'lim bir qator afzalliklarga ega, masalan, mavjudlik, moslashuvchanlik, masofadan turib o'rganish qobiliyati va talabalarining motivatsiyasini oshirish. Shu bilan birga, raqamli tengsizlik, shaxsiy aloqalarning yetishmasligi va ma'lumotlar xavfsizligi bilan bog'liq muammolar kabi ba'zi muammolarni hisobga olish muhimdir.

Xorijiy olim Ch.Girning "Raqamli madaniyat" asarida raqamlashtirish, raqamli jamiyat, ra-

qamli madaniyat tushunchalarini kategorial jihatdan tadqiq etgan⁵.

Raqamli ta'limning xotiraga ta'siri salbiy hisoblanadi. Birinchi guruh a'zolari (raqamli o'rganish) vizual va interaktiv materiallar tufayli qisqa muddatli xotirada sezilarli yaxshilanishni ko'rsatdilar. Biroq, uzoq muddatli xotira ikkinchi guruh a'zolariga qaraganda kamroq samarali ekanligini isbotladi.

Raqamli ta'limning diqqat va konsentratsiyaga ta'sirini aniqlasak bu ham destruktiv oqibatlariga olib keladi. Raqamli o'rganish vazifalarni tezda almashtirish qobiliyatini oshirdi, ammo salbiy tendentsiya ham kuzatildi: birinchi guruh a'zolari katta miqdordagi ma'lumot va chalg'itadigan narsalar tufayli uzoq vaqt davomida diqqatni jamlashda qiyinchiliklarga duch kelishdi.

Raqamli ta'lim shaxsda tafakkur va ijodkorlikni susaytiradi. Interfaol topshiriqlar va loyihalar birinchi guruh talabalarida ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yordam berdi. An'anaviy ta'lim analitik fikrlashni rivojlantirishda eng yaxshi natijalarni ko'rsatdi.

Raqamli ta'lim ham ijobiy jihatlar bilan bir qatorda, inson omillari bilan bog'liq ba'zi kognitiv muammolariga olib kelishi mumkin:

Raqamli texnologiyalar ta'limni tarqatish uchun katta imkoniyatlarga ega bo'lishiga qaramay, ularga kirish har doim ham bir xil emas. Kam ta'minlangan yoki uzoq mintaqalardagi odamlar yuqori tezlikdagi Internet yoki yuqori sifatli qurilmalarga kirishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin, bu esa raqamli tengsizlikni keltirib chiqaradi. Raqamli ta'lim sifatga salbiy ta'sir etishi mumkin. Ba'zi hollarda, onlayn ta'lim an'anaviy o'quv dasturlari bilan bir xil ta'lim sifatini ta'minlamasligi mumkin. O'qituvchilar va hamkasblar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqada bo'lmaslik, shuningdek, qo'llab-quvvatlash va motivatsiyaning yetarli emasligi o'quv samaradorligini pasayishiga olib kelishi mumkin.

Raqamli ta'limda talabada diqqat, xotira va matnga e'tibor muammolari kuchayadi. Darslarda raqamli qurilmalardan foydalanish, ayniqsa,

⁴ Соколова Н.Л. Цифровая культура или культура в цифровую эпоху // Научный журнал Санкт-Петербургского отделения Российского института культурологии. 3(8). 2012. С. 6-10.

⁵ Gere Ch. Digital Culture. Expanded second edition London, 2008, - p. 13-14.

yoshlarda chalgʻitish va diqqatni yoʻqotish xavfini oshirishi mumkin.

Raqamli taʼlimda maʼlumotlar xavfsizligi va maxfiyligi havf ostida qoladi. Raqamli taʼlimning rivojlanishi bilan talabalar maʼlumotlarining xavfsizligi va maxfiyligi, shu jumladan shaxsiy maʼlumotlarning buzilishi va ruxsatsiz shaxslar tomonidan kirish xavfi toʻgʻrisida yangi savollar tugʻiladi.

Jamiyat raqamli xavfsizlikning nafaqat texnik, balki gumanitar, insonparvar jihatlari boʻyicha chuqur bilimlarga ega boʻlishi kerak, ularni bilmaslik davlat va shaxs xavfsizligiga katta zarar yetkazadi. Bizning nazarimizda, “Raqamli Oʻzbekiston” rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari mamlakatimizning har bir fuqarosidan, uning maʼlumoti va yoshidan qatʼiy nazar, axborot xavfsizligi asoslarini oʻrganishni va bilishni talab qiladi⁶.

Raqamli taʼlimda talabalarda anʼanaviy koʻnikmalarni yoʻqotib boradi. Raqamli texnologiyalardan foydalanish yozma muloqot, qogʻoz kitoblarni oʻqish va boshqalar kabi anʼanaviy koʻnikmalarni yoʻqotishiga olib kelishi mumkin, bu esa shaxsiy rivojlanish va intellektual qobiliyatlarga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin⁷.

Ushbu muammolarni hisobga olgan holda, raqamli taʼlimdagi inson omillari bilan bogʻliq muammolarni bartaraf etishga yordam beradigan strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish va insonning yaxshi oʻrganishi va rivojlanishi uchun uning afzalliklaridan maksimal darajada foydalanish muhimdir.

Xulosa. Raqamli taʼlim axborotni qayta ishlash qobiliyati va vizual xotira kabi baʼzi kognitiv funksiyalarning rivojlanishini ragʻbatlantiradi. Biroq, raqamli texnologiyalardan uzoq muddatli foydalanish maʼlumotlarning haddan tashqari yuklanishiga va chuqur tahlil qilish qobiliyatining pasayishiga olib kelishi mumkin. Muhokama tadqiqot natijalari raqamli taʼlim insonning kognitiv qobiliyatiga ijobiy va salbiy taʼsir koʻrsatishini tasdiqlaydi.

Raqamli taʼlimning afzalliklari bu taʼlim resurslariga oson kirish, taʼlimni individuallashtirish imkoniyati, axborotni qayta ishlash koʻnikmalarini

rivojlantirishdir. Raqamli taʼlimning kamchiliklari axborotni yuzaki idrok etish tufayli uzoq muddatli xotiraning yomonlashishi, raqamli qurilmalarga qaramlikni rivojlantirish, gadjetlar bilan soatlab ishlash tufayli charchoq va konsentratsiyaning pasayishi, raqamli taʼlimning salbiy taʼsirini minimallashtirish uchun analitik fikrlash, chuqur oʻqish va matn bilan ishlash koʻnikmalarini ragʻbatlantiradigan usullarni qoʻllash muhimdir.

Raqamli taʼlim insonning kognitiv qobiliyatiga sezilarli taʼsir koʻrsatadi. Bu qisqa muddatli xotira, ijodiy fikrlash va axborotni qayta ishlash koʻnikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, ammo uzoq muddatli xotira va konsentratsiyaga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin. Raqamli taʼlimni optimallashtirish uchun texnologik yangiliklar va anʼanaviy oʻqitish usullari oʻrtasidagi muvozanatni hisobga olish, shuningdek, oʻquvchilarning yoshi va kognitiv xususiyatlariga qarab taʼlim yondashuvlarini moslashtirish muhimdir.

Adabiyotlar roʻyxati:

1. “Raqamli Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi. <https://lex.uz/uz..>
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 24-yanvar. uz.u.
3. Gere Ch. Digital Culture. Expanded second edition London, 2008, - p. 13-14.
4. Соколова Н.Л. Цифровая культура или культура в цифровую эпоху // Научный журнал Санкт-Петербургского отделения Российского института культурологии. 3(8). 2012. С. 6-10.
5. Югай Е.В. Социально-философский анализ развития цифровой культуры в Узбекистане // Автореферата диссертации доктора философии (PhD) по философским наукам. Самарканд, 2022. – С. 48.
6. Sultanova G.S. Raqamli taʼlim va inson muammosi // Ҳозирги замон фалсафасининг долзарб масалалари: муаммо ва ечимлар Мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллари. Тошкент, 2024. – Б. 113-115.

⁶ Югай Е.В. Социально-философский анализ развития цифровой культуры в Узбекистане // Автореферата диссертации доктора философии (PhD) по философским наукам. Самарканд, 2022. – С. 19.

⁷ Sultanova G.S. Raqamli taʼlim va inson muammosi // Ҳозирги замон фалсафасининг долзарб масалалари: муаммо ва ечимлар Мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллари. Тошкент, 2024. – Б. 113-115.

IRVING NASRIY IJODIDA SATIRA, YUMOR VA BADIY TASVIR VOSITALARINING IFODAVIY XUSUSIYATLARI

Rasulova Soxiba Ulug'bekovna

Samarqand davlat chet tillar institute katta o'qituvchisi

THE EXPRESSIVE FEATURES OF SATIRE, HUMOR, AND ARTISTIC DEVICES IN WASHINGTON

IRVING'S PROSE

Расулова Сохиба Улугбековна

Старший преподаватель Самаркандского государственного
института иностранных языков

ВЫРАЗИТЕЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ САТИРЫ, ЮМОРА И ХУДОЖЕСТВЕННО- ИЗОБРАЗИТЕЛЬНЫХ СРЕДСТВ В ПРОЗЕ ВАШИНГТОНА ИРВИНГА

Rasulova Soxiba Ulugbekovna

Teacher of the Samarkand state institute of foreign languages

Annotatsiya. Mazkur maqolada Vashington Irvingning "Rip Van Vinkl", "Arvoh kuyov", "Uyqu vodiysi haqida afsona" kabi mashhur novellalari tahlil etilib, ularning badiiy va g'oyaviy xususiyatlari yoritiladi. Asosan, muallifning satira va yumordan qanday ijodiy vosita sifatida foydalangani, badiiy tasvir vositalari orqali g'aroyib, ramziy obrazlar yaratish usullari ochib beriladi. Irving o'z asarlarida xalq afsonalari, diniy xurofotlar, tarixiy va ijtimoiy voqealarni fantastika va realizm bilan uyg'unlashtirgan. Shuningdek, maqolada yozuvchining badiiy uslubi, obraz yaratishdagi san'atkorona yondashuvi, yumoristik va kinoyaviy ohangda ifodalangan xarakterlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Vashington Irving, satira, yumor, badiiy tasvir, obraz, xalq afsonasi, ramz, tarixiy kontekst, fantastika, Amerika adabiyoti.

Аннотация. В данной статье анализируются известные новеллы Вашингтона Ирвинга, такие как «Rip Van Винкль», «Жених-призрак», «Легенда о Долине Сонной», и освещаются их художественные и идейные особенности. В основном рассматривается, как автор использует сатиру и юмор в качестве творческого приёма, а также методы создания причудливых, символических образов с помощью художественно-изобразительных средств. Показано, что в своих произведениях Ирвинг сочетает народные легенды, религиозные предрассудки, исторические и социальные события с элементами фантастики и реализма. Кроме того, в статье анализируются художественный стиль писателя, его мастерство в создании образов, а также характеры персонажей, выраженные в юмористическом и ироничном тоне.

Ключевые слова: Вашингтон Ирвинг, сатира, юмор, художественное изображение, образ, народная легенда, символ, исторический контекст, фантастика, американская литература.

Abstract. This article analyzes the famous short stories by Washington Irving, such as Rip Van Winkle, The Specter Bridegroom, and The Legend of Sleepy Hollow, highlighting their artistic and ideological features. The focus is on how the author employs satire and humor as creative tools, and the ways he crafts whimsical, symbolic images through artistic devices. The study demonstrates how Irving combines folk legends, religious superstitions, historical and social events with elements of fantasy and realism.



Orcid:0009-0009-3278-1968

rasulovasokhiba@gmail.com

Additionally, the article examines the writer's literary style, his artistic approach to character creation, and the humoristic and ironic tone conveyed in the portrayal of his characters.

Keywords: *Washington Irving, satire, humor, artistic depiction, character, folk legend, symbolism, historical context, fantasy, American literature.*

INTRODUCTION (KIRISH). Irvingning “Rip Van Vinkl”, “Arvoh kuyov”, “Uyqu vodiysi haqida afsona” kabi novellalari uning 1819-yilda nashr etilgan “Chizgilar kitobi”ga kiradi. Bu romantik novellalarda Amerikaga dastlab borgan kelgindilar hayoti, u yerdagi odam oyog‘i tegmagan o‘rmonlar yozuvchining keng fantaziyasi bilan qo‘shilib ajoyib bir manzara kasb qiladi. U ko‘pchilik aytganidek, “birinchi Amerika yozuvchisi” bo‘lib ulg‘aygan. Uning yozgan asarlari milliy mifologiyaga o‘xshardi, ya‘ni: xalqning o‘tmishi haqidagi ilhomlantiruvchi hikoya yoki latifadir. Bunday miflar ko‘pincha muhim milliy ramz bo‘lib xizmat qiladi va milliy qadriyatlar majmuini tasdiqlaydi. Irvingning bu satirik tabiati “Rip Van Vinkl”da yaxshi namoyon bo‘ladi, chunki u Britaniya hukmronligi ostidagi mustamlaka hayotini yosh Qo‘shma Shtatlar demokratiyasi bilan masxara qilish uchun tarixiy ishoralar va ramziy belgilardan foydalanadi. Irving bunda uchta xususiyatni juda yaxshi birlashtiradi. Birinchisi, u uzoq vaqt o‘tmishda yaratiladi. Ikkinchidan, hikoya ajoyib va bo‘rttirilgan belgilarga ega. Nihoyat, bu asar sirli voqealar va ularning oqibatlarini o‘z ichiga oladi [1]. Irving novellalarida xalq afsonalari, diniy xurofotlari realistik hayot lavhalarini bilan uyg‘unlashib ketadi. Jumladan, uning “Rip Van Vinkl” asarini bunga misol qilib keltirish mumkin. Asar qahramoni bilan sodir bo‘lgan voqealar, qolaversa, Amerika Qo‘shma Shtatlarining mustaqillikka erishishi yozuvchi tomonidan kinoyali tarzda ifodalanadi [2, 126].

Bundan tashqari, V.Irving ijodida Amerika o‘tmishining badiiy romantikasi “Rip Van Vinkl”da [3, 9] satirik tabiatni yaxshi namoyon qildi, chunki u Britaniya hukmronligi ostidagi mustamlaka hayotini yosh Qo‘shma Shtatlar demokratiyasi bilan masxara qilish uchun tarixiy ishoralar va ramziy belgilardan foydalanadi. Irving o‘z hikoyalarida o‘quvchilarga xabar yuborish uchun satiradan foydalangan. U xotini va ularning munosabatlarini tasvirlash uchun hazildan foydalangan. Rip chuqur uyqudan uyg‘onganida, uning xotini vafot etganini va inqilob urushi tugaganini ko‘rdi. Irving ikki voqeani solishtirdi, amerikaliklar qirolning hukmronligidan

va Rip o‘zining mijing xotinidan ozod edi. U o‘z hikoyalarini yaxshiroq aytib berish va ikki voqeani bir-biriga bog‘lash uchun satiradan foydalangan.

MATERIALS AND METHODS (ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD). “Rip Van Vinkl”ning qahramonlari juda g‘alati. Xususan, Rip Van Vinkl. Barcha qahramonlar ichida u eng ko‘p ajralib turadi. Rip juda o‘ziga xos mavjudot. U hikoyada ahmoqona tarzda tasvirlangan. Ba’zi bolalarga marmar o‘yinini o‘ynashga yordam berayotgani uning yoshidan dalolat beradi. Hikoyaning ma’lum bir nuqtasida Rip tog‘da ba’zi erkaklar bilan uchrashadi. Ular biroz g‘alati edi. Haqiqiy bo‘lmagan, afsonaviy odamlar haqida gapirmasa ham bo‘ladi. Ularda sehrli ichimlik bor edi. Qahramonlar ham hikoyaga katta ta’sir ko‘rsatdi. Rip Van Vinkl hikoyasi Amerika inqilobini qo‘llab-quvvatlaydi.

Inqilob davridagi va undan oldingi voqealarning aksariyati kitobdagi sujet uchun ramziy ma’noga ega. Hikoya ikki xil avlod o‘rtasidagi o‘zgarishlar haqida gapiradi. Bu Rip tog‘da uxlab qolganidan oldin va keyin. Qishloq Amerika hamjamiyatini anglatadi. Atrofdagi o‘zgarishlar Amerikadagi o‘zgarishlarni anglatadi. Boshqa hukumat hokimiyatga keldi. Ripning dangasa xarakteri o‘sha davrdagi amerikaliklarni tasvirlaydi. Ularda ishlashga ishtiyoq yo‘q edi. Ripning rafiqasi Dame Britaniya boshqaruvini ifodalaydi. U doimo qichqirardi. U ustun xarakterga yoki shaxsiyatga ega edi. Uning oilasi undan qo‘rqishdi, hatto it yonida bo‘lganida o‘zini boshqacha tutdi.

Amerikalik yozuvchi V.Irvingning ijodiy merosi katta va rang-barangdir. Kitobxonga “Amerika qissalarining otasi” sifatida tanilgan Irving boshqa janrlarda ham o‘z izlarini qoldirgan. U uzoq umri davomida ijodiy izlanishda bo‘ldi, uning ijodiy merosi yumoristik esselar to‘plamlari, ocherklari, eslatmalari, romanlari, sayohat kundaliklari, tarixiy shaxslarning tarjimai holi, hikoyalari, ertaklar kabi asarlarni qamrab olgan. 1819-yilda unga shonshuhrat va e’tirof bergan to‘plam – “Eskizlar kitobi”dir. To‘plam Jeffri Krayon taxallusi ostida 1819-yilda nashr etilgan. Bu to‘plamga 31 ta hikoya

kiritilgan bo‘lib, ulardan eng yaxshilari Rip Van Vinkl (1819) va “Uyqusimon bo‘shliq afsonasi” (1819)dir. Asarlardagi voqealar o‘quvchini mustaqillik uchun urushgacha bo‘lgan tinch hayot poydevori bilan tinch vaqtga olib boradi. Golland mustamlakachilari avlodlarining kichik aholi punktlari Gudzon daryosining yoqasida va uning atrofidagi yerlarda joylashgan vaqtlar Irving o‘zining o‘ziga xos dunyosini yaratdi va o‘quvchini haqiqatdan uzoqlashtirishga harakat qildi. Bu, avvalambor, sokin antik dunyo. Shu bilan birga, har ikkala qissada ham ularning ajralmas qismi bo‘lgan fantastik asos bor. Bu romantik fantastika o‘zining poetik jozibasi bilan o‘quvchini maftun etadi. Biroq, shu bilan birga, bu mistik hikoyalardagi so‘z o‘yini va qandaydir kinoyani sezmaslik mumkin emas. Bu yerda muallif tomonidan bunday noaniq usullarni yaratish va ulardan foydalanish ma’nosini tushunish qiziqishlarga sabab bo‘ladi. Buni tushunish bizni Irvingning ushbu qisqa hikoyalarda fantastik rolini aniqlashga olib kelishi mumkin.

DISCUSSION AND RESULTS (MUHOKAMA VA NATIJALAR). Tadqiqotda V.Irvingning eng mashhur va iste’dodli qissalarida, xususan, “Rip Van Vinkl” va “Uyqusimon ichi bo‘sh afsona”da fantastikaning asosiy qirralarini ochib berish va uning o‘ziga xos tomonlarini belgilaymiz. Vashington Irving, o‘zining yevropalik zamondoshlari bilan solishtirganda, rus olimlari tomonidan unchalik keng o‘rganilmagan, ammo qayd etish mumkin-ki, M.N.Bobrova [4, 285], V.Solovyova [5, 471-477.], A.Zverev [6, 3-14.] maqolasi, B.Gilenson [7, 48-50.] asarida, shuningdek, adabiy ensiklopediyalardagi bir qancha umumiy maqolalarda bu haqda ma’lumotlar uchraydi. Xorijiy adabiy tanqidida V.L.Parrington [8, 591], P.Miller [9, 371 - 378], shuningdek, bir qator ingliz tilidagi ensiklopediyalarda ham Vashington Irving ijodi xususida ma’lumotlar mavjud.

Irving – yumorist o‘z o‘quvchisining his-tuyg‘ularini tarbiyalaydi, tasavvur va aqlni rivojlantiradi. U “zararsiz” ertaklar ko‘rinishida Amerika haqiqatining turli tomonlarini tanqid qila oladi. Irving ijodiy jarayonga hech qanday mistek ko‘rpa tashlamaydi, uning ijodida “anglab bo‘lmas” narsaning o‘zi yo‘q, barchasi ijodkor – muallifga bo‘yso‘nadi [10, 46].

Vashington Irvingning ko‘pchilik hikoyalari sayohatlari davrida eshitgan afsona va rivoyatlar asosida bitilgan. Shu jihatdan olib qaraganda, uning

“Arvoh kuyov” hikoyasi o‘quvchi e’tiborini beixtiyor o‘ziga tortib, sehrlab oladi [11,64]. Bosh qahramon kuch, jismoniy mahorat yoki aql-zakovat bilan emas, balki uning maqsadlariga qarshi bo‘lganlarning tasavvurlarini boshqarish orqali g‘alaba qozonadi. Hikoyaning birinchi qismida jangovar kekxa beva qolgan baron fon Landsxort yumor bilan tasvirlangan bo‘lib, u o‘zining yuksak mavqeyini yaxshi biladigan kambag‘al qarindoshlaridan iborat katta auditoriyani yig‘ib, yolg‘iz qizining hech birida bo‘lmagan yosh grafga turmushga chiqqanini nishonlaydi. Hikoyaning ikkinchi qismida o‘quvchi graf va uning do‘sti German fon Shtarkenfaust (qissaning bosh qahramoni aslo arvoh emas) qal‘aga sayohat qilganda, ularni qaroqchilar o‘rab olishganini bilib oladi. Qonunbuzarlar grafni o‘lim bilan yaraladilar, u so‘nggi nafasida fon Shtarkenfaustdan graf bilan yuz bergan mudhish voqeani baron va qiziga yetkazishini iltimos qiladi. Hikoyaning uchinchi qismi qasrga qaytadi, u yerda uzoq vaqtdan beri kechiktirilgan to‘y nihoyat oqarib ketgan, g‘amgin yigitni kutib oladi. Jim notanish odam g‘azablangan baronning boshqa masalalar qatori uning oilasining fon Shtarkenfaust oilasi bilan uzoq yillik adovatiga oid gapirayotganini eshitadi. Bu orada yigit qizining qalbini zabt etadi. Tez orada u lahmga dafn etilishi kerakligini aytib, jo‘nab ketadi. Ertasi oqshom qizning ikki qo‘riqchi xolasi derazadan tashqarida arvoh kuyovdan ayg‘oqchilik qilishdan dahshatga tushguncha arvohlar ishtirokida ro‘y bergan hikoyalari aytib berishadi; qiz uchinchi kecha xolalaridan alohida yotib, ularning qo‘rquvini rag‘batlantiradi va nihoyat qochib ketadi. O‘zini arvoh qilib ko‘rsatgan fon Shtarkenfaust bilan qaytib kelganida, baron darhol kelin-kuyovni kechiradi va abadiy baxtli hayot kechiradilar.

Irving Amerika adabiyoti tarqqiyotiga yumoristik hajviyalari bilan katta hissa qo‘shgan adibdir. Yozuvchi Britaniya hukmronligi ostidagi mustamlaka hayotini yosh Qo‘shma Shtatlar demokratiyasi bilan masxara qilish uchun tarixiy ishoralar va ramziy belgilardan foydalanadi. U har doim voqealarni she’riy yoki kinoyaviy tarzda taqdim etgan va faktlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri fantastika bilan, mahorat bilan bog‘lagan, qiziqarli sujetlar yaratgan hamda tarixiy shaxslarni roman qahramonlariga aylantirgan. Butun umri davomida Amerika va Yevropa o‘rtasida muvozanatni saqlab turgan Irving hayoti davomida nafaqat qarz olishga,

balki eski dunyoning ko'p asrlik madaniy an'alarini muvaffaqiyatli moslashtirishga muvaffaq bo'lgan klassikaga aylandi va shu bilan yosh Amerika adabiyoti uchun mustahkam poydevor qo'ydi.

CONCLUSION (XULOSA). Vashington Irving ijodida satira, yumor va badiiy tasvir vositalari o'ziga xos tarzda uyg'unlashib, o'quvchiga nafaqat qiziqarli, balki mazmunli asarlarni taqdim etadi. Uning novellalaridagi ramziy obrazlar va tarixiy fon orqali mustamlaka hayoti hamda yangi Amerika jamiyati tanqidiy yoritiladi. Shu sababli, Irving Amerikaning birinchi yozuvchilaridan biri sifatida milliy adabiyotning shakllanishida muhim o'rin egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. In Washington Irving's Rip Van Winkle. <https://edubirdie.com/examples/satire-in-washington-irvings-rip-van-winkle/Satire>
2. Азизов К., Қаюмов О. Чет эл адабиёти тарихи (XVIII-XX асрлар): Пед. Ин-т филол. фак. учун дарслик // Махсус ред. Саломов. Ғ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1987. – 435 б.
3. Tili o'rganilayotgan mamlakatlar fan dasturi. –Toshkent, 2019. – B.9.
4. Боброва М.Н. Романтизм в американской литературе XIX века; Изд-во: – Москва: Высшая школа, 1972. – 285 с.
5. Соловёва Н.А. Американг илк романтизми. XIX аср чет эл адабиёти тарихи: дарслик. Университетлар учун. – 2-нашр, Рев. ва қўшимча. –Москва, 2000. – С. 471-477.
6. Зверев А. Вашингтон Ирвинг / А. Зверев // Романлар / В. Ирвинг; бошига. инглиз тилидан. А. Бобович. –Москва, 1985. – С. 3-14.
7. Гиленсон Б.А. Вашингтон Ирвинг: Рип ван Винклинг қайтиши / Б.А. Гиленсон // АҚШ адабиёти тарихи: дарслик. нафақа / Б.А. Гиленсон. – М.: 2003. – С. 48-50.
8. Паррингтон В.Л. Америка тафаккурининг асосий оқимлари: 3 жилдда / – Москва, Эд. хорижий лит., 1962. - 2-жилд: Америкадаги романтик инқилоб (1800-1860). – Б. 591.
9. П.Миллер Эскиз китоби / В. Ирвинг. - НЙ ва Ссарбороугх, 1961. – С. 371 - 378.
10. Rasulova S.U. Vashington Irving ijodida “Al-Hamro” turkumining badiiy tahlili. Maqola. – So‘z san’ati jurnali. –Toshkent, 2020. – B.46.
11. Boynazarov F. Jahon adabiyoti. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Musiqa, 2006. – 160 b.



MILLIY OILALARDAGI FARZAND TARBIYASIDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH

Gadoeva Lobar Ergashevna

Buxoro davlat tibbiyot instituti

Ijtimoiy fanlar kafedrası (PhD) dotsenti

ФОРМИРОВАНИЕ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ В ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ В

НАЦИОНАЛЬНЫХ СЕМЬЯХ

Гадоева Лобар Эргашевна

Бухарский государственный медицинский институт

Кандидат наук, доцент кафедры социальных наук

FORMATION OF A HEALTHY LIFESTYLE IN CHILD EDUCATION IN NATIONAL FAMILIES

Gadoeva Lobar Ergashevna

Bukhara State Medical Institute

PhD Associate Professor, Department of Social Sciences



<https://orcid.org/0009-0003-2215-3358>

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Milliy oilalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga ijobiy ta’sir etuvchi omillar, Farzand tarbiyasida avvalo ona ma’lum bir etnotibbiy tartiblarga bo‘ysunishi shart ekanligi, sanitariya va gigiyena talablariga rioya etishning ko‘rinishlari haqidagi ma’lumotlar ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: etnotibbiy tartiblar, nikoh, Oila, retrospektiv, farmakologiya industriyasi, Notibbiy irim-sirimlar.

Аннотация: В статье представлена информация о факторах, положительно влияющих на формирование здорового образа жизни в национальных семьях, о том, что в воспитании ребенка мать должна в первую очередь придерживаться определенных этномедицинских процедур, о проявлениях соблюдения санитарно-гигиенических требований.

Ключевые слова: этномедицинские практики, брак, семья, ретроспектива, фармакологическая индустрия, немедицинские тайны.

Abstract: This article presents information on the factors that positively influence the formation of a healthy lifestyle in national families, the fact that in raising a child, the mother must first of all adhere to certain ethnomedical procedures, and the manifestations of compliance with sanitary and hygienic requirements.

Keywords: ethnomedical procedures, marriage, family, retrospective, pharmacological industry, non-medical secrets.

Etnotibbiy talablar o‘zbek xalqida saqlanib keladi. Farzand tarbiyasida, avvalo, ona ma’lum bir etnotibbiy tartiblarga bo‘ysunishi shart edi. U o‘zini ozoda, sarishta tutishi, tani-badanini har kuni yuvib, tozalab, zarur moylar surib turishi, og‘zi ichini har kuni uch-to‘rt marta chayqab, ko‘kraklarini yumshoq latta bilan bostirib, farzandi yotadigan beshikni, joyini ko‘zdan kechirib, ho‘l emasligini aniqlab

borishi kabi qator talablarni bajargan. Qirq kungacha bola belanchakka ulanishi, ushbu belanchak kuniga ikki uch marta almashtirilishi, go‘dak oyoqlari va barmoqlari orasi shamollatilib, quruq saqlanishi darkor edi. Ushbu etnotibbiy talablar o‘zbek xalqida hamon saqlanib kelmoqda. Ular bir tomondan, sanitariya va gigiyena talablariga rioya etishning ko‘rinishi, ikkinchi tomondan, o‘zbek xalqining

uzoq asrlar jarayonlarida shakllangan etnotibbiy qadriyatlaridir. Hozirgi globallashuv sharoitida dunyoda kuchayib borayotgan turli ma'naviy tahdidlarning oldini olish, "ommaviy madaniyat"ning zararli ta'siridan yoshlarni himoya qilish masalalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yosh avlod o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, yoshlar ongini yot g'oyalar ta'siridan asrash, axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish, jinoyatchilik, huquqbuzarlik, giyohvandlik, diniy ekstremizm va terrorizm illatlarining oldini olishga ko'maklashish hamda yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini yuksaltirish lozim. Axborot globallashuvi tufayli turli mafkuraviy ta'sirlar, ayniqsa, yoshlar tafakkurini egallashga qaratilgan g'arazli xurujlar tobora kuchaygan bugungi davrda bunday xatarlarga qarshi doimo sergak, ogoh va hushyor bo'lib yashash har birimizning burchimizdir. Yurtimizda yosh avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini to'g'ri shakllantirish, ularni turli tahdidlardan himoya qilish, ong-u tafakkurini yuksaltirish ma'naviy-ma'rifiy sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning eng asosiy yo'nalishlaridan biridir. Globallashuvning yoshlar tarbiyasiga o'tkazayotgan salbiy ta'siri quyidagilarda namoyon bo'lmoqda: Birinchidan, informatsion vositalarning yuksak rivojlanishi natijasida internet, uyali telefon, telekommunikatsiyalar va turli axborot nashrlarining kirib kelishi. Bu vositalar orqali taklif etilayotgan "qadriyatlar" ko'p hollarda yoshlarimizni o'zimizning milliy qadriyatlarimizdan uzoqlashtirib qo'ymoqda, o'z tarixiy ildizlaridan uzoqlashuviga olib kelmoqda.

"Milliy oilalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishga ijobiy ta'sir etuvchi omillar:

- oilaviy hayot tarzidan boshqacha hayotni tan olmasligida;
- nikohlanish darajasining yuqoriligi, uylanmagan va turmushga chiqmagan xotin-qizlarning o'ta kamligi;
- erta nikohlanish;
- oilaparvarlik;
- bolajonlik;
- mehr-oqibatlilik;

- qariyalar va yoshlarga munosabatda insonparvarlik tamoyillariga rioya qilinishida ifodalanadi"¹.

Ha, retrospektiv yondashganda, o'zbek etnomadaniyati va turmush tarzida oilaviy hayotni e'zozlash an'anasiga duch kelamiz. Uzoq davom etgan patriarxal qarashlar, erkakning yetakchilik rolini islom tomonidan qo'llab-quvvatlanishi va bu an'analarning u yoki bu ko'rinishda hamon uchrashi oila institutining ahamiyatini oshirgan. Jamoa bo'lib yashashni qutlovchi hayot tarzi, jamiyat uchun oila kishilarni ma'lum bir makonda, shakllangan tartiblar va ma'naviy-axloqiy tartiblar asosida ushlab turishni ta'minlovchi institut hisoblanadi. Bunday jamiyat bor kuchi bilan oila institutini saqlab qolishga, uni mustahkamlashga intiladi. Buni avvalo Sharqona hayot tarzi, undagi ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, normalar bilan baholash lozim. Oila bolani, go'dakni sog'lom o'sishini ta'minlaydi, unga etnotibbiy ko'nikmalarni singdiradi, shu nuqtai nazardan oila institutiga teng keladigan ijtimoiy makon yo'q. Biroq, keyingi yillarda G'arb liberal demokratik qarashlari ta'sirida yakka yashashga, egoistik manfaatlarga tayanishga, o'z qiziqishlarini ustun qo'yishga intilish ham uchrayotgani kuzatiladi. Oila bu ta'sirlarga qanday javob berishi kerak, degan savolga bir xil, standart javob berish yetarli emas. Agar biz inson huquq va erkinliklarini oliy qadriyat sifatida e'tirof etadigan bo'lsak, yangi davrning, ayniqsa G'arb liberal demokratik qarashlar tarzining ta'sirini hisobga olishga majburlamiz. Demak, etnotibbiy madaniyatimizga oid yondashuvlarda ma'lum bir transformatsiyalar uchrashi tabiiy holdir. Masalan, keyingi yillarda jahon meditsinasi va tabiiy fanlar erishgan yutuqlar, inson sog'-salomatligi va unga qarshi tug'ilyotgan tahdidlar haqidagi axborotlar O'zbekistonga ham yetib kelmoqda. Bugun tibbiyot muassasalari, farmakologiya industriyasi va tibbiyot oliygohlari qo'llayotgan atamalar, preparatlar, diagnostik muolajalarning deyarli 80 foizi chet ellar, asosan G'arbdan olinmoqda. Aholi salomatligi bo'yicha yaratilayotgan standartlar ham G'arb andozalariga muvofiqlashtirilgandir. Bu nafaqat xalqimizning etnotibbiy an'anasiga, qarashlariga, shuningdek, inson salomatligi, uni asrash va sog'lom turmush tarzining shakllantirish borasidagi zamonaviy

¹ Xalmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi. -Toshkeknt.: 2000. -B. 127.

me'yorlarga ham ta'sir etmay qolmaydi. Sog'lom farzand tug'ish va uni voyaga yetkazish har bir xalqning tabiiy instinkti ifodasi deyish mumkin. Millatning haqiqiy, chin boyligi uning sog'lom avlodi, farzandlaridir.

Shaxs salomatligini asrashga qaratilgan irim-sirimlar zamonaviy ilm zid bo'lsa-da, hamon uchrab turadi. Ba'zan bunday notibbiy qarashlar, tajribalar no'noq vrachlarning uquvsizligi, chalasavodligi va xastalikni yengish usullarini qo'llay olmasligi natijasida yuzaga keladi.

Notibbiy irim-sirimlar ba'zan xalq tabobati nomi bilan ham yuritiladi. Ular o'rtasidagi farqlarni topish va asoslash juda qiyin ish.

Etnotibbiy an'analarda xalq tabobati, shu jumladan, irim sirimlarning genezisi ibtidoiy davrlarga borib taqaladi. Ularning ibtidoiy madaniyat bilan bog'liq ayrim jihatlarini mashhur etnograflar, madaniyatshunoslar E.B.Taylor, M. Mid o'rganishgan². O'zbek xalqiga oid etnografik izlanishlarni I.Jabbarov, B.Sarimsoqov, M.Jo'raqulov, A.Ashurov kabi tadqiqotchilar o'tkazishgan³. Irim deganda biror niyat bilan qilingan hatti-harakat nazarda tutiladi. Irim-sirimlarda qandaydir kuchga, uning balo-qazolardan, yomon kuchlar ta'siridan qutqarishiga ishonch yotadi. O'zbek xalqi ichida hamon uzoq umr ko'rayotgan kishining duosini olish yoki uning biror narsasini yodgorlikka olib qo'yish, kasallikdan forig' bo'lgan kishiga uchrashish, tabib yoki nafasi bilan davolovchidan duo yozilgan xaltacha olish, chaqaloqqa balo-qazolar ta'siri urmasin deb yostig'i tagiga pichoq, garmdori yoki duo yozuvini qo'yish, ko'p vaqtdan beri tug'mayotgan ayol qo'yniga yangi tug'ilgan go'dakni kiritish, "kulcha yumalash", yaxshi eshitmayotgan quloqqa emizikli ayol ko'krak sutini tomizish, baquvvat va chiroyli o'sayotgan go'dak bo'yniga yomon ko'zlar tegmasin, deb tumor taqib qo'yish kabilarni keltirish mumkin. Ma'naviy-axloqiy fazilatlar zanjirining keyingi halqasini sabotlilik fazilati tashkil etadi. U – ulug' maqsadga yetishish uchun qat'iy harakatdir. Ulug' ishlar va buyuk maqsadlarga intilgan odamni hech bir qiyinchilik va to'siqlar to'xtata olmaydi, balki besabr va shoshqaloq insonlar hayotda o'z maqsadlarini

amalga oshira olmaydi, natijada, jamiyat ma'naviyaxloqiy muhitiga rahna soluvchi illatlar ildiz otishiga sabab bo'ladi. Olimlar sabotlilik fazilati jamiyatda mo'tadil muhitni qaror toptishrida muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab, ushbu fazilat, avvalo, har bir kishida, qolaversa, ijtimoiy faol va albatta, tarbiya ishi bilan shug'ullanuvchilarda bo'lishi kerakligini ta'kidlab, kishida sabotlilik fazilatini shakllantirish izchil va uzviy amalga oshiriladigan iroda quvvati va halol mehnatni talab qiladi. Bu fazilat insonni kashfiyotga boshlaydi. Yana bir ma'naviy-axloqiy fazilat halimlilik bo'lib, odamni odamga birodar va do'st qiluvchi, yaxshilik va ezgulikka chorlovchi xususiyatga ega.

Etnotibbiy madaniyatning shakllanishida xalq tabobatining o'rni katta. O'lkamizda professional davolovchilar asosan tabiblar bo'lgan. Zamonaviy tibbiy bilimlarning yoyilishi bilan xalq tabiblarining roli susaygan, ayniqsa turli-tuman kasalliklarning paydo bo'lishi, ko'payishi tibbiy xizmatlar doirasining kengayishiga olib kelgan. Ayrim kasalliklarning ommaviy xarakter kasb etishi tibbiy xizmat turlarini texnikalashtirishga undadi, yangi texnika vositalaridan foydalanishni hayot tarziga aylantirdi. Shubhasiz, zamonaviy tibbiyot ulkan yutuqlarni qo'lga kiritgan, davolashning yangi-yangi vositalari va usullarini yaratgan, yaratmoqda. Shu bilan birga, kasalliklarning turlari ham ko'payib borayotgani ajablanarli hol, albatta. "XXI asr insoniyat faoliyatining har sohasida buyuk kashfiyotlar va jo'shqin texnologik rivojlanish asri deb nomlandi. Biroq tibbiyot sohasiga, tajriba izlanishlarga ko'p milliardlik mablag'lar ajratilishiga qaramay, odamlar kasal bo'layaptilar va bevaqt vafot etayaptilar. Har kuni katta-katta dorixonalar ochilmoqda. Har kuni yer yuzida 500 dan ziyod yangi dorixonalar kashf qilinmoqda. Har kuni yer yuzida minglab yangi, turli tuman, mukammallashtirilgan oziq-ovqat mahsulotlari paydo bo'lmoqda. Ammo yillar sayin har xil kasalliklar soni o'sib borayapti"⁴. Demak, salomatlikni asrash va ta'minlash masalasi insoniyat bilan birga qadam tashlab, hatto uni har kuni, har soatda, hatto har onda o'ylantirib, tashvishga solib

² Taylor E.B. *Pervobytnaya kultura*. Moskva: Politizdat, 1989; Mid M. *Kultura i mir detstva*. - Moskva: Gl. Red. Vostoch. litra, 1988.

³ Jabbarov I. *O'zbek xalqi etnografiyasi*. - Toshkent: O'qituvchi, 1999; Sarimsoqov B. *O'zbek marosim folklori*. - Toshkent: Fan, 1979.

⁴ Smotrov Yu. *Halokat yoqasida*. - Qarshi, Nafas nashriyoti, 2010. –B. 4-5.

kelayotgan muammolardan biridir. Bu muammoni faqat zamonaviy tibbiyot bilan to‘la-to‘kis hal etish mumkin deb o‘ylash soddalikdir. Uzoq rivojlanish jarayonlarida sinovlardan o‘tgan xalq tabobatidan, eng muhimi kishilarning o‘z organizmini quloq solish orqali orttirgan tajribalaridan, ya’ni etnotibbiy madaniyat imkoniyatlaridan foydalanish va shaxsni sog‘lom turmush tarzi olib borishga o‘rgatish zarurdir. Sog‘lom turmush tarzi faqat tibbiy masala emas, unda sotsial, tibbiy, biologik, ekologik, fiziologik, noosfera va inson shaxsi, ruhiyati bilan bog‘liq muammolar uyg‘un keladi. Bu esa sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga keng qamrovli, kompleks yondashuvni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Xalmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog‘lom avlod tarbiyasi. - Toshkent: 2000. –B. 127.
2. Тайлор Э.Б. Первобытная культура. Москва: Политиздат, 1989; Мид М. Культура и мир детства. - Москва: Гл. Ред. Восточ. лит-ра, 1988.
3. Jabbarov I. O‘zbek xalqi etnografiyasi. - Toshkent: O‘qituvchi, 1999; Sarisoqov B. O‘zbek marosim folklori. - Toshkent: Fan, 1979.
4. Smotrov Yu. Halokat yoqasida. - Qarshi, Nafas nashriyoti, 2010. –B. 4-5.



INGLIZ TILIDAGI BOG'DORCHILIK TERMINLARINING LEKSIKOGRAFIK TALQINI

Diyarov Akmal To'liqin o'g'li

Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi

ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКОЕ ТОЛКОВАНИЕ САДОВОДЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Дияров Акмал Тулкин угли

*Преподаватель Каттакурганского филиала Самаркандского
государственного университета*

LEXICOGRAPHIC INTERPRETATION OF HORTICULTURAL TERMS IN ENGLISH

Diyarov Akmal To'liqin o'g'li

Teacher of Kattakurgan branch of Samarkand state university



E-mail:

diyarov.tulkin@bk.ru

Orcid: 0009-0008-4027-
1506

Annotatsiya: Ushbu maqola ingliz tilidagi bog'dorchilik terminlarining leksikografik talqini va tarjima jarayonidagi muammolarni o'rganadi. Bugungi globalashuv davrida bog'dorchilik sohasining jadal rivojlanishi, shu bilan birga, bu sohadagi terminologiyaning tez o'zgarishi va yangilanib borishi zaruratini keltirib chiqarmoqda. Maqolada ingliz va o'zbek tillari o'rtasidagi bog'dorchilik terminlarining tarjima va leksikografik talqinidagi farqlar, shuningdek, sun'iy intellekt platformalarining tarjima jarayonidagi o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: bog'dorchilik terminologiyasi, leksikografiya, tarjima, sun'iy intellekt, semantik rivojlanish, tarjima lug'atlari, mikrostruktura, ingliz tili.

Аннотация: Эта статья рассматривает лексикографическое толкование садоводческих терминов на английском языке и проблемы, возникающие в процессе перевода. В условиях глобализации быстрый рост садоводческой отрасли привел к быстрому изменению и обновлению соответствующей терминологии. В статье анализируются различия в переводе и лексикографическом толковании садоводческих терминов между английским и узбекским языками, а также роль платформ искусственного интеллекта в процессе перевода.

Ключевые слова: терминология садоводства, лексикография, перевод, искусственный интеллект, семантическое развитие, двухязычные словари, микроструктура, английский язык.

Annotation: This article examines the lexicographic interpretation of horticultural terms in the English language and the challenges encountered in the translation process. In the current era of globalization, the rapid development of the horticultural sector has led to the swift evolution and updating of relevant terminology. The article analyzes the differences in the translation and lexicographic interpretation of horticultural terms between English and Uzbek, as well as the role of artificial intelligence platforms in the translation process.

Key words: horticultural terminology, lexicography, translation, artificial intelligence, semantic development, bilingual dictionaries, microstructure, English language.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Hozirgi globalashuv davrida bog'dorchilik sohasining jadal rivojlanishi sohaviy terminlarning ham tez sur'atlarda yangilanib borishiga sabab

bo'lmoqda. Bog'dorchilik terminologiyasi har bir millatning madaniy va iqtisodiy shakllanish jarayonida muhim ahamiyat kasb etgan soha sifatida o'ziga xos leksik qatlamni tashkil etadi. Ingliz va

o'zbek tillari o'rtasida bog'dorchilik terminlarining leksikografik talqini ilmiy-amaliy jihatdan dolzarb muammo bo'lib, ushbu terminlarning izohli va tarjima lug'atlarida to'g'ri aks ettirilishi soha rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Tarjima lug'atlari (ya'ni ikki tilli lug'atlar)ning mohiyati bir tilli lug'atlardan tubdan farq qiladi. Bir tilli lug'atlarda foydalanuvchi bir til doirasida tushunchalarning mazmuni va zarurat tug'ilganda, lingvistik (fonetik, morfologik va sintaktik) jihatlari yuzasidan ma'lumot oladi. Tarjima lug'atlarida esa ikki va undan ortiq til madaniyati va uning lug'aviy birliklari mazmuni, leksik-semantik hamda uslubiy-sintaktik xususiyatlariga e'tibor qaratiladi. Sodda qilib aytganda, tarjima lug'atlarining asosiy vazifasi foydalanuvchiga notanish bo'lgan tushuncha yoki ma'lumotni unga tanish bo'lgan til imkoniyatlari doirasida talqin qilishdan iborat va aksincha.

Tarjima lug'atlarining ahamiyati foydalanuvchining aktiv (yozma yoki og'zaki axborot yaratish) yoki passiv (yozma yoki og'zaki axborotni talqin etish) til operatsiyalarida namoyon bo'ladi. Bunda tarjima lug'atlarining turi ham farqlanadi. Mavjud nisbatan kam sonli tarjima lug'atlarining aksariyati passiv lug'atlar hisoblanib, ular amaliy nutq yaratish jarayonida yetarli samaradorlikni ta'minlay olmaydi. Bu cheklovlar ularning mikrostruktura tuzilishi va xususiyatlari bilan bog'liq. Lug'at mikrostrukturasini elementlari va ularning keltirilish tartibi lug'atning mohiyati va funksiyasini belgilaydi.

Lug'at mikrostrukturasini unga yuklangan vazifaga muvofiqlashtirish uchun leksikograf olim o'zini ma'lum passiv yoki aktiv nutqiy vaziyatlarda harakat qilayotgan foydalanuvchi o'rniga qo'yib ko'rishi lozim. Bunday yondashuv orqali lug'atning qaysi xususiyatlari amaliy qo'llanishda samarali natija berishini aniqlab, yuqori saviyali leksikografik mahsulot yaratish imkoniyati tug'iladi.

МУХОКАМА(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION) Ikki tilli lug'atlar so'z mazmunini tushuntirishi yoki izohlashi kerak emas, ular shundoq olib, ma'lum kontekstga qo'llanganda, silliq tushadigan va to'liq mazmun kasb etadigan leksemalar shaklidagi tarjima ekvivalentlarni taklif qilishi kerak [2]. Bu ularga qo'yiladigan asosiy talabdir. Keyingi ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan masala, bog'dorchilik

terminlari semalarining lug'atda berilishi tartibiga taalluqli. Bu leksikografiyaning ko'plab bahsmunozaralarga sababchi bo'lgan muammolaridan sanaladi. Jahon leksikograflari jamiyatida so'zning mavjud semalarini lug'atlarda keltirishning quyidagi uch metodi farqlanadi:

Qo'llanilish chastotasiga ko'ra. Bu metodni qo'llash leksikograflardan so'zlarning turli uslub va hayotiy vaziyatlarda qo'llanilish ko'lamiga oid o'tkazilgan tadqiqot natijalariga murojaat etishni yoki muqobil tadqiqotlarni olib borishni talab etadi. Lug'atshunos olim uchun kichikroq ko'lamdagi tadqiqot o'tkazishning yana bir usuli til korpusi namunalarini o'rganib, tahlil qilib, jamlab hamda umumlashtirib, ishonchli xulosalarni qo'lga kiritish hisoblanadi. Bu tajriba ilk marotaba mashhur takomillashgan Cobuild lug'atini yaratishda qo'llanilgan. Mazkur usulni *blossom* leksemasining leksikografik talqini namunasida ko'ramiz:

1. *n. Blossom – bu daraxtda meva paydo bo'lishidan oldin ochiladigan gullardir.*

The cherry blossom came out early in Washington this year.

Syn. flower, bloom, bud, efflorescence

2. *v. Blossom – unib ulg'ayish, rivojlanish. Shaxs yoki narsa unib rivojlansa, jozibali holatga kelib qoladi.*

Why do some people take longer than others to blossom? [VERB]

What began as a local festival has blossomed into an international event. [VERB + into]

The pair have tried to keep their blossoming relationship under wraps. [VERB-ing]

Syn. develop, bloom, grow, mature

Mazkur terminning ikkinchi semasi turli leksemalar bilan sinonim bo'lishini inobatga olib, boshqa uslubdagi gaplarda ifodalanishi ikkinchi misolda keltirib o'tildi. Xuddi shunday uslub jihatdan turli holatlarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan terminlardan yana biri *bud*.

1. *n. Bud (kurtak) - bu daraxt yoki o'simlikda paydo bo'ladigan va keyinchalik barg yoki gulga aylanuvchi kichik, uchi o'tkir bo'rtma.*

Rosanna's favourite time is early summer, just before the buds open.

Ushbu termin keltirilgan holatda bog'dorchilik termini sifatida qo'llanadi va sinonimlari uchratilmaydi.

2. v. *Bud* – ushbu ma'noda odatda davomiy shaklda qo'llanilib, daraxt yoki o'simlikning kurtak chiqarish jarayonini harakat tarzida ifodalaydi.

The leaves are budding on the trees below.

Syn. Develop, grow, shoot, sprout.

Keltirilgan ta'riflardan ma'lum bo'ladiki, *bud* termini turli holatlarda qo'llanilishi mumkin ekan (hattoki og'zaki va norasmiy uslubda ham). Ta'rif keltirilayotgan *soil* leksemasi haqida gap ketganda quyidagi ta'riflarni COBUILD lug'atida kuzatish mumkin:

1. n. *Soil* – tuproq – bu yer yuzasida joylashgan va o'simliklar o'sishi uchun asos bo'luvchi modda.

We have the most fertile soil in Europe.

Syn: earth, ground, clay, dust

2. n. “*Tuproq*” so'zini “*Britaniya tuprog'i*” kabi iboralarda ishlatish mumkin, bu esa mamlakat hududiga ishora qiladi.

The issue of foreign troops on Turkish soil is a sensitive one.

Syn: territory, country, land, region

Mazkur lug'atda bog'dorchilik terminlarining ma'nolari eng keng qo'llanilishi holatidan eng kam qo'llanilish holatiga qarab joylashtirilgan. Bu tartib foydalanuvchi uchun qator qulayliklarga ega. Lug'at mikrostrukturasi xabardor foydalanuvchi zarur bo'lmagan holatda (ya'ni, so'zlarning kam qo'llanilish mazmuniga ehtiyoj bo'lmaganda) so'z ma'nolarining qatorini oxirigacha ko'rib chiqish shart emasligini anglaydi va bu orqali vaqtdan yutadi [5].

NATIJARLAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Bog'dorchilik terminlari orasida bir nechta asosiy qo'llanilish mazmunlari va ularning atrofida shakllangan metaforik qo'llanilish holatlarining keltirilishi lug'atning ilmiy qimmatini oshiradi. Ko'pchilik an'anaviy hamda zamonaviy onlayn lug'atlar ham shu metoddan foydalanadi. Bunda so'zlarning asosiy mazmunlari ma'lum usul bilan belgilanadi (masalan, arab yoki rim raqamlari vositasida), ularning asosida shakllangan metaforik qo'llanilish holatlari esa boshqa farqli usul (masalan, lotin alifbosi kichik harflari yoki qavsli arab raqamlari vositasida) orqali asosiy ma'noning ichki strukturasi sifatida taqdim etiladi [4].

Bu tamoyilni mashhur o'zbek tilshunos olimi I.Qo'chqortoyev ham o'zining “So'z va uning agentligi” asarida ilmiy asoslab bergan. Olimning nazariy qarashlariga ko'ra, ko'p ma'nolilikning radial, zanjirsimon va radial-zanjirsimon kabi turlari farqlanadi. Bu konseptual yondashuv bog'dorchilik terminlarining mazmunlarini leksikografik talqin qilishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi va terminlarning semantik taraqqiyotini tizimli tarzda aks ettirish imkonini beradi.

*Lecturer, Department of Foreign Languages and Literature for
Junior Courses*

Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy



E-mail:

gulnoramengniyozova67@gmail.com

Orcid: [0009-0000-3157-2990](https://orcid.org/0009-0000-3157-2990)

Annotatsiya. Ushbu maqola so‘z turkumlarining tipologik tasnifi va ularning bir-biriga ta’sirini o‘rganishga qaratilgan. Maqolada so‘z turkumlarining morfologik, sintaktik va semantik xususiyatlari tahlil qilinadi, shuningdek, turli tillardagi so‘z turkumlarining o‘zaro ta’siri va evolyutsiyasi haqida fikr yuritiladi. Maqolada o‘zbek tilidagi so‘z turkumlarining o‘ziga xos xususiyatlari, ularning boshqa tillar bilan taqqoslanishi, so‘z turkumlarining sintaktik va semantik aloqalari keng muhokama qilinadi. Tildagi morfologik va sintaktik tuzilmalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishlar va semantik o‘zgarishlar hamda tilning evolyutsiyasi haqidagi fikrlar ilmiy izlanishlarga asoslanadi. Maqola tilshunoslikda so‘z turkumlarining o‘zaro ta’sirini o‘rganishning ahamiyatini ochib beradi va bu mavzudagi zamonaviy tadqiqotlar uchun metodologik yondashuvlarni taklif etadi.

Kalit so‘zlar: so‘z turkumlari, tipologik tasnif, morfologiya, sintaksis, semantika, o‘zbek tili, tilshunoslik, so‘z turkumlarining o‘zaro ta’siri, grammatik xususiyatlar, tildagi evolyutsiya, lingvistik tipologiya, til strukturalari.

Аннотация. Данная статья посвящена изучению типологической классификации частей речи и их взаимного влияния. В статье анализируются морфологические, синтаксические и семантические характеристики частей речи, а также рассматривается их взаимодействие и эволюция в различных языках. Особое внимание уделяется особенностям частей речи в узбекском языке, их сравнению с другими языками, а также синтаксическим и семантическим связям между частями речи. Взаимосвязь между морфологическими и синтаксическими структурами языка, семантические изменения и языковая эволюция рассматриваются на основе научных исследований. Статья раскрывает значение изучения взаимодействия частей речи в лингвистике и предлагает методологические подходы для современных исследований в этой области.

Ключевые слова: части речи, типологическая классификация, морфология, синтаксис, семантика, узбекский язык, лингвистика, взаимодействие частей речи, грамматические особенности, языковая эволюция, лингвистическая типология, языковые структуры.

Abstract. This article focuses on the typological classification of parts of speech and their mutual influence. It analyzes the morphological, syntactic, and semantic features of parts of speech, as well as their interaction and evolution across different languages. Special attention is given to the unique characteristics of parts of speech in the Uzbek language, their comparison with other languages, and the syntactic and semantic connections between word classes. The paper also discusses the interrelation between morphological and syntactic structures, semantic changes, and language evolution, all supported by scholarly research. The article highlights the significance of studying the interaction of parts of speech in linguistics and offers methodological approaches for contemporary research in this field.

Keywords: parts of speech, typological classification, morphology, syntax, semantics, Uzbek language, linguistics, interaction of parts of speech, grammatical features, language evolution, linguistic typology, language structures.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION). Soʻz turkumlari tilshunoslikda tilning asosiy strukturaviy birliklaridan biri boʻlib, har bir soʻz turkumi oʻzining morfologik, sintaktik va semantik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Har bir tilning oʻziga xos soʻz turkumlari tizimi boʻlib, bu tizimning tahlili tilni chuqurroq tushunishga imkon beradi. Soʻz turkumlari orasidagi farqlarni oʻrganish, tilning murakkab va koʻp qatlamli strukturasi haqida muhim maʼlumotlar beradi. Tilshunoslar, ayniqsa, soʻz turkumlarining oʻzaro aloqalari va ularning bir-biriga taʼsirini oʻrganishda koʻp kuch sarflaydilar. Bu jarayon tilning morfologik va sintaktik tuzilishini yaxshiroq tushunishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Soʻz turkumlarining tipologik tasnifi masalasi tilshunoslikdagi muhim masalalardan biri boʻlib, ushbu mavzu borasida hozirga qadar bir qator mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Xususan, R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boqiyeva kabi mahalliy olimlar tomonidan nashrga tayyorlangan “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” [2], N.Sattarova tomonidan nashr qilingan “Ona tili va adabiyot faniga ixtisoslashgan maktablarda oʻquvchilarni tahlil qilishga oʻrgatish usullari” [1], K.Usmonova tomonidan nashr qilingan “Adabiy taʼlimda ilgʻor pedagogik texnologiyalar” [4] nomli tadqiqotlarda soʻz turkumlarining tipologik tasnifi, yaʼni turli tillarda soʻz turkumlarining qanday tashkil topishi, ularning oʻzaro bogʻlanishlari va oʻzgarishi, tilning tabiiy rivojlanish jarayonlari atroflicha oʻrganilgan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION). Har bir soʻz turkumi oʻziga xos semantik vazifani bajaradi va til tizimida alohida oʻringa ega. Masalan, otlar predmet

yoki mavjudotlarni ifodalasa, feʼllar harakat yoki holatni bildiradi, sifatlar esa predmetlarning holatini yoki xususiyatlarini belgilaydi. Bu soʻz turkumlarining oʻzaro taʼsiri, bir-biriga nisbatan oʻzgarishlarga olib kelishi mumkin. Soʻz turkumlari orasidagi aloqalar tildagi evolyutsiya jarayonlarini tushunishga yordam beradi. Tilning rivojlanishida baʼzi soʻz turkumlari boshqa turkumlarga aylanishi mumkin. Misol uchun, baʼzi tillarda feʼl va sifatlar oʻrtasidagi chegaralar noaniq boʻlishi mumkin va vaqt oʻtishi bilan baʼzi feʼllar sifatga yoki otga aylanishi mumkin. Bu kabi oʻzgarishlar tilning dinamik xususiyatlarini ochib berish, uning vaqt oʻtishi bilan qanday rivojlanayotganini tushunish uchun juda muhimdir. Shuningdek, soʻz turkumlarining oʻzaro taʼsiri va bu taʼsirning tildagi sintaktik va semantik tizimlarga qanday taʼsir qilishi koʻp jihatdan tildagi nutq jarayonlari bilan bogʻliq [1].

Oʻzbek tilidagi soʻz turkumlari rus, ingliz, arab tillariga nisbatan oʻziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, oʻzbek tilida sifat va otlarning oʻrtasidagi farq aniq boʻlsa-da, boshqa tillarda bu ikki turkumning chegaralari biroz noaniq boʻlishi mumkin. Shu bilan birga, oʻzbek tilida feʼlning sintaktik roli va uning boshqa soʻz turkumlari bilan aloqasi alohida oʻrganishni talab qiladi. Bu tahlil soʻz turkumlarining bir-biriga taʼsiri va ularning semantik xususiyatlarini yoritish, tilni chuqurroq tushunish va oʻrgatishda foydalidir.

Soʻz turkumlarining tipologik tasnifi va ularning bir-biriga taʼsiri tilni oʻrganishda yangi yondashuvlarni ishlab chiqishga yordam beradi. Misol uchun, soʻz turkumlarining qanday paydo boʻlishi va rivojlanishi haqida tushunchalar yaratish orqali, yangi tillarda soʻz turkumlarini tasniflashda zamonaviy metodlarni qoʻllash mumkin. Shunday qilib, soʻz turkumlarining oʻzaro taʼsiri va ularning

turli tillarda qanday o'zgarishi haqidagi ilmiy tadqiqotlar tilshunoslikka yangi imkoniyatlar ochib beradi [3].

Tilshunoslikda bu mavzu nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliyotda ham muhimdir, chunki tilni o'rganishda yoki tarjima qilishda so'z turkumlarining o'zaro ta'sirini tushunish juda zarur. Bu tahlil, tilning dinamik rivojlanishini yoritishda va tilning semantik, morfologik va sintaktik tuzilmalarini yaxshiroq tushunishda asosiy vosita hisoblanadi [2].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ/ RESULTS).

Har bir tilda so'z turkumlarining morfologik xususiyatlari va ularning sintaktik roli o'zaro ta'sir qilishi mumkin. Misol uchun, o'zbek tilida fe'ning shaxs va zamon formasidagi o'zgarishlari gapda predikat sifatida faol ishtirok etadi, bu o'zgarishlar sintaktik struktura bilan bog'liqdir. So'z turkumlarining semantik roli ba'zan tilning evolyutsiyasiga bog'liq ravishda o'zgaradi. Ba'zi so'zlar turkumlarining semantik ma'nolari vaqt o'tishi bilan kengayadi yoki torayadi. Misol uchun, ba'zi fe'llar sifatga yoki otga aylanishi mumkin, bu esa tildagi o'zgarishlarni ko'rsatadi. So'z turkumlarining sintaktik roli, ularning tilda qanday ishlatilishi, ularning bir-biriga ta'sirini aniqlashda muhim o'rin tutadi. Masalan, ot va sifatning birgalikda ishlatilishi gapda predmet va holatni ifodalaydi [4].

So'z turkumlarining tipologik tasnifi va ularning bir-biriga ta'siri tilshunoslikda muhim va keng qamrovli mavzu hisoblanadi. Bu sohada olib borilgan tadqiqotlar tilshunoslarga nafaqat tildagi so'z turkumlarining tuzilishini, balki ular orasidagi aloqalar va o'zaro ta'sirlarni tushunishga yordam beradi. So'z turkumlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir nafaqat morfologik va sintaktik jihatlarni, balki semantik o'zgarishlarni ham o'z ichiga oladi. So'z turkumlarining morfologik va sintaktik jihatlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir ham juda muhimdir. Masalan, fe'ning sintaktik roli va uning boshqa so'z turkumlari bilan aloqasi tilning strukturaviy jihatlarni yanada aniqroq ko'rsatadi. O'zbek tilida fe'ning o'zgarishi — uning zamon, shaxs va son shakllari — gapda predikat sifatida ishlaydi va bu predikat boshqa so'z turkumlari bilan (otlar, sifatlar,

ravishlar) qanday bog'lanishini belgilaydi. Fe'ning harakat yoki holatni ifodalashdagi roli, boshqa so'z turkumlarining sintaktik roli bilan bog'liq holda o'zgaradi va bu jarayon tilning o'zgaruvchan va dinamik xususiyatlarini ko'rsatadi [2].

So'z turkumlarining semantik xususiyatlari ham ular o'rtasidagi aloqalarni tushunishda muhim ahamiyatga ega. So'z turkumlari o'rtasidagi semantik bog'lanishlar, ularning semantik ma'nolarining o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Masalan, ba'zi tillarda fe'ning semantik ma'nosi sifatga yoki otga aylanishi mumkin. Bu jarayon til tarixida va uning evolyutsiyasi davomida yuz beradigan tabiiy o'zgarishlardan biridir. Shu bilan birga, ba'zi so'z turkumlarining semantik roli tilning rivojlanishi bilan o'zgaradi [4].

XULOSA(ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION).

Xulosa qilib aytganda, so'z turkumlarining tipologik tasnifi va ularning o'zaro ta'sirini o'rganish tilshunoslikda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. O'zbek tilidagi so'z turkumlari boshqa tillar bilan qiyosiy o'rganilganda, ularning o'ziga xos grammatik va semantik xususiyatlari yanada yaqqol ko'zga tashlanadi. Morfologik va sintaktik tizimlar orasidagi o'zaro ta'sirlar natijasida til strukturasi dinamik tarzda rivojlanib boradi. Kelgusi tadqiqotlarda bu yo'nalish bo'yicha kengroq tahlillar, ayniqsa, turkiy tillar tipologiyasi asosida olib borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА/ REFERENCES)

1. Sattarova N. Ona tili va adabiyot faniga ixtisoslashgan maktablarda o'quvchilarni tahlil qilishga o'rgatish usullari. – Toshkent. 2016.
 2. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent. 2009. – 352 b.
 3. Tursunov U. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent. 1992. – 282 b.
- Usmonova K. Adabiy ta'limda ilg'or pedagogik texnologiyalar. – Toshkent. 2015. – 116

PEDAGOG KADRLARDA KASBIY VA TEXNOLOGIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Xudayberdiyeva Nilufar Bozorovna

*Termiz davlat pedagogika instituti Tabiiy va aniq fanlar fakulteti
o'qituvchisi*

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ У ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ

Худайбердиева Нилуфар Бозоровна

*Преподаватель факультета естественных и точных наук
Термезского государственного педагогического института*

SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL AND TECHNOLOGICAL COMPETENCIES IN PEDAGOGICAL STAFF

Khudayberdieva Nilufar Bozorovna

*Lecturer at the Faculty of Natural and Exact Sciences,
Termez State Pedagogical Institute*



[nilufarxudoyberdiyeva
7718@gmail.com](mailto:nilufarxudoyberdiyeva7718@gmail.com)

Orcid: 0009-0005-
3409-1128

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagogik kadrlarning kasbiy va texnologik kompetensiyalarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari yoritilgan. Unda zamonaviy ta'lim jarayonining talablariga mos holda o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi, raqamli texnologiyalarni o'zlashtirish darajasi va ularni o'quv jarayoniga integratsiyalashuvi tahlil qilinadi. Shuningdek, pedagogik kompetensiyaning tarkibiy qismlari, innovatsion texnologiyalardan foydalanish malakalari va uzluksiz kasbiy rivojlanish zarurati ilmiy-nazariy nuqtai nazardan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: pedagog kadrlar, kasbiy kompetensiya, texnologik kompetensiya, raqamli ta'lim, innovatsion texnologiyalar, uzluksiz rivojlanish.

Аннотация. В данной статье раскрываются научно-теоретические основы развития профессиональных и технологических компетенций педагогических кадров. Рассматриваются требования современного образовательного процесса, уровень подготовки преподавателей, освоение цифровых технологий и их интеграция в учебный процесс. Также обоснована необходимость постоянного профессионального роста, рассмотрены компоненты педагогической компетентности и навыки применения инновационных технологий.

Ключевые слова: педагогические кадры, профессиональная компетентность, технологическая компетентность, цифровое образование, инновационные технологии, непрерывное развитие.

Abstract. This article explores the scientific and theoretical foundations for developing professional and technological competencies among pedagogical personnel. It analyzes the requirements of modern educational processes, the level of teachers' professional readiness, the adoption of digital technologies, and their integration into teaching practices. Furthermore, the article substantiates the necessity for continuous professional development, highlights the components of pedagogical competence, and the skills required for utilizing innovative technologies.

Keywords: pedagogical staff, professional competence, technological competence, digital education, innovative technologies, continuous development.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Dunyo ta'lim tizimida barqaror taraqqiyotga xizmat qiluvchi, mohiyatan yangicha didaktik paradigma asosida bilim olish jarayoni zamonaviy tendensiyalarga moslashmoqda va bu esa raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga bo'lgan talabning ortib borishiga sabab bo'lmoqda. Ta'lim jarayonini tashkil etish va uning sifatini ta'minlash tizimining eng muhim elementlaridan biri – bu o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini oshirish va uni doimiy ravishda rivojlantirib borish masalasidir. Mazkur yo'nalish zamonaviy ta'lim islohotlarining dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, "ta'lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish hamda erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beruvchi samarali mexanizmlarni amaliyotga joriy etish"ga ehtiyoj kuchayib bormoqda. Bu holat, o'z navbatida, ta'lim sifatini boshqarish, nazorat qilish va baholash tizimini zamonaviylashtirish bilan bir qatorda, pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish va ularning kasbiy kompetentligini aniqlash metodikasini muntazam takomillashtirishni taqozo qilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI (АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ/LITERATURE ANALYSIS).

Jahon miqyosida kasbiy kompetensiyalarni baholash uslublari va metodlarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar asosida muhim natijalarga erishilgan. Xususan, Chikago universiteti tomonidan kompetensiyalarni baholashning turli metodlari ishlab chiqilgan bo'lsa, Sheffild universiteti besh pog'onali baholashga asoslangan integrativ modelni taklif qilgan. Tours universiteti esa Yevropa ta'limi doirasida kompetensiyalarni umumiy maqsad va ustuvor vazifa sifatida konseptual asoslab bergan. Shuningdek, Twente universiteti tomonidan ta'lim natijalarini chuqurroq anglashga xizmat qiluvchi uch pog'onali kompetensiya indikatorlari ishlab chiqilgan. Rus olimlari tomonidan esa "kasbiy kompetentlik" tushunchasini sharhlashda ikki asosiy yondashuv – ya'ni shaxsning muayyan faoliyati va professional sifatida shakllanishi asosida metodik asoslar ishlab chiqilgan.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimini izchil isloh qilish, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlovchi, yuqori malakali

kadrlarni tayyorlash orqali ta'lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqish, shuningdek, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarni rivojlantirish borasida keng ko'lamlil islohotlar amalga oshirilmogda. Oliy ta'lim muassasalarining asosiy vazifasi – bu ta'lim sifatini ta'minlash hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdir. Bu jarayonning eng muhim komponentlaridan biri – bu o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini oshirishdir. Ta'lim taraqqiyotining istiqboli esa ko'p jihatdan, aynan pedagog kadrlarning kasbiy va metodik kompetentligiga bevosita bog'liq bo'lib bormogda [1].

Ta'lim sohasida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash, kompetensiyaviy yondashuvlarni amalga oshirishda A.M.Ahmedov raqamli pedagogik muhitda talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish, G.Y.Bo'ronova virtual ta'lim platformasi asosida ta'limni tashkil etish, X.A.Mamatqulov pedagoglarda xorijiy tillar bo'yicha kasbiy kompetentlikni rivojlantirish, A.X.Maxmudov magistrnlarni kompetentli tayyorlashning didaktik ta'minotini takomillashtirish, F.R.Muradova talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda virtual laboratoriyalardan foydalanish, S.T.Raxmatova raqamli ta'lim muhitida o'qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish yo'nalishidagi izlanishlari bilan alohida o'rin egallaydi [2].

Sh.Mamajanovning tadqiqotlarida kasbiy kompetensiyalar turlari: kalit, asosiy, maxsus va umummadaniy kompetensiyalar haqida umumiy ma'lumotlar berilgan.

MUHOAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).

Barcha mamlakatlarda ta'limning holati uning iqtisodiyoti, madaniyati va aholi turmush darajasini rivojlantirishni belgilaydi, degan tushuncha shakllangan. Shu munosabat bilan ta'lim, ayniqsa, oliy ta'limni rivojlantirish ko'plab mamlakatlarda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatdagi ta'limning holatini nafaqat universitetlar, talabalar, o'qituvchilar soni, balki mamlakat ta'lim tizimining jahondagi o'rni, ta'lim tizimining jahon miqyosidagi ta'lim tizimiga qanchalik integratsiyalashganligi bilan ham baholanishi mumkin.

Sanoati yuqori darajada rivojlangan mamlakatlarda texnik ta'lim konsepsiyasi quyidagi

asosiy tamoyillarga tayanadi: muhandislik-texnik mutaxassislarni kasbiy faoliyatining butun davri davomida uzluksiz tayyorlash, ilmiy-tadqiqot salohiyatini rivojlantirish, muhandislar o'rtasida o'quv rejaları va fanlararo uzviylikni ta'minlash, kasbiy tayyorgarlikni kengaytirish, o'quv jarayonida universitetlar va sanoat korxonaları o'rtasidagi yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda yangi texnologiyalarni joriy etish [3].

Ta'lim texnologiyalarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

jamiyatning ijtimoiy-madaniy infratuzilmasida innovatsion yondashuv asosida ta'limni dolzarblashtirish;

bo'lajak texnik mutaxassisning tafakkurini shakllantirish;

texnik tayyorgarlik va ta'lim makonining yangi ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqishda bo'lajak texnik mutaxassisning tanqidiy fikrlashini shakllantirish;

texnologik oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari-ning nafaqat yangi o'quv dasturlarini ijodiy qo'llash-da, balki ularni tuzatish va modernizatsiya qilishda faol ishtirok etadigan ijtimoiy yo'naltirilgan faol shaxsni rivojlantirish;

yangi texnologiyalarni ishlab chiqishdan texnik universitetlarning o'quv maydonida va kasbiy faoliyatda foydalanish muddatlarini qisqartirish;

yangi ta'lim texnologiyalari va mutaxassisliklarini ishlab chiqishda o'quv faoliyat subyekti sifatida talaba va mutaxassisning rolini kuchaytirish;

ta'limning shaxsiy yo'naltirilgan metodlarni amaliyotga joriy qilish, bunda texnik mutaxassisning subyektiv tayyorgarligi sifati ustuvor ahamiyatga ega [4].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).

Har qanday yo'nalishdagi muhandislik ta'limida, xususan, fanlar mazmuniga laboratoriya mashg'ulotlarini ko'proq kiritish orqali ta'limning kasbiy yo'nalishini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Talabalarning universitetda o'qish davomida olgan nazariy bilimlarini kelajakdagi kasbiy faoliyat ko'nikmalari va malakalaridan ajratib qo'yish ularning mutaxassis sifatida shakllanish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, ko'plab xorijiy oliy ta'lim muassasalarida fan mazmunini rivojlantirishda amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari muhim o'rin tutadi.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv amaliy va nazariy jihatdan muayyan pedagogik shartlarga ega. Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsa-

tadiki, mutaxassislar tayyorlashda ba'zi bo'shliqlar kuzatiladi. Bu holat ta'lim muassasalari tomonidan fan bilimlari va ko'nikmalari tizimini shakllantirishda shaxsiy va ijtimoiy vakolatlarni rivojlantirishga yetarlicha e'tibor berilmasligidan dalolat beradi. Mazkur jarayon ko'p komponentli bo'lib, uni o'quv faoliyatida amalga oshirish mashg'ulotlarning turli shakllari orqali olib boriladi [5].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION).

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, har qanday mutaxassisning kasbiy faoliyati integrallashgan xarakterga ega bo'lishiga qaramay, o'quv jarayonida kerakli bilim va ko'nikmalar ko'plab alohida fanlar orqali uzviy tarzda beriladi. Kasbiy faoliyat esa turli darajadagi murakkablikdagi ketma-ket yoki parallel kasbiy vazifalar tizimi shaklida tashkil etilgan bo'lib, kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim, ayniqsa, texnologik kompetensiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etish orqali mutaxassisning kasbiy faoliyati va unga tayyorgarlik jarayoni o'rtasidagi tafovutlarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Shu kabi tarbiyaviy va kasbiy vaziyatlarni oldindan loyihalash talabalardan o'z harakatlari mustaqil rejalashtirishi, ongli qarorlar qabul qilishi va ularni amalga oshira olishi uchun zarur usullar, vositalar va ta'lim faoliyati turlaridan foydalanishni taqozo etadi.

Adabiyotlar ro'yxati (Использованная литература / References)

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent.: O'zbekiston, 2017. – 488 b
2. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsolieva. O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari. – Toshkent.: Fan va texnologiya, 2017, 60 b.
3. Medetova R.M., Anarboyev A.A. Hamkorlik pedagogikasi asosida bo'lajak zaxiradagi ofitserlarning texnologik kompetentligini rivojlantirish // Ta'lim-tarbiya sifatini oshirishda hamkorlik pedagogikasi: xalqaro tajriba va zamonaviy yondashuvlar: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallar to'plami. – Toshkent. 2023. – B. 284-287.
4. Musurmonova O. Pedagogik texnologiyalar – ta'lim samaradorligining muhim omili. – Toshkent. 2020. – 52 b.
5. Печеркина, А. А. Развитие профессиональной компетентности педагога: теория и практика [Текст] : монография / А. А. Печеркина, Э. Э. Сыманюк, Е. Л. Умникова: Урал. гос. пед. ун-т. – Екатеринбург: 2011. – 233 с.

Qabul qilindi: 03.04.2025

Chop etildi: 31.05.2025

UDK: 801.82:81.141

YAKKABOG‘ TUMANI TOPONIMLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI VA TARIXIY-LINGVISTIK JIHATLARI

Sayfullayev Zuhridin Asliddin o‘g‘li

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta‘lim
kafedrasida o‘qituvchisi*

ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ И ИСТОРИКО-ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ТОПОНИМОВ ЯККАБАГСКОГО РАЙОНА

Сайфуллаев Зухриддин Аслиддин угли

*Преподаватель кафедры начального образования
Шахрисабзского государственного педагогического
института*

LINGUOCULTURAL FEATURES AND HISTORICAL-LINGUISTIC ASPECTS OF THE TOPONYMS OF YAKKABOG DISTRICT

Sayfullaev Zuhridin Asliddin ogli

*Lecturer at the Department of Primary Education, Shahrisabz State
Pedagogical Institute*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yakkabog‘ tumani toponimlari lug‘aviy-ma‘naviy xususiyatiga ko‘ra tasniflanib, o‘rganilgan. Tadqiqotda toponimlari o‘rganilayotgan hudud tarixi, toponimlarining vujudga kelishi va ularning grammatik xususiyati masalasiga ham e‘tibor qaratilgan. Ilmiy ishning obyekti va predmeti Yakkabog‘ tumani toponimlar majmuidan iborat bo‘lib, metodologik asosini onomastika sohasida atoqli otlarni o‘rganishda ishlatilgan ilmiy qarash, tahlil va tadqiq etish usullari tashkil etadi.

Kalit so‘zlar: Yakkabog‘, toponim, lingvomadaniy, toponimik aniqlagich, lug‘aviy-ma‘naviy tasnif, onomastik tizim, obyekt.

Аннотация. В научной работе топонимы единственного числа были проанализированы и изучены с точки зрения их лексико-семантической природы. В исследовании также рассматривается вопрос об истории местности, в которой изучаются топонимы, о происхождении топонимов и их грамматической природе. Объект и предмет научной работы составляют совокупность топонимов, методологической основой которой являются методы научного видения, анализа и исследования, используемые при изучении пословиц о лошадях в области ономастики.

Ключевые слова: Яккабаг, топоним, лингвокультура, топонимический определитель, лексико-семантическая классификация, ономастическая система, объект.

Annotation. In scientific work, the toponyms of the singular were nasnifted and studied according to their lexico-spiritual nature. The study also focuses on the issue of the history of the area in which toponyms are studied, the occurrence of toponyms and their grammatical nature. The object and subject of scientific work consists of a set of toponyms, the methodological basis of which is the methods of scientific vision, analysis and research used in the study of proverbial horses in the field of onomastics.

Keywords: Yakkabog, toponym, linguomadanium, toponymic determinant, lexicon-meaning classification, onomastic system, object.



E-mail:

zuxriddinsayfullayev@gmail.com

Orcid: 0009-0005-9963-3354

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION).

Yakkabog' tumani qadimdan o'zining boy tarixiy-madaniy merosi, tabiiy geografik sharoiti va etnolingvistik tarkibi bilan ajralib turadi. Tumandagi ko'plab qishloq, mahalla, daryo, tog' va boshqa geografik obyektlarning nomlari xalq og'zaki ijodi, tarixiy voqealar va turli til qatlamlari bilan bog'liq holda shakllangan. Bu toponimlar zamirida mahalliy aholi dunyoqarashi, tarixiy xotirasi va til madaniyati mujassam bo'lib, ularni chuqur ilmiy tahlil etish lingvistik, tarix, etnografiya va madaniyatshunoslik sohalari kesishmasida turadi.

Mazkur maqolada Yakkabog' tumani toponimlarining lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilinadi, ularning semantik tuzilishi, etimologiyasi, tarixiy qatlamlari va til taraqqiyotidagi o'zni o'rganiladi. Shu bilan birga, ushbu toponimlarning xalq ruhiyati, urf-odatlar va tarixiy-madaniy meros bilan bog'liqligiga alohida e'tibor qaratiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Toponimlar — bu xalq tilida asrlar davomida shakllanib kelgan, muayyan joy, hudud, tabiiy obyekt yoki ijtimoiy muhitni ifodalovchi nomlardir. Har bir toponim zamirida muayyan madaniy-tarixiy kontekst, xalq dunyoqarashi, mentaliteti va tarixiy xotirasi mujassam bo'ladi. Yakkabog' tumanidagi toponimlar shu jihatdan alohida ahamiyatga ega bo'lib, ularning ko'pi qadimiy turkiy, forsiy va arabiy tillardan o'zlashtirilgan bo'lishi bilan ajralib turadi [1].

Masalan, "Yakkabog'" so'zining o'zi "yakka" (yolg'iz) va "bog'" (bog', gulzor) so'zlaridan tashkil topib, qadimda bu hududda alohida ajralib turgan, yirik bog' mavjud bo'lganini bildiradi. Bunday nomlarda hududning tabiiy sharoiti va tarixiy holati ifodasini topgan.

MUHOKAMA

(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION). Quyida ushbu hududda joylashgan bir qator toponimlarning lingvomadaniy xususiyatlari va tarixiy-lingvistik jihatlarini keltirilgan:

Ishkent – Yakkabog' tumanidagi qishloq nomi. Tarkibi: ish+kent. O'zbek tilidagi uch, ust so'zlari asosida, tog'ning ust, uch qismidagi qishloq tarzida izohlanish holatlari bor. Qashqadaryo tarixshunosi P.Ravshanov VIII asr boshida Naxshab

va Kesh qal'alari garnizonining boshlig'i Ashkend/Ashkand Amudaryo orqali bostirib kelayotgan arab istilochisi Asadga qarshi kurashganini qayd qilgan. 720-740-yillarda Keshning hukmdori Shikend bo'lgan. U joy nomiga nisbat etilgan. Ashkend/Ishkend/Shikend – o'zakdosh. Sug'd hujjatlarida Xishkent nomli qishloq zikr etilgan. U Zarafshon yuqorisidagi Parg'arda bo'lgan. So'z boshida (x) undoshi tushgan; xish/ish,ma'nosi – g'isht ya'ni tosh. Ishkent-toshqo'rg'on, tog' ichidagi qo'rg'on [2].

To'rtog'ayni – Yakkabog' tumanidagi qishloq. Tarkibi: to'rt+og'ayni. Akademik K.Shoniyozov Farg'ona vodiysi qipchoqlarining to'rtog'ayni urug'i bo'lganligini aniqlagan. Bu urug'ni to'rt ayg'ir ham deyishgan. Shu nomdagi urug' qirg'iz-qipchoqlarda ham bo'lgan. Qashqadaryo o'rta oqimi saroylarining bir urug' tarmog'i - to'rtog'ayni. Laqaylarning to'rtovul, to'rt o'g'il degan urug'i bo'lgan. To'rtog'ayni, to'rtovul, to'rtog'il etnonimlari bir xil tamoyil asosida yuzaga kelgan. Qishloq saroylarning urug'i nomi bilan atalgan [3].

Cho'mich – Yakkabog' tumanidagi mahalla. Uy-ro'zg'or asboblaridan biri -cho'mich. U uzun dastali bo'lib, suyuq ovqatlarni qo'zg'ash, shopirish uchun tol yog'ochidan tayyorlangan, uch qismi kosasimon bo'lgan. Qadimda chorvadorlarning cho'michga o'xshash tamg'asi bo'lgan. Mollarga bosiladigan tamg'asi va tug'idagi tasvir cho'mich shaklida bo'lgan. Tamg'asining shakli asosida urug' jamoasi nomlangan: cho'mich tamg'ali. Cho'michtamg'ali urug'i nomi qishloq nomiga o'tish jarayonida soddalashib, tamg'ali so'zi tushib qolgan.

Qoratut – Yakkabog' tumanidagi mahalla. Tarkibi: qora+tut. Qoratut-tut daraxtining bir turi, oqtut yoki balxitut – mevasi oq rangda bo'lib pishadigan tut. Qoratutning mevasi pishmagan vaqtida qizil rangli, pishib yetilganidan so'ng qora rangli bo'ladi. Qoratut daraxti kam uchraydi, mevasi dorivor bo'lganligi sababli qadrlanadi. Qoratutning yana bir mahalliy nomi – shotut. Kam uchrashi, mevasining dorivorligi kuchli bo'lganligi bois mahalliy aholi joy (qishloq)ni tut turi nomi bilan Qoratut deb atagan. Til tejamkorligi tamoyili nomni soddalashtirgan – bir so'zga aylantirgan [4].

Qo'shtegirmon – Yakkabog' tumanidagi qishloq. Tarkibi: qo'sh+tegirmon. Qo'sh – ikkita yoki bir nechta; yonma-yon joylashgan, bir-biriga tutash. Tegirmon- don mahsulotlarini yanchibun, yarma/yorma qiladigan, suv yoki hayvon kuchi bilan harakat qiladigan qurilma. Yonma-yon, yaqin masofada bir-biriga tutash bo'lgan tegirmon – Qo'shtegirmon. Qishloq tegirmon atrofida bunyod etilgani uchun shunday nom olgan [2].

NATIJALAR (РЕЗУЛТАТЫ/RESULTS). O'zbek xalqi juda qadim zamonlardan buyon o'zining madaniyati, san'atiga, o'z tiliga ham egadir. Ma'lum hududda juda qadim zamonlardan buyon yashab kelgan o'troq o'zbek qabilalari, ularning yashagan joylari, bugungi kundagi joy nomlari haqida ma'lumotlar juda ko'p. Har bir qabila yoki xalq yangi shakllangan o'zbek tiliga o'zining ulushini qo'shgan. Buni biz shu hududda yashovchi o'zbeklarning turli xil shevalarda, dialektlarda gapirishida, hatto urf-odatlarida ham ko'rishimiz mumkin. Bu hol joy nomlarining atalishiga ham sezilarli ta'sir etgan. Bir xil qabila yoki urug' nomining toponim sifatida bir necha territoriyada uchrashi mazkur qabilaning shu joylarda yashashi yoki yashab ketganligi natijasida sodir bo'lgan. Shuning uchun ham joy nomlarini o'rganishni tarix, arxeologiya, etnografiya kabi fanlar bilan chambarchas bog'liq holda olib borish va ularning yutuqlariga asoslanmoq lozim. Bularga bir nechta misollarni keltirishimiz mumkin:

G'ozliq – Yakkabog' tumanidagi qishloq. Tarkibi: g'oz+liq. Qishloq aholisi qishloq yonidan o'tadigan jilg'a suvida o'tmishda yovvoyi g'oz ko'p bo'lgan, uchib-qo'nib yashab yurgani uchun g'ozliq g'ozliq joy, g'ozliq ko'l, g'ozliq suv deb atalgan deb izohlashadi. G'oz – poyasi yo'g'on, uzun bo'yli qamish. G'ozliq-g'oz deb atalgan qamish turi ko'p o'sgan joydagi qishloq. Botqoq joy nomidan qishloq nomi yuzaga kelgan [2].

Chaydari – Yakkabog' tumanidagi qishloq. Choydori, choydoru tarzida ham yozishadi. Choy+dori so'zlarining ma'nolaridan izohlash hollari mavjud. Nomning tovush tarkibida o'zgarish yuz bergan. Azaliy shakli: chiy+dala. Qishloq quyisidagi xalqob joyda, chuqurlikda chiy-yo'g'on poyali qamishsimon o'simlik o'sganligi sababli chiyli+dala deb atalgan. Chiyli+dala – chiydala – Chiydala-Chaydala-Chaydari tarzida o'zgarish yuz

bergan. Chaydari-chiy o'simligi o'sgan joy. Dala nomi qishloq nomiga aylangan [2].

Toponimlar ham til leksikasining bir qismi sifatida boshqa hamma so'zlar singari tilning qonuniyatlariga bo'ysunadi. Lekin o'zining paydo bo'lishi va ba'zi ichki xususiyatlari jihatidan jamiyatning kundalik moddiy va ma'naviy holati, iqtisodiy turmushi, orzu va intilishlariga aloqador bo'lib, ma'lum darajada boshqa guruh so'zlardan farq qiladi. Shu bilan birga, joy nomlarida har bir millat tiliga xos bo'lgan qadimiy fonetik, leksik va morfologik unsurlar ko'proq o'z ifodasini topadi. Joyning tabiiy geografik sharoiti, aholining etnik tarkibi, kishilarning kasbi va mashg'uloti, qazilma boyliklar, tarixiy shaxslar va voqealar toponimlar vujudga kelishining asosiy manbalari hisoblanadi [4].

XULOSA

(ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION). Tadqiqot natijasida ma'lum bo'ldiki, Yakkabog' tumani toponimlari turli tillar elementlaridan tashkil topgan bo'lib, turli tarixiy davrlarda vujudga kelgan. Xullas, shuni ta'kidlashimiz mumkinki, Yakkabog' tumani toponimlari o'ziga xos alohida toponimik regionni tashkil qilgan onomastik birliklardir. Yakkabog' tumani toponimlari tabiatning turli jihatlarini (tog'lar, daryolar, tuproq, o'simliklar) o'zida aks ettiradi. Ularning ko'pchiligi turkiy tillar leksikasi, mahalliy shevalar va tarixiy voqealar bilan bog'liq. Masalan, "Qizildaryo" nomi temirga boy tuproqni, "Obizar" esa suvning oltin qadrini bildiradi. Bu toponimlarni o'rganish mintaqaning tabiiy resurslari va madaniy merosini tushunishda muhim rol o'ynaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА/ REFERENCES)

1. O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2024.
2. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1988.
3. Qashqadaryo qishloqnomasi. – Toshkent. Muharrir nashriyoti, 2009.
4. Qishlog'ingiz nega shunday atalgan?. – Toshkent: O'zbekiston SSR Fan nashriyoti, 1989.

TALABA QIZLARDA XALQ O'YINLARI VOSITASIDA VALEOLOGIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Hakimova Gulshan Abduxalil qizi

*Termiz davlat universiteti Sport boshqaruvi kafedrasida
o'qituvchisi*

ТЕХНОЛОГИИ ФОРМИРОВАНИЯ ВАЛЕОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ УЧАЩИХСЯ ЧЕРЕЗ НАРОДНЫЕ ИГРЫ

Hakimova Gulshan Abduxalil qizi

*Преподаватель кафедры спортивного менеджмента,
Термезский государственный университет*

TECHNOLOGIES FOR FORMING VALEOLOGICAL CULTURE IN STUDENTS THROUGH FOLK GAMES

Hakimova Gulshan Abduxalil qizi

Lecturer at the Termiz State University



E-mail:

gulshanhakimova0@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0002-8807-1665>

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalq o'yinlaridan foydalanish vositasida talaba qizlarda valeologik madaniyatini shakllantirish tizimi haqida atroflicha ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: xalq o'yinlari, harakatli o'yinlar, talaba qizlar, jismoniy madaniyat, shakllantirish, texnologiya, shakllar, metod, vosita, ta'lim, tarbiya, sog'lomlashtirish.

Аннотация: В статье дана подробная информация о системе формирования валеологической культуры у студенток посредством использования народных игр.

Ключевые слова: народные игры, подвижные игры, студентки, физическая культура, формирование, технология, формы, методы, средства, образование, воспитание, укрепление здоровья.

Abstract: This article provides detailed information about the system of forming valeological culture in female students through the use of folk games.

Keywords: folk games, active games, female students, physical culture, formation, technology, forms, methods, means, education, upbringing, health promotion.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Bugungi shiddatli taraqqiyot davrida inson rivojlanishi va sog'lom turmush tarzi masalasi har qachongidan ham muhimroq ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonning kelajagi bo'lgan talaba qizlar avlodining valeologik madaniyati – ya'ni o'ziga, ishlab chiqarishga ongli munosabati, sog'lom turmush tarzi haqidagi chuqur bilimlar va amaliy ko'nikmalar majmuiga ega bo'lishi bu butun jamiyat ravnaqi uchun asos soladi. Oliy ta'lim olishdagi o'qish jarayonining o'ziga xos murakkabliklari, ruhiy-emotsional zo'riqishlar va yangi muhitga

moslashish zarurati yosh qizlarning rivojlanishiga alohida e'tibor qaratishni talab qiladi.

Valeologik madaniyatning yetishmasligi turli noxush holatlarning paydo bo'lishiga, o'qish madaniyatiga va jismoniy hayotdagi boshqa muammolarga sabab bo'lishi mumkin. O'zbek xalqining asrlar davomidagi shakllangan boy madaniy merosining ajralmas qismi bo'lgan o'yinlari esa yosh avlodni tarbiyalashda o'zining betakror o'rniga ega. Ular shunchaki mashg'ulot emas, balki bolalarning jismoniy chiniqishi, yoshlarning aqliy rivojlanishi va eng muhimi,

sogʻlom turmush tarzining chuqur falsafasini anglashiga xizmat qilgan samarali vositadir. Bu holat, qizlarda xalq oʻyinlari vositasida valeologik madaniyatni saqlashning **nazariy asoslari, pedagogik mexanizmlari va amaliy texnologiyalarni** ishlab chiqish zaruratini paydo qiladi [2].

ADABIYOTLAR TAHLILI (АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ \ LITERATURE ANALYSIS).

Termiz davlat universiteti Sport faoliyati va boshqaruvi fakultetida bugungi kunda faoliyat olib borayotgan olimlardan pedagogika fanlari nomzodi., dotsent R.X.Toʻlaganov, pedagogika fanlari nomzodi., dotsent Ya.Ch.Daniyeva, pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktorlari (PhD) X.Berdiyeva, Termiz davlat pedagogika institutida faoliyat olib borayotgan olimlardan pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktorlari (PhD) Ya.M.Abdullayev, Sh.M.Xudoyberdiyevlar harakatli oʻyinlarning inson organizmiga taʼsiri, maktab oʻquvchilari va talabalarning salomatligini mustahkamlashda va ularning jismoniy madaniyatini shakllantirishda harakatli oʻyinlardan foydalanishning ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy asoslari hamda imkoniyatlari haqida ilmiy izlanishlarni olib borganlar [3].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Asrlar asosida xalqimizning kundalik hayotiga singib ketgan xalq oʻyinlari esa yosh avlodning jismoniy chiniqishiga, aqliy barqarorligini oshirishga, ijtimoiy koʻrinishdagi hayotini saqlab qolishga va eng muhim turmush tarzining ahamiyatini anglashiga xizmat koʻrsatishga samarali vosita. Sogʻlom turmush tarzi – bu har qanday kasalliklar profilaktikasi va salomatlik, kuch-quvvat garovidir. U insonning turli qirralarini rivojlantirish, muvaffaqiyatga erishish garovidir. Sogʻlom turmush tarzi qoidalariga rioya etgan talaba qizlar oilasi, mehnat jamoasi, umuman, jamiyatda oʻz oʻrniga ega boʻladi, turli murakkab vaziyatlarni yengib oʻtish, hayot qiyinchiliklari oldida oʻzini yoʻqotmaslikni oʻrganadi. Xotin-qizlarning sogʻligini mustahkamlash va muhofaza qilish mamlakatimizning ijtimoiy rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi [1].

Kelajagimiz poydevori boʻlgan yoshlarni tarbiyalashda sogʻlom ijtimoiy-axloqiy muhitni yaratish, taʼlim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tiklash va eʼzozlash, axloqan pok, intellektual yetuk, ilgʻor

fikrli, salohiyatli, bilimli, yuksak gʻoyali xotin-qizlarni professional mutaxassis sifatida tayyorlash hozirgi paytda ustuvor vazifalardan boʻlmogʻi lozim [4].

Sogʻlik bu insonning birinchi muhim ehtiyoji boʻlib, uning ishga yaroqliligini, shaxsning har tomonlama rivojlanishini taʼminlaydi. Sogʻlom va maʼnaviy rivojlangan qizlar baxtlidir. Ular oʻzlarini yaxshi his etadilar, oʻz ishidan qoniqadi, yoshlikning soʻnmas hissiyoti va ichki goʻzalligi ila ilm olishga intiladi. Sogʻlom turmush tarzining eng ustuvor yoʻnalishi – bu harakatlar tartibidir. Uning asosini toʻgʻri ovqatlanish hamda tizimli jismoniy mashqlar, sport bilan shugʻullanish tashkil etadi [5].

Valeologik madaniyat – bu insonning jismoniy, ruhiy, ijtimoiy va maʼnaviy sogʻlom boʻlishini taʼminlovchi bilimlar, elementlar va eʼtiqodlar tizimidir. Talaba qizlar hayotida valeologik madaniyatning ahamiyati juda yuqoridir. Oliy taʼlim davri nafaqat moddiy bilim olish, balki shaxs rivojlanishining ham muhim bosqichidir. Valeologik madaniyatga ega talaba qizlar jismonan baquvvat boʻlib, oʻzining kundalik turmushdagi yuqori talablarni qoʻllash samaradorligiga qodir boʻladi. Ijtimoiy koʻnikmaga ega boʻlib, jamoada oʻz oʻrnini topa oladi, samarali muloqot qila oladi va oʻzaro munosabatlarni mustahkamlaydi [3].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Oʻzbek xalq oʻyinlari, masalan, «Chillak oʻyin», «Chillik», «Oq terakmi, koʻk terak», «Bekinmashoq», «Arqon tortish» va boshqalar yosh avlodni sogʻlom turmush tarziga oʻrgatishda katta pedagogik va valeologik ahamiyatga egadir. Xalq oʻyinlarini faollashtirish orqali turli harakatlar kuchli boʻlib, ular yurak-qon tomir tizimini qayta tiklaydi, nafas olish organlarini mustahkamlaydi, tayanch-harakat apparatini rivojlantiradi, epcchilik, chaqqonlik, tezkorlik va chidamlilikni oshiradi. Oʻyin jarayonida talaba qizlar hissiy zoʻriqishlardan xalos boʻladi, quvnoq kayfiyatda boʻlishadi, stress darajasini pasayadi. Raqobat, gʻalaba va magʻlub boʻlish hissi ularda oʻz his-tuygʻularini boshqarish, qatʼiyatlilik va maqsad sari intilish kabi xususiyatlarni rivojlantiradi.

Koʻpgina xalq oʻyinlari jamoaviy harakatni talab qiladi. Bu qizlarning bir-biri bilan muloqot qilish, hamkorlik qilish, jamoaviy qarorlar qabul qilish, liderlik va jamoaga ergashuvchanlik darajasini oshirishga yordam beradi. Bu oʻz navbatida talaba qizlarda oʻz salomatligini

mustahkamlash, jamiyatda o'z o'rmini topishga yordam beradi [6].

Ayrim xalq o'yinlari (masalan, topishmoqli o'yinlar, strategik o'yinlar) aqliy faoliyatini rag'batlantiradi, mantiqiy fikrlash, diqqatni jamlash, xotira va e'tiborni jamlashga yordam beradi. O'yin qoidalarini eslab qolish va ularga qat'iy rioya qilish intizom va mas'uliyatni shakllantiradi. Xalq o'yinlari orqali talaba qizlar o'zbek xalqining boy madaniy merosi, an'analari, urf-odatlarini bilan tanishadi. Bu ularda Vatanga muhabbat, milliy g'urur, o'zligini anglash kabi ma'naviy qadriyatlarni shakllantiradi, bu ham valeologik madaniyatning muhim ma'naviy komponentini tashkil etadi.

Talaba qizlarda valeologik madaniyatni kuzatishda xalq o'yinlaridan samarali foydalanish uchun texnikani boshqarish vositalarini qo'llay olish eng samarali omildir. Jismoniy tarbiya darslariga an'anaviy xalq o'yinlarini tashkil etishning valeologik ahamiyatini nazariy va amaliy jihatdan yoritib berish zarur. Bunda sog'lom turmush tarzi haqidagi chuqur bilimlar ham singdirilishi kerak. Oliy ta'lim muassasalarida «Milliy o'yinlar klubi», «Sog'lomlashtirish o'yinlari» yoki «Valeologiya maktabi» kabi to'garaklar tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Har yili talaba qizlar o'rtasida «Xalq o'yinlari festivali» yoki «Sog'lom qiz – sog'lom millat» shiori ostida musobaqalar o'tkazish ham muhim amaliy choralardan biridir. Bu orqali harakatli o'yinlarga o'rgatishni qo'llab-quvvatlash hamda faolligini oshirish mumkin. Xalq o'yinlarining valeologik ahamiyati haqida talabalarga ma'lumot beruvchi seminarlar, davra suhbatlari, vebinarlar o'tkazish, ijtimoiy tarmoqlarda, universitet web-saytlarida va talabalar nashrlarida bu mavzuni keng ochish orqali maqsadga erishiladi. Jismoniy tarbiya o'qituvchilari, kuratorlar va murabbiylarini xalq o'yinlariga o'qitish va talaba qizlar bilan ishlashning jismoniy tarbiya-pedagogik qismlari bo'yicha kurslarda o'qitish muhimdir [5].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Talaba qizlarda valeologik madaniyatni kuzatish – bu uzluksiz va ko'p qirrali jarayon bo'lib, unda milliy qadriyatlarimiz bo'lgan xalq o'yinlaridan foydalanish yuqori samara beradi. Xalq o'yinlari nafaqat talaba qizlarning jismoniy rivojlanishiga, balki dasturiy holatiga, ijtimoiy va ma'naviy sog'lomligiga, ularda sog'lom turmush

tarziga ongli munosabatni himoya qilishga xizmat qiladi.

Xalq o'yinlari orqali talaba qizlar sog'lom ko'rinish kasb etib, stressga qarshi tura olish qobiliyatini oshiradi, samarali ijtimoiy muloqotga kirishib, milliy hayotimizni e'zozlab, kelajak avlodlarga sog'lom turmush tarzini namuna qilib ko'rsatadi, barkamol xodimlar bo'lib yetishadi. Oliy ta'lim sharoitida ushbu pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish talaba qizlar orasida valeologik madaniyatning sifatini oshirishda muhim strategik qadam bo'ladi va sog'lom jamiyat qurishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Usmanxodjeyev T.S., Isroilov Sh.X., Pulatov A.A., Pulatov Sh.A. Milliy va harakatli o'yinlar. Darslik. – Toshkent: «Iqtisodmoliya», 2015. – 265 b.
2. Rahimqulov K. Milliy harakatli o'yinlar. O'quv qo'llanma. – Toshkent: «Tafakkur bo'stoni». – 142 b.
3. Usmanxodjeyev T., Usmanxodjeyev S., Chorshamiyev N.A., Keldiyorov Sh.E., Xoliqov B.X. Sport turlariga oid harakatli o'yinlar. O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zkitobsavdo nashriyoti, 2020. – 176 b.
4. Daniyeva Ya.Ch. I-II bosqich talaba qizlar jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yinlardan foydalanish samaradorligi. P.f.f.d. diss. – Toshkent. 2009. – 142 b.
5. Dusyarov Salimjon Khudaimuratovich. EFFECTIVENESS OF ACTION GAMES IN THE PROCESS OF COMPLEX TRAINING OF YOUNG FOOTBALL PLAYERS. THEORETICAL ASPECTS IN THE FORMATION OF PEDAGOGICAL SCIENCES. International scientific – online conference. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7648394>. London.
6. Eshkobilov Elmurad. (2023). System of Development of Professional and Pedagogical Creativity of Future Physical Education Teachers on the Base of a Competent Approach. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(10), 261–264.

NUTQ TUSHUNCHASI VA UNING INGLIZ TILSHUNOSLIGIDAGI TAVSIFI

Ochilova Gulnoza Farxod qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti doktoranti

ПОНЯТИЕ РЕЧИ И ЕГО ХАРАКТЕРИСТИКА В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

Очилова Гулноза Фарход кизи

*докторант Самаркандского государственного института
иностранных языков*

THE CONCEPT OF SPEECH AND ITS DESCRIPTION IN ENGLISH LINGUISTICS

Ochilova Gulnoza Farhod qizi

Doctoral Student, Samarkand State Institute of Foreign Languages



E-mail:

gulnoza.ochilova@internet.ru

Orcid: 0009-0006-8984-071X

Annotatsiya: Ushbu maqolada til va nutq tushunchalari yoritilib o'tiladi. Ularning ingliz tilshunosligidagi tavsifi tahlil qilinadi. Ingliz tilshunosligida til va nutq birliklariga taalluqli masallarning o'rganilganlik darajasi haqidagi ma'lumotlar o'z aksini topadi.

Kalit so'zlar: til, nutq, til birliklari, nutq birliklari, ingliz tilshunosligi, tavsif.

Аннотация: В этой статье будут рассмотрены концепции языка и речи. Анализируется их описание в английской лингвистике. В этой статье будут отражаться данные о степени изученности вопросов, относящихся к языковым и речевым единицам в английской лингвистике.

Ключевые слова: язык, речь, единицы языка, единицы речи, английская лингвистика, описание.

Abstract: This article will explore the concepts of language and speech. Their description in English linguistics is analyzed. This article will reflect data on the degree of study of issues related to language and speech units in English linguistics.

Key words: language, speech, units of language, units of speech, English linguistics, description.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION).

Tilning ilk qayd etilgan namunasi 900-yillardan avvalgi davrlarga taqaladi. O'rta ingliz tilida «speche», eski ingliz tilida esa «space» deb atalgan. Bu «sprecan» (gapirish) so'zining o'zgarishi bo'lib, nemis tilidagi «sprache» so'zi bilan o'zakdoshdir. Til - bu insonlar ijtimoiy guruh a'zolari va o'z madaniyatida ishtirokchilar sifatida o'z fikrlarini ifodalash uchun foydalanadigan an'anaviy og'zaki, qo'l (ishora) yoki yozma belgilar tizimidir. Tilning vazifalari kommunikatsiya, o'zlikni ifodalash, o'yin-kulgi, badiiy ifoda va hissiy bo'shshishni o'z ichiga oladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Tilning ko'plab ta'riflari taklif qilingan. Ingliz fonetik olimi va tilshunosi Genri Suit

shunday degan: «Til - bu g'oyalarni nutq tovushlari yordamida ifodalashdir. Tovushlar so'zlarga, so'zlar esa gaplarga birlashtiriladi, bu kombinatsiya g'oyalarning fikrlarga birlashishiga mos keladi». Amerikalik tilshunoslar Bernard Blox va Jorj L.Trager quyidagi ta'rifni bergan: «Til - bu ijtimoiy guruh hamkorlik qiladigan o'zboshimchalik bilan yasalgan og'zaki belgilar tizimidir».

Quyidagi (kursivda belgilangan) mulohazalar tilni fan sifatida to'g'ri tushunishga yordam beradi:

Har bir fiziologik va ruhiy jihatdan tipik inson bolaligida aloqa tizimidan - muayyan belgilardan (masalan, tovushlar, imo-ishoralar yoki yozma yoki bosma belgilar) ham jo'natuvchi, ham qabul qiluvchi sifatida foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. Og'zaki tilda bu belgilar to'plami tomoq va og'iz ichidagi ayrim organlarning harakatidan kelib

chiqadigan shovqinlardan iborat. Ishora tillarida bu belgilar qo‘l yoki tana harakatlari, imo-ishoralar yoki yuz ifodalari bo‘lishi mumkin. Ushbu belgilar yordamida odamlar axborot berish, his-tuyg‘ularini ifodalash, boshqalarning faoliyatiga ta’sir o‘tkazish va deyarli bir xil belgilar to‘plamidan foydalanadigan odamlarga nisbatan do‘stona yoki dushmanona munosabatda bo‘lishlari mumkin.

Turli aloqa tizimlari turli tillarni tashkil qiladi; turli tilni tashkil qilish uchun zarur bo‘lgan farq darajasini aniq aytib bo‘lmaydi. Hech kim bir xilda gapirmaydi; shuning uchun telefonda do‘stlarning ovozi tanib olish va radioeshittirishda ko‘rinmas notiqlarning ko‘pini ajratib turish mumkin. Ammo, hech kim ularning turli tillarda gaplashayotganini aytmaydi. Umuman olganda, aloqa tizimlari, agar ular har ikki tomon tomonidan maxsus o‘rganilmasa, tushunib bo‘lmaydigan bo‘lsa, turli tillar sifatida tan olinadi. Garchi o‘zaro tushunishning aniq chegaralarini chizish qiyin bo‘lsa-da, ular aniq ajratuvchi chiziqning ikki tomonida emas, balki shkala bo‘ylab joylashgan. O‘zaro tushunishga to‘sqinlik qilishi mumkin bo‘lgan, ammo unga yo‘l qo‘ymaydigan aloqa tizimlari tilning dialektlari deb ataladi. Shaxsning o‘ziga xos ifoda odatlarini ta’riflash uchun «idiolekt» atamasi kiritilgan.

MUHOKAMA(OBCYЖДЕНИЕ/DISCUSSION)

Nutqqa aylantiruvchi tizimlar tomonidan qo‘llaniladigan lingvistik tahlillarning ko‘p qismi yuqorida muhokama qilinganidek, so‘z darajasida amalga oshiriladi. Ammo ko‘plab muhim fonologik jarayonlar mavjudki, ular bir nechta so‘z birikmalari va gaplar, hatto paragraf darajasidagi yoki diskurs doiralarini qamrab oladi. Bu cheklovlarning eng oddiyi til va nutqning sintaktik qismiga bog‘liq. Ko‘pgina so‘zlar o‘zlarining funksional nutq qismiga qarab o‘zgaradi, masalan, «wind (shamol)», «read (o‘qimoq)», «use (foydalanish)», «invalid (yaroqsiz)» va «survey (tadqiqot)». Shunday qilib, bular orasida «use» ot yoki fe‘l bo‘lishi mumkin va shunga mos ravishda talaffuzini o‘zgartiradi, «invalid» esa ot yoki sifat bo‘lishi mumkin, bunda asosiy urg‘uning joylashuvi nutq qismini ko‘rsatadi. Bir so‘z darajasida qo‘shimchalar nutq qismini bashorat qilish uchun sezilarli cheklash kuchiga ega, shuning uchun «dom» «kingdom (qirollik)» kabi otlarni va «ness» «kindness (mehribonlik)» kabi otlarni hosil qiladi. Ammo ingliz tilida oxirgi «s» qo‘shimcha sifatida funktsiya bajarib, ko‘plik otni

yoki uchinchi shaxs birlikdagi hozirgi zamon fe‘lini hosil qilishi mumkin va har bir umumiy ot fe‘l sifatida ishlatilishi mumkin. Ushbu vaziyatlarni aniqlashtirish va funksional nutq qismini ishonchli hisoblash uchun dinamik dasturlash algoritmi ishlab chiqilgan (Church, 1988; DeRose, 1988; Jelinek, 1990; Kupiec, 1992), u nutq qismlarini juda yuqori aniqlik bilan belgilaydi. Yana bir bor, ushbu algoritmlar teglar bilan belgilangan (nutq qismi uchun belgilangan) korpusning statistik tadqiqotiga asoslanadi va zamonaviy statistik usullarning ajoyib imkoniyatlarini namoyish etadi [1].

Tilning kelib chiqishi hech qachon taxminlar uchun mavzu bo‘lishdan to‘xtamagan va uning erishib bo‘lmazligi unga joziba qo‘shadi. Tilning paydo bo‘lishi va rivojlanishining ehtimoliy sharoitlari haqidagi asosli tadqiqotlarni nemis faylasufi Iogann Gotfrid fon Gerderning 18-asr oxiridagi «Abhandlung über den Ursprung der Sprache» («Tilning kelib chiqishi haqida insho») asarida va boshqa ko‘plab traktatlarda ko‘rish mumkin. Ammo odamlar yanada uzoqroqqa borishga, birinchi tilning haqiqiy shakllari va tuzilishiga o‘xshash narsalarni topishga yoki qayta tiklashga harakat qilishgan. Bu fan uchun abadiy erishib bo‘lmaydigan narsa, chunki og‘zaki til qandaydir shaklda Homo sapiens bilan deyarli tengdoshdir. Insoniyat umid qilishi mumkin bo‘lgan yagona lingvistik qoldiq - yozma tilning eng qadimgi yozuvlari atigi 4000-5000 yilga borib taqaladi. Ba’zi odamlar hayvonlar va qushlarning qichqiriqlari yoki hayajon yoki g‘azabning nonleksik ifodalari inson nutqiga aylangan deb da’vo qilishga harakat qilishdi, go‘yo onomatopiya tilning mohiyati bo‘lganidek; bu da’volar ularning nomuvofiqligi uchun (masalan, Oksford filologi Maks Myuller tomonidan 19-asrda) masxara qilindi va «vov-vov» va «pux-pux» nazariyalari kabi laqablarga ega bo‘ldi [1].

NATIJALAR (PEZYLTATY/ RESULTS).

Nutq ishlab chiqarish - bu eng murakkab inson faoliyatlaridan biridir. U ko‘plab mushaklarni va murakkab kognitiv jarayonlarni muvofiqlashtirishni o‘z ichiga oladi. Nutq ishlab chiqarish sohasi Artikulyatsion fonetika, Akustik fonetika va Nutqni idrok etish bilan bog‘liq bo‘lib, ularning barchasi tilning turli elementlarini o‘rganadi va Lingvistikaning kengroq sohasining bir qismidir. Joriy mavzuning fanlararo xususiyati tufayli u odatda bir nechta darajalarda o‘rganiladi: nevrologik, akustik, motor, evolyutsion va

rivojlanish. Ushbu darajalarning har biri o'z adabiyotiga ega, ammo nutq ishlab chiqarish adabiyotining aksariyat qismida bu elementlarning har biri mavjud bo'ladi [4]. Tegishli adabiyotlarning katta qismi ushbu bibliografiya asoslangan nutqni idrok etish bo'limida yoritilgan. Ushbu bo'lim umumiy nutq ishlab chiqarish mexanizmlari va nutq buzilishlarini qamrab oladi. Biroq, ikkinchi tilni o'rganuvchilar yoki ikki tillilarning nutq ishlab chiqarishi alohida xususiyatlarga ega bo'lib, ular tillararo nutqni idrok etish va ishlab chiqarish bo'yicha alohida bibliografiyada tasvirlangan. Nutq tovushlarni hosil qiladi va tovushlar Fonologiya uchun o'rganish mavzusidir [3].

Matnni nutqqa aylantirish kiritilgan matnni tahlil qilish orqali umumiy asosiy lingvistik tavsifni olish, so'ngra ushbu asosiy spetsifikatsiyadan chiqish nutq to'liq shaklini sintez qilish sifatida qaraladi. Shunday qilib, nutq uchun substrat bo'lib xizmat qiluvchi keng qamrovli lingvistik tuzilma matndan tahlil qilish orqali aniqlanishi kerak. Cheklanmagan matndagi alohida so'zlarning talaffuzi morfologik tahlil yoki harf-tovush konvertatsiyasi bilan aniqlanadi, so'ngra so'z darajasidagi stress konturining spetsifikatsiyasi bilan aniqlanadi. Bundan tashqari, sarlavhalar, raqamlar va qisqartmalar kabi ko'plab matn belgilar qatorlari odatdagi so'zlar uchun qisqartma bo'lib, ularni aniqlash kerak. Ushbu talaffuzlarni yanada takomillashtirish va nutqning prosodik tuzilishini aniqlash uchun so'zning nutq qismi hisoblanishi kerak, so'ngra fraza darajasidagi bo'linishini. Ushbu tuzilmadan nutqning prosodik tuzilishi aniqlanishi mumkin, bu esa nutqning davomiyligini asosini va asosiy chastota konturini belgilash uchun zarurdir. Diskurs kontekstlarida, yangi va eski ma'lumotlarni belgilash, kontrast va olmoshli havola kabi bir nechta omillar prosodik spetsifikatsiyani yanada o'zgartirish uchun ishlatilishi mumkin. Prosodik korrelyatlar hisoblab chiqilganda va segmental ketma-ketlik yig'ilganda, nutq sintezi uchun mos bo'lgan to'liq kiritish aniqlanadi. Va nihoyat, qoida asoslaridan foydalangan holda ko'p tilli tizimlar tilga olinadi va kelajak yo'nalishlar tavsiflanadi [2].

Roman Jakobson (20-asrning boshlari – o'rtalari) – strukturaviy tilshunoslik va fonologiya-niing asosiy namoyandasi. U Linda R. Waugh bilan birgalikda «Tilning tovush shakli» («The Sound Shape of Language») asarini yozgan [3]. «Tilning tovush shakli» (va Jakobsonning ko'plab

asarlarining) xususiyatlaridan biri shundaki, uning sahifalari davomida o'tmish va hozirgi bilan dialog mavjud [5]. U o'sha davrdagi (1978-yilgacha bo'lgan) fonetika va fonologiya mutaxassislarining ishlariga munosabat bildirgan, ularning ko'pchiligi Jakobsonning oldingi asarlariga javob berishgan. Akademik yozuvda odatiy hol bo'lganidek, u boshqa olimlarning ko'plab ishlariga iqtibos keltirgan va ularning g'oyalariga rozi yoki norozi ekanligini bildirgan. Ammo u xuddi shunday bilvosita dialogga kirishayotgan narsaga iqtibos keltirmagan. Ushbu bilvosita dialogning asosiy namunasi Noam Chomskiy va Morris Hallening «Ingliz tilining tovush tuzilishi» (The Sound Pattern of English - SPE) asari orqali ifodalangan generativ fonologiyadir, ular ushbu asarni unga bag'ishlashgan (u ularning ikkalasi bilan ham do'st edi). Ma'lum ma'noda, «Tilning tovush shakli» SPEga nisbatan (odatda) bilvosita izoh beradi. «Tilning tovush shakli»da SPEdagi u rozi bo'lmagan bayonotlardan ilhomlangan ko'plab munozaralar mavjud [2].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION). Xulosa sifatida aytish mumkinki, nutq nafaqat til tizimining real namoyon bo'lish shakli, balki madaniy, ijtimoiy va shaxsiy omillar ta'sirida shakllanadigan ijodiy jarayon hamdir. Ayniqsa, ingliz tilini o'rganishda nutq faoliyatini chuqur o'rganish o'quvchilarda til kompetensiyasini shakllantirishda muhim omil sanaladi. Shunday ekan, nutq tushunchasini zamonaviy lingvistik yondashuvlar asosida tahlil qilish, tilshunoslikning nazariy va amaliy sohalarini chuqurlashtirishda muhim ilmiy vazifa bo'lib qolmoqda.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI
(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА/
REFERENCES)**

1. Greenblatt, Stephen, et al. The Norton Anthology of English Literature, Vol. D. (9th ed.). Norton Web, 2012. – 3214 p.
2. Nikolaj S. Trubetzkoy, N.S. Trubetzkoy's Letters and Notes, edited by Roman Jakobson et alii, The Hague-Paris, Mouton, 1975. – 529 p.
3. Roman Jakobson, Linda Waugh, The Sound Shape of Language, Bloomington, Indiana University Press and London, Harvester Press, 1979. –231 p.
4. Simpson, Paul. Stylistics: A Recourse Book for Students. Taylor and Francis Group, 2004. – 262 p.

Q'ZBEK TILI IZOHLI LUG'ATLARIDA SEMANTIK DARAJALANISH TATBIQI HOLATI

Qahramon Eshboyev,

Renessans ta'lim universiteti dotsenti

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

THE APPLICATION OF SEMANTIC GRADATION IN UZBEK LANGUAGE EXPLANATORY DICTIONARIES

*Kahramon Eshboev, associate professor of Renaissance
Educational University.*

Doctor of Philosophy in Philology (PhD), dotsent

СОСТОЯНИЕ ПРИМЕНЕНИЯ СЕМАНТИЧЕСКОГО УРОВНЯ В УЗБЕКСКИХ ТОЛКОВЫХ СЛОВАРЯХ

*Кахрамон Эшбоев, доцент Образовательного университета
«Ренессанс», Доктор философии в филологии (PhD)*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbek tili izohli lug'atlarida berilgan leksemalarning ma'noviy darajalanish tatbiqi holati tadqiq qilingan. Bu orqali izohli lug'atlarda darajalanish tamoyilini qo'llash bo'yicha fikr va mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, leksikografiya, lug'at, metodologiya, semantika, daraja, darajalanish, izohli lug'at, sinonimlar lug'ati, antonimlar lug'ati.

Annotation: This article investigates the application of the semantic categorization of lexemes provided in Uzbek explanatory dictionaries. It presents opinions and reflections on the application of the principle of categorization in explanatory dictionaries.

Key words: linguistics, lexicography, dictionary, methodology, semantics, degree, gradation, explanatory dictionary, synonyms dictionary, antonyms dictionary.

Аннотация: В этой статье исследуется состояние применения семантической градации лексем, представленных в объяснительных словарях узбекского языка. Через это изложены мысли и соображения относительно применения принципа градации в объяснительных словарях.

Ключевые слова: лингвистика, лексикография, словарь, методология, семантика, степень, градация, толковый словарь, словарь синонимов, словарь антонимов.

Kirish. Lug'atlarning yaratilishi uzoq tarixga borib taqaladi. Turkiy tillarning dastlabki lug'atlari XI-XII asrlarda yaratilgan bo'lsa, Yevropada, xususan, Rossiyada lug'at tuzish ishlari XVII asrdan boshlab ommalasha boshlagan. O'zbek leksikografiyasining tarixi Mahmud Koshg'ariyning XI asrda yaratilgan mashhur "Devonu lug'ot-it turk" asari bilan boshlangan. Ushbu lug'at faqat so'z va uning ma'nosini tavsiflab qolmasdan, turkiy xalqlar tarixi, urf-odatlar, geografik joylashuvi kabi keng ma'lumotlarni ham qamrab olgan. Shu bilan birga, u dastlabki ikki tilli (turkiycha-arabcha) izohli

lug'atlardandir. Yana bir yurtdoshimiz Mahmud Zamaxshariy o'zining "Asos ul-balog'a" asari va "Muqaddimat ul-adab" (XI asr) deb nomlangan to'rt tilli (arab, fors, o'zbek, mo'g'ul) lug'ati bilan ham amaliy, ham nazariy leksikografiya rivojiga katta hissa qo'shdi.

O'zbek leksikografiyasi tarixida XX asr alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bu davrda turli maqsadlarni ko'zlab bir qancha terminologiyaga oid lug'atlar, o'quv va imlo lug'atlari, ikki va uch tilli lug'atlar yaratildi. Avvalo sho'rolar davrida jadidlarimiz ikki tilli ruscha-o'zbekcha lug'atlar



<https://orcid.org/0000-0001-5038-7520>

e-mail:

eshboev2020@gmail.com

yaratildi. Chunki o'zbek tili XX asrning ikkinchi yarmida, xususan, keyingi o'n yilda yangi-yangi so'zlar, so'z shakllari va ifoda vositalari bilan boyidi, shu bilan birga, sifat jihatidan ham ancha o'zgardi. Unda yangi me'yor (norma)lar, yangi xususiyatlar shakllandi va rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, o'zbek tili leksikasida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. O'zbekistonda sanoat, qishloq xo'jaligi, fan, texnika va madaniyatning beqiyos taraqqiyoti, mamlakatimizda yangi iqtisodiy islohotlar hamda bozor munosabatlarining rivojlanishi bilan bog'liq holda o'zbek tili lug'at tarkibida juda ko'p yangi so'zlar va terminlar yuzaga keldi. Ko'pgina so'zlarning ma'nosi o'zgardi, kengaydi, ayrim so'zlarning ma'nosi yanada aniqlashdi, o'zaro farqlandi[1].

Semantik darajalanish tilshunoslikda leksik birliklarning ma'nodagi nozik farqlari, ularning kuchayishi yoki susayishi orqali aniqlanadigan daraja farqlarini anglatadi. Bu hodisa so'zlarning ma'nolarini chuqurroq anglash, sinonimik qatorlar tarkibini aniqlash va ularni uslubiy jihatdan to'g'ri qo'llashda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek tili izohli lug'atlarida ushbu darajalanishning qanday tatbiq etilgani tahlil etilishi leksikografik jarayonlarning chuqurroq tushunilishini ta'minlaydi.

O'zbek tili izohli lug'atida darajalanish tamoyili lug'atdagi so'zlarning ma'nolarini va ularning o'zaro aloqalarini tizimli va izchil tarzda ko'rsatishni nazarda tutadigan tamoyildir. Izohli lug'atda so'zlar faqatgina talaffuzi va grammatik shakllariga asoslanib emas, balki ularning semantik ma'nolari, kontekstdagi ishlatilishi, sinonimlari, antonimlari va boshqa aloqalari bo'yicha ham tasniflanadi.

Darajalanish tamoyili lug'atdagi so'zlarni turli darajalarda, ya'ni fonologik, morfologik, sintaktik, semantik va pragmatik jihatlarni hisobga olgan holda tizimlashtirishni ta'minlaydi. Bu tamoyil so'zlarning o'zaro bog'lanishlarini va ularning qaysi kontekstdan foydalanilishini ko'rsatish orqali lug'atni yanada foydali va tushunarli qiladi.

O'zbek tili izohli lug'atlarida semantik darajalanish tamoyilining tatbiqi, so'zlarning ma'nolaridagi farq va darajalarini tizimli tarzda ifodalashni anglatadi. Bu tamoyil lug'atlarda so'zlarning ma'no jihatidan qanday darajalarga bo'linishi, biror sifatning kuchi yoki intensivligi qanday ta'riflanishi kerakligini ko'rsatadi. Semantik darajalanish, ayniqsa sifatlar va holatlar bilan bog'liq bo'lgan so'zlar uchun o'ta muhimdir, chunki bu so'zlar bir xil tushunchani turli darajalarda ifodalashlari mumkin.

Semantik darajalanish so'z ma'nolarining iyerarxik tartibda, ya'ni asosiy va qo'shimcha, umumiy va xususiy, yuqori va pastki ma'no darajalariga bo'lingan holda ko'rsatilishi.

O'zbek tili izohli lug'atlarida semantik darajalanishning amaliy ko'rinishini quyidagicha tavsiflash mumkin:

a) Ma'no turlari iyerarxiyasi. Asosiy ma'no doimo birinchi o'rinda keladi. Keyingi ma'nolar ikkinchi darajali, ko'chma, majoziy, terminologik va h.k. Bu fikrlarimizni O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'atida [2] berilgan "og'ir" leksemasining sinonimik qatori orqali dalillashga harakat qilamiz.

b) Giperonim-giponim iyerarxiyasi So'zlar umumiy va xususiy ma'nolarda ifodalanganda ular semantik darajalanishni tashkil etishi kerak. "Meva" giperonim "olma", "anor" giponimlar. Lug'atda "meva"ning izohida unga kiruvchi turlar ko'rsatilsa, bu ma'no darajasini belgilaydi.

v) Sinonim va antonim so'zlar orqali semantik yaqinlik darajasi. Masalan, sinonimlar ichida ham ma'nolar darajalangan bo'lishi mumkin: *go'zal, chiroyli, jozibali*.

Sinonimlar lug'atida [2] berilgan ayrim sinonimik qatordagi leksemalarning ma'no darajasini solishtirib chiqamiz:

ALJIMOQ, ALJIRAMOQ, VALDIRAMOQ, VALAQLAMOQ, VAQILLAMOQ, LAQILLAMOQ, VAYSAMOQ, SANNAMOQ. Be'mani, bo'lmag'ur gap aytmoq, o'rinli-o'rinsiz, mantiqli-mantiqsiz, keragidan ortiq gapirmoq. **Aljimoq**da, qo'pol, haqoratli so'zlar ham ishlatiladi. **Aljiramoq** bu ma'noni **aljimoqqa** nisbatan kuchliroq ifodalaydi. **Valdiramoq, sannamoqda** bunday so'zlarning bo'lishi shart emas. **Valaqlamoq, vaqillamoq, laqillamoq** so'zlarida boshqalariga nisbatan belgining darajasi kuchli. **Sannamoq** va **vaysamoq** so'zlarida gapirish harakatining keraksiz davomiyligi, ayni paytda, gapdagi fikrning mantiqan raso emasligi va ovoznining balandligi qabariq ifodalanadi. **Valdiramoq, vaysamoq, sannamoq** so'zlari ko'proq oddiy nutqqa xos.

Endi ushbu leksemalarning O'TIL dagi [3] izohi bilan tanishib chiqamiz:

ALJIMOQ 1 Bo'lmag'ur, bema'ni gap qilmoq, maza-bemaza, tuturiqsiz gaplar gapirmoq; valdiramoq, aynimoq. *Mening ochiq ko'ngillilik qilib aljiyot- ganim uchun kechir.* [Shuhrat, Shinelli yillar].

2 Gap-so'zdan yangilishmoq, boshi gangib, mi-

yasi aynib, og‘ziga kelganini gapirmoq. -Ah, nima? .. *Bilishibdimi?* — dedi u [Olaxo ja.] va o‘z peshonasiga o‘zi qattiq bir mushtladi-da, yana so‘ra-di: Nima balo, mastlik qilib aljib qo‘ydingmi? A! [P.Tursun, O‘qituvchi].

ALJIRAMOQ ayn. **aljimoq**. Besh-olti qadam narida kayf bilan aljirayotgan yigitlaming biri kelib, unga tegajaklik qildi. S.Zunnunova, Ko‘k chiroqlar. *Erining poyma-poy aljirashidan ko‘ra tinmay hiqichiq tutib hiqillashi uning g‘ashiga tegmoqda edi.* S.Abduqahhor, Sanamay sakkiz dema.

VALDIRAMOQ s.t. Bo‘lar-bo‘lmas, notayin gaplami gapirmoq, og‘ziga kelganini so‘zlamoq. Tojiboy yana nimalardir valdiradi. Elmurod quloq solmadi. [B.Tursun, O‘qituvchi].

VALAQLAMOQ To‘g‘ri kelgan mavzuda bo‘lar-bo‘lmas, huda-behuda gaplami gapirmoq. Nimaga bularni ishdan qoldirib, valaqlab o‘tiribsan? [M.Hazratqulov, Jur‘at].

VAQILLAMOQ 1 “Vaq-vaq” degan tovush chiqarmoq (qurbaqa haqida). Hovuzda qurbaqa vaqillaydi, nodon - davrada. [Maqol].

2 ko‘chma *Bo‘lar-bo‘lmas, bema‘ni gaplar gapirmoq; valaqlamoq. Ko‘p vaqillayverma! Ko‘rib turibsan-ku, bola esini tanib olsin-chi...* [B.Rahmonov, Yurak sirlari].

3 “Vaq-vuq” va shunga yaqin tovush chiqarmoq (oqayotgan yoki qaynayotgan suv haqida). *Gulxanning oldida qora qumg‘onlar vaqillab qaynamoqda.* [M.Muhammadjonov, Turmush urinishlari].

LAQILLAMOQ 1 Vaqtni bekorga o‘tkazmoq, sandiroqlamoq. *“Kattaroq” ish topolmay, ikkiyil ishsiz laqillab yurganidan xabari yo‘q.* [S.Anorboyev, Oqsoy].

2 Aldanib ishonmoq. *O‘shaning gapiga laqillab yuribsanmi?!*

3 Bo‘lar-bo‘lmas gaplami qilmoq, lozim bo‘lmagan gaplami gapirmoq. *Bu yigit choyxonada nima deb laqilladi?* [X.To‘xtaboyev, Sariq devni minib].

VAYSAMOQ E‘tiborga loyiq bo‘lmagan, keraksiz, bema‘ni gaplarni gapirmoq. *Yuz-ko‘zini soqol bosgan mulozim eshkak eshar ekan, tinmay vaysardi.* [M.Osim, Karvon yo‘llarida].

SANNAMOQ 1 etn. Ins-jinlami qaytarish, kishilarni davolash uchun duo o‘qimoq. *Folbinning “odamlari” eshikni g‘irch etib ochib kelib, taxmon tepasidagi dorga o‘tirishini, sannab o‘qib turgan azayimxonni bo‘g‘ishini ko‘rgan edi.* [Mirmuhsin, Umid].

2 etn. Azada marhum haqida aytib yig‘lamoq. *Ayol hamon o‘z dardini aytib sannardi.* [“Sharq yulduzi”].

3 *Ko‘chma*. Ko‘p gapirmoq, vaysamoq. *Qorinni to‘qlab olgan emasmi, Asad jag‘iga zo‘r berib sannab ketdi.* [H.Nazir, Ko‘kterak shabadasi]. Keltirilgan izohlardan ko‘rinadiki, ushbu sinonimik qatordagi so‘zlar orasida ma‘noviy darajalanish holati kuchli bo‘lmasa ham, qo‘llanilish holatlarida farqlar yaqqol namoyon bo‘ladi.

Sinonimlar lug‘ati asosida darajalanish: O‘zbek tilida yaratilgan sinonimik lug‘atlar semantik darajalanishni belgilashda muhim manbadir. Masalan, quyidagi sinonimlar qatori daraja jihatidan farqlanadi: *g‘azablanmoq, jahllanmoq, achchiqlanmoq, qahrilanmoq, g‘azabga minmoq, qahr qilmoq, qahri kelmoq, achchiq qilmoq, achchig‘i kelmoq, achchig‘i chiqmoq, achchig‘i qistamoq.* Bu qatorda har bir keyingi ibora oldingisiga nisbatan kuchliroq hissiy portlashni bildiradi.

Xulosa. O‘zbek tilidagi mavjud izohli lug‘atlar semantik darajalanishni yoritishda so‘zlarning bir nechta ma‘nolarini tasvirlaydi, bu esa so‘zlarning o‘zgaruvchi va boy ma‘no qatlamlarini ko‘rsatadi. So‘zlar ko‘plab matnlarda o‘zining boshlang‘ich ma‘no doirasidan chiqib, turli metaforik va frazeologik ma‘nolarga ega bo‘ladi. Bunday semantik qatlamlar tilning boyligini va so‘zlar orasidagi nozik farqlarni chuqurroq tushunishda lug‘at foydalanuvchisiga qulayliklar tug‘diradi. Yuqoridagilarga asoslangan holda aytish mumkin, keyingi yillarda o‘zbek tilshunosligida so‘zlararo ma‘noviy munosabatlarning yana bir turi bo‘lgan graduonimiya munosabati bilan bog‘liq yondashuv va qarashlarning ommalashayotganligi o‘zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi oldiga muhim vazifalarni hal etishni dolzarb qilib qo‘ymoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Эшбоев Қ. Б. Сўзлараро даражаланиш ўқув луғатини тузиш асослари. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Андижон, 2022. – 134 б.

2. O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati. 2 jildli. 1-jild. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent, 2022. – 502 b.

3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. 6-jild. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – Toshkent, 2022. – B 182.

ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ДЕМОГРАФИК ЖАРАЁНЛАР

*Сейтимбетова Наргиза Мынсызбаевна, Бердақ номидаги
Қорақалпоқ давлат университети “Археология”
кафедраси доценти*

DEMOGRAPHIC PROCESSES IN THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN

*Seytimbetova Nargiza Minsizbaevna, Associate Professor of
the Department of Archaeology, Karakalpak State University
named after Berdakh*

ДЕМОГРАФИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН

*Сейтимбетова Наргиза Мынсызбаевна, доцент кафедры
Археологии Каракалпакского государственного
университета имени Бердаха*



<https://orcid.org/0000-0003-4133-0914>

seytimbetovanargiza@umail.uz

Аннотация: Мақолада Қорақалпоғистон Республикада кўп миллатли аҳолининг таркиб топиши тарихи, ушбу ҳудудда яшовчи халқларнинг дўстлик муносабатлари тарихи, мустақиллик йилларида кўп миллатли аҳолининг демографик кўрсаткичлари, миграция жараёнлари ҳақида сўз этилади.

Калим сўзлар: миллат, кўп миллатлилик, этнос, миллий таркиб, халқлар дўстлиги, мослашув, туғилиш, ўлим, миграция.

Abstract: The article discusses the history of the formation of the multinational population in the Republic of Karakalpakstan, the history of friendly relations between the peoples living in this region, demographic indicators of the multinational population during the years of independence, and migration processes.

Key words: nation, multinationalism, ethnos, national composition, friendship of peoples, adaptation, birth, death, migration.

Аннотация: В статье рассказывается об истории формирования многонационального населения в Республике Каракалпакстан, истории дружественных отношений народов, проживающих в этом регионе, демографических показателях многонационального населения в годы независимости, миграционных процессах.

Ключевые слова: нация, многонациональность, этнос, национальный состав, дружба народов, адаптация, рождаемость, смерть, миграция.

Кириш. Аҳолининг миллий таркибининг шаклланиши мураккаб ва узоқ давом этадиган жараён бўлиб, унга бир-бирига боғлиқ географик, тарихий, этник, демографик, ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий характерга эга бир қатор омиллар таъсир кўрсатади.

Қорақалпоғистонда кўп миллатли аҳолининг таркиб топиши, юқорида таъкидланганидек, узоқ тарихий жараённинг маҳсули ҳисобланади. Бу ҳақда халқларнинг қадимги тарихи ҳақида ҳикоя қилувчи «Авесто», юнон-рим муаллифларининг асарлари, ўрта асрларда юртимизда яшаб ўтган олимлар, сайёҳлар, шунингдек, ҳудудда олиб борилган илмий экспедициялар, тарихчи олимларнинг ҳозиргача етиб келган маълумотларидан билиш мумкин.

Ўлка ҳудудидаги халқларнинг маълум даврларда бир неча маротабалаб кўчишлари, вайронгарчилик келтирувчи шиддатли урушлар, турли ҳукмдорларнинг жангу-жадаллари — буларнинг барчаси демографик жараёнларда ўз аксини топди.

Асрлар давомида турли истилочилар: Кир II, македониялик Искандар, араб халифалиги, Чингизхон, Россия империяси юртимизга талончилик ва мустамлакачилик мақсадида юриш қилди. Амир Темурнинг давлат фаолияти даврида эса бошқа халқларнинг вакиллари бу ерга кўчиб кела бошлади [1,57].

Бу ерга келган халқларнинг вакиллари яшайдиган ҳудудлар пайдо бўлди, янги шаҳарлар пайдо бўлди. Истилочилик ва мустамлакачилик натижасида бу ерга янги тил, дин ва маданий кадрятлар кириб келди, янги маданият кириб келди. Бу жараёнларнинг ҳаммаси мамлакатнинг миллий таркибига ўз таъсирини кўрсатган.

Шундай қилиб, узоқ давом этган тарихий жараёнлар давомида Ўзбекистон аҳолисининг хилма-хил этник таркиби шаклланди, натижада вужудга келган йирик элатлар XIX аср охири — XX аср бошларида миллатларни шакллантириш йўлига ўтдилар, шунингдек, миграция асосида турли этник гуруҳлар ҳам вужудга келди [2,58].

Адабиётлар таҳлили ва методология. Мақола тарихий методлар-тарихийлик, қиёсий таҳлил, тизимлаштириш, ҳолислик тамойиллари асосида ёритилган бўлиб, унда мустақиллик

йилларида мазкур муаммо бўйича илмий мақолалар, китоблар, матбуот материаллари, шунингдек статистик маълумотлар таҳлил қилинган.

Муҳокама. Қорақалпоғистоннинг кўп миллатли таркибининг шаклланиши республика аҳолисининг табиий ҳолати ва туғилиш каби демографик жараёнларнинг ривожланишидаги тафовутларнинг маълум даражасига боғлиқ.

Туғилиш ҳар доим ҳам аҳолининг кўпайишини таъминлайдиган муҳим демографик жараён бўлиб келган. Қорақалпоғистонда туғилиш коэффиценти ўзгаришини унинг умумий коэффиценти ёрдамида кўрсатиш мумкин. Туғилиш даражаси динамикасини таҳлил қилиш шуни кўрсатадики, Қорақалпоғистонда 1991-2018 йилларда туғилишнинг умумий даражаси 15,3% га камайди.

1990 йилларда туғилиш тез пасайиб кетди. 1991 йилдан 2000 йилгача туғилишнинг умумий даражаси 12,9% га, 2000-2018 йилларда яна 2,4% га камайди. Қорақалпоғистон — туғилиш даражаси нисбатан паст бўлган Ўзбекистон Республикасининг 14 та минтақасидан бири бўлиб қолмоқда. Туғилиш даражаси бўйича фақат Тошкент шаҳри, Тошкент ва Бухоро вилоятлари Қорақалпоғистондан орқада қолмоқда. Сўнгги 10 йил ичида Ўзбекистонда туғилиш даражаси 0,1 фоизга, Қорақалпоғистонда эса 3,1 фоизга камайди [3]. Бунинг асосий сабаблари иқтисодий-ижтимоий омиллар ҳамда давлат томонидан амалга оширилаётган оилани режалаштириш бўйича чора-тадбирлар натижаси эди [4,144].

Қорақалпоғистон Республикаси аҳолисининг туманлар кесимида демографик ўсиш кўрсаткичлари таҳлили бўйича, аҳолининг қарийб ярми (48,7%) Амударё дельтасида минтақанинг жанубий қисмида яшайди. Масалан, Орол денгизи яқинидаги Мўйноқ туманида аҳоли сони 1989 йилда 27,4 минг кишини ташкил этган бўлса, 2019 йилга келиб у 3,9 минг кишига камайди. Қўнғирот ва Хўжайли туманларида 1991 йилдан 2019 йилгача аҳоли мос равишда 46% дан 27,7% га камайди. Ушбу даврда минтақанинг жанубий қисмида, яъни Бегovat, Тўрткўл, Амударё, Элликқалъа

туманларида демографик ўсиш анча юқори бўлган [5].

Ўлим даражаси маълум вақт давомида аҳолининг соғлиғи ҳолатини акс эттиради. Ўзбекистон мустақиллиги йилларида соғлиқни сақлаш тизими мустаҳкамланган бўлса-да, айрим касалликларга чалиниш кўпайган. Натижада, болалар, ўсмирлар ва оналар ўлими кўрсаткичлари нисбатан юқори бўлиб қолмоқда. Қорақалпоғистон Ўзбекистонда оналар, ўсмирлар ва болалар ўлими кўрсаткичлари бўйича энг юқори кўрсаткичларга эга, минтақада ўлимнинг юқори даражаси Орол денгизининг қуриши, тоза ичимлик суви етишмаслиги, атмосфера ҳавоси ва тупроқ сифатининг ёмонлашиши билан боғлиқ. Қорақалпоғистоннинг шимолий қисмида (Орол денгизи яқинида) – Мўйноқ, Тахтақўпир, Кегейли, Қонлиқул, Чимбой туманларида ўлим даражаси Ўзбекистон ва Қорақалпоғистон бўйича ўртача кўрсаткичдан юқори, чунки бу туманлар аҳоли саломатлигига салбий таъсир кўрсатадиган экологик инқироздан энг кўп зарар кўрган жойлардир [6].

Сўнгги пайтда Қорақалпоғистонда аҳоли сонининг ўсиши ва унинг жойлашувига бевосита таъсир қилаётган омиллардан бири ҳудудда рўй бераётган миграция жараёни ҳисобланади. Бу жараён республикада эмиграциянинг иммиграцияга нисбатан юқорилиги ва бунинг оқибатида миграциянинг мусбат сальдосининг ўсиши билан аҳоли сони ўсиш кўрсаткичининг камайиб боришида ўз ифодасини топган [7]. Масалан, кўчиб келганлар сони 2020 йилда 7778 кишини ташкил қилган бўлса, кўчиб кетганлар сони эса 2020 йилда 12517 кишини ташкил қилди [8]. Дарҳақиқат, миграциянинг ривожланишига ҳудудда юзага келган экологик шароит ва бозор муносабатларига ўтиш давридаги янги ижтимоий-иқтисодий ҳолат таъсир қилди. Шунингдек, миграция жараёнида тарихий омил, миллий ва этник омилларнинг ҳам аҳамияти катта бўлмоқда.

Мамлакатнинг миграция тарихи катта ва мураккаб даврни ўз ичига олади. Асосан, 1930 йиллардаги қуруқлик вақтида Ўзбекистонга кўплаб қозоқ халқларнинг кўчиб келиши кучайган. Ушбу даврда минтақанинг иқлими ва табиий шароити шолчилик ва чорвачилик учун қулай бўлганлиги ушбу минтақага корейс ва

қозоқ миллати вакиллариининг кўчиб келишига асосий омил бўлди. Шунини таъкидлаш керак, ўша даврда айрим халқлар Марказий Осиё республикаларига сургун қилинган [9].

Бундан кейинги даврда, айниқса, Иккинчи жаҳон уруши йилларида аҳоли ва саноатнинг шарққа, асосан Ўзбекистонга кўчирилиши сабабли республикага янада кўпроқ миллат вакиллариининг кўчиб келиб жойлашишига сабаб бўлди. Кейинчалик, Ўзбекистонга мутахассис кадр ва ишчилар, асосан рус, украин, беларус ва бошқа миллат вакиллари кўчиб келган. Бу жараёнлар Қорақалпоғистон аҳолисининг миллий таркибининг шаклланишига маълум даражада таъсир кўрсатди [10].

Кўп миллатли республикада Орол денгизининг қуриб бориши билан минтақадаги экологик вазият натижасида табиатга, аҳолининг соғлиғига салбий таъсири, иқтисодий-ижтимоий омиллар ҳудудда этник миграциянинг ривожланишига олиб келди. Ташқи миграциянинг катта оқими Қорақалпоғистоннинг шимолий ва марказий туманлари учун хос бўлиб, бу ҳудудлар миграция жараёнини пайдо этувчи юқоридаги омилларни ўзида мужассам этади [11].

Натижалар. Ўрта Осиёда қадимдан макон босган қорақалпоқ, ўзбек, қозоқ, туркман халқларининг тақдири азалдан Орол денгизи билан чамбарчас боғлиқ эди. Орол бўйи ҳудуди ушбу халқларнинг халқ бўлиб шаклланишида катта ўрин эгаллади, яъни унинг бешиги бўлди [12,331]. Масалан, туркман халқининг шаклланишида катта роль ўйнаган ўғузлар қорақалпоқларнинг таркибига ҳам қиради. Қозоқ халқининг шаклланишида асос бўлган қипчоқлар, қорақалпоқларда бор. Қорақалпоқлар ўзларининг шаклланиш даврида ўзбек халқининг асоси бўлган хоразмликларга ҳам аралашади ва улар билан доим бирга яшаб келди. Ўзбекларнинг таркибида бор бир қанча қавмлар қорақалпоқларда ҳам бор [13,13].

Академик С.Камаловнинг «...қорақалпоқ, ўзбек, қозоқ, туркман халқларининг тақдири бир. Орол бўйи - уларнинг халқ бўлиб шаклланишининг қадим замонлардан бешиги бўлиб ҳисобланади. Уларнинг дўстлигининг илдизлари жуда чуқурда, қандай оғир аҳвол бўлмасин, уларнинг дўстлигини, бирдамлигини буза олмайди» [14,13] деб таъкидлаганидек,

қорақалпоқ халқига хос бўлган меҳмондўстлик, ғамхўрлик ва бағрикенглик фазилатлари ушбу муқаддас заминда яшовчи халқлар дўстлигининг гарови ҳисобланади.

Хулоса. Минтақадаги демографик жараёнлар Қорақалпоғистон Республикасида яшовчи барча миллатларнинг ҳаёт тарзига таъсир этди, Орол денгизининг қуриши натижасида пайдо бўлган иқтисодий-ижтимоий, экологик муаммолар натижасида бир нечта миллат вакилларининг кўчиб кетиш жараёнлари юз берди. Буларнинг ҳаммаси республика миллий таркибида демографик ўзгаришларга олиб келди.

Қорақалпоғистон Республикасининг миллий таркибида мустақиллик йилларида, шунингдек, фан ва ишлаб чиқариш соҳалари ривожланаётган бир шароитда хорижий инвестициясининг жалб этилиши, янги саноат корхоналарининг қурилиши, чет эллик мутахассисларнинг тортилиши натижасида хорижий мигрантларнинг кириб келиши жараёни юз бермоқда. Бу миллатлараро муносабатларга таъсир этувчи омиллардан бири бўлиб ҳисобланади.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Муртазаева Р.Х. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва бағрикенглик. Т.: Университет, 2007, 57-б.
2. Муртазаева Р.Х. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва бағрикенглик. Т.: Университет, 2007, 58-б.
3. Джумабаева Ш. Х. Демографический потенциал Республики Каракалпакстан // Народонаселение.— 2020. — Т. 23.— № 3.— С. 147 DOI: 10.19181/population. 2020. 23.3.13

4. Джумашев А., Нуржанов С., Уразова Л., Таджиева Р. Қарақалпақстан тарийхи (1991-2015 йиллар). -Н. «Илим», 2018. -144-б.

5. Джумабаева Ш. Х. Демографический потенциал Республики Каракалпакстан // Народонаселение.— 2020. — Т. 23.— № 3.— С. 146 DOI: 10.19181/population.2020.23.3.13

6. Джумабаева Ш. Х. Демографический потенциал Республики Каракалпакстан // Народонаселение. — 2020. — Т. 23. — № 3.— С. 148 DOI: 10.19181/population.2020.23.3.13

7. Ембергенов Н. Қарақалпақстан Республикаси аҳолисининг ўсиши ва жойланишидаги ўзгаришлар. Т.2011/<https://diss.natlib.uz/tanishish/15853c6e-1135-483f-a4d9-013d091527af>

8. Қорақалпоғистон Республикаси Статистика бошқармаси материаллари. –Нукус. 2021

9. Ембергенов Н. Қарақалпақстан Республикаси аҳолисининг ўсиши ва жойланишидаги ўзгаришлар. Т. 2011/<https://diss.natlib.uz/tanishish/15853c6e-1135-483f-a4d9-013d091527af>

10. Ембергенов Н. Қарақалпақстан Республикаси аҳолисининг ўсиши ва жойланишидаги ўзгаришлар. Т.2011/<https://diss.natlib.uz/tanishish/15853c6e-1135-483f-a4d9-013d091527af>

11. Seytimbetova, N. M. (2022). International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding.

12. «Қорақалпоғистоннинг янги тарихи. Қорақалпоғистон XIX асрнинг иккинчи ярмидан XXI аср бошигача» Н. «Қарақалпақстан», 2003, 331-б.

13. Камалов С.К. Қарақалпақлардың халық болып қәлиплесийүи хәм оның мәмлкетлигиниң тарийхынан.– Нөкис. 2001. – 13-б.

14. Камалов С.К. Қарақалпақлардың халық болып қәлиплесийүи хәм оның мәмлкетлигиниң тарийхынан.– Нөкис. 2001. – 13-б.

СИМВОЛИЧЕСКИЕ ОБРАЗЫ В ДАСТАННЫХ ПОВЕСТЯХ ХОРЕЗМА

Абдуллаева Барно Кадыровна, доктор философии по
филологическим наукам, и.о. доцента

Ургенчский государственный университет им. Абу Райхана
Беруни

SYMBOLIC IMAGES IN THE DASTAN TALES OF KHOREZM

Abdullaeva Barno Kadirovna

Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni

XORAZM QISSA DOSTONLARIDAGI RAMZIY OBRAZLAR

Abdullayeva Barno Qodirovna

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti



ORCID: 0000-
0002-1394-177X

Аннотация: В статье рассматриваются символические образы, используемые в дастанных повестях, анализируются ключевые символы, такие как образ героя, коня, меча, священного дерева и иных элементов, несущих сакральную и культурную нагрузку. Особое внимание уделяется на их функцию в построении нарратива, их связь с народными верованиями, мифологией и историческими реалиями Хорезма.

Ключевые слова: дастан, символика, эпос, фольклор, образ героя, классическая поэзия.

Annotatsiya: Ushbu maqola dostonlarda qo‘llaniladigan ramziy obrazlar tadqiqiga bag‘ishlangan. Unda muqaddas sanalgan va madaniy ahamiyat kasb etgan epik qahramon, ot, qilich, daraxt kabi asosiy ramzlar tahlil qilinadi. Ularning voqealarni o‘zaro bog‘lash funksiyasi va Xorazmning e‘tiqodi, mifologiyasi va tarixiy realiyalari bilan bog‘liqligi ta‘kidlanadi.

Kalit so‘zlar: doston, ramziylik, epos, folklor, qahramon obrazi, mumtoz poeziya.

Abstract: The article examines the symbolic images used in dastan stories, analyzes key symbols such as the image of a hero, horse, sword, sacred tree and other elements that carry sacred and cultural meaning. Particular attention is paid to their function in constructing a narrative, their connection with folk beliefs, mythology and historical realities of Khorezm.

Keywords: dastan, symbolism, epic, folklore, image of a hero, classical poetry.

Введение. В художественной традиции дастанных повестей особое место занимают символические образы, которые не только украшают повествование, но и несут глубокую смысловую нагрузку, отражая культурные и духовные ценности народа. Среди таких образов — цветок, соловей, лев, див, а также предметы национальной одежды и атрибутики — тун, чалма, пояс, письмо. В дастане «Шахрияр» данные символы выступают в качестве выразительных средств, подчеркивающих темы власти, развития, духовного поиска и идеала.

Методы. В работе использован ряд методов, обеспечивающих комплексный анализ

символики дастанного текста:

1. Текстологический – внимательный анализ исходного текста дастана «Шахрияр» для выявления символических образов и их контекстуальных значений;

2. Семиотический – изучение символов как знаков с множественными уровнями значения, рассмотрение их функции в структуре повествования и системе народной символики;

3. Историко-литературный – сопоставление образов с историческим и литературным контекстом времени создания дастана;

4. Культурологический подход – сопоставление выявленных символов с культурными тра-

дициями узбекского народа, их ролью в фольклорных и литературных жанрах;

5. Сравнительный анализ – привлечение аналогий из других фольклорных и эпических текстов для выявления универсальных и уникальных черт символики.

Результаты. В деле обеспечения художественности дастанных повестей своеобразное место занимают такие символические образы, как *цветок, соловей, лев, див, тун (национальный халат), чалма, пояс, письмо*. Например, в дастане “Шахрияр” Шахсувар, обращаясь к людям, объявляет о том, что намерен проложить каналы из реки, прорыть каналы и вывести воду на поля, в целях заслужить доброе имя разбить приусадебный сад, и получает разрешение на это. В дастанной повести указанный сад и расположенная рядом усадьба выглядят следующим образом: “...в этом месте была заложена крепость. Угловые башни имели позолоченный купол. Количество зубцов крепостной стены составляло семьдесят. Все сверкали золотом, а внутри возвылся роскошный дворец. Золотой курган заполнили шафраном, мускусом и амброй, различными благовониями. Внутри цитадели были возведены дворцы, способные любого лишить дара речи. Вокруг крепости разбили такой сад, которого еще не было в мире... по окружности проложили аллеи. Высадили различные фруктовые деревья, разбили разнообразные цветники, в которых произрастали цветы со всего мира, в саду поспевали всевозможные фрукты. За два года приусадебный сад приобрел совершенную форму. Возник такой сад, что каждый проходящий мимо человек, увидев его, лишался разума, впадал в беспамятство” (“Ашикнаме”, книга 2, с. 287). В данном месте цветок из приусадебного сада приобретает символический смысл, является символом высочайшего развития и процветания державы Шахсувара. Ибо среди узбекского народа выражение “гуллаб-яшнаш” представляет собой синоним к слову “развитие”. Приусадебный сад, расположенный рядом с золотым курганом, возведенные дворцы, произрастающие в саду “цветы со всего мира” – все это в своей совокупности является символом процветания, благоустроенности. Последующие мытарства Шахрияра, который, на самом деле, был сыном Дарабшаха и в результате злых происков соперниц своей матери был удален из дворца, благодаря чему получил

дальнейшее воспитание у Шахсувара, составляют сюжетную основу дастана. Проведав о том, что Шахрияр пребывает в добром здравии и совершает добрые деяния в качестве продолжателя благих дел Шахсувара, те же самые завистницы снова вступают на путь злодейства и отправляют повитуху Савсан момо для устранения Шахрияра, пообещав ей золотые горы. С большим трудом пробравшись в указанный сад Савсан момо выявляет один его недостаток: “...здесь обитает сказочная птица булбулиг’ё, пребывая в хорошем расположении духа, она заводит трели, способные лишить человека чувств, другой песней она приводит его в чувство. Данная птица достойна лишь для правителя”, и пропадает с глаз (“Ашикнаме”, книга 2, с. 289).

Шахрияр проникается идеей найти эту птицу и овладеть ею. В данных целях он просит разрешения у отца и, отказавшись от предложенного им оружия, в облике странствующего каландара направляется в путь. С этого события в дастанную повесть проникает второй символический образ – образ соловья. Булбулиг’ё представляет собой символ идеала, к которому стремится главный герой. Новые символические образы – *лев, дивы, волшебный халат, чалма, пояс* – встречаются ему на этом пути. Образ льва – символ мощи. Шахрияр умиряет его чтением соответствующей молитвы, то есть обретает грозную силу. Одолев дива, являющегося символом прозорливости, он приобретает дополнительных помощников, которые доставляют героя к резиденции Шамсун пери. Познакомившись с ней и предавшись наслаждениям, Шахрияр говорит о цели своего прибытия. Верхом на диве по имени Осор он добирается до крепости Заррин. Несмотря на все свои усилия ему не удается открыть ее ворота, и герой обращается к Аллаху со следующей просьбой:

Бир отинг Раҳимдур, бир отинг Раҳмон,
Бу дардима ўзинг дармон айлагил,
Манинг бу мушкулим айлагил осон,
Бу дардима ўзинг дармон айлагил.
Билқиснинг ишқинда куйди Сулаймон,
Айюбнинг дардина сан бердинг дармон,
Булбулнинг куйинда ман бўлдим ҳайрон,
Бу дардима ўзинг дармон айлагил (“Ашикнаме”, книга 2, с. 300).

Взглянув вверх, Шахрияр увидел письмо, из которого узнал, что фраза “Бисмиллохир

Рахмонир Рахим” является ключом к этой крепости. Посредством указанной фразы он проникает внутрь, перед ним возникают девушки, державшие в руках золотые чаши с вином. Он не обращает на них внимания и идет дальше. “Он видит огромное здание с золотым куполом. Это было такое живописное место, что, увидев его, человек падал в беспамятстве. Шахрияр облачился в халат, обмотал голову чалмой и стал дожидаться булбулигуё, наслаждаясь происходящим вокруг. Но он забыл опоясаться и прочитать письмо при появлении здесь булбулигуё, сказочное существо взглянуло на чалму Шахрияра, где был запечатлен любимый им цветок. Увидев его, оно стало выводить свои трели, опустившись на выступ” (“Ашикнаме”, книга 2, с. 301). Опьянев от вида любимого им цветка, запечатленного на чалме Шахрияра, соловей опускается на его голову. Но позабывший прочитать находящееся у него в руках письмо герой превращается в камень. Таким образом, письмо выполняет в дастанных повестях конкретную эстетическую функцию в качестве путевода, символа спасения. При внимательном изучении очевидно, что на всем протяжении дастанной повести герой, попадая в сложную ситуацию, находит ее разрешение посредством чтения письма. В продолжении дастанной повести его сестра Анжум пери, оседлав коня Джахангира, являющегося наследием пророка Сулеймана, и преодолев различные препятствия на своем пути, высвобождает своего брата. С помощью Джахангира герою удается отыскать свою родную мать и отца Дарабшаха и достичь заветных желаний.

Обсуждение. Символические образы из дастанных повестей в определенной мере соответствуют мистическим образцам из классической поэзии, выполняя важную эстетическую функцию в аспекте придания совершенства сюжету произведения, достижения героем эпоса своих целей.

Следовательно, образы в дастанных повестях условно можно классифицировать в следующем виде: 1) образы этнических героев (Гороглы, Авазхан, Тахир, Меджнун и др.); 2) образы влюбленных и соперника (главные герои романических дастанов); 3) символические образы. Дастанные повести способны вобрать в себя как лиро-эпические произведения небольшо-

го объема, так и крупные эпосы. Каждый эпический герой воплощает в себе эстетический идеал определенного этноса. В этой связи, образы Гороглы, Авазхана, Тахира, Меджнуна представляют собой художественное выражение духовного мира этнических героев, их духовного и нравственного облика, идей о гармоничной личности и идеальном обществе.

Образы влюбленных и соперника особо выделяются воплощением в себе литературно-эстетической сущности дастанных повестей цикла “Ашикнаме”. Если принимать во внимание то обстоятельство, что данная триада выполняет функцию поэтической основы в системе сюжета, композиции и образов лиро-эпических дастанов в классической литературе, то и в дастанных повестях Хорезма приобретает особую значимость посредством высочайшей художественной интерпретации народных чаяний и пожеланий, сокровенных дум и переживаний, связанных с его прошлым, настоящим и будущим.

Выводы. Такие символические образы, составляющие неотъемлемую часть сюжета дастанных повестей, как *цветок, соловей, лев, див, волшебный халат, чалма, пояс, письмо*, также имеют важное значение в аспекте выполнения определенной эстетической функции. Лев – символ мощи, цветок и соловей – олицетворяют влюбленных, див – алчности и ненасытности, волшебный халат и чалма – величия, пояс – благородства и отваги, письмо – спасения, путевода. Своеобразная созвучность с мистическими образцами из классической поэзии определяет место данных образов в деле придания поэтического совершенства сюжету дастанных повестей, достижения эпическим героем своих заветных желаний.

Литература:

1. Атоуллах Хусайни Бадойибу-с-санойиъ (перевод с фарси Алибека Рустамова). – Ташкент: Адабиёт ва санъат, 1981.
2. Ашикнаме. – Ургенч: Хоразм, 2006.
3. Гороглы. – Ургенч: Хоразм, 2011.
4. Рахманов В. Стихотворные искусства. – Ташкент: Sharq, 2020.
5. Рузимбаев С. Специфика, типология и поэтика Хорезмских дастанов. Автореферат докторской диссертации. – Т., 1990.

THE ROLE OF TECHNOLOGY IN MODERN EDUCATION

Kalandarova Nodira Rajabovna, Senior Lecturer of the department of "Uzbek and Foreign languages" Institute of Social and Political Sciences

ZAMONAVIY TA'LIMDA TEXNOLOGIYANING ROLI

Kalandarova Nodira Rajabovna, "O'zbek va xorijiy tillar" kafedrasida katta o'qituvchisi, Ijtimoiy-siyosiy fanlar instituti

РОЛЬ ТЕХНОЛОГИЙ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ

Каландарова Нодира Раджабовна, старший преподаватель кафедры "Узбекский и иностранные языки", Институт социально-политических наук



nqalandarova701@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0009-2551-2399>

Annotation: This article analyzes the role and significance of technology in the modern education system. The use of technology in the educational process creates opportunities to make the learning process more effective and interactive. It demonstrates how technological tools can enhance the content of education, facilitate interactive lessons, and offer opportunities for distance learning for both teachers and students. Additionally, it explores how technology helps develop students' creativity and critical thinking skills and the possibilities of integrating with global educational systems.

Keywords: modern education, technology, distance learning, interactive lessons, creativity, education system, teacher, student, educational innovations.

Annotatsiya: Ushbu maqola zamonaviy ta'lim tizimidagi texnologiyaning o'rni va ahamiyatini tahlil qiladi. Ta'lim jarayonida texnologiyadan foydalanish o'quv jarayonini yanada samarali va interaktiv qilish imkonini yaratadi. Maqolada texnologik vositalar ta'lim mazmunini boyitishi, interaktiv darslarni o'tkazish hamda o'qituvchilar va o'quvchilar uchun masofaviy ta'lim imkoniyatlarini taqdim etishi ko'rsatilgan. Shuningdek, texnologiya o'quvchilarning ijodkorligi va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qanday yordam berishi hamda global ta'lim tizimlariga integratsiya qilish imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy ta'lim, texnologiya, masofaviy ta'lim, interaktiv darslar, ijodkorlik, ta'lim tizimi, o'qituvchi, talaba, ta'lim yangiliklari.

Аннотация: В данной статье анализируется роль и значение технологий в современной системе образования. Использование технологий в учебном процессе создает возможности для повышения эффективности и интерактивности обучения. Показывается, как технологические инструменты могут обогатить содержание образования, способствовать проведению интерактивных уроков и предоставлять возможности дистанционного обучения как для учителей, так и для учеников. Кроме того, рассматривается, как технологии способствуют развитию творческих и критических навыков у студентов, а также возможности интеграции с глобальными образовательными системами.

Ключевые слова: современное образование, технологии, дистанционное обучение, интерактивные уроки, креативность, система образования, учитель, ученик, образовательные инновации.

In today's fast-paced world, technology plays a pivotal role in almost every sector, and education is no exception. The integration of technology into the educational system has transformed the way students learn, and the way teachers teach. From interactive digital platforms to online resources, the role of technology in modern education cannot be

overstated. This article explores the various ways technology influences modern education, including its impact on learning methodologies, teaching strategies, and the development of students' cognitive skills.

Technology has revolutionized the education system over the past few decades. Traditional

teaching methods, where teachers used chalkboards and textbooks, have now evolved into digital classrooms equipped with smartboards, laptops, and interactive online tools. The advent of the internet has further accelerated this transformation by providing students and teachers with vast repositories of knowledge at their fingertips. Tools such as Learning Management Systems (LMS), such as Moodle and Blackboard, have become integral in organizing educational content and improving communication between educators and students.

In the past, educational content was static and one-dimensional, relying solely on textbooks and printed materials. Today, students have access to multimedia content, including videos, podcasts, simulations, and interactive modules, which cater to various learning styles. This flexibility has made education more inclusive, as it allows students to access materials that match their unique learning needs.

One of the most significant advantages of technology in education is the creation of personalized learning experiences. With digital tools, teachers can tailor content to suit the individual needs of their students. Adaptive learning software, for example, can adjust the level of difficulty based on a student's progress, ensuring that the content remains challenging but achievable.

Additionally, technology has made learning more interactive and engaging. Virtual and augmented reality (VR and AR) technologies, for instance, offer immersive learning experiences that help students understand complex concepts. For example, in science classes, students can virtually explore the human body or visit historical sites without leaving the classroom. This hands-on learning approach encourages students to become active participants in their education rather than passive recipients of information.

For teachers, technology provides tools to enhance their teaching strategies. Interactive whiteboards, online quizzes, and educational apps allow teachers to create dynamic lessons that cater to different learning styles. Moreover, technology facilitates collaboration between students and teachers. Platforms like Google Classroom and Microsoft Teams enable real-time feedback and foster a sense of community among students.

The Role of Technology in Promoting Critical Thinking and Creativity

In addition to enhancing engagement and providing personalized learning experiences, technology also plays a key role in developing critical thinking and creativity in students. Digital tools enable students to engage with information on a deeper level. Instead of simply memorizing facts, students can analyze, synthesize, and apply information to real-world scenarios.

Moreover, technology encourages creative expression. For example, students can use digital art tools, create multimedia presentations, or develop apps, all of which help to enhance their creative thinking abilities. The use of technology also facilitates collaborative projects, where students can work together online, exchange ideas, and solve problems as a team. This fosters teamwork, communication, and problem-solving skills, all of which are essential for success in the modern workforce.

Challenges and Opportunities in Integrating Technology into Education While the benefits of technology in education are clear, it is essential to address the challenges that come with its integration. One of the most significant challenges is the digital divide, where some students lack access to the necessary devices or a stable internet connection. This inequality can exacerbate educational disparities and prevent certain groups from fully benefiting from technology.

Additionally, there are concerns regarding data privacy and the security of digital platforms used in education. As schools and universities increasingly rely on online tools, it is crucial to ensure that students' personal data is protected from cyber threats.

Despite these challenges, the opportunities presented by technology in education far outweigh the obstacles. Schools, universities, and governments around the world are investing in infrastructure to provide equal access to technology and address these barriers. Online learning platforms, for instance, offer opportunities for distance education, which can reach a broader audience, including adult learners, individuals with disabilities, and those in remote areas. The role of technology in modern education is both transformative and essential. From enhancing personalized learning to fostering creativity and critical thinking, technology has created new possibilities for students and educators alike. However, it is important to ensure that all students have access to the tools and resources needed to

succeed in the digital age. As technology continues to evolve, so too will the educational methods, opening up new horizons for future generations of learners.

By embracing technology, education systems can better prepare students for the challenges of the modern world, equipping them with the skills they need to thrive in an increasingly digital society.

The integration of technology in modern education has profoundly transformed the landscape of teaching and learning. Technological tools and platforms are reshaping the way knowledge is disseminated, learned, and applied. The role of technology in education is multi-faceted, encompassing various aspects that enhance both the process and the outcomes of learning. In this discussion, we explore the benefits, challenges, and implications of technology in modern education.

One of the most significant advantages of technology in education is its ability to engage students in interactive learning experiences. Traditional education models often rely on passive learning, where students receive information in a one-way manner. However, with the advent of digital tools such as interactive whiteboards, learning management systems (LMS), and online platforms, students can engage actively in their learning process. For example, platforms like Google Classroom, Moodle, or Edmodo allow students to participate in discussions, share resources, and collaborate on projects with their peers, which leads to enhanced engagement and deeper learning. Additionally, the use of multimedia content such as videos, podcasts, and simulations offers students the opportunity to learn through various sensory channels, which can cater to different learning styles and make lessons more dynamic.

Technology has made access to information more efficient and widespread. In the past, learning was often limited to textbooks or specific class resources. Today, students have virtually unlimited access to a wealth of information from the internet, eBooks, online journals, and databases, making it easier for them to expand their knowledge base. For instance, educational platforms like Khan Academy, Coursera, and edX provide high-quality educational content on a variety of subjects. This access empowers students to take charge of their learning,

research topics in-depth, and gain exposure to global perspectives. Moreover, technology has bridged geographical gaps, allowing students in remote or underserved areas to participate in quality education through online courses and virtual classrooms.

Another key benefit of technology is its ability to support personalized learning. With traditional educational models, students often learn at the same pace, which can be challenging for those who either struggle to keep up or advance faster than their peers. Technology enables personalized learning experiences, where digital tools can adapt to individual students' needs, allowing for differentiated instruction. For instance, AI-driven platforms like DreamBox Learning or Squirrel AI Learning provide personalized lessons based on the student's current understanding, pace, and learning preferences. This level of customization ensures that each student can learn in the way that works best for them, ultimately improving learning outcomes.

References:

1. Johnson, L., Adams Becker, S., Estrada, V., & Freeman, A. (2014). *The NMC Horizon Report: 2014 Higher Education Edition*. The New Media Consortium.
2. Brown, A. (2017). *The Impact of Technology on Education: Benefits, Challenges, and Solutions*. *Journal of Educational Technology*, 23(2), 45-57.
3. Anderson, C. A., & Dill, K. E. (2000). Video games and aggressive thoughts, feelings, and behavior in the laboratory and in life. *Journal of Personality and Social Psychology*, 78(4), 772-790.
4. Heick, T. (2018). *5 Educational Technology Trends That Will Shape Education In The Next 5 Years*. TeachThought.
5. Prensky, M. (2001). Digital Natives, Digital Immigrants. *On the Horizon*, 9(5), 1-6.
6. Dede, C. (2016). The Role of Digital Technology in Education. *Educational Leadership*, 73(6), 10-16.
7. Hattie, J. (2009). *Visible Learning: A synthesis of over 800 meta-analyses relating to achievement*. Routledge.
8. VanLehn, K. (2011). The relative effectiveness of human tutoring, intelligent tutoring systems, and other tutoring systems. *Educational Psychologist*, 46(4), 197-221.
9. Roblyer, M. D., & Doering, A. H. (2014). *Integrating Educational Technology into Teaching*. Pearson.
10. Bates, A. T. (2015). *Teaching in a Digital Age: Guidelines for designing teaching and learning*. Tony Bates Associates Ltd.

JOANNA KETLIN ROULINGNING “GARRI POTTER” TURKUMIDAGI ROMANLARI VA UNING G‘OYAVIY- BADIY MUNDARIJASI

*Xamroqulova Xurshida, Toshkent amaliy fanlar universiteti professori,
filologiya fanlari doktori*

JOANNA KATHLEEN ROWLING’S NOVELS IN THE “HARRY POTTER” SERIES AND THEIR IDEOLOGICAL AND ARTISTIC CONTENT

*Khamrokulova Khurshida, Professor of Tashkent University of Applied
Sciences, Doctor of Philology*

РОМАНЫ ДЖОАННЫ КЭТЛИН РОУЛИНГ ИЗ СЕРИИ “ГАРРИ ПОТТЕР” И ИХ ИДЕЙНО- ХУДОЖЕСТВЕННОЕ СОДЕРЖАНИЕ

*Хамрокулова Хуришуда, профессор Ташкентского университета
прикладных наук, доктор филологических наук*



<https://orcid.org/0000-0001-6867-750X>

e-mail:
xxurshida@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada britaniyalik yozuvchi Joan Ketlin Roulingning “Garri Potter” turkumidagi romanlarining g‘oyaviy-badiiy mundarijasi, romanning jahon bolalar adabiyotida tutgan o‘rni, o‘zbek bolalar adabiyotiga ta‘siri masalalariga daxl qilingan. Maqola adibaning ijod laboratoriyasi bilan tanishtirish jihatidan ham ahamiyat kasb etadi.

Tayanch so‘zlar: Realiya – muayyan xalqning turmush tarzi, madaniyati, tarixi bilan bog‘liq betakror, o‘zga xalqlarda uchramaydigan narsa-hodisa, tushuncha; shunday narsa va tushunchalarni anglatuvchi so‘z. Tabu – muayyan so‘zlar, iboralar va ayrim atoqli otlarni qo‘llashni ta‘qiqlash, man etish. Prototip – adabiy qahramonga asos bo‘lgan real shaxs. Bestseller – eng ko‘p sotilgan asar.

Abstract: This article deals with the ideological and artistic content of the novels in the “Harry Potter” series by British writer Joanna Kathleen Rowling, the place of the novel in world children’s literature, and its influence on Uzbek children’s literature. The article is also important in terms of introducing the writer’s creative laboratory.

Keywords: reality – a unique thing-event, concept related to the lifestyle, culture, and history of a particular people, not found in other peoples; a word denoting such things and concepts. Taboo – a prohibition, prohibition on the use of certain words, expressions, and certain proper nouns. Prototype – a real person who is the basis for a literary character. Bestseller – the best-selling work.

Аннотация: В статье рассматривается идейно-художественное содержание романов серии “Гарри Поттер” британской писательницы Джоан Кэтлин Роулинг, место этих романов в мировой детской литературе и их влияние на узбекскую детскую литературу. Статья важна и с точки зрения знакомства с творческой лабораторией писателя.

Ключевые слова: Реальность – уникальная вещь, явление, понятие, связанное с образом жизни, культурой, историей определенного народа, не встречающееся у других народов; слово, обозначающее такие вещи и понятия. Табу — запрет или недопустимость использования определенных слов, фраз и

определенных имен собственных. Прототип — реальный человек, послуживший основой для литературного персонажа. Бестселлер — самое продаваемое произведение.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Britaniyalik yozuvchi, ssenarist va kinoprodyuser Joanna Rouling 1965-yil 31-iyulda Angliyada tug‘ildi. “J.K.Rouling”, “Joan Ketlin Rouling” va “Robert Gelbreyt” taxalluslari bilan ijod qiluvchi adiba “Garri Potter” turkumidagi romanlarida “J.K.Rouling” taxallusidan foydalandi. Birinchi kitobini Joan Rouling nomi bilan nashr ettirgan yozuvchi keyingi kitoblarini noshirlarning maslahatiga ko‘ra “J.K.Rouling” taxallusi bilan nashr ettirdi. U “K” harfini ota tomonidan buvisi Ketlin nomidan oldi. Kutilmagan magik sarguzashtlar tufayli “Garri Potter” romanlari turkumi kitob savdosi tarixida bestseller asarga aylandi va ularning soni besh yuz milliondan oshib ketdi. Bu esa Garri Potter haqidagi filmlarning yaratilishiga yo‘l ochdi. Dastlabki ikki kitobi asosidagi filmga ssenariy muallifi bo‘lgan Rouling so‘nggi ikki kitobining filmiga prodyuserlik qildi.

Bolaligidan singlisi Diana uchun ertak va hikoyalar to‘qishdan zavq olgan Joanna Roulingga Garri Potter degan bolakay haqida yozish g‘oyasi 1990-yil Manchester shahridan Londonga poyezdda ketayotganida paydo bo‘ldi. Bungacha u Xalqaro amnistiya tashkilotida ilmiy xodim, tarjimon va kotiba bo‘lib ishlar edi. Keyingi yetti yil oralig‘ida yozuvchi onasining vafot etishi, shaxsiy hayotdagi omadsizliklar, qashshoqlikda hayot kechirish ham uning ijodiy yo‘liga to‘siq bo‘la olmadi. “Garri Potter va afsonaviy tosh” nomli birinchi sehrli-fantastik va sarguzashtlarga boy romanini 1997-yilda nashr qildirdi. Keyinchalik, turkumni davom ettirib, romanlar sonini yettitaga yetkazdi. Avvalgi romanlariga qo‘shimchalar kiritdi. Shundan so‘ng u go‘yo turkumga nuqta qo‘ydi va e‘tiborini detektiv janrga qaratdi. Sobiq politsiyachi, izquvar detektiv Kormoran Strayk haqida romanlar turkumini yaratdi. Ularga Robert Gelbreyt taxallusini qo‘ydi. Bu turkumni ham yettitaga yetkazib nuqta qo‘ydi. O‘tgan besh yil uning qashshoqlikdan multimillionerga aylanish davri bo‘ldi. Hatto 2019-yil “Forbes” jurnali ma‘lumotiga ko‘ra u eng ko‘p

maosh oluvchi yozuvchilar ro‘yxatida birinchi o‘rinni egalladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). 2016-yilda u yana Garri Potter mavzusiga murojaat qildi va sakkizinchi kitobi “Garri Potter va la‘natlangan bola” romanini e‘lon qildi. Bolalikdan o‘zining fantastik olamida yashagan yozuvchi Garri Potter turkumidagi asarlarda magik realizmning chegarasiz sarhadga egaligini namoyish qildi. Jahon mifologiyasini chuqur bilgan adiba mifopoetik kuchdan ruhlanib magik olamning sirli-sehrli olamiga kitobxonni dadil olib kirdi. Garri Potterga oid sarguzashtlar adibaning keng dunyoqarashi, chuqur bilimga egaligi, ko‘plab fanlar – astronomiya, astrologiya, meteorologiya, mineralogiya, gerbologiya, zoologiya, biologiya, taomshunoslik, qurolsozlik, musiqashunoslik, tibbiyot, numerologiyaga oid tushunchalar, Yevropa xalqlariga xos realiyalar, yozuvchining Angliya, umuman, Yevropa tarixi, folklori va ayniqsa, mifologiyasini chuqur bilishi va bu bilimlarning qahramonlar hayotiga tatbiq qilinishi tufayli asar yanada jozibali tus oldi. Yozuvchi shuuri bilan kashf etilgan real hayotga yondosh parallel olamda kechuvchi voqealar, magik olamning rivojlanish qonuniyatlari, ularning dunyoni anglashdagi o‘ziga xos bilish yo‘sini, “Xogvars” sehrli maktabidagi numerologiya (*sehrli sonlarning tirik organizmlar, shuningdek, insonlar hayotidagi o‘rni va ta’sirini o‘rganadigan fan. Bu fan ko‘proq mistik fantastika sohasida qo‘llaniladi*), xiromantiya (*kaftdagi chiziq'larga qarab fol ochishdan iborat folbinlik*), bashorat kabi fanlar, sehrli buyumlar – saralovchi shlyapa, supurgi, tayoqcha, koptokchalar bilan o‘ynaladigan kvdish kabi o‘yinlar, qaqnus, uy elflari (*Skandinaviya afsonalarida arvoq, pari kabi afsonaviy maxluq. Nemis afsonalarida sehrgar xalq. Ularni “alb” deb ham yuritishgan. Elflar insonga do‘stona munosabatda bo‘ladigan, go‘zal maxluqlar, o‘rmon ruhlari sifatida tasvirlangan*), troll (*skandinaviya afsonalarida tilga olingan toshga o‘xshash, tog‘ ruhlari. Odatda yer osti saroylarida*

yashaydigan, bahaybatligi va jodugarligi bilan mahalliy aholiga qoʻrquv soladigan maxluq), kentavr (bosh qismi odamga, tanasi otga oʻxshash maxluq), griffin (belidan pastki qismi va orqa ikki oyogʻi sherga, belidan yuqori qismi, boshi va oldingi ikki oyogʻi burgutga oʻxshash ikki qanotli afsonaviy maxluq), poltergeyst (rivoyatlarga qaraganda, shovqin-suron, idish-tovoqlarni sindirish bilan oʻzining kelganligini bildiradigan sirli arvoh), goblinlar (yer osti gʻorlarida yashvchi va quyosh nuridan qoʻrqadigan, qisman inson tanasiga oʻxshash tanaga ega boʻlgan afsonaviy maxluqlar), boggart (odamlar yashaydigan uyda yashovchi mifologik qahramon; uy odamlari), ximera (yunon afsonalaridagi sher boshli, echki tanali, ilon quyruqli echkisimon maxluq, ajdarho ayol) kabi mifologik qahramonlar ishtirokiga boy boʻlgan sarguzashtlar, boyqush, mushuk va kalamush kabi hayvonlarning sehrli ishlarga masʼulligi, turli portretlarning ochqich vazifasini bajarishi, potretlardagi odamlarning insonlarday gapira olishi, ularning turli oʻrinlarga koʻchib yurishi, arvohlar olamining odamlar bilan birga yashayverishi kabi ajabtovur hodisalar bolalar adabiyotida magik realizm yoʻnalishidagi asarlarning rivojiga jiddiy taʼsir koʻrsatishi shubhasiz.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/ DISCUSSION). Yozuvchi Garri Potter haqidagi birinchi romanini “Garri Potter va afsonaviy tosh” deb nomladi. Asarda Garri Potterni magllar (sehrgar boʻlmagan odamlar) orasidagi ayanchli hayoti, sehrli Xogvars maktabiga kelish sabablari, maktabning “Griffindor”, “Xufflpuf”, “Ravenklo”, “Slizerin” kabi fakultetlarining tarixi, doʻstlari Ron Uesli va Germiona Grenjerlar bilan tanishuvi, maktab direktori Albus Dambldor, maktab va kirish taʼqiqlangan oʻrmon qorovuli Rubeus Xagrid kabi xayrixoh odamlar orasidagi hayoti, nihoyat, afsonaviy toshning sehrli sirini kashf etish, shu asnodda oʻziga azaliy raqib deb bilgan “Oʻzing-Bilasan-Kim” nomi bilan ataluvchi lord Voldemort bilan uchrashuv sahnalari haqidagi qiziqarli sarguzashtlar bayon qilingan. Maktabdagi professorlar – Minerva Makgonagall, Kvirrel, Sarsabil xonim, Severus Snegg kabi oʻz sohasining mutaxassislaridan taʼlim olish barobarida ularning

Voldemort va Garriga boʻlgan munosabatlari ham roman davomida ochilib boradi. Sarguzasht sardori Garri oʻzining noyob iqtidorini yaxshilik va yomonlik oʻrtasidagi kurashda namoyish qiladi. Shu tariqa u oʻzini va boshqalarni kashf etadi.

Oʻzining oʻsmirlik hayoti haqida muallif u davr hayotining eng dahshatli onlari ekanligini qayd etgan edi. Mashaqqatli oilaviy hayot, onasining xastaligi va otasining shafqatsiz munosabati bilan bogʻliq kechinmalar, keyinroq, Garri bilan bogʻliq oilaviy hayotga singdirib yuborildi. Farzand tarbiyasida ota va onaning oʻrni, koʻpincha bolalarda bolalikdan qolgan ruhiy jarohatlar ularning keyingi hayotida salbiy asoratlar qoldirishi haqidagi hayotiy kuzatishlarini muallif Garri, Voldemort, Sirius kabi qahramonlar hayoti orqali tasvirlab berdi. Tabiiyki, bu tasvirlardagi ruhiy ogʻriqlarni adiba oʻz boshidan oʻtkazgan edi. Germinona Grenjer obrazida oʻzini – har narsaga qiziquvchan, bilimdon qiz Roulingning oʻn bir yoshidagi hayotini aks ettirgan edi. Agar siz roman asosida olingan filmni koʻrgan boʻlsangiz, kitobni ham eʼtibor bilan oʻqishingizni tavsiya qilamiz. Zero, kitobdagi koʻp voqealar filmda aks etmaganligiga oʻzingiz ham guvoh boʻlasiz. Shuningdek, kitobdan paydo boʻlgan tasavvurlaringiz kinodagiday emas, u sizgagina bogʻliq tasavvur sifatida xotirangizda uzoq saqlanadi, oʻzining ikkinchi hayotini yashashda davom etadi.

Garri Potterga oid ikkinchi kitob “Garri Potter va maxfiy xona” deb nomlangan. Asarda “Xogvars” maktabining paydo boʻlishi, unga tamal toshi qoʻygan odamlar va ularning taqdiri, “Xogvars” asoschilaridan biri Salazar Slizerin tomonidan yaratilgan maxfiy xona va u bilan bogʻliq sarguzashtlarga oʻrin berilgan. Slizerin kamdan kam odamga nasib qiladigan serpentargo tilini biluvchi, yaʼni ilonzabon odam boʻlib, bu maxfiy xona ham uning haqiqiy vorisi tomonidagina kashf etilishi mumkin edi. Amalda Slizerinning haqiqiy vorisi Tom Morvelon Riddl – hammaga qoʻrquv solgan Lord Voldemort va Garri Pottergina ushbu maxfiy xonaning sirini kashf etishga muvaffaq boʻlishadi. Asarda turli sarguzashtlar – Garrining uchar mashinadagi ajabtovur sayohatlari, kundalikka yashiringan sirli kuch va uning Garri tomonidan fosh

etilishi, ulkan o'rgimchaklar sirining ochilishi, nihoyat, maxfiy xonani qo'riqlab yotgan ulkan ilonning mahv etilishi-yu, Tom Riddning g'oyib bo'lishi kabi lavhalar o'quvchini yozuvchi taxayyulidagi olamni anglashga yordam beradi.

NATIJARLAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Joanna Rouling ko'plab hayotiy faktlar va detallardan asarda unumli foydalangan, hatto Ueslilar oilasiga tegishli uchar mashinaning ham hayotiy asosi mavjud edi. Bu mashina yozuvchining bolalikdagi do'sti Shon Xarrisga tegishli "Ford Angliya" avtomobiliga juda o'xshar, Shon Xarrisning portreti ham Ron Uisliga ko'chirilgan edi. Joan to'rt yoshga yetganida oilasi qo'shni qishloqqa ko'chib o'tadi. Qishloq maktabidagi direktor Alfred Dan keyinchalik Garri Potter romanidagi "Xogvars" maktabining direktori Albus Dambldor obrazi uchun prototip vazifasini o'taydi. Albus Dambldor qiyofasida bag'rikeng rahbar shaxs ma'naviyati aks etgan.

Kitobdan kitobga o'tgan sari yangi qahramonlar paydo bo'laveradi. Muallifning chegara bilmas fantastik olamida har bir personajning paydo bo'lishi markaziy obrazning superqahramonligiga xizmat qildiriladi. Uy xizmatkori – elf Dobbi, maqtanchoq va shuhratparast professor Sverkarol Charuald, yig'loqi arvoh qiz Mirtl, o'lgan kunining besh yuz yilligini nishonlayotgan "Deyarli Boshsiz Nik" kabi yangi personajlar Garrining navbatdagi sarguzashtlari uchun xizmat qiladi. Personajlarning hayotiy tajribasidan o'tkazilgan "Kishi mashhurlikning mazasini bir bor totib ko'rgach, ko'ngli yana va yana qo'msayveradi", "Dongdor kishiga baho uning gap-so'ziga emas, ko'rsatgan karomatiga qarab beriladi", "Har qanday rivoyat muayyan dalillar orasida vujudga keladi", "Kishi o'zining kuchli tomonini bilishi va uni hayotda mohirona qo'llay olishi lozim" kabi fikrlar muallifning kuzatishlari asosida paydo bo'lgan hikmatlar bo'lib jaranglaydi.

Turkumning uchinchi kitobi "Garri Potter va Azkaban mahbusi" deb nomlangan. Bu qismda Garrining cho'qintirgan otasi, Potterlar oilasining do'sti Sirius Blek va sehrgarlar olamidagi mudhish qamoqxona – Azkaban haqida bayon etiladi. Romanda tungi ritsar avtobusi, kimning qayerda

ekanligidan xabar beruvchi xarita kabi sehrli detallar asar voqealarining yanada qiziqarli bo'lishini ta'minlagan. Asarda kishi ruhiyatini taftish qiluvchi mifologik qahramon dementor obrazi bilan tanishamiz. Dementor insonlar qalbiga qo'rquv va dahshat solib turadigan afsonaviy, ko'zga ko'rinmas maxluq. Bu maxluqlar, odatda, insonlarning mudhish xotiralaridan yuzaga kelgan. Asarda bularni haydash uchun quvnoq xotiralardan foydalanish tavsiya qilingan. Muallif ayni uchinchi kitobni yozish jarayonida qattiq depressiyani boshidan o'tkazgan. Turmush o'rtog'idan olingan ruhiy zarbalar, kelajakka bo'lgan ishonchsizlik, qo'rquv, mudhish xotiralar iskanjasini kuchli iroda tufayli yengib o'tgan adiba asarga demontor obrazini olib kirdi. Bu qaysidir ma'noda yozuvchining ruhiy va ijodiy muvaffaqiyati edi.

Asarda uchraydigan magl (sehrgar bo'lmagan oddiy odamlar), shvax (sehrgarlar oilasiga mansub sehr qobiliyati bo'lmagan insonlar), animag (odamdan hayvonga va hayvondan odamga aylana olish sehr-jodusini egallagan sehrgar) kabi atamalar esa sizni o'zga olamda sayohat qilayotganiningzni yodingizga solib turadi.

Turkumning yana bir romani "Garri Potter va Olov kubogi" deb atalgan. Bu qismda Angliyaning "Xogvars" sehrgarlik maktabi kabi Yevropaning yana ikkita sehrgarlik maktabi – Irlandiyaning "Belstek" va Bolgariyaning "Durmshtang" maktablari bilan uch sehrgar bellashuvi haqida bayon etiladi. Uch sehrgar bellashuvini tanlab beruvchi olov kubogi "Xogvars"dan Sedrik Diggori, "Durmshtang"dan Viktor Krim, "Belstek"dan Flyor Delakyorni tanlab bergan kubok, kutilmaganda, to'rtinchi ishtirokchi Garri Potterni ham tanlov ishtirokchisiga aylantiradi. Jarayondan mutlaqo bexabar bo'lgan Garri noiloj kurashga kirishadi. Bellashuv jarayonida yuzaga kelgan vaziyatlar, insonning ekstremal holatdagi asl qiyofasiga oid voqeliklarni o'qir ekansiz, insoniyatga xos fe'l-atvor u qaysi olamda bo'lmasin, o'zini fosh qilaverishining guvohiga aylanasiz.

Beshinchi kitob "Garri Potter va Qagnus ordeni" deb atalgan. Romanda uyushgan jinoyatchilik va uning fosh etilishi, Voldemortga qarshi Albus Dambldor tarafidan tashkil etilgan

Qaqnus ordeni va uning faoliyatiga oid sarguzashtlar bayon etilgan. Bu kitobda avvalgilarida mavjud bo'lmagan gigant odamlar, har kimning ko'ziga tashlanavermaydigan testral (*romanda aytilishicha, bu hayvon bironing o'limini ko'rgan odamgagina ko'rinadi*) singari hayvonlar haqida ham ma'lumot berib o'tiladi. Romanda har qanday seyr-jodu asl insoniylikning oldida hech qanday kuchga ega emasligi, ilm-fan har qanday seyrdan ustun ekanligi ham bot-bot uqtirib o'tiladiki, asar faqatgina taxayyulning cheksiz imkoniyatlarini badiiyatga muhrlagan asar ekanligini har doim o'quvchi his qilib turadi. Insoniyatga xos yovuzlik kuchlarining Voldemort obrazida jam bo'lgani, kitobda yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurashning u yoki bu darajada aks etishi, kurashlar ichida insonning toblanib borishi va nihoyat, chin insonlik maqomiga erishishi asarning bosh g'oyasi hisoblanadi. Bu g'oya asarning keyingi qismlari "Garri Potter va zoti past shahzoda", "Garri Potter va ajal tuhfalari" kitoblarida davom ettirilgan.

Romanning "Garri Potter va zoti past Shahzoda" deb atalgan oltinchi kitobida asar markaziga zoti past Shahzoda – Severus Snegg obrazi ko'tariladi. Bu qism Garrining seyrli damlamalar va afsun o'qish bobidagi mahoratiga sabab bo'lgan kitob hamda Voldemortning ruhdonlari, ya'ni o'z ruhini yetti bo'lakka parchalab turli jismlarga yashirganligining sirini ochishga bag'ishlangan. Muallif romanlar silsilasi davomida mashhur seyrarlar hayotidagi ijtimoiy tengsizlik ular fojiasiga sabab bo'lgani haqida fikr yuritar ekan, o'zi ham mazkur romanlarni yozayotganda ana shunday tengsizlikdan azob chekkani, avval otasi, so'ngra turmush o'rtog'ining zulmidan orttirgan kuchli ruhiy iztiroblardan Potter haqidagi sarguzashtlarni yozish orqali xalos bo'lganini biograflari bergan ma'lumotlardan bilish mumkin bo'ladi. Ijodda kechadigan bunday hodisa katarsis hodisasi nomi bilan mashhur. U odamning ruhiy va ma'naviy poklanishini bildiradi. Albatta, bu atama dastavval Arastu asarlarida tragik asar qahramonlariga nisbatan qo'llangan bo'lsa ham, Garri Potter haqidagi romanlarning yaratilishi bilan J.Roulingning kuchli dramatik iztiroblardan xalos bo'la borganligi katarsis hodisasiga misol bo'ladi.

Romanda otalar va bolalar, o'smirlar orasidagi o'zaro hurmat va qadriyat kabi insoniy va ijtimoiy muammolarga daxl qilingani bejiz emas. Bolalikda olingan ruhiy jarohatlarning cheksiz asoratlar qoldirishi Voldemort, Sirius, Xagrid, Snegg va albatta, Garri taqdiriga soya tashlaydi. Muallif bu kechinmalarni boshidan o'tkazgan inson sifatida kitobxonni oilaviy muhitda insonga e'tiborli bo'lishga undaydi.

Turkumning yettinchi kitobi "Garri Potter va ajal tuhfalari" deb nomlanib, asardagi markaziy obrazlardan biri, yovuz seyrar Lord Voldemortning halokati sabablari ochib berilgan. Voldemortning ruhdonlarini topib ularni zararsizlantirgan Garri oldida Ajal tuhfalarini topishdek majburiyatni ham sharaf bilan uddalaydi. Uch aka-uka haqidagi ertakda tilga olingan seyrli buyumlar, ya'ni ajal tuhfalari aslida mavjud bo'lib, dunyo seyrarlari bu buyumlar ilinjida sarson kezgan edilar. Ammo mazkur buyumlarga egalik qilish hissi ularni sohiblik qilishga imkon bermagan. O'zgalardan farq qilib, bu buyumlarga egalik qilgan Garri dunyoni yovuzlikdan qutqaradi. Romanda Albus Dambldorning seyrarlar olami, Garri hayotidagi muhim o'rinlari ham aytib o'tiladiki, bu o'z-o'zidan Garri va Dambldor munosabatlarini oydinlashtirib beradi.

Ayrim obrazlar bilan kitobxon dastlabki romanlarda tanishsa ham, aslida ularning qandayligi xususida aniq ma'lumot berilmaydi. Bosh qahramon kabi kitobxonga ham shu obrazning aslida kim ekanligi sirliligicha qolaveradi. Faqatgina yakunda bu obraz haqida mufassal taassurotga ega bo'lish mumkin. Shunday qahramonlardan biri Severus Snegg obrazidir. Garri Potter taqdiriga bevosita bog'liq bo'lgan bu obraz sirdan qaraganda kitobxonda noxush taassurot qoldiradi. Ammo pirovardida u Garrining hayotini saqlab qolish uchun o'zini shunday tutishga majbur bo'lganligi, nihoyat, Garri o'g'liga nima uchun Albus Severus deya ikki nomdor seyrarning ismini qo'yganligi sababi ham oydinlashadi. Sir saqlash usuli bilan kechgan Snegg va Garri o'rtasidagi qizg'in muhohasalar, voqealar rivojining shiddatli tus olishi Joanna Roulingning badiiy muvaffaqiyatlaridan ekanligi ayon bo'ladi. Romanlar turkumidagi voqea-hodisalar qanchalik

sirli va sehrli tus olmasin, inson aqli va mehnati, bilimi va salohiyati tufayli qadr topishi, shu jihati bilan har qanday magik olamni mahv eta olishi, do‘stlik va sadoqatning buyuk qudrati Garri, Ron va Germiona obrazlari misolida badiiy tadqiq qilingan. Yozuvchi ezgulik hamisha yovuzlik ustidan g‘olib bo‘lishi, bu esa birdan bir adolat yo‘li ekanligi g‘oyasini asardagi turli taqdiralar asosida tasvirladi. Roman faqatgina magik va mistik kuchning personajlar hayotiga ta‘sir ko‘rsatishi haqidagi sarguzashtlar bayonidan iborat emas, unda inson irodasining mislsiz qudrati qanday buyuk kashfiyotlar qilishi mumkinligi Garri va uning do‘stlari misolida talqin qilingan. Romanni o‘qir ekansiz, ertaklar, sevgi-muhabbat, sadoqat, poklik kabi tushunchalar Voldemortga yot bo‘lgani uchun mahv bo‘lganini tushunib yetasiz.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Dunyoni o‘ziga rom qilgan romanlar turkumi podpolkovnik Shokir Dolimov tomonidan o‘zbek tiliga o‘girilgan. Asar asosida olingan filmlar kitobni boricha aks ettira olmaydi. Uni, avvalo, bolalari iltimosiga ko‘ra tarjima qilishni boshlagan havaskor tarjimon “Shanba va yakshanba kunlarini farzandlar iltimosining ijrosiga sarf etdim. Dastlabki boblar tarjimasini eshitgan bola juda zavqlandi. Tabiiyki, boshqa “potterman”larga, ya‘ni o‘z sinfdoshlariga asar borasidagi batafsil bilimi bilan maqtandi. Sinfdoshlari esa undan tarjima matnini qog‘ozga bosib kelishini iltimos qilishdi”, – deb yozadi. Shu tariqa roman qismlari 2010–2017-yillarda tarjima qilib bo‘linadi. Tarjimalardagi ayrim uslubiy saktaliklarga qaramay, o‘zbek kitobxonini xorijning bestseller asari bilan tanishtirishdek ishga xayrixoh bo‘lgan mutarjim tahsinga loyiq ish qilgan. Agar asar so‘z zargarlari bo‘lmish ijodkorlar tomonidan tarjima qilinganida asarning badiiy jilosi o‘zgacha tovlangan bo‘lar edi. Romanda insonning odam va olamga munosabatining Yevropacha talqinlariga duch kelamiz. Masalan, maktab direktoridan tortib oddiy xizmatchigacha Garriga xayrixoh odamlar (Ueslilar oilasidan tashqari)ning yolg‘izlikda kechgan hayoti G‘arbnig odamlari

qismatiga xos umumiylikdan darak beradi. Shu ma‘noda asardagi ko‘plab personajlarning faqatgina faoliyat kishisi sifatida tasvirlanishi bu Yevropaning XXI asrdagi qiyofasiga tortilgan chiziq deb qabul qilish mumkin. Shunga qaramay, boshdan oxir fantastik taxayyul asosiga qurilgan voqelik real hayotning moddiy manfaatlariga tamoman bog‘lanib qolgan bugunning odamlari uchun ma‘naviy-ruhiy halovat berishini ta‘kidlash lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Jahon bolalar adabiyoti. Angliya. Tuzuvchi va tarjimon Miraziz A‘zam. – Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. –108 b.
2. Rouling J.K. Garri Potter va afsonaviy tosh. Ruschadan Sh.Dolimov tarjimasini. – Toshkent: Zukko kitobxon, 2021. – 368 b.
3. Rouling J.K. Garri Potter va maxfiy xona. 1-kitob. Ruschadan Sh.Dolimov tarjimasini. – Toshkent, Zukko kitobxon, 2021. – 400 b.
4. Rouling J.K. Garri Potter va afsonaviy tosh. 2-kitob. Ruschadan Sh.Dolimov tarjimasini. – Toshkent, Zukko kitobxon, 2021. – 368 b.
5. Rouling J.K. Garri Potter va Azkaban mahbusi. 3-kitob. Ruschadan Sh.Dolimov tarjimasini. – Toshkent, Navro‘z, 2019. – 432 b.
6. Rouling J.K. Garri Potter va Olov kubogi. 4-kitob. Ruschadan Sh.Dolimov tarjimasini. – Toshkent, Kamalak-Press, 2019. – 720 b.
7. Rouling J.K. Garri Potter va Qaqnus ordeni. 5-kitob. Ruschadan Sh.Dolimov tarjimasini. – Toshkent, Ilm-ziyo-zakovat, 2019. – 432 b.
8. Rouling J.K. Garri Potter va zoti past shahzoda. 6-kitob. Ruschadan Sh.Dolimov tarjimasini. – Toshkent, Ilm-ziyo-zakovat, 2020. – 608 b.
9. Rouling J.K. Garri Potter va ajal tuhfalari. 7-kitob. Ruschadan Sh.Dolimov tarjimasini. – Toshkent, Ilm-ziyo-zakovat, 2020. – 704 b.
10. Зарубежная детская литература для специальности 1-01 01 01. Дошкольное образование: учебно-методический комплекс по учебной дисциплине / сост. О.И.Пушкина. – Витебск, ВГУ имени П.М.Машерова, 2022. – 71 с.
11. <https://qomus.info/encyclopedia/>

**“BOBURNOMA” DA UZILGAN YIL VOQEALARI
BAYONIDAGI IKKI XILLIK – UNING FAZILATI, ILMIY
BADIY QIYMATINI OSHIRUVCHI VOSITA HAMDIR**

Abdullayeva Barno Umidullo qizi,

*Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti, Impuls
tibbiyot instituti o‘qituvchisi*

**РАЗНОЧТЕНИЯ В ИЗЛОЖЕНИИ СОБЫТИЙ
ПРОПУЩЕННОГО ГОДА В «БАБУРНАМЕ» — ЭТО, НА
САМОМ ДЕЛЕ, ДОСТОИНСТВО, СРЕДСТВО,
ПОВЫШАЮЩЕЕ ЕЁ НАУЧНУЮ И
ХУДОЖЕСТВЕННУЮ ЦЕННОСТЬ**

Абдуллаева Барно Умидулло кизи

*Докторант Наманганского государственного университета,
преподаватель Медицинского института «Импульс»*

**THE INCONSISTENCIES IN THE NARRATION OF THE
EVENTS OF THE MISSING (LACUNA) YEAR IN THE
MEMORIES ARE IN FACT, A MERIT — A DEVICE THAT
ENHANCES ITS SCHOLARLY AND LITERARY VALUE**

Abdullaeva Barno Umidullo qizi

*PhD Researcher of Namangan State University, Teacher of
Impulse Medical Institute*

Annotatsiya: Asarning yozilishi yoki tartib berilish vaqti haqida turli xil mulohazalar mavjud. Muallifning esa bu to‘g‘rida aniq bir ishorasi yo‘q. Shunga qaramay, “Boburnoma”ni mutolaa qilish, xorijiy tillardagi tarjima va tadqiqotlarni o‘rganish asardagi manbalar, yil voqealaridagi misollar, yozilish uslubini o‘rganish, undagi ikki xillikni diqqat bilan ko‘zdan kechirish kitobning 1525-1530-yillar orasida bitilganiga ishonch uyg‘otadi.

Kalit so‘zlar: asar, mulohazalar, ishora, tarjima va tadqiqot, uslub, xotira.

Аннотация: Существуют различные мнения относительно времени написания или систематизации произведения. Сам автор не оставил четких указаний по этому поводу. Тем не менее, изучение «Бобурнамы», анализ ее переводов и исследований на иностранных языках, источников, упомянутых в тексте, примеров событий по годам, а также стиля изложения и внутренней двойственности, позволяет прийти к выводу, что книга была написана в период между 1525 и 1530 годами.

Ключевые слова: произведение, мнения, указание, перевод и исследование, стиль, воспоминание.

Abstract: There are various opinions regarding the time when the work was written or compiled. The author himself does not provide a clear indication about this. Nevertheless, through a careful reading of the "Baburnama", as well as studying its translations and research in foreign languages, analyzing the sources mentioned, examples of events by year, and its writing style, and closely examining the duality present in the text, one is led to believe that the work was written between 1525 and 1530.

Key words: book, opinions, indications, translation and research, style, memoir.

Kirish

“Boburnoma”ning yozilishi yoki tartib berilishi vaqti haqida turli xil mulohazalar mavjud. Asarning o‘zida esa muallif bu to‘g‘rida aniq bir

ishora qilmagan. Shunga qaramay, “Boburnoma”ni mutolaa qilish, undagi dalil va yozilish uslubini diqqat bilan ko‘zdan kechirish shundan dalolat beradiki, u 1518-1519-yillarda yozila boshlanganga



abdullayevabarno789@gmail.com

o'xshaydi. Bunday da'voning asosiy sababi shundan iboratki, asarning bizgacha yetib kelgan varianti yozilish nuqtai nazaridan ikki xil uslubga ega. **Birinchisi**, 899-hijriy /1493-1494-milodiy yillar voqealarining bayonidan – 914-hijriy /1508-1509-milodiy yillar bayonigacha bo'lgan davrni o'z ichiga qamrab olsa, **ikkinchisi** 925-hijriy /1519-milodiy yildan – 936-hijriy /1529-1530-milodiy yillargacha bo'lgan vaqtdagi voqealarning bayoniga mansub [1]. Bu ikki xillikning mohiyati shundaki, birinchi davr hodisa-voqealari ma'lum darajada umumiy tarzda bayon qilinib, ba'zan o'sha yil voqealari hikoyasi ichida keyingi yillarda sodir bo'lgan voqealar ham tilga olinsa, ikkinchi davr hodisalarini yozishda muallif vaqtni konkret ko'rsatishi, oylargina emas, balki kunlarning, haftaning qaysi kuni ekanini, va hatto, ba'zan voqea kunning qaysi vaqtida sodir bo'lganini alohida ta'kidlashga e'tibor qiladi. Shu jihatdan qaratganda, **birinchi** davr hodisa-voqealari hotiralar asosida bitilgani, **ikkinchisi** esa voqealar sodir bo'layotgan paytda ketma-ket bitilib borilgani seziladi. Jumladan, Bobur 909-h./1503-1504-m. yil voqealari haqida so'z yuritgan bobda shunday jumla uchraydi: “Odinapur qo'rg'onining oldida, janubiy tarafida, bir balandida tarixi to'qquz yuz o'n to'rtta bir chahorbog' soldim, Bog'i Vafog'a mavsum, rudqa mushrif, rud qo'rg'on bila bog'ning orasidadur, norunji va turunji va anari bisyor bo'lur[2.1].

Yoki 911-h./1505-1506-m. yil voqealari bayonida quyidagi gap ham bor: “Tarix to'qquz yuz o'n yettida men Samarqandni olg'onda Muhammad Valibek va Darvesh Ali kitobdor mening qoshimda edilar”[2.2]. Yana bir dalil: Bobur 911 h./1505-1506-m. yil voqealari bayonida Husayn Boyqaroning nabiralariidan bo'lmish Qosim Husayn Sulton haqida so'z yuritib, shunday yozadi: “Hindustonda mening mulozamatimga keldi. Raana Sanganing g'azvida bor edi. Badavunni anga berildi” [2.3].

Bu misollardan ravshanki, Bobur o'z asarini keyingi yillarda yoza boshlagan, shu tufayli voqealar bayonidagi voqealarning birin-ketin yuz berishi hamma vaqt izchil davom etmagan. Ikkinchi gruppadagi misollar bilan ham tanishaylik. Bobur 925-h/ 1519-m. yil voqealarini bayon qilgan ekan, endi u keyin keladigan tarixiy sanalarga murojaat etmaydi (yuqorida ko'rilganiday), balki, aksincha, bundan oldin sodir bo'lgan voqealar va

tarixiy sanalarga murojaat etish hodisasi uchraydi. Jumladan, xuddi shu bobda (ya'ni 925 h. yil voqealari bayoni bobida) Bobur oldin sodir bo'lgan voqealarni eslab yozadi: “Tarix to'qqiz yuz o'nda (1504-1505) Qobulga avval kelgan yilirim (qizig'i shundaki, xuddi shu 910-h. yilida sodir bo'lgan voqealarning bayoni “Boburnoma”da yo'q), Hindistonga kirmoq doiyasi bila Xaybardin o'tub, Parshovar (Pashovor) kelganda Boqi Chag'oniyoniyning sa'yi bila qo'yig'i Bangash sarikim, Ko'hat bo'lg'ay, yurub... Duki bila chiqildi”.[2.4]

Yoki voqealar sodir bo'lgan vaqtning konkretlashuvi ham xuddi o'sha yildan boshlab ko'zga tashlanaveradi. Jumladan, 925-h. yil voqealari bayoni quyidagicha beriladi:

“Dushanba (1509-1510) kuni muharram oyining g'urrasida Chandoval jultasining oyog'ida qattiq zilzila bo'ldi...Panjshanba kuni muharram oyining to'rtida buyuruldikim, cherik eli jiba kiyib, yarog'lanib, otlang'aylar... Odina kuni, muharram oyining beshida farz vaqtida farmon bo'ldukim...”[2.5] Yana: “Tush bo'la ko'chub, Savod suyini o'tub, namozi digardin ertaroq tushuldi. Namozni xuftanda otlanib, ildam yuruduk. Oftob bir nayza bo'yi chiqqanda Rustam turkman... xabar kelturdi”[2.6] va boshqalar.

Aytilganlar va yuqorida keltirilgan misollar asarning yozila boshlangan vaqtini aniqlashga ko'maklasha oladi.

Adabiyotlar tahlili

Shunday qilib, “Boburnoma”dagi bayon uslubi, voqealarni tasvirlash, vaqtini ko'rsatish kabi masalalarga tayanib, shuni ta'kidlash mumkinki, Bobur o'z asarini yozayotganda, birinchidan, xotiralarni bayon etish uslubi asosida (925-h. yilga qadar voqealar) ish tutgan bo'lsa, ikkinchidan esa voqealar izidan borib, ularni qayd etish yo'lidan ustalik bilan foydalangan. Ikkinchi holatni Boburning o'zi ham go'yo qayd qilmoqchi bo'lganday bo'ladi. Zero u 925-h. yili voqealari bayonining bir o'rnida shunday yozadi: “Otlanur choq Boboxon axtachi yaramasroq ot tortti, achig'imdin bir musht yuziga urdum. Binsir*¹ (binsir-to'rtinchi barmoq) barmog'im tubidin sindi. Ul fursatta xeyli og'rimadi. Kelib, yurtqa tushganda xeyli tashvish berdi. Bir necha mahal xeyli riyozat torttim. Xat bitiy olmas edim, oxir chur*² butti”[2.7].

¹*Binsir- to'rtinchi barmoq.

²*Chur-yara, zahm, siniq

Demak, u shu yillarda o‘z asarini tartibli ravishda yoza borgan. Ba‘zan esa kutilmagan sabablar tufayli uzulish bo‘lib ham turgan. Ammo, shunisi xarakterliki, u shaharda bo‘lmasin, safarda bo‘lmasin yozishini tark etmagan (chodirda yozayotganida shamol va yomg‘ir bo‘lib, qog‘ozlarining sochilib ketganligi haqidagi epizodni eslash kifoya).

Tadqiqot metodologiyasi

Bu dalillarning hammasiga diqqat qilganda, shunday xulosa chiqarish imkoniyati tug‘iladi. “Boburnoma” ning 925-h. yildan so‘nggi yillarga qadar bo‘lgan hodisalar bayoni voqealar ketidan ularni qayd qilib borish, qog‘ozga tushirish natijasida yozilgan bo‘lsa, 1527-yildan keyin, ya‘ni Raana Sanga ustidan g‘alaba qozonib, Shimoliy Hindistonda hokimyatni mustahkamlagan Bobur ana shu voqealarning sistemali bo‘lishi va o‘z sarguzashtlarining butunligini saqlash, Hindistonga ega bo‘lishgacha bosib o‘tgan yo‘lini - 899 h. yildan 914 h. yilgacha bo‘lgan voqealarni xotira va esdalik tarzida yoza boshlagan. Shuning natijasida bu yillardagi voqealar bayoni protsessida ularning yozilish davri hodisa va hayotiy epizodlari ham o‘z aksini topgan.

Tahlil va natijalar. Demak “Boburnoma” da voqealar bayonidagi **ikki xillik** ana shu holat bilan bog‘liq bo‘lib, bu asarning nuqsoni emas, balki fazilatidir. Chunki agar asar faqat xronologik uslubda bitilganda, unda bayonning bir xilligi voqealarni tushunishni ancha qiyinlashtirar edi. Bu esa Boburning adabiy-estetik qarashlariga, badiiy adabiyotga nisbatan bo‘lgan talablariga muvofiq kelmasdi. Chunki Boburning o‘zi murakkab va tushunilishi qiyin, jimjimador yozishni emas, balki sodda, ravon hamda ko‘pchilikka tushunarli bo‘lgan asarlar ijod qilishning tarafdorlaridin edi. Shu jihatdan qaraganda “Boburnoma”ning ham ana shu tartiblar asosida yaratilganligi tasodifiy hol emas, albatta.

Xulosa

“Boburnoma”da **ikki xil** bayon uslubi qo‘llanilgan ekan, bu adabiy-estetik talablar natijasi bo‘lishi bilan birga, asarning ilmiy-badiiy qimmatini oshiruvchi vosita hamdir. Agar “Boburnoma”ga faqat memuar - esdalik - tarix deb emas, balki ma‘lum estetik ehtiyoj va prinsiplar talabining

natijasi sifatida maydonga kelgan asar deb qaralsa va muallif ham ana shunday bir adabiy-badiiy ehtiyoj nuqtai nazaridan, ma‘lum g‘oyani ifoda etish shaklini tanlagan deb o‘ylansa, unda ba‘zi bir masalalar, xususan, asarning tuzilishi va qamrab olgan material mezoni oydinlashib qoladi.

“Boburnoma”dan ravshanki, unda 899-h./1493-h. – 1494-m. yildan 936-h./1528-1529-m. yilgacha bo‘lgan voqealarning hammasi izchil bayon etilmagan. Unda 899-h. dan 909-h. yilgacha, 911-h. dan 914-h. yilgacha, 925 va 926-h. yillar hamda 932-h. yildan 936-h. yilgacha bo‘lgan voqealar bayon etilgan bo‘lsa, 910, 915-924, 927, 928, 930, 931-h. yillardagi voqealarning bayoni yo‘q. Asardagi bu uzilish olimlarimizni turli taxminlar, gipotezalarga chorladi, bu haqda har xil fikrlar o‘rtaga tashlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek adabiyoti tarixi, III tom, Toshkent, 1978, 66-67-b.
2. Boburnoma. Toshkent, “Sharq nashriyoti”, 2002, 109-110-b.
3. Life of Babur, emperor of Hindustan. An abridgment by R.M.Caldecott, London, 1845: Memoirs of Babur, emperor of India. An Abridgment by F.G.Talbot, London, 1879.
4. Belinskiy V.G. Пол.собр.сп, Т.Р.Москва, 1953, 433-b.
5. Memoires de Baber. Paris.-1872.-Preface, pp.i,ii.
6. Babur Nama, Journal of Emperor Babur. Translated from the Chaghatai Turkish by A.S. Beveridge. Abridged, edited and introduced by Dilip Hiro, Penguin Books, 1-5 p.
7. Babur-nama (Vaqayi), Critical edition based on four Chaghatay texts with introduction and notes by Eiji Mano, Kyoto, Syokado, 1995, p.xix.
8. Boburnoma. Dehli, 1974, 444-b
9. N.Otajonov. “Boburnoma” jahon kezadi. Toshkent, 1984, 77-b.
10. Notes in the MSS of the Turki text of Babar’s memoirs (Royal Asiatic Society of Great Britain and Ireland), pp. 444-445
11. Annete S. Bevrige MSS of Turki text of Babar Memoirs, JRAS October 1905,1907.
12. Royal Asiatic society. July, 1900, pp. 439.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT
KODEKSIDA KIBER-O‘G‘RILIK UCHUN
JAVOBGARLIK: MAVJUD NORMALAR TAHLILI VA
TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI**

Kalbaeva Eldora Uzaqbaevna

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Yuridika fakulteti 3-
bosqich talabasi*

**CRIMINAL LIABILITY FOR CYBER THEFT IN THE
CRIMINAL CODE OF THE REPUBLIC OF
UZBEKISTAN: ANALYSIS OF EXISTING NORMS
AND PROSPECTS FOR IMPROVEMENT**

Kalbaeva Eldora Uzaqbaevna

*3rd-year student, Faculty of Law, Karakalpak State University named
after Berdakh*

**УГОЛОВНАЯ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА КИБЕР-
КРАЖУ В УГОЛОВНОМ КОДЕКСЕ РЕСПУБЛИКИ
УЗБЕКИСТАН: АНАЛИЗ СУЩЕСТВУЮЩИХ
НОРМ И ПЕРСПЕКТИВЫ
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ**

Калбаева Элдора Узақбаевна

*Студентка 3-го курса юридического факультета Каракалпакского
государственного университета имени Бердаха*



[https://orcid.org/0009-
0002-3003-1468](https://orcid.org/0009-0002-3003-1468)

[eldorakalbaeva@gmail.
com](mailto:eldorakalbaeva@gmail.com)

Annotatsiya: O‘zbekiston Respublikasi raqamli transformatsiyani jadal amalga oshirayotgan bir paytda, kiberxavfsizlik tahdidlari, jumladan kiber-o‘g‘rilik muammosi ham dolzarblik kasb etmoqda. Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida kiber-o‘g‘rilik uchun javobgarlikning amaldagi holatini baholashga qaratilgan. Unda mavjud huquqiy normalar tahlil qilinadi, qonunchilikdagi bo‘shliqlar va kamchiliklar aniqlanadi hamda xalqaro tajriba asosida takomillashtirish yo‘nalishlari taklif etiladi. Maqola O‘zbekistonning raqamli makonda xavfsizlikni ta‘minlash va barqaror raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish borasidagi sa‘y-harakatlariga hissa qo‘shishni maqsad qilgan.

Kalit so‘zlar: kiber-o‘g‘rilik, kiberxavfsizlik, jinoyat kodeksi, raqamli transformatsiya, Budapesht konvensiyasi, huquqiy bo‘shliqlar, raqamli aktivlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), transchegaraviy jinoyatlar, firibgarlik.

Abstract: As the Republic of Uzbekistan rapidly implements digital transformation, cybersecurity threats, including the problem of cyber-theft, are becoming increasingly relevant. This article aims to assess the current state of liability for cyber-theft in the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. It analyzes existing legal norms, identifies gaps and shortcomings in legislation, and proposes directions for improvement based on international experience. The article aims to contribute to Uzbekistan's efforts in ensuring security in the digital space and developing a sustainable digital economy.

Keywords: Cyber-theft, Cybersecurity, Criminal Code, Digital transformation, Budapest Convention, Legal gaps, Digital assets, Information and communication.

Аннотация: В то время как Республика Узбекистан активно осуществляет цифровую трансформацию, угрозы кибербезопасности, включая проблему киберкраж, становятся все более актуальными. Данная статья посвящена оценке текущего состояния ответственности за киберкражу в Уголовном кодексе Республики Узбекистан. В ней анализируются действующие правовые нормы, выявляются пробелы и недостатки в законодательстве, а также предлагаются направления совершенствования на основе международного опыта. Цель статьи – внести вклад в усилия Узбекистана по обеспечению безопасности в цифровом пространстве и развитию устойчивой цифровой экономики.

Ключевые слова: киберкража, кибербезопасность, уголовный кодекс, цифровая трансформация, Будапештская конвенция, Правовые пробелы, цифровые активы, информационно-коммуникационные технологии (ИКТ), трансграничные преступления, мошенничество.

KIRISH

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) jadal rivojlanishi va internetdan foydalanuvchilar sonining ortishi butun dunyo bo‘ylab jamiyatlarni kiberjinoyatchilikka nisbatan yanada zaiflashtirdi. O‘zbekiston ham raqamli transformatsiya yo‘lini tanlagan bir paytda, kiberjinoyatlar uning iqtisodiy barqarorligi, milliy xavfsizligi va fuqarolarining shaxsiy ma’lumotlari himoyasiga jiddiy tahdid solmoqda. Raqamli platformalar va xizmatlar biznesi fuqarolar ma’lumotlarini to‘plashda faol bo‘lib, bu sohada huquqiy va axloqiy nigilizm kuzatilmoqda, bu esa fuqarolarning huquq va manfaatlarini yetarli darajada himoya qilmasdan raqobatdosh ustunlikka erishish va daromad olish maqsadida yangi texnologiyalardan foydalanishga olib kelmoqda.

Kiberhujumlar va kiberjinoyatchilikning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini misli ko‘rilmagan darajada. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2021-yilda kiberhujumlar global miqyosda 6 trillion AQSh dollariga teng moddiy zarar yetkazgan, bu esa kiberjinoyatchilikni AQSh va Xitoydan keyin dunyodagi uchinchi yirik iqtisodiyotga aylantiradi [1].

O‘zbekiston hukumati raqamli texnologiyalarni iqtisodiyotning barcha sohalariga integratsiya qilish va raqamli makonda tegishli xavfsizlikni ta’minlashning barqaror yo‘lida. «Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida» (2019-yil) hamda «Kiberxavfsizlik to‘g‘risida»gi (2022-yil 15-aprel) qonunlarning qabul qilinishi mamlakatning raqamli xavfsizlik va axborot xavfsizligi sohasidagi mavqegini yanada mustahkamladi. «Kiberxavfsizlik to‘g‘risida»gi qonun kiberjinoyatga aniq huquqiy ta’rif berib, uni axborotga kirish, uni o‘zgartirish, yo‘q qilish yoki axborot tizimlari va resurslarini ishdan chiqarish maqsadida dasturiy va texnik vositalardan foydalangan holda kiberfazoda sodir

etilgan jinoyatlar to‘plami sifatida belgilaydi.

Shunga qaramay, mamlakatda hali ham ko‘p sonli kiberhujumlar mavjud bo‘lib, bu kiberhimoyaning past darajasi, siyosiy yoki iqtisodiy motivlarning mavjudligi, kiber tahdidlarga qarshi kurashda zaif muvofiqlashtirish yoki kiberjinoyatchilar faolligining o‘shirinishini ko‘rsatishi mumkin. O‘zbekistonning huquqiy bazasi, garchi progressiv bo‘lsa-da, kiber tahdidlarning murakkabligiga javob berish uchun rivojlanishi kerak.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Adabiyotlar tahlili. Kiberjinoyatchilik va unga qarshi kurash masalasi jahon miqyosida va O‘zbekistonda ko‘plab ilmiy tadqiqotlarning diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. «Uzbek Journal of Law and Digital Policy» kabi nufuzli nashrlar kiberjinoyatchilik va kiberxavfsizlikka oid maqolalarni chop etib, bu sohadagi huquqiy va texnologik muammolarni o‘rganadi. Xususan, kripto-aktivlar bilan bog‘liq jinoyatlar, jumladan, kripto-aktivlarni yuvish firibgarlik jinoyati sifatida tahlil qilingan [2]. «Models and Methods in Modern Science» jurnalida chop etilgan maqolalarda O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining kiberjinoyatlarga oid moddalari, jumladan, 169-modda 3-qismi (o‘g‘rilik) va 278⁵-moddasi (kompyuter sabotaji) bo‘yicha tahlillar berilgan. Bu tahlillar kiberjinoyatlarning ko‘pincha mulkiy jinoyatlar, masalan, firibgarlik, talonchilik, tovlamachilik bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Xalqaro tajribalarni qiyosiy tahlil qilish O‘zbekiston uchun muhim ahamiyatga ega. Budapesht konvensiyasi kiberjinoyatchilik va elektron dalillar bo‘yicha eng dolzarb xalqaro kelishuvlardan biri bo‘lib, u kompyuterlarga qarshi va kompyuterlar yordamida sodir etilgan jinoyatlarni jinoyat deb hisoblashni nazarda tutadi hamda tergov va elektron dalillarni ta’minlash uchun protsessual huquqiy

vositalarni taqdim etadi. Shunindek, Singapur va Estoniya kabi davlatlar kiberjinoyatchilikka qarshi kurashda proaktiv, ko'p darajali va integrativ huquqiy bazani yaratgan bo'lib, raqamli savodxonlik va xalqaro hamkorlikka katta e'tibor qaratadi [3]. Bu tadqiqotlar kiberjinoyat qonunchiligining doimiy takomillashtirilishi va texnologik taraqqiyotga moslashishi zarurligini ko'rsatadi.

Metodologiya. Ushbu maqolada normativ-huquqiy, qiyosiy-huquqiy va tizimli tahlil usullari qo'llanilgan. Normativ-huquqiy tahlil O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlarini, xususan, Jinoyat kodeksi, «Kiberxavfsizlik to'g'risida»gi qonun va «Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida»gi qonun kabi birlamchi manbalarni chuqur o'rganishga qaratilgan. Bu qonunlar kiberjinoyatlarni tartibga solishning huquqiy asosini belgilaydi.

Qiyosiy-huquqiy tahlil kiber-o'g'rilik uchun javobgarlikni belgilashda xalqaro tajribani, jumladan, Budapesht konvensiyasi hamda AQSh, Yevropa Ittifoqi, Singapur, Estoniya, Germaniya va Buyuk Britaniya kabi davlatlarning qonunchiligini o'rganishga xizmat qiladi. Bu qiyosiy o'rganish O'zbekiston qonunchiligidagi mavjud bo'shliqlarni aniqlash va xalqaro eng yaxshi amaliyotlar asosida takomillashtirish bo'yicha asosli takliflar ishlab chiqish imkonini beradi.

Tizimli yondashuv kiber-o'g'rilikni nafaqat jinoyat-huquqiy, balki kiberxavfsizlik, raqamli huquq va raqamli gigiyena kabi kengroq kontekstda ko'rib chiqishga yordam beradi.

MUHOKAMA

Kiber-o'g'rilikning huquqiy ta'rifi va tasnifi. O'zbekiston qonunchiligida «kiberjinoyat» tushunchasi «Kiberxavfsizlik to'g'risida»gi O'RQ-764-sonli Qonun (2022-yil 15-aprel) bilan aniq belgilangan. Unga ko'ra, kiberjinoyat – axborotni egallash, uni o'zgartirish, yo'q qilish yoki axborot tizimlari va resurslarini ishdan chiqarish maqsadida dasturiy va texnik vositalardan foydalangan holda kiberfazoda sodir etilgan jinoyatlar to'plamidir. Bu ta'rif kiberjinoyatlarning keng doirasini qamrab oladi, ammo «kiber-o'g'rilik» atamasi alohida, mustaqil jinoyat tarkibi sifatida Jinoyat kodeksida to'g'ridan-to'g'ri ta'riflanmagan.

Aksincha, kiber-o'g'rilik holatlari ko'pincha Jinoyat kodeksining umumiy mulkiy jinoyatlarga oid moddalari, xususan, 169-moddasi (o'g'rilik) yoki 168-moddasi (firibgarlik) doirasida ko'rib chiqiladi.

Masalan, mobil telefonini yo'qotib qo'ygan fuqaroning SIM kartasi orqali bank kartasidan ruxsatsiz pul yechib olingan holatda, Jinoyat kodeksining 169-moddasi 3-qismi bilan jinoyat ish qo'zg'atiladi. Bu misol shuni ko'rsatadiki, an'anaviy o'g'rilik moddasi raqamli muhitda sodir etilgan jinoyatlarga tatbiq etilishi mumkin. Biroq, raqamli aktivlarning nomoddiy tabiati, transchegaraviy xususiyati va kiberjinoyatlarning murakkab modus operandi an'anaviy huquqiy tushunchalarni qo'llashda muammolarni keltirib chiqaradi [3]. Kiberjinoyatchilikning harakatlantiruvchi kuchlari va operatsiya sohalari an'anaviy jinoyatlardan sezilarli darajada farq qiladi, bu esa huquqiy tizimdan yanada moslashuvchan va transmilliy yondashuvni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksidagi mavjud normalar tahlili. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining XX¹ bobi «Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar» deb nomlanadi va bir qator kiberjinoyatlarni o'z ichiga oladi. Bu bobdagi moddalar kiberxavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan muhim huquqiy asosni tashkil etadi. Ushbu bobdagi 278¹–278⁹-moddalar axborot xavfsizligini ta'minlash, elektron ma'lumotlarni, kompyuter tizimlarini va raqamli infratuzilmani noqonuniy aralashuvlardan himoya qilishga qaratilgan.

Lekin, ushbu moddalar kiberfazodagi turli jinoyatlarni qamrab olsa-da, ular «kiber-o'g'rilik»ni alohida jinoyat tarkibi sifatida to'liq aks ettirmaydi. Ko'pincha, raqamli aktivlarni o'g'rilash holatlari yuqorida keltirilgan moddalar yoki Jinoyat kodeksining 169-moddasi (o'g'rilik) kabi umumiy moddalar orqali kvalifikatsiya qilinadi. Bu esa raqamli o'g'rilikning o'ziga xos xususiyatlarini, masalan, ma'lumotlarning yo'q qilinishi, o'zgartirilishi yoki bloklanishi emas, balki bevosita o'zlashtirilishini to'liq aks ettirishda qiyinchiliklar tug'diradi.

Mavjud kamchiliklar va huquqiy bo'shliqlar. O'zbekistonning kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha huquqiy bazasida sezilarli yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, bir qator kamchiliklar va huquqiy bo'shliqlar mavjud bo'lib, ular kiber-o'g'rilik kabi jinoyatlarga qarshi kurashish samaradorligiga ta'sir qiladi:

- **Qonunchilikdagi bo'shliqlar:** Amaldagi qonunlar, jumladan, Jinoyat kodeksi, kripto-valyuta firibgarligi, sun'iy intellektga

asoslangan hujumlar, ransomware (ma'lumotlarni shifrlash va to'lov talab qilish) va deepfake firibgarligi kabi yangi tahdidlarni yetarli darajada qamrab olmaydi. Bu yangi jinoyat turlari uchun aniq ta'riflar va jazo choralari yo'qligi huquqni qo'llovchi organlarning ishini murakkablashtiradi.

- **Yurisdikcion cheklovlar:** Kiberjinoyatlarning transchegaraviy xususiyati xalqaro hamkorlik shartnomalarining yetarli emasligi sababli ularni ta'qib qilishni qiyinlashtiradi. Jinoyatchilar turli yurisdiksiyalarda joylashgan bo'lishi mumkin, bu esa dalillarni yig'ish, ekstraditsiya va transchegaraviy huquqni muhofaza qilishda qiyinchiliklar tug'diradi.
- **Aholining xabardorligi pastligi:** Kiberxavfsizlik xavflari haqida aholining umumiy xabardorligi pastligi ijtimoiy muhandislik va fishing hujumlariga nisbatan zaiflikni oshiradi. Ko'pchilik fuqarolar o'z shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilishning asosiy qoidalariga rioya qilmaydi, bu esa ularni kiber-o'g'rilik qurboniga aylantiradi.
- **Yagona ta'rifning yo'qligi:** «Kiberjinoyat»ning global miqyosda qabul qilingan yagona ta'rifining yo'qligi va «kiberjinoyat» hamda «kompyuter bilan bog'liq jinoyatlar» tushunchalari o'rtasidagi farqni aniqlashdagi qiyinchiliklar huquqiy amaliyotda noaniqliklarni keltirib chiqaradi.

NATIJARLAR

O'zbekiston qonunchiligining kiber-o'g'rilik holatlariga tatbiq etilishi samaradorligi. O'zbekiston kiberxavfsizlik sohasida sezilarli yutuqlarga erishgan bo'lsa-da, jumladan, «Kiberxavfsizlik to'g'risida»gi va «Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida»gi qonunlarni qabul qilgan bo'lsa-da, Jinoyat kodeksining kiber-o'g'rilik holatlariga tatbiq etilishi ko'pincha harakatlarni an'anaviy jinoyat turlari, masalan, 169-modda (o'g'rilik) yoki 168-modda (firibgarlik) bo'yicha qayta kvalifikatsiyalashni talab qiladi. Bu yondashuv, garchi huquqiy asosni ta'minlasa-da, raqamli aktivlar o'g'rilanishining o'ziga xos xususiyatlari, jumladan, aktivlarning nomoddiy tabiati, transchegaraviy xususiyati va jinoyatchilarning global miqyosdagi faoliyatini to'liq hisobga olmasligi mumkin. Jinoyat kodeksining XX¹ bobidagi mavjud moddalar asosan

ruxsatsiz kirish, tizimga aralashish va zararli dasturlarga qaratilgan bo'lib, raqamli aktivlarni bevosita o'zlashtirishni alohida o'g'rilik shakli sifatida aniq belgilamaydi. Bu esa huquqni qo'llovchi organlar uchun yangi va murakkab kiber-o'g'rilik turlarini samarali tergov qilish va jinoiy javobgarlikka tortishda muammolar tug'diradi.

Xalqaro tajribalarning tahlili va O'zbekiston uchun xulosalar. Xalqaro tajribalarni o'rganish O'zbekiston uchun kiber-o'g'rilik qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha muhim yo'nalishlarni ko'rsatadi.

Kiberjinoyatchilik bo'yicha Yevropa Kengashining Budapesht konvensiyasi (2001-yil) eng dolzarb xalqaro kelishuvlardan biri bo'lib, u kompyuterlarga qarshi va kompyuterlar yordamida sodir etilgan jinoyatlarni jinoyat deb hisoblashni nazarda tutadi. Konvensiya tergov va elektron dalillarni ta'minlash uchun protsessual huquqiy vositalarni taqdim etadi, shuningdek, xalqaro hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan. Ushbu konvensiyaga to'liq a'zo bo'lish O'zbekistonga xalqaro hamkorlikni sezilarli darajada kuchaytirish va huquqiy bazasini global standartlarga moslashtirish imkoniyatini beradi.

O'zbekiston uchun xulosalar: Qiyosiy tahlil quyidagilarni taqozo etadi:

- **Qonunchilikni yangilash:** Jinoyat kodeksining doirasini kengaytirish, kripto-aktivlarni o'g'rilash, sun'iy intellektga asoslangan firibgarlik kabi yangi kiber-o'g'rilik turlari uchun aniq ta'riflar va jazo choralarni kiritish muhimdir.

- **Huquqiy ta'riflarni aniqlashtirish:** Raqamli aktivlarning o'ziga xos xususiyatlarini qamrab oluvchi huquqiy ta'riflarning aniq va ravshan bo'lishini ta'minlash zarur.

- **Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish:** O'zbekistonning Budapesht konvensiyasiga to'liq qo'shilishi va o'zaro huquqiy yordam shartnomalarini kuchaytirish transchegaraviy kiberjinoyatlarga qarshi kurashishda samaradorlikni oshiradi.

- **Aholining xabardorligini oshirish:** Fuqarolarni raqamli gigiyena va kiberxavfsizlikning eng yaxshi amaliyotlari bo'yicha o'qitish, ularning kiber tahdidlarga nisbatan zaifligini kamaytiradi.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida kiber-o'g'rilik uchun javobgarlikni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mamlakatda kiberjinoyatchilikka

qarshi kurashish uchun asosiy huquqiy baza mavjud bo'lsa-da, u raqamli makondagi tahdidlarning dinamik rivojlanish sur'atiga to'liq moslasha olmayapti. «Kiberxavfsizlik to'g'risida»gi qonun kiberjinoyat tushunchasini belgilab bergan bo'lsa-da, «kiber-o'g'rilik» alohida jinoyat tarkibi sifatida ajratilmagan, bu esa amaliyotda qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Raqamli aktivlarni o'g'rilash holatlari ko'pincha an'anaviy mulkiy jinoyatlarga oid moddalar (masalan, JK 169-moddasi) bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi, bu esa raqamli o'g'rilikning o'ziga xos xususiyatlarini to'liq aks ettirmaydi. Qonunchilikdagi bo'shliqlar, xususan, kripto-valyuta firibgarligi, sun'iy intellektga asoslangan hujumlar va deepfake kabi yangi tahdidlarning yetarli darajada qamrab olinmaganligi, shuningdek, huquqni qo'llovchi organlarda resurslar va mutaxassislar yetishmovchiligi, transchegaraviy xususiyatdagi jinoyatlarni ta'qib qilishdagi yurisdiksiyon cheklovlar va aholining kiberxavfsizlik bo'yicha past xabardorligi asosiy kamchiliklar hisoblanadi.

Jinoyat kodeksini takomillashtirish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, salohiyatni oshirish va mutaxassislarni tayyorlash, aholining raqamli savodxonligini oshirish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish O'zbekistonning kiberjinoyatlarga qarshi kurashish salohiyatini sezilarli darajada oshiradi, raqamli makonda xavfsizlikni ta'minlaydi va raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga mustahkam huquqiy asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zoilboev, J. (2022, avgust). Kiberxavfsizlik, raqamli huquq va raqamli gigiyena – kiberjinoyatchilikka qarshi muqobil yechim. Jamiyat va innovatsiyalar jurnali, 3(6/S), 12-24. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss6/S-pp12-24>
2. Uzbek Journal of Law and Digital Policy - IRSHAD JOURNALS, <https://irshadjournals.com/index.php/ujldp>
3. Duha, R. (2024, avgust). Punishment for Cybercrime: A Major Challenge in Modern Legal Systems. Verdict: Journal of Law Science, https://www.researchgate.net/publication/391130350_Punishment_for_Cybercrime_A_Major_Challenge_in_Modern_Legal_Systems

QONUN HUJJATLARI:

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. (1994-yil 22-sentyabr, 201-I-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan). (Oxirgi o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
2. O'zbekiston Respublikasining «Kiberxavfsizlik to'g'risida»gi Qonuni. (2022-yil 21-aprel, O'RQ-764-son).
3. O'zbekiston Respublikasining «Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida»gi Qonuni. (2019-yil 2-iyul, O'RQ-547-son).
4. Kiberjinoyatchilik to'g'risidagi Konvensiya (Budapesht konvensiyasi). (2001-yil 23-noyabr).



PRAGMATIK KOMPETENSIYADA INGLIZ TILINI O'QITISHDA ONLAYN TA'LIMNING AHAMIYATI

Xolmuradova Shaxnoza Shavkatovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistranti

ЗНАЧЕНИЕ ОНЛАЙН-ОБРАЗОВАНИЯ В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ В ПРАГМАТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ


Xolmuradova Shaxnoza Shavkatovna

*магистрант Термезского университета экономики и
сервиса*

THE SIGNIFICANCE OF ONLINE EDUCATION IN TEACHING ENGLISH IN PRAGMATIC COMPETENCE

Kholmuradova Shakhnoza Shavkatovna

*Master's student at the Termez University of Economics and
Service*



E-mail:

shaxnoza11@bk.ru

Orcid: 0009-0009-
6144-7109

Annotatsiya: Ushbu maqolada pragmatik kompetentsiya tilni ijtimoiy sharoitlarda to'g'ri ishlatish qobiliyatini anglatadi va til o'rganishning muhim qismi ekanligi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu tadqiqot Termiz iqtisodiyot va servis universitetining ingliz tili o'qituvchilari va ingliz tilini o'rganuvchilari orqali masofaviy ta'lim kontekstida pragmatik kompetensiyani rivojlantirish uchun texnologiya qanday kuchli bo'lishi mumkinligiga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Pragmatik kompetentsiya, ingliz tilini onlayn o'rganish, texnologiyalar bilan kengaytirilgan til o'rganish, madaniyatlararo muloqot va boshqalar.

Аннотация. В данной статье представлена информация о том, что прагматическая компетентность относится к способности правильно использовать язык в социальных ситуациях и является важной частью изучения языка. В данном исследовании основное внимание уделяется тому, как технологии могут быть эффективным средством развития прагматической компетентности в контексте дистанционного обучения у преподавателей английского языка и изучающих английский язык в Термезском университете экономики и сервиса.

Ключевые слова: прагматическая компетентность, онлайн-обучение английскому языку, технологически усовершенствованное изучение языка, межкультурная коммуникация и т. д.

Abstract. This paper presents the information that pragmatic competence refers to the ability to use language correctly in social situations and is an important part of language learning. This study focuses on how technology can be an effective means of developing pragmatic competence in the context of distance learning among English teachers and English learners at Termez University of Economics and Service.

Keywords: pragmatic competence, online English language teaching, technology-enhanced language learning, intercultural communication, etc.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION).

Til o'rganishning asosiy komponenti pragmatik kompetensiya yoki ijtimoiy vaziyatlarda tildan foydalanish qobiliyatidir. Bu talabalarga ijtimoiy jihatdan maqbul, madaniy ahamiyatga ega va muloqot maqsadlariga erishish uchun foydali bo'lgan tilni tushunish va ishlatishga yordam beradi.

Til o'rgatish an'anaviy tarzda, asosan, an'anaviy sinflarda o'tkazilgan bo'lsa-da, onlayn ta'limning paydo bo'lishi pragmatik ko'nikmalarni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi.

Bundan tashqari, pragmatik kompetensiya kommunikativ maqsadlarga erishish uchun muhim bo'lgan madaniy tilni tushunish va ishlab

chiqarishda muhim rol o'ynaydi. Pragmatik kompetensiya o'quvchilarga yashirin ma'nolarni tushunish, tegishli tilni yaratish va turli ijtimoiy kontekstlarga moslashish imkonini beradi. Bu turli xil madaniy muhitda muvaffaqiyatli muloqot qilish uchun zarurdir. Pragmatik malakaga ega bo'lgan o'quvchilar tegishli tilni yaratishi, yashirin ma'nolarni tushunishi va turli ijtimoiy sharoitlarga moslashishi mumkin. Virtual almashinuv va interaktiv platformalar orqali texnologiya ushbu ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Texnologiya interaktiv platformalar va virtual o'zaro ta'sirlar orqali ushbu qobiliyatlarni rivojlantirishga katta hissa qo'shadi [2].

Onlayn ta'lim ushbu mahoratni rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirdi, haqiqiy kontekstlarni va turli xil o'zaro ta'sirlarni kiritdi. Turli xil o'zaro ta'sirlar va real sharoitlarni taklif qiluvchi onlayn ta'lim tufayli bu qobiliyatni rivojlantirish imkoniyatlari oshdi. Bundan tashqari, texnologiya virtual almashinuv va interaktiv platformalar orqali ushbu ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Pragmatik kompetensiya o'quvchilarga yashirin ma'nolarni tushunish, tegishli tilni yaratish va turli ijtimoiy kontekstlarga moslashish imkonini beradi. Bu turli xil madaniy muhitda muvaffaqiyatli muloqot qilish uchun zarurdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Til o'rganishning muhim jihati pragmatik kompetensiya bo'lib, u tilni tushunish va ijtimoiy va madaniy jihatdan maqbul va muloqot maqsadlariga erishishda samarali foydalanish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Tarixiy jihatdan, bu qobiliyatlarni sayqallashning asosiy muhiti sinf edi. Biroq, onlayn ta'limning paydo bo'lishi til o'qitishni o'zgartirdi va pragmatik kompetensiyani rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar ochdi. Ushbu insho texnologiya onlayn ingliz tilini o'rganuvchilarga pragmatik kompetensiyani rivojlantirishga qanday yordam berishi mumkinligini o'rganadi. Onlayn o'qituvchilar texnologiyadan foydalangan holda amaliy ko'nikmalarning o'sishini qo'llab-quvvatlovchi dinamik va samarali o'quv muhitini yaratishi mumkin [3].

Texnologiya ingliz tilini onlayn o'rganishda pragmatik kompetensiyani rivojlantirishda muhim rol o'ynashi mumkin. Haqiqiy til kiritish, o'zaro ta'sir qilish imkoniyatlari va aniq ta'lim berish orqali

texnologiya o'quvchilarga turli xil ijtimoiy kontekstlarda samarali muloqot qilish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Ingliz tilini onlayn o'rganayotganda texnologiya pragmatik ko'nikmalarni rivojlantirishda juda katta boylik bo'lishi mumkin. Texnologiya o'quvchilarga turli ijtimoiy sharoitlarda muvaffaqiyatli muloqot qilish uchun zarur bo'lgan qobiliyatlarni egallashga yordam beradi, ular o'zaro ta'sir qilish, aniq ko'rsatmalar va haqiqiy til kiritish imkoniyatlarini taklif qiladi.

MUHOKAMA

(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION). Ingliz tilida muvaffaqiyatli muloqot qilish pragmatik qobiliyatni talab qiladi. Bu talabalarga yashirin ma'nolarni tan olish va izohlashga yordam beradi: Pragmatik kompetensiyaga ega bo'lgan talabalar istehzo, kinoya va xushmuomalalik belgilari kabi to'g'ri kontekstsiz ko'pincha noto'g'ri talqin qilinadigan nozikliklarni aniqlay oladilar va mos tilni yaratadilar: O'quvchilar turli xil pragmatik kompetensiyalarni rivojlantirish orqali to'g'ri so'z va iboralarni tanlash orqali mo'ljallangan ma'noni muvaffaqiyatli yetkazishlari mumkin: Qobiliyatlar o'z tillaridan foydalanishni turli vaziyatlarga, jumladan, rasmiy va norasmiy sharoitlarga, shuningdek, professional va shaxslararo o'zaro munosabatlarga moslashtirish uchun yaxshiroq o'zgartirishga qodir. Onlayn ingliz tili o'qituvchilari texnologiyadan samarali foydalanish orqali o'quvchilarga akademik va professional sharoitlarda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan pragmatik ko'nikmalarni rivojlantirishga imkon beradigan qiziqarli va samarali o'quv muhitini yaratishi mumkin [4].

Olingan ba'zi muhim narsalar, ular pragmatik kompetensiyani egallashda texnologiyaning roli bilan bog'liq bir nechta asosiy mavzularni ochib berdi.

Texnologiyadan foydalangan holda onlayn ingliz tilini o'rganishda ishtirokchilar ona tilida so'zlashuvchilar bilan o'zaro munosabatlarni, shuningdek, ijtimoiy media va onlayn forumlar orqali haqiqiy tildan foydalanishni qadrlashdi. Bundan tashqari, ishtirokchilar onlayn sozlamalarda asl tildan foydalanishning muhimligini ta'kidladilar. Ular ona tilida so'zlashuvchilar va turli madaniyatlarga ega bo'lgan boshqa o'quvchilar bilan muloqot qilish imkoniyatini qadrlashadi. Bundan tashqari, ijtimoiy media platformalari va

onlayn forumlardan foydalanish ularga real dunyo tilidan foydalanish va haqiqiy misollardan o'rganish imkonini berdi, bu ularga o'rganishda yana bir tajriba berdi [6].

Ishtirokchilar bilan suhbatga asoslanib, ular pragmatik me'yorlar bo'yicha aniq yo'l-yo'riq va o'qituvchilar va tengdoshlarning fikr-mulohazalari pragmatik xatolarni tuzatishda juda muhim ekanligini ta'kidladilar. Ishtirokchilar o'qituvchilar tomonidan pragmatik me'yorlar, madaniy nuanslar va turli kontekstlarda tildan to'g'ri foydalanish bo'yicha ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan aniq ko'rsatmalarni qadrlashdi. Onlayn ta'limda ajratib bo'lmaydi. Bundan tashqari, ular o'qituvchilar va tengdoshlaridan o'zlarining tildan foydalanishlari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyatini qadrlashdi, bu ularga pragmatikadagi xatolarni aniqlash va tuzatishga yordam berdi [5].

Ishtirokchilar onlayn munozaralar, rolli o'yinlar va simulyatsiyalar kabi interfaol tadbirlar pragmatik kompetentsiyani rivojlantirishda samarali ekanligini aniqladilar, chunki haqiqatan ham onlayn sharoitlarda rolli o'yinlar va simulyatsiyalar pragmatik ko'nikmalarni samarali rivojlantirdi. Bundan tashqari, bu mashg'ulotlar o'quvchilarga o'zlarining til ko'nikmalarini amalda qo'llash va real media kontekstida fikr-mulohazalarini olishlari uchun ba'zi imkoniyatlar yaratdi. Ular o'rganishda katta tajribaga ega bo'lganlari sababli, ular buni onlayn qilishda qiziqarli bo'lishdi.

NATIJALAR (PEZUYITATY/ RESULTS).

Texnologiya haqiqiy kontekstlarni, aniq ko'rsatmalarni va madaniyatlararo muloqot imkoniyatlarini taqdim etish orqali pragmatik kompetentsiyani egallashni sezilarli darajada osonlashtiradi. Biroq, samaradorlik ta'lim sifati, o'qituvchi tajribasi va o'quvchilarning faolligiga bog'liq. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, texnologiya vositasida til o'rganish samaradorligi turli omillarga, masalan, o'quv materiallarining sifati, o'qituvchilarning tajribasi, o'quvchilarning motivatsiyasi va faolligiga bog'liq. Texnologiyaning pragmatik kompetentsiyaga uzoq muddatli ta'sirini o'rganish va muvaffaqiyatli onlayn til o'rganishga hissa qo'shadigan o'ziga xos omillarni o'rganish uchun qo'shimcha tadqiqotlar talab etiladi [7].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION).

Texnologiyadan foydalangan holda, onlayn ingliz tili

o'qituvchilari pragmatik ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradigan qiziqarli va samarali o'quv muhitini yaratishi mumkin. Haqiqiy ta'lim tajribasini yaratish, pragmatik me'yorlar bo'yicha aniq ko'rsatmalar berish va mazmunli o'zaro munosabatlarni rivojlantirish orqali onlayn o'qituvchilar o'quvchilarga turli madaniy kontekstlarda ishonchli va samarali muloqot qilish imkoniyatini berishi mumkin. Texnologiya pragmatikani o'qitish va o'rganishda inqilob qilish imkoniyatiga ega. Haqiqiy ta'lim tajribasini yaratish, aniq ko'rsatmalar berish va mazmunli o'zaro munosabatlarni rivojlantirish uchun texnologiyadan foydalangan holda, onlayn ingliz tili o'qituvchilari o'quvchilarga globallashtirgan dunyoda samarali muloqot qilish uchun zarur bo'lgan pragmatik ko'nikmalarni rivojlantirishlari mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА/ REFERENCES)

1. Blake R. J. Brave new digital classroom: Technology and foreign language learning. Georgetown University Press, 2013.
2. Braun V., & Clarke V. Using thematic analysis in psychology. *Qualitative Research in Psychology*, 3(2), 2006. – P. 77–101.
3. Byram M. Teaching and assessing intercultural communicative competence (Multilingual Matters). *Multilingual Matters*. 1997.
4. Baker W. Culture and Identity through English as a Lingua Franca. 2015.
5. Chun D. CALL technologies for L2 reading post Web 2.0. Present and Future Promises of CALL: From Theory and Research to New Directions in Language Teaching, 5, 2011. 131–170.
6. Hampel R., & Stickler U. The use of videoconferencing to support multimodal interaction in an online language classroom. *ReCALL*, 24(2), 2012. – P. 116–137.
7. Ishihara N., & Cohen, A. D. Teaching and learning pragmatics: Where language and culture meet. Routledge, 2014.
8. Kasper G. Classroom research on interlanguage pragmatics. *Pragmatics in Language Teaching/Cambridge University Press*, 2001.

THE SYMBOLISM OF LEADERSHIP IN DIFFERENT SYSTEMIC LANGUAGES: A SOCIOPRAGMATIC STUDY OF THE CONCEPT

Umurzakova Bonuxon Azizovna

Lecturer at Termiz University of Economics and Service

PhD in Pedagogical Sciences, Associate Professor

СИМВОЛИКА ЛИДЕРСТВА В РАЗЛИЧНЫХ СИСТЕМНЫХ ЯЗЫКАХ:

СОЦИОПРАГМАТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ КОНЦЕПТА

Умурзакова Бонухон Азизовна

Преподаватель Термезского университета экономики и сервиса

Доктор философии (PhD) в области педагогических наук, доцент

TURLI TIZIMLI TILLARDA YETAKCHILIK RAMZI: KONSEPTNING SOTSIOPRAGMATIK TADQIQI

Umurzakova Bonuxon Azizovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent



E-mail:

bonuxonim0609@gmail.com

Orcid: 0009-0001-4912-6275

Annotation: This study explores the symbolism of leadership across different systemic languages from a sociopragmatic perspective. It analyzes how leadership is symbolized through various linguistic metaphors and expressions, reflecting the cultural values and social structures inherent in each language. The research compares leadership symbolism in languages such as English, Japanese, Russian, and Indigenous African languages, highlighting the cultural, sociopragmatic, and power-distance differences.

Keywords: leadership, symbolism, sociopragmatics, language, power distance, metaphors, cross-cultural comparison, authority, cultural values, social structures.

Аннотация: Это исследование рассматривает символизм лидерства в различных системных языках с социопрагматической точки зрения. Анализируется, как лидерство символизируется через различные лингвистические метафоры и выражения, отражающие культурные ценности и социальные структуры, присущие каждому языку. Исследование сравнивает символизм лидерства в таких языках, как английский, японский, русский и языки коренных народов Африки, подчеркивая культурные, социопрагматические и различия в дистанции власти.

Ключевые слова: лидерство, символизм, социопрагматика, язык, дистанция власти, метафоры, межкультурное сравнение, авторитет, культурные ценности, социальные структуры.

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot turli tizimli tillarda liderlik simvolizmini sotsiopragmatik nuqtai nazardan o'rganadi. Liderlik turli til metaforalari va ifodalari orqali qanday simvolizatsiya qilinishi, har bir tilga xos bo'lgan madaniy qadriyatlar va ijtimoiy tuzilmalarni aks ettiradi. Tadqiqot ingliz, yapon, rus va afrikalik tub tillardagi liderlik simvolizmini taqqoslab, madaniy, sotsiopragmatik va hokimiyat masofasi farqlarini yoritadi.

Kalit so'zlar: liderlik, simvolizm, sotsiopragmatika, til, hokimiyat masofasi, metaforalar, madaniy taqqoslash, avtoritet, madaniy qadriyatlar, ijtimoiy tuzilmalar.

INTRODUCTION (ВВЕДЕНИЕ/KIRISH).

Leadership is one of the central pillars of societal organization, and its symbolic representations can

reveal much about the structure and values of a culture. This study aims to explore the concept of leadership through a sociopragmatic lens by

examining how leadership symbolism differs across various systemic languages. Leadership, in this context, is not just an individual role but is represented through cultural symbols and metaphors that shape how authority, power, and responsibility are perceived. These symbols, inherently tied to the culture from which they arise, serve as vehicles for transmitting cultural values and expectations. By analyzing these symbols, we can gain a deeper understanding of how different cultures conceptualize leadership and the dynamics of power within those societies.

MATERIALS AND METHODS (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД/ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR). Sociopragmatics, a field that investigates the intersection of language use and social contexts, plays a pivotal role in understanding leadership symbolism. It explores not only the linguistic structure but also the social and pragmatic functions that language serves. In different cultures, leadership is symbolized in ways that align with the norms and expectations of society. The role of the leader is often constructed through metaphors, linguistic expressions, and symbolic imagery that serve to maintain or challenge societal power structures.

Leadership is not a static concept, and its representation changes based on the underlying cultural assumptions of the society. Therefore, a sociopragmatic analysis of leadership symbolism helps uncover how power dynamics are encoded in language. Whether the leader is seen as an authoritarian figure, a servant of the people, or a facilitator of group harmony, the way in which leadership is portrayed reveals the social contracts and hierarchies of that culture [5].

DISCUSSION(ОБСУЖДЕНИЕ/МУХОКАМА)

In different languages, leadership is framed through specific symbols that reflect the underlying values and social expectations of a given culture. For example, in Western languages such as English, leadership is often symbolized by metaphors of control, power, and direction. The metaphor of the «captain of a ship,» for instance, represents a leader who steers the group, controlling the direction and ensuring the group's success through decisive actions. In this symbolic representation, the leader's role is one of clear authority and decision-making power.

However, in other languages, such as Japanese, leadership is framed not through dominance, but

through collaboration and the pursuit of harmony. The term «sensei» (teacher) in Japanese culture signifies a leader who guides through wisdom and mutual respect rather than through authority. This symbolization reflects Japan's emphasis on social harmony and the collective good, where leadership is seen as an interactive and reciprocal process [4].

The differences in how leadership is symbolized reflect deeper cultural values. In collectivist societies like Japan, leadership is often associated with the idea of shared responsibility and guiding the group toward common goals. In contrast, individualistic societies, such as the United States, tend to frame leadership through symbols of personal achievement, autonomy, and the pursuit of success. The linguistic metaphor of a «trailblazer» or «pioneer» in English suggests a leader who charts their own course, demonstrating strength and resilience in overcoming obstacles.

RESULTS (РЕЗУЛЬТАТЫ/NATIJALAR). One of the key sociopragmatic elements influencing leadership symbolism is power distance—the degree to which less powerful members of society accept and expect power to be distributed unequally. In cultures with high power distance, leadership symbols tend to be associated with strength, authority, and control. The language reflects an expectation that leaders will exert significant influence over their followers, often through command and enforcement of rules. For example, in Russian, the word «лидер» (leader) conveys the sense of a strong, authoritative figure, often associated with a commander who issues orders that must be followed [1].

In contrast, in low-power-distance cultures, leadership symbolism is often less about control and more about cooperation and facilitation. For instance, Scandinavian countries such as Denmark and Sweden use terms like «ledare» (leader) and «chef» (chief), which emphasize equality and the leader's role as someone who works with the group to achieve common goals. The leader in these contexts is often seen as someone who listens, mediates, and ensures that the collective interests of the group are prioritized [3].

This variation in leadership symbolism can be attributed to the differing social expectations regarding power dynamics. In high-power-distance societies, leadership symbols reinforce social hierarchies, signaling a top-down flow of authority. Conversely, in low-power-distance cultures, leadership symbols reinforce the idea that power

should be distributed more equally, and leaders are expected to act as equals among equals, with a focus on collaboration.

Sociopragmatics also helps us understand how leadership symbolism functions within different communicative contexts. In the case of political leaders, for instance, the symbolism of leadership plays an essential role in the way politicians communicate with the public. The metaphors and symbols used to represent a leader can influence how the public perceives that leader's role and legitimacy [4].

In the United States, political leaders often adopt the symbolism of a «warrior» or «fighter», reflecting the American cultural emphasis on individualism and conquest. This symbolic framing suggests that a leader's role is to battle against adversity, whether in the form of political opponents or national challenges. On the other hand, in cultures with more collectivist values, such as China, leadership symbolism often draws upon the metaphor of the «sage» or «wise elder,» reinforcing the idea that a leader's primary role is to ensure the well-being of the people through thoughtful, guided decision-making [6].

The metaphors used to represent leaders can also influence how leadership is enacted and how leaders communicate with their followers. In high-power-distance cultures, leaders may communicate with more formality, using language that reinforces their authority and distance from the group. In contrast, in low-power-distance cultures, leaders are more likely to engage in informal communication, signaling approachability and a sense of equality with their followers [5].

As globalization continues to influence cultural exchange and communication, the symbolism of leadership is becoming increasingly hybridized. The blending of leadership symbols from different cultures creates new paradigms of leadership that are more fluid, inclusive, and adaptable to diverse contexts. While traditional symbols of leadership, such as the «strongman» or «authoritarian ruler,» still hold sway in some cultures, others are embracing more democratic and collaborative forms of leadership. The global rise of the «entrepreneur» or «innovator» leader—someone who is seen as a disruptor or visionary—illustrates this shift. In languages like English, leadership is increasingly symbolized through metaphors of creativity,

innovation, and risk-taking. This new type of leadership emphasizes adaptability, flexibility, and the ability to navigate complex and rapidly changing environments. In countries like India, where traditional leadership symbols of power and control still prevail, there is a growing recognition of the importance of entrepreneurial leadership as a way to drive economic and social progress.

CONCLUSION (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/XULOSA). The symbolism of leadership in different systemic languages provides invaluable insights into how leadership is perceived and enacted across cultures. Sociopragmatic analysis reveals that leadership symbolism is not merely about power or authority but is deeply embedded in cultural and social contexts. From the authoritarian «captain» in English to the collaborative «sensei» in Japanese, these symbols convey the expectations of leaders within their respective societies. As cultures evolve and global interconnectedness increases, leadership symbolism continues to adapt. The shift toward more inclusive, collaborative, and flexible leadership models signals a broader cultural shift, where leadership is increasingly seen as a process of empowerment rather than dominance. Understanding the sociopragmatic dimensions of leadership symbolism allows us to appreciate the complexities of power, governance, and authority in the contemporary world.

REFERENCES (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА/ADABIYOTLAR RO'YXATI)

1. Bass B. M. From transactional to transformational leadership: Learning to share the vision. *Organizational Dynamics*, 18(3), 1990. – P.19-31.
2. Fairclough N. *Discourse and social change*. Polity Press. 1992.
3. Hofstede G. *Culture's consequences: Comparing values, behaviors, institutions, and organizations across nations*. Sage Publications. 2001.
4. Kuhn T. S. *The structure of scientific revolutions*. University of Chicago Press. 1996.
5. Lakoff G., & Johnson M. *Metaphors we live by*. University of Chicago Press. 1980.
6. Northouse P. G. *Leadership: Theory and practice* (8th ed.). Sage Publications, 2018.

O‘ZBEKISTON VA XITOIY STRATEGIK SHERIKCHILIK MUNOSABATLARINING HOZIRGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI

Mamatraimov Komil Mamatmurod o‘g‘li

*Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti
o‘qituvchisi*

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО ПАРТНЕРСТВА МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ

Маматраимов Комил Маматмурод ўгли

*Преподаватель Термезского государственного университета
инженерии и агротехнологий*

CURRENT STATE AND PROSPECTS OF STRATEGIC PARTNERSHIP RELATIONS BETWEEN UZBEKISTAN AND CHINA

Mamatraimov Komil Mamatmurod o‘g‘li

*Lecturer at Termez State University of Engineering and
Agrotechnology*



E-mail:

komilmamatraimov@gmail.com

ORCID: 0009-0009-6109-8068

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘tgan davr oralig‘idagi O‘zbekiston – Xitoy hamkorlik aloqalarning yangi jihatlari ilmiy asoslanib, bu borada hozirda O‘zbekistonning eng katta savdo hamkori sanalgan Xitoy Xalq Respublikasining yutuqlaridan foydalanish zaruriyati, hamkorlikning barcha qirralarini ochib berish va bu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqot ishlarini solishtirib iqtisodiy, ilmiy muomalaga kiritish masalalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Siyosiy strategiya, memorandum, “uchinchi dunyo mamlakatlari” nazariyasi, mintaqaviy hamkorlik, integratsiyalashuv jarayonlari, ShHTdagi hamkorlik aloqalari, strategik sherikchilik.

Аннотация: В данной статье научно обоснованы новые аспекты сотрудничества между Узбекистаном и Китаем за прошедший период, освещается необходимость использования достижений Китайской народной Республики, которая в настоящее время является крупнейшим торговым партнером Узбекистана. Раскрываются все грани сотрудничества, а также проводится сравнительный анализ исследовательских работ, выполненных в этом направлении, с целью их внедрения в экономический и научный оборот.

Ключевые слова: Политическая стратегия, меморандум, теория “страны третьего мира”, региональное сотрудничество, интеграционные процессы, сотрудничество в ШОС, стратегическое партнерство.

Abstract: This article discusses the new aspects of Uzbek-Chinese cooperation in the past period on a scientific basis, the need to use the achievements of the People’s Republic of China, which is currently Uzbekistan’s largest trading partner, in this regard, to reveal all aspects of cooperation, and to introduce into economic and scientific circulation the research work carried out in this direction.

Keywords: Political strategy, memorandum, the theory of “third world countries”, regional cooperation, integration processes, cooperation in the SCO, strategic partnership.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION).

Xitoy Markaziy Osiyo davlatlari bilan strategik sherikchilik sohasidagi siyosati va Xitoy bu siyosatni amalga oshirish uchun o'zining uzoq muddatga ko'zlangan iqtisodiy strategiyasini ishlab chiqishi uning olib borayotgan tashqi siyosatining eng muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Buyuk ipak yo'lining Yevropaga boradigan quruqlikdagi barcha yo'llari Markaziy Osiyodan o'tgan. Bu strategiya XXR jahon iqtisodiy markazlaridan biriga aylanishiga yo'naltirilgan. Shu tariqa, Xitoy yirik davlatlar bilan strategik sherikchilik munosabatlarini rivojlantirishga va ayni paytda ko'p tomonlama diplomatiya orqali o'z aloqa-munosabatlarining mintaqaviy va global ahamiyatini oshirishga intilmoqda. Xitoy mintaqadan gaz import qilishga katta e'tibor qaratmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga kirib borishi, mustaqil tashqi siyosat asoslarining shakllanishi masalasi A.Qosimov va I.Vaskin hammuallifligidagi tadqiqotda o'z aksini topgan bo'lib, unda mustaqil O'zbekistonning tashqi siyosati, uning asosiy tamoyillari, tashqi siyosatning huquqiy asoslari va asosiy yo'nalishlari kabi masalalar juda aniq yoritib berilgan[1]. Ular O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi, mustaqil tashqi siyosat institutlarining shakllanishi kabi masalalarni o'rgangan, tahlil va xulosalar bilan boyitgan. Bir qator xorijlik mualliflar asarlarida mustaqil O'zbekistonning xalqaro maydondagi o'ziga xos o'rni va salohiyatini o'rganishga e'tibor qaratilgan. Xususan M.Kaser, S.Mehrota, N.Lubin, P.Goubl, D.Diker, E.Epostulu B.Reberon tadqiqotlarida ham ana shunday ma'lumotlar keltirilgan [2]. Mazkur asarlarda O'zbekistonning xalqaro maydondagi tashqi siyosiy, madaniy aloqalarining asosiy yo'nalishlari, uning jahon hamjamiyati safiga kirib borishi, jahon davlatlari bilan hamkorligi masalalari yoritilgan. Sh.Akiner, A.Dani, G.Glison, R.Allison va L.Yonson, B.Koppiters, F.Roeder kabi olimlar tadqiqotlarida Markaziy Osiyo mintaqasida mintaqaviy xavsizlik tizimini shakllanish jarayoni o'rganilgan[3].

MUHOQAMA(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION)

Siyosiy jarayonlarda Xitoy O'zbekistonga nisbatan kam e'tibor qaratadi. Buning asosiy sabablaridan biri

Markaziy Osiyo davlatlariga qaraganda O'zbekistonda chet el sarmoyalari faoliyati uchun qattiqo'lroq siyosat yuritilishidir. Markaziy Osiyo mamlakatlariga Xitoy o'z sarmoyalarini faol kiritayotgan yana bir muhim jabha bu transport infrastrukturasi. Hozirgi vaqtda temir yo'llar va boshqa turdagi transport infrastrukturalarini qurish bo'yicha bir qator qo'shma loyihalar ustida ish olib borilmoqda. Bularning hammasi kelgusida Xitoyning Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqlarini yanada rivojlantiradi. Markaziy Osiyo davlatlariga XXR asosan mashinalar va qurilmalarni (65%), hamda oziq ovqat va ist'emol tovarlarini (30%) chiqaradi. O'z navbatida, mintaqa mamlakatlari XXRga xomashyo va energetika resurslarini sotishadi. So'nggi yillarda Xitoy tomon mintaqa mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorlikni rag'batlantirish bo'yicha bir qator takliflarni ilgari surdi. Xususan ShHT doirasida erkin savdo zonasi va mintaqaviy infrastrukturani yaratish, shu orqali o'zaro savdo-sotiqni o'stirish, tarifdan tashqari to'siqlarni qisqartirish va bartaraf etish; transport, qishloq xo'jaligi, yengil-tekstil sanoati, energetika, telekommunikatsiya sohasida yirik loyihalarni hayotga tadbiq etish shular jumlasidandir [4]. Hozirgi kunda Markaziy Osiyo davlatlari bilan XXRning ikki va ko'p tomonlama aloqalari jadal rivojlanishi kuzatilmoqda. Ammo bunday munosabatlarni mutlaqo optimal deb ayta olmaymiz. Umuman olganda, hozircha aniq emas-ki, kimga bu aloqalardan ko'proq naf keladi? Xitoy va Markaziy Osiyoning hozirgi munosabatlari mazmunini belgilovchi omillar Markaziy Osiyo va Xitoy o'rtasidagi munosabatlar ko'p jihatli doimiy, tarixiy, geosiyosiy hodisa bo'lib, olti muhim omil bilan belgilanadi. Birinchisi - geografik omil. Markaziy Osiyo va Xitoy shunchaki chegaradosh emas. Xitoyning g'arbiy qismi Markaziy Osiyoning geografik mintaqa sifatida keng tarqalgan talqiniga kiradi. Bu qism, yoki Sinszyan-Uyg'ur avtonom rayoni - hatto fanda Sharqiy Turkiston deb ham ataladi. Vaholanki, G'arbiy Turkiston – Markaziy Osiyoning turkiy tilida so'zlashadigan qismidir. Ikkinchi omil - Xitoyning miqyosi, uning mintaq va dunyo miqyosidagi obro'si.

Xitoy - BMT asoschilaridan biri, Tashkilot Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zosi. Xitoy boshqa xalqaro tashkilotlarda ham faol ishtirok etadi,

ular orqali jahondagi vaziyatga ta'sir ko'rsatadi. Uchinchi omil - Xitoyning iqtisodiy taraqqiyoti. Ma'lumki, Xitoy jahonning iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan eng yirik davlatlaridan biriga aylanib bormoqda. Xitoy - ulkan va tobora kattalashib borayotgan bozor. U chetdan kelayotgan juda ko'ptovarlarni iste'mol qilishga qodir. To'rtinchi omil - Xitoyning davlat-siyosiy xususiyatlari. Bu mamlakat - Osiyodagi eng qadimgi va yashovchan davlat tuzilmalaridan biri. Xitoy davlat-siyosiy tizimi takomillashganiga qaramay, an'anaviy markazlashgan davlatchilikning asosiy prinsiplarini saqlab qolgan. Shu holat hamda mamlakat so'nggi yillarda qo'lga kiritgan va kiritayotgan ulkan yutuqlar qit'aning boshqa mamlakatlarida katta qiziqish uyg'otmoqda. Xitoy YXHT bilan bevosita aloqa o'rnatishga harakat qilmoqda. 1955-yilgi Bandung konferensiyasidan so'ng Xitoy xalqaro munosabatlar amaliyotida tinch-totuv yashash prinsiplari qaror topishining tashabbuskorlaridan biriga aylandi. U ommaviy qirg'in quroliga, ko'p sonli, yaxshi jihozlangan va harbiy jihatdan qudratli qurolli kuchlarga, keng miqyosda jangovar harakatlar olib borish tajribasiga, qurolli kuchlarni qo'llab-quvvatlash infratuzilmasiga ega bo'lgan qudratli harbiy davlat maqomini olgan.

NATIJARAR (РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS).

Hozirgi vaqtda Markaziy Osiyo mamlakatlariga Xitoy tomondan xavf mavjud emas. Boz ustiga, Markaziy Osiyo va Xitoy rahbarlari o'rtasidagi oxirgi muzokaralar jarayonida o'zaro ishonchni mustahkamlashga qaratilgan muhim bitimlar imzolandi. Shu jumladan hozirda mavjud chegaralarning daxlsizligi va hududlar bo'yicha hech qanday da'vo yo'qligi tan olindi. Ayni vaqtda u 2001-yildan Jahon Savdo Tashkiloti (JST)ning a'zosi hisoblanadi va boshqa mamlakatlarga ko'p turdagi arzon iste'mol mahsulotlari yetkazib beradi[5]. Mamlakat iqtisodiyot sohasida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritayotganiga qaramay, aholining katta qismi muhtojlikda kun kechirmoqda. Natijada juda ko'p xitoyliklar har yili yaxshi hayot izlab chet elga chiqib ketmoqdalar. Rivojlangan mamlakatlarda emigratsiyaning cheklanishi yangi mintaqaviy siyosiy muammolar bilan birga

Markaziy Osiyo davlatlari va Rossiyani Xitoy fuqarolarining bir qismi tabiiy ravishda kelib o'rnamadigan zonaga aylantiradi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION).

O'zaro aloqalar rivojlangani sari axborot almashinuviga bo'lgan talab ham ortadi. Shu bois O'zbekiston va Xitoyning ommaviy axborot vositalari vakillari o'rtasidagi o'zaro axborot va tajriba almashuvini yanada faollashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston bilan Xitoy o'rtasidagi aloqalar bundan buyon ham o'zaro ishonch, hurmat, tenglik va manfaatdorlik, strategik sheriklik tamoyillari asosida izchil rivojlanib, xalqlarimiz o'rtasidagi do'stona rishtalar yanada mustahkamlanib boraveradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. 1.Қосимов А,Васкин И. Основные направления внешней политики Республики Узбекистан Ташкент: “Узбекистан”, 1994.–112 с.
2. Нуриддинов Э.З. Становления нового типа экономических отношений Узбекистана //Общественные науки в Узбекистане. –Ташкент, 1998.
3. Akiner SH. Central Asia: New Arc of Crisis? – London: Institute for Defence Studies, 1993; Gleason G. Federalism and Nationalism: The Struggle for Republican Rights in the USSR. – Boulder: Westview Press, 1990; Dani A. New Light on Central Asia. – Delhi, Renaissance Publications House, 1993.
4. Тараканова Т.С. АВТОРЕФЕРАТ. диссертации на соискание ученой степени кандидата политических наук. Россия и Китай в Шанхайской организации сотрудничества: проблемы политико-экономического взаимодействия. – Санкт-Петербург. 2017.
5. SafoyevS. Markaziy Osiyoning geosiyosati. – Toshkent: Patent Press, 2005. – 160 b.

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARI KASBIY FAOLIYATIDA VATANPARVARLIK VA MUOMALA MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

¹Masharipov Xushnud Mirzaboyevich, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

²Shakirova Umida Abduraxim qizi, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi



<https://orsid.org/0009-0003-7326-8913>

e-mail:

khushnudmasharip@gmail.com



THE IMPORTANCE OF FORMING A CULTURE OF PATRIOTISM AND RELATIONSHIP IN THE PROFESSIONAL ACTIVITIES OF INTERNAL AFFAIRS EMPLOYEES

¹Masharipov Khushnud Mirzaboyevich Independent researcher at Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni

²Shakirova Umida Abduraxim kizi, Independent researcher at Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni

ЗНАЧЕНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ ПАТРИОТИЗМА И ОТНОШЕНИЙ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СОТРУДНИКОВ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ

¹Машарипов Хушнуд Мирзабоевич, независимый исследователь Ургенчского государственного университета имени Абу Райхона Беруни

²Шакирова Умида Абдурахим кызы, независимый исследователь Ургенчского государственного университета имени Абу Райхона Беруни

Annotatsiya: Ushbu maqolada ichki ishlar organlari xodimlari kasbiy faoliyatida vatanparvarlik va muomala madaniyatining shakllanishi, ularning o'zaro bog'liqligi hamda xizmat samaradorligiga ta'siri falsafiy va psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Muallif tomonidan vatanparvarlikni xodimning kasbiy e'tiqodi va davlatga sadoqatining poydevori sifatida talqin qilish bilan birga, muomala madaniyati ijtimoiy ishonch va professional muloqotni mustahkamlovchi mezon sifatida asoslab beriladi. Tadqiqot davomida zamonaviy psixologik uslublar, sotsiologik so'rovlar hamda nazariy tahlillar asosida ichki ishlar xodimlarida ushbu fazilatlarini shakllantirishning zarurligi va istiqbollari yoritiladi.

Kalit so'zlar: kasbiy mahorat, kasbiy muomala, muloqot, kreativlik, yangicha yondashuv, dunyoqarash, muomala madaniyati.

Abstract: This article examines the philosophical and psychological significance of fostering patriotism and communication culture in the professional activity of law enforcement officers. The author argues that patriotism forms the foundation of professional ethics and state loyalty, while communication culture plays a key role in building public trust and effective interaction. Based on modern psychological methods, sociological surveys, and theoretical analysis, the article substantiates the importance of systematically developing these qualities among internal affairs officers.

Keywords: professional competence, professional communication, communication, creativity, innovative approach, worldview, culture of communication.

Аннотация: В данной статье рассматривается философско-психологическое значение формирования патриотизма и культуры общения в профессиональной деятельности сотрудников органов внутренних дел. Автор подчёркивает, что патриотизм является основой профессиональной этики и преданности государству, в то время как культура общения служит важным фактором укрепления общественного доверия и эффективной коммуникации. На основе современных психологических методов, социологических опросов и теоретического анализа обоснована необходимость целенаправленного развития данных качеств у сотрудников правоохранительных органов.

Ключевые слова: профессиональное мастерство, профессиональное общение, коммуникация, креативность, инновационный подход, мировоззрение, культура общения.

KIRISH. Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy faoliyatida yuksak ma'naviyat, vatanparvarlik tuyg'usi va yuqori muomala madaniyatiga asoslangan bo'lishi soha xodimlari faoliyati samaradorligini ta'minlovchi omillardan biridir. Bu omillar nafaqat ularning shaxsiy sifatlarini, balki jamiyatga bo'lgan ta'sirini ham belgilaydigan muhim omildir. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini yanada takomillashtirish, xodimlarning kasbiy madaniyati va ruhiy tayyorgarligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.

Hozirgi globallashuv jarayonida mamlakatimiz xavfsizligi va hududiy yaxlitligini ta'minlash, jamiyatimizda tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlash qanchalik muhim vazifa ekanligini barachamizga ayondir. Shu bois, keyingi yillarda mamlakatimizda ichki ishlar tizimini isloh qilish masalasi ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda[2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni ijrosini ta'minlash, shuningdek, ichki ishlar organlarini aholining ishonchli himoyachisi sifatida xalqchil professional tuzilmaga aylantirish, ularning fuqarolar, jamoat tashkilotlari hamda keng jamoatchilik bilan yaqin hamkorlikda, o'zaro ishonch va hamjihatlik ruhida ishlashini ta'minlash, mahallalar, aholi turar joylari va butun yurtimizda qonun ustuvorligi, tinchlik-osoyishtalikni yanada mustahkamlash[1] muhim maqsad sifatida belgilab olindi. Shuningdek, ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish

bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi qaroriga muvofiq Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi kodeksi tasdiqlandi[4]. Ushbu maqsadga erishishda, ichki ishlar organlari xodimlarini "Inson qadri uchun" tamoyili asosida davlatning yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, o'z burchiga sodiq, vatanparvar va xalqparvar vakili etib tarbiyalash orqali aholining chinakam roziligiga erishish; ichki ishlar organlari xodimlarida xizmat vazifalariga halol, vijdonan, Vatan va xalq oldidagi burchini chin dildan his etgan holda, yuksak mas'uliyat bilan yondashish, jamiyatda umume'tirof etilgan odo-axloq normalariga so'zsiz amal qilish tuyg'usini shakllantirish bo'yicha ustuvor vazifa qilib belgilandi.

MUHOKAMA. Mamlakatimizda ichki ishlar idoralari sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar Vatan himoyasi, yurt tinchligi hamda davlat kelajagi uchun jonkuyar, olijanob, fidoyi, o'z xizmat burchini sidqidildan bajaradigan vijdonli xodimlarni tarbiyalab yetishtirish vazifasini qo'ymoqda. Chunki bugungi murakkab sharoitda ichki ishlar idoralari xodimlarining xalq oldidagi nufuzini ko'tarish, unga bo'lgan ishonchini mustahkamlash bevosita ana shu islohotlar samarasiga bog'liq.

Shu ma'noda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatidagi kasb mas'uliyatiga oid quyidagi fikrlari diqqatga sazovordir: "Bu sohada xizmat qiladigan odamlar o'zining professional kasb va fuqarolik burchini, o'z vazifasini qanchalik halol va sidqidildan ijro etishi mubolag'asiz butun hokimiyatning obro'si, kishilarimizning adolatga ishonchi qay darajada bo'lishini belgilaydi"[3.189]. Ushbu jarayonda ichki ishlar idoralari xodimlari xizmat vazifalarini

bajarishda o'zlariga berilgan vakolatlarni suiiste'mol qilmasliklari, har bir huquq va vakolat ortida xalq hamda davlat oldidagi burch, mas'uliyat mavjud ekanini to'liq anglab yetishlari zarur.

Ichki ishlar idoralari xodimlari kasbiy faoliyatining samaradorligi yuqoridagi omillar bilan bir qatorda, ushbu faoliyatning psixologik jihatlarini tahlil qilish, uning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, shu orqali bu faoliyatni takomillashtirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Har qanday ish faoliyati, shu jumladan ichki ishlar xodimlari faoliyati muayyan bir aholi qatlami, ya'ni turli kasb sohasi vakillari hamda fuqarolar bilan o'zaro muloqotga asoslanadi. Ular o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarning qay darajada samarali bo'lishi bevosita shaxslararo munosabatlarning to'g'ri tashkil qilinishi, ulaning bir-birini tushuna olishiga bog'liq bo'ladi. Ichki ishlar idoralari xodimlarining faoliyati o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Chunki, ular doimiy ravishda turli toifadagi odamlar bilan uchrashadilar, muloqotga kirishadilar. Bu

esa xodimdan kasbiy psixologiya fanini, jumladan ichki ishlar idoralari faoliyatida yuz beradigan psixik holat va jarayonlarni yaxshi bilishni, ularga qarshi doimo tayyor turishni talab qiladi. Ichki ishlar idoralari xodimi fuqarolarning xavfsizligi, tinchligi, haq-huquqi va erkinliklarini ta'minlashga mas'ul bo'lgan davlat xizmatchisi hisoblanadi. Ana shu mas'uliyat xodimdan birinchi navbatda o'z kasbining bilimdoni, ustasi bo'lishni talab qiladi. Bundan ko'rinadiki, ichki ishlar organlarida xizmat olib borayotgan xodimlarning kasbiy faoliyati hamda ushbu faoliyatda yuzaga keladigan jarayonlar esa o'ziga xosligi, serqirraligi, keng doiraga egaligi bilan qolgan faoliyat turlaridan ajralib turadi. Huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat tartibini saqlash, surishtiruv-tergov jarayonlarida hamda fuqarolarning tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash borasidagi vazifalarni amalga oshirish, jamiyatning turli xil toifadagi, turli xil xarakterdagi fuqarolar bilan o'zaro muloqotga kirishish zaruratini keltirib chiqaradi hamda xodimlardan yuksak kasbiy mahorat va muomala madaniyati kabi muhim sifatlarni mavjud bo'lishini taqozo etadi.

Kasb – inson ish faoliyatining ma'lum tajriba, tayyorgarlik talab etadigan faoliyat turi, sohasi, hunar hisoblanadi[5.48] Kasb tanlash jarayoni – bu shaxs kelajagi uchun nihoyatda muhim, ijtimoiy

foydali jarayon bo'lib, insonni o'zi tanlagan kasbi va ijobiy faoliyati orqali jamiyatga qo'shadigan hissasidir. Kasb tanlash bu insonning o'zini anglash jarayoni bilan bog'liq bo'lib, inson o'zining ulg'ayib borishini anglaydi va kelajakda ma'lum bir kasb bo'yicha ishlashi zarurligini sezadi[8.59]. Shu jumladan, ichki ishlar organlari xodimining kasbiy mahorati bevosita soha faoliyati haqida yetarli darajada bilimlarning mavjud bo'lishi, yuzaga keladigan murakkab va ekstremal vaziyatlardan tezkorlik bilan chiqib keta olishi hamda operativ qaror qabul qilishi, shuningdek zimmasiga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida, sifatli, samarali tarzda amalga oshira olishi kabi muhim sifatlarni o'z ichiga oladi.

Kasbiy bilimlarni puxta egallash natijasida ichki ishlar xodimi o'z faoliyati mohiyatini, uning aniq maqsadga yo'naltirilganligini tushunish, to'plangan bilimlarni amaliy jarayonlarda qo'llay olish, ularni takrorlash va qayta ishlash orqali boshqa nazariy asoslar bilan o'zaro bog'lagan holda yangi ko'nikmalarni hosil qilish kabi qobiliyatlarining rivojlanishiga asos yaratadi. Ushbu bilimlarni egallashda har bir xodim diqqat, kreativlik, takrorlash, refleksiya kabi pedagogik mahoratning muhim kategoriyalarini o'zaro uyg'unlashtirishi lozim. Chunki xodim o'z egallagan bilimlarini kasbiy hayotiga bog'lagan holda ko'p qirrali innovatsion metodlar yordamida izchil idrok etib, rivojlantirib hamda ularning kasbiy tajribalari bilan o'zaro samarali aloqasini yo'lga qo'ysagina u o'zining amaliy natijasini ko'rsata oladi.

Hozirgi kundagi jinoyatchilikning yangicha, zamonaviy ko'rinishlarining paydo bo'lishi, ularning mohiyati hamda sodir etilish usullarining tubdan o'zgarishi ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlashda axloqiy va psixologik kategoriyalarning rolini oshirish dolzarbligini taqozo etmoqda. Ichki ishlar organlari xodimlarida kasbiy fazilatlarining shakllanishiga ta'lim va tarbiya jarayonida, shuningdek, ularning butun xizmat faoliyati davomida amalga oshiriladigan kasbiy va psixologik tayyorgarlik jarayonida erishiladi. Avvalo, ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy va psixologik tayyorgarligi uchun individual ruhiy xususiyatlarning o'rni va roli juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'z xizmat vazifalarini bajarishda ichki ishlar organlari xodimlari haddan tashqari jismoniy va hissiy stresslarga qarshi turishlari va ularni yengishlari kerak[6.47]. Bunday vaziyatlarda

xodimlarning hayoti va sog'lig'i ko'p jihatdan ularning irodasiga bog'liq.

Ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatida kasbiy mahorat bilan birgalikda muomala madaniyati, ya'ni xodimlarning muloqot jarayonlaridagi xatti-harakatlari, xulq-atvorlari ham o'ziga xos o'rin egallaydi. Muloqot – odamlar o'rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir. Muloqot (munosabat) birgalikda faoliyat ko'rsatuvchilar o'rtasida axborot ayirboshlashni o'z ichiga oladi. Bunda munosabatning kommunikativ jihati hisobga olinadi. Xodimlar doimo, uzluksiz ravishda aholining ma'lum bir qatlami bilan, ya'ni tadbirkor, shifokor, o'qituvchi, sayyoh, o'quvchi-talaba, yo'l harakati ishtirokchisi yoki gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, guvoh, jabrlanuvchi kabi huquqiy maqomdagi shaxslar bilan o'zaro munosabatga kirishadi. Muloqot jarayonlarida xodimlarning muomala madaniyatida notiqlik, xushmuomalalik, mantiqiy fikrlash, idrok qilish va tasavvur qila olish kabi sifatlari ahamiyatga ega.

NATIJALAR. Muloqot psixologik jihatdan bir-birlari bilan bog'liq bo'lgan odamlar o'rtasida u yoki bu vositalar orqali maqsadga muvofiq, bevosita yoki bilvosita aloqani o'rnatish va saqlab turish jarayonidir. Muloqot kasbiy muomala tushunchasi bilan o'zaro uzviy bog'liqdir[7.6]. Kasbiy muomala har bir xodimning faoliyatida muhim o'rin egallaydi. Shuning uchun ham muomalaning har bir turi faoliyat jarayonida ishtirok etadi. Xodim muomala qonuniyatlariga suyangan holda shaxslar bilan munosabatga kirishadi. Muloqot jarayonida xodimning barcha kasbiy sifatlari, ya'ni xotira, diqqat, idrok, sezgi, tafakkur, xayol ishtirok etadi. Bu jarayonlar xodimning mantiqiy fikrlashiga, voqeani o'tmishdagi vaziyat bilan bog'lashiga, o'zaro solishtirish va qiyoslash, obyekt va sharoitni mukammal tarzda idrok etishiga yordam beradi[1].

XULOSA. Ichki ishlar organlari xodimlari kasbiy faoliyatida vatanparvarlik tuyg'usi va muomala madaniyati inson omiliga asoslangan xizmat samaradorligini belgilovchi muhim ijtimoiy-psixologik va ma'naviy komponentlardandir. Ushbu omillar xodimlarning davlat va xalq oldidagi mas'uliyatini chuqur anglab yetishida, kasbiy burchini halol va vijdonan ado etishida asosiy motivatsion omil sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, yuqori darajadagi vatanparvarlik hissi, mustah-

kam fuqarolik pozitsiyasi va yuksak muomala madaniyatiga ega bo'lgan xodimlar professional faoliyatda barqarorlik, psixologik chidamlilik va fuqarolar bilan ijobiy kommunikatsiya o'rnatish borasida yuqori ko'rsatkichlarga ega. Shuningdek, vatanparvarlik va muloqot madaniyatining o'zaro uyg'unligi ichki ishlar tizimida axloqiy me'yorlarni mustahkamlashga, inson huquqlari va qonuniylikni ta'minlashda xodimlarning faol ijtimoiy pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Falsafiy nuqtayi nazardan, bu ikki komponent milliy g'oya va mafkura bilan uyg'unlashgan holda davlat organlarining ma'naviy poydevorini mustahkamlaydi, psixologik jihatdan esa xodimlarning kasbiy iqlimdagi moslashuvchanligini, xulqiy bardoshlilikini va ma'naviy yetukligini ta'minlaydi. Shu boisdan ichki ishlar tizimida xizmat qilayotgan har bir xodimda ushbu fazilatlarni chuqur shakllantirish, ularni ilmiy asoslangan metodlar orqali tarbiyalash va amaliyotga tatbiq etish dolzarb ijtimoiy vazifa bo'lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi PF-60-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi PQ-10-son qarori.
3. Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т. 13. – Т., 2005. 189-б.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Ichki ishlar organlari tashkil etilganining 31 yilligi munosabati bilan Ichki ishlar organlari xodimlari va faxriylariga tabrigi. [www. https://xs.uz/](https://xs.uz/)
5. Кулагин Б.В. Основы профессиональной психодиагностики. Монография. – Л.: Медицина, 1984. –С. 218.
6. Asyamov S.V., Po'latov Y.S. Ichki ishlar idoralari xodimlarining kasbiy-psixologik treningi. – Т., 2002. – В.122.
7. Филонов Л.Б. Тренинги делового общения сотрудников органов внутренних дел с различными категориями граждан. – М., 1992. – С.77.
8. Qabulov Q.P. O'quvchilarda kasb tanlash motivatsiyasini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari., doktorlik dissertatsiyasi. 2023-yil, 250-b.

ZIYOLILIK MADANIYATI VA UNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI

*Radjapov Odilbek Babanazarovich, Urganch innovatsion universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar va pedagogika fakulteti "Ijtimoiy-
gumanitar fanlar" kafedrasida dotsenti, (PhD)*

ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНАЯ КУЛЬТУРА И ЕЕ РОЛЬ В СОЦИАЛЬНОМ РАЗВИТИИ

*Раджапов Одилбек Бабаназарович, доцент кафедры
"Социально-гуманитарные науки" факультета Социально-
гуманитарных наук и педагогики Ургенчского инновационного
университета*

INTELLECTUAL CULTURE AND ITS ROLE IN SOCIAL DEVELOPMENT

*Radjapov Odilbek Babanazarovich, Associate Professor, Department
of "Social and Humanities" of the Faculty of Social and Humanities
of Urgench Innovation University*



<https://orcid.org/0009-0006-2851-1429>

e-mail:

odilbek19890823@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ziyolilikning mohiyati va jamiyatning ma'naviy-axloqiy rivojlanishidagi o'rni ko'rib chiqiladi. Shaxsning yetukligi uning o'z-o'zini rivojlantirish jarayonida olgan nazariy bilimlari va amaliy tajribasi orqali shakllanadigan intellekt darajasi bilan belgilanishi ta'kidlanadi. Aql-idrok va kasbiy faoliyat, dunyoqarash va axloqiy qadriyatlar o'rtasidagi munosabatlarga alohida e'tibor beriladi.

Kalit so'zlar: ziyolilik, ma'naviyat, axloq, milliy qadriyatlar, ta'lim, tanqidiy fikrlash, o'z-o'zini rivojlantirish, fan, madaniyat.

Abstract: This article examines the essence of intellectuality and its role in the spiritual and moral development of society. It is emphasized that the maturity of a person is determined by the level of intelligence, which is formed through his theoretical knowledge and practical experience acquired in the process of self-development. Particular attention is paid to the relationship between intelligence and professional activity, worldview and moral and ethical values.

Keywords: intellectual, spiritual, moral, national values, education, critical thinking, self-development, science, culture.

Аннотация: В статье рассматривается сущность интеллектуализма и его роль в духовно-нравственном развитии общества. Подчеркивается, что зрелость личности определяется уровнем интеллекта, который формируется посредством теоретических знаний и практического опыта, приобретенных в процессе саморазвития. Особое внимание уделяется взаимосвязи интеллекта с профессиональной деятельностью, мировоззрением и морально-этическими ценностями.

Ключевые слова: интеллектуальность, духовность, нравственность, национальные ценности, образование, критическое мышление, саморазвитие, наука, культура.

KIRISH. Insonning ma'naviy-axloqiy jihatdan yetukligi asosan uning ziyolilik darajasi bilan belgilanadi. Bu jarayon esa insonni o'zligini bilishga bo'lgan intilish davomida to'plagan kundalik va ilmiy darajasidan kelib chiqadigan

nazariy bilimlar va amaliy tajribalari bilan chambarchas bog'liqdir. Shuningdek, bu jarayonda har bir insonning ziyolilik darajasi o'zining muhim xususiyatlari bilan ham alohida ajralib turadi. Chunki ba'zi bir insonlarning kasbi, mutaxassisligi,

ixtisoslik darajasi va turmush tarzi bir-biriga yaqin bo'lganligi bilan ularni ziyolilik darajasi turlicha shaklda namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Bizga ma'lumki, ba'zi bir insonlarda voqelikni idrok qilish darajasi o'zining tezligi va aniqligi bilan alohida ajralib tursa, boshqalarniki sodir bo'layotgan o'zgarishlarni asta-sekin o'zlashtirish va tahlil qilish, lekin to'g'ri, qat'iy xulosa chiqarish bilan xarakterlanadi. Bu fikrlardan ma'lum bo'ladiki, "ziyolilik" intellektual faoliyatning amaliy ifodasi hisoblanadi. Shu boisdan ham B.R.Isoqov to'g'ri ta'kidlaganidek, "Ziyolilik tamoyiliga hukmron-ma'muriy doiralar va xalq tomonidan o'ziga xos munosabatlar mavjud. Chunonchi, birinchi toifadagilar ko'p hollarda ziyolilikka umumiy tarzda ijobiy munosabatda bo'ladilar, lekin masala muayyan ziyoli shaxslarga borib taqalganda, manfaatlar to'qnashuvi ro'y beradi: ziyolilar hukmronlar toifasidan ziyolilik tamoyili asosida yashash va ish yuritishni talab qiladilar, bu esa ularga, tabiiyki, yoqmaydi, buni hokimiyat ishlariga aralashish deb ijirg'anadilar, turli bahonalar topib, zimdan ziyolilarga qarshi kurashadilar"[1.84]. Shu boisdan ham bu davrda fidoyi ziyolilarimiz millat manfaati uchun qayg'urib boy tariximizni, ulkan milliy ma'naviyatimiz unsurlarini imkon doirasida yoshlar ongiga yetkazishga harakat qildilar. Shunday bo'lsa-da hali tariximiz, o'z milliy o'tmishimiz haqida yetarli ma'lumotlarni o'rganmagan, o'rgana olmagan edik. Faqat O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyingina o'zbek xalqi ma'naviy rivojlanish yo'liga qaytdi.

Mustaqillik milliy madaniyat va an'analarni qaytarish, o'z taqdirini o'zi belgilash hamda o'z hayotini milliy manfaatlar va qadriyatlarga muvofiq ravishda qayta qurish imkonini berdi. Bugun ana shu imkoniyatdan foydalangan holda, har birimiz milliy ma'naviyatimizni qayta tiklash va avlodlarga yetkazish uchun ilmiy izlanishlar olib borishimiz zarur. Bu esa nafaqat ilm ahli, o'qituvchi, talab-yoshlar, balki har birimizning burchimizdir. Shu nuqtayi-nazardan qaraganda, bugungi kunda yoshlar ongiga milliy g'oyamizni singdirish, ularni mehnatsevar, halol va pok ruhda tarbiyalovchi insonlar bizning ustoz-muallimlarimizdir. Ziyolilarimiz yurt ravnaqi, vatan taqdiriga mas'uliyat bilan yondashadi. Shuning uchun ham ularni millat rahnamolari deb atashimiz mumkin. Shu boisdan ham bugungi yosh avlodni adolat,

ezgulik, yaxshilik, donolik, ilm-zakovatlilik, donishmandlik, go'zal xulq-atvor kabi axloqiy qadriyatlar asosida tarbiyalash barcha ziyolilarimizning mas'uliyatli vazifalaridan biriga aylanmog'i lozim. Chunki jamiyatimizning taraqqiyoti yosh avlodga bog'liq ekan, ularni ezgu g'oyalar ruhida tarbiyalash ko'zlagan maqsadimizga yetishning muhim yo'lidir.

Millat tafakkuri va ma'naviyatini yuksaltirish, kelajak avlodni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda ijod ahli, ma'rifatparvar ziyolilarning xizmatlari beqiyos. Bu vazifani zimmasiga olgan inson, eng avvalo, o'zi yetarlicha ma'naviy ne'matlardan bahramand bo'lmog'i, san'at va adabiyotning jozibasini chuqur his qilmog'i, dunyo madaniyatlaridan boxabar turmog'i darkor. Shu boisdan ham mustaqil yurtimizda insonni qadrlash, jumladan, millatlarimizning ma'naviy-ma'rifiy takomiliga ulkan hissa qo'shgan chinakam ziyolilar hurmat-e'tiborini joyiga qo'yishdek ezgu an'analarni tiklashga alohida e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega. Darhaqiqat, intellektual tarbiya bugungi kunning eng dolzarb masalasi. Bu ishga yurtimizning barcha ziyolilari – o'qituvchilar, jurnalistlar, yozuvchilar, vrachlar, artistlar, barcha rahbarlar birdek mas'uldirlar.

Ziyolilar soni tinimsiz ko'payib, ularning jamiyat hayotidagi roli ortib bormoqda. Bu avvalo fan-texnika taraqqiyoti, shuningdek hozirgi jamiyatda ma'naviy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojning ortishi bilan bog'liq. Mamlakatimizda ziyolilik madaniyatini hozirgi zamon talablari darajasida olib borishda mavjud barcha imkoniyatlar va vositalardan samarali foydalanganimizdagina yuksak intellektual salohiyatli yoshlarni tarbiyalash mumkin bo'ladi. Zero, I.B.Siddiqov to'g'ri ta'kidlaganidek, "Intellektual salohiyat insonning ma'naviy olami, manfaatlari, ehtiyojlari bilan shartlangan intellekti natijasida namoyon bo'ladi. Inson intellektining integral strukturasi, jamiyatda namoyon bo'lishi uning professional faoliyati orqali yuzaga chiqadi"[2.12].

Ongli, mustahkam immunitetli inson ziyoli bo'ladi, ziyoli inson esa har bir ishda faollik ko'rsatadi. Ziyolilik madaniyati jamiyatdagi o'ziga xos tub o'zgarishlarga tanqidiy, mustaqil fikrlashi bilan tavsiflanadi. Erta rivojlanish va katta qobiliyatga egalik empirik mezon bo'lib xizmat qiladi. Ziyolilik madaniyati masalalarini o'rganishga bag'ishlangan kollektiv monografiya mualliflari qayd etganidek,

“tug‘ma qobiliyat o‘z holicha hech narsani hal qilmaydi. Bu qobiliyatni rivojlantirish lozim. Bunga faqat ma‘lumot olish, ilmiy bilimlar va metodologiyani o‘zlashtirish yo‘li bilan erishiladi. Shuningdek, qulay umumiy madaniy muhit va individlar ijtimoiy hayotining yaxshi shart-sharoitlari ham zarur. Nihoyat, omad deb atash odat tusini olgan muayyan holatlarning qulay kesishuvi kerak”[3.18].

TAHLIL VA NATIJALAR. Ziyolilar – bu jamiyatning ma‘naviy, g‘oyaviy elitasi; ular odamlarning eng bilimli, madaniy, ma‘naviy-axloqiy va tanqidiy konstruktiv fikrlovchi qismidir; zamonaviy jamiyatda hayotning ma‘naviy asoslari va yangi axloqiy qadriyatlar asosan ziyolilarning hayotga bo‘lgan faol munosabati bilan belgilanadi. Ziyolilarning paydo bo‘lishi bilan jamiyatda odamlar va shaxslarning ma‘naviy-axloqiy rivojlanishini ta‘minlaydigan yangi ma‘naviy ta‘lim tizimi paydo bo‘ldi. Ziyolilar ma‘naviyatining genezisi, tabiati, mohiyati va tuzilishini ijtimoiy-falsafiy jihatdan o‘rganish milliy ma‘naviy madaniyatimizning turli yo‘nalishdagi turli xil g‘oyaviy va axloqiy ko‘rsatmalar mavjudligini ko‘rsatdi; ziyolilarning ma‘naviy madaniyati ijtimoiy hayotning asosiy elementlarini saqlab qolish va odamlarning kundalik ishlariga yo‘naltirishga yordam beradigan yangi hayotiy qadriyatlarining manbaidir.

Ma‘naviyat ziyolilarning asosiy hayotiy qadriyatlarini tashkil etadi va u o‘z mohiyatini faoliyat, madaniy, psixologik, axloqiy va aksiologik tahlillar orqali namoyon etadigan murakkab ijtimoiy hodisa sifatida tushuniladi. Ma‘naviyat kategoriyasining ko‘p o‘lchovliligi uning obyektiv sharoitlar va subyektiv omillar ta‘siri ostida shakllanishiga bog‘liq. Bugungi o‘zbek xalqi ziyolilarining ma‘naviyatini shakllantirish turli xil qadriyatlar – falsafiy, axloqiy, madaniy, psixologik, diniy, dunyoviy, turli etnik guruhlarning an‘analarini sintez qilish asosida rivojlanadi. Hozirgi davrda o‘zbek xalqi ziyolilari ma‘naviyatining dinamikasi butun jamiyatning ma‘naviy holatini aks ettiradi. Bu

esa zamonaviy jamiyatning milliylik va umuminsoniylikning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga oladigan yangi ma‘naviy qadriyatlarni izlash bilan bog‘liq holda amalga oshadi.

XULOSA. An‘anaviy rivojlanish tamoyili asosida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy o‘zgarishlar hozirgi ziyolilik madaniyatini noan‘anaviy rivojlanish tamoyillarining takomillashuvida muhim asos bo‘lib xizmat qildi. Jamiyat taraqqiyotida ziyolilik madaniyatining noan‘anaviy rivojlanish tamoyillari dastlab tabiatshunoslik, texnika va ijtimoiy fanlar sohasida shakllandi. Jumladan, kvant mexanikasining yaratilishi, nisbiylik nazariyasi, maydonning kvant nazariyasi, elementar zarralar fizikasi, molekulyar biologiya, kibernetika, informatsion nazariya, kimyo fanidagi tadqiqotlarning chuqurlashuvi va fanlar o‘rtasida differentsiallashuv bilan birgalikda integrallashuvning yuzaga kelishi ilmiy tushuncha va tamoyillarni, metodologiyada yanada murakkablashtirib, uning jozibalashuviga olib keldi. Natijada bugunga kelib bu fanlarning obyektlari va tadqiqot predmetlari yanada boyib, o‘zining takomil bosqichiga borgan sari ko‘tarilmoqda. Shu o‘rinda bir narsani ta‘kidlab o‘tish joizki, hozirgi davrda ziyolilik madaniyatini noan‘anaviy bosqichining takomillashuviga sabab bo‘layotgan sistemaviy-strukturaviy yondashuv, matematik va kibernetik modellashtirish va genetik tahlil kabilar muhim metodologik ahamiyat kasb etmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Isoqov B.R. Ziyolilik mas‘uliyati.- T.: Ma‘naviyat nashriyoti, 2007.-84 b.
2. Siddiqov I.B. Yoshlar intellektual madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari.// Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. -Toshkent.: 2020. -B.12.
3. Гудков Л., Дубин Б. Интеллигенция. - М., 1995. - 18-с.



HUDUDIY SOTSIUMDA YOSH TADBIRKORLARNING IQTISODIY FAOLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY YO‘LLARI

Rajapova E'tibor Bekberganovna, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti "Falsafa" kafedrasi v.b. dotsenti, (PhD)

MODERN WAYS TO INCREASE THE ECONOMIC ACTIVITY OF YOUNG ENTREPRENEURS IN REGIONAL SOCIETY

Rajapova E'tibor Bekberganovna, Acting Associate Professor of the Department of Philosophy, Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni, (PhD)

СОВРЕМЕННЫЕ ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ МОЛОДЫХ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЕЙ В МЕСТНОМ ОБЩЕСТВЕ

Раджапова Эътибор Бекбергановна, и.о доцента кафедры "Философия" Ургенчского государственного университета имени Абу Райхона Беруни, (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda mahalliy hokimiyat organlarining tutgan o'rnini va ularning mas'uliyati tahlil qilingan. Hozirgi kunda mavjud bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda yoshlarning biznes sohasidagi faolligini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari va bu jarayonda munitsipal boshqaruv tizimining ishtiroki ochib berilgan. Shuningdek, hududiy sotsiumda tadbirkorlikni rag'batlantirishga qaratilgan davlat va mahalliy dasturlar samaradorligi, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish yo'llari ko'rib chiqiladi.

Tayanch tushunchalar: yoshlar tadbirkorligi, mahalliy hokimiyat, munitsipal boshqaruv, iqtisodiy rivojlanish, sotsial muhit, hududiy siyosat.

Abstract: This article analyzes the role and responsibilities of local authorities in the development of youth entrepreneurship. In the current socio-economic conditions, mechanisms for increasing the activity of young people in the business sector, supporting them, and the participation of the municipal government system in this process are revealed. The effectiveness of state and local programs aimed at stimulating entrepreneurship in regional society, existing problems and ways to eliminate them are also considered.

Key words: youth entrepreneurship, local government, municipal governance, economic development, social environment, regional policy.

Аннотация: В статье анализируются роль и обязанности органов местного самоуправления в развитии молодежного предпринимательства. В современных социально-экономических условиях раскрываются механизмы повышения активности молодежи в предпринимательской сфере, ее поддержки, участия системы муниципального управления в этом процессе. Также будет рассмотрена эффективность государственных и местных программ, направленных на стимулирование предпринимательства в региональном обществе, существующие проблемы и пути их преодоления.

Ключевые слова: молодежное предпринимательство, местное самоуправление, муниципальное управление, экономическое развитие, социальная среда, территориальная политика.

KIRISH (INTRODUCTION). Yoshlar muammo sifatida, endi kun tartibiga qo'yilmoqda. tadbirkorligi va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy va Ammo bu ijtimoiy hayotda empirik tajribalar madaniy rivojlantirish masalasi, ijtimoiy-falsafiy to'planganini va izlanishlar olib borilayotganini inkor



<https://orcid.org/0009-0007-6434-4493>

e-mail:

rajapovaetibor822@gmail.com

qilmaydi. Shu nuqtayi nazardan ham biz diqqatimizni hududiy sotsium va uning o'ziga xos jihatlarini, keng bo'lmasa-da, ochib berishimiz darkor.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI (LITERATURE REVIEW). "Hududiy sotsium" deganda, biz ma'lum bir hududning ichki rivojlanish qonuniyatlarini ifoda etadigan, undagi tub ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy ehtiyojlar kvinessensiyasi shakllangan, intellektual salohiyati va ijodiy tashabbuslarga tayyorligi bilan ijtimoiy muhitni o'zgartirishga tayyor makon, qatlam va imkoniyatlarning jamini nazarda tutamiz. U tarixiy shakllangan, o'zining an'analari, faoliyat turlari, qiziqish va ehtiyojlari mavjud hududiy birlikdir. Unda umumiy belgilar e'tiqod, ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat, madaniy-ma'naviy ehtiyoj va o'zligini anglash jarayonlari mujassamdir. Nimaiki hududiy birlikka (ba'zan bu birlik jamiyat atamasi bilan aynanlashtiriladi) oid bo'lsa, uning tub xislatlarini ifoda etsa, sotsium sifatida qaraladi. Tadbirkor va biznes subyektlari ham ana shu hududiy sotsiumga kiradi. Hududiy sotsium mamlakat taraqqiyotining real holatini ifoda etadi. Ammo unda ikki jihat, ya'ni bir tomondan, umumiy ijtimoiy taraqqiyot modeli, ikkinchi tomondan esa, differentsiallashtirilgan, hududiy o'ziga xoslikni ifoda etuvchi lokal model xususiyatlari mujassam bo'ladi. Mutlaq lokal model uchramaydi, har qanday hududiy model mamlakat umumiy taraqqiyotining strategik maqsadiga tayanadi va undan kelib chiqadi. Har bir mamlakatning umumiy strategik maqsadi bo'ladi. Ushbu maqsad hududiy modellarga yo'nalish beradi, hududiy sotsiumlarni o'z atrofida birlashtiradi. Shu tariqa mamlakat uchun umumiy va milliy xarakterdagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot modeli (kompleksi) shakllanadi.

METODOLOGIYASI (ETHODOLOGY).

Tadqiqotda analiz, sintez, tarixiylik, sinergetika va germenovika usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS). Mamlakatni rivojlantirish to'g'risida gap ketganda, avvalo, poytaxt, shaharlar nazarda tutilgan. Mahalliy hududlarga ikkinchi, hatto uchinchi darajali vazifa sifatida yondashilgani sir emas. Rasmiy hujjatlar va dasturlarda hatto "hududlarni rivojlantirish" degan tushuncha ham uchramaydi. 2016-yildan keyin qabul qilingan hujjatlar va dasturlarda "hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish" iborasi tez-tez uchraydi. Masalan, Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida

quyidagi vazifalar hududlarni rivojlantirishga kiritilgan:

-barcha tuman va shaharlarning muammo va imkoniyatlarini chuqur o'rgangan holda hududlar kesimida taraqqiyot dasturlarini ishlab chiqish;

-har chorak yakuni bo'yicha mahalliy hokimiyat hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlaridagi vazifalarning bajarilishi bo'yicha deputatlar Kengashlariga hamda idoralar, vazirliklar rahbarlari Oliy Majlis palatalariga hisobotlar berishi;

-loyihalar barcha hududlarning talablari va mahalliy tashabbuskorlarning takliflarini inobatga olgan holda mahalliy jamoatchilik ishtirokida keng muhokama qilingandan keyin qabul qilish;

-Vazirlar Mahkamasi bir oy ichida 2022-2026-yillarga mo'ljallangan respublika hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha dasturlar loyihalarini tasdiqlashi kerak.

Hududiy masalalarni hal qilishdagi ma'suliyati va javobgarligini kuchaytirish hamda ularning strategik yo'nalishlarini rejalashtirishga qaratilgan yangi tizim yaratish maqsadida:

-mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'alligini qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimi yordamchilari hamda yoshlar yetakchilari bilan birgalikda "yo'l xaritalari"ni ishlab chiqishni amalga qo'yish;

-dasturlar va rejalarning bajarilishi bo'yicha jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish, davlat organlarida jamoatchilik fikrini, talab va ehtiyojlarini tuman-shahar-qishloq va mahalla tizimida o'rganib, e'lon qilib borishi lozim.

Ko'rinib turibdiki, Taraqqiyot strategiyasida hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda tadbirkorlikka, yoshlarni ish bilan band etishning yangi tuman-shahar-qishloq- mahalla tizimini yaratish nazarda tutiladi. "Inson qadri uchun" gumanistik tamoyili asosida yoshlarning ijodiy potensialidan, kreativ tashabbuslaridan samarali foydalanish strategik vazifa sifatida e'lon qilingan. Bugungi yoshlarda intellektual rivojlanishga, ko'proq axborotlar olishga, kerakli manbalarga tayangan holda o'z fikri va kasbiga, mehnat jabhasiga ega bo'lish juda kuchli. Masalan, rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, internetdan foydalanuvchilarimizning 60 foizdan ziyodi 25 yoshgacha bo'lgan yoshlardir. 62 foiz yoshlar global tarmoqdan mustaqil foydalanadi, 80 foiz yoshlar ijtimoiy tarmoq va messengerlarga a'zo, "Facebook" dan foydalanuvchilar soni 69 foizga

yetgan. Bunday imkoniyatlar kelgusida yana ko'payadi, bugungi 20 milliardga yaqin inter qurilmalar soni besh yil ichida ikki barobarga oshishi bashorat qilinmoqda. Xullas, yoshlarning intellektual o'sishi, kreativ faolligi yanada oshadi. Bu esa ulardan innovatsion jamiyatda, intermuhitda yashashga o'rganishni, o'zining va xalqning manfaatlari yo'lida ijtimoiy faollik ko'rsatib ishlashni ham taqozo etadi. Olingan bilim, axborot ularning va xalqning real ehtiyojlariga, manfaatlariga xizmat qilishi darkor. Buyuk faylasuf Platonning ta'kidlashicha, qism butunning qo'ynida baxt-saodatga, yetuklikka erishadi. Ayrim olgan shaxs, kishi butunning, jamiyat va davlatning qismidir. Demak, shaxs, kishi o'zi uchun mehnat qila turib xalqi, davlati uchun mehnat qiladi, ushbu uyg'unlik tufayli jamiyat, davlat bir butundir.

Xullas, yoshlarni ish bilan band etishning turli-tuman shakllari mavjud, ammo ular ichida tadbirkorlik ularning g'ayrati, shijoati va intilishlariga ko'proq muvofiq keladigan ijtimoiy muhim faoliyatdir.

Ilmiy adabiyotlarda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot modeli (kompleksi)ga nisbatan "barqaror rivojlanish" degan tushuncha ham ishlatiladi. Bozor munosabatlariga o'tish jarayonlarida, ya'ni 1995-1996-yillarda O'zbekiston ham xalqaro ekspertlar yordamida "O'zbekiston Respublikasi barqaror rivojlanish milliy konsepsiyasi"ni qabul qilgan. Unga ko'ra, mamlakatni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlantirishning quyidagi ustuvor yo'nalishlari belgilangan:

-ishlab chiqarish va shaxsiy iste'mol tizimlarini optimallashtirish;

-ekologik cheklangan doirada iqtisodiy o'sishning sotsial va gumanitar ahamiyatini asrash;

-tabiiy boyliklardan ratsional foydalanish va buzilgan ekotizimni qayta tiklash.

XULOSA. Ekologik talablarga rioya etgan holda iqtisodiyotning asosiy tizimlarini restruktualizatsiya qilish bilan barqaror rivojlanishga o'tishning ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini yaratish. Ushbu yo'nalishlar mamlakat taraqqiyotini barqaror rivojlanishga olib chiqishi zarur edi. Ba'zi mutaxassislar va tadqiqotchilar mamlakat barqaror ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishini regionlar (hududlar)ga tatbiq etishni ma'qul ko'radilar. Shu asosda "regionning barqaror rivojlanishi" degan tushunchani kiritishni taklif qiladilar. Agar hududlar

rivojlanishini mamlakat barqaror rivojlanishi strategiyasi nuqtayi nazaridan qarasaq, bu yondashuvni ma'qul topish mumkin. Biroq bu atama orqali regionni (bu o'rinda N.K.Aimbetov Qoraqalpog'istonni nazarda tutadi) "xo'jaliklarining ixtisoslashgani va iqtisodiy rivojlangani bilan boshqa regionlardan farq qiluvchi o'ziga xos butun ijtimoiy-iqtisodiy tizimlariga ega" hudud sifatida qaralishi e'tirozlar uyg'otadi. Tadqiqotchi "regional va lokal" belgilar borligini keltiradi. Ha, bu belgilarda asos bor, ular hududlarning o'ziga xosliklarini ifoda etadi. Ammo, bizning fikrimizcha, regionlar, shu jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi ham, O'zbekiston Respublikasi umumiy modeli, strategiyasidan alohida rivojlanishga moyil region emas. Uning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishi mamlakat rivojlanishi bilan uyg'un, hatto undagi "regional va lokal" belgilar ham umumilliy jihatlarga ega. Hatto regiondagi ekologik vaziyat mutlaq "regional va lokal" emas, u yon-atrofdagi hududlarga ham ta'sir etayotganini isbotlashga hojat yo'q. Qoraqalpog'iston O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi suveren respublika, bu esa uning o'ziga xos, hududiy cheklangan ishlab chiqarish komplekslariga, madaniy rivojlanish xususiyatlariga ega hududga aylantiradi. Biroq bu xususiyatlar mamlakat strategik taraqqiyotidan chekkada, alohida emas, ularni mudom uyg'unlikda, birlikda, umumiy kompleksda qarash zarur. Bu hududlarning o'ziga xosliklari borligini inkor qilmaydi, ular "mutlaq regional va lokal" emas.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Соколан А. Самоорганизация социума: общие закономерности. - Киев: Strelbytskeyy Multimedia Publishing, 2018.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. 2022- 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида. // Янги Ўзбекистон, 2022, 1- феврал.
3. www.xs.uz, 2022, 1 феврал.
4. f/xalqsuzi.uz.
5. yuz.official. 2021, 10 июль.
6. Национальная стратегия устойчивого развития Республики Узбекистан. - Тошкент: ПРООН, 1999. С.12- 14.
7. Аимбетов Н.К. О практической реализации теоретико-методологических аспектов устойчивого развития регионов // Вестник Каракалпакского отделения Академии наук Республики Узбекистан. 2014, №1. С.82б.

QORAQALPOQ XALQ QO'SHIQLARIDA ALLITERATSION VA ASSONANS QOFIYADAGI FRAZELOGIZMLARNING ISHLATILISHI

¹Mnajatdinova Elmira, QDU 2-kurs magistranti

²Allambergenova Guljahan Aytbayevna, QDU "Qoraqalpoq
tilshunosligi" kafedrasida dotsenti, ilmiy rahbari

THE USE OF PHRASEOLOGISMS IN ALLITERATION AND ASSONANCE RHYME IN KARAKALPAK FOLK SONGS

¹Mnajatdinova Elmira, 2nd year master's student of QSU

²Allambergenova Gulzhakhan Aytbayevna, associate
professor of the department of "Karakalpak linguistics" of QSU,
scientific supervisor

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В АЛЛИТЕРАЦИОННОЙ И АССОНАНСНОЙ РИФМЕ В КАРАКАЛПАКСКИХ НАРОДНЫХ ПЕСНЯХ

¹Мнажатдинова Эльмира, студентка 2-курса
магистратуры КГУ

²Алламбергенова Гульжахан Айтбаевна, доцент
кафедры «Каракалпакского языкознания» КГУ, научный
руководитель

Annotatsiya: Tilimizda qadimdan shakllangan, tilda tayyor holda uchraydigan frazeologik zahira juda boy, unda frazeologizmlarning son-sanoqsiz turlari uchraydi. Ular butun murakkab tabiati orqali ajralib turishi bilan birga, ba'zi fonetik hodisalarning uchrashi bilan tovushlik sifati jihatidan ham farqlanadi. Xalqning so'z yaratish mahorati, xalq yaratgan so'zlarning, so'z birikmalarining anglatgan ta'sirli ma'nolari frazeologizmlarda o'z o'rnini va aksini topadi. Bunday frazeologizmlar bir qarashda oddiy kabi ko'rinadi. Shu soddaligi bilan ta'sirchanlik, xulosaviylik paydo qila oladigan xususiyatga ega bo'ladi. Bu maqolada alliteratsion va assonans usuli bilan ham kelgan frazeologizmlarni xalq qo'shiqlari asosida tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: frazeologik so'z turkumlari, fonetika, leksika, alliteratsion usul, assonans usul, semantika, stilistika, badiiy matn, fonostilistika.

Annotation: The phraseological reserve, which has been formed in our language since ancient times and is readily available in the language, is very rich, containing countless types of phraseologisms. They are distinguished not only by their complex nature but also by the presence of certain phonetic phenomena and the quality of their sound. The skill of creating words by the people, the expressive meanings of words and phrases created by the people find their place and reflection in phraseological units. Such phraseologisms at first glance seem simple. Due to this simplicity, it possesses the ability to create impressionability and conclusiveness. In this article, phraseologisms that also come through alliteration and assonance are analyzed based on folk songs.

Keywords: phraseological parts of speech, phonetics, lexicon, alliterative method, assonance method, semantics, stylistics, literary text, phonostylistics.



<https://orcid.org/0000-0001-5185-3343>

e-mail:

mnajatdinovaelmira@gmail.com



Аннотация: Фразеологический запас, сформировавшийся в нашем языке с древних времен, встречающийся в языке в готовом виде, очень богат, в нем встречается бесчисленное множество видов фразеологизмов. Они отличаются не только своей сложной природой, но и наличием некоторых фонетических явлений и качеством звука. Мастерство народа в создании слов, выразительные значения слов и словосочетаний, созданных народом, находят свое место и отражение во фразеологизмах. Такие фразеологизмы на первый взгляд кажутся простыми. Благодаря этой простоте он обладает способностью создавать чувствительность и выводы. В данной статье фразеологизмы, использующие аллитерационный и ассонансный методы, были проанализированы на основе народных песен.

Ключевые слова: фразеологические части речи, фонетика, лексика, аллитерационный метод, ассонансный метод, семантика, стилистика, художественный текст, фоностилистика.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Qoraqalpoq tilshunosligining frazeologik fondi juda boy, unda frazeologizmlarning son-sanoqsiz turlari uchraydi. Ular butun murakkab tabiati orqali ajralib turishi bilan birga, ba'zi fonetik hodisalarning uchrashi bilan tovush sifati jihatidan ham farqlanadi. Xalqning so'z yaratish mahorati, xalq yaratgan so'zlarning, so'z birikmalarining anglatgan ta'sirli ma'nolari frazeologizmlarda o'zining o'rni va aksini topadi. Bunday frazeologizmlar bir qarashda oddiy kabi ko'rinadi. Shu soddaligi bilan ta'sirchanlik, xulosaaviylik paydo qila oladigan xususiyatga ega bo'ladi. Ular orasida alliteratsion va assonans usuli bilan ham kelgan frazeologizmlar uchraydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Frazeologizmlarning tovush xususiyatlarini o'rganishda mahalliy o'zbek va qozoq tilshunos olimlarining o'rni alohida. O'zbek tilshunosligida frazeologiya masalalari Sh.Rahmatullayevning [1;242-243] asarlaridan boshlab hozirgi kungacha turli yo'nalishlarda o'rganib kelinmoqda. Bundan tashqari qozoq tilshunos olimi I.Kenesbayev [2;106-108] qozoq tilining juda keng qamrovli frazeologik lug'atini tuzish bilan birga, frazeologizmlarning ayrim tovush xususiyatlarini ham ochib ko'rsatadi.

Qoraqalpoq tilidagi shu kabi fonetik xususiyatlarni G.Aynazarovanning "Alliteratsiya bir xil yoki o'xshash undosh tovushlarning so'z boshida takrorlanib kelishi orqali, assonans esa bir xil yoki o'xshash unli tovushlarning so'z boshida takrorlanib kelishi orqali yuzaga chiqadi. Alliteratsiyali va assonansli qofiya turlari ham ikki komponentli frazeologizmlarning tabiatiga xos hodisa"[3;35], - deb yozadi. Bunday tovush hodisalari bir bo'lakdan tashkil topgan frazeologizmlar uchun ham xos bo'lib

keladi. Tovush takrorlaridagi frazeologizmlarni olim B.Yusupova [4;173] tomonidan Sh.Seyitov asarlari misolida maxsus tarzda o'rganib chiqildi. Unda xalq yozuvchilari tilidagi fonostilistik frazeologizmlar, ayniqsa Sh.Seyitov asarlari tilida ko'plab uchrashini misollar bilan dalillab ko'rsatilgan. S.Navro'zboyevaning [5;70] asarida esa, frazeologizmlarning fonetik emas, balki boshqa xususiyatlarini o'rganishga bog'liq tahlil uchun foydalanilgan *tanirge tawekel, kóz kórgen, súyegine sińgen* kabi tovush uyg'unligidagi frazeologizmlar to'plamini ko'rishimiz mumkin.

Biz ushbu maqolamizda qoraqalpoq folklorida, shu jumladan xalq qo'shiqlarida ham alliteratsion va assonansli qofiyaga qurilgan frazeologizmlarga to'xtalib o'tamiz.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Qoraqalpoq xalq qo'shiqlarida bunday frazeologizmlarning tovush takrorlari ko'plab uchraydi. Ularni quyidagi misollar bilan dalillashga harakat qilamiz.

Saw basına sawdanı,

Satıp alğan jigirma bes (369-bet, V tom).

Qasına bara goysañ jaman qızdıñ,

Tóbe shashı tik turıp tóрге qashar (342-bet, V tom).

Bu misollarda *saw basına sawdanı satıp alıw* – ish orttirish ma'nosida kelib *S* undoshiga qofiyalanib qo'llanilgan. Keyingi misoldagi *tóbe shashı tik turıw* frazeologizmi – bir xavfli yoki juda yoqimsiz ishdan, ahvoldan qattiq qo'rqish, juda yomon ko'rish, yoqtirmaslik, noqulaylik degan ma'noni anglatib, *t* undoshiga qurilgan alliteratsion qofiyadagi frazeologizm. Albatta bu frazeologizmlar ijodkorning mahoratidan she'ning qofiyasiga mos o'rinli ishlatilgan.

Qoraqalpoq adabiy tilidagi tasviriy vositalar ichida frazeologizmlarning anglatadigan o'rni

alohida. Har bir ijodkor o'ziga xos xususiyat bilan tilimizdagi tayyor leksik birliklarni turli uslubiy maqsadda qo'llaydi. Bunday birliklar og'zaki so'zlashuv tilida o'tkir ma'noli frazeologizm bo'lib, fikrni aniq kamolga yetkazib, ta'sirchanligini oshirishda katta xizmat qiladi.

Insonning har xil holatga tushgan holatlarini, hayot yo'lidagi o'zgarishlarni, his-tuyg'ulari va tushunchalari, qarashlari, orzu-tilaklarini va h.k. badiiy yoritishda frazeologizmlar alohida o'rin tutadi. Masalan: bironing erki bilan ish tutish, unga ergashish, qarashli, erki bog'liq bo'lish, uning kayfiyatiga qarab ish tutish degan ma'nolarda *qasi-qabağına qaraw* degan frazeologizm qo'llaniladi. ***Qasi-qabağına qarap is tuttim, zalım, Aqırında jalğız basıñ xor bolğay*** (199-bet, V tom).

Folklor tilidagi alliteratsion qofiyadagi frazeologizmlar so'z turkumlariga munosabatiga ko'ra har xil bo'lib keladi. Ularning ichida fe'l so'z turkumiga oidlari ko'proq uchraydi. ***Balalıq dāwirden erte ayrıldım, Ushıp júrip qanatınnan qayrıldım*** (279-bet, V tom). Xalq qo'shiqlarining deyarli ko'pchiligi xotin-qizlar mavzusiga qurilgan, shuning uchun ham xotin-qizlar turmushiga xos vaziyatlar, zamon qiyinchiliklaridan sevganiga qo'shila olmasligi ko'proq tilga olinadi. Yuqoridagi misolda ham *qanatınnan qayrılw* frazeologizmi orqali qiz bolaning hayotida katta burilish bo'lganligi bolaligi bilan erta xayrlashib katta hayotga majburiy qadam qo'yganligi seziladi. *Qanotidan qayrilish* frazeologizmi orqali qandaydir ish-harakat anglatilib kelingan. ***Bas júregim qalturaydı qamıstay*** (283-bet, V tom). *Qamıstay qalturaw* frazeologizmi she'rda inversiyaga uchrab she'rning qofiyasiga mos kelish uchun qo'llanilgan. Buning ma'nosi bir narsadan qo'rqish, cho'chish degan ma'nolarni berib, qahramonning ish harakatini anglatib kelgan.

Qo'l so'zi bilan keladigan frazeologizmlar alliteratsiya usulida ko'proq uchraydi. ***Qol qanatım, ağalarım, inilerim*** (204-bet, V tom). Bu qatorda esa *qol qanat* - yaqin qarindosh, yo'ldosh degan ma'nolarni berib, ot so'z turkumiga tegishli hisoblanadi. Ko'rib o'tganimizdek she'rlar tilida ko'pincha **q** tovushiga qofiyalangan frazeologizmlar ko'proq uchraydi. She'r qatorlarida bulardan tashqari **q** va **k** tovushlarining alliteratsion qofiyalanishiga qurilgan frazeologizmlar badiiy obrazlilik yaratish maqsadida mohirona foydalanilgan. Masalan: *kórse qızar, kewli qabarıw,*

kewli qara, kewil qoyğan, keyni kelispew, kózi qıymaw.

Quyidagi misollarda esa **b** tovushiga qofiyalangan frazeologizmlarni uchratamiz. *Anam kóp oylanıp júdá azbasın, Beldi bekkem buwıp hárgiz jazbasın* (239-bet, V tom). *Beldi bekkem buwıw* – qandaydir bir ishni bajarishga kirishish, uni bajarmaguncha to'xtamaslik kabi ma'nolarni beradi. *Kórgende amanlasıp jalpıldağan, Belgili bes eneden jaman kisi* (317-bet, V tom). *Bes eneden belgili* frazeologizmi aniq, to'liq tushunarli, ma'lum degan ma'noni anglatadi. B.Yusupova o'z asarida qozoq olimi I.Kenesbayevning bu frazeologizm haqida fikrini ko'rsatib o'tadi; "Bes eneden belgili" (peshonadan ma'lum, beshadan ma'lum) degan ham xalq og'zida bor ibora. Og'zaki tilda ham, adabiy tilda ham bular birining o'rniga biri almashib yuraveradi. Eron tillarida "taqdir", "peshona" degan so'z bor: *seniñ pesheneñe jazğan* (qirg'izcha beshenene sizğan yoki besheneñe jazğan) degan ibora ko'p joyda uchraydi; "peshona" deganining "besh ona" bo'lib qo'llanilishi xalq etimologiyasining mahsuli bo'lar deb o'ylaymiz".

Qoraqalpoq xalq qo'shiqlari tilida alliteratsion usul bilan bir qatorda assonansli qofiyadagi frazeologizmlarni ham uchratamiz. Ular ko'pincha **a** unlisiga qurilganligini kuzatamiz. Masalan: *Kórgen adamlardıñ aqlın alğan, Atashtıñ pormdor úylerin kórdik* (346-bet, V tom); *Aynanayın jan bópem, Asımnıñ aldı asıgım. Aydıw, aydıw, ayda bar, Aydan arıw qayda bar?* (460-bet, 99-jild). Bu satrlardagi aqlini olish – esini olish, tashqi ko'rinishi o'ziga tortish degan ma'noni, keyingi misollardagi onalar tilidan bayon etilgan alla qo'shiqlarida oshimning oldi deb to'ng'ich farzandini atasa, oydan go'zal deb o'z farzandining go'zalligini ta'riflaydi. Qoraqalpoq tilida qizlarning go'zalligi oyga, yulduzga o'xshatib tasvirlanadi. ***Oydan go'zal*** frazeologizmi ham xuddi shunday *oy desa og'zi bor, kun desa ko'zi bor* degan frazeologizm bilan sinonim bo'lib keladi. Bu misollarning hammasi **a** unlisining qofiyalanishi bilan mohirona qo'llanilgan, so'z turkumlariga munosabati bo'yicha *aqlini olish* fe'l ma'nosida, *oshimning oldi* – ot ma'nosida, *oydan go'zal* – sifat ma'nosida qo'llanganligini ko'rish mumkin.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Demak, xalq qo‘shiqdarida qo‘llangan frazeologizmlar ham ma‘no, ham tovush jihatidan mohirona qofiyalanib, qo‘shiqning mazmuniga mos yaratilganligining guvohi bo‘ldik. Qoraqalpoq adabiy tilidagi tasviriy vositalar ichida frazeologizmlarning anglatadigan o‘rni alohida. Har bir ijodkor o‘ziga xos xususiyat bilan tilimizdagi tayyor leksik birliklarni turli uslubiy maqsadda qo‘llaydi. Bunday birliklar og‘zaki so‘zlashuv tilida o‘tkir ma‘noli frazeologizm bo‘lib, fikrni aniq kamolga yetkazib, ta‘sirchanligini oshirishda katta xizmat qiladi.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI
(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА /
REFERENCES):**

1. Рахматуллаева Н.Г. Фонетический фактор при образовании единиц по структурно-семантической аналогии в английской

фразеологии. // Вестник Московского государственного лингвистического университета гуманитарные науки. Выпуск 13 (807). Москв, ФГБОУ ВО МГЛУ, 2018.С. 242-243.

2. Кеңесбаев І. Фразеологизмдин дыбыс үйлесими. Қазақ тилинин фразеологиялық сөзидиги. Қазақ ССР-нің Ғылым баспасы. Алматы, 1977. 106-108-бетлер.
3. Aynazarova G. Qaraqalpaq tilinde teñles eki komponentli frazeologizmlerdiñ leksika-semantikalıq hám stillik ózgeshelikleri. Nókis. Qaraqalpaqstan. 2015. 35-B.
4. Юсупова Б.Ш. Сейитовтың “Халқабад” романы тили фразеологиясының фоностилистикалық анализи. –Т.: Tafakkur avlodi, 2021.
5. Наурызбаева С.Т. Фразеологические единицы в каракалпакско-русском словаре. Ташкент, Фан, 1972. С.70.
6. Қарақалпақ фольклоры. Көп томлық V том. – Нөкис, Қарақалпақстан, 1980. 193-400-ББ.



Qabul qilindi: 15.04.2025

Chop etildi: 31.05.2025

UDK: 82-1.09

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ФОРМА РУССКИХ БЫЛИН И УЗБЕКСКИХ ДАСТАНОВ (СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АСПЕКТ)

*Жуманиязова Дилфуза Кадамовна, преподаватель кафедры
“Русский язык и литература” Ургенчского государственного
университета*

RUS VA O‘ZBEK DOSTONLARINING BADIY SHAKLI (QIYOSIY JIHAT)

*Jumaniyazova Dilfuza Kadamovna, Urganch davlat universiteti “Rus
tili va adabiyoti” kafedrasi o‘qituvchisi*

THE ARTISTIC FORM OF RUSSIAN EPICS AND UZBEK DASTANS (COMPARATIVE ASPECT)

*Zhumaniyazova Dilfuza Kadamovna, Lecturer at the Department of
Russian Language and Literature, Urgench State University*

Аннотация: Статья посвящена анализу русских былин и узбекских дастанов как уникальных элементов народного фольклора, отражающих культурные и исторические особенности своих народов. Статья также проводит сравнительный анализ двух жанров, выявляя как общие черты, так и различия в структуре, поэтике и сюжетных линиях. Оба жанра подчеркивают героизм, подвиг и моральные ценности, но каждый делает это в соответствии с традициями своей культуры и языка.

Ключевые слова: былина, дастаны, сюжет, богатырь, жанр, узбекский народный эпос, героические дастаны.

Annotatsiya: Maqola rus dostonlari va o‘zbek dostonlari xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos janrlari sifatida o‘z xalqining madaniy-tarixiy xususiyatlarini aks ettiruvchi tahliliga bag‘ishlangan. Maqolada, shuningdek, ikki janrning qiyosiy tahlili olib borilib, tuzilishi, poetikasi va bayonidagi umumiy xususiyatlar va farqlarni aniqlaydi. Har ikki janrda qahramonlik, axloqiy qadriyatlarga urg‘u berilgan.

Kalit so‘zlar: doston, syujet, qahramon, janr, o‘zbek xalq dostoni, qahramonlik dostonlari.

Abstract: The article is devoted to the analysis of Russian epics and Uzbek epics as specific genres of folk oral creativity, reflecting the cultural and historical characteristics of their people. The article also conducts a comparative analysis of the two genres, identifying common features and differences in their structure, poetics and narrative. In both genres, the emphasis is on heroic and moral values.

Keywords: epic, plot, hero, genre, Uzbek folk epic, heroic epics.

ВВЕДЕНИЕ. Русские былины и узбекские дастаны представляют собой уникальные и важные элементы народного фольклора своих культур. Эти эпические произведения не только рассказывают о подвигах и приключениях героев, но и отражают ценности, мировоззрение и исторический контекст народов, которые их создали.

ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД. «Русские былины» являются частью древнерусского эпоса и включают в себя героические песни и сказания, повествующие о подвигах богатырей, таких как Илья Муромец, Добрыня Никитич и Алёша

Попович. Былины исполнялись с помощью гуслей и передавались из поколения в поколение устным путем. Их основными темами являются борьба с иноземными захватчиками, защита родной земли, вера и доблесть. Былины отражают идеалы и духовные ценности Древней Руси, а также исторические события, такие как борьба с печенегами и половцами. Одним из первых определение былины как литературного жанра через её отношение к сказке дал К.С.Аксаков в своём труде «О различии между сказками и песнями русскими: по поводу одной статьи»[1]. Он первым отметил различие этих



<https://orcid.org/0009-0000-6839-434X>
e-mail: Dilfuza@.42

жанров по форме их подачи: сказка повествуется, а былина исполняется в песенной форме. К.С.Аксаков подчеркивал, что «Тематика песни может быть религиозной (гимны), народной: народные события, историческая и бытовая жизнь; или личной: индивидуальные события и личные чувства. Всё это – реальность. В песне певец и автор остаются незаметными»[2]. Согласно мнению К.С.Аксакова, уникальность былин заключается в том, что, несмотря на присутствие волшебных элементов в песнях, они всегда принадлежат враждебной стороне, противостоящей Русскому духу. Русские богатыри не только не черпают силы из этих волшебных источников, но и постоянно с ними сражаются, обращаясь в молитве только к Богу [3].

ОБСУЖДЕНИЕ. Узбекские дастаны, в свою очередь, являются эпическими произведениями узбекского фольклора. Эти поэмы и сказания повествуют о подвигах героев, таких как Алпамыш, Гороглы и другие, и имеют важное место в культурном наследии Узбекистана. Дастаны отличаются многообразием тем: от любовных историй и семейных драм до героических подвигов и духовных поисков. Они исполнялись профессиональными сказителями – бахши, которые сопровождали свое исполнение музыкой на домбре или рубабе. Узбекские дастаны отражают многовековую историю, традиции и нравственные ценности узбекского народа. Однако первоначально дастан представлял собой произведение, основанное на преданиях о подвигах народных героев, которые в значительной степени изменили положение и жизнь своего племени или народа. В дастанах повествуется о ключевых событиях народной жизни, чаще всего о войнах и сражениях, связанных с утверждением независимости или государственности народа, защитой или завоеванием земли, ставшей для него привычным пространством Родины. Герои и события в дастанах могли быть как поэтическими, так и легендарными, а иногда и теми, и другими одновременно [4].

Фольклористы часто выделяют такие разновидности дастанов: героические дастаны («Алпамыш», «Ядгар»), чье появление и, можно сказать, эпическая сущность тесно связаны с

патриархально-родовыми структурами, с жизнью, бытом, нравами тюркских народов, которые в далеком прошлом вели кочевой или полукочевой образ жизни; воинские дастаны («Юсуф и Ахмед», «Алибек и Балибек»); героико-романические дастаны («Одинокый Ахмед», цикл «Рустам», цикл «Гороглы»); дастаны любовно-романического характера («Кунтугмыш», «Равшан», хорезмские дастаны); общественно-бытовые дастаны («Сахибкыран», «Арзигуль», «Ширин и Шакар»); книжные дастаны («Фархад и Ширин», «Лейли и Меджнун», «Бахрам и Гуландам» и др.) [5]. Оба жанра, несмотря на географическую и культурную удаленность, имеют общие черты, такие как акцент на героизме, подвиге и моральных ценностях. Однако они также демонстрируют значительные различия в структуре, поэтике и сюжетных линиях, что делает их сравнительное изучение особенно интересным и плодотворным.

Русские былины и узбекские дастаны – это два разных жанра эпической поэзии, каждый из которых имеет свои особенности языка и стилистики. Русские былины характеризуются использованием разнообразных поэтических приемов, таких как метафоры, эпитеты и повторения. Метафоры в былинах могут быть яркими и выразительными, часто отражая характеристики героев или событий через сравнения с природными явлениями или аналогиями из повседневной жизни. Эпитеты используются для усиления образов и создания богатой эмоциональной окраски текста. Повторения, как один из основных приемов эпической поэзии, служат для подчеркивания важности событий или эмоционального настроения, а также для создания ритмического эффекта [7].

Узбекские дастаны также обладают своими уникальными особенностями. В них часто используются различные поэтические фигуры, такие как аллитерация, ассонанс, антитеза и другие, для создания музыкального и экспрессивного звучания стихов. Узбекский язык, с его богатым словарным запасом и специфической грамматикой, также оказывает влияние на стилистику дастанов. Фразеологизмы, узбекские пословицы и поговорки могут использоваться для обогащения текста и придания ему национального колорита [8].

Сравнение этих двух жанров позволяет выявить как сходства, так и различия в поэтических приемах и их функциях. Оба жанра стремятся к созданию эпического эффекта через использование метафор, эпитетов и других фигур речи, но каждый из них делает это в соответствии с традициями своей культуры и языка. Русские былины, например, могут быть более склонны к использованию повторений для подчеркивания героических моментов, в то время как узбекские дастаны могут акцентировать внимание на звучности и музыкальности стиха благодаря богатству узбекского языка и его специфике.

РЕЗУЛЬТАТЫ. Сравнительный анализ помогает выявить как общие черты, такие как темы героизма, морали и борьбы за справедливость, так и уникальные особенности, связанные с культурным контекстом каждого народа. Таким образом, оба жанра эпической поэзии обладают своими уникальными чертами стилистики и поэтической техники, которые отражают культурные и языковые особенности народов, которые их создали. Изучение поэтики, стилистики и художественных приемов, используемых в былинах и дастанах, способствует глубинному пониманию методов и техник, применяемых в эпической литературе. Это важно для литературоведов и исследователей фольклора. Былины и дастаны являются не только литературными произведениями, но и важными историческими документами, отражающими социальные и политические реалии своего времени. Сравнительный анализ помогает понять, как эти произведения влияли на общественное сознание и формировали национальную идентичность. Исследование русских былин и узбекских дастанов в сравнительном аспекте позволяет глубже понять, как различные культуры создавали свои

эпические нарративы, какие элементы были важны для них, и каким образом эти произведения продолжают влиять на современные культурные и литературные процессы.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ. В заключение, статья подчеркивает важность сравнительного изучения этих жанров для понимания культурных и исторических контекстов, в которых они были созданы, и для выявления уникальных поэтических приемов, присущих каждому жанру.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Алексеев М.П. К истолкованию поэмы А.Н. Радищева «Бова» // Радищев. Статьи и материалы. – Л.: Изд-во ЛГУ, 1950. – С. 158–213.
2. Астахова А.М. К вопросу об отражениях в русском былинном эпосе сказания о Еруслане // Труды Отдела древнерусской литературы / АН СССР. Ин-т рус. лит. (Пушкин. Дом). – М. – Л.: Изд-во АН СССР, 1958. – Т. XIV. – С. 504–509.
3. Астахова А.М. Народные сказки о богатырях русского эпоса / АН СССР. Ин-т рус. лит. (Пушкин. Дом). — М.; Л.: Изд-во АН СССР, 1962. – 120 с.
4. Джалалов Г. Узбекский народный сказочный эпос. – Т.: Фан, 1980.
5. Имамов К. К вопросу об интерпретации идеального героя в сказках и дастанах / Пулкан шоир. – Т.: Фан, 1976.
6. Имамов К. Сказочные мотивы в дастанах / Фазыл шоир. – Т.: Фан, 1973.
7. Пропп В.Я. Русский героический эпос. – М.: Гос. изд-во худ. лит., 1958. – 603 с.
8. <http://ich.uz/ru/materials/articles-books/414-article-3>.



OLY TA'LIM O'QITUVCHILARINING KREATIV FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

*Xolturayev Asqarjon Panjiyevich, Termiz davlat pedagogika instituti
tadqiqotchisi, (PhD)*

DEVELOPING CREATIVE THINKING SKILLS OF HIGHER EDUCATION TEACHERS

*Kholturaev Askarjon Panjievich, Researcher at Termez State
Pedagogical Institute, (PhD)*

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ВЫСШЕЙ ШКОЛЫ

*Холтураев Аскаржон Панджиевич, научный сотрудник
Термезского государственного педагогического института,
(PhD)*



<https://orcid.org/0009-0008-3393-9918>

e-mail:

asqar.xolturayev@gmail.com

Annotatsiya: Bu maqolada oliy ta'lim o'qituvchilarida kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, uning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish, o'zaro faol munosabatlarga tez kirisha olish va amaliy ta'lim jarayonida uni o'rinli qo'llay olish ko'nikmalarini rivojlantirish haqida aytib o'tilgan. Bu jarayonda ular bilan bevosita ishlaydigan o'qituvchidagi kreativlik darajasining qanday bo'lishi kerakligi ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, kreativlik, ko'nikma, qobiliyat, kompetentlik, ijodkorlik, fikrlash, sezgirlik.

Abstract: This article talks about the formation of creative thinking skills in higher education students, the development of their creative abilities, the ability to quickly enter into active relationships and the ability to use them appropriately in the process of practical education. In this process, it has been shown how the level of creativity of the teacher working directly with them should be.

Key words: higher education, creativity, skill, ability, competence, creativity, thinking, sensitivity.

Аннотация: В данной статье говорится о формировании навыков творческого мышления у студентов высших учебных заведений, развитии их творческих способностей, умении быстро вступать в активные отношения и умении правильно использовать их в процессе практического обучения. В этом процессе было показано, каким должен быть уровень творчества преподавателя, работающего непосредственно с ними.

Ключевые слова: высшее образование, креативность, умение, способность, компетентность, креативность, мышление, чувствительность.

KIRISH. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida 8 - oktyabr 2019 - yil "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risi"da PF-5847-sonli farmoni qabul qilindi. 2020-yil 23-sentabrda O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RBQ 637-sonli

qonunida ham ta'lim sifatini yaxshilash, talabalarning turli shakllarda ta'lim olishi, ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish (kunduzgi); ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish (masofaviy, sirtqi, kechki); dual ta'lim; oilada ta'lim olish va mustaqil ish; katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish; inklyuziv ta'lim; eksternat tartibidagi ta'lim; mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasidagi kadrlarni tayyorlash) belgilab qo'yilgan[1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. Ta'lim jarayoniga kreativ yondashuv asosida talabalarda ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning zarurligi o'zaro faol munosabatlar ta'sirida rivojlanadigan

ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beradi. Bu esa oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim muhiti, o'qitish shart-sharoitlari va metodlarining interfaol xarakter kasb etishini ta'minlashni talab qiladi. Ta'lim tizimida boshqaruv jarayonlari bo'yicha buyuk sharq mutafakkirlari al-Xorazmiy, al-Forobiy, al-Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Umar Xayyom, Sa'diy Sheroziy, Mirzo Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburlar birinchilardan bo'lib ta'lim metodlari orqali ilmiy asoslab berishgan. Bundan tashqari, Amerika psixologi Abraham Maslou kreativlikni inson tabiatining fundamental xarakteristikasi sifatida ko'radi, ya'ni barcha insonlardagi tug'ma qobiliyat, lekin hayoti davomida ma'lum ijtimoiy to'siqlar natijasida yo'qolib ketadi[5.58] deb hisoblaydi.

N.F.Talizinaning "Formation of cognitive activity of junior schoolchildren" asarida har bir o'qituvchi, real pedagogik jarayonni qurishdan oldin, o'quv jarayoni haqida texnologik darajada taqdim qilingan bilimlar tizimiga ega bo'lishi lozim. Bugungi kunda pedagogik atamalar lug'atida kreativ, pedagogik kreativlik, kreativ qobiliyatlar, kreativ kompetentlik terminlarini juda ko'p uchramiz. Kreativlik – (lot. "creare"; ingl. "creativity" – "yaratish", "bunyod qilish") – bu ijodiy qobiliyatlilik darajasi, shaxsning barqaror sifati hisoblanadigan ijod qilishga bo'lgan qobiliyati bo'lib, u kreativ tafakkur bilan bog'liq[8.35].

Kreativ tafakkur – bu shaxsning o'z oldida turgan vazifalarini nostandart hal etish hamda o'z maqsadlariga erishishning yangi, yanada samaraliroq yo'llarini topish qobiliyatidir. Ya'ni kreativlik, asosan, boshqalarga o'xshamagan g'oyalarni o'ylab topish, an'ana tusiga kirib qolgan fikrlashdan qochish hamda muammoli vaziyatlarni tez hamda samarali hal etish yo'llarini bilish hisoblanadi. Kreativlik insondagi ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishga asos yaratadigan individual sifatlarining hamda fikrlash qobiliyatlarining birligidan iborat bo'ladi. Kreativ kompetentlik (ing. "sreate" yaratuvchanlik, ijodkorlik). Kompetentlikning bu turi pedagogning yangilik yaratish, ijodkorlik va tashkil etish singari ko'nikmalarga ega bo'lishi bilan bog'liq. Kreativlik faqatgina yangi g'oyalarni yaratish uchungina emas, balki shaxsning turmush tarzi va ma'naviyatini yuksaltirish uchun ham katta ahamiyatga ega. Bir qator pedagogik adabiyotlar tahlili va keyingi yillarda ilmiy izlanishlar olib borilgan tadqiqot

ishlarida ham kreativ, pedagogik kreativlik, kreativ qobiliyatlar, kreativ kompetentlik tushunchalariga atroflicha izoh berib o'tilgan. Kreativ yondashuv tushunchasining ilmiy, falsafiy, adabiy yoki oddiy tilda ifodalanadigan ko'plab ta'riflarini keltirish mumkin[3.42].

Adabiyotlar tahlili asosida aytishimiz mumkinki, kreativlik termini Angliya, Amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo'lgan bo'lib, bunda kreativlikning intellekt bilan bog'liqlik masalalari hamda kreativlikning psixologik jihatlari va uning har bir shaxsning individual xususiyatlariga bog'liqligi o'rganilgan. M.N.Gnatko kreativlikning mexanizmlarini ikkita turga ajratib tahlil qilgan.

Kreativlik pedagoglarda o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi. Gnoseologik, aksiologik va kreativ texnologiyalar (ta'limning texnologik vositalari)ni faol ravishda ta'lim jarayonida qo'llash kreativlik potensialini rivojlantirib borishga zamin yaratadi. Bu esa davrning ijtimoiy talabi bo'lib, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish jamiyat taraqqiyoti bilan hamnafas tarzda pedagoglardan o'z ustida ishlashini, o'zini kreativ boyitib borishini, ilm-fanning yutuqlaridan boxabar bo'lib, ularni o'z faoliyatiga singdirib borishini talab etadi. B.X.Xodjayeov ilmiy izlanishlarida o'quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minot vositasida rivojlantirish o'qituvchining yangiliklarga bo'lgan intilishi, ularni o'zlashtirish va o'zining pedagogik faoliyatida foydalana olish jarayonida uchraydigan qiyinchiliklarni yengib o'tish, innovatsion yangiliklarni o'zining faoliyatida faol, ijodkorlik bilan qo'llay olish, o'zining mualliflik g'oyalari ega bo'lish hamda turli pedagogik vaziyatlarda ijobiy yechimlarni everistik yo'l topa olish qobiliyatlari bilan bog'liq bo'lgan kreativ kompetentlikga ega bo'lishni talab etadi, degan fikrni ilgari suradi[4.62]. Mustaqil ta'lim olishni tashkil etish uchun nafaqat muayyan kasbga yoki faoliyat sohasiga qiziqish, balki ushbu faoliyat turiga layoqatning mavjud bo'lishi ham talab etiladi. Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi. Pedagog o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Talabalarda

kreativlikni odatga aylantirish orqaligina kreativ fikrlash ko'nikmasini muvaffaqiyatli shakllantirish mumkin. Bu jarayonda ular tomonidan mavzu mazmunining puxta anglanishi va kreativ fikrlash ko'nikmalarini baholashda qo'llaniladigan metod va vositalar muhim ahamiyat kasb etadi. Kreativlik – shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlari bilan bog'liq ko'nikmalar majmui sifatida namoyon bo'ladi. Kreativlik o'z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intiutsiya, natijalarni oldindan ko'ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiyaning qamrab oladi.

Talabalarining ijodkorligi va kreativligi tafakkur va muloqot qilishlarida, hissiyot va tuyg'ularida, turli faoliyat turlarida o'z aksini topgan. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, talabalarda kreativlikni rivojlantirishning muhim jihatlardan biri ularni mustaqil bilim olish va ijodiy fikrlashga yo'naltirishdan iborat. Pedagoglar tomonidan ishlab chiqilayotgan topshiriq va vazifalarni yaratishda kreativ yondashib, talabalarining tanlangan mutaxassisliklari yuzasidan o'quv materiallarining g'oyaviylik, ilmiylik, vizuallik, tizimlilik, o'quv axborotlarining izchil tarzda bayon etilishi, o'quv axborotlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqligini inobatga olish zarur. Bundan tashqari talabalarga berilayotgan topshiriqlar ularning yosh xususiyatiga mosligi, amaliy va aniq maqsadga yo'naltirilganligi hamda talabalarining ehtiyoj va qiziqishlariga muvofiq tayyorlanishi lozim.

Shu orqali o'qituvchining ijodkorligini namoyon qiladigan jarayon bu darsdir. O'qituvchi rahbarligida o'quvchi jamoasi bilan birga ishlay oladigan jarayon hisoblanadi. Inson hissiy idrokni boyitish bilan o'zining bilimlarini oshira oladi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarning o'zidagi tajribaga tayangan holda kasbiy malakalari asosida dars o'tishlari nur ustiga nur bo'ladi, desak yanglishmagan bo'lamiz. O'qituvchining umumiy va muayyan nazariy va amaliy muhim va tasodifiy o'qitish tizimlaridan foydalanishi kreativ fikrlash orqali amaliyotda samaraliroq foydalanishga imkon beradi. Demak, o'qituvchi ilg'or tajribalarni to'playdi, tahlil qiladi, ular asosida xulosalar chiqaradi, o'z mutaxassisligi bo'yicha bilimlar egallaydi. O'qituvchi o'z-o'zini boshqarishda pedagogik texnika, muloqot madaniyati, nutq madaniyati orqali o'quvchiga ta'sir qila olishi, pedagogik axloq, ijodiy natijalarga erishishi kabi tarmoqlarida o'z malakasini namoyon qila olishi

boshlang'ich sinf o'qituvchisining ko'p qirrali pedagogik mahoratga ega ekanligidan dalolat beradi. O'quvchi bilan ishlashda o'qituvchida har qanday masalalarga to'g'ri yondashishida o'quvchining tabiati, xulq-atvori talab qilinadi. O'qituvchi yosh avlodni tarbiyalashda ishtirok etar ekan, barcha atrofdagi insonlarga yurish-turishi, odobi, ma'naviy-axloqiy madaniyati bilan o'rnatilgan bo'lishi, yetuk pedagog sifatida pedagogik mahorat qirralarini namoyon eta olishi, yuqori malakali kadrlar tayyorlashda shogirdlari bilan hamkorlikda ishlab borishi maqsadga muvofiq desak, yanglishmagan bo'lamiz.

MUHOKAMA. O'qituvchining kreativligi esa u tomonidan tashkil etiladigan kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy (kreativ) yondashuvda aks etadi. So'nggi yillarda ushbu holat "pedagogik kreativlik" tushunchasi bilan ifodalanmoqda. Pedagogik kreativlik – pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyat.

"Kreativ pedagogika" quyidagi ikki holatni kafolatlay olishi zarur: 1) o'qituvchilar tomonidan o'quv fanlarini past o'zlashtirayotgan va ularni o'rganishni zerikarli deb hisoblayotgan talabalar e'tiborlarini fan asoslarini o'zlashtirishga jalb etish; 2) o'qituvchilarga talabalarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag'batlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni tavsiya qilish orqali auditoriyada ulardan samarali foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish. O'qituvchi ijodkor va kreativ bo'lishi yoki bo'lmasligi emas, balki darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g'oyalarni ta'lim jarayonida sinab ko'rishga intilishi zarur.

Darslarda o'qituvchi "kreativlik yo'l xaritasi"ga ko'ra quyidagi 4 ta yo'nalish bo'yicha harakatlanadi va bu harakatlar pedagoglarning kreativligini ifodalaydi: ijodiy fikrlash ko'nikmalarini namoyon etish; bo'lajak pedagoglarni o'quv fanlarini qiziqish bilan o'zlashtirishga rag'batlantiruvchi strategiyalardan foydalana olish; innovatsion yondashuv va pedagogik masalalarning yechimini topishga kreativ yondashish. Boshqa har qanday sifat (fazilat) kabi kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik

muayyan bosqichlarda izchil rivojlantirilib boriladi. Odatda kreativlik shaxs faoliyatida tez-tez ko'zga tashlansa-da, biroq bu holat shaxsning kelgusida ijodiy yutuqlarni qo'lga kiritishlarini kafolatlamaydi. Faqatgina ular tomonidan u yoki bu ijodiy ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishlari zarur degan ehtimolni ifodalaydi.

NATIJALAR. Bo'lajak pedagoglarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur: 1)ular tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llab-quvvatlash; 2)ularning mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish; 3)ular tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish; 4)ularning qiziqishlariga e'tibor qaratish. Tadqiqotchi N.Fayzullayeva pedagogik tafakkurga ega bo'lish uchun bo'lajak pedagoglar pedagogikaga oid bilimlarni puxta o'rganish asosida quyidagi ko'nikma, malakalarni o'zlashtira olishlari zarur deb hisoblaydi: pedagogikaning asosiy g'oyalari, konsepsiyalar, qonuniyatlar va pedagogik hodisalarning rivojlanish qonuniyatlarini bilish; pedagogikaning eng muhim nazariy g'oyalari, asosiy kategoriyalari va tushunchalarini bilish; asosiy pedagogik faktlarni bilish; ta'lim va tarbiyaning umumiy uslubi haqidagi amaliy bilimlarni egallash.

Psixologiyada E.P.Torrens tomonidan shaxs kreativligini aniqlovchi testlar ishlab chiqilgan bo'lib, uning fikricha, shaxs kreativligi o'zida quyidagi belgilarni namoyon qiladi:

1) savollar, kamchiliklar va bir-biriga zid ma'lumotlarga e'tiborsiz bo'lmaslik;

2) muammolarni aniqlash uchun harakat qilish, ilgari surilgan taxminlar asosida ularning yechimini topishga intilish.

XULOSA. Bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirishdan oldin guruhda qulay muhitni yaratish lozim. Kreativ muhitda ta'lim olayotgan bo'lajak pedagoglarda asta-sekin kreativ vazifalarni bajarishga nisbatan qiziqish ortadi, shuningdek, kreativ tafakkurga ega o'qituvchini kuzatish natijasida kreativ fikrlashga moyillik paydo bo'ladi. Kreativlik xarakteridagi o'quv-bilish muhiti bo'lajak pedagoglarda ta'lim jarayonida katta ahamiyatga ega bo'lgan tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmasining rivojlanishiga olib keladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Ta'lim to'g'risida. O'RQ 637-son. 2020-yil 23-sentabr.
2. Sh.M.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O'zbekiston, 2017.
3. Andreeva G.M. Ijtimoiy psixologiya. - M., 1996-yil.
4. B.X.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: Sano standart nasriyoti, 2017 – yil, 416-bet.
5. Baybayeva M.X. Ta'lim muassasalarida rahbar ayollarning boshqaruv faoliyatidagi roli. Integration of science, education and practice. Scientific-methodical journal. –2022. –T. 3. –No. 5. –S. 59-6.
6. N.Ismoilova D.Abdullayeva. Ijtimoiy psixologiya. T., 2013.
7. V.M.Karimova, N.Shomurodova. Etnopsixologiya. Oliy yurtlar talabalari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2012.
8. Talizina N.F. Formation of cognitive activity of junior schoolchildren. Book. For the teacher. - M.: Education, 1988.- 175 p.



**BO‘LAJAK TARIX FANI O‘QITUVCHILARIDA
MEDIASAVODXONLIK KO‘NIKMALARINI
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI**

Muxammadiyev Lochin G‘ayratovich, Chirchiq davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi

**PEDAGOGICAL BASIS OF DEVELOPING MEDIA
LITERACY SKILLS IN FUTURE HISTORY
TEACHERS**

Mukhammadiev Lochin Gayratovich, Chirchik State Pedagogical University Independent Researcher

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ
НАВЫКОВ МЕДИАГРАМОТНОСТИ У БУДУЩИХ
УЧИТЕЛЕЙ ИСТОРИИ**

Мухаммадиев Лочин Гайратович, независимый исследователь Чирчикского государственного педагогического университета



<https://orcid.org/0009-0004-7224-0328>

e-mail:

lgayratovich@gmail.uz

Annotatsiya: Maqolada bo‘lajak tarix fani o‘qituvchilarida mediasavodxonlik ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishning pedagogik asoslari yoritilgan. Mediasavodxonlik tushunchasining mazmun-mohiyati, uning tarixiy ta‘limda tutgan o‘rni, tarixiy manbalarni tanqidiy tahlil qilish, tarixiy axborotni faktologik asosda baholash ko‘nikmalarining shakllanishiga doir masalalar tahlil etilgan. Muallif bo‘lajak tarixchilarni tayyorlashda raqamli texnologiyalar, zamonaviy ommaviy axborot vositalari bilan ishlash, feyk (soxta) axborotni aniqlash va axborot madaniyatini shakllantirishga qaratilgan yondashuvlarni pedagogik jarayon bilan bog‘laydi.

Kalit so‘zlar: mediasavodxonlik, tarixiy tafakkur, axborot madaniyati, tarixiy manbalar, tanqidiy fikrlash, o‘qituvchi tayyorgarligi.

Abstract: The article explores the pedagogical foundations of developing media literacy among future history teachers. It highlights the importance of integrating critical media analysis, source evaluation, and digital competencies into teacher training. Special emphasis is placed on historical thinking, working with historical sources, identifying misinformation, and fostering a responsible information culture through innovative teaching methods and digital tools.

Keywords: media literacy, historical thinking, information culture, source criticism, teacher preparation.

Аннотация: В статье раскрываются педагогические основы формирования медиаграмотности у будущих учителей истории. Рассматривается содержание понятия “медиаграмотность” и его значение в процессе подготовки педагогов, анализируется роль исторического источника в контексте медиакомпетентности, акцент сделан на развитие навыков критического мышления и оценки информации с точки зрения ее достоверности. Автор предлагает интегративный подход к преподаванию, основанный на использовании цифровых технологий и современных медиаресурсов.

Ключевые слова: медиаграмотность, историческое мышление, информационная культура, критическое мышление, подготовка учителей.

KIRISH. Zamonaviy axborot jamiyatida tarix fani o'qituvchilarining axborot manbalarini tahlil qilish, ular orasida haqqoniy va noto'g'ri ma'lumotlarni farqlay olish ko'nikmalariga ega bo'lishi dolzarb masalaga aylandi. Ayniqsa, tarixiy voqealarni yoritishda manipulyativ usullar ko'payotgan bir paytda, bo'lajak o'qituvchilarning mediasavodxonligini shakllantirish ta'limning ustuvor yo'nalishiga aylanishi zarur. Shu bois, bu maqolada bo'lajak tarix fani o'qituvchilarida mediasavodxonlik ko'nikmalarini pedagogik nuqtayi nazardan rivojlantirish masalasi atroflicha tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.

Mediasavodxonlik tushunchasi zamonaviy ta'lim paradigmasida keng ko'lamli kommunikativ, axboriy va madaniy kompetensiyalar tizimini anglatadi. UNESCO ta'rifiga ko'ra, mediasavodxonlik bu insonning media va axborot vositalari bilan ongli, tanqidiy va samarali munosabatda bo'lish qobiliyatidir[3]. Bu tushuncha informatsion va raqamli savodxonlik, tanqidiy fikrlash, axborot manbalarini tahlil qilish, baholash va ulardan mas'uliyatli foydalanishni qamrab oladi.

Tarixiy ta'lim kontekstida mediasavodxonlik ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etadi, chunki tarix — bu doimiy tahlil, baholash va turlicha talqinlar orqali o'rganiladigan fan. Tarixiy ma'lumotlar, ayniqsa ularning ommaviy axborot vositalaridagi talqinlari, ko'pincha siyosiy, mafkuraviy va madaniy kontekstga bog'liq bo'lgan holda keltiriladi. Shuning uchun tarix fani o'qituvchisi tarixiy manbalarni tahlil qilish, fakt va fikrni ajrata olish, turli axborot oqimlarida kontekstual yondashuvni tanlay olish salohiyatiga ega bo'lishi zarur[2].

Bo'lajak tarix fani o'qituvchilari tarixiy voqealarni media vositalari orqali qanday talqin qilinishini chuqur tushunishlari, ayniqsa feyk (soxta) tarixiy axborotlarni aniqlay olishlari lozim. Bu borada tanqidiy fikrlash va axborotni verifikatsiyalash ko'nikmalarini shakllantirish alohida ahamiyatga ega. Masalan, ko'plab tarixiy mavzular ommaviy axborot vositalarida beryoqlama yoritilishi mumkin, bu esa o'quvchilarda noto'g'ri tarixiy tasavvurlar shakllanishiga olib keladi. Tarix o'qituvchisi bunday holatlarda nafaqat o'zi xolis pozitsiyani egallashi, balki o'quvchilarni ham ko'p manbali tahlilga jalb qilishi kerak [5].

MUHOKAMA. Mediasavodxonlikning tarixiy ta'limdagi ahamiyati shundan iboratki, u o'quvchilarni faqat faktlarni yodlashga emas, balki ularni anglash, baholash va mustaqil xulosa chiqarishga o'rgatadi. Shu sababli mediasavodxonlik va tarixiy tafakkur o'rtasida kuchli metodik bog'liqlik mavjud. Tarixiy tafakkur sabab-natija tahliliga, vaqt doirasidagi izchillikka va kontekstual yondashuvga asoslangan bo'lsa, mediasavodxonlik bu tafakkurni raqamli axborot muhitida qo'llash imkonini beradi [6].

Shuningdek, tarixiy ta'limda mediasavodxonlikni rivojlantirish uchun interaktiv materiallar — virtual muzeylar, raqamli arxivlar, tarixiy podkastlar va hujjatli filmlar o'quvchilarning qiziqishini oshirishda va mustaqil o'rganish faoliyatini rag'batlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida yangi turdagi muloqotni vujudga keltiradi[1]. Natijada, mediasavodxonlik tarixiy ta'limda ikki yo'nalishda ahamiyatlidir: birinchidan, u o'qituvchining o'z kasbiy kompetensiyasini boyitadi; ikkinchidan, o'quvchilarning tanqidiy-tarixiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, bo'lajak tarix o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida mediasavodxonlikni pedagogik dasturlarga integratsiya qilish muhim strategik yo'nalish hisoblanadi.

NATIJAR. Zamonaviy ta'limda tanqidiy fikrlash — bu axborotni tahlil qilish, mantiqiy xulosalar chiqarish, mavjud dalillarning ishonchligini baholash va muqobil pozitsiyalarni ko'rib chiqishga asoslangan ongli faoliyat turi hisoblanadi. Tanqidiy fikrlash ko'nikmalari ayniqsa tarixiy ta'limda beqiyos ahamiyatga ega, chunki tarix — bu ko'p manbali, ko'p talqinli fan bo'lib, unda voqealarni faqat faktlar asosida emas, balki kontekstual va tafsiriy yondashuv asosida anglash zarur.

Mediasavodxonlik esa tanqidiy fikrlashni amaliyotga tatbiq etishda eng muhim vositadir. Media muhitida tarixiy axborotlar ko'pincha kontekstdan uzilgan, siyosiy yoki mafkuraviy niyatlar bilan shakllantirilgan bo'ladi. Bo'lajak tarix o'qituvchisi bunday holatlarda axborotni tanqidiy tahlil qilish, tarixiy haqiqatni aniqlash uchun manbalarni solishtirish, ularning ishonchligini aniqlash ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim[2].

Tarixiy tafakkur esa — bu tarixiy voqealarni sabab-natija bog‘liqligi, zamon va makon konteksti, tarixiy shaxslar va ularning qarorlarini tushunish orqali anglash jarayonidir. Bu tafakkur mediasavodxonlik orqali yanada chuqurlashadi, chunki raqamli makonda o‘quvchi turli media mahsulotlar bilan mustaqil ishlashga, ularni solishtirishga va baholashga o‘rganadi[6].

Masalan, tarixiy bir voqeaga oid gazetadagi maqola, hujjatli film, blog posti yoki YouTube sharhini tahlil qilish orqali o‘quvchi faqat tarixiy faktlarni o‘rganmaydi, balki ularning qanday talqin qilinayotganini tushunishga harakat qiladi. Bu jarayonda o‘qituvchi o‘quvchini muqobil fikrlar, dalillarning manbalari, manbaning paydo bo‘lgan davri, mualliflik pozitsiyasi haqida savollar bilan tanishtirishi lozim. Shu orqali tanqidiy fikrlashga asoslangan tarixiy tafakkur shakllanadi[5]. Facione tomonidan ishlab chiqilgan tanqidiy fikrlash komponentlari (muloqotga tayyorlik, dalilni tahlil qilish, baholash, qaror qabul qilish, mulohaza yuritish) tarixiy ta’limda to‘liq tatbiq qilinishi mumkin. Ayniqsa, tarixiy saboqlarda bir voqeani turli davrlarda turlicha talqin etilganini o‘rganish tanqidiy tafakkurni faollashtiradi. O‘zbekiston tarix ta’limi bo‘yicha tadqiqot olib borgan olimlar ham tarixiy tafakkur va tanqidiy fikrlashni uyg‘un holda rivojlantirish zarurligini qayd etgan. Jumladan, F.Eshonqulovning ta’kidlashicha, tarixiy faktlar asosida fikrlovchi shaxs yetishtirish uchun o‘qituvchi nafaqat tarixiy bilim, balki tahliliy va baholovchi metodologiyaga ham ega bo‘lishi kerak[9].

Tarixiy tafakkur va mediasavodxonlik integratsiyasi o‘quvchiga o‘tmishga nisbatan xolis, dalillarga asoslangan va tanqidiy yondashuvda qarash imkonini beradi. Bu esa yosh avlodda nafaqat bilim, balki fuqarolik pozitsiyasi, tarixga nisbatan mas’uliyatli munosabat shakllanishiga xizmat qiladi. Mediasavodxonlikni o‘qituvchilarda rivojlantirish, ayniqsa, tarix fani bo‘yicha mutaxassis tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari uchun strategik-pedagogik vazifalardan biridir. Chunki bu yo‘nalish o‘qituvchidan axborotni izlash, tanlash, tahlil qilish va talabalarga uni puxta tushuntira olish kompetensiyasini talab etadi. Mediasavodxonlik faqat raqamli texnologiyalardan foydalanish bilan

emas, balki axborot madaniyatini shakllantirish, manipulyativ xabarlarini farqlash, feyk yangiliklarni aniqlash va tarixiy kontekstda baholash kabi murakkab ko‘nikmalar bilan uzviy bog‘liq[4].

XULOSA. Pedagogik jihatdan qaralganda, mediasavodxonlikni shakllantirishda konstruktivistik yondashuv muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuvga ko‘ra, o‘quvchi o‘z bilimi va tajribasini mustaqil tarzda quradi, o‘qituvchi esa bilim egallash jarayonini yo‘naltiruvchi rolini bajaradi. Tarixiy matnlar va ommaviy axborot vositalaridagi tarixiy kontentni birgalikda tahlil qilish, turli pozitsiyalardagi tarixiy materiallar bilan ishlash orqali tanqidiy tafakkur va mediasavodxonlik rivojlanadi[8].

Amaliy jihatdan olib qaralganda, mediasavodxonlikni shakllantirish uchun interfaol pedagogik texnologiyalar, loyiha asosida o‘qitish (project-based learning), tadqiqotga asoslangan yondashuv (inquiry-based learning) va media-analitik mashg‘ulotlar qo‘llanilishi lozim. Jumladan, tarixiy mavzuga doir maqolalarni tahlil qilish, tarixiy voqealarni aks ettiruvchi video yoki podkastlarni ko‘rib chiqish, ularning muallifi, yaratilgan vaqti va konteksti asosida baholash bo‘lajak o‘qituvchilarning nafaqat bilimini, balki axborotga tanqidiy munosabatini ham shakllantiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Қосимов Ш.Қ. Таълим жараёнида ахборот-коммуникация технологиялари. –Тошкент: Ўқитувчи, 2020. – 192 б.
2. Раҳимов Ф.Ш. Тарих таълимида инновацион ёндашувлар. –Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2019. – 156 б.
3. UNESCO. Media and Information Literacy Curriculum for Teachers.F.Paris:UNESCO, 2011.-190 p.
4. Potter W.J. Media Literacy. –Thousand Oaks: SAGE Publications, 2013. – 384 p.
5. Турдиев А.Н. Тарихий манбаларни таҳлил қилиш методологияси.-Тошкент: Фан,2017.- 208 б.
6. Назаров Қ.К. Таълимда рақамли саводхонликни шакллантириш. // Педагогика журнали. – 2022. – №2. – Б. 56–61.

TARIX O'QITUVCHILARINING KASBIY METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

*Joldasov Ixtiyar Suyundikovich CHDPU "Tarix" kafedrasida
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)*

IMPROVEMENT OF PROFESSIONAL METHODOLOGICAL TRAINING OF HISTORY TEACHERS

*Joldasov Ikhtiyar Suyundikovich, Doctor of Philosophy in
Pedagogical Sciences, Department of "History", CHDPU, (PhD)*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ УЧИТЕЛЕЙ ИСТОРИИ

*Жолдасов Ихтияр Суюндикович, доктор философии по
педагогическим наукам кафедры "История" ЧГПУ (PhD)*

<https://orcid.org/0000-0003-3020-5202>

e-mail:

joldasovixtiyor1@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarix o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish va kasbiy rivojlantirishning ilmiy-pedagogik muammolari tadqiq qilingan. tarix o'qituvchilarini kasbiy rivojlantirish tamoyillari, nazariy va pedagogik jihatlari ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: bo'lajak tarix o'qituvchilari, kasbiy kompetensiya, didaktik bilim.

Abstract: In this article, the scientific-pedagogical problems of improving methodical preparation and professional development of history teachers are studied. principles of professional development of history teachers, theoretical and pedagogical aspects are scientifically based.

Key words: Future history teachers, professional competence, didactic knowledge.

Аннотация: В данной статье исследуются научно-педагогические проблемы совершенствования методической подготовки и профессионального развития учителей истории. Принципы профессионального развития учителей истории, теоретические и педагогические аспекты научно обоснованы.

Ключевые слова: Будущие учителя истории, профессиональная компетентность, дидактические знания.

KIRISH. Hozirgi vaqtda bo'lajak tarix o'qituvchilari metodik tayyorgarligini takomillashtirishda, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z o'rnida foydalanish bilan bir qatorda xalqaro baholash dasturlari bilan ham chambarchas bog'liq. O'qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligi ularning kasbiy faoliyatga doir bilimlar, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, o'z-o'zini rivojlantirish kabi asosiy kasbiy faoliyat sohaslarida aks etadi. Bu esa o'z navbatida, o'qituvchining o'z fanini o'qitishga doir bilimlarni mukammal bilishi va harakatga keltirishi, ta'lim jarayonini loyihalash,

tashkil qilish va baholash uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarni egallashi, shuningdek, o'qitish va tarbiyalash jarayonini ta'lim sohasidagi innovatsion ilmiy yutuqlar, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida intensiv tashkil etish, uzluksiz va tizimli o'z-o'zini rivojlantirishni talab etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.

Bu o'rinda kompetensiyaga kelib to'xtalsak, har bir kasbiy kompetensiya talabning kasbiy muammolarini hal qilishda talab qilinadigan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va tajribaning shakllanish darajasini, shuningdek, uning individual va shaxsiy

fazilatlarini aks ettiruvchi bir qancha tarkibiy qismlardan iborat.

Taraqqiy etgan davlatlarda bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda: bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini rivojlantirish; bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini zamonaviy talablar darajasida boshqarishni ta'minlash; bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini tashkil etishda innovatsion yondashish; bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini tashkil etishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish; bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish metodikasini ishlab chiqish[1].

MUHOKAMA. Pedagog olimlar tomonidan kasbiy-pedagogik kompetensiyalar shartli ravishda quyidagi tarkibiy qismlarga ajratilmoqda:

- Kommunikativlik kompetensiyasi. Jamiyatda o'zaro muloqotga kirishish uchun, avvalo, ona tili va birorta xorijiy tilni o'zlashtirib, ulardan muloqotda samarali foydalana olish;

- Axborot bilan ishlash kompetensiyasi. Mavjud media manbalar (internet, teleradio, audio-video yozuvlar, bosma nashrlar, elektron pochta va boshqalar)dan kerakli ma'lumotlarni izlab topa olish, saralash;

- Kompetensiyani tavsiflovchi eng muhim jihatlardan biri bu tashabbuskorlikdir. Bu faoliyatning yangi shakllariga ichki uyg'onish, har qanday harakatda yetakchi rol o'ynaydi. Tashabbus – bu inson tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy faoliyatning bir turi. Tashabbus insonning ijtimoiy me'yorlarga sodda rioya qilishdan ko'ra, ko'proq mas'uliyat yuklashi bilan tavsiflanadi. Ta'lim taraqqiyotining hozirgi bosqichi oldingilaridan, birinchi navbatda o'qituvchining roli bilan ajralib turadi. U o'z bilimlari va yondashuvlarining butun tuzilmasini qayta ko'rib chiqish zarurligini his qiladi, muhim savollarga javob topishga intiladi: "O'quv jarayonini qanday tashkil qilish kerak?" "O'rganish qachon samarali ta'limga erisha oladi?"[2] Shubhasiz, didaktika – bu ta'lim rivojlanishining ushbu bosqichida paydo bo'ladigan muammolarni hal qilish uchun mo'ljallangan fan, chunki didaktik bilimlar o'quv jarayoniga axborot va funksional jihatlarining yaxlit tizimi sifatida qaratilgan. Ushbu

pozitsiyalardan o'qituvchi o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida, ijtimoiy-psixologik, uslubiy va didaktik kompetensiyaga ega bo'lishi kerak. Didaktika J.A.Komenskiy davrida paydo bo'lganidan boshlab, hozirgi kunga qadar o'quv jarayonini qanday loyihalash va amalga oshirishni belgilab berdi. Aksariyat hollarda o'quv jarayonidagi o'zgarishlar didaktikada ishlab chiqilgan, metodologiyada aniqlangan va amaliyotda sinab ko'rilgan nazariy tamoyillar asosida sodir bo'lmoqda.

Tadqiqotchi olim I.I.Logvinov didaktik bilimlarni tahlil qilib, uni ilmiy emas, balki ma'naviy va amaliy deb tasnifladi. Ushbu sohalaridagi didaktik bilimlar turli yo'llar bilan, xususan, o'rganish nazariyasida tajriba orqali olinadi[3]. Shunday qilib, I.I.Logvinov didaktik bilimning manbai bevosita o'qitish amaliyoti ekanligini ta'kidladi. O'qitishning bevosita amaliyoti, to'g'rirog'i, uni tavsiflash, tizimlashtirish va tahlil qilish empirik darajada bilim beradi. Yuqoridagi fikrlarni qo'llab-quvvatlagan holda, biz o'qituvchining kasbiy pedagogik faoliyati maxsus tayyorgarlikni talab qiladi, deb hisoblaymiz, bunda didaktik tayyorgarlik markaziy o'rinni egallaydi. Ikkinchisining integrativ xususiyati didaktik kompetensiya kasbiy kompetensiyaning ajralmas qismidir. Talabaning didaktik tayyorgarligi bu talabaning didaktik kompetensiyasini rivojlantirishga, uning o'quv va uslubiy ko'nikmalarni egallashini ta'minlashga, samarali didaktik o'zaro ta'sirga tayyorligini va ta'lim tashkilotida o'quv jarayonini rivojlantirishga qaratilgan uzluksiz pedagogik jarayondir.

NATIJARLAR. Talabalar tafakkuri, asosan, o'qish, amaliy mashg'ulot va mustaqil bilim olish faoliyatlarida jadal va uzluksiz ravishda rivojlanadi. Goho ma'ruza jarayoni ulardan reproduktiv tafakkurni taqozo etsa ham, lekin amaliy mashg'ulotlar, mustaqil topshiriqlar, laboratoriya topshiriqlari produktiv (ijodiy) fikr yuritish faoliyatini talab qiladi. Har ikkala ta'lim shakli ham o'quvchi-talabalar aqliy mehnati, maqsadga yo'naltirilgan va muvofiqlashtirilgan diqqati yordami bilan amalga oshadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy iqtisodiyotning nazariy, amaliy va uslubiy asoslarini, tadbirkorlik va biznes qonuniyatlari yuzasidan chuqur nazariy metodologik, ilmiy-uslubiy xususiyatdagi bilimlar o'zlashtiriladi. Oliy ta'lim muassasasida amaliy mashg'ulotlarni tashkil qilish umumdidaktik

tamoyillarga to'liq tayanadi: ilmiylik, uzviylik, tushunarlik, puxtalik, ko'rgazmalilik, differensial yondashuv, yakka yondashuv, onglilik. Umumdidaktik va boshqa tamoyillarning integratsiyasiga asoslangan holda amaliy mashg'ulotni didaktik nuqtai nazardan didaktik tavsiflash muhim ko'rinadi. Tadqiqotimizda buning uchun biz quyidagi tavsif sxemasini taklif qildik:

1) ta'lim amaliyotida muammoni hal qilish (muammoning kelib chiqishi, uning pedagogik voqelikda qanday namoyon bo'lishi, uni hal qilish qanchalik muhimligi);

2) amaliy mashg'ulotlarning didaktik asoslari (agar asoslar falsafiy, madaniy xususiyatga ega bo'lsa, ular didaktikaga o'zgartiriladi va moslashtiriladi);

3) mashg'ulotlarda maqsadlarni ko'rsatadigan, unda qimmatli deb e'tirof etilgan obyektlarni tavsiflovchi amaliyotning maqsad-qiyamat komponenti;

4) mashg'ulotda amalga oshirilgan ta'lim mazmuni (bu an'anaviy ta'lim mazmuni bo'lishi mumkin, to'ldirilishi va kengaytirilishi yoki tubdan o'zgartirilishi, bundan tashqari, boshqa asoslar bo'yicha tanlangan bo'lishi mumkin);

5) mashg'ulotda o'quv jarayonini tashkil etish usullari, shakllari, fundamental g'oyalarni amalga oshirish vositalari;

6) natijalarni baholash (haqiqatda mavjud bo'lganidan sezilarli darajada farq qilishi mumkin);

7) o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning tabiati.

Ta'kidlash joizki, talabalarning didaktik kompetensiyasi kasbiy kompetensiyaning eng muhim tarkibiy qismi sifatida tizimli va fanlararo xususiyatga ega bo'lib, shaxsiy va faoliyat tomonlarini o'z ichiga oladi, amaliy va gumanistik yo'naltirilgan bo'lib, uning mazmunli faoliyatini kuchaytirishga yordam beradi. Talabalar uchun zamonaviy o'quv dasturlari (Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti, malaka talablari) pedagogika universitetlarida talabalarning didaktik kompetensiyasini shakllantirishni to'liq ta'minlamaydi. Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlariga muvofiq, o'quv jarayonining markaziy

vazifasi talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishdir.

XULOSA. Shunday qilib, shu munosabat bilan pedagogika fanida pedagogika oliy o'quv yurti talabari o'rtasida didaktik kompetensiyani rivojlantirish vositalari va usullarini izlash hamda ushbu jarayonni o'rganishga metodik yondashuvlar yangilanmoqda, bu esa pedagogika fanining empirik tajribasini boyitadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Yarmatov R.B. Bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish: Toshkent, 2020. - 70 b.
2. Храмова, Е. В. К вопросу развития дидактической компетентности преподавателя вуза / Е.В.Храмова // Вестник Новгородского государственного университета им. Ярослава Мудрого. - 2010. - № 58. - С. 51-54.;
3. Логвинов И.И. Актуальные проблемы современной дидактики (полемиические рассуждения). М.: НОУ ВПО МПСУ; Воронеж: МОДЭК, 2013. С. 117.
4. Joldasov I.S. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda zamonaviy yondashuvlar // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. – 2023. – В. 284-286.
5. Joldasov I.S. Yordamchi tarix fanlarini o'qitishda fanlararo aloqalarning o'rni // Tamaddun nuri. – 2024. – №4. – В. 341-343.
6. Joldasov I.S. Talabalarda amaliy kompetensiyani shakllantirishning axborot-loyiha texnologiyalari// Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў Илимий-методикалык журнал. – 2024. – № 3/3. – Б. 767-771.
7. Joldasov I.S. Methodology for the formation of professional competence of future teachers // Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods. Volume 2, Issue 4, 2024.
8. Joldasov I.S. Tasks Implemented in Professional Schools to Send Students to Professions // International Interdisciplinary Research Journal: Vol 2. Issue 2. 2023.

O‘ZBEKISTON MUSTAQILLIGINING DASTLABKI YILLARI TURK MATBUOTI NIGOHIDA

*Toshev Solejon Ahmatjonovich, ChDPU “Tarix” kafedrasida katta
o‘qituvchisi*

THE FIRST YEARS OF UZBEKISTAN’S INDEPENDENCE IN THE EYES OF THE TURKISH PRESS

*Toshev Solejon Ahmatjonovich, Senior Lecturer, Department of
History, ChDPU*

ПЕРВЫЕ ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ УЗБЕКИСТАНА ГЛАЗАМИ ТУРЕЦКОЙ ПРЕССЫ

*Тошев Солежон Ахматжанович, старший преподаватель
кафедры истории ЧГПУ*



<https://orcid.org/0009-0004-7224-1628>

e-mail:

toshevsolijon504@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasining 1991-yilda mustaqillikka erishganidan keyin Turkiya ommaviy axborot vositalarida qanday aks ettirilgani tahlil qilinadi. Dastlabki yillarda turk matbuoti tomonidan O‘zbekistonning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti qanday yoritilgani, mamlakatlar o‘rtasidagi tarixiy-madaniy yaqinlik fonida axborot oqimi qanday shakllangani o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, mustaqillik, Turk matbuoti, Turkiya, ommaviy axborot vositalari, siyosiy imij, xalqaro e’tirof.

Аннотация: В статье анализируется, как Республика Узбекистан была представлена в турецких СМИ с момента обретения ею независимости в 1991 году. В ней рассматривается, как турецкая пресса освещала политическую, экономическую и культурную жизнь Узбекистана в первые годы, и как поток информации формировался на фоне исторической и культурной близости между странами.

Ключевые слова: Узбекистан, независимость, турецкая пресса, Турция, средства массовой информации, политический имидж, международное признание.

Abstract: This article analyzes how the Republic of Uzbekistan was reflected in the Turkish media after it gained independence in 1991. It studies how the political, economic and cultural life of Uzbekistan was covered by the Turkish press in the early years, and how the flow of information was formed against the background of historical and cultural proximity between the countries.

Keywords: Uzbekistan, independence, Turkish press, Turkey, media, political image, international recognition.

KIRISH. Turkiya va O‘zbekiston munosabatlari yuzlab yillik tarixga ega bo‘lib, ikki mamlakat o‘rtasidagi ko‘p qirrali va chuqur aloqalar asrlar davomida turli daraja va shakllarda davom etib kelmoqda. Turkiya 1991-yil 16-dekabrda O‘zbekiston mustaqilligini tan olgan birinchi davlat bo‘ldi va 1992-yil 4-martda ikki mamlakat o‘rtasida diplomatik aloqalar o‘rnatildi. Turkiya O‘zbekiston bilan har sohada hamkorlikni rivojlantirishga katta ahamiyat berdi va ikki xalq o‘rtasidagi yaqin aloqalarga tayangan holda munosabatlarni ilgari surishga harakat qildi. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan beri o‘tgan 34 yil ichida turk-o‘zbek munosabatlari ko‘tarilish va pasayishlar bilan

kechdi. Bunda asosan O‘zbekiston rahbariyatining siyosiy tanlovlari hal qiluvchi omil bo‘ldi.

2016-yil noyabr oyida Turkiya Prezidenti Erdo‘g‘anning O‘zbekistonga tashrifi va oradan ko‘p o‘tmay, 2016-yil dekabr oyida Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston prezidenti etib saylanishi bilan Turkiya-O‘zbekiston munosabatlari yangi davrga kirdi va shu kungacha ijobiy tarzda rivojlanib bormoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.

1991–1995-yillar oralig‘ida Turkiya matbuotida O‘zbekiston haqida safar eslatmalari va maqola turkumlari alohida ajralib turgani ko‘rinadi. O‘nlab yillik aloqalardan so‘ng tashqi dunyoga ochilgan

mintaqa davlatlari, jumladan O‘zbekistonni tanish zarurati bu maqolalarning asosiy sabablaridan biri bo‘lgan. “Osiyo turk respublikalari va Turkiya”, “Xazar dengizidan Issiqko‘lga turk xalqlari”, “Osiyo yarimoyida turk yulduzi”, “Xazardan Tyan-Shangacha yangi shakllanishlar jarayonida Markaziy Osiyo va Kavkaz respublikalari”, “Yangi turk dunyosi va demokratiya”, “Yangi respublikalar va Turkiya” hamda “21-asr bo‘lag‘asida turk respublikalari” kabi sarlavhalar ostida chiqqan maqola turkumlari yangi davrni va respublikalarni tushunishga bo‘lgan intilishni aks ettiradi[1].

Bu maqolalar mualliflari orasida o‘sha davrning taniqli jurnalistlari Mehmet Turgut, Nur Batur, Cengiz Chandar, Bilal N. Shimshir, Fuat Bozkurt, Ardan Zenturk kabi nomlar bilan birga siyosatchi Bülent Ejevitting ishtirok etgani ham diqqatga sazovordir. O‘zbekiston haqidagi gazeta xabarlari, asosan, prezidentlararo yoki yuqori darajadagi siyosiy aloqalar bilan bog‘liq bo‘lgani e‘tiborga loyiq. Shuningdek, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlar va o‘zbek oshxonasi haqida maqola turkumlari ham ko‘p uchraydi. Bular bilan birga, turk matbuotida O‘zbekistonga oid boshqa voqealar yetarlicha yoritilmagan va ko‘p hollarda xalqaro axborot agentliklarining pozitsiyalari asosida yozilganini aytish mumkin.

Ushbu tadqiqot Sovetlardan keyingi Markaziy Osiyoni doktorlik dissertatsiyasi mavzusi sifatida tanlagan muallifning shaxsiy qiziqishi va imkoniyatlari bilan tuzilgan arxivga tayanadi. Yillar davomida chet ellarda xizmat safarlari va sayohatlar tufayli ayrim oylar/yillar hujjatlarida kamchiliklar bo‘lishi tabiiydir.

MUHOKAMA. 1991-yil 31-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi o‘zining mustaqilligini e‘lon qildi. Bu nafaqat ichki siyosiy muhitda, balki xalqaro ommada ham katta voqea bo‘ldi. Ayniqsa, turk dunyosi, jumladan Turkiya, O‘zbekistonning mustaqilligini mamnuniyat bilan qabul qildi. Turkiya Respublikasi O‘zbekiston mustaqilligini eng birinchi tan olgan davlatlardan biri bo‘ldi (1991-yil 16-dekabr). 1992-yil 4-martda ikki davlat o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatildi. 1992-yil aprel oyida O‘zbekistonda ochilgan xorijiy elchixonalarining birinchisi Turkiya Respublikasini edi. 1993-yil yanvar oyida O‘zbekistonning Turkiyadagi elchixonasi ochildi[2].

Turk matbuotida mustaqillikning ilk yillarida mamlakatda amalga oshirilayotgan siyosiy

islohotlar, barqaror ichki siyosiy muhit va zamonaviy davlat qurilishi borasidagi harakatlar ijobiy ruhda yoritildi. O‘zbekistonning iqtisodiy va siyosiy suverenitetni mustahkamlash borasidagi sa‘y-harakatlari, ayniqsa, milliy identifikatsiyani tiklash, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tish hamda xalqaro hamjamiyatga integratsiyalashish yo‘lidagi harakatlari, Turkiya matbuoti va siyosiy elitalarida katta qiziqish uyg‘otdi. Mustaqil O‘zbekiston haqidagi maqolalar, xabarlar yetakchi gazeta va jurnallarda keng yoritildi[3]. Shuningdek, o‘tish davridagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolar tahliliga bag‘ishlangan maqolalar e‘lon qilindi.

Jumladan, “Milliyet” gazetasining 1991-yil 28-dekabr sonida Bilal Simşir muallifligida chop etilgan “Amaliy ishga kirishish vaqti keldi” nomli maqolada Turkiyaning yaqinda mustaqillikka erishgan turkiy respublikalari bilan aloqalar o‘rnatish va hamkorlik yo‘lida amalga oshirilayotgan siyosiy va iqtisodiy harakatlar tahlil etiladi. Mazkur maqolada Turkiyaning sovet ittifoqi parchalanishi ortidan mustaqillikka erishgan turkiy respublikalarga nisbatan olib borgan tashqi siyosatining yangi bosqichini tahlil qiladi. Unda “tan olish” va “tanishish” davrining tugagani, endilikda esa “amaliy hamkorlik” davrining boshlangani ta‘kidlanadi. Bu yondashuv Turkiyaning mintaqadagi geosiyosiy rolini kuchaytirishga qaratilgan strategik harakatlar kontekstida baholanishi mumkinligi qayd etiladi. 1991-yil davomida Turkiya barcha mustaqil bo‘lgan turkiy respublikalar qatori O‘zbekiston respublikasini rasman tan olgan va diplomatik aloqalar o‘rnatganligi, endilikda esa, siyosiy bayonotlar va diplomatik tashriflardan iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, sog‘liqni saqlash, madaniy va ta‘lim sohalarida aniq dastur va bitimlarga o‘tish zaruriyati yuzaga kelgani, bu holat Turkiya tashqi siyosatining ko‘p qirrali amaliy model sari yo‘naltirilgani misollar bilan ko‘rsatib o‘tiladi. Maqola ostida “Shartnomalar” sarlavhasi ostida turli turkiy davlatlar bilan imzolangan bitimlar sanab o‘tilgan. Bu bitimlar Savdo-iqtisodiy hamkorlik, madaniy almashinuv va ilmiy hamkorlik, diplomatik vakolatxonalar ochilishi, tibbiyot va ta‘lim sohasidagi protokollar shaklida bo‘lgan. Maqolada ilova qilingan hujjatlarda Turkiyaning diplomatik aloqalarni institutsional darajaga olib chiqish strategiyasi doirasida shakllangani, shuningdek, mintaqaviy

integratsiyaga bo'lgan e'tiborini ko'rsatadi[4]. Turkiya tomonidan bunday yondashuv, bir tomondan, postsovet makonida vujudga kelgan yangi mustaqil turkiy respublikalarga strategik va madaniy yaqinlik asosida yaqinlashish istagini bildirsa, ikkinchi tomondan, Turkiyaning mintaqadagi yetakchilik ambitsiyalarini ham namoyon etardi. Bu tashrif nafaqat diplomatik darajadagi tashrif sifatida, balki keng geosiyosiy mazmun kasb etgan voqea bo'lib, xalqaro maydonda O'zbekistonning yangidan shakllanayotgan tashqi siyosiy kursining birinchi namoyanlaridan biri sifatida ham muhim ahamiyat kasb etdi.

NATIJALAR. "Hurriyat" gazetasidagi 1992-yil 1-aprel sanasida yoyinlangan yana bir xabarda O'zbekiston iqtisodiy holati tahlil qilinadi. Unda aytilishicha, O'zbekiston SSSR tarkibida qishloq xo'jaligi sohasida katta ahamiyatga ega bo'lgan hudud edi. Ayniqsa, paxta ishlab chiqarish bo'yicha strategik ahamiyatga ega edi. Biroq mustaqillikdan so'ng bu sohadagi ishlab chiqarish katta qiyinchiliklarga duch keldi. 1992-yilga kelib ham yillar davomida markazlashgan iqtisodiyot ta'sirida bo'lga mamlakatning iqtisodiy mustaqilligi hali to'liq ta'minlanmagan deb xulosa qilinadi[5].

1989-yilning mayida Farg'onada o'zbeklar va mesxeti turklari o'rtasida dahshatli qirg'inga aylangan ommaviy to'qnashuvlar boshlanib ketdi, butun Farg'ona olov ichida qoldi. Ziddiyat to'liqini o'sha kezlar respublika aholisining qariyb yarmi yashayotgan Farg'ona vodiysini butunlay o'z domiga olishi mumkin edi. Farg'ona hodisalari payti 100 dan ziyod kishi qurbon bo'ldi, mingga yaqin inson jarohatlandi[6]. Mazkur muammo Turkiya matbuoti nigohidan chetda qolmadi. Turkiyaning mashhur nashri bo'lgan "Hurriyat" gazetasida "O'zbeklar ham sizdan, mesxetilar ham" sarlavhasi ostida maqola e'lon qilindi. Maqolada Sovet Ittifoqi parokandalik davrida (1980-yillarning oxiri – 1990-yillarning boshlarida) mesxeti turklarining og'ir taqdiri, ularning vatansizlik, etnik bosim va siyosiy beqarorlikka duch kelgan holati yoritilgan[7]. Asosiy urg'u Moskva hukumatining bu masalaga nisbatan munosabati va Turkiyaning ularni himoya qilish istagiga qaratilgan. 1989-yilgi Farg'ona voqealaridan keyingi vaziyat tasvirlanadi. Bu davrda

O'zbekistonda yashovchi mesxeti turklari mahalliy aholi bilan mojarolari chuqur ijtimoiy inqiroz natijasi sifatida ko'rsatiladi. Moskva bu vaziyatda befarq qolgani, Turkiya mesxeti turklarini himoya qilmoqchi bo'lganida, Sovet hukumati bunga qarshi bo'lgani alohida ta'kidlanadi. Turkiyaning yordam harakatiga nisbatan Moskvaning pozitsiyasi – "O'zbeklar ham sizdan, mesxetilar ham sizdan... hammangiz bir xalq bo'lsangiz, hammasiga siz egalik qilmoqchisizmi?" qabilida javob qaytarilganligini muallif Moskvadagi siyosiy elitani Turkiyaning turkiy xalqlarga bo'lgan mehribonligi va yaqinligidan xavfsirash, hamda Turkiyaning mintaqadagi ta'sir doirasini kengaytirishidan qo'rquv natijasi deb izohlaydi.

XULOSA. Turkiya hukumati mesxeti turklarining tarixiy yurtlariga qaytishini qo'llab-quvvatlagan. Ammo muammo shundaki, bu masalada xalqaro bosim, yetarli diplomatik kuch va mustaqil siyosiy qarorlar yetishmaganligi tanqid qilinadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Fahri SOLAK. Bağimsizliğinin 30 yilinda türk basininda Özbekistan. Türk Dünyası Belediyeler Birliği (TDBB), Yayın No: 32. İstanbul, 2021.
2. O'zbekiston – Turkiya: Tarix va islohotlar mushtarakligi. <https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston--turkiya-tarix-va-islohotlar-mushtarakligi> (2025).
3. Hurriyat gazetasining 1992-yil 14-aprel soni.
4. Milliyet gazetasining 1991-yil 28- dekabr soni.
5. S.Toshev. THE ROLE OF TURKISH SCIENTIFIC AND ANALYTICAL CENTERS IN STUDYING THE HISTORY OF UZBEKISTAN (THE EXAMPLES OF TIKA AND TURKSOY). Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods Volume 2, Issue 6, June, 2024 <https://westerneuropianstudies.com/index.php/>
6. Toshev Solejon Ahmatjonovich. O'zbekiston tarixini o'rganishda Turkiya ilmiy markazlari va turk matbuotining o'rni. TAMADDUN NURI. 2024-yil, 8-son (59). - B. 317-320.
7. Solejon Toshev. STUDY OF THE LATEST HISTORY OF UZBEKISTAN IN TURKEY. Look to the past. 2021, vol. 4, issue 5, pp.57-62.

GENERAL JO'RABEKNING JADIDCHILK HARAKATLARIDAGI ISHTIROKI

*Parmonov Sharofiddin Shavkatovich, g ChDPU "Tarix" kafedrasida
o'qituvchisi*

PARTICIPATION OF GENERAL JURABEK IN JADIDIST MOVEMENTS

*Parmonov Sharofiddin Shavkatovich, Teacher of the Department
of History, ChDPU*

УЧАСТИЕ ГЕНЕРАЛА ДЖУРАБЕКА В ДЖАДИДСКИХ ДВИЖЕНИЯХ

*Пармонов Шарофиддин Шавкатович, преподаватель
кафедры "История" ЧДПУ*



<https://orcid.org/0009-0009-2602-1030>

e-mail:

Parmonovsharofiddin96@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada general-mayor Jo'rabek Qalandar qori o'g'lining XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Turkistonda bo'lgan ma'rifatchilik jarayonlarida va jadidchilik harakatlardagi ishtiroki, Turkistonga tashrif buyurgan ma'rifatparvarlar bilan uchrashuvlari tafsilotlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, Turkiston, Buxoro amirligi, Shahrisabz bekligi, Kitob bekligi, Sirdaryo viloyati, Toshkent, Qorasuv, SAGU (O'zMU), "Tarjimon" gazetasi, Sven Gedin, Lev Tolstoy, Furqat Zokirjon Xolmuhammad o'g'li, Fansurullohbek, kenagaslar.

Abstract: This article covers the details of the participation of the son of Major General Zhurabek Qalandar qori in the Enlightenment processes and jadidist movements in Turkestan in the late 19th and early 20th centuries, his meetings with the enlighteners who visited Turkestan.

Keywords: Central Asia, Turkestan, emirate of Bukhara, shahrisabz station, Book station, Syrdarya region Tashkent, Karasuv, SAGU (Uzmu), "translator" newspaper, Sven Gedin, Lev Tolstoy, Furqat Zakirjon Kholmuhammad son, Fansurullohbek, kenagas.

Аннотация: В этой статье освещаются подробности участия генерал-майора Джурабека Каландара кары оглы в просветительских процессах и джадидистских движениях в Туркестане в конце XIX-начале XX века, встречи с просветителями, посетившими Туркестан.

Ключевые слова: Центральная Азия, Туркестан, Бухарский эмират, Шахрисабзское бекство, Китабское бекство, Сырдарьинская область, Ташкент, Карасув, САГУ (Узбекистан), газета "Переводчик", Sven Gedin, Лев Толстой, Фуркат Закирджон Холмухаммед оглы, Фансуруллахбек, кенагас.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ) / INTRODUCTION. XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy vaziyat mahalliy aholining vatanparvar, ma'rifatparvar ziyolilari va ulamolarini tashvishga solmasdan, o'ylantirmasdan qolmadi. Ular o'lkadagi voqelikni, uni keltirib chiqargan sabablarni tahlil qilib, ahvol shu tarzda davom etishi mumkin emasligini tushunib yetdilar. Natijada Turkiston hayotidagi inqiroz, chor Rossiyasining Turkistonda o'rnatgan mustamlakachilik tuzumi, sotqin mahalliy

amaldorlar, umuman, mavjud ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tuzumga qarshi mazmun-mohiyatiga ko'ra uch yo'nalishdagi harakatlar yuzaga keldi. Ulardan birinchisi – o'z asarlari orqali real voqelikni, jamiyatning kamchiliklarini ochib berib, kishilarni taraqqiyotga xizmat qilishga chaqirgan shoir va yozuvchilar ijodi bo'lsa, ikkinchisi – mahalliy aholini taraqqiyotga erishish g'oyasi asosida birlashtirishga harakat qilgan jadidlar harakati va uchinchisi – mavjud tuzumni inqilobiy yo'l bilan o'zgartirishni, ya'ni hokimiyatni qurol kuchi bilan

qo'lg'a olishni maqsad qilib olgan sotsial-demokratlar va boshqa rus tilli kishilar tashkilotlarining harakatidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / MATERIALS AND METHODS). Ushbu mavzuni o'rganishda bir qator maxsus manbalar mavjud bo'lib, ushbu manbalar orasida Sven Gedin o'zining "Osiyo yuragi" asarida Jo'rabek Qalandar qori o'gli haqida juda samimiy fikrlar bildiradi. Yana bir manba Yujen Skaylarning Turkiston asarida ham General Jo'rabekning hayoti va faoliyati haqida ma'lumotlar berilgan. Sh.Yusupov, Ismoil Gaspirali, V.V.Bartold, Sh.Umarov, Norqobil Jalil va Ro'zimboy Hasan kabi olimlarning asarlarida va O'zbekiston Respublikasi Milliy Arxivi I fondi materiallarida yuqorida ta'kidlangan masalaning u yoki bu jihatlariga e'tibor bergan holda o'z asarlarida tegishli masala mohiyatini yoritib berganlar.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS) Jo'rabek Qalandar qori o'gli ham ikkinchi yo'nalishning qizg'in tarafdori edi. Uning Turkiston hayotidagi inqirozdan chiqish uchun o'sha davrda qo'lidan kelgan barcha tadbirlarni amalga oshirishga kirishadi. Shu davrda Turkistonga tashrif buyurgan chet ellik sayyohlar va olimlarning barchasi bilan suhbatlar qiladi, o'z uyiga taklif qilib ular bilan qizg'in bahs va munozaralarga kirishadi. Masalan, Turkistonga 1893-yilda kelgan shved sayyohi Sven Gedin bilan uchrashgani haqida Sven Gedin o'zining "Osiyo yuragi" asarida Jo'rabek Qalandar qori o'gli haqida quyidagicha yozadi. Sven Gedin Jo'rabek Qalandar qori o'glining dunyoqarashi kengligi, yurti tarixidan boxabarligi uni maftun qilib qo'yadi. Sven Gedin Qorasuvdagi Jo'rabekning uyida bir necha marta mehmon bo'ladi, u yerdagi boy kutubxonadagi kitoblar bilan tanishadi, ayrim asarlar noyobligi, hali ularni uchratmagani uchun kerakli sahifalaridan ko'chirmalar oladi. Arabiy, forsiy yoki turkiy tildagi bu kitoblardagi mehmonni qiziqtirgan o'rinlarni mezbon tarjima qilib beradi. "Jo'rabekning hayoti, tarjimai holi misoli Sharq ertaklari qahramonlari hayotiga o'xshab ketadi", deya ta'sirlangan sayyoh "Osiyo yuragi" nomli asarining bir necha sahifasini Jo'rabekka bag'ishlab, o'zini hayratga solgan qahramonning tarjimai holi va boshqa voqealarni keltiradi. Sven Gedin Jo'rabekka shunday baho

beradi: "Markaziy Osiyo tarixida katta rol o'ynagan siymo!"[1]

Jadidlar otasi Ismoilbek Gaspirali Toshkentga kelganida Jo'rabek dodxoh bilan maxsus uchrashib, uning "Tarjimon" gazetasi fidoyilaridan biriga aylanishida, o'lkadagi yangi usul maktablari faoliyatida qizg'in qatnashuvida jiddiy rol o'ynagan. Bu haqda Ismoil Gaspirali, Bartold quyidagilarni yozib qoldirgan: Toshkentda anchagina katta musulmon ziyolilar jamiyatini ko'rib, benihoya xursand bo'ldim. Osiyo o'rtasida, bu chet va uzoq o'lkada bunchalar o'qigan va ma'lumotli musulmonlarni uchratish kimning xayoliga kelibdi dersiz! Bularning ko'pchiligi davlat xizmatidagi harbiy va mulkiy ma'mur-u mansabdorlar bo'lib, bir nechasi shu yerlik edi va bir ko'pi Vo'lga va O'rol taraflaridan kelgan va bir-ikkisi qirg'iz zodagonlari o'laroq Toshkentda alohida bir jamiyat ekan. Ikki tabib, bir necha subay-ofitser yigitlar, bir necha davlat amaldorlari to'planishdi; Turkiston ahlidan Bobobek, ota-o'g'il Jo'rabeklar va Mirhaydar Mirbadalov janoblari bu ziyoli guruhni tashkil etadirlar. Toshkentda bu kabi ziyolilar, zodagonlar, muslima xotinlar fikr-u qarashlarini o'rganib, ongimda ularning turmushiga oid anchagina yaxshi tushunchalar, ko'nglimda ezgu hissu tuyg'ular paydo bo'ldi[2].

Turkiston general-gubernatori tuzog'iga xiyonat yo'li bilan tushirilgan Jo'rabek 1870-yildan to umrining oxirigacha (1906-yil) Toshkentda va Toshkent yaqinidan o'zi sotib olgan Qorasuvda umr o'tkazdi. Butun shu davr ichida Jo'rabek o'lka ijtimoiy- madaniy hayotida faol qatnashdi. Jo'rabek avvalo o'z xalqining o'tmishdagi boy madaniy merosiga zo'r ixlos bilan qarar, mullo bobolarimiz qoldirgan noyob xazinalarni topish, jamlash va kelgusi avlodlarga qoldirishni o'z faoliyatining asosiy maqsadlaridan deb bilar edi. Jo'rabekning shaxsiy kutubxonasidagi ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan nodir qo'lyozmalar bilan maxsus tanishish uchun mashhur rus sharqshunosi akademik V.V.Bartold 1902-yilda bir muncha muddat uning Qorasuvdagi uyida qolib ketgan edi. Toshkentda uy qamog'ida saqlangan katta iqtidor Jo'rabek tez orada rus tilini o'rganib oladi, zotan busiz polkovnik sifatida rus qo'shinlariga qo'mondonlik qilishning umuman iloji yo'q edi. Keyinchalik Jo'rabekni ta'riflab, N.P.Ostroumov o'z kundaliklarida bunday yozgan edi: "Jo'rabek donishmand va kishilarni

tushunadigan odam. U rus tilida qanoatlanarli gapiradi”[3].

MUHOQAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Jo‘rabek bora-bora rus klassik adabiyotining eng mashhur namoyandalari, jumladan, Lev Tolstoy ijodiga mustaqil baho bera oladigan darajaga erishadi. O‘sha davrning yirik rus ziyolilaridan biri shu munosabat bilan yozib qoldirgan fikrlar ayniqsa qimmatlidir. “Graf L.Tolstoy haqida Jo‘rabek ehtirom bilan gapirdi: “U donishmand adib va nimaiki yozsa, o‘zi his qilib yozadi. Bunaqasi sizlarning ham, bizlarning ham yozuvchilarimiz orasida kam topiladi”[4].

Chorizmning Turkistonda yurgizgan siyosatiga Jo‘rabekning munosabati haqida uning zamondoshlari qiziqarli fikrlar bayon etganlar. “Salmoqli kutubxona sohibi bo‘lgan va ko‘plab tarix kitobini o‘qigan Jo‘rabek, - deb yozgan edi. V.V.Bartold, men bilan suhbat chog‘ida ruscha idora usulini mo‘g‘ulcha idora usuli bilan asosli ravishda teng qo‘ydi”[5]. N.Ostroumov 1903-yil 1-fevral kuni Jo‘rabek bilan navbatdagi uchrashuv taassurotlarini o‘z kundaligida, jumladan quyidagicha qayd etgan edi: “U rus boshliqlar xususidagi o‘z fikr-mulohazalarini to‘ppa-to‘g‘ri, hatto keskin qilib aytadi. Biroq shaxsiy hayotiga oid tafsilotlarni aytishdan hamisha o‘zini tiyadi. Ishonchim komilki, u qiziqarli va o‘z obro‘-e‘tibori uchun hafla deb hisoblagan narsalarning hammasini yon daftariga qayd qilib boradi. Umuman Jo‘rabek o‘tkir shaxs va uning yon daftaridagi qaydlari Turkistonning kelgusidagi tarixchisi uchun ahamiyat kasb etajak”[6].

Furqat Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li 1889-yilning iyunida Toshkentga keladi. Toshkentdagi Ko‘kaldosh madrasasi hujralaridan birida yashaydi. Ko‘zga ko‘ringan olim, fozillar bilan tanishadi[7]. Shular qatorida Furqat Jo‘rabek dodxoh bilan tanishgan, ular orasida mustahkam do‘stlik rishtalari paydo bo‘lgan. Jo‘rabekning chorizm Turkistonda yurgizgan nomatlub siyosati haqidagi hamisha oshkora aytiladigan fikrlari ham Furqat asarlarida bu siyosatni zimdan, pardali tanqid qilinishida muayyan ahamiyat kasb etgan, degan fikr g‘olib keladi. Furqatni Jo‘rabek bilan bog‘lab turuvchi rishtalar ko‘p bo‘lgan[8]. Taniqli chor generali Jo‘rabekning kuyovi jadidchilik harakatlarida faol ishtirok eta boshlagach, chor Rossiyasining Turkistondagi

rahbarlari xavotirga tushadi va Fansurullobekni alohida xavfli shaxslar ro‘yxatiga kiritadi[9].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Jo‘rabekning jadidchilik harakatlaridagi ishtiroki nafaqat mahalliy aholi, balki chet ellik sayyohlar va olimlar bilan o‘zaro aloqalari orqali ham o‘z aksini topgan. Shved sayyohi Sven Gedin Jo‘rabekni o‘zining “Osiyo yuragi” asarida yuqori baholagan va uning madaniyati va dunyoqarashidan ta’sirlanganligini ta’kidlagan. Jo‘rabekning kutubxonasi ham uning ilmiy va madaniy merosga bo‘lgan chuqur e‘tiborini ko‘rsatadi; u juda ko‘p qadimiy va noyob qo‘lyozmalarni jamlagan.U shuningdek, Rossiya imperiyasi siyosatiga qarshi o‘z fikrlarini ochiq bildirgan va bu uni mustamlakachilar tomonidan yaqindan kuzatilib, nazorat ostida tutishlariga sabab bo‘lgan. Jo‘rabekning rus tili va adabiyotiga bo‘lgan qiziqishi, shuningdek, Gaspirali va Furqat kabi jadid ziyolilari bilan bo‘lgan aloqalari, uning Turkistonning kelajagi uchun qanday istiqbolga ega bo‘lishi haqidagi fikrlarini o‘zgartirganini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Свен Хедин. Сердце Азии. Памир-Тибет-Восточный Туркестан. Путешествие в 1893-1897 годах. Издательство Ломоносовъ. Москва, 2010. С-32.
2. //Таржимон. 2 декабрь 1893 йил (6 жумадул соний 1311), 41-сон, 29-32 б.
3. O‘zbekiston Respublikasi MA. 1009 – jamg‘arma, 1-ro‘uxat, 67 - ish, 53 – varaq.
4. O‘zbekiston Respublikasi MA. 1009 – jamg‘arma, 1-ro‘uxat, 67 - ish, 58 – varaq.
5. В. В. Бартольд. Сочинения. Том I, часть I, стр. 346.
6. O‘zbekiston Respublikasi MA. 1009 – jamg‘arma, 1-ro‘uxat, 103-ish, 103 – varaq.
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Furqat>
8. Ш. Юсупов. Худоёрхон ва Фурқат. -Т.: Шарк нашриёт-матбаа концерни, 1995.- Б. 93.
9. Ш.Умаров. Худоёрхон авлодлари тарихи. – Т.: Турон замин зиё, 2014. Б. 639.

XORAZMSHOH JALOLIDDIN MANGUBERDINING MUVAFFAQIYATLI JANGLARI

Qilichev Shohruh Sherali o'g'li, ChDPU Tarix fakulteti talabasi

SUCCESSFUL BATTLES OF KHOREZMSHAH

JALALIDDIN MANGUBERDI

Kilichev Shohruh, Student of History at ChDPU

УСПЕШНЫЕ БОИ ХОРЕЗМШАХА

ДЖАЛАЛИДИНА МАНГУБЕРДИ

Килчев Шохрух, студент исторического факультета ЧГПУ

Annotatsiya: Ushbu maqolada oxirgi Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdining Chingizxonga, Ozarbayjonga, Bog'dodga, Gurjistonga, Iroqqa, Hindistonda mo'g'ullarga va mahalliy dushmanlariga qarshi muvaffaqiyatli janglari va janglardagi taktikalari, jang natijalari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Xorazmshoh, Chingizxon, Bog'dod, G'iyosiddin, Rukniddin Uzlog'shoh, Qayqur, Muzaffariddin, Qush Temur, Nosir Billox, Ig'an Toisiy, Ozarbayjon.

Abstract: This article will talk about the tactics of the last Khwarezmshah Jaloliddin Manguberdi in his temporary battles and battles against Genghis Khan, Azerbaijan, Baghdad, Georgia, Iraq, the Mongols in India and local enemies, the results of the battle.

Keywords: Khorezmshah, Genghis Khan, Baghdad, Ghiyosiddin, Rukniddin Uzlughshah, Qayqur, Muzaffariddin, Qush Temur, Nazareth Billoch, Ighan Toisiy, Azerbaijan.

Аннотация: В этой статье рассказывается о временных сражениях и тактике последнего Хорезмшаха Джалалуддина Мангуберди против Чингисхана, Азербайджана, Багдада, Грузии, Ирака, монголов и их местных врагов в Индии, а также о результатах битвы.

Ключевые слова: Хорезмшах, Чингисхан, Багдад, Гиясиддин, Рукниддин Узлаг-Шах, Кайкур, Музаффариддин, куш Тимур, Насир Биллох, Иган Тойси, Азербайджан.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ) / INTRODUCTION) Xorazmshohlar davlatining so'nggi hukmdori Muhammad Xorazmshohning to'ng'ich o'g'li, Jaloliddin Manguberdi 1198-yilda tug'ilgan. To'liq ismi Jaloliddin ibn Alovuddin Muhammad. Onasi – Oychechak bo'lgan. Jaloliddin o'n uch yoshidan boshlab otasi bilan harbiy safarlarga chiqqa boshladi. Lekin mo'g'ullar bilan jang qilganida u o'n yetti yoshda edi. 1220-yil dekabr oyida Xorazmshoh mo'g'ullardan Gurgon daryosining dengizga quyilish joyiga yetib keldi va Kaspiy dengizidagi Ashur ada orolidagi qalaga berkindi. Qal'ada u o'g'illari Jaloliddin, O'zloqshoh, Oqshoh va mulozimlari, navkarlarini huzuriga chaqirib bunday dedi: "Hokimyat iplari uzildi, saltanat asoslari bo'shshdi va buzildi. Dushmanning

maqsadi ayon. Endi men uchun faqat o'g'lim Jaloliddingina qasos olishi mumkin. Men uni taxtga valiahd etib tayinlayman"[1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / MATERIALS AND METHODS). Ushbu mavzu yuzasidan bugunga kelib bir qancha manba va adabiyotlar ma'lum. Jumladan, Alouddin Atomalik Juvayniyning "Tarixi jahonkushoy" asari, Rashiduddin Fazlullohning "Jome at-tavorix" asari, Shibobiddin Nasaviyning "Siyrat us-sulton Jaloliddin Mankburni" kabi manbalar va Z.Buniyodovning "Markaziy Osiyoga doir tadqiqotlar: Anushtagin Xorazmshohlar davlati", Hamdam Sodiqovning "Jaloliddin Sulton Manguberdi", Bekzod Abdirimovning "Ikki buyuk



<https://orcid.org/0009-0007-6610-0599>

e-mail:

shohruhqilichev70@gmail.com

sarkarda yoxud Jaloliddin Qutuzgacha” asarlari shular jumlasidandir.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).

Xorazmshoh sulton Jaloliddin yurtini vayron qilgan va xalqini qonga botirgan Chingizxondan shafqsiz o'ch olishga ahd-u paymon qildi. Halok bo'lgan ukalari Rukniddin Uzlog'shoh, Oqshoh xunini olishni ham ko'ngliga tugdi. Omon qolgan ukasi G'iyosiddin bilan birga vatanparvar yigitlardan qo'shin tuzishga kirishdi. Ammo mo'g'ullar bunga yo'l qo'yamaslikka harakat qilishardi. Niso shahri yaqinida Jaloliddinning 300 kishilik lashkarini, 700 mo'g'ul qurshab oldi. Jang keskin va dahshatli bo'ldi. Xorazmshohning jang ko'rgan va chiniqqan yigitlari mo'g'ullarni tor-mor qilishdi. Ushbu birinchi g'alabadan so'ng, Jaloliddinga uning amakisi Amin al-Mulk 10 minglik askari bilan kelib qo'shildi. Ular mo'g'ullar qamal qilgan Qandahorga kelishdi va 3 kun ayovsiz jang qilishdi. Mo'g'ullar sharmandali ravishda mag'lub bo'lib qochdilar. Qandahordagi olishuv dushman ko'zini ochdi: mo'g'ullar shu paytgacha qayerga chang solmasinlar, g'olib bo'lardilar. Ularga qarshi turadigan kuch yo'q edi. Mo'g'ullar nazarida, Xorazmshoh lashkari faqat ohuday qochishni biladigan, hujum qila olmaydigan, qo'rqqoq odamlar edi. Ular bizlarga qarshilik qila olmaydi, deb o'ylashardi. Lekin Qandahordagi jangda ular bo'g'izlariga sanchilishga va yuraklarini yorishga tayyor turgan xorazmliklarning o'tkir nayzalarini ko'rdilar. Shu jangdan so'ng Chingizxon Jaloliddin bilan hisoblashishga majbur bo'ldi[2].

Sulton Jaloliddin G'aznaga yetib kelganda Xorazmshohning tarqalib ketgan qo'shinlari uning atrofida to'planadilar. Jaloliddin bu kuchlar bilan G'aznaga yaqin bo'lgan Voliyon qal'asi atrofida Chingizxonning Bekchak va Timqur boshliq qo'shinini yakson qiladi. Dushman to'qqiz ming jangchisidan judo bo'lib, juda ko'p o'lja, boylklarni tashlab qochadi. Chingizxon bu shum xabarni Tolqonda turganda eshitadi va Jaloliddinni tezda daf qilish uchun eng ishonarli va dongdor lashkarboshisi Qayqur no'yon boshchiligida 30 ming kishilik qo'shinni yuboradi. Ikki o'rtada jang 1221-yilning yozida Parvona dashtida bo'ladi. Jaloliddin janglar tarixida birinchi marta mo'g'ullarga qarshi kurashda yangi taktik usulni qo'llaydi: jangchilarga otdan tushib, jilovlarini bellariga bog'lashni va kamon bilan jang qilishni buyuradi. Dushman tilka-pora qilinadi. Qayqur no'yon ozgina odam bilan

Chingizxon huzuriga kirib boradi. Bu xabarni eshitgan Chingizxon dahshatga tushadi. U shu zahotiy o'zining barcha kuchlarini jamlab, sulton Jaloliddinni daf qilish maqsadida shaxsan o'zi otlandi. 1221-yil 9-dekabrda Jaloliddinning yarim oy shaklida joylashtirilgan hamda qanotlari bilan Sind daryosiga tiralgan oz sonli qo'shinini o'rab oladi. Sulton Jaloliddin vaziyatning g'oyat og'ir va mushkulligini hisobga olib, rafiqasi, onasi va farzandlarining dushman qo'lga tushishini istamay ularni Sind daryosiga cho'ktiradi. Chunki o'sha kuni mo'g'ullar Jaloliddinning qo'lga tushirilgan o'g'li Jamoliddinning yuragini tiriklayin sug'urib olgan edilar. O'zi esa qora to'riq otiga minib, so'nggi bora mo'g'ullarga hamla qilib, so'ng oti jilovini orqaga tortadi; Sovutini yelkadan tashlab, otiga qamchi bosadi va balandlikdagi qoyadan o'zini Sind daryosiga otadi. (Daryo qirg'og'idan to o'zan (suv)gacha o'n gazdan ortiqroq edi). Jaloliddin daryoning narigi sohiliga o'tib oladi va ko'zdan g'oyib bo'ladi[3].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).

Sulton o'sha ikki tahlika orasidan, ya'ni Chingizxonning g'azab olovidan hamda Sind daryosining girdobidan qutulgach, falakning suvga cho'ktira olmagan, balo-qazo shamolining sovug'i halokat tuprog'iga bora olmagan besh-olti kishi bilan o'rmondan panoh topdi va bir-ikki kun o'sha yerda kutdi. Ularga yana ellikta askar kelib qo'shildi. Bu orada Sultonning dushmanni o'rganish uchun oldindan yuborgan askarlari hind qaroqchilaridan tashkil topgan piyoda va otliq guruhning bir farsah masofa yaqinligida joylashgani xabarini yetkazdi. Sultonning buyrug'iga ko'ra, askarlari o'zlariga yo'g'on tayoq tayyorlaganlaridan so'ngra hindlarga tunda hujum qildilar. Ularning ko'pchiligini yo'q qilib, qurollarini o'lja qilib qo'lga kiritdilar. Oradan ko'p vaqt o'tmasdan ba'zilar ot, ba'zilar esa buqa, ho'kizlarga mingan holda guruhma-guruh kelib, yana Sultonning yonidan joylarini egalladilar. Yangi kelganlar ikki-uch ming kishilik hind askarlaridan tashkil topgan bir harbiy qismni yaqin atrofda ekanligi haqida xabar bergach, Sulton yuz yigirma askari bilan ularning ustiga hujum qildi. Ularning ko'pchiligini qilichdan o'tkazdi. Ulardan olgan o'lja bilan o'z kuchini yanada orttirdi.

Mo'minlar amiri Nosir Billohning o'ziga yordam qilajagi va uning dushmanga qarshi bir to'siq vazifasini o'tashini umid qilayotgan edi. Lekin Xalifa Jaloliddinga qarshi 10000 kishidan iborat

qo'shin yuborib unga qarshi chiqdi. Jangda Jaloliddin g'olib chiqib xalifa askarlarini tor-mor etdi[4].

Ig'an Toisiy Jaloliddin xizmatiga kirgach, Iroq har xil janjal, nizolarni keltirib chiqaruvchilardan, uni adolat bilan boshqara olmaydigan kaltafahm, aqlsiz hukmdorlardan xalos bo'ldi. Shundan keyin Sulton Ozarboyjonga qarab yurdi. U Ozarboyjon chegaralariga yaqinlashganda Sharafulmulk Marog'a aholisidan maktub oldi. Maktubda marog'aliklar Sultondan o'z shahriga kelishlarini iltimos qilib, bu yerda davlatni o'zboshimchalik bilan boshqarayotganlar va xotinlar hukmronligi natijasida yuzaga kelgan sharmandali ahvoldan xalos etishlarini so'ragandi. Ular, shu bilan birga, mamlakatining hukmdori Otabekning kuchsizligi tufayli o'z mulklarining daxlsizligini saqlay olmasligiga, himoya qilolmasligiga, gurjilarning esa o'tkir tirmoqlarini o'zlariga [Marog'aga] qattiq botirganlariga ham ko'nikib qolgandilar. Shunda Sulton tezlik bilan o'sha tomonga yurdi va uni hech bir qarshiliksiz qo'lga kiritdi. Sulton shaharga tomon yurar ekan, amirlarga qamal qurollari: manjaniqlar, og'ir to'qmoqlar, yuruvchi qal'alar tayyorlashni buyurdi. Ular shahar atrofidagi daraxtlarni kesa boshladilar. Daraxtlar esa nihoyatda ko'p edi. Sulton Tabrizni qamal qilganining yettinchi kuni To'g'ru'ning qizi shahardan elchi chiqardi. Elchi Sultonga malika o'zi, odamlari, mol-mulki uchun omonlik so'raganini, Xoy shahri o'ziga berilishi sharti bilan bu yerni Sulton lashkarlari himoyasida tark etajagini bildirdi". Sulton uning talabini qondirdi. Tabriz olti yuz yigirma ikkinchi yil rajab oyining o'n yettinchisida [1225-yil 25-iyulda] bosib olindi[5].

1230-yil avgustda Ko'niya, Jazira, Damashq va Misrning birlashgan qo'shinidan Jaloliddin Manguberdi kuchlari Arzinjon yaqinidagi jangda mag'lubiyatga uchradi. Jaloliddin Manguberding kuchsizlanganidan foydalangan mo'g'ullar katta

qo'shin bilan 1231-yilda Ozarbayjonga bostirib kirib, Jaloliddin Manguberding ta'qib etishadi. Mo'g'ullar uning qarorgohiga uyishtirilgan tungi hujum natijasida Jaloliddin Manguberding oz sonli qo'shinini tor-mor keltiradilar. Jaloliddin Manguberding o'zi esa ta'qibdan qutulib Kurdiston tog'lariga chiqib ketadi. Bu yerda qaroqchi kurdlar qo'lga asir tushib, fojiali halok bo'lgan[6].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Murakkab va ziddiyatli davr farzandi bo'lgan Jaloliddin Manguberdi Xorazmshohlar davlatining so'nggi hukmdori sifatida, vatanini mo'g'ullar bosqinidan himoya qilishda ulkan jasorat va sadoqat ko'rsatgan tarixiy shaxsdir. Jaloliddinning ozodlik va mustaqillik kurashlari tarixi asrlar davomida Sharq xalqlari tillarida doston bo'lib ketdi. Eron, Turkiya, Misr, Pokiston, Suriya, Hindiston, Iroq va boshqa davlatlarda uning jasoratli hayot yo'lini aks ettirgan asarlar nashr etilishi hamda buyuk sarkarda faoliyati xususida Yevropada ham tarixiy adabiyotlar chop etilgan.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI
(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА /
REFERENCES):**

1. A.Zamonov S. Abdusodiqov O'zbekiston tarixi II qism IX – XIV asr o'rtalari. Darslik. T.: Bayoz, 2024.B. 449.
2. Hamdam Sodiqov. Jaloliddin Sulton Manguberdi. Toshkent, 2009-yil. B.23.
3. Rustambek Shamsutdinov, Shodi Karimov. O'zbekiston tarixi, I kitob. Toshkent, 2010-yil. B. 317-318.
4. Alouddin Atomalik Juvayniy. ,Tarixi jahonkusho. Toshkent, 2015-yil. B.375-383.
5. A.Muhammadjonov. O'zbekiston tarixi darslik. Toshkent, 2017-yil. B. 77.
6. Buniyodov Z. Markaziy Osiyoga doir tadqiqotlar:Anushtagin Xorazmshohlar davlati (1097-1231). -T.: Mumtoz so'z, 2012. B. 320.



FANLARARO SIFATLI TA'LIM INTEGRATSIYASINING DOLZARB MASALALARI

*Shoyimqulova Zarnigor, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
"O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasida o'qituvchisi*

CURRENT ISSUES OF INTEGRATED QUALITY EDUCATION

*Shoyimkulova Zarnigor, teacher of the Department of "Uzbek
Language and Literature" of the Denov Institute of
Entrepreneurship and Pedagogy*

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ИНТЕГРАЦИИ КАЧЕСТВЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

*Шойимкулова Зарнигор, преподаватель кафедры "Узбекский
язык и литература" Деновского института
предпринимательства и педагогики*



<https://orcid.org/0009-0005-2214-2987>

e-mail:

zshoyimqulova@gmail.com

Annotatsiya: O'zbekiston so'nggi yillarda keng ko'lamli islohotlarni amaliyotga joriy etishga ustuvor vazifa sifatida qaramoqda. Buning yorqin natijasi o'laroq, sifatli ta'lim integratsiyasi masalalari asosida aytish mumkin. Maqolada ona tili va tarbiya fanini zamon va makon kontekstida integrativ o'qitish masalari yoritilgan. Shu asosda sifatli ta'limni integratsiyalashning bir nechta masalalari haqida maqolada bahs yuritdik. Natija va takliflar atroflicha bildirildi.

Kalit so'zlar: integratsiya, zamon va makon, islohot, sifatli ta'lim, yangi O'zbekiston, strategiya, innovatsiya, kreativlik, kollaboratsiya, kommunikativlik.

Abstract: In recent years, Uzbekistan has been considering the implementation of large-scale reforms as a priority. As a bright result of this, it can be said on the basis of quality education integration issues. educational issues are covered. On this basis, we discussed several issues of quality education integration in the article. The results and suggestions are given in detail.

Key words: integration, time and space, reform, quality education, new Uzbekistan, strategy, innovation, creativity, collaboration, communication.

Аннотация: В последние годы в Узбекистане реализация масштабных реформ рассматривается как приоритетная задача. Ярким результатом этого, можно сказать, являются вопросы интеграции качественного образования. Исходя из этого, в статье мы обсудили несколько вопросов интеграции качественного образования. Подробно изложены результаты и предложения.

Ключевые слова: интеграция, время и пространство, реформа, качественное образование, новый Узбекистан, стратегия, инновации, творчество, сотрудничество, коммуникация.

KIRISH. Bugungi kunda shiddat bilan o'zgarayotgan dunyoga o'quvchi yoshlarni ijtimoiy hayotga zamon talablari asosida tayyorlash, ularda teran dunyoqarash, sog'lom e'tiqodlilik, ma'rifatparvarlik, milliy va diniy bag'rikenglik, ijtimoiy-fuqaroviy, yuksak ma'naviy fazilatlarini shakllantirish dolzarb vazifalar bo'lib qolmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev yangi O'zbekistonni bunyod etishga kirishgan ilk kunlardanoq yosh avlod tarbiyasiga alohida e'tibor qaratdilar va bu masala hayot masalasi ekanligini qayd etdi: "Ma'lumki yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatdan ham hayot-mamot masalasiga

aylanib bormoqda. Tarbiya mukammal bo'lishi uchun esa bu masalada mutlaqo bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'yib bo'maydi"¹.

Navoiy hazratlari bu dunyoga kelib, inson uchun yaratgan barcha fazilatlar va ezguliklarni o'ziga kasb qilib olmagan, ya'ni yuqtirmagan kishini poklanish maqsadida hammomga kirib, u yerdan nopok chiqqan kimsaga o'xshatib quyidagi misralarni keltirgan: *"Kamol et kasbkim olam uyidin, Senga farz o'lmag'ay g'amnok chiqmoq. Jahondin notamom o'tmak biaynih, Erur hammomdin nopok chiqmoq"*². Fikrimizcha, hazrat Navoiyining bu o'lmas fikrlari quyidagi savollarimizga javob bo'ladi.

METODLAR. Yangilangan O'zbekiston ta'lim tizimiga "4k" modeli shiddat bilan kirib keldi.

"1k" - tanqidiy fikrlash (критическое мышление);

"2k"- kreativ fikrlash (креативное мышление);

"3 k" - kollaboratsiya, ya'ni jamoa bilan ishlash (коллективное занятие);

"4 k" - kommunikativlik – muloqotga kiritish (коммуникация).

O'quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat etiladi:

1. Inson boshqalarga nimasi bilan naf keltiradi?
2. Insonning hayotida yashashdan maqsadi nima?

Hazrat Navoiyining yuqorida keltirilgan ilk misralarni integratsion ta'limga qaratib Tarbiya fani bilan bog'laymiz. Bizga ma'lumki, Tarbiya va ona tili fanlaridan nafaqat bilim beriladi, balki o'quvchilar ijtimoiy hayotga faol tayyorlanadi. Ya'ni o'quvchilar fikr berishga emas, fikrlashga o'rgatiladi.

Integratsiya qayerda? Bu haqda shoir keng mulohaza qiladi. O'quvchilarni ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlar mohiyatiga diqqat qilish va quruq gap bilan emas, balki amaliy ishlar bilan jalb etishga undaydi. Inson degan nomni ko'tarib yurgan shaxsga fikran bunday murojaat qiladi. Ya'ni dunyoga kelgan har bitta shaxs o'zida vatanga daxldorik tuyg'ularni

singdirishi kerak. Birinchi navbatda yoshlarimiz har tomonlama chuqur bilimlarni o'rganishlari, o'z kasbining mohir ustasi bo'lishi, o'z ona tilini sevishi, milliy an'analar va qadriyatlarini ulug'lashi kabi fazilatlarga ega bo'lishlari darkor. Aks holda Hazrati Navoiy aytganidek hammomga kirib yuvinmasdan, poklanmasdan chiqib ketgandek bo'ladi. O'quvchilar tomonidan ilgari surilgan shu fikr tanqidiy fikrlashning yaqqol namunasi hisoblanadi ("1k" misolida).

O'quvchilarga kreativ (ijodiy) fikrlashga jalb qilish uchun quyidagi savol bilan murojaat qilinadi. **Alisher Navoiy zamonasiga tushib qolsangiz, u yerdan nimani olib kelgan bo'lardingiz** ("2 k" misolida)? Biz mutaxassis sifatida bilamizki, ko'pgina darsliklarimizga ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniy (1878-1934) bobomizning hikmatli so'zlari asos qilib olingan.

Misol uchun:

"Tug'ib tashlash bilan bo'lmas bola, bo'lgay balo sizga,

Vujudi tarbiyat topsa, bo'lur ul rahnamo sizga,

Temirchining bolasi tarbiyat topsa, bo'lur olim,

*Buzilsa xulqi, Luqmon o'g'li bo'lsa, bo'lg'usi zolim"*³.

("Turkiy guliston yoxud axloq" asaridan). Bu o'quvchilari jamoa bilan ishlashga yo'naltirilgan "3k" ga misol bo'la oladi. O'quvchilarning hammasida ham notiqlik qobiliyati rivojlangan bo'lmaydi. Ayrim o'quvchilar bilsa-da, fikrini erkin va mustaqil bayon eta olmaydi. Jamoada ishlash sog'lom raqobat muhitini yaratadi va shunday o'quvchilarga erkin so'zlashishi uchun imkon yaratadi.

O'quvchilarning o'zaro bir-birini tinglashi, fikrini hurmat qilishi hamda sog'lom raqobat asosida muloqotga kirishish qobiliyatini shakllantiradi. Bu esa "4 k"ga, ya'ni muloqotga kirishuvchanlikka misol bo'la oladi.

NATIJALAR. O'rta va yuqori sinflarda ona tili va Tarbiya faniga kiritilgan mavzularni o'rganish orqali o'quvchilarda tanqidiy tafakkurga ega bo'lish,

¹Sh.Mirziyoyev: Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz, 2016 yil, Ijild, 504-505 betlar.

² Bobomurod Erali. Bashariyat ma'naviy yuksalish va yoshlar tarbiyasida A.Navoiy merosining ahamiyati. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari.

³ Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. 1915-yil, 5-bob.

jamoada hamkorlik qila olish, mas'uliyat va majburiyatlarga amal qilish, jismoniy va intellektual imkoniyatlarni rivojlantirish, faol fuqarolik pozitsiyasini egallay olish, ijtimoiy borliqni his qilish va undan zavqlana olishga o'rgatiladi. Bitiruvchilarga sinflarda esa yuqorida keltirilgan "4k" modelini o'rgatish natijasida mehnat jamoasi va mutaxassislar bilan hamkorlik qila olish, bilimni muntazam oshirib borishni tizimlashtirish hamda faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishi, o'z xatti-harakatlarini tanqidiy baholay olish, yurt taqdiriga daxldorlik kabi yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega bo'lish bilan birga ularni targ'ib qila olish singari BKM va kompetensiyalarga ega bo'lishadi.

MUHOKAMA. Umumiy o'rta maktablarda ta'lim olish va uning sifatiga bo'lgan qat'iy talabni maktab rahbariyati, o'quvchilar va ularning ot-onalari tomonidan doimiy ehtiyojga aylantirilsa, o'zining ustida muntazam ishlayotgan o'qituvchi munosib rag'batlantirib borilsa, aksincha o'zining rivojlanishiga e'tiborsiz o'qituvchilarga nisbatan murosasizlik muhiti shakllantirsa, o'qituvchida o'z ustida muntazam ishlash, ya'ni bilim, ko'nikmalarni o'zlashtirishga bo'lgan ishtiyoq paydo bo'ladi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda biz huquqiy demokratik va fuqarolik jamiyat bunyod etilayotgan O'zbekistonda ona tili va tarbiya fanlarining sifatli integratsiyasi ta'lim va tarbiya sohasida zamonaviy va oqilona tizim yaratish

borasidagi dadil qadamlardan biri bo'lib, ta'lim tizimini jahon standartlariga tenglashtirish va jahonda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. M.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyotni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 504-505 bet, I-Jild.
2. A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. 1915-yil, 5-bob.
3. Bobomurod Erali. Bashariyat ma'naviy yuksalish va yoshlar tarbiyasida A.Navoiy merosining ahamiyati. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiali.
4. Shoyimqulova, Z. (2024). Tilshunoslik fanlarini o'qitishda personal yondashuv tajribasi. *Science and innovation*, 3(Special Issue 19), 283-286.
5. R.Ishmuxamedov, M.Yuldashev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. T, 2013, 10-b.
6. Shoyimqulova, Z. (2024). Tilshunoslik fanlarini o'qitishda personal yondashuv tajribasi. *Science and innovation*, 3 (Special Issue 19), 283-286.
7. To'rayeva, S. S. (2023). Pedagoglarning ta'lim jarayonida yuz berayotgan turli o'zgarishga va yangilanish jarayonlariga tez va oson moslasha olishi. *Academic Research in Educational Sciences*, 4(3), 279-283. <https://doi.org/>



**FAXRUDDIN ALI SAFIYNING “ODOB UL-AS’HOB”
ASARIDA SUHBAT TARBIYASI
MASALALARINING YORITILISHI**

*To‘rabayev Orif Abdumajid o‘g‘li Guliston davlat
pedagogika instituti o‘qituvchisi*



<https://orcid.org/0009-0002-6968-7253>

oriforabavev@gmail.com

**THE ELUCIDATION OF THE ETHICS OF
CONVERSATION IN FAKHRUDDIN ALI SAFIY’S
WORK “ODOB UL-AS’HAB”**

*Turabaev Orif Abdumajid o‘g‘li, Lecturer at Gulistan State
Pedagogical Institute*

**ОСВЕЩЕНИЕ ВОПРОСОВ ВОСПИТАНИЯ В
БЕСЕДЕ В ПРОИЗВЕДЕНИИ ФАХРУДДИНА АЛИ
САФИЯ “ОДОБ УЛ-АСХАБ”**

*Турабаев Ориф Абдумажидович, преподаватель
Гулистанского государственного педагогического института*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Faxruddin Ali Safiyning hayoti va ijodiga doir ishonchli manbalar asosida tahlil olib boriladi. Shuningdek, uning ilmiy merosi, xususan, o‘z zamonasida tutgan o‘rni, asarlarining tematik yo‘nalishlari va ularning bugungi ilm-fan bilan qanday aloqadorligi chuqur yoritiladi.

Kalit so‘zlar: “Odob ul-as‘hab”, tasavvuf falsafasi, fosiq, bayt, suhbat tarbiyasi, Rashahot ayn al-hayot, empatik aloqa, ixlos, vafodorlik, sabr.

Annotation: This article analyzes the life and work of Fakhruddin Ali Safiy based on reliable sources. It also provides an in-depth exploration of his scientific heritage, particularly his role in his time, the thematic directions of his works, and their relevance to contemporary science.

Keywords: “Odob ul-as‘hab”, philosophy of Sufism, fosiq, bayt, educational value of conversation, Rashahot Ayn al-Hayot, empathic communication, sincerity (ikhlos), loyalty, patience.

Аннотация: В данной статье проводится анализ жизни и творчества Фахрэддина Али Сафия на основе достоверных источников. Кроме того, подробно освещается его научное наследие, в частности, его роль в эпоху, тематические направления его произведений и их актуальность в контексте современной науки.

Ключевые слова: «Адоб-уль асхаб», философия суфизма, фосик, байт, воспитание через беседу, «Рашахот айн ал-хайот», эмпатическая коммуникация, ихлас, верность, терпение.

KIRISH. XV-XVI asrlarda Markaziy Osiyo va Xuroson hududida yashab ijod qilgan mutafakkirlar va ularning ilmiy-ma‘naviy merosi bugungi kunda o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Xususan, XV asrning ikkinchi yarmi va XVI asr boshlarida yashagan Faxruddin Ali Safiy nafaqat tasavvuf ahli yoki adabiyot vakillari orasida, balki tarixchilar, faylasuflar va mutafakkirlar e‘tiborini tortayotgan yirik siymolardan biridir. Uning axloqiy-ma‘naviy tarbiya borasidagi qarashlari nafaqat o‘z

davri uchun balki bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan desak adashmagan bo‘lamiz.

Faxruddin Ali Safiy o‘z faoliyatini nafaqat yozuvchi yoki tarjimon sifatida, balki mutasavvif, voiz, axloqshunos sifatida ham keng ko‘lamda olib borgan. U Abu Hamid G‘azzoliy, Abdurahmon Jomiy, Xoja Ubaydulloh Ahror kabi mashhur allomalarning ta‘siri ostida shakllangan bo‘lib, ayni paytda mustaqil falsafiy qarashlarga ega bo‘lgan. Ayniqsa, uning “Odob-ul as‘hab” asari nafaqat diniy asar sifatida, balki axloqiy tafakkur namunasi,

ijtimoiy qatlamlar tafakkurining aks sadosi sifatida ham alohida ahamiyatga ega.

ASOSIY QISM. Faxruddin Ali Safiy tomonidan yozilgan “Odob-ul as’hab” asari, dinning birodarlik ruhini tarbiyalash, ixlos, poklik va haq yo’liga yetaklashda beqiyos manbadir. Asarning dastlabki qismida tasavvufda alohida o’rin tutuvchi suhbat madaniyatiga qaratilgan. Bu, nafaqat ruhiy poklanishning, balki islomiy jamiyatda axloqiy-ijtimoiy uyg’unlikning ham muhim vositasi sifatida talqin etiladi.

Faxruddin Ali Safiy takidlaganidek “Suhbat — dinning o’qidir”¹ ya’ni solih insonlar bilan birga bo’lish, islomiy dunyoqarashda qalb tarbiyasining, ichki yangilanishning eng muhim vositalaridan biri sifatida qaraladi. Faxruddin Ali Safiy bu mavzuni tasavvuf doirasida, chuqur falsafiy va ma’naviy tahlillar asosida yoritadi. U suhbatni faqatgina insonlararo muloqot shakli, deb emas, balki qalblarning uyg’unlashuvi, niyatlarning tozalashuvi, ruhning yuksalishi yo’li sifatida ko’radi. “Odob-ul as’hab” asarida do’sstlik va suhbat madaniyati ijtimoiy axloqiy qadriyat darajasiga ko’tariladi.

Ali Safiyning tahliliga ko’ra, inson kimlar bilan suhbatda bo’lishi, kimlarning so’ziga quloq tutishi, qalbida qanday odamlarni yaqin tutishi, uning ruhiy maqomini belgilaydi.

Shoir aytadi:

*Suhbat solih seni solih etar,
Suhbat fosiq seni fosiq etar,
Suhbat nodon seni nodon etar*².

Mazkur uch misrali bayt, tashqi jihatdan sodda va xalqona ruhda bo’lsa-da, mazmunan chuqur axloqiy va tasavvufiy g’oyalarni ifodalaydi. Bu baytda shoir inson shaxsiyati va ruhiy kamoloti ustida jamiyat va atrofdagi insonlar, ayniqsa u bilan doimiy muloqotda bo’lgan kishilarning ta’siri nihoyatda kuchli ekanligini ta’kidlaydi.

Birinchi misrada “Suhbat solih seni solih etar” degan ibora orqali shoir solih, ya’ni yaxshi axloqli,

dindor, pokiza niyatli inson bilan do’sstlik va muloqot insonni ham shu holatga olib borishini bildiradi.

Ikkinchi misrada esa “Suhbat fosiq seni fosiq etar” degan jumla orqali, axloqan buzuq, din yo’lidan og’ishgan, nojoiz ishlar qiluvchi kimsalar bilan do’stlashish va ularga ergashish insonni ham bu yo’lga boshlashi ta’kidlanadi. Bu, aslida, salbiy ijtimoiy muhitning shaxsiy kamolotga zararli ta’siri haqida ogohlantiruvchi mezondir.

Uchinchi misra “Suhbat nodon seni nodon etar” esa ilm-fan, hikmat va tafakkurdan yiroq, fahmsiz va bilimsiz kishilar bilan birga yurish oqibatida inson aqliy va ruhiy jihatdan tanazzulga uchrashi mumkinligini bildiradi. Bu jumla tafakkur madaniyatining qadriyat sifatida qadimdan yuksak baholanganligini ko’rsatadi.

Asarda yana shunday fikr shunday bayon etiladi “Avliyolar bilan bir lahza suhbat qilish, Yuz yil ibodat qilishdan afzal”.³ Bu holat, darhaqiqat, tasavvufdagi “suhbat tarbiyasi” konsepsiyasini yoritadi. Ali Safiyning qarashlarida, suhbatni chin ma’nodagi insoniy yetuklikka eltuvchi manba sifatida baholashga intilish mavjud. “Odob-ul as’hab” asarida do’sstlar o’rtasidagi samimiylik, ochiqlik va to’g’rilik muhim mezon sifatida ilgari suriladi. Asar muallifi bu jihatlarni Qur’on oyatlari, payg’ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning hayotidan misollar, hadislar, tasavvufiy ustozlarning hikmatlari bilan mustahkamlaydi. Ayniqsa, solihlar bilan birga bo’lish orqali ilohiy fazilatlar singishi, bu dunyoda kamyob ne’mat sifatida ko’rsatiladi.

Misollar:

Temir ilohiy suhbat bilan kuydi, olovga aylandi.

Mirob giyohlar bilan suhbat qildi — gulzorga aylandi.

Bahor shamoli bilan suhbatlashdi — iforli saboga aylandi.

Tuproq bilan suhbat qilganlar — barakali daraxtlar yetishtirdi.

*Ammo g’aflatdagi arif, suhbatdan yiroqda bo’lib, bexabar qoldi.*⁴

¹ Hجري ٩١٠، (دوستان آداب) الاصحاح آداب، صفي على فخرالدين مولانا عبدالله خواجه انتشارات: ناشر، مجددي نقشبندي عبدالله سيد: مترجم، قمری (ميلادی ٢٠١١ با مطابق) شمسی هجري ١٣٩٠ زمستان: اول چاپ، انصاری ٢٧ صفحه

² مولانا فخرالدين على صفي، ادب الاصحاح (آداب دوستان)، ٩١٠ هجري قمری، مترجم: سيد عبدالله نقشبندي مجددي، ناشر: انتشارات خواجه عبدالله، انصاری، چاپ اول: زمستان ١٣٩٠ هجري شمسی (مطابق با ٢٠١١ ميلادی) صفحه ٢٧

³ Hجري ٩١٠، (دوستان آداب) الاصحاح آداب، صفي على فخرالدين مولانا عبدالله خواجه انتشارات: ناشر، مجددي نقشبندي عبدالله سيد: مترجم، قمری (ميلادی ٢٠١١ با مطابق) شمسی هجري ١٣٩٠ زمستان: اول چاپ، انصاری ٢٨ صفحه

⁴ Hجري ٩١٠، (دوستان آداب) الاصحاح آداب، صفي على فخرالدين مولانا عبدالله خواجه انتشارات: ناشر، مجددي نقشبندي عبدالله سيد: مترجم، قمری

Ushbu misralar bir qarashda poetik ifoda bo'lib ko'rinadi, ularning har biri tasavvuf tafakkurining asosiy g'oyalari-ruhiy uyg'onish, solihlar bilan muloqot, ichki o'zgarish, qalb tarbiyasi va Allohga yaqinlikka intilish kabi tushunchalarni o'zida mujassam etadi. Har bir tabiat obrazi orqali inson qalbi va uning ruhiy kamolot yo'li ramziy tarzda ifodalangan. Bu esa, "suhbat tarbiyasi"ni nazariy emas, balki hayotiy zarurat sifatida ko'rsatadi.

Bundan tashqari, "Odob-ul as'hob" da do'stlik va suhbatning zarur shartlari sifatida ixlos, vafodorlik, sabr, sadoqat, rahm-shafqat, go'zal muomala, o'zini past tutish (tavo'zu) kabi fazilatlar sanab o'tiladi. Suhbatni o'rganish, do'stlikda ma'naviy o'sish uchun qulay muhit yaratish, so'zning tarbiyaviy kuchini anglash bu asar orqali yetkaziladigan asosiy g'oyadir.

Faxruddin Ali Safiyning "Odob-ul as'hob" asarida bayon etilgan suhbat madaniyati va ma'naviy yondashuvlar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolgan. Garchi davr o'zgargan, texnologiya rivojlangan bo'lsa-da, inson ruhiyati va jamiyatdagi ma'naviy ehtiyojlar doimiy ahamiyatga ega. Ayniqsa, hozirgi shiddatli raqamli axborot oqimida insonlararo aloqalar sohtalashib, chin dildan suhbat, samimiy muloqot, ma'naviy bog'liqlik o'z qadri ni yo'qotayotgani kuzatilmogda.

Bugungi zamonaviy ilmiy tadqiqotlar ham shuni tasdiqlaydi-ki, insonning ruhiy salomatligi, ichki muvozanati, axloqiy barqarorligi ko'p jihatdan uning qanday odamlar bilan aloqada bo'lishiga bog'liq. Bu jihatdan Ali Safiy ta'kidlaganidek, "Kim Allohni ko'p zikr qiluvchilar bilan birga bo'lsa, u Allohning zikrida bardavom bo'ladi. Kim yomonlar bilan bo'lsa, u ham oxir-oqibat ularning yo'lga tushadi"⁵ degan hikmat zamonaviy dunyomizga mos tushadi. Yaxshi do'stlik va foydali suhbat shaxsni ruhiy jihatdan tiklab, ijobiy psixologik holatni mustahkamlaydi.

Zamonaviy jamiyatda suhbat faqat og'zaki muloqot emas, balki kommunikatsiyaning barcha

shakllarida — yozma, vizual, raqamli vositalar orqali ham yuz beradi. Ammo bu vositalar o'rtasida eng barakali, eng ta'sirchan muloqot -bu halol niyat, sadoqatli yurak va samimiyat asosida kechadigan yuzma-yuz suhbatdir. Ali Safiy o'z asarida bunday suhbatni qalbdan qalbga o'tuvchi nur sifatida talqin etgan bo'lsa, hozirgi kun psixologiyasida bu "empatik aloqa"⁶ deb nomlanadi.

Xulosa. Muallif tomonidan bayon etilgan hikmatlar, misralar va iqtiboslar bir qarashda sodda ko'rinadi, ularning har biri insoniy kamolot sari yetaklovchi g'oyalarni mujassam etadi. Ayniqsa, "suhbat solih seni solih etar" degan mazmun bugungi kunda insonning ijtimoiy muhit va atrofdagi kishilar orqali qanday ruhiy holatga tushishi mumkinligini ochib beradi.

Zamonaviy dunyoda tezkor axborot oqimi, raqamli aloqalar va yuzaki muloqotlar sharoitida Faxruddin Ali Safiyning bu boradagi qarashlari yanada dolzarb tus oladi. Suhbatni inson qalbi bilan yuritiladigan samimiy aloqaga aylantirish, ijtimoiy birlik, mehr-oqibat va axloqiy fazilatlarini qayta tiklashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. فخرالدین علی صفی (ادب الأصحاب) آداب دوستان (مترجم: سید عبداللہ نقشبندی). انتشارات خواجه عبداللہ انصاری، ۱۳۹۰ هجری شمسی (۲۰۱۱ میلادی). (—) ۵۱۴ صفحه
2. Kholnazarova, D. (2022). The role of the education system in the development of legal culture in students. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 10(1).
3. Tursinkulov, N. (2022). Oliy ta'lim tizimini isloh qilish davr talabi: muammo va yechimlar. *Архив научных исследований*, 2(1).
4. Саидкулов, Н. А. (2020). Ёшлар сиёсий маданиятини креатив ёндашув асосида ривожлантириш масалалари. *Международный журнал Консенсус*, 1(1).
5. Akramkulovich, S. N. (2024). Theories of human capital development. *Science and innovation*, 3(Special Issue 24), 829-832.

(милادی ۲۰۱۱ ба مطابق) شمسی هجری ۱۳۹۰ زمستان: اول چاپ، انصاری، صفحه ۲۹

مولانا فخرالدین علی صفی، ادب الاصحاب (آداب دوستان)، ۹۱۰ هجری ۵ قمری، مترجم: سید عبداللہ نقشبندی مجددی، ناشر: انتشارات خواجه عبداللہ

انصاری، چاپ اول: زمستان ۱۳۹۰ هجری شمسی (مطابق با ۲۰۱۱ میلادی)، صفحه ۲۷

⁶ Mark H. Davis. Measuring Individual Differences in Empathy: Evidence for a Multidimensional Approach. *Journal of Personality and Social Psychology* 1983. Vol. 44. No. 1113-126

DEVELOPMENT OF CRITICAL THINKING OF STUDENTS OF PHILOLOGICAL DIRECTION IN THE STUDY OF HUMANITARIAN DISCIPLINES

¹Fayzullaeva Rukhshona Lutfulloevna

Student of the Faculty of English Philology and Translation Studies

*Samarkand State Institute of Foreign Languages
Academic Supervisor:*

²Melikova Martaba Numonovna

*Samarkand State Institute of Foreign Languages,
Doctor of Philosophy (DSc), Professor,
Head of the Department of Humanities and
Information Technologies*

РАЗВИТИЕ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ ФИЛОЛОГИЧЕСКОГО НАПРАВЛЕНИЯ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ГУМАНИТАРНЫХ ДИСЦИПЛИН

¹Файзуллаева Рухшона Лутфуллоевна

Студентка факультета английской филологии и переводоведения

*Самаркандский государственный институт иностранных языков
Научный руководитель:*

²Меликова Мартаба Нумоновна

*Самаркандский государственный институт иностранных языков,
Доктор философских наук, профессор,
Заведующая кафедрой Гуманитарных наук и информационных технологий*

FILOLOGIYA YO'NALISHIDAGI TALABALARINING GUMANITAR FANLARNI O'RGANISHDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH

¹Fayzullaeva Ruxshona Lutfulloevna

Samarqand davlat chet tillar instituti

Ingliz filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti talabasi

²Ilmiy rahbar: Melikova Martaba Numonovna Samarqand davlat chet tillar instituti

Falsafa fanlari doktori (DSc), professor

Gumanitar fanlar va Axborot texnologiyalari kafedrasini mudiri



ORCID ID: 0009-0004-2508-6434
martabamelikova@gmail.com

Annotation. The article discusses the theoretical and practical aspects of the formation and development of critical thinking in students of the philological direction in the process of studying the humanities. Special attention is paid to the definition of the essence of critical thinking as an integral ability, including analytical, reflective, logical and interpretative thinking. It is shown that the humanities (philosophy, literature, linguistics, cultural studies, etc.) have a high potential for stimulation of mental activity and the development of an independent position of students.

Keywords: Critical thinking, philological education, humanities, analytical skills, reflection, pedagogical technologies, discussion, text interpretation, project-based learning, cognitive activity.

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты формирования и развития критического мышления у студентов филологического направления в процессе изучения гуманитарных дисциплин. Особое внимание уделяется определению сущности критического мышления как интегральной способности, включающей аналитическое, рефлексивное, логическое и интерпретативное мышление. Показано, что гуманитарные науки (философия, литература, языкознание, культурология и др.) обладают высоким потенциалом для стимулирования мыслительной активности и выработки самостоятельной позиции обучающихся.

Ключевые слова: Критическое мышление, филологическое образование, гуманитарные дисциплины, аналитические навыки, рефлексия, педагогические технологии, дискуссия, интерпретация текста, проектное обучение, когнитивная активность.

Annotatsiya. Maqolada gumanitar fanlarni o'rganish jarayonida filologiya yo'nalishi talabalarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish va rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari ko'rib chiqiladi. Tanqidiy fikrlashning mohiyatini analitik, aks ettiruvchi, mantiqiy va sharhlovchi fikrlashni o'z ichiga olgan yaxlit qobiliyat sifatida belgilashga alohida e'tibor beriladi. Gumanitar fanlar (falsafa, adabiyot, tilshunoslik, madaniyatshunoslik va h.k.) talabalarining fikrlash faolligini rag'batlantirish va mustaqil pozitsiyasini shakllantirish uchun yuqori imkoniyatlarga ega ekanligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, filologik ta'lim, gumanitar fanlar, tahliliy ko'nikmalar, refleksiya, pedagogik texnologiyalar, muhokama, matnni sharhlash, loyiha asosida o'qitish, kognitiv faoliyat.

Introduction. The development of critical thinking is one of the priorities of modern humanitarian education. It becomes especially relevant in the process of training students of the philological direction, for whom the ability to interpret, analyze, argue and doubt are integral professional qualities. Reasoned judgments become strategically important.

The modern educational paradigm requires higher education not only to transmit knowledge, but also to form students' skills to think flexibly, critically, and independently. This is especially important in the context of the transformation of humanitarian knowledge, the globalization of cultural codes and accelerated information exchange. For future philologists, critical thinking is not an optional skill — it forms the basis of professional competence that allows you to competently analyze complex textual structures, identify hidden meanings, and build scientifically based interpretations.

However, in practice, the educational process in universities is often focused on the reproduction of knowledge, and not on its comprehension. This generates a deficit of intellectual initiative among students and reduces the level of their readiness for independent analytical activity. In this regard, there is a need to comprehend and implement pedagogical approaches aimed at activating the thinking activity of students.

This article is aimed at studying the potential of humanitarian disciplines in the development of critical thinking of students of philology, as well as at determining effective methods and forms of organizing the educational process that contribute to the formation of students' analytical and interpretive skills necessary in their future professional activities. **Literature review.** The problem of the development of critical thinking in the context of education has been actively studied since the end of the 20th century, and today there is an extensive theoretical base that covers both general didactic aspects and the specifics of humanitarian knowledge.

One of the first to systematize the concept of critical thinking was R. Ennis, who defined it as "deliberate and reasonable decision-making about what to believe and what to do" [Ennis, 1985]. This definition formed the basis of many subsequent pedagogical studies. D. Halpern (2000) developed a cognitive model of critical thinking that includes logical analysis, probabilistic reasoning, decision-making, and problem-solving. She emphasizes that the development of critical thinking requires systematic pedagogical support and training.

In Russian science, an important contribution to the development of this problem was made by E. S. Polat, T. A. Ladyzhenskaya, A. A. Verbitsky. Polat [2007] considers critical thinking as a tool for forming students' ability to independently evaluate information and make decisions. Verbitsky introduces the concept of contextual learning, in which the student meaningfully interacts with the content, which, in his opinion, is a prerequisite for the formation of CM [Verbitsky, 2006].

Of particular importance in humanitarian education is the work of S. Brookfield [Brookfield, 2012], where the author proves the need to use dialogical forms and reflection for the development of critical thinking in the humanities. He focuses on the fact that it is literature, philosophy and history that allow the student to question the usual ideas and develop the ability for multilateral analysis.

Some researchers, such as P. Facione [1990; 2020], have developed standardized tools for assessing critical thinking (e.g., the California Critical Thinking Skills Test – CCTST), which are used to diagnose the level of development of CT in students. His concept includes six basic cognitive skills: interpretation, analysis, evaluation, inference, explanation, and self-regulation.

In the context of philological education, the research of A. P. Kurbatov [2019] is relevant, who substantiates the importance of critical thinking for the analysis of literary and journalistic texts, and also points out the need to include special methods in the educational process of philologists.

Research methodology. The methodological basis of the study is based on the systematic, competency-based and activity approaches, as well as on the principles of humanistic pedagogy. The study is aimed at identifying the effectiveness of the use of interactive and problem-oriented methods of teaching

humanitarian disciplines in order to develop critical thinking among students of the philological direction.

Analysis and results of the study. Critical thinking in pedagogy, cognitive psychology and philosophy is considered as an integral characteristic of human mental activity, aimed at a conscious, logically substantiated, reasoned and independent assessment of information, opinions, judgments and arguments. It includes a whole range of cognitive and metacognitive skills, among which the most important are: analysis, synthesis, interpretation, reflection, evaluation, argumentation and formation of conclusions.

According to the definition of the American researcher R. Ennis (1985), critical thinking is "rational and purposeful thinking aimed at making a decision about what to believe and what to do." In the later works of P. Facione (1990), this concept is clarified as a form of purposeful, self-regulated and meaningful intellectual activity, in which the individual uses logical and conceptual means to understand and transform information. He identifies six main components of CT: interpretation, analysis, evaluation, inference, explanation, and self-regulation.

Critical thinking is also intrinsically linked to dialogical thinking. Researchers M. Bakhtin and L. Vygotsky noted that thinking develops in the process of social interaction and through an internal dialogue with others. It is in the conditions of dialogue, discussion and polylogical environment that the student acquires the ability to understand someone else's point of view, correlate it with his own, develop his own position and defend it with arguments.

In the context of humanitarian education, critical thinking plays a key role, as it contributes to a deep understanding of meanings, analysis of cultural and historical contexts, and the identification of ideological attitudes in the text. The ability to interpret and deconstruct texts, as well as to identify hidden meanings and manipulative mechanisms, are the most important components of the professional training of a philologist.

Thus, the theoretical foundations of critical thinking are a complex and multi-component structure based on cognitive, philosophical and pedagogical principles. For the successful development of critical thinking in the educational

environment, a system of methods and techniques focused on meaningful, independent, multi-positional and reflective intellectual activity of students is needed.

Philosophy, literature, history, linguistics, cultural studies, religious studies and other humanitarian disciplines directly involve the student in problematic, debatable, contraversical fields of knowledge. Students encounter different points of view, ideological attitudes, and worldview systems. The task of the teacher is not to offer the only correct answer, but to create conditions in which the student will be forced to think, analyze, compare, doubt, interpret and argue.

For example, when studying fiction, students not only get acquainted with artistic images, but also learn to understand the author's position, the social context of the work, literary allusions and intertextual connections. The analysis of a literary text requires the ability to see different levels of meaning, to distinguish the point of view of the author and the characters, and to assess the ideological load of artistic devices. This activates such elements of critical thinking as interpretation, reflection, and the ability to formulate a reasoned opinion.

In addition, the humanities disciplines encourage the use of a research approach, project activities, essays, debates, and textual analysis—all forms that are directly related to the development of critical thinking. These forms activate cognitive activity, encourage independence of judgment, and develop skills for building logically coherent argumentation.

It is important to note that the humanities not only provide material for comprehension, but also form a special type of thinking in themselves – analytical-interpretive. This type of thinking is based on the ability to recognize cultural codes, understand and explain symbolic structures, and identify interdisciplinary connections. In the context of globalization and a multicultural world, a philologist, as a carrier of humanitarian knowledge, becomes not only a specialist in language and text, but also an intermediary between cultures, which requires a high level of critical and intercultural thinking.

Thus, the humanities play a key role in the formation of a critically thinking personality. They not only provide knowledge about a person and culture, but also create conditions for a deep internal

dialogue, reflection, rethinking experience and developing one's own position. That is why in the training of philologists it is necessary to focus not only on the content of the humanities, but also on the development of universal cognitive and meta-subject skills of critical thinking through them.

Heuristic conversation (Socrates' method) occupies a special place in the arsenal of a teacher of humanities. Gradually complicating the questions and directing the student's reasoning, the teacher helps him to independently identify contradictions, identify weaknesses in argumentation, and formulate more accurate and reasonable conclusions.

The method of case analysis allows you to develop critical thinking in a context close to real professional practice. Students analyze textual, cultural or social cases: for example, situations of speech conflict, examples of manipulative rhetoric, cases of translation with a distorted meaning, publications with ideologically colored vocabulary. argumentation of positions.

Debates and discussions form a culture of argument among students, the ability to logically build arguments, be able to listen and understand the opponent, and distinguish between logical and emotional arguments. Role-playing discussions are especially effective when participants defend predetermined positions, which requires them to understand different logics and attitudes.

Reflective practices **are also widely used**, such as writing analytical essays, keeping thought diaries, and participating in "reflective circles". These forms allow students to be aware of their own intellectual strategies, identify cognitive difficulties, and track the development of their arguments over time. In the context of philology, this is especially valuable, since it contributes not only to better assimilation of the material, but also to the formation of meta-subject literacy.

Findings. Critical thinking today is not just a component of the intellectual culture of the individual, but also a key skill of the 21st century, necessary for successful professional, scientific and civic self-realization. In the conditions of a rapidly changing information society, where the flow of heterogeneous, often contradictory information prevails, it is the ability to analytical, reflective and independent thinking that becomes the basis for sustainable and responsible behavior of an individual.

The results of theoretical analysis and empirical research have confirmed that the humanities have a high potential for the formation of critical thinking among students of the philological direction. This is explained by the very nature of humanitarian knowledge, which involves working with texts, meanings, contexts and interpretations, as well as a special way of cognition – through posing questions, doubting, comparing different points of view and substantiating conclusions.

At the same time, a sustainable and systemic effect requires a methodologically thought-out strategy for the formation of critical thinking, including: training teachers for the implementation of a critically-oriented approach; development of educational and methodological materials aimed at the development of CM; creating a space of academic freedom that encourages an exploratory and dialogical style of thinking.

Thus, the development of critical thinking of philology students in the study of humanitarian disciplines should be considered as a priority area of educational policy, which can ensure not only the professional viability of graduates, but also the formation of responsible, cultured and thinking citizens who are able to adequately interact with the modern world and its complex semantic architecture.

References

1. Brookfield S. D. Teaching for Critical Thinking: Tools and Techniques to Help Students Question Their Assumptions. – San Francisco: Jossey-Bass, 2012. – 304 p.

2. Facione P. A. Critical Thinking: What It Is and Why It Counts. – Insight Assessment, 2020. – 28 p.
3. Бахтин М. М. Эстетика словесного творчества. – М.: Искусство, 1979. – 424 с.
4. Вербицкий А. А. Активное обучение в высшей школе: контекстный подход. – М.: Высшая школа, 2006. – 141 с.
5. Воронцова А. В. Формирование критического мышления студентов в образовательном процессе вуза // Вестник Томского государственного университета. – 2020. – № 453. – С. 143–150.
6. Выготский Л. С. Мышление и речь. – М.: Лабиринт, 1999. – 352 с.
7. Курбатов А. П. Критическое мышление и гуманитарное знание. – М.: URSS, 2019. – 288 с.
8. Никитина Н. А. Развитие критического мышления как педагогическая задача // Педагогика. – 2019. – № 6. – С. 62–68.
9. Полат Е. С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. – М.: Академия, 2007. – 272 с.
10. Тулмин С. Использование аргумента. – М.: URSS, 2018. – 312 с.
11. Халперн Д. Критическое мышление: психология и образование. – СПб.: Питер, 2000. – 512 с.
12. Эннис Р. Критическое мышление // Образование и критическое мышление. – М.: Академический проект, 2011. – С. 34–51.



Qabul qilindi: 15.04.2025

Chop etildi: 31.05.2025

UDK:130.31

**IMOM BUXORIY TA'LIMOTIDA ODOB-AXLOQ
KONSEPSIYASINING JAMIYAT
TARAQQIYOTIDAGI O'RNI**

Elov Jobir Rustamovich,

Buxoro Mir Arab oliy madarasasi rektori

**МЕСТО ПОНЯТИЯ ЭТИКИ В УЧЕНИИ ИМАМА
БУХАРИ В РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА**

Елов Жобир Рустамович,

Ректор Бухарского высшего медресе Мир Араб

**THE PLACE OF THE CONCEPT OF ETHICS IN THE
TEACHINGS OF IMAM BUKHARI IN THE
DEVELOPMENT OF SOCIETY**

Elov Jobir Rustamovich,

Rector of the Bukhara Mir Arab Higher Madrasah



<https://orcid.org/0009-00099-8281-8749>

tm2962822@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Imom Buxoriy ta'limotida odobning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni tahlil etilgan. Asosiy e'tibor "Al-Adab al-Mufrad" asariga qaratilgan bo'lib, unda odob va axloqiy qadriyatlarning jamiyatdagi o'rni, ijtimoiy barqarorlik va axloqiy muomala muhimligi yoritilgan. Shuningdek, maqolada Imom Buxoriy ta'limotining bugungi jamiyatda qanday ahamiyat kasb etishi tahlil qilingan.

Аннотация: В данной статье анализируется роль этики в учении Имама Бухари в контексте развития общества. Основное внимание уделено его труду "Аль-Адаб аль-Муфрэд", в котором раскрываются вопросы этики и моральных ценностей, а также их влияние на общественную стабильность и важность этического поведения. Также рассматривается актуальность учений Имама Бухари в современном обществе.

Abstract: This article analyzes the role of ethics in Imom Bukhari's teachings in the context of societal development. The main focus is on his work "Al-Adab al-Mufrad," which highlights ethical values and their impact on social stability and the importance of ethical behavior. The article also explores the relevance of Imom Bukhari's teachings in contemporary society.

Kalit so'zlar: Odob, axloq, ta'lim, tarbiya, fazilat, illat, inson, jamiyat, davlat, islom, tarix, axloqiy qadriyatlar va axloqiy tarbiya.

Ключевые слова: Манеры, этика, образование, воспитание, добродетель, порок, человек, общество, государство, ислам, история, моральные ценности и моральное воспитание.

Key words: Manners, ethics, education, upbringing, virtue, vice, human, society, state, Islam, history, moral values and moral upbringing.

KIRISH. Odob va axloq har qanday jamiyatning asosi sanaladi. Bu fazilatlar insonlar o'rtasidagi munosabatni tartibga soladi, ijtimoiy muvozanatni saqlaydi va taraqqiyotga zamin yaratadi. Islom tarixida bu masalaga katta e'tibor berilgan. Xususan, Imom Buxoriy o'zining hadishshunoslikdagi ulkan xizmatlari orqali odobga alohida urg'u bergan. Imom Buxoriy nafaqat hadislarni to'plashda, balki odamlar o'rtasidagi

axloqiy muomalalarni shakllantirishda ham katta ro'l o'ynagan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.

Maqolada Imom Al-Buxoriyning "Al-Adab al-Mufrad" va "Dar al-Fikr", Azizov A. "Imom Buxoriy va axloqiy qadriyatlar", Karimov M. "Islom odobi va ijtimoiy munosabatlar", Usmonov H. "Hadis va axloq", M. Abdulloyevning "Odob va axloqning Islomdagi o'rni" va G'azzoliyning "Ihyo ulum ad-din" asarlaridan foydalanilgan. Foydalanilgan

materiallar maqolaning ilmiylikni oshirish uchun xizmat qiladi.

Maqolada tarixiylik, vorisiylik, retrospektiv va sinergetik ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

MUHOKAMA. Imom Buxoriyning “Al-Adab al-Mufrad” asari, odamlarning axloqiy qadriyatlarini va jamiyatda barqarorlikni ta’minlashdagi ahamiyatini ko’rsatadi. Imom Buxoriy, “Al-Jome’ as-Sahih” nomli hadis to’plami bilan dunyoga mashhur bo’lsa-da, uning “Al-Adab al-Mufrad” asari ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu asarda 1300 dan ortiq hadis keltirilgan bo’lib, ular odob-axloq, oila, qo’shnihilik, ota-ona haqlari, mehmondo’stlik, halollik kabi mavzularni qamrab oladi. Imom Buxoriy ushbu asar orqali axloqiy tarbiyaning diniy va dunyoviy hayotdagi o’rnini keng yoritgan. Har bir hadis orqali u odob va axloqning jamiyatda qanday muhim rol o’ynashini ko’rsatgan.

Odob — insonning o’zi va boshqalarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo’lishi, berilgan ne’matlarni ehtirom bilan qabul qilishi, har qanday vaziyatda o’zini munosib tutishi demakdir. Islomda odob shaxsiy fazilat bo’libgina qolmay, balki umumiy jamiyat qadriyati hisoblanadi.

Imom Buxoriyning asarlarida quyidagi odob turlari bayon qilinadi:

Alloh taolaga nisbatan odob: Imom Buxoriy asarlarida, xususan “Al-Adab al-Mufrad” va “Sahih al-Buxoriy” kabi kitoblarida Allohga nisbatan odob masalasi nihoyatda nozik, chuqur va muhim masalalardan biri sifatida yoritiladi. Bu odob — faqat tashqi muomala yoki ibodat bilan cheklanmaydi, balki qalb holati, til, fikr va amaldagi poklikni ham qamrab oladi.

Rasulullohga nisbatan odob: Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga nisbatan odob — islom axloqi va aqidasiining asosiy tushunchalaridan biridir. Imom Buxoriy o’zining “Sahih al-Buxoriy” va “Al-Adab al-Mufrad” asarlarida Payg’ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamga nisbatan odobni alohida urg’u bilan yoritgan. Bu odob — u zotga nisbatan so’z, amal, qalb va niyatni isloh qilgan holda samimiy hurmat ko’rsatishni o’z ichiga oladi.

Ota-onaga nisbatan odob: Ota-onaga nisbatan odob — islomda eng muqaddas insoniy burchlardan biri hisoblanadi. Bu mavzu Imom Buxoriyning “Al-Adab al-Mufrad” asarida alohida urg’u bilan yoritilgan bo’lib, ota-onaga ehtirom — faqat ijtimoiy odob emas, balki ibodat darajasidagi amal sifatida qaraladi.

Imom Buxoriy “Al-Adab al-Mufrad”da ko’plab hadislar orqali oila a’zolariga hurmat va mehr ko’rsatish haqida urg’u beradi. “Ota-onaga yaxshi muomala qilish” haqidagi hadislar oilaviy tinchlik va baraka asosi sifatida ko’rsatilgan.

Masalan: *رضا الرَّبِّ فِي رِضَا الْوَالِدِ، وَسَخَطُ الرَّبِّ فِي سَخَطِ الْوَالِدِ*

“Allohning roziligi ota-onaning roziligidir, Allohning g’azabi ota-onaning g’azabidadir” (Al-Adab al-Mufrad, 1-bob).

“Allohning roziligi ota-onaning roziligidir, Allohning g’azabi ota-onaning g’azabidadir” degan hadis — islom axloqi va iymon asoslarining eng muhim tamoyillaridan biridir. Bu hadis orqali Rasululloh sollallohu alayhi vasallam ota-onaga bo’lgan munosabatni Allohga bo’lgan munosabat darajasiga ko’targan. Ularning roziligi — Allohning roziligiga, g’azabi esa Uning g’azabiga bog’langan. Bu esa har bir musulmon uchun ota-onaga nisbatan odob, hurmat, xizmat va duo qilishni ibodat darajasida ado etish zarurligini bildiradi.

Imom Buxoriy o’zining “Al-Adab al-Mufrad” asarida ota-onaga yaxshilikni ilmiy va amaliy jihatdan yoritgan, uni jamiyat barqarorligining, Allohga yaqinlikning va dunyo-oxirat saodatining kafolati sifatida baholagan. Shunday ekan, bu hadis bizdan ota-onamizga nisbatan:

- hurmat bilan muomala qilishni,
- chiroyli so’z gapirishni,
- ularning roziligini olishga intilishni,
- ularning xizmatlarida bo’lishni,
- va vafotlaridan so’ng ham duoda eslashni talab qiladi.

Bu kabi odob qoidalari jamiyatda sog’lom va barqaror oilalar shakllanishiga xizmat qiladi.

Ustozlarga nisbatan odob: Ustozlarga nisbatan odob islomiy tarbiyaning ajralmas va muhim jihatlaridan biridir. Bu mavzu ham Imom Buxoriy asarlarida alohida o’rin tutadi. Ilm olish jarayonida ustozga bo’lgan hurmat — faqat insoniy burch emas, balki ilmning barakasi, uni amalga aylanishi va Alloh rizosini topish vositasi sifatida qaraladi. Ilm va ustozlarga hurmat masalasi ham Imom Buxoriy tomonidan keng yoritilgan. Ustozlarni hurmat qilish — bilimni hurmat qilish demakdir, bilim esa jamiyat taraqqiyotining negizidir.

Zotan, salaf ulamolarimizdan Imom Molik ibn Anas rohimahulloh:

تعلموا الأدب قبل أن تتعلموا العلم

“Ilm o‘rganishdan oldin odobni o‘rganinglar” deganlar. **Yana u zotdan rivoyat qilinadi: “Onam menga olimlarning libosini kiydirib, menga shunday der edilar: “Rabi’aning huzuriga borib, ilmidan oldin uning odobini o‘rgan””.**

Yuqoridagi kabi rivoyatlar — islomda ilm faqat aqlni emas, qalb va axloqni ham tarbiyalashi kerak degan muqaddas qarashni ifodalaydi. Imom Buxoriy ilm egasining:

- avvalo kamtarlik,
- ustozga hurmat,
- halollik va sabr,
- so‘zda va amalda ehtiyotkorlik fazilatlari

bilan bezanishini lozim deb hisoblaydi.

Odobli shogird — ilmga baraka olib kiradi. Ilm esa odob bilan uyg‘unlashgandagina haqiqiy nurga aylanadi. Shuning uchun ilm yo‘lini tanlagan har bir inson avvalo qalbini va axloqini tayyorlashi kerak. Zero odob – ilmning kalitidir.

Bu rivoyatlarda ilmning mohiyati faqatgina ma’lumotni bilishning o‘zi emas, balki uni odob bilan olish va unga amal qilib, boshqalarga tarqatish muhimligi tushuniladi.

Jamiyatdagi tartib va adolat odob me'yorlariga asoslanadi. Rahbar va amaldorlar odobli bo‘lsalar, jamiyatda adolat va taraqqiyot mustahkamlanadi. Imom Buxoriy ta’limotida odobli rahbar – adolatli rahbardir, adolatli rahbar esa — Allohning huzurida azizdir. Adolat va odob birlashganda:

- jamiyatda tartib va rivojlanish bo‘ladi,
- xalq o‘z rahbarlariga ishonadi,
- yoshlar uchun yaxshi o‘rnak va namunalar shakllanadi.

Demak, odob – adolatga olib boradigan yo‘l, adolat esa taraqqiyotning asosidir.

Imom Buxoriy adolatli rahbarlarning fazilatlarini va ular orqali jamiyat barqaror rivojlanishini ko‘rsatib o‘tgan.

Imom Buxoriy, asosan, hadis ilmini rivojlantirgan va uning ichida axloqiy, ijtimoiy va diniy qadriyatlarni shakllantirishga katta e’tibor bergan.

“Al-Adab al-Mufrad” asari uning axloqiy ta’limotining mohiyatini o‘zida aks ettiradi. Ushbu asar, insonning ijtimoiy hayotida qanday axloqiy qadriyatlar mavjudligi va bu qadriyatlarning jamiyat taraqqiyotiga ta’sirini ko‘rsatadi.

“Al-Adab al-Mufrad” asarida axloqiy qadriyatlarning turli jabhalari keltirilgan. Bu asarda odamlarning bir-biri bilan bo‘lgan munosabatlaridagi

axloqiy me'yorlar, yaxshi va yomon muomala, samimiyat va halollik kabi asosiy masalalar yoritilgan. Imom Buxoriy asarda odobni jamiyatda tartib o‘rnatish, odamlar o‘rtasidagi tinchlik va hurmatni saqlash vositasi sifatida ko‘rsatgan.

NATIJALAR. Oila — jamiyatning asosidir. Imom Buxoriy, o‘z asarlarida oila a’zolari o‘rtasidagi hurmat va mehr-oqibatni ta’kidlagan. Oila ichidagi yaxshi muomala, jamiyatdagi umumiy axloqiy me'yorlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Jamiyatda axloqiy me'yorlar, odamlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tartibga soladi. Imom Buxoriy o‘zining hadislarida jamiyatdagi axloqni shakllantirish va odamlar o‘rtasida murosani saqlashni ta’kidlagan. Bu qadriyatlar ijtimoiy barqarorlikka olib keladi.

Imom Buxoriyning ta’limotiga ko‘ra, odobning jamiyatdagi ahamiyati shundaki, u odamlarning o‘zaro munosabatlarini yaxshilashga yordam beradi va shu orqali jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta’minlaydi. Jamiyatdagi odobga asoslangan muomala ijtimoiy tartibni saqlashga yordam beradi, shu bilan birga jamoaviy hamkorlikni rivojlantiradi.

Imom Buxoriy axloqning jamiyatdagi o‘rni haqida gapirarkan, adolatni ham muhim qadriyat sifatida ta’kidlagan. Jamiyatda adolat bo‘lishi uchun, har bir insonning haq-huquqlari hurmat qilinishi lozim. Ijtimoiy adolatni ta’minlash uchun, odamlar o‘rtasidagi muomala odob va halollik ustiga qurilgan bo‘lishi kerak. Ijtimoiy adolat jamiyatda tinchlik va barqarorlikni saqlashga yordam beradi.

Imom Buxoriy “Al-Adab al-Mufrad” asarida ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarning jamiyatni shakllantirishdagi muhim rolini ko‘rsatgan. Asar, nafaqat musulmonlarning axloqiy va diniy qadriyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi, balki odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilashga ham yordam beradi. Bu asarda keltirilgan hadislar jamiyatda axloqiy muomalalarni shakllantirishda zarur bo‘lgan ko‘rsatmalarni beradi.

XULOSA. Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, Imom Buxoriy ta’limotida odob va axloq jamiyat taraqqiyoti, barqarorligi va ijtimoiy muvozanatning asosi sifatida talqin etiladi. U Allohga, Rasulullohga, ota-onaga, ustozlarga, qo‘shnilarga va boshqa insonlarga nisbatan odob me'yorlarini aniq va chuqur yoritgan. Asarda keltirilgan hadislar orqali insonning ichki tarbiyasi, ijtimoiy muomalasi va axloqiy fazilatlari mukammal

tarzda shakllantiriladi. Imom Buxoriy odobni ilm, adolat, rahbarlik, oila va jamiyatda tinch-totuvlikning garovi sifatida ko'rsatgan. "Al-Adab al-Mufrad" asari bugungi kunda ham axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarni tiklash, insonlar o'rtasidagi hurmat, samimiyat va mehr-oqibatni mustahkamlashda muhim qo'llanma bo'lib xizmat qiladi. Shunday ekan, bu asarni chuqur o'rganish va undagi ko'rsatmalarga amal qilish har bir musulmon uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Al-Buxoriy, Muhammad ibn Ismoil. Al-Adab al-Mufrad. Qohira, 1997.
2. Al-Buxoriy, Muhammad ibn Ismoil. Sahih al-Buxoriy. Dar al-Fikr, Beyrut.
3. Azizov, A. Imom Buxoriy va axloqiy qadriyatlar. Toshkent, 2015.

4. Karimov, M. Islom odobi va ijtimoiy munosabatlar. Toshkent, 2012.
5. Usmonov, H. Hadis va axloq. Samarqand, 2020.
6. Abdulloyev, M. Odob va axloqning Islomdagi o'rni. Toshkent, 2018.
7. Al-Buxoriy, Sahih al-Buxoriy, Kitab al-Adab.
8. Ibn Hajar al-Asqalani, Fath al-Bari, Qohira: Dar al-Ma'rifa, 1989.
9. M. A'zam, Islom axloqi va odobi, Toshkent: Movarounnahr, 2007.
10. Al-G'azzoliy, Ihyo ulum ad-din, Qohira: Dar al-Turath, 2004.
11. Imom Buxoriy. Al-Adab al-Mufrad. Dar al-Kutub al-Ilmiyyah, Bayrut.
12. Al-A'zami, Muhammad Mustafa. Studies in Hadith Methodology and Literature. Islamic Book Trust, 2002.
13. Kamali, Mohammad Hashim. Freedom, Equality and Justice in Islam. Islamic Texts Society, 2002.



Qabul qilindi: 15.04.2025

Chop etildi: 31.05.2025

UDK:347.638

BOLA HUQUQLARI TUSHUNCHASI, MOHIYATI VA ULARNI HUQUQIY JIHATDAN HIMOYA QILISH ASOSLARI

Rahmatova Adiza Orifovna

*O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi
huzuridagi Sudyalar oliy maktabi tinglovchisi*

THE CONCEPT, ESSENCE OF THE RIGHTS OF THE CHILD
AND THE BASICS OF THEIR LEGAL PROTECTION

Rahmatova Adiza Orifovna

Trainee at the Supreme School of Judges

with the Supreme Judicial Council of the Republic of Uzbekistan

ПОНЯТИЕ, СУЩНОСТЬ ПРАВ РЕБЕНКА И
ОСНОВЫ ИХ ПРАВОВОЙ ЗАЩИТЫ

Рахматова Адиза Орифовна

*Слушатель Высшая школа судей при Высшем совете судей
Республики Узбекистан*

Annotatsiya: Mazkur maqolada bola huquqlari tushunchasi, uning mohiyati hamda ularni huquqiy jihatdan himoya qilish asoslari yoritilgan. Unda xalqaro va milliy huquqiy hujjatlar asosida bolalarning asosiy huquq va erkinliklari tahlil qilinadi, ularni himoya qilish mexanizmlari, shuningdek, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: bola huquqlari, bola fikri, xalqaro hujjatlar, konvensiyasi, inson huquqlar, zo'rovonlik, ta'lib olish huquqi, tarbiyalanish huquqi.

Аннотация: В данной статье раскрывается понятие прав ребёнка, их сущность и основы правовой защиты. Анализируются основные права и свободы детей на основе международных и национальных правовых документов, рассматриваются механизмы их защиты, а также существующие проблемы и пути их устранения.

Ключевые слова: права ребёнка, мнение ребёнка, международные документы, конвенция, права человека, насилие, право на заботу, право на воспитание.

Annotation: This article explores the concept of children's rights, their essence, and the foundations of their legal protection. It analyzes the fundamental rights and freedoms of children based on international and national legal documents, discusses mechanisms for their protection, as well as existing challenges and possible solutions.

Keywords: children's rights, child's opinion, international documents, convention, human rights, violence, right to receive care, right to upbringing.

KIRISH. Xalqaro va milliy huquqda bola huquqlari yosh avlodni himoya qilishning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Bola huquqlari deb bolaga nisbatan inson huquqlarining bir toifasi, irqi, jinsi, dini, millati kabi omillardan qat'i nazar har bir bolaga tegishli bo'lgan huquq va erkinliklar majmui tushuniladi. Konvensiya qabul qilingan 1989-yil

BMTga a'zo davlatlar birinchi marta bolani huquq egasi sifatida rasmiy e'tirof etdi.

Adabiyotlar tahlili. Mavzuga oid bir qancha ilmiy ishlar mavjud. Masalan, Sobirjon qizi Abdushohidova bolalarga nisbatan zo'rvonlik tushunchasi va uni oldini olish choralari o'rgangan¹. Tadqiqotchining fikricha, ota-ona yoki



adizarahmatova9@gmail.com

+998 91 406 35 11

ORCID: 0009-0006-3840-5347

¹Zulayho Sobirjon qizi Abdushohidova. Bolalarga nisbatan zo'rvonlik. O'zbekistonda zo'rvonliklarni oldini olish bo'yicha ko'rilayotgan choratadbirlar haqida. "Science and

Education" Scientific Journal / Impact Factor 3.848. May 2023 / Volume 4 Issue 5. 1028-1031-betlar.

tarbiyachi tomonidan bolaning jismoniy, ruhiy yoki boshqa jihatdan jarohatlanishiga olib keladigan har qanday xatti-harakat «bola huquqlariga qarshi zo‘ravonlik» hisoblanadi. Shu bilan birga, UNICEF O‘zbekiston vakolatxonalarini bolalar huquqlarini himoya qilishdagi dolzarb masalalarni yoritgan.

Asosiy qism. “Bola huquqlari” atamasi ostida bolaga nisbatan cheklovlarsiz taqdim etiladigan huquq va erkinliklar to‘plami tushuniladi. Xalqaro huquqda bola 18 yoshgacha bo‘lgan shaxs sifatida qaraladi va unga alohida huquqlar kafolatlanishi lozimligi ta’kidlanadi². Konvensiyadan oldingi hujjatlarda ham (masalan, 1959-yilgi Jeneva deklaratsiyasi) bola alohida g‘amxo‘rlikka ega ekanligi qayd etilgan. Shu sababli, bolalar jamiyatning eng himoyasiz a‘zosi sifatida ko‘riladi va ularga “hurmat qilish va kafolatlash” talablari qo‘yiladi. Mazkur tushuncha doirasida bolalarning yashash huquqi, ta’lim olish huquqi, sog‘liqni saqlash huquqi, oilada tarbiyalanish va g‘amxo‘rlik ko‘rilishi huquqi kabi asosiy huquqlar ko‘zda tutiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ham bolalarning huquqlarini ta’minlashni davlat majburiyati qilib belgilaydi. Ushbu Konstitutsiyaning 78-moddasida: “Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda himoya qilish... davlatning majburiyatidir” deb aytiladi³. XIV bobda esa ota-ona va farzandlar munosabatlari, oilaviy mas’uliyatlar tartibiga oid qoidalar mavjud (masalan, 77-moddada ota-onalarning farzandlarini parvarishlash majburiyati va davlatning yetim bolalarga g‘amxo‘rligi haqida gap boradi). Milliy qonun hujjatlaridan O‘zbekiston Respublikasi 2008-yil 7-yanvardagi “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni alohida ahamiyatga ega⁴. Ushbu hujjatlarning barchasi umumiy holda bolalarning manfaatlarini hamda huquqiy himoyasini yaxshilashga qaratilgan. Shulardan kelib chiqib quyidagilar bolalarning eng muhim huquqlari hisoblanadi:

Ta’lim olish huquqi. Har bir bolaning maktabda o‘qishi, bepul va sifatli ta’lim olishi O‘zbekiston Konstitutsiyasida kafolatlanadi⁵. Bola maktabga qatnashishi, kasb-hunar va oliy o‘quv yurtlariga kirishi teng imkoniyat asosida ta’minlanishi lozim. Shuningdek, maktabgacha ta’lim va inklyuziv ta’lim tizimi ham bolalar uchun muhimdir.

Sog‘liqni saqlash huquqi. Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyaning 24-moddasida davlatlar bolalarning zarur tibbiy xizmatlardan foydalanishini ta’minlashi ko‘zda tutilgan⁶. Bunday choralar sifatida chaqaloqlar va bolalar o‘limini kamaytirish, jamoat sog‘lig‘ini mustahkamlash, bolalarga dastlabki tibbiy yordam ko‘rsatish va yetarli oziq-ovqat bilan ta’minlash choralari sanalgan. Milliy qonunchilikda bolalarning homiladorlik va ro‘zg‘or sharoiti haqida oilaviy salomatlik kafolatlari, shuningdek tibbiy sug‘urta tizimida bolalarni qo‘llash kabi normalar mavjud.

Fikr bildirish erkinligi. Konvensiyaning 13-moddasiga ko‘ra, bola har qanday turdagi axborot va g‘oyalarni og‘zaki, yozma yoki boshqa shaklda izlash, olish va ulardan foydalanish huquqiga ega. Bu huquq bola nutqini cheklamaslik, unga qarshi hech qanday “mumkin bo‘lgan” to‘siq qo‘ymaslikni anglatadi.

Tenglik huquqi. Bola huquqlariga doir Konvensiya farzandlarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat’i nazar tengdirligini belgilaydi. Ya’ni barcha bolalarga teng huquq va imkoniyatlar berilishi lozim. Milliy darajada ham bolalar orasida kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik prinsipi qonun bilan ta’minlanadi.

Tarbiyalanish huquqi. Bolalar konstitutsiyaviy normalarga muvofiq ota-ona e’tiborida, oilada tarbiyalanishga haqli. Ota-onalar farzandlarini boqib tarbiyalashga majbur bo‘lib, davlat va jamiyat yetim yoki ota-onasidan mahrum bolalarga ixtiyoriy xayriya faoliyati orqali

² <https://advice.uz/oz/document/2675#:~:text=,etmaganlarning%20barchasi%20bola%20deb%20tan>

³ https://constitution.uz/uploads/constitution_oz.pdf#:~:text=Bolaning%20huquqlari%2C%20erkinliklari%20va%20qonuniy,sharoitlarni%20yaratish%20davlatning%20majburiyatidir

⁴ O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-yanvardagi “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-139-son Qonuni

// Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 21.02.2025-y., 03/25/1035/0166-son.

⁵ O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 50-moddasi // qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son.

⁶ Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya 24-moddasi // <https://lex.uz/docs/-2595913>.

g'amxo'rlikni ta'minlaydi⁷. Shu bilan birga, har bir bolaga ota-ona va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan suiiste'mol qilinmaslik huquqi kafolatlangan.

Shekspirning «Romeo va Julieta» asarida xiyonat masalasi ham muhim o'rin tutadi va asardagi voqealar rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xiyonat bir necha darajada, turli xarakterlar tomonidan sodir etiladi, bu esa ularning qarorlari va harakatlarida ziddiyatlar keltirib chiqaradi [6].

Julieta o'z oilasiga, ayniqsa otasiga xiyonat qilgan deb qaralishi mumkin. U Parij bilan turmush qurishga rozi bo'lishi kerak bo'lgan paytda, Romeo

bilan yashirincha turmush quradi. Bu harakat, oilasining istaklariga qarshi borish bilan birga, oila sharafini ham buzadi. Julieta oilasidan sir saqlash orqali ularga xiyonat qiladi, lekin bu harakat Romeo bilan bo'lgan sevgisi va sadoqatidan kelib chiqadi.

Shekspirning «Romeo va Julieta» asarida sadoqat va xiyonat markaziy mavzular sifatida bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgan va asardagi voqealar rivojiga katta ta'sir ko'rsatadi. Sadoqat qahramonlarning shaxsiy munosabatlari va his-tuyg'ularida, xiyonat esa ular duch keladigan qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarda namoyon bo'ladi. Sadoqat sevgi, oila, do'stlik va majburiyatlar orqali namoyon bo'ladi. Romeo va Julieta bir-biriga bo'lgan sadoqati orqali ularning sevgisi qurbonliklar bilan yo'ldosh bo'lsa-da, haqiqiy va sof ekanligini ko'rsatadi. Bu sadoqat ular uchun ham baxt, ham fojea keltiradi. Oila va do'stlikka bo'lgan sadoqat esa qahramonlarning harakatlariga ta'sir qilib, ularni bir-biridan ajratadi yoki qo'llab-quvvatlaydi. Xiyonat esa qahramonlarning muqarrar fojeasiga sabab bo'ladi. Romeo va Julieta o'z oilalariga nisbatan xiyonat qiladi, chunki ular sevgilarini yashiradi va oilaviy an'analarga qarshi boradi. Boshqa qahramonlar ham o'z manfaatlari yoki his-tuyg'ularini himoya qilish uchun xiyonat yo'liga o'tadilar. Xiyonat asarda adolat, majburiyat va sadoqat ziddiyatlarini keltirib chiqaradi [8].

NATIJALAR (PEZUJITATI/ RESULTS).

Ernest Xemingueyning «Quyosh chiqadi» romani birinchi jahon urushidan keyingi davrda yashayotgan avlodning vafodorlik va sadoqat masalalarini tadqiq qiladi. Ernest Hemingueyning (Ernest Hemingway) «Quyosh chiqadi» («The Sun Also Rises») romani o'z davrining murakkab va o'zgaruvchan dunyosini aks ettiradi. Kitobda asosiy mavzulardan biri sadoqat masalasi bo'lib, u turli shakllarda namoyon bo'ladi. Heminguey, bu mavzuni murakkab insoniy munosabatlar, xususan, romantik aloqalar orqali o'rganadi [1].

Romanda Jake Barnes va Brett Ashley o'rtasidagi munosabatlar sadoqatning murakkabligini ko'rsatadi. Jake Brett ni sevadi, lekin jismoniy kamchiliklari tufayli u bilan to'liq munosabatlarni qura olmaydi. Brett, o'z navbatida, Jakega nisbatan kuchli his-tuyg'ulari bo'lishiga qaramay, doimiy ravishda boshqa erkaklar bilan yaqinlik qiladi. Romanda ko'plab personajlar o'zlarining hayotiy maqsadlarini yo'qotgan, bu esa ularni beqaror va muayyan bir narsaga sadoqat qilishdan voz

kechishiga olib keladi. Romanda sadoqat murakkab va ko'p qirrali tarzda tasvirlangan. Shu tarzda, «Quyosh chiqadi» romani sadoqatning murakkabligi, insoniy munosabatlardagi qiyinchiliklar va zamona-viy dunyoning og'irliklari haqida o'yantiradi. Heminguey sadoqatni nafaqat romantik munosabatlarda, balki do'stlik, vatan va hayotiy maqsadlar doirasida ham o'rganadi. «Quyosh chiqadi» romanida xiyonat masalasi muhim mavzulardan biridir va asar davomida turli xil shakllarda namoyon bo'ladi. Heminguey bu mavzuni romantik, do'stlik va shaxsiy masalalar orqali o'rganadi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION). Amerika va o'zbek madaniyatlarida sadoqat va xiyonat tushunchalari turlicha tarixiy va madaniy kontekstda shakllangan bo'lsa-da, ularning asosiy ma'naviy-axloqiy mazmuni umumiy insoniy qadriyatlarga tayanadi. Oila, do'stlik, jamiyatga sadoqat kabi fazilatlar har ikki jamiyatda ijobiy baholansa, xiyonat salbiy hodisa sifatida qoralangan. Badiiy adabiyotda bu tushunchalar obrazlar va syujetlar orqali insoniyatning ruhiy kechinmalarini ifodalaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА/ REFERENCES)

1. Gulxaniy. Zarbulmasal. – Toshkent: O'qituvchi, 1972. – 56 b.
2. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab... // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. – № 5. – B. 3-16.
3. Tarixi anbiyo va hukamo. Asarlar. O'n besh tomlik. T.15. – Toshkent. 1968.
4. Vohidov E. Iztirob. – Toshkent: O'zbekiston, 1992.
5. Vohidov E. Kuy avjida uzilmasin tor: she'rlar va doston. – Toshkent: G'afur G'ulom nomi-dagi Nashriyot matbaa birlashmasi, 1991. – 26 b.
6. William Shakespeare. Romeo and Juliet. – Boston and New York: "H. M. Caldwell Company", 1887.
7. Yusupov O'.Q. Tilshunoslikda yangi yo'nalishlar va ularda ishlatiladigan ayrim istilohlar // Filologiya masalalari. – 2011. – № 2.
8. Yusupov U.K. Ma'no, tushuncha, konsept va lingvokulturema atamaları xususida// Stilistika tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlarida. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent. 2011. – B. 3-12.

Qabul qilindi: 15.04.2025

Chop etildi: 31.05.2025

UDK: 398.9(562.7)

**SHEROBOD DOSTONCHILIK MAKTABINING
DAVOMCHISI BAXSHI ABDUNAZAR POYON
O'G'LINING DOSTONCHILIKDA TUTGAN O'RNI**

*Axmedova Gulchehra O'skinovna,
Termiz davlat universiteti "Jahon tarixi" kafedrası
dotsenti, t.f.b.f.d (PhD)*

**THE PLACE IN POETRY OF BAKSHI ABDUNAZAR
POYAN OGLI, A GRADUATE OF THE SHERABAD
SCHOOL OF POETRY**

*Akhmedova Gulchehra Oskinovna,
Associate Professor, Department of "World History" of Termez State
University, (PhD)*

**МЕСТО В ПОЭЗИИ БАКШИ АБДУАЗАРА ПОЯН
ОГЛИ, ВЫПУСКНИКА ШЕРАБАДСКОЙ ШКОЛЫ
ПОЭЗИИ**

*Ахмедова Гульчехра Оскиновна,
доцент кафедры «Всемирной истории» Термезского
государственного университета, (PhD)*



axmedovaguli@gmail.com

[com](https://orcid.org/0009-0009-6649-9557)

Orcid: 0009-0009-
6649-9557

Annotatsiya: Maqolada Surxon vohasi baxshichilik san'ati taraqqiyotida baxshi Abdunazar Payanovning o'rni va uning ijodi haqida batafsil ma'lumot berilgan

Kalit so'zlar: baxshi, doston, terma, repertuar, ustoz, ijod, san'at, voha, xalq, shogird.

Keywords: bakhshi, epic, term, repertoire, teacher, creativity, art, oasis, people, disciple.

Abstract: The article provides detailed information about the role of bakhshi Abdunazar Payanov in the development of bakhshi art of the Surkhan oasis and his creativity.

Ключевые слова: бахши, эпос, термин, репертуар, учитель, творчество, искусство, оазис, народ, ученик.

Аннотация: В статье даны подробные сведения о роли бахши Абдуназара Паянова в развитии искусства бахши Сурханского оазиса и его творчестве.

KIRISH (INTRODUCTION). Surxon vohasi badiiy ijodiyotining qadimiy boy an'analari ham ko'plab avlodlar va ijodkorlar ishtirokida shakllangan rivoj topgan o'ziga xos takrorlanmas xususiyatlarga ega bo'lgan O'zbek xalq og'zaki ijodining katta bir qismini dostonlar tashkil etadi. Dostonchilik respublikamizning ba'zi joylaridagi kabi Surxon vohasida ham qadimiy bo'lib u necha asrlardan buyon yaratuvchi va bunyodkor xalqimizning ideal orzu – umidlari kurash va intilishlari urf – odatlari, rasm – rusumlari, axloqiy – ruhiy va milliy qadriyatlarimizning ifodasi sifatida yashab kelmoqda. Demak xalq o'z ajdodlari qoldirgan merosdan foydalanib Jahon miqyosda uning qadriga yetayotgan ekan bunday xalqni hech

qanday kuch yenga olmaydi. Bunday xalq ulkan ishlar qilishga buyuk kelajak yaratishga qodirdir. Surxon vohasi folklorini keyingi yetmish – saksoninchi yillarda o'rganish yozib olish xilma – xil dostonlarning versiyalari va variantlarini taqqoslash ilmiy tadqiq etish shuni ko'rsatadiki an'anaviy dostonchilikning yashash tarzi avloddan – avlodga o'tib, bizgacha asrab – avaylab yetkazib kelinishi asosan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan turkiy qavmlar orasida yuzaga kelgan hamda jonli ijroda sifat o'zgarishlariga uchragan holda hozirgacha yashab turibdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD / (MATERIALS AND METHODS) Baxshichilik san'ati - xalq dostonchiligi ham xuddi shunday

yuzaga kelib kamol topgan. Surxon vohasi folklori haqida soʻz yuritar ekanmiz bu voha baxshichiligi Qashqadaryo baxshichiligi bilan chambarchas bogʻliqligini taʼkidlaymiz. Shu bois Surxon vohasi baxshichiligini Qashqadaryo baxshichiligidan ayro tarzda oʻrgana olmaymiz. Oʻtgan asrning 20–yillaridan boshlab yurtimiz aholisi ogʻzaki ijodini oʻrganish, toʻplash, nashr etish, tadqiqotlar oʻtkazish yaxshi yoʻlga qoʻyilgan boʻlsa-da Qashqadaryo Surxon vohasi folklorini xususan, dostonchiligini oʻrganishga nisbatan kech kirishildi. Janubiy Oʻzbekiston baxshilari dostonchiligi haqidagi dastlabki maʼlumotlarni rus tadqiqotchisi Y. F. Kol 1890 – yildayoq oʻz kundaliklarida yozib qoldirgan edi. U Termiz yaqinidagi Solihobod qishlogʻida oyinli urugʻidan boʻlgan Omonnazar uch soat davomida toʻxtovsiz doston kuylaganini qayd qiladi. E.F. Kol kundaligini tekshirgan Hodi Zarif Omonnazar kuylagan doston “Alpomish” dostoni ekanligini aniqlaydi. Qashqadaryo va Surxon vohasi xalq ogʻzaki ijodini oʻrganishga kirishish 1929-yilda ikki voha dostonchiligini ilk bor tadqiq etishga kirishgan folklorshunos Hodi Zarif hisoblanadi. Umum oʻzbek dostonchiligida alohida oʻrin egallagan Surxon vohasi dostonchiligi haqida, xususan, Sherobod dostonchiligi maktabi toʻgʻrisida navbatdagi maʼlumotni bergan olim Mansur Afzalov boʻldi. 1929-yilgi ekspeditsiyadan oʻn olti yil oʻtgach, 1945-yilda Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining bir guruh ilmiy xodimlari Qashqadaryo - Surxon vohasi folklor ekspeditsiyasida boʻlib, koʻpgina xalq baxshilari bilan uchrashdi, ayrim dostonchilarni aniqladi va dostonlardan parchalarni yozib oldi. Butun Janubiy Oʻzbekiston folklorini, xususan, dostonchiligini kompleks tarzda toʻplash va oʻrganish, jonli jarayonda izchil kuzatish 1953–yildan boshlangan. Surxon vohasidostonchiligining izchil ravishda oʻrganilishi navbatdagi izlanishlar monografik tadqiqotlar vohada uchta dostonchilik borligini koʻrsatadi.

NATIJARLAR (RESULTS). Viloyat, respublika radioeshittirish va televideniylarida 1984-yildan beri muntazam chiqishlar qilib kelmoqda. 1993-yilda “Marhabo talantlar” respublika televidizion koʻrik-bellashuvida ishtirok etgan. Respublika televideniyesi “Xalq ogʻzaki ijodi”, “Siz sevgan dostonlar”, “Ostonasi tillodan”, “Oltin beshik”, “Ikki daryo oraligʻida” koʻrsatuvlarida, Yoshlar tekekanali va boshqa

koʻplab koʻrsatuvlarda muntazam chiqib turadi. Oʻzbekiston radiosiga 6 ta dostoni: “Oltin qoboq”, “Sanam-Gavhar”, “Turkiston”, “Malla savdogar”, “Ravshanxon”, “Goʻroʻgʻlining tugʻilishi” nomli dostonlari yozib olingan va bir necha bor namoyish etilgan. 2009-yilda Koreya televideniyesi Abdinazar baxshining faoliyati va ijodi haqida koʻrsatuvlar olib, Koreya va Oʻzbekiston televideniylarida namoyish etildi. “Alpomish” dostonining Surxandaryo varianti Abdinazar baxshi Poyon oʻgʻlidan 1998-yilda yozib olingan. Professor, filologiya fanlari doktori Malik Murodov va filologiya fanlari kandidati Abduolim Ergashevlar yozib olib, nashrga tayyorlashgan. Taniqli jurnalist Normurod Norqobilov Abdinazar baxshi Poyon oʻgʻliga atab yozgan “Joʻshqin daryo” badiasida Abdinazar Poyon oʻgʻli yigirma yetti yoshigacha qoʻliga doʻmbira tutmagan, terma yoki doston aytib koʻrmaganligini aytib oʻtadi. Lekin Abdinazar Poyonov bolaligidan baxshilarni tinglab ulgʻayganligi uchun baxshilarning sozi va ovozi yaxshigina baholay olardi. Gohida maslahatlarini ham ayammasdi, ammo baxshi boʻlishni xayoliga ham keltirmasdi. Abdinazar baxshi Poyon oʻgʻli ilk ustoz Xoshboq baxshining tarbiyasini oldi. Abdinazar baxshi oʻzi ustoz boʻlishiga qaramasdan, Chorshanbi baxshi Rahmatullayevning ham shogirdi hisoblanadi. Chunki Chorshanbi baxshi ham dostonlarning koni hisoblanadi. Surxonda u kishiga teng keladigan baxshi topilmaydi. Biladigan dostonlari yetmishdan oshadi termalari esa juda maʼnoli. Abdinazar baxshi Poyon oʻgʻli “Alpomish” dostonining yana bir yangi variantini nashr ettirgan. Abdinazar baxshi kuylagan “Alpomish” dostoni Fozil shoir Yoʻldosh oʻgʻli ijrosidagi dostonidan baʼzi oʻrinlari bilan farq qiladi. Abdinazar baxshi Poyon oʻgʻlining 200 ga yaqin termasi bor.

MUHOKAMA

(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION). Bu termalar insonni komillikka chorlovchi gʻoyalar bilan yoʻgʻrilgan. Yana mavzu jihatdan xilma-xilligi bilan tinglovchilarni oʻziga jalb qiladi. Bu termalarning ichida pand-nasihat ruhida yozilganlari ham mavjud. Baxshi termalarining koʻpchilik qismini Oʻzbekiston va baxshi tugʻilib oʻsgan Surxondaryoga bagʻishlab yozilgan termalar tashkil qiladi. Bu esa Abdinazar baxshi Poyon oʻgʻlining vataniga boʻlgan cheksiz mehru muhabbatini koʻrsatadi. Baxshining “Oʻzbekim”, “Vatanim”, “Turonim”, “Yurtim”, “Yurtga tilak”, “Oʻzbekning”, “Boʻstonim”, Oʻzbekiston Respublikasi mustaqilligining 16

yilligiga bag'ishlab yozilgan "O'zbekistonim" nomli termasi, "Surxonning", "Xomkon" kabi termalari vatanparvarlik ruhida yozilgan.

XULOSA (CONCLUSION). Umumo'zbek dostonchiligida alohida o'rin egallagan Surxon vohasi dostonchiligi xususan Sherobod dostonchilik maktabi baxshi – shoirlari so'z san'ati va musiqaning ko'plab namunalarini bizgacha asrab – avaylab yetkazib kelgan. Abdinazar baxshi Poyon o'g'li baxshichilik san'atida "Alpomish avlodlari" turkumiga kiruvchi "Davrqul polvon" dostoni, "Alpomish" va "Go'ro'g'li" turkumiga kiruvchi "Malla savdogar", "Go'ro'g'lining tug'ilishi" kabi asarlari o'zbek dostonchiligi taraqqiyotiga o'zining munosib hissasini qo'shdi. Musiqaning ko'plab namunalarini bizgacha asrab-avaylab yetkazib kelgan. Bu maktab Qashqadaryo viloyatining ayrim hududlari, Tojikiston va Turkmaniston respublikalarining o'zbeklar yashaydigan ovul-qishloq va tumanlarida repertuarida o'ziga xos dostonlarning mavjudligi, baxshichilik an'anasining yashovchanligi bilan ajralib turadi. Abdinazar baxshi Poyanov baxshichilik san'atini rivojlantirishda, keng targ'ib etishda, ushbu san'at sirlarini yosh avlodga o'rgatishda va kelajak avlodlarga meros qoldirish borasida olib borgan sermahsul ijod faoliyatiga yuksak e'tibor qaratilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 22-avgustdagi Farmoni bilan "O'zbekiston Respublikasi xalq baxshisi" faxriy

unvoni bilan mukofotlangan. Bugungi kunda Abdinazar baxshi Poyanov Mustaqil O'zbekiston Respublikasining nomoddiy ma'naviy merosi, otobobolarimizdan avloddan-avlodga o'tib kelayotgan qadimiy madaniyat, san'at, ijro usullarini kelajak avlodga butunligicha yetkazib berishda o'zining beminnat xizmatlarini ayamay keldi. Abdunazar baxshi Poyonov Fransiya, Belgiya, Shveysariya, Tayvan, Turkiya, Ozarbayjon, Qozog'iston va Qirg'iziston davlatlarida o'z ijodini namoyish etib, o'zbek xalq baxshichilik an'anasini dunyo xalqlari orasida munosib targ'ib qilib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

- 1 Murodov M. va Ergashev A. Alpomishnoma. – T.: Mehnat. 1999. b 35-36
- 2 Murodov M. O'zbek baxshilari poetik maktablari // Adabiy meros. 1976, 4 – son. b 17-18
3. Mirzayev T. Xalq shoirlarining repertuari. – T.: Fan, 1979. b 76-78
4. Mirzayev T., Sarimsoqov B. Doston, uning turlari va tarixiy taraqqiyoti/ O'zbek folklorining epik janrlari. – T.: Fan, 1981. b 96-98
5. Ergashev A. Qashqadaryo – Surxon vohasi dostonchiligi. – T.: Fan, , 2008. b 138-142



RESPUBLIKAMIZDA EKOLOGIK MUAMMOLARNI HAL ETISHDA JAMOATCHILIKNING O‘RNI

Annayeva Zarifa Musurmonqulovna

Termiz davlat universiteti

Jahon tarixi kafedrasida katta o‘qituvchisi, t.f.b.f.d (PhD)

РОЛ ОБЩЕСТВЕННОСТИ В РЕШЕНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ В НАШЕЙ РЕСПУБЛИКЕ

Аннаева Зарифа Мусурмонгуловна

Термезский государственный университет

*Старший преподаватель кафедры Всеобщей истории, к.е.н.
(PhD)*

THE ROLE OF PUBLIC PARTICIPATION IN ADDRESSING ECOLOGICAL ISSUES IN OUR REPUBLIC

Annaeva Zarifa Musurmonqulovna

Termiz State University

Senior teacher of the Department of World History, (PhD)



Orcid: 0009-0005-8264-0267

E-mail:

annayevazarifa@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistondagi ekologik muammolarni hal etishda jamoatchilikning o‘rni, fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati, davlat va jamoat hamkorligini kuchaytirish yo‘llari, shuningdek, milliy va xalqaro tajribalar tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: ekologiya, atmosfera, bioxilma-xillik, tabiat, muhofaza, hamkorlik, qonun, suv resurslari.

Ключевые слова: экология, атмосфера, биоразнообразие, природа, охрана, сотрудничество, закон, водные ресурсы.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль общественности в решении экологических проблем в Узбекистане, деятельность институтов гражданского общества, пути укрепления сотрудничества между государством и обществом, а также анализируется национальный и международный опыт.

Keywords: ecology, atmosphere, biodiversity, nature, protection, cooperation, legislation, water resources.

Abstract: This article explores the role of public participation in solving ecological problems in Uzbekistan, the activities of civil society institutions, ways to strengthen cooperation between the state and society, as well as an analysis of national and international experiences.

KIRISH (INTRODUCTION)

Bugungi kunda ekologik muammolar insoniyat uchun eng muhim va global muammolardan biriga aylangan. Azon qatlamining yemirilishi, chuchuk suv zahiralarning kamayishi, atmosfera havosining

ifloslanishi hamda o‘simlik va hayvonot dunyosidagi bioxilma-xillikning yo‘qolib borishi kabi masalalar jahon miqyosida jiddiy xavotir uyg‘otmoqda. Inson tabiatning ajralmas bir qismi bo‘lgani bois, u uchun sog‘lom muhit, toza havo

va suv, muvozanatli ekotizim hayot uchun zarur omillar hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD / (MATERIALS AND METHODS)

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillardanoq ekologik muammolarga jiddiy e‘tibor qaratib, milliy ekologik siyosatni shakllantirdi. Bu siyosatning asosiy maqsadi Orol fojiasi kabi mintaqaviy ekologik muammolarni bartaraf etish, bioxilma-xillikni asrab-avaylash, transchegaraviy suv manbalaridan oqilona foydalanish, atmosfera havosining tozaligini ta‘minlash hamda maishiy chiqindilarni qayta ishlashda xalqaro tajribalardan samarali foydalanishdan iboratdir. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, ekologik barqarorlikni ta‘minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholi salomatligini saqlash maqsadida bir qator muhim huquqiy va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshira boshladi. Jumladan, “Atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun, “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi Qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda EKOSAN xalqaro tashkilotining bo‘limi, Atrof-muhitni muhofaza qilish qo‘mitasi va O‘zbekiston Ekologik partiyasi faoliyat ko‘rsatmoqda. Ushbu tashkilotlarning asosiy vazifasi – ekologik barqarorlikni ta‘minlash va tabiatni muhofaza qilishdan iborat. Shu maqsadda qator ekologik qonunlar, Prezident farmonlari va davlat dasturlari qabul qilingan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION)

Hozirgi davrda juda ko‘plab ekologik muammolar kishilik jamiyatining barqaror rivojlanishiga jiddiy xavf solmoqda. Ekologik muvozanatning buzilishi, tabiiy tuzilmalarning tobora tanazzulga yo‘l tutishi biosferaning buzilishiga uning yaxlitligiga zarar yetishiga, jamiyatning hayotiy faoliyati uchun zarur bo‘lgan atrof-muhit sifatiga jiddiy zarar yetkazmoqda. Sobiq sovet davlatidan O‘zbekistonga ham og‘ir ekologik muammolar meros qoldi. Jumladan, Orol dengizining qurishi, yerning sho‘rlanishi, suv manbalari va atmosfera havosining jiddiy tarzda ifloslanishi, maishiy chiqindilar miqdorining yil sayin ortib borishi, o‘simlik va hayvonot dunyosining ayrim turlarining yo‘qolib

ketish xavfining tobora kuchayib borishi bilan bog‘liq ekologik xavflar bugungi O‘zbekiston hayotiga tahdid solmoqda. Orolning qurishi – insoniyat tarixidagi eng yirik ekologik va gumanitar fojialardan biri bo‘lib, u qariyb 35 million aholiga ta‘sir ko‘rsatdi. Prezident Sh.Mirziyoev BMT sessiyalarida ushbu muammoga jahon jamoatchiligi e‘tiborini qaratdi. O‘zbekistondagi yana bir jiddiy ekologik muammo – yer eroziyasidir. 2004-yilda 2,8 million gektar yer, jumladan 339 ming gektar sug‘oriladigan maydon eroziyadan zarar ko‘rgan. Biologik resurslardan ortiqcha foydalanish o‘simlik va hayvon turlarining yo‘qolishiga sabab bo‘lmoqda. “Qizil kitob”dagi o‘simlik turlari soni 163 tadan 305 tagacha, hayvonlar esa 161 tadan 184 tagacha ko‘paygan. Sobiq Ittifoq davrida pestitsidlar me‘yordan ortiq qo‘llanilishi zaharli moddalarning tuproqqa singishiga olib keldi. Hozirda respublikada 13 ta zaharli kimyoviy moddalar saqlanadigan qabriston bor. Atmosfera havosining ifloslanishi sanoat shaharlarida (Angren, Olmaliq, Bekobod, Farg‘ona va boshqalar) dolzarb muammoga aylangan. Respublikada yiliga 100 million tonnadan ortiq chiqindi hosil bo‘ladi, ularning 14 foizi zaharli hisoblanadi. Bu chiqindilar asosan energetika, metallurgiya, kimyo va qurilish sanoatida yuzaga keladi. O‘zbekiston Respublikasining “Atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni (1992-yil), “Ekologik ekspertiza to‘g‘risida”gi Qonuni, “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”, “Yer osti boyliklari to‘g‘risida”, “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”, “Chiqindilar to‘g‘risida”gi qonunlar ekologik xavfsizlikni ta‘minlashda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu qonunlar atrof-muhitga salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan faoliyatlarni tartibga solish, ularning oldini olish va bartaraf etish choralari belgilaydi.

Davlat ekologik siyosatining amaliy yo‘nalishlaridan biri sifatida strategik dasturlar ishlab chiqilgan va bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Jumladan: 2023–2030-yillarga mo‘ljallangan Atrof-muhitni muhofaza qilish strategiyasi; “Yashil makon” umummilliy loyihasi — har yili millionlab daraxt va butalar ekilishini ta‘minlaydi; “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari — ekologik infratuzilmani yaxshilash va yashash muhitini

sogʻlomlashtirishga qaratilgan; Iqlim oʻzgarishlariga moslashish strategiyasi — choʻllanish, suv tanqisligi va is gazlarining kamaytirilishi boʻyicha chora-tadbirlarni belgilaydi.

Bu strategiyalar mahalliy hokimiyatlar, fuqarolik jamiyati institutlari va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda. Oʻzbekiston ekologiya sohasida qator xalqaro konvensiya va protokollarni ratifikatsiya qilgan, jumladan: BMTning “Iqlim oʻzgarishi toʻgʻrisidagi” konvensiyasi, “Biologik xilma-xillikni muhofaza qilish toʻgʻrisida”gi konvensiya, “Choʻllanishga qarshi kurashish” konvensiyasi va boshqalar.

NATIJARLAR (RESULTS)

Ekologik muammolarni samarali hal qilish va atrof-muhitni muhofaza qilishda davlat siyosati muhim ahamiyatga ega boʻlsa-da, bu jarayonning muvaffaqiyati asosan jamoatchilikning faol ishtirokiga bogʻliqdir. Oʻzbekiston Respublikasida ekologik masalalarni hal etishda jamoatchilik, ayniqsa, fuqarolar, mahalliy hamjamiyatlar, nodavlat ekologik tashkilotlar va ommaviy axborot vositalari faol rol oʻynashi zarur. Quyidagi vositalar orqali ekologik sohada jamoatchilik faolligini oshirish mumkin: fuqarolarning ekologik savodxonligini oshirish; mahalliy tashkilotlarning faolligi, ommaviy axborot vositalarining roli; Jamoatchilikning ekologik muammolarga faollik bilan jalb qilinishi atrof-muhitni himoya qilishda samaradorlikni oshiradi. Davlat va fuqarolar hamkorligi orqali ekologik xavflarni kamaytirish, tabiiy resurslarni saqlash va kelajak avlodlar uchun sogʻlom muhit yaratish mumkin. Shu bois, jamoatchilik ishtirokini kengaytirish va uning samarali mexanizmlarini rivojlantirish har bir davlat va jamiyat uchun ustuvor vazifa hisoblanadi.

XULOSA (CONCLUSION)

Ekologik muammolarni hal etishda jamoatchilikning faol ishtiroki muhim. Buning uchun:

- Fuqarolarni faollikka va ogohlikka jalb etish: mahalliy aholi daraxt ekish, hududlarni tozalash, chiqindilarni tozalash kabi tadbirlarni tashkil etish; ekologik nazoratni kuchaytirish va aholiga murojaat qilish imkoniyatini kengaytirish zarur.

- Davlat va jamoatchilik muloqotini yoʻlga qoʻyish: fuqarolarning taklif va shikoyatlarini qabul qilish uchun maxsus platformalar yaratish, davlat va NNTlar oʻrtasida hamkorlikni taʼminlash lozim.

- Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish: mobil ilovalar va onlayn platformalar orqali aholining ekosavodxonligini oshirishdan iborat. Oʻzbekistonning ekologik muammolarini hal etishda davlat va jamoatchilikning birgalikdagi faoliyati muhim oʻrin tutadi. Davlat siyosati va qonunchiligi asosida jamoatchilikning faolligi oshirilishi, shaffof muloqot va hamkorlik mexanizmlari yaratilib, ekologik muhofaza va barqaror rivojlanish taʼminlanadi. Jamoat tashkilotlari, fuqarolar va mutaxassislarning fikri hisobga olingan holda samarali choralar koʻrilsa, atrof-muhitni saqlash va sogʻlom yashash muhitini yaratish imkoniyati kengayadi. Shu bois, davlat va jamiyatning yaqindan hamkorligi ekologik xavfsizlikni taʼminlashda asosiy garovdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari. 4-j. -T.: «Oʻzbekiston», NMIU, 2020.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi Oʻzbekiston strategiyasi. -T.: «Oʻzbekiston» NMIU, 2021.
3. Oʻzbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qoʻmitasi. «Oʻzbekistonning ekologik siyosati va rivojlanish strategiyasi». Toshkent, 2022.
4. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlari, 2022-2024.
5. Oʻzbekiston Respublikasi Qonunlari toʻplami. «Atrof-muhitni muhofaza qilish toʻgʻrisida» qonun, 2019.
6. Annayeva Z.M. Oʻzbekiston janubiy hududlarida ekologik holat va uni barqarorlashtirish shartlari (XX asr oxiri va XXI asr boshlari) dissertatsiyasi. Termiz – 2023.
7. Islomov S., Qodirov A. Atrof-muhit muhofazasi va ekologik muammolar. Toshkent, 2021.
8. Rashidov M. Jamoatchilik ishtirokida ekologik barqarorlik. Toshkent, 2020.

KÓRKEM SHÍĠARMALARDA DIALEKTKLIK ETNOGRAFIZMLERDÍŇ QOLLANÍLÍWÍ (M.NIZANOV SHÍĠARMALARÍ TIYKARÍŇDA)

Xalmuratova Dilbar Yakıpbayevna

*Ájiniyaz atındaĝı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutu
tayanısh doktorantı*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДИАЛЕКТИЧЕСКИХ ЭТНОГРАФИЗМОВ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИИ (НА МАТЕРИАЛЕ М.НЫЗАНОВА)

Xalмуратова Дилбар Якыпбаевна

*докторант (PhD) Нукусского государственного
педагогического института имени Ажунияза*

THE USE OF DIALECTIC ETHNOGRAPHISMS IN WORKS OF ART (BASED ON THE MATERIAL OF M/NYZANOV)

Khalmuratova Dilbar Yakıpbayevna

*PhD student Nukus state pedagogical institute named after
Ajiniyaz*

Annotatsiya: *Etnografizmlar har bir xalqning o'ziga xos
milliyligini o'zida aks etgan madaniyati sanaladi. Ushbu maqolada
badiiy asar ustasi M.Nizanov asarlari tilida qo'llanilgan dialektga
xos etnografizmlar haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *etnografizm, badiiy asar, dialektik etnografizm,
urf-odat, isnonch.*

Аннотация: *Этнографизмы — культурное явление,
отражающее неповторимую национальность каждого народа. В статье рассматриваются
диалектно-специфические этнографизмы, используемые в языке произведений мастера
художественного творчества М. Низанова. Ключевые слова: этнографизм, художественное
произведение, диалектный этнографизм, традиция, верование.*

Abstract: *Ethnographisms are a cultural phenomenon that reflects the unique nationality of each
people. This article discusses dialect-specific ethnographisms used in the language of the works of the
master of artistic works M. Nizanov.*

Keywords: *ethnographism, artistic work, dialectical ethnographism, tradition, belief.*

Kórkem shıĝarma xalıqtıń aynası bolıp, sóz benen súwret salıw arqalı payda boladı. Hár qanday haqıyqıy kórkem shıĝarma jazıwshı eleginen ótip, saralangán, óz ornına iye bolĝan, xalqımızdın júreginen ornın alĝan qunlı, teńi-tayı joq dóretpeler sanaladı. Kórkem sóz sheberi shıĝarmanıń mazmunlı, tásirli, kórkem hám isenimli shıĝıwı ushın ulıwma xalıqlıq tildin barlıq elementlerinen paydalanadı, olar arqalı shıĝarmanı bayıtadı. Usınday shıĝarmanıń kórkem, tásirli, isenimli

shıĝıwında til biliminde qollanılıw sheńberi tar bolĝan, sheklengen, belgili bir aymaq tilinde qollanılıwshı dialektlik sózlerdin ornı júdá ayrıqsha. Dialekt sózler belgili bir aymaq turĝınları tiliniń ózine tán ózgesheligi. Dialektlik etnografizmler belgili bir aymaqtıń turmıs tirishiliginiń, úrp-ádet, dástúrleriniń ózgesheligin ózinde sáwlelendiredi.

Etnografizmler áwladtan-áwladqa ótip kiyatırĝan bay miyrasımız bolıp, hár bir xalıqtın ózine tán bolĝan turmıs-tárizi, úrp-ádet, dástúrleri,



<https://orcid.org/0009-0003-4738-5446>
dilbarxalmuratova242@gmail.com

milliylikti sáwlelendiriwshi mádeniyatı sanaladı. Etnografizmlerde belgili bir xalıqtıń jasaw tárizine tiyisli bolǵan barlıq dúnyasın kóremiz. Bul etnografizmler olardıń ózine tán bolǵan ayırıqsha belgilerin kórsetedi.

Dialektologiya tarawı etnografiya menen tıǵız baylanıslı. Jáhándegi barlıq xalıqlardıń, etnik birliklerdiń túrli tipleri, olardıń kelip shıǵıwı (etnogenezi), turmıs tárizi, úrp-ádetleri, materiallıq hám mánawiy rawajlanıw dárejesinen qattiy názer, teń halda óz-ara ayırmashılıǵı yamasa ulıwmalılıǵı hám uqsaslıǵın, olardıń ayırıqsha qásiyetlerin úyreniwshi arnawlı pán tarawı etnografiya pání lingvistika, atap aytqanda, dialektologiya menen júdá jaqın baylanısta bolıwı tábiyiy hal bolıp tabıladı. Sebebi qanday da bir xalıqtıń turmısı, úrp-ádeti, mádeniyatı, eń dáslep, tildegi sózlerde, málim bir aymaqta jasap atırǵan dialekt, dialekt wákilleriniń sóylewinde óz kórinisin tabadı. [1:9.]

Hár bir xalıqtıń ayırıqsha milliyligin ańlatıwshı leksikologiyalıq birliklerdiń bir bólegin dialektlik leksika quraydı. Dialektlik leksika málim aymaqqa tiyisli, jergilikli turmıstı sáwlelendiriw menen etnografizmlerge uqsas bolsa da, dialektlik leksikanıń málim bir bólegi ǵana etnografizm bola aladı [2:35.]

Dialektlik etnografizmler kórkem shıǵarmalarda belgili bir aymaqtıń jasaw tirishiligin, úrp-ádet, dástúrlerin, mádeniyatınıń ózine tán bolǵan belgilerin, tillik ózgesheligin kórsetiw ushın qollanıladı. Qaraqalpaq xalqınıń belgili jazıwshısı M.Nızanov shıǵarmaları óziniń obrazǵa baylıǵı, kórkemliliǵı, sonday-aq tariyxıylılıǵı menen hár bir oqıwshınıń súyikli jazıwshısı sanaladı. Jazıwshı shıǵarmaları dialektlik etnografizmlerge oǵada bay sanaladı. Kórkem sóz ustası hár bir dialektlik etnografizmdi júdá sheberlik penen óz ornında qollanıp, qaraqalpaq xalqınıń belgili bir aymaqtaǵı ózine tán bolǵan úrp-ádet, dástúrlerin xalqımız qádirlep, atadan-balaǵa, áwladtan-áwladqa jetkerip kiyatırǵanlıǵın shıǵarmaları arqalı ashıp beredi. Mısalı:

Kelinniń kelgenine de bir jul bolayın dep tur,- dedi enem. -Ele **jaydaq** kórinedi. Men «**jaydaq**» degenge túsınbedim.

-«Kótermedi» degeni ǵo. Til-suqtan kótermey júrme eken?

-Ha-aw... Endi ne dep ediń?! Anıq «**aq multıǵına**» **tap bolsań** óltiredi-ám! Ózimniń balamnıń tımsalında kórdim-ǵo? («Dushpan», 13-b.)

Seni hesh kim aq juwıp, arıw kepinlemeydi. **Jawırını joq kostyum** kiygizip jerge beredi. («Dárbádar», 124-b.)

Soń shıyıqshı bergen bir **jayman** menen bes-altı bawırsaqtı «teberik» dep dásturxanına qaytadan qoydı. («Dushpan», 9-b.)

Berilgen mısaldaǵı **jaydaq** sózi kelinniń hámledar, eki qabat bolmawı mánisinde kelgen bolsa, qaraqalpaq tiliniń túsindirme sózliginde jaydaq-er-toqımsız, jalańash mánisin bildiredi delingen. [3:300.] **Aq multıqqa tap bolıw** etnografizmi adamnıń kózi tiyiw, jaman názeri tiyiw mánisin ańlatadı. Bunda ananıń óz balasınıń keleshegin uwayımlap, oǵan jaman nárese jabısqanın yaǵnıy kóz tiygennen dep túsiniwin kórsetedi. **Aq multıqqa tap bolıw** dialektlik etnografizminiń tiykarında diniy isenimler jatadı, yaǵnıy adamnıń tańlanıwı nátiyjesinde payda bolǵan jaman kúshlerdiń, jawız ruwxlardıń jabısıwı dep túsiniledi. Bunda aq reń-kiyeli, multıq-jawız, jaman qural. Xalqımızda bul **kóz tiyiw, kózigiw** dep ataladı hám buǵan xalqımız shın kewlinen isenip, ózlerin jaman kózlerden qorǵaw maqsetinde kóz monshaq, ilgeshek yamasa qızıl reńli narseler taǵıp júredi, qaltasına duz salıp júredi, sonıń menen birge kózikken adamdı hár túrli ámeller menen emleydi. Máselen, úyge birew kelip, sol adamnıń kózi tiygen bolsa, ol ketkennen soń úydiń qapılarınıń tutqıshlarına qaynaǵan suw quyıp shıǵadı hám sol suwdı kózikken balaǵa ishkizedi, jáne de sol adamnıń kózi tiydi dep gúmanlansa, onıń kiyiminiń bir shetin alıp, kózikken balanı aylandırıp tütetip shıǵadı. Al, úylerin jaman názerden qorǵaw ushın úyiniń darwaza joqarısına duz, qızıl reńli tawar, úsh múyesh túrindegi tumar, qoshqardıń gellesin qıstırıp qoyadı. Sonday-aq kishkene balalardıń denesinde iyttiń iysiniń shıǵıwın, murnınıń qaptalında tamırdıń kórininiwin **iyttiyme** dep ataydı hám iyttiymesin ketiriw ushın iyttiń awqat jegen tabaǵına shomıldıradı, bunnan balanıń iyttiymesini, kózigiw ketedi dep túsiniledi. Jazıwshı bul dialektlik etnografizmlerdi jergilikli koloritti beriw ushın, haqıyqıy turmıstı súwretlew ushın jergilikli xalıqtıń sóylew tilin paydalanıw arqalı shıǵarmanıń isenimliliǵin arttırǵan hám sol aymaqtıń mádeniy miyrasın, tillik ózgesheligin kórsetken.

Kórsetilgen mısaldaǵı **jawırını joq kostyum** dialektizmi qaytıw bolǵan adamdı aqqa orap kiyindiriw mánisinde ayılǵan, yaǵnıy aq tawar onıń kiyimi, onıń hesh qanday belgileri bolmaydı. Bul

dialektizm ádebiy tilde **aq kepin, kepin** túrinde ushırasadı. Xalqımız dástúrlerinde ólgen adamdı shomıldırıp, onı aqqa orap kiyindiriw-bul musilmansılıqtıń shártı dep esaplağan. Bul dástúr haqqında X. Esbergenov bılay deydi: «Dinge iseniwshi qaraqalpaqlar ol dúnyada da usı dúnyadağı sıyaqlı ómir boladı dep esaplap, ólini kepin dep atalatuǵın ayrıqsha kiyimge kiyindiriw jónindegi musulman dástúrin saqlağan. Olardıń túsinipleri boyınsha tiri waqıttıń kiyimi ol dúnyalıq ómir ushın jaramağan. Ol kiyim taza emes. Tuwılǵan waqıttaǵı sıyaqlı ólgen waqıtta da barlıq adamlar bir qıylı kiyimler kiyiwi kerek dep esaplağan. Sonlıqtan da ólgen adamlar ushın aq tawardan kepin tiktirip, erler ushın bunday kiyim úsh bólekten, hayallar ushın bes bólekten tigilgen. Al, náresteler ushın bunday ayırmashılıq joq. Kepinniń aq tawardan tigiliwi minnetli dep esaplağan, óytkeni bul gúnásızlıqtıń, Muhammedti moyınlaǵanlıqtıń belgisi dep esaplağan, bul haqqında quranda hesh nárese ayılmağan... Biraq qaraqalpaqlardıń ertedegi ata-babaları, túrk hám basqa da xalıqlar ózleriniń ólilerin kepinsiz, ádettegi kiyimlerin kiygizip kómetuǵın bolǵan». [4:62.] Kórkem sóz ustası bul dialektke tán etnografizm arqalı belgili bir aymaqtıń tillik ózgesheligin, onıń ózine tán bolǵan dástúriy belgisin kórsetiw ushın qollanǵan.

Jayman ataması Shomanay sóylesiminde jayman túrinde ushırasa, Shımbay sóylesiminde shelppek túrinde ushırasadı. Shelppek ataması Kenimex qaraqalpaqları tilinde iyis nan//qudayı gúlshe-qorıqqanda, jaman tús kórgende pisiriletuǵın nan ekenligi ayıladı. [5:11.] B.Qurbanbaeva óziniń arnawlı maqalasında: mayǵa pisirilgen nanniń jayman, jayma, shelppek, iyis nan, sozban, may nan sıyaqlı bir neshe variantları ushırasatuǵınlıǵın aytıp ótedi. [6:65.] Shelppekti xalqımız ata-babalarıńıń jolına quran oqıwda, olardı zıyaratlawǵa barganda, olardıń jolına arnap pisiredi, adamlar jaman tús kórse, túsinde dúnyadan ótip ketken adamdı kórse, shelppek pisirip, iyis shıǵaradı, sonday-aq, toylarımızda da bawırsaq pisiriwden aldın qazanǵa birinshi bolıp shelppek pisiredi, adamlar jaman nárselerden qorǵanıw maqsetinde, jaman tús kórse de shelppek pisirip, jeti adamǵa jeti shelppek tarqatadı. Bulardıń barlıǵı xalqımız tilinde «iyis shıǵarıw» dep ayıladı. Xalqımızda iyis shıǵarıwda shelppek penen qosa bawırsaq ta pisiriledi. Iyis shıǵarıw máresimi hár xalıqta hár túrli tayarlanǵan. Mısalı: Altay xalıqları dástúrinde, iyis shıǵarıw ushın janlıq

soyladı, yamasa góshli awqatlar tayarlanıwı, hesh bolmaǵanda maylı awqatlar, gúlshe hám shelppek tayarlanıwı shárt esaplanǵan. [7:117.] Xorezm máresimlerinde iyis shıǵarıwda bawırsaq pisiriw dástúrge aylanǵan. Aytıwlarǵa qaraǵanda, eger bawırsaq pisirilmese, ruwxlar tınıshsız boladı eken, sebebi bawırsaqtıń iyisi olar ushın tiykarǵı azıq-awqat sanaladı-mısh. Eger de usı azıq tayarlanbasa, árwahlar ash qalıp, birewge zıyan jetkeriwi múmkin. [8:113.] Bul isenimler adamlardı jaman nárselerden qorǵawshı kúsh sıpatında qaraladı.

Juwmaqlap aytqanda, M.Nızanov dialektlik etnografizmlerdi qollanıw arqalı qaraqalpaq tiliniń jádá bay, kóp qırlılıǵın hám aymaqlıq mádeniy ózgesheligin kórsetiw ushın qollanǵan. Sonıń menen birge, jazıwshı bay miyraslarımız bolǵan xalqımızdıń úrp-ádet, dástúrleriniń búgingi kúnde de qádirlenip, óz áhmiyetun joytıpay, olardıń barlıq waqıtta xalqımızdıń ájayıp miyrasları bolıp qalatuǵının uqtıradı. Bul dialektlik etnografizmler qaraqalpaq tiliniń leksikasın bayıtıwshı bahalı, teńitayı joq miyraslar bolıp qaladı.

Ádebiyatlar dizimi(Использованная литература/ References):

1. Nurjanov O.E. Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalari etnografizmlari. Monografiya. Toshkent, «Bookmany print», 2024.
2. Курбаназарова Н.Ш. Сурхондарё воҳаси тўй маросими этнографизмларининг семантик табиати ва лингвомаданий тадқиқи. Фил. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган дис., Термиз, 2021.
3. Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. Жети томлық. Үшинши том, Нөкис, «Qaraqalpaqstan», 2023.
4. Есбергенов Х. Қарақалпақлардың гейпара дәстүрлери хаққында. Нөкис, «Қарақалпақстан», 1964.
5. Пирекеева А. Конимех қорақалпоқлари шеvasи. Филол. фан. ном. ил. дараж. олиш учун тақдим эт. дис. автореф. Нукус-2012.
6. Қурбанбаева Б. Азық-аўқат атамаларының диалектик өзгешеликлер менен қолланылыўы. Илим хәм жәмийет, №1, 2020.
7. Бўронов А. Олтойлар. Тошкент, Муҳаррир нашриёти, 2017.
8. Снесарев Г.П. Хорезмликларнинг мусулмонликдан аввалги маросимлари ва урф-одатлари. Монография. Ургенч-2018.

VATANPARVARLIK – INSONIYLIKNING ENG MUHIM FAZILATI SIFATIDA

Jurayev Sardorbek Xolmuminovich

O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti tadqiqotchisi

ПАТРИОТИЗМ КАК ВАЖНЕЙШАЯ ДОБРОДЕТЕЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСТВА

Жураев Сардор Холмуминович

Соискатель института повышение квалификации МВД

Республики Узбекистан

PATRIOTISM AS THE MOST IMPORTANT VIRTUE OF HUMANITY

Juraev Sardorbek Kholmuminovich

*Scientific candidate at the Institute of the Ministry of Internal
Affairs of the Republic of Uzbekistan*



[sardorbekjurayev147@
gmail.com](mailto:sardorbekjurayev147@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada vatanparvarlik tushunchasining mazmun mohiyati yoritilgan. Vatanni sevish uchun bag‘rikenglik kerak. Bunday bag‘rikenglik insonni haqiqiy jasoratga, kerak bo‘lsa jonini fido qilishga tayyorlaydi. Bugungi kunda har tomonlama mukammal ichki ishlar organlari xodimlarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ma‘naviyat eng ta‘sirchan va qudratli qurol vazifasini o‘taydi.

Kalit so‘zlar: vatanparvarlik tuyg‘usi, urf-odat, meros, ma‘naviyat, jasorat, globallashuv jarayoni.

Аннотация: В данной статье раскрывается сущность понятия патриотизма. Чтобы любить свою родину, нужна толерантность. Такая толерантность готовит человека к настоящему мужеству, даже к жертве своей жизнью, если это необходимо. Сегодня духовность является самым эффективным и мощным оружием в воспитании сотрудников правоохранительных органов в патриотическом духе.

Ключевые слова: патриотизм, традиция, наследие, духовность, мужество, процесс глобализации.

Abstract: This article sheds light on the essence of the concept of patriotism. To love one's homeland, one needs tolerance. Such tolerance prepares a person for true courage, and if necessary, to sacrifice one's life. Today, spirituality serves as the most effective and powerful weapon in educating all-round excellent internal affairs officers in the spirit of patriotism.

Keywords: patriotic feeling, tradition, heritage, spirituality, courage, globalization process.

KIRISH / ВВЕДЕНИЕ / ABSTRACT

Insoniyat taraqqiyotga erishib borgani sari harbiy qurol-yarog‘larning eng zamonaviy turlarini ishlab chiqish, odamlarni ommaviy qirg‘in barot qilishga mo‘ljallangan va ona Yerni bir lahzada butkul yo‘q qilib yuborishga qodir qurollarning yaratilishi mamlakatlar o‘rtasida o‘ziga xos “qurollanish poygasi”ni keltirib chiqargani tarix zarvaraqlariga muhrlangan. Keyinchalik, davlatlarni

asta sekin ichidan yemiradigan, taraqqiyotini butkul tanazzulga uchratadigan, odatiy ya‘ni, ochiq qurol bilan hujum emas balki mafkuraviy urushlar ko‘rinishi ham yuz bera boshladiki bugun bunday mafkuraviy urushlarning chek chegarasi ulaning xavf-u xatari qamrab olgan hududlarni oldindan bilish va yetarli choralarni ko‘rish mushkul vaziyatga aylanib bormoqda. Bunday urushlardan himoyalanihning yagona yo‘li yosh avlodni ilm-

ma'rifat, o'zlikni anglash orqali ona Vatanni sevish va vatanparvarlikka o'rgatishdir.

Yurtimiz uzoq yillik, asrlarga ta'tigulik tarixga ega. Yurtimizning doimiy go'zal tabiati, moddiy-ma'naviy boyliklari, mehnatkash xalqi dunyoni o'ziga rom etib kelgan. Shu boisdan ham qadim Turon zaminni qo'lga kiritish barcha yashirin kuchlarning azaliy orzusi bo'lib uni amalga oshirishda har qanday vaziyatdan foydalanishga tayyor kuchlar borligini ham unutmashimiz darkor. Ota-bobolarimiz, buyuk mutafakkir-allomalarimiz yaratgan milliy madaniy merosni asrab avaylashimiz lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS)

Insoniyat tarixida ko'plab suronli jang-u jadallar, vatan ozodligi uchun olib borilgan kurashlar bo'lganligi ko'plab tadqiqotlarda tilga olingan. Bu jang-u jadallar tufayli millionlab insonlar, katta-yu kichik shaharlar, aksariyat hollarda davlatlar ham yo'q bo'lish darajasiga kelib, aksariyat hollarda tinch aholi qurbon bo'lganligi sir emas. Urushlar tufayli mamlakatlar iqtisodiyoti izdan chiqib, uzoq yillar davomida shakllangan millatlar tarixi, dini, milliy madaniy urf-odatlar va merosga yakun yasalgan.

Vatanparvarlik tuyg'usi bu kishilarning kindik qoni to'kilgan o'z ona Vataniga, muhabbati va sadoqatini namoyon etadigan tushunchadir. Vatanparvarlik tuyg'usi insoniyat, barcha xalqlar va millatlar uchun asrlar davomida sayqallanib kelgan oliy, umuminsoniy his-tuyg'ulardan biridir. Vatanparvarlik insonlarning o'z oshiyoni, kindik qoni to'kilgan yurt taqdiri mustaqilligi yo'lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan. Vatanparvarlik tuyg'usi insonda o'z vatanining o'tmishini va buguni bilan faxrlanish, har jabhada Vatan manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo'ladi. Zero, Vatanni sevish iymondandir deb ham bejizga aytishmagan [1].

Vatanparvarlik insonning o'zi tug'ilib o'sgan, kamol topgan joyi, zamin, maskaniga bo'lgan mehr-muhabbatini, munosabatlarini ifoda etadigan ijtimoiy, ma'naviy xislatlari va fazilatlaridir. Fidoiyluk vatanparvarlikning bosh belgisi hisoblanib, uning oliy ko'rinishi jasoratdir.

Insoniyat taraqqiyotga erishib, ilm-fan taraqqiy etib borgani sari, mafkuraviy poligonlar va axborot xurujlarining ortib borishi insonlarning ongu tafakkurini o'zgartirish, ma'rifatli dunyoni barpo etish zaruriyatini tug'dirmoqda. Bunday tahlil

vaziyatda xalqlarning birdamligi millat kelajagini belgilovchi asosiy vosita ekanligini anglashimiz zarur. Zero bugungi kunda nega ommaviy axborot vositalari, turli ijtimoiy tarmoqlarda ba'zan yaltiroq qog'ozga o'rab, ba'zan ochiqchasiga o'z niyatlarini bayon etayotganlarning chiqishi misolida guvoh bo'lyapmiz.

Mamlakatimiz yangi taraqqiyot davriga qadam qo'ygan bugungi kunda xalqimiz, yoshlarimiz ongida Vatanga muhabbat, yurtimiz kelajagiga daxldorlik, tinch, erkin va farovon hayot qadriga yetish tuyg'usini kuchaytirishni alohida qayd etmoq'imiz darkor [2].

Vatanni sevish hissi bizga begona emas. Vatan uchun jonini fido qilgan ota-bobolarimiz, ajdodlarimiz ming yillar davomida tillarda doston bo'lib kelishgan. Masalan, Chingizxon zulmiga qarshi Jaloliddin Manguberdi jasorati, Amir Temur shijoati, jadidlarimizning begunoh to'kilgan qoni, Abdulla Avloniyning so'z erkinligi uchun fidokorligi, Mahmudxo'ja Behbudiyning yoshlarni ilmi qilish, savodini chiqarish, chet tilini o'rgatish haqidagi pandu-nasihatlar haqida ko'plab misollar keltirish mumkin. Shuni unutmashlik kerak-ki, bu shijoatu jasoratlarning tag zamiri o'z manfaatini ko'zlash emas, balki ona Vatan istiqboli uchun vatanparvarlik qilish o'z jonini fido qilib bo'lsa-da, uning kelajagi traqqiy etishi uchun xizmat qilish edi.

Vatanparvarlik buyuk tuyg'u ekan, Vatan har birimizning qonimizda, jonimizda, ruhiyatimizda mavjlanar ekan, vatanparvarlik bayrog'ini baland ko'tarib, Vatanni sevishni faqatgin so'zda emas amalda ham isbotlashimiz lozim. Jamiyatning barcha bo'g'inlari, ayniqsa, xizmat lavozimida belgilangan barcha vazifalarni sidqidildan bajarish, taraqqiyotimizga hissa qo'shishi kamchiliklarni to'ldirish orqali millat va mamlakat taraqqiyotiga hissa qo'shish, fuqarolik mas'uliyatini oshirish, davlat va jamiyatda qabul qilgan har bir qonun va me'yoriy hujjatlarga so'zsiz bo'ysinish, haqiqiy vatanparvarlikning tamoyillaridandir.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)

Xalqimizda vatanparvarlik tuyg'usi milliy qadriyatlarimiz bilan hamohang holda qo'llanilgan. Vatanparvarlik tuyg'usi xalqimizning moddiy madaniyatining ifodasi bo'lsa, milliy qadriyatlarimiz shu Vatanning ma'naviy ramzi, timsolidir. Suronli yillar davomida shakllangan va bosqichlar davridan omon chiqib milliy xususiyatlarini saqlagan holda,

zamonlar osha sayqallanib, milliy jilolarini yangi sifatlar bilan boyitib kelayotgan bunday milliy madaniyatimizning bardavomligi ana shunday vatanparvarlik tuyg'usi bilan hamohangdir. Shu boisdan vatanparvarlik tuyg'usi umrboqiydir. Vatanparvarlik tuyg'usi esa faqat so'zda emas, amalda namoyon bo'lib vatanni sevish, ardoqlash tufayli sodir bo'ladigan ruhiy-axloqiy kechinmadir. Bugun yurtimizda 130 dan ortiq millat istiqomat qilar ekan, bu millatlar va xalqni birlashtiradigan, ularni yagona maqsad sari safarbar eta oladigan burch bu vatanparvarlik burchidir.

Vatanni sevmoq, unga sadoqat bilan xizmat qilish, tashvishli va quvonchli kunlarida hamdard va sherik bo'lish har bir insonning ma'naviy-axloqiy mas'uliyatidir. Buyuk o'zbek adibi Alixonto'ra Sog'uniy Vatan va vatanparvarlik tuyg'usi xususida yozar ekan, "har bir kishining beshta muqaddas narsasi, ya'ni Vatani, dini, moli, oilasi, joni bo'lishi lozim. Biz, shu Vatan ahlimiz. Bu O'zbekiston Vatanimizning bir qatlami biz — o'zbek xalqi otabobolarimizning suyaklari bilan ko'tarilmishdir. Demak, bo'ynida ko'targan, qo'ynida saqlab, oq sut berib tarbiyat qilgan bu O'zbekiston – Turkiston bizning o'z ona Vatanimizdir" deb ta'kidlagan [3: 4].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)

Bugun tinchliksevar insoniyat ma'rifatli dunyoni istaydi. Ma'rifatli dunyoda davlatlar, siyosiy kuchlar, muholifatlar o'rtasida ma'naviy kelishuv yuzaga keladi. Ma'naviy kelishuv taraqqiyot darajasi, qaysi qit'ada joylashgani, aholisi soni, ijtimoiy yo'nalganlik holati, qarashlari, madaniyati, dinidan qat'i nazar, mamlakatlar, xalqlarning o'zligini hurmat qilish, umumiy taraqqiyot yo'lida maqsadlarini uyg'unlashtirishdan manfaatdorlik darajasidir.

Vatanni sevish uchun katta qalb lozim. Bunday qalb doimo insonni haqiqiy jasoratga undaydi va uni Vatan yo'lida hech narsadan tap tortmaslikka kerak bo'lsa, jonini fido qilishga tayyorlaydi [4].

Vatanparvarlik tuyg'usi har bir insonda shakllanib borar ekan o'zi tug'ilib o'sgan, kindik qoni to'kilgan Vatani oldidagi farzandlik, fuqarolik burchini shakllantiradi. Vatanparvarlik Vatanni shunchaki sevish, u to'g'risida she'r yozish, qo'shiq kuylash, chiroyli gapirishgina emas, amalda ko'rsatish uning rivoji uchun o'z manfaatlaridan kechishdir. Vatanparvarlik borasidagi g'oyalar odamlarning avval sog'lom e'tiqodiga, so'ng amaliy

harakatiga ta'sir etib, shu Vatanning ravnaqi uchun moddiy-iqtisodiy hamda ma'naviy-ruhiy holatida aks etishi lozim.

Vatanparvarlik - kishining o'zi tug'ilib o'sgan, kamol topgan joy, zamin, o'lkaga bo'lgan mehr-muhabbatini, munosabatlarini ifoda etadigan ijtimoiy va ma'naviy-axloqiy xislatlar, fazilatlaridir. Vatanparvarlik aniq muhitda, zaminda va mavjud ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida shakllanadi. Shaxs vatanparvarlik tuyg'usini yaratmaydi, balki uni tayyor holda qabul qilib, asta-sekin o'z ongiga singdiradi. Chunki, vatanparvarlik uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida shakllanadigan ijtimoiy tuyg'udir [5].

Bugungi dunyoda vatansizlikni, vatanfurushlikni targ'ib etayotgan tahdidlar tobora ko'payib borayotgan, turli davlatlar, xalqaro tashkilotlar o'zlarining aniq maqsadlarini chiroyli gaplar, bilim saviyasi past, tajribasiz kishilarga xush yoqadigan jozibali qoliplarga solib talqin etayotgan bir sharoitda o'zlikni, Vatanni saqlab qolish va bu yo'lda yuksak vatanparvarlik namunalarini ko'rsatish eng dolzarb masalaga aylanmoqda.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Xulosa qilib aytganda, Vatan sha'ni, millat ornomusi uchun jamiyat maqsad va manfaatlarini tushunib yetadigan, har tomonlama yetuk komil ichki ishlar organlari xodimini tarbiyalashda ma'naviyat eng ta'sirchan va qudratli qurol vazifasini o'taydi. Vatanparvarlik tuyg'usi insonda uning jamiyat bilan munosabatlari, dunyoqarashi, axloqi, olamga, odamga, o'ziga nisbatan tasavvurida namoyon bo'lar ekan, u insonda yuksak ma'nodagi vatanparvarlik hissini uyg'otib, uni ma'naviy oziqlantirib, uni sog'lom e'tiqodga otlantiruvchi kuchga aylanadi. Ushbu tuyg'u insonning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun muhim bo'lsa-da, uning o'zi va jamiyatdagi munosabatlarini mustahkamlash, yosh avlodga total faoliyatda o'rnak bo'lish imkoniyatlarini kengaytirish uchun ahamiyatlidir.

Biz kelajak avlodning, xususan, ona Vatan xizmatiga bel bog'lagan bo'lajak ichki ishlar xodimlari ongiga o'z yurtiga muhabbat tuyg'usini singdirmog'imiz, zarurat tug'ilganda mamlakatimizni jon jahdi bilan himoya qiladigan haqiqiy vatanparvar xodimlarni tarbiyalamog'imiz lozim. Zero, ularda vatanparvarlik tuyg'usi qanchalik kuchli bo'lsa, Vatanning uzviy qismi bo'lib qolish, uning uchun jonini fido qilish, butun xalqni o'z

oilasini himoya qilgandek asrab-avaylash hissi shunchalik kuchli bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Zamonaviy sharoitda vatanparvarlik tarbiyasini yanada yuksaltirishning dolzarb masalalari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (2016-yil 20-avgust). – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2016.

2. Usmonov K. O'zbek xalqi ma'naviy-axloqiy merosida harbiy vatanparvarlik g'oyalarining talqini. Fals. dok. (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent, 2017. – B. 52.

3. Alixonto'ra Sog'uniiy. Turkiston qayg'usi. Arab imlosidan kirillga o'tkazib nashrga tayyorlovchilar: Ahadxonto'ra G'apurov Uvaysxonto'ra Shokirov.

https://kutubxonachi.uz/media/books/turkiston-qaygusi_kutubxonachi.uz.pdf yu Kutubxonachi.uz - @KutubxonachiUz. - B. 100.

4. A.Mavrulov. Vatan nima? Vatanparvarlik-chi? Yangi O'zbekiston gazetasi, 28-fevral, 2024. <https://yuz.uz/news/vatan-nima-vatanparvarlik-chi>

5. Akramova Sh. Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning dolzarb masalalari. T.: «Ma'naviyat», 2018. – 31 b.



**PEDAGOGIK FAOLIYATNI
SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-
METODOLOGIK JIHLTLARI**

Ergashev Nurmuhammad Jalilovich

Samarqand davlat chet tillar instituti tadqiqotchisi

**ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ
АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ
ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

Эргашев Нурмухаммад Джалилович

Научный сотрудник Самаркандского государственного
института иностранных языков

**THEORETICAL AND METHODOLOGICAL
ASPECTS OF FORMING PEDAGOGICAL
ACTIVITY**

Ergashev Nurmuhammad Jalilovich

Researcher, Samarkand State Institute of Foreign Languages
ergashevnmurmuhammad88@gmail.com

ergashevnmurmuhammad88@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagogik faoliyatni shakllantirishning nazariy-metodologik jihatlari yoritilgan. Pedagogikaning asl mohiyati bu keksa avloddan hayot uchun zaruriy qo'llanmalar, tajribalarga asoslangan ta'lim tarbiyani yosh avlodga yetkazishdir. Pedagogikadagi tarbiya tushunchasi o'sib kelayotgan avlodda hosil bo'lgan bilimlar asosida aqliy kamolot, dunyoqarashni shakllantiradi. Pedagogika ta'lim va tarbiya sohasidagi tajribalarni umumlashtirib, tarbiyaning kelgusidagi rivojlanish istiqbollari, ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlar: pedagogika, ta'lim, tarbiya, bilim, ko'nikma, malaka, tajriba, fan tarmog'i, yo'l harakati xavfsizligi.

Аннотация: В статье рассматриваются история становления и теоретико-методологические основы педагогической деятельности. Истинная суть педагогики заключается в том, чтобы передать молодому поколению необходимые жизненные инструменты и опыт, в которых нуждается старшее поколение. Концепция образования в педагогике формирует интеллектуальную зрелость и мировоззрение подрастающего поколения на основе полученных знаний. Педагогика обобщает опыт в области образования и воспитания и показывает перспективы дальнейшего развития воспитания.

Ключевые слова: педагогика, образование, воспитание, знания, умения, навыки, квалификация, опыт, область науки, безопасность дорожного движения.

Abstract: This article discusses the history of the formation of pedagogical activity and the theoretical and methodological foundations of it. The essence of pedagogy is to transfer the necessary life-related applications and experiences from the older generation to the younger generation. The concept of education in pedagogy forms mental maturity and worldview based on the knowledge gained in the growing generation. Pedagogy summarizes the experiences in the field of education and upbringing and shows the prospects for the future development of upbringing.

Keywords: pedagogy, education, upbringing, knowledge, skills, qualifications, experience, field of science, road safety.

KIRISH / ВВЕДЕНИЕ / ABSTRACT

Ta'limning zamonaviylashuvi aniqrog'i taraqqiyotga moslashuvi pedagog kadrlarning ham kasbiy faoliyatini takomillashuviga olib keladi. Haqiqiy pedagog nafaqat pedagogik mahorat balki pedagogik qobiliyatga ham ega bo'lishi zarur. Yuqori sur'atlarda rivojlanayotgan fan, texnika taraqqiyoti sharoitida, pedagog kadrlarga bo'lgan talab ortib borishi bilan birga pedagogika kasbining murakkablashuvi, qo'shimcha mukammalliklarni talab etishi ham ortib bormoqda. Bu esa o'z navbatida pedagogika sohasida yangidan-yangi ilmiy tadqiqotlarni olib borish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Hozirgi globallashuv sharoitida dunyoda har yili yuz minglab pedagogikaga oid kitoblar, jurnallar chop etilib, son-sanoqsiz ilmiy ishlar, dissertatsiyalar himoya qilinmoqda. O'qitishning muammoli, modulli, kompyuterli va hokazolar kabi zamonaviy texnologiyalari rivojlanib bormoqda.

Bugungi kunda fan-texnika taraqqiyoti va erishilgan yutuqlar shubhasiz mukammal yosh avlodni shakllantirib borishga zamin yaratmoqda. XXI asrga kelib ilm-fan taraqqiyotining yuqori cho'qqiga chiqib borishi insoniyatning butun tarixi davomida to'plangan bilimlarning salmoqli hissasini o'zida mujassamlashtirgan. Shu bilan bir qatorda ilmiy-texnik taraqqiyotning bugungi bosqichi, o'ziga xos, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimining tashkil etishga ham qaratilgan bo'lib, bunda asosiy e'tibor, zamonaviy jamiyatda pedagog kadrlarning ham faoliyatini tubdan isloh qilish, ularni turli ortiqcha yuklamalardan ozod qilgan holda doimiy o'z ustida ishlashi va malaka oshirishini ta'minlab borish borasida qator islohotlarni amalga oshirilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS)

"Pedagogika" termini qadimgi Yunoniston (Gretsiya)da paydo bo'lgan bo'lib, uning negizi "kuzatib boruvchi", "yetaklovchi" ma'nolarini anglatadi. Ya'ni, Yunoncha "peydogog", "paydi" - bola, "gogos" - yetaklovchi, "bola yetaklovchi" ma'nolarini anglatadi. Bugungi kundagi umumta'lim maktablarida mashg'ulotlarni o'qituvchilar tomonidan didaktik diskurslarga oid o'qitish nazariyasi shaklida tashkil etish orqali amalga oshirilishi aynan o'sha yuqorida berilgan ta'rifga mos keladi. Pedagogika fani dastlab falsafa

fani negizida shakllanib keyinchalik, ya'ni rivojlangan o'rta asrlarga kelib pedagogika alohida falsafiy bilimlar tarkibidan ajratib olingan [1]. O'sha davrdan boshlab pedagogikani endi "o'qish uchun qo'llanma" haqidagi fan deb e'tirof etila boshlashgan.

Pedagogikaning mustaqil fan sifatidagi maqomi, Frensis Bekon va mashhur chex pedagogi Yan Amos Komenskiyning asarlari tufayli mustahkamlanib borgan. Natijada asta sekin pedagogikaga oid bo'lgan o'quv ishlarining nazariyasi va uni tashkil etishining asosiy masalalari ishlab chiqila boshlandi.

"Pedagogika"ning asl mohiyati bu keksa avloddan hayot uchun zaruriy qo'llanmalar, tajribalarga asoslangan ta'lim-tarbiyani yosh avlodga yetkazish va uning yosh avlod tomonidan faol o'zlashtirilishini ta'minlashdir. Shunday ekan, jamiyat taraqqiyotida har bir avlod o'zining o'tmish avlodidan qolgan merosni egallab, uni boyitib keyingi avlodga qoldiradi [2].

Pedagogika fanining predmeti bu o'rganish, ta'lim, tarbiya sharoitida inson shaxsiga yo'naltirilgan rivojlanish va shakllanish jarayoni tashkil etadi. Shunday qilib pedagogika fani, inson shaxsining rivoji va shakllanish mohiyatini o'rganish haqidagi fan sifatida namoyon bo'la boshladi.

Pedagogikada qo'llaniladigan metodlar ham alohida ahamiyatga ega bo'lib, pedagogikaga oid metodlar (*usullar*) "methodas" so'zidan olingan va yunon tilidan olingan va "o'zini tutish", "yo'l", ma'nolarini bildiradi.

Bugungi kunda fan, texnika taraqqiyotidagi jadal rivojlanish o'qitish tizimida quyidagi talablar qo'yimoqda:

- individual va mustaqil ishlash, ilmiy-texnik axborot bilan ishlash malakalarini rivojlantirish;
- original va nostandart qarorlar qabul qilish hamda ishchanlik - qobiliyatlarini rivojlantirish;
- yoshlarni o'qishga qobiliyatining turliligidan kelib chiqqan holda o'qitishni individuallashtirish;
- bilim harakatchanligi, tanqidiy fikrlashganda moslashuvchanlik va ijod, ishlab chiqarishning zudlik bilan o'zgaruvchan sharoitiga mos ephchillikni shakllantirish kabi mezonlarni talab qilmoqda [4].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)

Bugungi zamonaviy pedagogikada o'qitish metodlari deganda o'qitish maqsadiga erishish uchun, ta'lim oluvchilarning faoliyatini tashkil etish va boshqarish, o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari haqida nazariy tushuncha beruvchi didaktik kategoriya tushuniladi. O'qitish metodlari deganda esa o'qitish maqsadga erishish uchun, ta'lim oluvchilarning faoliyatini tashkil etish va boshqarish, o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari haqida nazariy tushuncha beruvchi didaktik kategoriya tushuniladi.

Pedagogika fanining obyekti maktab o'quvchilari bo'lib, uning predmeti beriladigan ta'lim-tarbiya nazariyasi va amaliyoti bilan bog'liqdir. Pedagogik ta'lim-tarbiyadan maqsad taraqqiyotga qarab jamiyat talablari va o'quvchilarning yosh xususiyatlarining o'zgarib borishini o'rganishdir. Shunday qilib pedagogika ta'lim va tarbiya sohasidagi tajribalarni umumlashtirib, tarbiyaning kelgusidagi rivojlanish istiqbollari, ko'rsatib beradi. Shuningdek ta'lim tizimining barcha jabhalarini nazariy, ilg'or tajribalar bilan qurollantiradi. Yoshlarni to'g'ri tarbiya olish va iqtidorli bo'lish mahoratini takomillashtirib, ta'lim va tarbiya iboralarning o'zaro bog'liqligini namoyon etadi.

Pedagogikadagi tarbiya tushunchasi o'sib kelayotgan avlodda hosil bo'lgan bilimlar asosida aqliy kamolot, dunyoqarashni, insoniy e'tiqod, burch va mas'uliyatni, jamiyatimiz kishilariga xos bo'lgan axloqiy fazilatlarini yaratishdagi maqsadni ifodalaydi. Shu ma'noda u "tarbiya" deb tarbiyachi o'zi xohlagan sifatlarni tarbiyalanuvchilar ongiga singdirishiga, ularning dunyoqarashini o'zgartirishga ma'lum maqsadlarga ko'ra tizimli ta'sir ko'rsatishga aytiladi. Tarbiya aslida inson tug'ilganidan to umrining oxirigacha davom etadigan jarayondir. Shu sababali ko'plab tadqiqotlarda "tarbiya" tushunchasi ta'lim tushunchasi bilan hamohang holatda yuritiladi [5].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)

Tarbiya ta'limga oid ma'lumotlarni o'zida aks ettirib, ta'lim maxsus tayyorlangan kishilar rahbarligida olib boriladigan, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishga xizmat qiladigan, ularning bilim, qobiliyatlarini o'stiradigan jarayondir.

Agar tarbiya bola tug'ilganidan boshlab umrining oxirigacha oilada, maktabda va

jamoatchilik ta'sirida shakllanib, kamol topsa, ta'lim chegaralangan ta'lim muassasalarida o'qituvchi — tarbiyachi rahbarligida muayyan belgilangan davriy jarayonlarda olib boriladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida olingan ma'lumotlar tizimlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni umumlashtirib dunyoqarashlar majmuini shakllantiradi.

Ta'lim, tarbiya va ma'lumot uyg'unlashgan holda o'quvchini kamolotga yetaklasa o'qituvchi-tarbiyachi bunda yoshlarning komil inson bo'lib shakllanishida yetakchilik qiladi. O'qituvchi maktabda ta'lim berish bilan shug'ullanar ekan, o'quvchilarni fan olami yangiliklaridan xabardor qilib, ularda insoniy sifatlarni shakllantirib, tarbiyalab boradi.

O'quvchilarning aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlarini tarbiyalash orqali ularning kundalik hatti-harakat va fe'l-atvorlariga ta'sir ko'rsatib, kattalarga hurmat va kichiklarga izzatda bo'lish, kishilarga g'amxo'rlik qilish, har qanday topshiriqni o'z vaqtida bajarish, odobli va muomala madaniyatiga rioya qilishga o'rgatadi. Shuningdek, har bir pedagog o'qituvchi o'z ona yurti tarixini bilishi, vatanparvar bo'lishi, qolaversa ta'lim-tarbiya va pedagogika tarixidan xabardor bo'lishi lozim. Pedagogika nazariyasini chuqurroq anglash uchun esa uning o'tmishdagi taraqqiyotidan xabardor bo'lishi lozim. Zero, aynan o'qituvchi o'quvchilarga bilim berish, ularni ma'lumotli qilish, tarbiyalashda ularga tizimli ta'sir ko'rsata oladi. Bu esa ijtimoiy omillarga asoslanib, ko'rsatilayotgan ta'sirning samarasini o'quvchining tasavvuri, diqqat va tafakkuri, fikrlash jarayonida namoyon etadi.

Ilm-fan taraqqiyoti, bu oliy ma'lumotli mutaxassislarini tayyorlashga yo'naltirilgan bo'lib, oliy ma'lumotli mutaxassislarini tayyorlashda zamonaviy axborot oqimini o'zlashtirish, ilmiy-tadqiqot malakalari, individual va mustaqil ishlash, ilmiy-texnikaviy axborotlar va o'quv-ilmiy adabiyotlar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini beradi. Fanlarning shakllanishi o'ziga xos "fan daraxti"ni vujudga keltirsa uning tarmoqlari o'sha fanning shoxlari misolida faoliyat yuritib keladi. Bugungi kunda pedagogik faoliyatda aynan fan tarmog'i misolida bolalar yo'l transport hodisalarini oldini olishda harakat xavfsizligini ta'minlashga oid fan

tarmog'ini kiritish ham dolzarb ham davr talabiga aylanib bormoqda.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Xulosa qilib aytganda, so'nggi yillarda barqaror taraqqiyot asosi bo'lgan iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarining ortib borishi, aholi o'rtasida texnika transport vositalarining haddan ortiq darajada ko'payib borishiga olib kelmoqda. Natijada esa inson omiliga bog'liq bo'lgan holda yo'l transport hodisalarining harakat xavfsizligiga ta'sirini ortib borishiga olib kelmoqda. Shuni ham alohida ta'kidlash kerak-ki, bugungi kunda bolalar bilan bog'liq yo'l transport vositalarining ayanchli oqibatlari zahirida yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha yoshlarning bilim ko'nikma va malakalarini oshirishni aynan maktab ta'limidan boshlash lozimligini alohida qayd etish lozim. Chunki, bolalar bilan bog'liq yo'l transport hodisalarining ayanchli statistikasi bugungi kunda ularning yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha birlamchi bilimlarining yetarli emasligi va ushbu fan tarmog'i maktab ta'lim dasturlariga kiritishga muhtoj ekanligi bilan ahamiyatlidir. Fan tarmog'ida bunday yangi ilmiy soha yoki ilmiy yo'nalishni qaror toptirish, jamiyatda mavjud holatlar, muammolar, mavzular va ilmiy masalalarni o'z ichiga oladi.

Aynan shu yo'nalishda oliy ta'limning iqtidorli bitiruvchilarini tayyorlash esa yo'l harakati faoliyati bilan bog'liq muammolarning yechilishiga vosita bo'lib xizmat qiladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu o'z navbatida bo'lajak pedagog kadrlar tayyorlovchi tizimda original va noan'anaviy fikrlash qobiliyatini o'zlashtirgan va o'z ustida mustaqil ishlaydigan kadrlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Avliyakulov N. X., Musayeva N. N. Pedagogik texnologiya. Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2002. – B. 207.
2. A.T.Nurmanov, Yo.I.Turganov. Pedagogik mahorat (ritorika bo'yicha pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun o'quv qo'llanma). [Tekst]: o'quv qo'llanma / A.T.Nurmanov. – Toshkent: «ZEBO PRINT», 2022. – 164 b.
3. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. – T.: "Sano standart" nashriyoti, 2015. – 81-b.
4. Azixxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - T.: Moliya, 2003. - 192 b
5. Ibragimov X., Abdullaeva SH. Pedagogika nazariyasi. -T.: «Fan va texnologiya», 2008.



Qabul qilindi: 15.04.2025

Chop etildi: 31.05.2025

UDK: 94 (575.1): 342.56

ХОРАЗМ ВИЛОЯТИ ТУМАНЛАРИДА НАШР ҚИЛИНГАН ГАЗЕТАЛАР ФАОЛИЯТИ

Жуманиязова Фируза Жуманазаровна, Хоразм Маъмун академияси ижтимоий-гуманитар фанлар бўлими катта илмий ходими, тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

THE ACTIVITIES OF DISTRICT NEWSPAPERS IN THE KHOREZM REGION

Jumaniyazova Firuza Jumanazarovna, Senior Researcher, Social and Humanitarian Department, Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy on Historical Sciences (PhD)

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ РАЙОННЫХ ГАЗЕТ ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ

Джуманиязова Фируза Джуманазаровна, старший научный сотрудник отдела социальных и гуманитарных наук Хорезмской академии Мамуна, доктор философии по истории (PhD)



jumanazarovafiruza8485@gmail.com
ORCID:0009-0009-4929-3143

Аннотация: Мақолада Хоразм вилояти туманларида иккинчи жаҳон уруши даврида нашр қилинган даврий матбуот материаллари тарихига ва газета саҳифалари нашр қилинган айрим мақолалар таҳлиliga эътибор қаратилади. Шунингдек, мақолада Умар Қурбонийнинг фаолияти ва ижод намуналари ҳамда Хивада чоп қилинган “Коммунага” номли газета саҳифаларида берилган мақолалардан шарҳи берилган.

Калит сўзлар: “Коммунага”, “Колхозчилар овози”, “Қурилиш”, “Шовот ҳақиқати”, “Пахта учун кураш”.

Abstract: This article explores the history of periodical publications issued in the districts of the Khorezm region during the Second World War. It analyzes selected articles published in those newspapers. Particular attention is given to the activities and literary contributions of Umar Qurbaniy, as well as a review of articles published in the newspaper Kommuna, which was issued in Khiva.

Keywords: Kommuna, Voice of the Collective Farmers, Construction, Shavat Truth, Struggle for Cotton.

Аннотация: В статье рассматривается история периодической печати, издававшейся в районах Хорезмской области в годы Второй мировой войны, а также проводится анализ отдельных публикаций, размещённых на страницах этих газет. Особое внимание уделяется деятельности и творческому наследию Умара Курбония, а также обзору статей, опубликованных в газете «Коммуна», издававшейся в Хиве.

Ключевые слова: «Коммуна», «Голос колхозников», «Строительство», «Шаватская правда», «Борьба за хлопок».

КИРИШ. Иккинчи жаҳон уруши йилларида Хоразм вилояти таркибида тўққизта туман, битта шаҳар бўлган. Ушбу туманларнинг еттитасида “Коммунага” (Хива), “Колхозчилар овози” (Гурлан), “Қурилиш” (Хонқа), “Шовот ҳақиқати” (Шовот), “Сталин йўли” (Ҳазорасп), “Ленин йўли” (Янгиарик), “Пахта учун кураш” (Қўшқўпир) номли газеталар чоп қилинган.

Хонқа туманининг “Қурилиш” номли газетаси 1931 йилдан, Шовот туманида “Шовот ҳақиқати” номли газета 1932 йилдан, Ҳазорасп туманининг “Сталин йўли” номли газетаси 1935 йил 21 майдан, Хива туманининг “Коммунага” номли газетаси 1931 йилда 7 ноябрдан, Гурлан туманининг “Колхозчилар овози” газетаси 1931 йил 5 майдан, Янгиарик туманининг “Ленин

йўли” номли газетаси 1936 йилдан, Қўшқўпир туманининг “Пахта учун кураш” номли газетаси 1941 йил 22 июлдан ўз иш фаолиятини бошлаган[1].

Гурлан тумани газетаси Урганч шаҳридаги босмахонада бир варақ ҳажмида 500 насҳада чоп қилинган. Ташкил қилинган пайтда “Колхоз тили” номи билан ўз фаолиятини бошлаган газета номи кейинчалик “Колхозчилар овози”га ўзгарган. Газетанинг 1939 йил 1 январигача 72 сони чоп қилинган.

Янгиариқ туманинг “Ленин йўли” номли газетасида Жаббор Бекматов 1942 йилгача биринчи муҳаррир сифатида фаолият юритган. 1942 йилдан 1945 йил охиригача ҳам бу вазифада Искандар Вафоев фаолият олиб борган.

Уруш бошлангандан бир ой ўтгандан кейин чоп қилина бошлаган Қўшқўпир туманининг “Пахта учун кураш” (ҳозирда “Ҳаёт кўзгуси” деб номланади) газетасининг илк сониди туманда ягона оммавий ахборот воситаси ташкил этилганини қутловчи мақолалар билан бир қаторда ватанпарварликка чорловчи материаллар, хусусан “Ҳамма нарса фронтга” дея даъват қилувчи чақириқлар ҳам берилган. Бу газетанинг биринчи муҳаррири Тошкент вилоятидан келган Парда Очилов эди. Тадқиқотчи Д.Бекчонова берган маълумотларга кўра, бу даврда маҳаллий кадрлар етишмаганлиги сабабли нашриётларга бошқа вилоятлардан кадрлар жалб қилинган [2]. “Пахта учун кураш” газетаси туман аҳлини ахборот билан таъминловчи, мардлик, ватанпарварликка ундовчи ягона манба ҳисобланган. Газета саҳифаларидан ўрин олган мақолалар кўтаринки руҳда ёзилган бўлиб, туман аҳолисини меҳнат қилишга, ватанни асрашга чорлаган.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ. Хоразм вилояти туманларида ташкил қилинган нашриётлар, босиб чиқарилган газеталарнинг иккинчи жаҳон уруши давридаги фаолияти, газеталарнинг сарлавҳаларидаги мақолалар, тарғибот йўналишлари тўғрисида шу кунга қадар бирон тўлиқ илмий асосга эга илмий иш қилинмаган. Айнан Хоразм вилояти матбаачилиги ва унинг фаолиятига оид бўлган “Хоразм матбуоти, матбаачилик, ноширлик: тарихи ва бугуни” номли тарихий – публицистик китоб нашр қилинди[2]. Ушуб китобда уруш йилларида фаолият олиб борган газеталар ҳақида қисқача маълумот берилган.

Мақолада келтирилган газета саҳифаларидаги материаллар Хива театри режисёри Умар Қурбонийнинг чевараси Сурайё Ҳабубуллаеванинг шахсий архивидан олинган[3].

МЕТОДЛАР. Хоразм вилояти туманларида нашр қилинган газеталар ва уларнинг саҳифаларида келтирилган мақолалар тарихий-қийосий методдан фойдаланган ҳолда таҳлил қилинди.

ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР. “Коммунага” газетасининг 1941 йил 10 август №61 (1037) сонининг учинчи варағида муҳаррир Умар Қурбонийнинг “Ватан илҳомлантирган азаматлар суҳбати” номли мақоласи босилган. Ушбу мақолада ўз укасини фронтга жўнатаётган П.Абдуллаевнинг укасига берган ўғитлари, унинг дўсти П.Сапаевнинг ҳам фронтга ватан ҳимоясига отланаётгани, улар билан жангга кетаётган туман бухгалтерия инспектори Али Сайфуллин, район прокурорининг ўринбосари Ҳасанбой Худойбергановларнинг ёшлар билан ўтказган суҳбатлари ёритилган[4]. Газетанинг ушбу варағида яна ҳаракатдаги армиядан олинган ва “Жанговор уруш олдида” номли “Правда” газетасининг ҳарбий муҳбири М.Калишниковникининг ТАСС фотохроникасидан олинган сурати берилган.

Искандаровнинг “Фашизм билан курашда ғалабани таъминлаш учун” номли мақоласида эса Хива туман комитетининг ишчи-хизматчилари Қизил Армиянинг фашизмга қарши курашда ғалабасини таъминлаш мақсадида мудофаа фондини тузиш ва уруш тугагунгача бўлган даврда ҳар ойда ишчилар бир кунлик маошини мудофаа фондига ўтказишга қарор қилганликлари келтирилган.

Газетанинг учинчи варағида район партия комитетининг секретари Жуманиёзовнинг “Душман мажақланиб ташланади” мақоласи ҳам келтирилган. Хива туман аҳолиси 1941 йилги барча мажбуриятларни тўла бажариб, 1942 йил ҳисобига ҳам гўшт маҳсулотлари топширгани, туманнинг барча колхозларида ғўза парвариши яхши йўлга қўйилганлиги ва пахта режасини 50-60 центнер қилиб бажариш режалаштири-лаётганлиги ёзилган. Мақолада илғор бригада ва звено бошлиқлари Юсупова, Алимов, Каримова, Ғойипов, Панаев, Давлетовлар шу йилги режани бир ярим баробар ошириб бажаришга ҳаракат қилаётганлиги, шунингдек, уруш йилларида

ишлаб чиқариш корхоналарида фаоллик ошиб, туман МТСида ишлаётган Аллаберганов кунлик иш нормани 120-130 фоизга етказиб бажарган, Авазов эса трактор билан 500 гектар ғўзани культивация қилганлиги ёзилган.

Шунингдек, газетада пахта завод, куспром артель ишчи – хизматчилари мамлакатга сифатли маҳсулот ишлаб чиқариш учун тиним билмай меҳнат қилаётганлиги, Пахта завод 1941 йил 1-ярим йиллик ишлаб чиқариш планини муддатидан ўн кун олдин 104 фоиз қилиб бажарганлиги, заводда стахановчилар сони 40 тадан 64 кишига ўсиб, Р.Хайитов 143, Б.Каримова 131, Н.Авазматов 136 фоиз қилиб ишлаб чиқариш режаларини бажарганлиги келтирилган. Мақолада яна Умид артели хунармандлари июль ойида ишлаб чиқариш режасини 110 фоиз бажарганлиги, шу кунгача плани бажарилмай келаётган артелнинг заказной тикувчилик цехи июль ойида планни 170 фоиз бажарганлиги тўғрисида маълумот берилган[4].

Хива тумани меҳнаткашлари ҳукуматнинг қақариқларини инобатга олиб ватанни кўлига қурол олиб ҳимоя қилиш учун ҳарбий ўқув машғулотларида қатнашаётганликлари, ПВХО тўғрақларида минглаб ишчи, колхозчи, хизматчи, хотин-қизлар ўқиётганлиги, корхона, колхоз бошқармаларида санитар постлар ташкил қилинганлиги ҳамда туманнинг барча аҳолиси Ватан ҳимоясига бир тан-у бир жон бўлиб тайёр турганлиги ва душманни мажақлаб ташлаб ғалаба қозонишимиз шубҳасиз эканлиги ёзилган.

Газетанинг тўртинчи саҳифасида полковник В.Кандашовнинг “Гитлер армиясининг заиф томони” номли мақоласи берилган. Шунингдек, масъул муҳаррир Т.Зоҳидовнинг “Ҳаракатдаги Қизил Армия ва Ҳарбий-Денгиз флотига хатлар юборишда адресларни кўрсатиш тартиби” номли материал ҳам эълон қилинган. Ушбу мақолада ҳаракатдаги қизил армияга юбориладиган почта юбормаларида дала почтасининг номери, бўлимнинг ҳақиқий кўшин қисмининг номи, адрес кўрсатилган шахсининг фамилияси, номи, отасининг номи, юборувчининг адреси кўрсатилиши керак бўлган. Шунингдек, мақолада яна почта юбормаларидаги адреслар рус тилида, сиёҳ билан очиқ ва раво қилиб ёзилиши кераклиги эслатилган. Юқорида кўрсатилган

қоидаларга мувофиқ бўлмаган почта юбормалари қабул қилинмайди ва юборилмайди[4].

Айнан уруш йилларида газета саҳифаларида жуда кўплаган ижод намуналари ёритилган шахс бу Умар Қурбоний бўлиб, у 1934 йилда “Қурилиш”, 1936 йилда “Коммунага” ва “Ленин йўли” газеталарида масъул секретарь вазифасида ишлаган. Матбуот вакили сифатида суд ҳайъатларида доимо қатнашиб келган. 4 тилни - араб, форс, турк, озарбайжон тилларини мукамал билган. Умар Қурбонийнинг уруш йилларида ёзган кўплаб шеърлари она ватанга муҳаббат, душманга нафрат руҳи билан суғорилган эди. У уруш йилларида 4700 сатрдан иборат 200 та шеър, фелъетон, ҳажвий сатрларни ёзиб, газета, радио орқали тарқатди [5].

Уруш йилларида нашр қилинган “Армия” номли шеърда ватанга муҳаббат, армиямизни халқ билан биргалиги яққол кўрсатилган. Умар Қурбонийнинг шеър, фелъетон, ҳажвийлари нафақат вилоятда балки республиканинг бошқа ҳудудларида уруш йилларида нашр қилинган “Инқилоб куёши”, “Хоразм ҳақиқати”, “Қурилиш”, “Бўл тайёр”, “Колхоз тили”(Гурлан), “Ленин йўли” (Янгиариқ), “Социализм алангаси” (Қарши), “Ғаллачи” (Ғуздор), “Совет адабиёти”, “Муштум” журналида, “Қизил байроқлар” (Хоразм), “10 йил”, “8 март”, “Ленин” номли тўпламларда ҳам босилиб чиққан[5].

Хулоса. Иккинчи жаҳон уруши йилларида Хоразм вилоятининг еттита туманида нашр қилинган газеталар ўз фаолияти жараёнида фронт ва фронт орти фаолиятига қаратилган мақолаларни чоп қилди. Уруш йилларида чоп қилинган газеталар тарғиботчилик вазифаси билан бирга халқларни бирдамликка чорловчи восита вазифасини ҳам ўтаган.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Хоразм вилояти давлат архиви. Ф-622, оп-1, д-17, в-154
2. Д.Бекчонова. Хоразм матбуоти, матбаачилик, ноширлик: тарихи ва бугуни. Хоразм. Огаҳий нашриёти. 2025. 219-бет.
3. Хива театри режисёри Умар Қурбонийнинг чевараси Сурайё Хабибуллаеванинг шахсий архив фондидан олинди.
4. “Коммунага” газетасининг 1941 йил 10-август №61 (1037)
5. 3. Қурбонов. “Умар Қурбоний”. – Урганч. 2025. – Б.8.

Qabul qilindi: 15.04.2025

Chop etildi: 31.05.2025

UDK: 18. 022.4

ABU ISHOQ KALOBODIY QARASHLARIDA TASAVVUF VA HADIS ILMLARINING XUSUSIYATLARI

Tojiddinov Abdusamad Abdulbosid o'g'li
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

FEATURES OF HADITH AND SUFISM IN THE VIEWS OF ABU ISHAQ KALABADI

Tojiddinov Abdusamad Abdulbasid oglu
Independent researcher at Bukhara State University

ОСОБЕННОСТИ НАУК ХАДИСА И ТАСАВВУФА ВО ВЗГЛЯДАХ АБУ ИСХОКА КАЛОБАДИ

Тождидинов Абдусамад Абдулбасид оглы
Независимый исследователь Бухарского
государственного университета



[abdusamadgoriuz@
gmail.com](mailto:abdusamadgoriuz@gmail.com)

ORSID: 0009-0002-
52573997
Tel: 904141294

Annotatsiya: Maqolada o'rta asrning yirik mutasavvif olimi, tasavvuf nazariyotchisi, hadis ilmi bilimdoni Abu Ishoq Kalobodiyning serqirra qarashlaridagi tasavvuf hamda hadis ilmiga oid jihatlari, ularning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga harakat qilingan. Buxoro ilm fani hadis ilmlari rivojida muhim hissasi, hadis va tasavvufdagi uyg'unlik o'zaro aloqadorlik, bog'liqlik tomonlari mutasavvif asarlarining qiyosiy tahlili asosida keng tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tasavvuf, hadis, ilm, amal, isnod, sanad, sahih, ma'naviy olam, ruhiy-ma'naviy yuksalish, ohod, mutovotir, hafs, qalb, inson.

Abstract: This article explores the multifaceted views of the prominent medieval Sufi scholar, theorist of Sufism, and hadith expert Abu Ishaq Kalabadi on the disciplines of Sufism and hadith. It highlights the distinctive characteristics of his approach to these religious sciences. Particular attention is given to the contribution of the Bukhara scholarly tradition to the development of hadith studies, as well as the harmonious integration and interconnection between hadith and Sufism. The analysis is based on a comparative study of Sufi texts.

Keywords: Sufism, hadith, knowledge, practice, isnad, sanad, sahih, spiritual world, spiritual and moral elevation, ahad, mutawatir, Hafs, heart, human being.

Аннотация: В статье анализируются многогранные взгляды выдающегося средневекового суфийского ученого, теоретика тасаввуфа и знатока хадисов Абу Исхака Калобади на науки тасаввуф и хадис. Раскрываются особенности его подхода к данным религиозным дисциплинам. Особое внимание уделяется вкладу бухарской научной школы в развитие хадисоведения, а также гармоничному сочетанию и взаимосвязи между хадисом и тасаввуфом. Анализ основан на сравнительном изучении суфийских трудов.

Ключевые слова: тасаввуф, хадис, знание, деяние, иснад, санад, sahih, духовный мир, духовно-нравственное возвышение, ahad, мутавотир, хafs, сердце, человек.

Kirish. Abu Ishoq Kalobodiy buxorolik mashhur tasavvuf olimi, nazariyotchi mutasavvif sifatida tanilgan. Uning ikki yirik asari ilm ahli orasida yaxshi tanish Jahon tasavvufshunoslari tadqiqotlarida, tasavvuf adabiyoti bilan

shug'ullanayotgan adiblar, faylasuflarning izlanishlarida o'z aksini topgan. Shu ma'noda, Abu Ishoq Kalobodiyning "At-Taarruf" va "Bahrul favoid" asarlarini qiyosiy tahlil etish tasavvuf olimining tasavvuf hamda hadis ilmidagi uslubi

bilan birga qarashlarining falsafiy jihatlarini ochib berishga, tasavvuf va hadis ilmlaridagi o'ziga xos yondashuvlarini ma'naviy –axloqiy qarashlarini chuqurroq o'rganishga yo'l ochadi. Chunki, uning “At-Taarruf” va “Bahrul favoid” asarlari o'z davrida va keyingi zamonlarda ham juda mashhur bo'lgan va Sharq hamda G'arb olimlarining e'tiborini tortib kelgan. “At-taarruf” tasavvuf tarixi, tasavvuf nazariyasiga bag'ishlangan mukammal asar sifatida ilm ahliga yaxshi tanish. Tasavvufshunos olimlar, tasavvuf falsafasi bilan shug'ullangan olimlar keng foydalanganlar. “Bahrul favoid” ham buxoroda hadis ilmlarining rivoji hamda ijtimoiy ma'naviy muhitni barqarorlashtirishda, axloqiy tamoyillarni hayotga joriy etishda muhim rol o'ynagan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Abu Bakr Ishoq Kalobodiy ushbu mufassal yozilgan asari bilan islom olamida birinchilardan bo'lib, o'z davrida tasavvufning nazariy masalalarini chuqur o'rgangan va tizimga solgan. Tasavvufni unga xos bo'lmagan tushunchalar, rasm-rusum va boshqa turli bid'atlardan tozalashga harakat qilgan va bunga erishgan, uning “at-Taarruf” asarining so'fiylik ilmlari bilan shug'ullangan ko'plab mutassavvifalar uchun dasturul-amal bo'lgan. Shu jihatdan, tasavvufning sofligi, tasavvuf yo'lining ma'naviyat yo'li, axloq yo'li ekanini, yuksalish yo'li ekanini asoslashga islomiy xulq atvor bilan uyg'unlashtirishga harakat qilgan. Darhaqiqat, keyingi davr donishmandlari va so'fiylari Abu Bakr Ishoq Kalobodiyning mazkur asariga juda yuqori baho berganlar. Abu Ishoq Kalobodiy ilohiy ma'rifatni himoya qilish, yoyish va tasavvufning nazariy-ijtimoiy tomonini rivojlantirishda alohida xizmat ko'rsatdi. Mazkur qo'lyozma asar Markaziy Osiyodagina emas, butun islom olamida birinchi umumlashtiruvchi nazariy-tarixiy manba ekanligi umume'tirof etilgan. Unda tasavvuf tarixi, so'fiylar hayot tarzi, mashhur so'fiylar haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Mazkur asar, tasavvufni fan sifatida rivojlantirishdagi birinchi yozma

manbalardan deyish maqsadga muvofiq bo'ladi. Asarda Abu Bakr Ishoq Kalobodiy o'zidan ko'ra ko'proq o'sha soha buyuk allomalarining so'zlarini, qarashlarini kelirgan. Ularning g'oyalari, inson ma'naviy kamolotiga undovchi, yo'naltiruvchi tamoyillarini irfoniy mavzularining mohiyati har tomonlama ochib bergan. Bu qo'lyozmaga o'z davrida va keyingi davrlarda yetishib chiqqan tasavvuf olimlari tomonidan ko'plab sharhlar yozilgan: Mulla Muhammad Olim Shoshiy “Sharhe Taarruf”, Alouddin Ali ibn Ismoil at-Tabriziy “Sharhul-Qodiy”, “Sharhe Abdullah ibn Muhammad al-Ansoriy al-Hiraviy”, “Sharhe at-taarruf” Imom Ismoil ibn Muhammad ibn Abdulloh al-Mustamliy Buxoriy, Xoja Muhammad Porso ham bu asarga sharh yozganligi manbalarda ta'kidlanadi. Abu Bakr Ishoq Kalobodiy “At-Taarruf”ning muqaddimasida kitobning yozilish sabablariga to'xtalib, “Shu vaziyat meni qo'lga qalam olib, tasavvuf ahlining tariqatlarini ushbu kitob orqali ko'rsatib berishga majbur etdi. Qalamim bilan imkoni boricha kashf etdim, zohiriy ilm vositasi ila ishorotlarni tushunmaydiganlar va iboralarini anglamaydiganlar uchun izoh berdim”, shu bilan birga ushbu kitobga shuning uchun ham “Tasavvufni tanishtirish kitobi” deb nom qo'ydim. Kitobni yozishdan oldin hoziq va mohir musanniflarning kitoblariga murojaat qildim va ulug' mashoyixlar bilan birga yashab, ular haqlarida ustozlardan so'rab, haqiqiy ahli hollar to'g'risidagi hikoyalarni ham o'qib chiqdim” - deb yozadi. Demak, tasavvufni tushunish uning asl mohiyati anglashdagi xilma-xillik, yoki adashishlar uning sofligiga zarar keltirishi mumkinligini bilgan mutasavvif uni har jihatdan himoya qilishga so'fiy kishilarning kimligini anglashlariga yordam bergan. Abu Ishoq Kalobodiy qarashlari inson ma'naviyatini, ma'naviy olamini, ruhiy, aqliy manbalarini uyg'otish, o'zligini bilishga undashi bilan ahamiyatlidir. Undan tashqari, Artur Jon Arberri¹ “At-Ta'arruf” ga qilgan The Doctine of the

¹Djon Artur Arberri (12-may 1905, Portsmut Angliya Gempshir grafligi – 2-oktabr 1969, Kembrijdj) nufuzli britaniyalik sharqshunos. Sermahsul arab, fors tili va Islomiy tadqiqotlar olimi. UPortsmut Grammatika Maktabi va Pempbrouk Kolleji, Kembrijda tahsil olgan. Uning ingliz tiliga Qur'onning tarjimasi, The Koran Interpreted, g'ayrimusulmon olim tomonidan yozilgan eng mashhur tarjima bo'lib, akademik doirada keng e'tirof qozongan. Djon Artur Arberri

(12-may 1905, Portsmut Angliya Gempshir grafligi – 2-oktabr 1969, Kembrijdj) nufuzli britaniyalik sharshunos. Sermahsul arab, fors tili va Islomiy tadqiqotlar olimi. UPortsmut Grammatika Maktabi va Pempbrouk Kolleji, Kembrijda tahsil olgan. Uning ingliz tiliga Qur'onning tarjimasi, The Koran Interpreted, g'ayrimusulmon olim tomonidan yozilgan eng mashhur tarjima bo'lib, akademik doirada keng e'tirof qozongan.

Sufis² nomli ingliz tilidagi tarjimasida muqaddimasida Kalobodiyning shuhrati “at-Ta’arruf” ustiga bino bo‘lgan deydi. Ushbu asar ta’lif etilishi ko‘p o‘tmay tasavvuf bo‘yicha qiymatli asar sifatida qabul qilindi va unga ko‘plab mo‘tabar olimlar tomonidan sharhlar bitildi. Darhaqiqat, ushbu asar arab tilida mukammal yozilgan uni har kim ham o‘qib anglay olmagan, ayniqsa, Buxoroda arab, fors tillarida turkiy tilda so‘zlashuvchilar ko‘plab yashaganligi bois uni turli tillarda sharhlashga zarurat paydo bo‘lgan.

Artur Djon Arberri kitob nomini, “e’tiqod”, “ta’limot”, “tariqat”, “aqida”, “madrassa”, “mazhab” ma’nolarini beruvchi “doctrune” so‘zini ishlatishni ma’qul topgan va quruq so‘zma-so‘z tarjimadan ko‘ra mohiyatga e’tibor qaratishni tanlagan. Qolaversa doctrine so‘zi kitobning asl nomidagi “mazhab” ma’nosini ham anglatadi, bu ham bizga Arberri kitob nomini tarjima qilishda naqadar muvaffaq bo‘lganini anglashga yordam beradi.

Zero kitob nomi o‘zbek tiliga “Tasavvuf ahlining mazhabini anglash” deb tarjima qilsak bo‘ladi. Inglizcha nomni esa The Doctrine of the Sufis – “Tasavvuf ahlining ta’limoti, mazhabi (ni anglash–tarjimon)” tarzida ma’no berishi mumkin.

Avvalroq, Misrdagi Qohira Universitetining Mumtoz Adabiyotlar Bo‘limi raisi, Arberri vataniga qaytgach Hindiston Ofisining Kutubxonasida assistent kutubxonachi bo‘lib ishladi. Urush davrida Liverpoolda pochta-nazoratida xizmat qildi, sal o‘tmay London Universitetining Senati Uyida joylashgan Axborot Vazirligiga stajirovkaga yuborildi. 1944-47 yillarda Alberri London Universitetidagi Sharqshunoslik va Afrika Tadqiqotlari maktabining fors tillari kafedrasiga boshlig‘ etib tayinlandi. Keyinchalik Kembrij Universitetida unga Sir Tomas Adamning Arab tili Professori unvoni berildi, undan tashqari 1947-yili o‘zining Kembrijdagi Pembrouk Kollejidagi 1969-yilga do‘vr faxriy ustoz bo‘lib qoldi. U Buyuk Britaniya, Kembrijdagi Eshon Perish qabristoniga rafiqasi (kelib chiqishi Ruminiyalik) Sarina Simon/Alberti (1900-1973) bilan dafn etilgan. U bilan ilk bor Qohirada uchrashib, keyinchalik 1932-yili Kembrijda turmush qurgan.

Qolaversa, Alberti Rumiyning ijodini g‘arb ommasiga o‘zining saralangan tarjimalari orqali tanishtirgani va o‘rta asr Andalus arab she’riyatining antologiyasini tarjima qilish bilan alohida e’tiborga molik.

³ ‘an-old ko‘makchi, o‘zbek tilida ajratish, bo‘lish ma’nolarini anglatadi. Bu erda Alloh bo‘laklardan iborat emasligi aytilmoqda.

⁴ Ila-old ko‘makchi, o‘zbek tiliga “ga” ya’ni jo‘natish kelishigi qo‘shimchasini ifodalaydi. Bu yerda Allohning intihosi, nihoyasi yo‘qligiga ishora qilinmoqda.

⁵ Fi-arab tilida makonni anglatuvchi olmosh. Bu yerda Allohning makondan tashqarida ekanligi nazarda tutilgan..

Shu o‘rinda, falsafa tarixida o‘ziga xos tarzda borliqning birligini asoslashda tasavvufiy uslub Tavhid, yoki Vahdat masalasida ham Abu Ishoq Kalobodiy merosi boshqa tasavvuf allomalari qarashlaridan farq qiladi. Abu Ishoq Kalobodiy arab tilini juda mukammal bilgan mutasavvuf hisoblanadi. Shu jihatdan uning arab tili grammatikasidagi old qo‘shimchalardan foydalanib Haqning yagonaligini ifodalovchi Tavhidga oid qarashlari diqqatga sazovor: Bu tavhid yoki Allohning yagonaligini dalillovchi, borliqning birligini ifodalovchi tushunchalar. Bunda:

U “an² (عن) ya’ni “ga” muvofiq emas, “Unga” so‘zi “ila” (إلى)⁴ yopishmaydi, “Fi” (في)⁵ Unga mos kelmaydi. “Iz” (إذ)⁶ Uni to‘xtatolmaydi. “In” (إن)⁷ U bilan maslahatlasholmaydi. “Favqa” (فوق)⁸ Unga soya sololmaydi, “Tahta” (تحت)⁹ Uni ko‘tarolmaydi, “Haza” (هذا)¹⁰ Unga muqobil bo‘laolmaydi, “Inda” (عند)¹¹ U bilan raqobatlasha olmaydi. “Xalfa” (خلف)¹² Uni ololmaydi, “Amam” (أمام)¹³ Uni chegaralay olmaydi, “Qabl” (قبل)¹⁴ Uni zohir qilolmaydi, “Ba’d” (بعد)¹⁵ Uni foniy qilolmaydi, “Kull” (كل)¹⁶

⁶ Iz-arab tilida zamoni anglatuvchi olmosh. Bu yerda Allohning zamondan tashqari ekanligi aytilmoqda.

⁷ In-o‘zbek tilida “agar”, arab tilida shubha, gumon ma’nolarini ifodalaydi. Bu erda Alloh har qanday shubha, gumondan xoli ekanligi nazarda tutilgan

⁸ Favqa-o‘zbek tilida “ust”, “tepa” ma’nosini anglatadi. Bu yerda Allohdan yuqori narsa yo‘qligi aytilyapti.

⁹ Tahta-o‘zbek tilida “ost”, “tag” ma’nosini anglatadi. Bu yerda Allohni biror narsa ko‘tarib turmasligi, U biror narsa ustiga turmasligi sifatlanmoqda..

¹⁰ Hiza-o‘zbek tilida “qarshi”, “muqobil” ma’nosini ifodalaydi.

¹¹ Inda-o‘zbek tilida “huzurida,” “oldida”, “yaqinida”, “vaqtda”, kabi ma’nolarni anglatadi. Bundan tashqari “qarshilik ko‘rsatish” ma’nosini ham ifodalaydi. Bu erda Allohga raqobat qila oladigan narsalarning mavjud emasligi aytilmoqda.

¹² “Xalfa”-o‘zbek tilida “orqa tomon”, ma’nosini ifodalaydi. Bu yerda Allohning orqasi bo‘lmasligi aytilyapti.

¹³ “Amam”-o‘zbek tilida “Old tomon” ma’nosini ifodalaydi. Bu yerda Allohda old tomon yo‘qligi aytilyapti. .

¹⁴ “Qabl”-o‘zbek tilida “ilgari” ma’nosini anglatadi. Bu yerda Allohning ilgari bo‘lganligi, “ilgari” so‘zi ham ifodalab, tushuntirib berolmasligi aytilmoqda..

¹⁵ “Ba’d” “keyin” so‘zi ham Allohni tushuntirib berishi mumkin emasligi aytilgan.

¹⁶ Kull - “barcha”, “hamma” ma’nolarini beradi. Bu yerda mazkur so‘z bilan Allohni tushunib bo‘lmasligi nazarda tutilayapti.

Uni jamlay olmaydi, “Kana” (كان)¹⁷ uni vujudga keltira olmaydi, “Laysa” (ليس)¹⁸ Uni yo‘qot olmaydi. Demak, u shunday borliq-ki, uni tushuntirish yoki aytib berish, tasavvur qilish bilan ham anglatib bo‘lmaydi. Uning yakka-yu yagonaligi qur‘on ma‘rifati orqali anglanishi maqsadga muvofiq.

Abu Bakr Kalobodiy Haqning birligini (tavxid)ni tasdiqlovchi to‘rtta uslubiy prinsiplarni ilgari surgan:

1. Haqni yaratilganlar anglay olishidan poklash va sifatlar o‘rtasidagi tenglikni tark etish.

2. Haqqa nisbatan sabab qo‘llamaslik, ya‘ni Haq sababga ega emas. Chunki sababga ega narsa oqibatdir. Sabab esa oqibat yo‘qolishi bilan yo‘qoladi. Agar sabab abadiy bo‘lsa, oqibat ham abadiy bo‘lishi kerak.

3. Haqni farqlovchi va xayol qiluvchi deb o‘ylamaslik, chunki farqlash yaxshi va yomoni ajratishga zararni bartaraf qilib, foydaga erishishga muhtoj bo‘lganlar sifatidir.

4. Haqqa nisbatan o‘xshashlikni ikki ma‘noda qo‘llamaslik birinchidan, Haq bandalar qiyosiga muhtoj emas, Haq yagona uning o‘xshashi yo‘q. Ikkinchidan, Haq o‘xshashiga muhtoj emas, chunki ma‘lumni noma‘lum bilan taqqoslash mumkin emas.

Yuqoridagi “at-Taarruf” dan keltirilgan fikrlarga e‘tibor qaratilsa, Abu Bakr al-Kalobodiyning nafaqat tasavvuf ilmini chuqur idrok qila olishi balki, uning kalom ilmi masallaridagi salohiyatini ham ko‘rish mumkin. Shu nuqtai nazardan uning ushbu asarini qomusiy asrlar sirasiga kiritish mumkin.

Yuqorida aytganimizdek, allomaning tasavvuf va kalom, hadislar borasiagi fikrlaridan keyngi davrlarning buyuk ulamolari ham iqtiboslar keltirganlar. Xoja Muhammad Porso o‘zining “Faslul-xitob” deb nomlangan yirik asarida “Ta‘arruf” kitobida: “Maqsud va mashhud mohiyatidan faqat ismlar va sifatlardan boshqa narsani ko‘rsata olmaydi. Qanday qilib mohiyatga etadi til gung bo‘ladi, deyiladi yoki Yana harchand oriflar va etuklar sifatlardan bilganlarini ko‘rsatsalarda, oqibatda bayon qila olmay qoladilar. Hazrati Ali (r.a.) dan rivoyat qilinadi: “Kim Robbiysini tanisa tili gung bo‘ladi degan fikrlarini

tahlil qilgan. Shuning uning “Bahrul-favoid” asarlaridagi fikrlarini ham keltiradi: “Shayx buzrukvor olim orif Abu Bakr ibn Ishoq al-Kalobodiy Buxoriy va boshqa katta mashoyixlar o‘zlarining ba‘zi kitoblarida va risolalarida o‘tgan hakimlarning qiyin ba‘zi so‘zlarini haqiqat arboblarga shar‘i mutohharimizga muvofiq keltirishgan. U nima deyayotganiga qara, kim aytayotganiga qarama, hukmiga havola qilganlar. Yaxshisini ol, yomonini tashla ham shu qabildagi so‘zlardandir.

Abu Ishoq Kalobodiy merosiga baho berib, professor U.Uvatov Uning fiqh ilmi bo‘yicha saboqni mashhur shayx Muhammad ibn Fazldan, kalom ilmini esa, Buxorolik Abu Hafs al-Kabir al-Buxoriydan olib yuksak darajalarga erishganini e‘tirof etadi. Olimning ma‘lumotlariga ko‘ra, Abu Bakr Ishoq Kalobodiyning ilmiy-ma‘naviy merosi haqida xabar bergan mualliflar uning qalamiga mansub besh yoki oltita asari bo‘lganligini zikr etilgan. Hozirgi ma‘lumotlarga ko‘ra, ikki asari bizning davrimizgacha yetib kelgan ular “Bahrul favoid” (“Foydali ilmlar dengizi”) deb atalib, bu asar “Ma‘oniy al-axbor” (xabar hadislarning ma‘nolari) nomi bilan mashhur deb hisoblaydi. Uning ta‘kidlashicha, Muhammad payg‘ambar a.s.ning odob-axloq va tarbiyaviy masalalarga oid 592 ta hadisni muxtasar sharhlar bilan keltirgan. Abu Bakr ishoq Kalobodiy o‘z ilmiy-faoliyatida hadislarga alohida ahamiyat bergan. Ba‘zi mualliflarning qayd etishlaricha, Abu Bakr ishoq Kalobodiy hadis ilmining sultoni Imom Buxoriyning payg‘ambar Muhammad alayhissalomning ishonchli hadislarini o‘zida jamlagan “al-Jome‘ as-Sahih” asariga ham sharh yozgan. Demak, Kalobodiyning bizgacha yetib kelgan ikki asaridan tashqari kitoblarini topish va keng jamoatchilikka yetkazish galdagi vazifalardan hisoblanadi.

Shu bilan birga U.Uvatov Abu Bakr Ishoq Kalobodiyning shox asari “At-taarruf” tasavvuf ilmiga bag‘ishlangan dastlabki arab tilida yozilgan manba deb, hisoblaydi. Islomiy tasavvufning ilk uch asrlik tarixini o‘rganishda muhim kitob ekanligini e‘tirof qiladi. Uning fikriga ko‘ra, mazkur asar 1933 yilda ingliz olimi Artur Arberri tomonidan, 1960

¹⁷ Kana - “bo‘lmoq” fe‘li. Allohni bor bo‘lganligi va bo‘lishligini “bo‘lmoq” fe‘li ifodalay olmasligi aytilyapti. Кана- “бўлмоқ” феъли.

¹⁸ Laysa-“emas” fe‘li. Yo‘qlik ma‘nosini anglatadi.

yilda esa, Abdulhakim Mahmud Toho Abdulboqiy tomonidan ikkinchi bor Qohirada nashr ettirilgan. O'zbek ilm fanida dastlab Otaqul Mavlonqulov va Mavluda Otaqul qizi tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingani diqqatga sazovor.

Talqin va natijalar: Buxoroda hadis ilmi ham shahar ma'naviy-ma'rifiy hayoti bilan chambarchas bog'liq holda rivojlandi. Abu Abdullo Xoja G'unjori (vaf. 920 y.), Muhammad As-San'oniy (vaf. 921y.), Muhammad bin Ya'qub bin al-Horis Subazmuniy (vaf. 925 y.), Abu Bakr Fazl (vaf. 927 y.), Abu Ahmad Nabixon ibn Ishok Pasqoyiriy (vafoti 923), Abu Bakr Ahmad ibn Muhammad Tavovisiy (vaf. 956 y.) kabi o'sha davrning yirik muhaddis, faqih, mutasavviflari ham Abu Bakr Kalobodiy yashagan davrda etishib chiqqanlarki, ularning boy ma'naviy merosi hali etarlicha o'rganilmagan. Demak, yuqorida keltirilgan hadis ilmi ahllarining har biri alohida tadqiqot ob'yekti bo'la oladi. Ularning ma'naviy merosi, ma'naviy axloqiy qarashlari yosh avlodni komil insonlar qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Abu Bakr Ishoq Kalobodiyning ma'naviy-axloqi, tasavvufiy qarashlari Iroq so'fiylik an'analari va g'oyalari ta'sirida ayniqsa, Mansur Halloj, Junayd Bag'dodiy, Abul Husayn an-Nuri, Sahl at-Tustari, Ibn Ato, Abu Sayid al-Xarroz, Zunnun Misriy, Abu Bakr al-Vositiy hamda Xuroson so'fiylik maktablarining tajribalari asosida shakllangan. Mutasavvif mazkur maktablar an'analarini Movarounnahrda o'zining yangi g'oyalari bilan boyitib rivojlantirdi. Ilk Renessans davrida tasavvuf ilmi yusalishiga ulkan hissa qo'shdi. Buxoroda yashab uning o'rta asrlardagi shuhratiga shuhrat qo'sha oldi.

Abu Bakr Ishoq Kalobodiyning serqirra olim ekanligi uning tasavvuf va hadis ilmiga oid o'ziga xos asarlari orqali bilish mumkin. Manbalarda Abu Bakr al-Kalobodiy so'fiy, faqih, usulchi, zohidlar qutbi, solihlar qutbi kabi sifatlar bilan tilga olinishi uning ilmi va ma'naviy yo'nalishini ko'rsatib turibdi. Olimning Hanafiy faqihlar orasida e'tirof etilishi ko'proq "Quttul-qulub" va "al Luma" asarlari kabi IV hijriy yilda tasavvufning tamalini qo'yishdagi o'rni bilan belgilansa, "at-Ta'arruf" dan tashqari "Bahrul favoid" asari bilan uning hadis olimlari orasidagi mavqeni aniqlash imkonini beradi. Uning hadis ilmidagi o'ziga xos jihatlari

hadislarning tasavvufiy mazmundagi sharhlari bilan bog'liqligidir.

Abu Bakr Ishoq Kalobodiy tasavvufning uyg'onish davrida Murtaish (vaf.328/933), Rudboriy (vaf.369/979), Nasrobodiy (vaf.367/977), Ibn Xafif (vaf.372/982), Shibliy (vaf. 334/945) kabi buyuk so'fiylarga zamondosh bo'lishi uning bu yo'nalishdagi faoliyatining rivojida ko'zga tashlanadi.

Abu Bakr Ishoq Kalobodiy fiqh, kalom, hadis va tasavvuf ilmlarini juda chuqur o'rgangan va mukammal asarlar yozgan nazariyotchi olimdir. Xoja Muhammad Porso (vaf.822/1419) "Shayx orif, imom Abu Bakr Ishoq Kalobodiy mashoyixlarning buyuklaridan, zohidlarning qutblaridan bo'lib, ahli ilm orasida "Bahrul-favoid nomi bilan mashhur "Ma'onil axbor" asarini ta'lif etgan va umrini oxirigacha zuhd, mujohada va riyozat bilan o'tkazdi. "At-Ta'arruf" asarini mukammal qilib solihlar qutbiga aylandi" -deb yozadi. "Faslul-xitob" asarida Porso ibratli rivoyat keltiradi: "Shayx hazratlari odati bo'yicha biror kimsa bir kishining qusurini aytsa, "bu xatodir" demas edi. "Bundan uning murodi nimaligini bilmadim" der ekan. Bu musulmonlikda komil iymon shartidir". Demak, uning xulq atvori dunyoqarashi, islom ilmlarini nafaqat o'rganishga bag'ishlangan hayoti balki, uning hayot tarzi butun faoliyati Qur'on, hadisga chambarchas bog'liqdir. Ilmi egallash unga amal qilish Abu Bakr Ishoq Kalobodiy hayot tarziga aylangan. Abu Bakr Ishoq Kalobodiy ulug' ustozlardan, yirik shayxlardan hadislar tinglagan, hadis ilmidan saboq olgan. Bahrul favoid asari orqali tasavvufni yanada rivojlantirishga katta hissa qo'shgan. Xususan, tasavvuf yo'lining hadislariga, hadis sohiblarining hayotiga qay darajada bog'liq bo'lganligi asarda aks etishi buning dalilidir. Abdulla Laknaviy Abu Bakr Ishoq Kalobodiyning Muhammad bin Fazl Abu Bakr al-Fadl al-Kamari al-Buxoriydan (vaf. 381/991) fiqh ilmidan saboq olganini, Hadis ilmini Abu Nasr Rashodiy (vaf. 339/951) dan o'rganganini ta'kidlagan. Shuningdek, Muhammad Hulmaniydan Kufada, Abu Ja'far Muhammad bin Meharahdan Rayda, Yahyo bin Solih as-Sahldan Misrda hadis eshitganligi manbalarda keltiriladi.

Abu Bakr Ishoq Kalobodiy "at-Ta'arruf" da so'fiylarning aqidasi o'rta qo'ygan bo'lsa, "Bahrul-favoid" da ya'ni "ma'onil axbor" da aqid masalalari sunniy kalom aqidasi bog'liq bo'lgan

soʻfiylarning hadislar sharhidagi izlanishlaridagi usullarini oʻrtaga qoʻyadi. U bu asarda muhaddis soʻfiy kimligini koʻrsatib beradi. “Bahrul-favoid” uning hadis ilmidagi mufassal ishlarining boshi hisoblandi. Abu Bakr Ishoq Kalobodiy yuzga yaqin ustolar, shayxlar sanadli naqlardan turli masalalarga oid 223 ta hadisni sharh qilib, tasavvufiy, axloqiy izohlar, oʻziga xos sharhlar bilan oʻziga xos tarzda ifodalaydi. Bahrul-favoid sharhlarida hadislar jumla-jumla qilib olinib, unda hadisning bir boʻlimi keyin boshqa boʻlimiga oʻtiladi. Mazkur asarda hadislar sharhida Tavhid, Allohning sifatlari, gunohi kabiralar, inson feʻlining yaratilishi kabi farqli kalom masalalari tahlil etilgan. Bu masalani u “At-taʼarruf” da ham tahlil etgan.

Abu Bakr ishoq Kalobodiy faqih sifatida usulchi sifatidagi faoliyati haqida maʼlumotlar manbalarda uchraydi. Uning bu sohadagi izlanishlarini “Maʼonil axbor” asarida ham kuzatish mumkin. Unda alloma fiqhiy masalalarga eʼtibor qaratadi. Shu jihatda hadislar sharhida izohlarida axloqiy masalalarni alohida koʻrib chiqadi. Abu Bakr Ishoq Kalobodiy “At-Taʼarrufda” turli masalalar yechimida sheʼrlardan foydalanadi. Bu holatni Bahrul-favoidda ham koʻrish mumkin. Bunda hadislar sharhlarining oxirida masalalarga oid sheʼrlar keltiradi. Uning asarlarida matn ichida masalalar yechimida sheʼrlardan foydalanishi oʻziga xosliklardan biri sifatida aytish mumkin.

Abu Bakr Ishoq Kalobodiy ilm va maʼrifat markazi boʻlgan Buxoroda ilmga boʻlgan qiziqishi va muhabbati uning ilm yoʻlidagi xizmatlari uni shu darajaga olib chiqqan. Abu Bakr Ishoq Kalobodiyning tasavvufni tushunish uni anglashda Qurʼon va Sunnadan ajratmaslik gʻoyasi, uning hadis ilmidagi tajribalariga oʻtgan deyish mumkin. Abu Bakr Ishoq Kalobodiyning ikkita shoh asari “at-Taʼarruf limazhabi ahl at-tasavvuf” hamda “Bahr

al-favoid” asarlarining oʻzaro oʻxshash va farqli jihatlarini qiyosiy tahlil qilishida quyidagilarga eʼtibor berish maqsadga muvofiq. Avvalo, muallif har ikki kitobni yozish yoki jamlashda nimani maqsad qilganligiga eʼtibor qaratib uning tasavvuf va hadis ilmidagi qarashlari oʻziga xususiyatlarini bilish mumkin. Chunki, uning maʼnaviy-axloqiy qarashlari ushbu asarlarida yorqin namoyon boʻladi. Ikkinchidan, kitobning mavzusi nimaga yoʻnaltirilgani, muallifning dunyoqarashi, eʼtiqodi, fiqhiy mazhabi va ruhiy kechinmalari kitoblardan qanday iz qoldirgan degan savolga javob topish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Абу Бакр Калободий. Ат-таъарруф. Тарж. О.Мавлонкулов. М.Мавлонкулова. Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2002.-В.3.

2. لمذهب أهل التصوف. أبو بكر كالأباضي. تعليق عليه أحمد 2. 1992. لثعرف شمس الدين. بيروت. Абу Бакр Калободий. Ат –таъарруф и-мазхаби аҳли-т-тасаввуф. Аҳмад Шамсиддин. Бейрут. 1992. Муқаддима.

3. https://en.m.wikipedia.org/wiki/Arthur_John_Arberry Ислам на территории бывшей Российской империи. Энциклопедический словарь. Под редакцией С.М.Прозорова. Том I, –177 стр.

4. Абу Бакр Калободий Ат-таъарруф. Тарж. Отакул Мавлонкул ўғли ва Мавлуда Отакул кизи. Т. Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти . 2002 –Б.114.

5. Уватов У. Тасаввуф тарихига доир муҳим манба. //Абдухолик Ғиждувоний ва тасаввуф. Илмий конференция маърузалари тезислари. Тошкент: 2003. -Б.36-37.

Qabul qilindi: 15.04.2025

Chop etildi: 31.05.2025

UDK: 373

KICHIK YOSHLI BOLALARNING SOG‘LOM SHAKLLANISHIDA BADIY GIMNASTIKA VA SPORT MASHG‘ULOTLARINING IMKONIYATLARI

Ibragimova Matluba Maxsudovna, Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti o‘qituvchisi

ВОЗМОЖНОСТИ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ГИМНАСТИКИ В ФОРМИРОВАНИИ ЗДОРОВОГО СОСТОЯНИЯ ДЕТЕЙ

Ибрагимова Матлюба Максудовна, преподаватель Ташкентского экономико-педагогического института

POSSIBILITIES OF ARTISTIC GYMNASTICS SPORTS TRAINING IN HEALTHY FORMATION OF ADULT CHILDREN

Ibragimova Matluba Maksudovna, Teacher of the Tashkent Institute of Economics and Pedagogy

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda badiiy gimnastika sport turining kichik yoshdagi maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilarining jismoniy, ma’naviy sog‘lom rivojlanishidagi ahamiyati, shuningdek, bolalarning salomatligini mustahkamlash, jismoniy harakatsizligini yengishda, ma’naviy fazilatlarini rivojlantirishda badiiy gimnastikaning imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: texnogen sivilizatsiya, badiiy gimnastika, iroda, chidam, ritm, estetik tarbiya, texnik yutuqlar, jismoniy harakatsizlik.

Annotation: This article analyzes the importance of rhythmic gymnastics in the physical and spiritual development of young preschoolers, as well as the potential of rhythmic gymnastics in strengthening children's health, overcoming physical inactivity, and developing their spiritual qualities.

Keywords: technogenic civilization, rhythmic gymnastics, will, endurance, rhythm, aesthetic education, technical achievements, physical inactivity.

Аннотация: В статье анализируется значение художественной гимнастики в физическом и духовном развитии детей младшего дошкольного возраста, а также потенциал художественной гимнастики в укреплении здоровья детей, преодолении гиподинамии, развитии их духовных качеств.

Ключевые слова: техногенная цивилизация, художественная гимнастика, сила воли, выносливость, ритм, эстетическое воспитание, технические достижения, гиподинамия.

KIRISH. Sport turlari ichida badiiy gimnastika sport turi o‘zining jozibadorligi, nafisligi bilan ajaralaib turadi. Bugungi kunda mazkur sport turi dunyo bo‘yicha tez rivojlanayotgan sport turlaridan biridir. Xususan, dastlabki sport musobaqalari XX asr 40-yillaridan o‘tkzila boshlangan bo‘lsa, 50-yillar oxirida sport Federatsiyasi (FIJ) badiiy gimnastikani jahon sport turi sifatida tan oldi va ro‘yxatga kiritdi. 1963-yildan buyon toq yillarda sport musobaqlari o‘tkazilib kelinmoqda. 1984-yildan Olimpiya o‘yinlar dasturiga kiritilgan. Shu o‘rinda badiiy gimnastika sport turining o‘ziga xos xususiyatlari haqida to‘xtalib

o‘tadigan bo‘lsak, ibtidoiy davr kishilari tabiatga taqlidan raqsga tushishgan. Insoniyat tarixining barcha davrlarda raqs kishilardagi his-tuyg‘ularni ifoda qilib kelgan. Badiiy gimnastika sporti – predmetli sport turi bo‘lib (tasma, koptok, halqa, arg‘amchi yordamida) nafis gimnastika va raqs mashqlarini musiqa ostida amalga oshiriladigan xotin-qizlar sport turidir[1]. Ritm, harakat mavjudlikning asosi shaxs, ayniqsa o‘sib kelayotgan avlodning uyg‘un rivojlanishi asosi hisoblanadi. M.Ya.Velenskiy motorni nafaqat ijroning motorli va badiiy texnikasi sifatida, balki shaxsning gumanistik madaniyati sifatida ham ta’riflaydi[3].



<https://orcid.org/0009-0005-9519-9554>

e-mail:

Matluba_93_09@mail.ru

Badiiy gimnastikaning raqobatbardoshligi uning o'z syujetiga ega bo'lgan qisqa sahna ko'rinishi sifatida namoyon bo'lishidir. Shu o'rinda haqli savol tug'iladi. Badiiy gimnastika sport turi bilan necha yoshdan boshlab shug'ullanish samarali va foydali bo'ladi. Gimnastikaning vazifasi salomatlik, umumjismaniy tayyorgarlikni mustahkamlashdan iboratdir. U harakat ko'nikmalarni takomillashtirish va mustahkamlashga, to'g'ri qad-qomatni tarbiyalashga, yurak-tomir va nafas olish faoliyatini yaxshilash hamda organizmni chiniqtirishni ta'minlashga qaratilgan.

MUHOKAMA. Bizga ma'lumki, kichik bog'cha yoshidagi bolalarda jismoniy o'sish juda tezkor amalga oshadi. Ammo hozirgi texnogen sivilizatsiya davrida nosog'lom ozuqa mahsulotlarining ko'payib ketishi, texnik yutuqlar sababli inson motor harakatining pasayishi holatlari kuzatiladi. Ayniqsa kichik yoshli bolalarda yassioyoqlilik, suyak-skelet tizimida nuqsonlar kuzatilmoqda. Yosh bolalarni muayyan bir sport turiga olib borishda ba'zan ularda xohish, yoki mashqlarni sidqidildan bajarishdan bosh tortish holatlarini ko'rishimiz mumkin. Ammo musiqa hamrohligida amalga oshiriladigan badiiy gimnastika sport turi har bir bolaning qiziqishini qozona oladi. Ammo afsuski mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimida mazkur sport turiga jalb qilish jarayoni nihoyatda sust. Talab mavjudligini, ammo taklif pastligini ko'rishimiz mumkin. Shu o'rinda mazkur sport turining yutuqlarini sanab o'tamiz:

-birinchidan, bolaning to'g'ri fiziologik rivojlanishini ta'minlaydi;
-ikkinchidan, suyak skelet tizimidagi nuqsonlarni bartaraf qilishga yordam beradi;
-uchinchidan, estetik jihatdan shakllanishiga, ya'ni go'zallik va nafislikni anglash, tushunishga yordam beradi va hokazo.

NATIJALAR. Asosiy gimnastika tarkibiga sarflanish, umumrivojlantiruvchi asosiy harakatlar kiradi. Asosiy gimnastika tarkibiga saflanish, umumrivojlan-tiruvchi va asosiy harakatlar kiradi. Mashqlarni bajarishda jismoniy jihozlardan foydalaniladi. Asosiy gimnastika kishi organizmidagi funksional jarayonning kuchayishiga, uning jismoniy rivojlanishiga, xilma-xil harakat ko'nikmalarining takomillashuviga, jismoniy sifatlarning tarbiyalanishiga, o'zlashtirilgan harakat faoliyatidan turli hayotiy vaziyatlarda mustaqil va ijodiy foydalana olishga, o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholay bilishga, harakat faoliyatining asosiy qonuniyatlarini anglashga,

egallangan bilim va ko'nikmalarining hayot va faoliyat uchun ahamiyatini tushunishga yordam beradi. Gigiyenik gimnastika – kishi salomatligini mustahkamlash va saqlashga, to'g'ri qaddi-qomatni shakllantirishga, organizmning asosiy funksiyasini, xususan nafas olish, qon aylanish, almashinish jarayonlarining takomillashuviga qaratilgan.

Aynan badiiy gimnastika sport turini maktabgacha yoshdagi davrdan boshlashning samarali jihati ular organizmidagi moslashuvchanlik bilan ham bevosita bog'liq. Bolalarning muvaffaqiyatli aqliy va jismoniy rivojlanishi, salomatligini mustahkamlash, jismoniy harakatsizligini yengishda, jismoniy fazilatlarini rivojlantirishda badiiy gimnastika katta imkoniyatlarga ega [2].

XULOSA. Jismoniy mashqlarning barcha turlari orasida gimnastika mashqlari eng muhim o'rinni egallaydi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan gimnastika mashg'ulotlari bollarda iroda, chidamlilik, jamoaviy ijodkorlini tarbiyalashga xizmat qiladi. Badiiy gimnastika bolalarning rivojlanishida universal shakllanish vositasidir. Ushbu sport turi mashqlarning estetik va texnik tarkibiy qismlari bolalarni gavnani tik tutish, oyoq pozitsiyalari, umuman olganda harakat madaniyatiga o'rgatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. Баршай В.М., Кривсун С.Н. Физическое воспитание дошкольников как основа здоровья современного общества // Таврический научный обозреватель. 2016. №11-3 (16). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/fizicheskoevo-spitanie-doshkolnikov-kak-osnova-zdorovya-sovremennogo-obschestva> (дата обращения: 02.12.2021).
3. Ibragimova M.M. Sog'lom avlod tarbiyalashda badiiy gimnastika va milliy raqs uyg'unligini ta'minlashning samarador jihatlari// Tamaddun nuri. 1-son. 2025. -B.165-194.
4. M.M. Ibragimova. 10-12 yoshli badiiy gimnastikachi qizlarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda milliy raqs san'ati elementlaridan foydalanish uslubiyati//Муғаллим хэм үзликсиз билимлендириў. Илимий-методикалык журнал. 2024.1/3–сан. 719-725 б.

Qabul qilindi: 15.04.2025

Chop etildi: 31.05.2025

UDK: 378:371

SINFDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARDA “BADASH” OHANGLARINI PEDAGOGIK TA'LIMOTLAR ASOSIDA O'QITISH

*Shuhratova Husnora Shuhrat qizi, Termiz davlat pedagogika
instituti tayanch doktoranti*

TEACHING “BADASH” SONGS IN OUT-OF-CLASS ACTIVITIES ON THE BASIS OF PEDAGOGICAL TEACHINGS

*Shuhratova Husnora Shuhrat kizi, PhD student at Termez State
Pedagogical Institute*

ПРЕПОДАВАНИЕ ПЕСЕН “БАДАШ” ВО ВНЕКЛАССНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ УКАЗАНИЙ

*Шухратова Хуснора Шухрат кызы, базовый докторант
Термезского государственного педагогического института*

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada sinf va sinfdan tashqari mashg'ulotlar tashkil qilib o'quvchilarni bo'sh vaqtini samarali foydalanirish, ularda milliy qadriyatlarimizga bo'lgan mehr uyg'otish, nomoddiy madaniy merosimiz hisoblangan “badash” ohanglari bilan o'quvchilarni tanishtirish, o'quvchining ta'lim jarayonidagi yetakchilik roli quyidagi pedagogik vazifalarni hal etish imkoni haqida ilmiy tahlil qilishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: badash ohanglari, o'ng-chap, qarsak, ruchka yordamida ritmni his qilish, o'zlashtirish darajasi past o'quvchilar bilan ishlash.

Abstract: This scientific article attempts to scientifically analyze the possibility of solving the following pedagogical tasks by organizing classroom and extracurricular activities to effectively use students' free time, instilling in them love for our national values, introducing students to "badash" melodies, which are considered our intangible cultural heritage, and the leadership role of the student in the educational process.

Keywords: badash melodies, right-left, applause, feeling the rhythm with the pen, working with students with a low level of mastery.

Аннотация: В данной научной статье предпринята попытка научного анализа возможности решения следующих педагогических задач путем организации урочной и внеурочной деятельности по эффективному использованию свободного времени учащихся, воспитанию у них любви к нашим национальным ценностям, знакомству учащихся с мелодиями “бадаш”, которые считаются нашим нематериальным культурным наследием, а также руководящей роли учащегося в образовательном процессе.

Ключевые слова: мелодии Бадаша, право-лево, аплодисменты, чувство ритма ручкой, работа с учениками с низким уровнем освоения.

KIRISH. Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quv-tarbiyaviy ishining tarkibiy qismi, o'quvchilarning bo'sh vaqtini tashkil etish shakllaridan biri – sinfdan tashqari ishlardir. Sinfdan tashqari ishlarga o'quvchilar bilan o'tkaziladigan va ularga tarbiya hamda bilim berishga qaratilgan turli xil

mashg'ulotlar tizimi kiradi. Darsdan tashqari faoliyat tizimi o'qitishning nazariy va amaliy tizimini to'ldiradi. Uning asosiy vazifasi o'quvchilarning o'qishdan tashqari bo'sh vaqti mobaynida o'zini-o'zi tarbiyalash va ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanish uchun oqilona taqsimlashga yordam



<https://orcid.org/0009-0002-4338-713X>

e-mail:

xshuhratova@gmail.com

berishdir. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil qilishda kasbga yo'naltirish ishlari texnologiyasining funksional tuzilmasi ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlarining, jamiyatda mavjud kasblar doirasining kengayib, chuqurlashib hamda murakkablashib borishi o'z-o'zidan shaxsga ta'lim berish, dunyoqarishini shakllantirish, estetik tarbiyani shakllantirish, sahna, kiyinish, so'zlashish madaniyatlarini yosh avlod ongiga singdirish, kasb tanlashga yo'llash hamda ishlab chiqarish jarayonidagi faol ishtirokining kafolati bo'lgan kasbiy malakalarini shakllantirish jarayoniga nisbatan yangicha samarali yondashuvlarni ishlab chiqishga yordam bo'luvchi ehtiyojini yuzaga keltiradi.

MUHOKAMA. "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati fani o'qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori (PQ-391-son, 15.11.2024) qabul qilindi. 2025-yil 1-martdan boshlab musiqa madaniyati fani o'qituvchilari uchun nazariya va amaliyot uyg'unlashtirilgan holda malaka oshirish tizimi yo'lga qo'yildi. Maktablarda "Iqtidor" badiiy havaskorlik jamoalari tashkil etildi. Jamoalar o'rtasida "Iqtidor maktab ansambli" respublika tanlovi o'tkazilishi yo'lga qo'yildi. Tanlovning respublika bosqichi g'oliblari xorijiy davlatlarga ta'lim sayohatiga yuborilishi e'lon qilindi. Bu ham sinfdan tashqari ishlar yurtboshimiz, davlatimiz nazaridan chetda emasligining yaqqol dalilidir.

Ma'lumki, ta'lim tizimi jamiyatda shakllangan muayyan ehtiyoj asosidagi ijtimoiy buyurtmani bajarishga yo'naltiriladi. Bunda yoshlarda milliy madaniyatni chqur singdirish davr talabidir. O'quvchilarda musiqa havas uyg'otishda har bir bolaga yakka tartibda yondashish, shaxsiy qiziqishlarini hisobga olish zarur. Bolalarda o'z ustida ishlash malakasini shakllantirish ularda sahna madaniyatini tarbiyalashning muhim omilidir. Sinfdan tashqari o'qishning asosiy vazifalari:

1. O'quvchilarning o'qish va nutq o'stirishdan olgan bilim va hosil qilgan malakalarini mustahkamlash, takomillashtirish va ularni yuksak axloqiy ruhda tarbiyalash.

2. O'quvchilarning musiqiy bilimlarini kengaytirish.

3. O'quvchilarni kerakli musiqani tinglash, tinglagan musiqasidan esa kerakli ma'lumotni topishga o'rgatish.

4. O'quvchilarning musiqa va milliy qadriyatlarimiz haqida bilim olishga havasini tarbiyalash.

5. O'quvchilarning cholg'u asbobi bilan mustaqil ishlash malakasini takomillashtirish.

Ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasida barkamol avlod shaxsini shakllantirish, uni kelajak hayotda o'z o'rnini topishi va raqobatbardosh kasb egasi sifatida tarbiyalash talabi ijtimoiy buyurtma sifatida yuzaga kelmoqda. Davr talabi ta'lim oluvchini ta'lim jarayonining sust tinglovchisi bo'lishdan faol ishtirokchisiga aylantirishni taqozo etmoqda. Buning uchun ular milliy o'zlikni chuqur anglab yetishlari, nomoddiy-madaniy meroslarimizdan xabardor bo'lishlari kerak. Momolarimizdan bizgacha yetib kelgan merosni yosh avlodga o'rgatish ularda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantiradi. Musiqa darslarida ularning estetik tarbiyasini shakllantiramiz. Biroq darslikka kiritilmagan, lekin avloddan-avlodga o'tib kelayotgan "Badash" ohanglari ularni tarbiyalashning oqilona yo'li ekanligini tan olishimiz lozim. Bugungi kunda jahon miqyosida Surxon vohasining tarixiy obidalari, aholisining boy madaniy va ma'naviy merosi ko'plab mahalliy va chet ellik tadqiqotchilarni o'ziga jalb etmoqda. Xususan, o'lkaning arxeologik yodgorliklari qator chet davlatlar olimlari tomonidan o'rganilmoqda, eski Termiz, Qoratepa, Fayoztepa, Dalvarzintepa, Jarqo'ton singari obidalar dunyoga dong taratdi. 2001-yilda esa YUNESKO Boysunni "Insoniyatning og'zaki moddiy qadriyatlar makoni" sifatida e'tirof etdi. Vaholanki, ushbu yuksak e'tirofga dunyodagi 19 tagina hudud sazovor bo'lgan, xolos.

"Badash" ohanglarining tobora unutilib ketayotganligi, shu kunga qadar "Badash" ohanglarini maktablarda keng targ'ib qilinmagani, uni o'qitish metodlarining yaratilmaganligi natijasida dunyo mamlakatlarida o'zbek milliy musiqa san'atiga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda.

Qadimda yashab o'tgan ajdodlarimizning mavjud muammolardan oqillik bilan yechim topganlari haqidagi hikoya va ohanglar o'quvchilar tarbiyasini ijobiy tarafga yo'naltiradi. Shu maqsadda sinfdan tashqari mashg'ulotlarda ularni o'qitishning pedagogik metodlarini shakllantirish lozim. Ta'lim jarayonining mazmuni asosida ta'limning shakl va

metodlari belgilanadi. Ta'lim muassasalari oldida turgan vazifalarning hal etilishi mashg'ulot mazmuni, ta'lim shakli, metodlari hamda vositalarining samaradorligiga bog'liq bo'ladi. Ta'lim shakli, metodlari va vositalari o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash, ularda chuqur bilim, dunyoqarashni hosil qilish ishiga xizmat qiladi. Maktabdan tashqari to'garak mashg'ulotlarni tashkil etish jarayonida o'quvchilarning ularning musiqiy, tarixiy, nazariy va amaliy bilimlarining yanada oshishiga erishiladi.

Maktabda eng keng tarqalgan ishlar ijodiy faoliyat, turli to'garaklar, turli ko'rgazmalar, olimpiadalar va jamoaviy musobaqalar tashkil etish hisoblanadi. Bundan ham qiziqarli maktab tadbirlari o'qituvchi yoki qolgan maktab xodimlari tomonidan ommaviy bayramlar, shuningdek, katta yoshdagi o'quvchilar uchun konferensiyalar tashkil etish hisoblanadi. Bundan tashqari, har bir bunday hodisa uni bir necha bosqichda amalga oshirishni nazarda tutadi. Birinchi qadam tadbirga tayyorgarlik ko'rishdir. Ikkinchi bosqich muayyan maktab tadbirini o'tkazish jarayonini o'z ichiga oladi. Va nihoyat, uchinchi bosqich – bajarilgan ishlarni tahlil qilish. Zero, bu tadbir, avvalo, maktab o'quvchilarini nafaqat qiziqtirishi, balki ularni ana shunday hayratlanarli ilm olamiga jalb qilishi kerak. Shu bilan birga, muayyan hodisaning barcha mavjud bosqichlarini diqqat bilan rejalashtirish, ma'lumotni taqdim etish usullari va vositalarini tanlash, darsni tashkil etish turini aniqlash kerak.

Ta'lim muassasalari oldida turgan vazifalarning hal etilishi mashg'ulot mazmuni, ta'lim shakli, metodlari hamda vositalarining samaradorligiga bog'liq bo'ladi. Ta'lim shakli, metodlari va vositalari o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash, ularda chuqur bilim, dunyoqarash hosil qilishiga xizmat qiladi. Shu o'rinda hozirgi kunda ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlarni qo'llashga qiziqish tobora keng tus olmoqda.

Umumta'lim maktablarida "Badash" san'atini o'qitishning quyidagi metodikalaridan foydalanildi:

- O'ng-chap.
- Qarsak.
- Ruchka yordamida ritmni his qilish.
- O'zlashtirish darajasi past o'quvchilar bilan ishlash.

O'ng-chap metodikasi. Ushbu metoddan individual dars jarayonlari bilan bir qatorda jamoaviy darslarda ham foydalansa bo'ladi. Notani varaqdan

o'qishga ko'maklashadi. Berilgan nota sistemasini o'qishda o'quvchilar o'ng hamda chap qo'llarining nomini aytish orqali o'yin "Badash"ni ijro etishlari mumkin. Bunda nota cho'zimlarining sanog'iga alohida e'tibor qaratsalar, ritmni his qilsalar bo'lgani. Badash ohanglari asosan o'rtacha tempda ijro etiladi. O'ng va chap deb notalarni aytishimizning sababi o'quvchilar hali juda yosh, ularning ongi "Badash" ohanglari (Bij-don-ba, bij-don-bij)ni hali to'liq idrok eta olmaydi. Shu sababdan ham ushbu metoddan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Qarsak metodikasi o'ng-chap metodikasi bilan uzviy holda olib boriladi.

O'ng-chap metodini boshqa metodlarsiz ham mustaqil qo'llasa bo'ladi. Ammo qarsak metodi unday emas. Uning qo'llanilishida o'quvchi dastlab berilgan notani o'qiydi hamda o'qigani asosida o'ng qo'l ijrosi uchun shu tomonga qarsak chaladi, chap qo'lni ijro etish kerak bo'lganida esa chap tomonga qarsak chaladi.

Ruchka yordamida ritmni his qilish. Ushbu metodni o'quvchilar ansambl bo'lib kuy ijro etish jarayonida ritmdan chetlashganlarida qo'llansa maqsadga muvofiq. O'qituvchi tomonidan birdan o'ngacha son aytiladi va har bir raqam aytilganida stol yoki partaga ruchka bilan bir maromda taqillatadilar. Ixtiyoriy tarzda o'quvchilarning ijro imkoniyatidan kelib chiqqan holda, sonlar o'rniga asarning ma'lum qismini mashq qilish mumkin.

O'zlashtirishi past o'quvchilar bilan ishlenganda asosan individual tarzda bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Bunda o'quvchi ritmni his qilmaganda yoki berilgan ohangni anglamaganida uning qo'lga yoki yelkasida usulni o'qituvchi ijro etadi o'quvchi esa o'qituvchi qaysi qo'lini tana a'zosiga tekkizganini anglab kuyni birgalikda ijro etadi. Bir qaraganda bu usul pedagogikaga zid bo'lishi, chetdan qaraganda o'quvchini majburlab o'qitish yoki uni urishdek ko'rinishi mumkin. Ammo tengdoshlarining chiroyli qilib kuy chalganida o'zining qo'lidan hech narsa kelmasdan, kami kelib turgan o'quvchilar uchun tushuntirishning yagona usuli shu. Takror eslatib o'tamanki, bu holat shikast yetkazmagan holda ohistalik bilan amalga oshiriladi.

Cholg'u asbobi yo'qligida esa stol yoki parta yordamida to'garak mashg'ulotlarini o'tsa ham bo'ladi. Bunda asosiy e'tibor ovozga emas, balki, qo'llarning to'g'ri harakatiga qaratilsa nur ustiga nur.

XULOSA. O'rnida shuni aytish mumkinki, o'quv jarayoni samaradorligini, kafolatini

ta'minlashning yagona yo'li ta'lim oluvchining shaxsiy faolligiga erishishidir. Musiqa madaniyati darslarini o'qitishdan tashqari to'garak mashg'ulotlarida bolalarda milliy qadryatimizga bo'lgan hurmatni oshirish va uning nima ekanligini anglatish maqsadida ularga tushunarli tilda yozilgan "Badash" turlari va ma'nolari, "Badash" ijrosini o'rgatishda qo'llaniladigan metodlar tayyorlandi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston nashr. 2023 – yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonuni. 2020-yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabrdagi Umumiy o'rta ta'lim

maktablarida musiqa madaniyati fani o'qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-391-sonli qarori.

4. Avliyakov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. O'quv qo'llanma. – T.: 2001.
5. Holmatov P.Q. Darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash. 13.00.02 - Mehnat ta'limi nazariyasi va metodikasi. Ped. fan. nomz. diss. – Guliston. 2004.
6. A.Qo'ng'irotova. Hayot bu orzulardan iborat emas. Surxon-Nashr. – Termiz. 2019.
7. S.Tursunov, T.Pardayev, H.Mahmadiyoro'va. Surxondaryo – etnografik makon. – Toshkent. 2012.



SHARH JANRINING ZAMONAVIY JURNALISTIKA JANRLARI TASNIFIDAGI O'RNI

Saparboyev Jaxongir Alimbay o'g'li, Qoraqalpoq davlat universiteti Jurnalistika yo'nalishi 2-bosqich talabasi

THE PLACE OF THE COMMENTARY GENRE IN THE CLASSIFICATION OF GENRES OF MODERN JOURNALISM

*Saparbayev Jakhongir Alimbay ugli, Karakalpak State University
2nd year student of the journalism program*

МЕСТО ЖАНРА ОБЗОРА В КЛАССИФИКАЦИИ СОВРЕМЕННЫХ ЖУРНАЛИСТИЧЕСКИХ ЖАНРОВ

*Сапарбоев Жахонгир Алимбай оглы, студент 2-го курса
направления “Журналистика” Каракалпакского
государственного университета*

Annotatsiya: Mazkur maqolada sharh janrining o'ziga xos xususiyatlari, bu janrning jurnalistika yo'nalishlarida foydalanishdagi ahamiyati muhokama qilingan. Qolaversa, sharh janrining internet, fuqarolik, foto va boshqa jurnalistika turlarida ishlatilishidagi muammolar va olimlarning fikrlari talqin qilingan.

Kalit so'zlar: sharh, blogpost, fotosharh, matbuot sharhi, yangi jurnalistika, klassifikatsiya, janr tushunchasi, tahlil.

Abstract: This article discusses the specific features of the review genre and its significance in journalistic directions. In addition, the problems of the use of the commentary genre in internet, civic, photo, and other types of journalism, as well as the opinions of scholars, are interpreted.

Keywords: review, blog post, photo review, press commentary, new journalism, classification, genre concept, analysis.

Аннотация: В данной статье обсуждаются особенности жанра комментария и его значение в использовании в журналистике. Кроме того, интерпретируются проблемы и мнения ученых в использовании жанра комментария в интернет, гражданской, фото и других видах журналистики.

Ключевые слова: обзор, блог-пост, фотообзор, обзор прессы, новая журналистика, классификация, понятие жанра, анализ.

KIRISH. Yangi jurnalistika – bu janrlarning analiz qilinishidan tortib, uni tarqatish va yana xususiyatlarini qayta yig'ish jarayoni. Ayniqsa, yangi jurnalistikada janrlarning tahlil qilinishi, bajaradigan funksiyasiga qarab guruhlariga ajratilishi va tushunarli tarzda nazariyasining ishlab chiqilishini talab qilayotgan jurnalistikadir. Bundan tashqari, yangi davr jurnalistikasida jurnalistga bir qancha talablar qo'yiladi. Ya'ni, qaysidir janrda material tayyorlashda e'tibor berishi kerak bo'lgan faktorlarni o'rganishi va bilishi kerak bo'ladi. Shuning uchun

ham ayni vaqtda jurnalistika janrlari asosan 3 ta guruhga ajratiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.

Jurnalistikaning asosiy janrlari quyidagilardan iborat: 1.Axboriy janrlar. 2.Tahliliy janrlar. 3.Badiiy-publitsistik janrlar. Buning ichida sharh janri barcha janrlardagi elementlarni o'zida mujassam etganligi bilan ajralib turadi. Ya'ni, muayyan bir asar, hodisa, voqea-jarayon yoki mahsulot haqida fikr-mulohazalar bildiriladi, baholanadi, tahlil qilinadi. Sharh janrida yozilgan materiallar odatda o'quvchi



<https://orcid.org/0009-0002-1572-3941>

e-mail:

saporboyevjahongir305@gmail.com

(tinglovchi, tomoshabin)ga ma'lumot berish, uni ogohlantirish yoki yo'naltirishga qarata yoziladi. Sharh janrida muallif o'z fikrlarini, ya'ni shaxsiy fikrlarini bildira oladi, lekin bu aniq dalillar, faktlar, tajribalardan kelib chiqishi lozim. Sharhlanayotgan mavzu haqida chuqur tahlil yuritish ham sharh janrining xususiyatlaridan sanaladi. Bunda sharhlanayotgan mavzuning ta'siri, afzalliklari, kamchiliklari, o'rni va barcha uchun ahamiyatli tomonlari tahlil qilinadi. Asosiysi, barcha janrlarga xos bo'lgan xususiyat bu axborot tarqatishdir. Axborot tarqatish barcha janrlarning vazifasi hisoblanadi, reportajda voqea-hodisa o'rnida turib jurnalist so'z yuritadi. Sharhda ham, masalan sport sharhini olaylik, unda sharhlovchi jonli efirda ma'lum bir sport turini sharhlaydi. O'sha sport turining qachon, qayerda paydo bo'lganidan tortib, sportchilarning xatti-harakatlarigacha sharhlovchi nigohidan chetda qolmaydi. XXI asrda sharh janrining asosiy funksiyasi ham ma'lumotlarga tayangan holda fikr bildirish sanaladi. Keling dastavval, "sharh" so'zining lug'aviy ma'nosiga to'xtalsak, "sharh" arabcha so'z bo'lib, "izohlash", "tushuntirish" degan ma'nolarni anglatadi. Sharh OAVda ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy voqea-hodisalarning, hujjat va boshqa shu kabi muhim narsalarning, mohiyati hamda ahamiyatini ommaga tezkor tushuntirib, bayon qilib berish ko'zda tutilgan material turi. "Sharhda faktlarni tahlil qilish, taqqoslash, fikrni dalillashning turli vositalarini qo'llash, umumlashtirish, xulosa yasash kabi usullardan keng foydalanish mumkin"[1].

NATIJA LAR. Jurnalistikada sharh janrining ma'nosiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, sharh janri nafaqat faktlarni tahlil qiladi, balki taqqoslaydi hamda umumlashtiradi, xulosa chiqaradi. O'zi ushbu janrning jurnalistikada, omma orasida o'rni qanday? Fuqarolik jurnalikaga nazar soladigan bo'lsak, sharh janridan insonlar deyarli har kuni foydalanadilar. Ya'ni ijtimoiy tarmoqlarda kommentariy bo'limida kimningdir blogiga, kontentiga shaxsiy fikr bildiriladi. Bu ham aslida sharh janrining bir ko'rinishi sanaladi. Faktlardan kelib chiqib, ko'rayotgan narsasiga izoh qoldiradi. "Sharh" so'zi adabiyotshunoslikka oid adabiyotlarda quyidagicha talqin qilinadi: Sharh ("kommentariy" – lotincha so'z bo'lib, "belgilash", "izohlash" ma'nolarini anglatadi. Filologik tadqiqotga oid janr, adabiy matnni izohlash, tushuntirish. Sharh matnni

tanqidiy o'rganish jarayonida uning natijalarini bayon qiladi va chop etishga yordam qiladi[4].

Qadimda Osiyo va Yevropani bog'lab turgan Buyuk ipak yo'lining savdo markazi, madaniyat o'chog'i bo'lgan Samarqand, Buxoro, Urganch kabi shaharlarimiz nomi bashariyatga ko'plab olim-u fuzalolarni yetishtirib bergani, tarixiy obidalari bilan ham tarix zarvaraqlariga bitilgan. Albatta, har zamonning o'z tosh-tarozisi bor. XXI asr insoniyat tarixida iqtisodiy taraqqiyot, ilm-fan va texnologiyada erishilgan ulkan yutuqlari bilangina emas, turli iqtisodiy inqirozlar, ijtimoiy-siyosiy buhronlari bilan ham yodda qoladi. Shu bilan birga, ayni paytda ayrim davlatlarning o'zaro nizolashuvi, urush va vayronagarchiliklar, siyosiy taranglashuv, ijtimoiy tengsizlik avj olgani, odamlar xotirjamligidan turli guruhlar manfaatlarini ustun qo'yilayotgani, ulkan shaharlarda yaxshi amallardan ko'ra fahsh ishlar ko'payishi ezgulik ustiga qurilgan tamaddunning yemirilishiga xizmat qilmoqda. Dunyodagi mana shunday murakkab vaziyatda yurtimizda ulkan islohotlar, qadim zamonlarda bo'lgani kabi takrorlanmas bunyodkorliklar amalga oshirilayotgani kishini ikki karra mamnun etadi[6].

Yuqoridagi misolda ham sharh janrining elementlari mavjud ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, jurnalistning shaxsiy qarashlari faktlar yordamida bildirilib, mavzuni ochib berishga harakat qilinmoqda. Demak, sharh janri, nafaqat boshma OAV jurnalistikasi, balki sport, fuqarolik, harbiy, iqtisodiy, siyosiy, san'at, teleradio va boshqa jurnalistika yo'nalishlarida foydalaniladigan janr sanaladi. Qoraqalpog'istonlik tadqiqotchi S.Esemuratova o'zining "Fuqarolik jurnalistika va SMI bilan ishlash" nomli ilmiy ishida bir qancha misollar keltiradi. Agar tadqiqotchining ilmiy mehnatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, unda bloglarda kommentariylar bildirilgan. O'sha kommentariylar ham o'zida sharh janrining xususiyatlarini jamlaganligi bilan ushbu janrga misol sifatida ko'ra olamiz. Xullas, jurnalistikada har bir yo'nalish bir-biriga yaqin bo'lib, sharh janri barcha yo'nalishlardagi janrlarning elementlarini o'zida aks ettirishi bilan boshqalaridan ajralib turadi. Masalan, oddiy ijtimoiy tarmoqlardagi kommentariy bo'limi fuqarolik yoki internet jurnalistikasiga oid termin. Ammo biror mavzu yuzasidan izoh, fikr bildirilayotgan ekan, demak u sharh janridagi elementlar mavjudligi bilan shu janrga o'xshaydi. Yana bir misol sifatida fotojurnalistikani olaylik,

unda beriladigan fotolar, nocommentlarga sharh yoki fikrlar bildiriladi. Bular ham qaysidir ma'noda sharh janridagi elementlardan hisoblanadi. Bu bo'yicha O'zbekiston Milliy universitetining jurnalistika fakulteti tomonidan oliygohning 90 yilligi, jurnalistika fakultetining 40 yilligiga bag'ishlab chop qilingan "Hozirgi zamon jurnalistikasi" ilmiy ishida quyidagicha fikrlarni ko'rishimiz mumkin. "Hayotni fotosuratlar bilan aks ettiruvchi fotojurnalistika ham fotosharh, ayrim suratli nashrlarda tasviriy (grafik) sharhlar ham qo'llanilishi mumkin. Bularning hammasi sharh janrining ko'p qirraliligini, hayotni aks ettirishda turli vositalardan foydalanishi mumkinligini ko'rsatib turibdi"[1]. Shunday ekan, har bir yo'nalishda bir-biriga yaqinlikni ko'rishimiz mumkin. Boshqacha qilib aytganda, jurnalistika janrlari har bir yo'nalishda mavjud. Shunday qilib, qaysi jurnalistikaning qaysi yo'nalishida sharh janri qo'llanilmasin, hammasida bir xil vazifani bajaradi, ya'ni obyektivlik orqali subyektiv fikrlarni ifodalaydi.

MUHOKAMA. Sharh janrining turlarini, uning xususiyatini tahlil qiladigan bo'lsak, "Sharh o'zi turlarga bo'lishinishi kerakmi?" degan savolga javob topish lozim. Avvalo, bunday paytda sharhning nimaga xizmat qilishini anglash o'rinli. Bu haqida tadqiqotchi A.A.Tertichniy o'zining "Vaqtli matbuot janrlari" kitobida sharh janrining turlari va xizmati haqida izlanishlar olib borgan. Unga ko'ra, "sharh janri tahliliy janrlar guruhiga kiritilgan". Sharhning hozirgi vaqtda ochiq sharh, pardalangan sharh, teleradio sharhi, matbuot sharhi, internet sharhi kabi turlari mavjud. Lekin bu sharh turlari o'z oldiga yana bir qancha mayda-mayda turlarga ajratilishi kerak. Hozirgi jurnalistikada faqat mavzusiga qarab turlarini kuzata olamiz.

Jurnalistikaning tahliliy janrlari qatorida sharh o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ulardan birgina sport sharhini olishimiz mumkin. Bu turdagi sharhda sharhlovchi ko'pincha sport turlari va ularning terminlari bilan yaqindan tanishishi kerak bo'ladi. Sport sharhi aslida sharh turlaridan eng osoni va qulayi hisoblanadi. Bunda ko'ringan musobaqaning tafsilotlarini boricha izohlanadi. Sport sharhining boshqa sharh turlaridan o'zgacha tomoni, bu sharh turida ko'pincha, sportga taalluqli terminlar, sportga taalluqli iboralardan foydalaniladi. Yana bu sharh turida sharhlovchi mavzuni erkin turda sharhlaydi. Shu jihatlari bilan boshqa sharh turlaridan ajralib turadi.

Bundan tashqari, sharhning siyosiy turlari ham mavjud bo'lib, "Yangi O'zbekiston", "Xalq so'zi", "Erkin Qaraqalpaqstan" kabi gazetalarda chop etiladi. "O'zbekiston 24", "O'zbekiston", "Qoraqalpog'iston" kabi telekanallarda siyosiy sharhlar efirga uzatiladi. Masalan, "Yangi O'zbekiston" gazetasining 2025-yil 7-may sanasida chop etilgan 92-sonida "Kichik biznesni rivojlantirishda muhim hujjat" sarlavhali sharh turida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2025-yil 19-martdagi "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rmini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni va uning ijrosini ta'minlashdagi chora-tadbirlar haqida, raqamli turda izohlangan. Ozgina parcha keltirib o'tadigan bo'lsak, "Farmon asosida kichik va o'rta biznes subyektlarining yiriklashuvini rag'batlantirishga oid qator chora-tadbirlar nazarda tutiladi. Jumladan, 2025-yil 1-maydan boshlab "o'zini-o'zi band qilgan shaxs – yakka tartibdagi tadbirkor – kichik biznes – o'rta biznes – yirik korxonalar" zanjiri asosida tadbirkorlik subyektlarining yiriklashuvini rag'batlantirish bo'yicha aniq mexanizm joriy qilindi"[7] deb ko'rsatilgan va sharhning siyosiy turiga alohida e'tibor bergan. Agar diqqat qilinadigan bo'lsa yuqoridagi misolda sharhning siyosiy turi, obyektiv ma'lumotlar subyektiv turda talqin qilingan bo'lib, sharh janrining o'ziga xos xususiyatlarini yaqqol ochib beradi.

Gazetaning xuddi shu sonida "Arda Xiva – Xorazmning zamonaviy tashrif qog'ozi" sarlavhali munosabat ruknida chop qilingan material ham o'zining bo'lib o'tgan voqealar izohlanganligi uchun ham sharhga biroz o'xshab ketadi. Masalan, "Prezidentimizning viloyatimizga har galgi tashrifi biz, xorazmlilar qalbida cheksiz g'urur, faxr va shukronalik tuyg'ularini uyg'otadi. Negaki, davlatimiz rahbari viloyatimizga katta-katta mablag', yirik qurilishlarni amalga oshirish uchun qator tashabbuslar bilan keladi. Bu esa, o'z navbatida, viloyatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish bilan birga aholi farovonligini yuksaltirib, bandligini ta'minlaydi"[7] degan sharh turini ko'rishimiz mumkin. Undan ko'pincha, sharhning izohli, faktlarga asoslanib, o'z fikri orqali yetkazish holatini ko'ra olamiz.

Shunday qilib, sharh nafaqat mavzuni tahliliy turda ochib berishga ko'maklashadi, balki unda ma'lumotlar boshqalariga solishtirilib, fikrlar qo'shilgan holda teletomoshabinga, o'quvchiga yoki

tinglovchiga sifatli turda yetkaziladi. “Jamiyat” gazetasining 24.04.2025-yil sanasidagi 16-sonida “tabiat oldidagi mas’uliyat” sarlavhali material ham qaysidir xususiyatlari bilan sharh janriga o‘xshab ketadi. Misolni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, “So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ham ekologik ta’limga katta e’tibor qaratilmoqda. Maktab va oliy o‘quv yurtlarida ekologik fanlar ta’lim tizimiga joriy etilgan. Milliy kadrlar bazasida ekologiya sohasida mutaxassislar yetishtirish borasida uzluksiz kadrlar siyosati ham yo‘lga qo‘yib borilmoqda. Shu bilan birgalikda davlat siyosati darajasida “yashil iqtisodiyot”, “ekologik madaniyat”, “qayta tiklanadigan energiya manbalari” kabi muhim strategiyalar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilmoqda”[8] kabi misollarda sharhning siyosiy turlari o‘z ko‘rinishini topadi. Sharh janri siyosiy turida ko‘pincha siyosiy, farmon, qaror yoki qonun hujjatlari haqida izoh beriladi, munosabat bildiriladi. Shu jihatlari bilan siyosiy turda o‘quvchi ko‘ziga tashlanadi.

XULOSA. Sharh janri boshqa janrlarga nisbatan o‘zining tahliliy, faktlarni subyektiv fikrlar bilan yetkazish jihatlari bilan ajralib turadi. Tahliliy janrlar ichida sharh boshqalariga qaraganda, sharhlovchining jonli e’fir orqali yoki o‘sha paytning o‘zida sharhlayotgani, izoh berayotgani orqali farqlanadi. Internet sahifalarida, ijtimoiy tarmoqlarda fuqarolik jurnalistlar o‘zlarining ijtimoiy

tarmoqlardagi betlarida firklarini, izohlarini voqea sodir bo‘lgan vaqtning o‘zida beradilar. Shu jihatlari bilan sharhning o‘zi ko‘rinishlarini ko‘rsataveradi. Shunday qilib, sharh zamonaviy jurnalistikani rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Sharh orqali axborot tahliliy turda obyektiv yetkaziladi va zamonaviy mediadagi o‘rnini shu jihatlari bilan to‘ldirib boraveradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Hozirgi zamon jurnalistikasi. T.:Aloqachi. 2008. 138-b.
2. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – T.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2005. 10-tom., 12-b.
3. Литературный нециклический словарь. В.М.Кожевников, П.А.Николаев. – Москва. Советская энциклопедия, 1987. – С. 163, 752.
4. Esemuratova S. Puqaraliq jurnalistika ham SMM menen islesiw. T.: Yoshlar mediaprint. 2021.73-74-b.
5. Yangi O‘zbekiston gazetasining 22.04.2025 81-soni, https://t.me/gazetalar_sharhi/35125
6. Yangi O‘zbekiston gazetasi 07.05.2025, 92-son https://t.me/gazetalar_sharhi/35392
7. Jamiyat gazetasi 24.04.2025, 16-son https://t.me/gazetalar_sharhi/35133



MAHMUD QASHGARIYDIN «DEVANI-LUGAT-IT-TURK» MIYNETINDE SOMATIK KOMPONENTLI BIRLIKLERDIN NAQIL-MAQALLARDA QOLLANILIVI

Umarova Umitay Abaevna, Ajiniyaz atidagi Nókis mámleketlik pedagogikalıq instituti doktoranti

MAHMUD QOSHG'ARIYNING «DEVONU LUG'OTIT TURK» ASARIDA SOMATIK KOMPONENTLI BIRLIKLARNING MAQOL-MATALLARDA QO'LLANILISHI

Umarova Umitay Abayevna, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti 1-kurs tayanch doktoranti

THE USE OF UNITS WITH A SOMATIC COMPONENT IN PROVERBS AND SAYINGS IN MAHMUD KASHGARI'S WORK «DĪWĀN LUGHĀT AL-TURK»

Umarova Umitay Abaevna, Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz, 1st year support doctoral student

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЕДИНИЦ С СОМАТИЧЕСКИМ КОМПОНЕНТОМ В ПОСЛОВИЦАХ И ПОГОВОРКАХ В «ДИВАНЕ ЛУГАТ АТ-ТУРК» МАХМУДА КАШГАРИ

Умарова Умитай Абаевна, докторант 1-курса Нукусского государственного педагогического института имени Ажинияза



<https://orcid.org/0009-0002-6491-0364>

e-mail:

umarovaumitay@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asaridagi maqol-matallar inson tana a'zolaridagi qo'llanilgan somatik komponentli birliklar tahlil qilindi. Maqolada turkiy tildagi so'zlar va ularning ma'nosi, somatik maqol-matallarni qoraqalpoq tilida berilishi va adabiy tildagi ma'nolari ochib berildi.

Tayanch so'zlar: Somatizm, maqol-matallar, turkiy til, madaniyat, poetik shakl.

Annatation: In the article, proverbs and sayings from Mahmud Kashgari's work «Devoni lug'atit turk» were analyzed as units with a somatic component used in human body parts. The article reveals Turkic words and their meanings, the presentation of somatic proverbs and sayings in the Karakalpak language, and their meanings in literary language.

Key words: somatisms, proverbs, Turkic language, culture, poetic form.

Аннотация: В статье анализируется соматическое единство пословиц и поговорок, используемых в произведении М.Кашгари «Девони лугатит турк». В статье раскрываются значения тюркских слов и соматических пословиц и поговорок как в каракалпакском, так и в литературном языках.

Ключевые слова: соматизм, пословицы, тюркский язык, культура, термин.

KIRISIW. Barlıq xalıqlardıń awızeki dóretpeleriniń úlken bir tarawın naqıl-maqallar dóretpeleri bolğan siyaqlı, qaraqalpaq xalıq awızeki quraydı. Naqıl-maqallar– xalıqtıń ásirler boyı

puxtalap, kir juqtırmay atadan-balağa, góneden jañağa, ótkerip saqlap kelgen hasil ğaziynesini. Naql-maqallar kóbinese, poetikalıq formağa iye bolıp keledi. Sonlıqtan, olar mázi ayıtılúgın jay sózlerdey bolmaydı. Kópshilik sóz sheberleriniń oy eleginen ótip shıńlanıp barıp shıqqanlıqtan tili ótkir hám oğada kórkem boladı[1.7].

Maxmud Qashqariydiń «Devonu luğat it türk» (Türkiy sózler devoni) miyneti barlıq türkiy xalıqlar ushın júdá bahalı bolǵanlıqtan, türkiy tilles xalıqlar onnan óz ana tillerine sáykes táreplerin, belgilerin taba aladı. Bul – xalıqlardıń ótmishtegi tariyxınan, úrp-ádetinen, til faktlerinden maǵlıwmat beretuǵın bahalı shıǵarma. Dúnyadaǵı kóplegen tillerde dóretilgen naql-maqallardıń tiykarǵı bólegin somatikalıq komponentli dene aǵzalarınıń atların bildiretuǵın naql-maqallar quraydı. Maqalamızda Mahmud Qashqariydiń «Devonu luğat it türk» (Türkiy sózler devoni) shıǵarmasında keltirilgen somatikalıq komponentli naql-maqallardı basshılıqqa alıp, ilimiy kóz qarastanda ózgesheligin anıqlawǵa baǵıshladıq.

ÁDEBIYATLAR HÁM ANALIZ METODLAR. «Devonu luğat it-türk» miyneti boyınsha tilshi ilimpazlar hár qıylı maqalalar hám ilimiy izertlewler jumıslarında ilimiy kózqarasların bildirgen. A. Pirniyazovanıń «Mahmud Qashqariydiń «Devonu luğat-it-türk» shıǵarması hám qaraqalpaq tili» degen maqalası hám X.Hamidovtıń «M.Qashqariy hám qaraqalpaq tiliniń fonetikalıq sisteması» atlı maqalalarda da shıǵarma tiliniń hár qıylı tárepleri sóz etilgen. Sh.Abdinazimov «Devoni luğat it türk» («Türkiy sózler devoni») miyneti hám «Qaraqalpaq tilindegi ayırım naql-maqallar» degen maqalasında «DLT» miynetinde hám qaraqalpaq tilinde ushırasatuǵın naql-maqallardı úsh toparǵa ajratıw maqsetke muwapıqlıǵın aytıp ótedi.

Sh.Abdinazimovtıń qaraqalpaq til tariyxı miynetinde «DLT» adam múshelerin bildiretuǵın tómendegishe sózler jumısalǵan; Awız - aǵız(1,89), qol-qol(3,148), qol-elik (1,77), moyın - boynı(1, 220) qabaq- kóz qabaqı (1,363), shash - sach (1,77), ayaq-azaq (1-96), dize - tiza (2, 395), tis - tish (2,28), júrek - yurak (2,167), ókpe – o'pka (2-167), barmaq - ernak (1, 129).

Hár bir tildiń sózlik quramındaǵı adam músheleriniń atamaları sol tildiń sózlik quramınıń eń eski qatlamlarınıń biri bolıp tabıladı[2.55]. Sh. Abdinazimovtıń qaraqalpaq til tariyxı miynetinde «DLT» adam múshelerin eski türk álipbesinde

keltirip ótken, bul jerde tiykarınan anatomıyalıq atamaların tiykarǵı nominativ mánisi esapqa alınǵan. Mahmud Qashqariydiń «Devonu luğat it türk» («Türkiy sózler devoni») miynetinde keltirilgen somatikalıq komponentli naql-maqallardıń qaraqalpaq tiline qatnasın qaraǵınıımızda tómendegi mısallar arqalı dálillep beremiz.

NÁTIYJELER HÁM DODALAW.

«Ökuz azaqı bolǵıncha, buzaǵu bashı bolsa iygi»[3.91] (*Ögizdiń ayaǵı bolǵansha, buzawdıń bası bol*). İnsannıń bas erkinligi hámme nárseden áhmiyetliligi – «buzawdıń basına,» boysınıw mánisi bolsa «ógizdiń ayaǵına « uqsatılǵan. «Bas» bul jerde jaylasıwı boyınsha joqarıda, «ayaq» tómende ekenligi názedre tutılǵan. Bunda naqıl «bas» hám «ayaq» lekseması erkinlik hám ğárezlilik mánilerin bildirip kelgen. Qaraqalpaq tilinde «*Ögizdiń otın jep, baspaqtıń ornında jatpa*» degen naql mánisin bildirip tur. Bunda adamlar birewdiń miynetin islep, ózi is-háreket miynet etken adamday bolıp jurgen adamdı názerde tutılǵan.

«Ag'ız yesa ko'z uyalar»[4.530], (*awız jese, kóz uyalar*). Bul mısalda kórinip turǵanıday, kóbinese adamnıń múshe atamaları menen kelgen sózlerde solardan awız hám kóz tirek sózleri qatnasqan somatızimdi bildirip kelgen. Qaraqalpaq folklorında bul naql «jegen awız uyalar» degen mánisine jaqın keledi. Uyat, türkiy xalıqlar mentalitetine tán bolǵan etalon esaplanadı. Bul naqıl «kóz qarasarınıń kúshli tásiiri bolıp, onda adamlar arasındaǵı sawbetlesiwde awız sózleri kóz benen baylanıslı sezimleridiń qánshelli kúshli hám tásirli bolıwı múmkinligin sipatlaydı.

«Etili turnaqlı yezirmas»[4.530] (*Et turnaqtan ajıralmas*). Bul naql «Turnaqtan ajıralmas» degen sóz, ádette bir nárese yáki adam júdá bekkem bolsa, yaǵnıy olar bir-birinen ajıralmaslıǵın bildiredi. Turnaq lekseması adam sırtqı múshesi bolıp et penen turnaqtıń arasındaǵı jaqınlıqtı bildirip, Bunda «Atalar sózi – aqıl» kitabında «*Jaqsını jaman deme, alsıń bolsa-da, Jamandı jaqsı deme, jaqının bolsa-da*» naqılına salıstırsaq boladı. Ásirese bir nárseniń yamasa adamnıń óz-ara baylanıslılıǵın yamasa bir-birine júdá qádirdan ekenligin bildiriw ushın qollanıladı. Jánede jaqınlıq, tuwısqanlıq hám tárbiyalıq mánisineda keledi.

«Erik erni yag'lig', ermagu bashı kanlig» [4.530] (*Háreket etken turısqan adamnıń erni maylı, erinshektiń bası qanlı*). Bul naql quramında, *bas* hám *erin* tirek sóz sipatında qatnasqan, bular adamnıń

sırtqı múshesi bolıp bir-birine kontrast túrde baylanısqan. Bunda adamnıń miynet súygishligi menen toqshılıqta, abadansılıqta jasawı, al erinshek adamnıń bolsa miynetke emes, tóbeleske meyilligi erni qan degen dizbek arqalı kórsetilgen. Bul qaraqalpaq tilindegi «*Miynet etseń – erinbey, qarnıń toyadı tilenbey*» degen naqılı menen mániles. Bul, miynet etken adamnıń nátiyjede bereketli hám ráhát turmıs keshiriw múmkin ekenligin, al erinshek adamnıń bolsa múshkil hám qıyın hallarǵa túsiwin bildirip turadı. Yaǵnıy, kimde- kim miynetkesh bolsa, ol ózine jaqsı sharayatlar jarata aladı, al kimde- kim iske erinshek, háreketsiz bolsa, ol aqıbetinde zıyanǵa ushıraydı. Bul naqıl insanlardı miynetke tárbıyalawda direktivlik sıpatqa iye dep esaplaymız.

Atası achig‘ almıla yesa og‘liniń tishi qamar [5.30] (*Atası ashshı alma jese, balasınıń tisi qamasar*). Bul mısalda *tis* tirek sóz bolıp adamnıń sırtqı, yaǵnıy bas aǵzasında jaylasqan. Bunda atananıń islegen isleri, qátelikleri yáki tańlawları perzentlerine de tásir etedi. Bul naqıl hazirgi qaraqalpaq tilindegi «*Úlken arba qaydan júrse kishi arba da sonnan júredi*» naqılına mánisi boyınsha tuwrı keledi, yaǵnıy ata-ananıń ómirdegi háreketleri hám qararları perzentleriniń kelesheğine tásir etiwı múmkin. Bul naqıl áwladlar arasındaǵı baylanıslıqta hám juwapkershilikti ańlatadı.

Erdam bashi – til [5.169] (Ádeptiń bası til) Joqardaǵı mısalda *til* tirek sózi qatnasqan. Shiyirin tilli adam joqarı mártebe tabadı, degen mánis túsiniledi. Mádeniyatımızda balalarǵa sálem beriwdi, shiyirin sózli hám álpayım bolıwǵa úyretemiz. Jaslıqtan balalarımızǵa úlkenlerge húrmet kórsetiwdi, kishkenelerdi izzet etiwge tárbıyalaymız. Bul naqıl- maqal da mádeniyatımızdıń tildegi kórinisi bolıp tabıladı. Bul naqıl hazirgi qaraqalpaq ádebiy tilindegi «*Mal shaqıman, adam tilinen*» degen naqılına mániles. Adamnıń ádebi onıń baylıǵı menen emes, tili, sózi, pikiri arqalı júzege shıǵıwın túsineimiz. Demek, insan húrmetke-de, izzetke-de tili arqalı ilaylıq boladı.

Kökka sozsa yozgü töshor [5.168] (*Aspanǵa túpirgen adamnıń túprigi betine túser*). Bul naqıl- maqalda jamanlıq, jaqsılıq, is-háreket siyaqalı mánislerinde qollanıladı. Bunda kimdirge jamanlıq qılsań, ózińe jamanlıq qaytıwı túsiniledi. Qaraqalpaq tilinde «*Atańa ne qılsań aldına sol keler*» naqılına-da mániles. Sebebi, adamnıń hár qanday is-háreketi jaqsılıǵı-da jamanlıǵı-da ózine qaytıadı.

JUWMAQ. Juwmaqlap aytqanda, M.Qashqarıydıń «Devanu luǵat it túrk» miyneti menen qaraqalpaq tilindeg naqıl-maqallar hám de somatikaliq birlikler ele de tereńirek salıstırmalı túrde úyreniw qaraqalpaq til bilimindegi áhmiyetli wazıypalardıń biri. «DLT» miynetindegi naqıl – maqallar, jumbaqlar, qosıq qatarlarındaǵı ayırım frazeologizmler, qaraqalpaq tilinde búgingi kúnde qollanılıp júrgen naqıl-maqallardıń kelip shıǵıwın, tórkiniń bir ekenligin biliwimizge járdem beredi. Maqalada naqıl-maqallardaǵı somatizmler insan ómiri, xalıq mádeniyatı menen tikkeley baylanıslı. Solay eken, naqıl-maqallar túrkiy xalıqlardıń tili hám mádeniyatınıń tamırlaslıǵın kórsetip, somatikaliq kodlardı hám bahalı maǵlıwmatlardı mıń jıllar dawamında ásirdeń-ásirlerge jetkeriwshi belgige iye.

PAYDALANǴAN ÁDEBIYATLAR:

1. Qaraqalpaq folklorı.(Qaraqalpaq xalıq naqıl- maqalları), IV tom, – Nókis.: Qaraqalpaqstan, 1978.
2. Abdinazimov Sh. Qaraqalpaq til tariyxı. (Joqarǵı oqıw ornınıń filologiya fakulteti ushin sabaqlıq). – Nókis: Qaraqalpaqstan, 2006.
3. Муталлибов С., Махмуд Қошғарий. Девону луғат-ит турк. -Тошкент. 1960.
4. Девону луғатит турк. (Индекс луғат). Ғ.Абдурахмонов ва С Муталлибовлар. Ўзбекистон ССР Фан. - Тошкент: 1967, 513 б.
5. Mahmud Koshg‘ariy: nazm/ to‘plovchi va nashrga tayyorlovchi Hamidulla Boltaboyev. – Toshkent; O‘zbekiston nashriyoti. 2022. – 472.



SOVETLAR DAVRIDA MADANIYAT UYLARI FAOLIYATI

*Madrimova Gulzira Shaxnazarovna, Urganch davlat universiteti
tayanch doktoranti*

ACTIVITIES OF CULTURE CENTERS DURING THE SOVIET PERIOD

*Madrimova Gulzira Shakhnazarovna, Doctoral student of Urganch
State University*

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ДОМОВ КУЛЬТУРЫ В СОВЕТСКИЙ ПЕРИОД

*Мадримова Гулзира Шахназаровна, докторант Ургенчского
государственного университета*



<https://orcid.org/0009-0005-9616-8899>

e-mail:
doktarantgulzira@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada sovet davrining o'rnatilishi bilan kommunistik mafkuraning singdirilishi vositasi sifatida madaniyat uylarining hamda tashkilot va muassasalar qoshida to'garaklar faoliyatining ahamiyati yoritilgan. Ularning faoliyati, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi va qo'lga kiritilgan yutuqlar, yo'l qoyilgan kamchiliklar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Sovetlar, klub, madaniyat uylari, to'garak, madaniyat, mafkura, maktab.

Abstract: This article highlights the importance of the activities of cultural houses and circles within organizations and institutions as a means of instilling communist ideology during the establishment of the Soviet era. Their activities, state support, and achievements and shortcomings are analyzed.

Keywords: Soviets, Club, houses of culture, circle, culture, ideology, school.

Аннотация: В статье подчеркивается значение деятельности домов культуры и кружков в организациях и учреждениях как средства насаждения коммунистической идеологии с установлением советской эпохи. Проанализированы их деятельность, государственная поддержка, достижения и недостатки.

Ключевые слова: Советы, клуб, дома культуры, кружок, культура, идеология, школа.

KIRISH. Xiva zamini tarixning barcha bosqichlarida madaniyat va ma'naviyat o'chog'i bo'lgan. Xonlik davri tugatilib, sovet hokimiyatining o'rnatilishi kommunistik mafkuraning targ'ib qilinishi bilan birga kechgan. Murakkab sharoitda xaqlimiz milliy madaniyatini saqlab qolgan. Bu davrda kommunistik go'yalarni keng xaq ommasiga singdirish harakati madaniyat uylari faoliyatini yo'lga qo'yish bilan ahamiyatligini aks ettirgan. Dastlabki madaniyat uylari 1920-yillar boshida ishchilar uchun "Klub"lar shaklida ochilgan. Madaniyat uylarining ochilishi 1920-yillarda boshlangan, 1930-yillarda keng miqyosda rivojlangan.

METOD. Ushbu mavzuni yoritish davomida ilmiy tadqiqotning bir nechta uslublari, jumladan, ma'lumotlarning tahlili, qiyosiy tahlil, sintez, shuningdek, qonunlar yaratilishining xronologik tahlili, xolisligi, realligi kabi prinsiplaridan foydalanildi.

MUHOKAMA. Tadqiqotlarda Xiva shahrining 1930-yillargacha tarixi o'rganilgan. Shaharning 1930-yillardan keyingi holati manbalar asosida keng qamrovli o'rganilishi lozim. O'rganilayotgan mavzu bo'yicha fond hujjatlari yetarlicha o'rganilmaganligi mavzuning yoritilishi ahamiyatini oshiradi. 1932-yil 19-oktabrda klublarni qayta tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilingan.

1938-yilda kelib, yangi kasaba uyushmalari klublari tasdiqlanishi belgilangan[2]. Ma'naviyatni rivojlantirishda madaniyat muassasalari muhim o'ringa egallagan. 1940-yillarda savodsizlikka qarshi kurash rasman tugatilganligi e'lon qilingan. Shu asosda madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar yo'lga qo'yilgan. 1948-yil Xiva shaharda 1 ta madaniyat uyi, 10 ta klub, 11 ta kutubxona faoliyat yurgizgan[3]. 1957-yildan Xiva shahridagi madaniyat uyi yangi binoda o'z faoliyatini ko'rsatgan[4].

1930-yillarda jamoalashtirish davrida qishloqlarda ham madaniyat uylari ochilgan. Ularda siyosiy targ'ibot, spektakllar, to'garaklar tashkil etilgan. Madaniyat uylari, maktablar, tashkilotlar, sanoat korxonalarida qoshida havaskorlik to'garaklarining tashkil etilishi kommunistik mafkuraning keng yoyilishiga xizmat qilgan. Jumladan, Xivada faoliyat yurgizgan havaskor komsomol drama to'garagi to'ng'ichlaridan biri bo'lib[1], 1922-yilda Hamza Hakimzoda Xivaga tashrifida a'zolari to'plab, 72 kishidan iborat Xiva teatr truppasini tuzganligi to'grisidagi ma'lumotlar qayd qilingan[1].

1934-yilda klublarning ishlari to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi sababli klublarda muddatli ishlar tashkil qilish va ularni malakali kuchlar bilan ta'minlashni tuman maorifiga topshirish to'g'risida buyruq berilgan[5].

Bundan tashqari har bir maktablar qoshida ham shunday to'garaklar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Xiva shahridagi Vorishilov nomli o'rta maktabning a'lochi o'quvchisi Anabibi Masharipova o'qishda a'lochi bo'lishi bilan birga yosh aktritsa hisoblangan. U yoshlar teatrining faol a'zosi bo'lgan[6]. Ijbobiy o'zgarishlar bilan birga kamchiliklar ham ko'zga tashlangan. Jumladan, Vorishilov o'rta maktabida tashkil qilingan havaskorlar drama to'garagi o'qish yilining birinchi choragida bir martagina konsert qo'yganidan so'ng o'z-o'zidan tarqalib ketgan[7]. Bunday to'garaklar o'rta maxsus ta'lim muassasalari faoliyatini ham qamrab olgan. To'garaklar barcha sohalar bo'yicha tashkil qilingan. Jumladan, Osoavixim, ya'ni yoshlarni harbiy bilimlarga o'rgatish ishlari yo'lga qo'ygan. 1940-Sverdlov nomli 19-son pedagogika bilim yurtida mudofaa to'garagi faoliyati tashkil qilingan hamda 120 ta merganlar yetishib chiqqan[8].

NATIJARLAR. Yuqoridagi to'garaklar viloyat markazi Xiva shahrida faoliyat yurgizgan. Shuningdek, viloyat yosh texnika va tibbiyotchilar

stansiyasi bolalardan yosh kino mexaniklar, aviomodelchilar, elektrotexniklar, temirchi duradgor va yetakchi ustalar tayyorlagan. 1946-yilda jami to'garak a'zolari 103 tani tashkil qilganligi to'garak ishi to'g'ri tashkil etilganini ko'rsatadi[9].

Xiva shahrida bolalarning texnik stansiyasining Sharq naqshlari va ganch o'ymakorligining o'ragnish to'garagiga Ro'zmat Masharipov boshchilik qilgan[10]. To'garak faoliyatining to'g'ri yo'lga qo'yilganligi o'z natijalarini ko'rsatgan. Jumladan, ushbu stansiyaning hunar o'rganuvchi bolalari 1950-yilda respublika olimpiadasiga qizg'in tayyorgarlik ko'rishgan, naqsh o'ymakorligi, ganch sohasi bo'yicha shishaga rasm ishlab Sharq naqqoshlik namunalari bilan bezagan hamda o'zlarining yuksak mahoratlarini namoyon qilishgan. Bundan tashqari, avtomodel to'garagi qatnashchilari oddiy panellardan tashqari brizent va rezina motorli modellar taqdim qilishga erishganlar[11]. Aynan shu to'garak a'zolari 1950-yildagi XVIII aviomodelchilar musobaqasiga qatnashib katta yutuqlarni qo'lga kiritishgan. Aviomodelchilardan B.Madaminov o'zi yasagan motorli samolyotini musoboqada uchirib, 1 soat 32 daqiqa parvoz qildirib respublika rekordini yangilagan[12]. Bu kabi yutuqlar yoshlarni yangi g'oyalarni yaratishlarida katta kuch vazifasini bajaragan.

To'garaklar faoliyati zavodlar qoshida tashkil qilinishida olgan nazariy bilimlarini amalda qo'llashga xizmat qilib, yuqori saviyali ishchi qatlamini shakllanishga xizmat qilgan. Masalan, Xivadagi yog' zavodida texnikani o'rganish to'garagi asoschisi Anatoliy Nikolayevich Fokin bo'lib, yoshlarga texnika sirlarini o'z ma'ruzalari orqali yetkazgan[13]. Shu bilan birga ma'ruzalar zavod ishini o'rganish orqali amaliy mustahkamlangan.

1951-yilda Xiva shahar madaniy-oqartuv bo'limi qoshida sa'natchi va adabiyotchilar to'garagi tashkil qilingan bo'lib, uning 50 dan ziyod a'zosi bo'lgan[14].

1964-yilda faoliyat yurgizgan yosh tabiatshunoslar stansiyasining ishlarini yanada yahshilash to'g'risida masala ko'rilgan. To'garak faoliyatini takomillashtirib, yangidan 5 ta to'garak tashkil qilingan, jami 120 ta o'quvchi jalb qilingan[15]. To'garaklar faoliyatida bunday o'zgarishlar izchil yo'lga qo'yilgan.

XULOSA. Yuqoridagi masalalar Sovetlar davrida barcha qatlamlarga kommunistik mafkuraning

targ'ib etilishi madaniyat uylari hamda to'garaklar faoliyatining yo'lga qo'yilganligini ko'rsatadi. Madaniyat uylari kommunistik mafkurani amaliy tadbirlar bilan singdirsa, to'garaklar yosh kommunist kadrlarni tayyorlashga xizmat qilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Т.Қиличев. Хоразм халқ театри. XIX асрнинг охири – XX аср бошлари тарихий-этнографик очерк. 173 бет.
2. БСЭ1/Клубы. <https://ru.wikisource.org/wiki/%D0%91%D0%A1%D0%AD1/%D0%9A%D0%BB%D1%83%D0%B1%D1%8B> ст.151-152.
3. Протоколы сессии горисполкома за 1948 г. Фонд 237. Опис 1. Хр. 30. Протокол №5. Ўзбекистон СССР Министрлар Советининг 1948 йил 11 август “Хоразм область Ижроия Комитетининг иши тўғрисида” ги қарорнинг бажарилиши. 21-бет.
4. [Дома культуры и клубы Хивинского района. https://www.culture.ru/institutes/48493/raionnyi-kulturno-dosugovyi-centr-s-khiv.](https://www.culture.ru/institutes/48493/raionnyi-kulturno-dosugovyi-centr-s-khiv)
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси архивининг Хоразм вилояти бўлими. Фонд 6. Опись 1. Хр 314. 1935 йил. 173 бет.
6. Inqilob Quyoshi. 1938-yil 20-dekabr. 4-bet.
7. I.Abdullayev. То'garak tarqaldi.//Inqilob quyoshi.1939-yil 27-fevral. 4-bet.
8. Osoaviaxim ishlarini tubdan yaxshilaylik.//Xorazm Haqiqati. 1940-yil 17-iyun. 4-bet.
9. O.Бобожонов, Р.Каримжонов. Ёш усталар // Хоразм ҳақиқати.1946 йил 2 июль. 2-бет.
10. С.Ибрагимов, О.Матжанов, У.Қурбонов. Хивада маданият уйи очилиши // Хоразм ҳақиқати. 1949 йил 22 октябрь. 4-бет.
11. Қ.Умар. Болалар олимпиадасига таёргарлик // Хоразм ҳақиқати. 1950 йил 27 май. 4-бет.
12. Авиамоделчиларнинг муваффақиятлари // Хоразм ҳақиқати. 1957 йил 20 сентябрь. 4-бет. №186 (8105).
13. К.Циканов. Хурматга сазовор инженер // Хоразм ҳақиқати. 1950 йил 22 ноябрь. 2-бет.
14. Ю.Рўзметов. Ёш адабиётчилар тўғараги // Хоразм ҳақиқати. 1952 йил 24 февраль. 4-бет.
15. Фонд 237. Опис 1. Хр. 77. Протокол- 2. 18 январь 1964 й. 11-бет.



UCHINCHI RENESSANS VORISLARINI TARBIYALASHDA ALLOMALAR MEROSINING O'RNI

Nurulloev Nodir Botirovich, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti "Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat" kafedrasida katta o'qituvchisi

THE ROLE OF THE HERITAGE OF SCIENTISTS IN THE EDUCATION OF THE HEIRS OF THE THIRD RENAISSANCE

Nurulloev Nodir Botirovich, Senior Lecturer, Department of "Social Sciences and Physical Culture", Tashkent Institute of Textiles and Light Industry

РОЛЬ НАСЛЕДИЯ УЧЕНЫХ В ВОСПИТАНИИ НАСЛЕДНИКОВ ТРЕТЬЕГО ВОЗРОЖДЕНИЯ

Нуруллоев Нодир Ботирович, старший преподаватель кафедры "Общественные науки и физическая культура" Ташкентского института текстильной и легкой промышленности



<https://orcid.org/0009-0001-5107-8014>

e-mail:

nodir.nurulloev@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada Uchinchi Renessans vorislarini tarbiyalashda allomalar merosining o'rni ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Bugungi kunda Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud az-Zamaxshariy, Mahmud Qoshg'ariy kabi olimlar merosini o'rganish milliy qadriyat sifatida dolzarb vazifa hisoblanmoqda.

Kalit so'zlar: Uchinchi Renessans, yoshlar, tarbiya, ma'naviy meros, madaniyat, matematika, astronomiya, geometriya, musiqa, Uyg'onish davri.

Аннотация: В статье научно обоснована роль наследия ученых в воспитании наследников Третьего Возрождения. Сегодня изучение наследия таких ученых, как Абу Наср Аль-Фараби, Абу Райхан Аль-Бируни, Абу Али Ибн Сина, Махмуд Аз-Замакшари, Махмуд Кашгари считается актуальной задачей как национальная ценность.

Ключевые слова: Третье Возрождение, молодежь, образование, духовное наследие, культура, математика, астрономия, геометрия, музыка, Возрождение.

Abstract: The article scientifically substantiates the role of the heritage of scientists in the education of the heirs of the Third Renaissance. Today, the study of the heritage of such scientists as Abu Nasr Al-Farabi, Abu Rayhan Al-Biruni, Abu Ali Ibn Sina, Mahmud Az-Zamakhshari, Mahmud Kashgari is considered an urgent task as a national value.

Keywords: Third Renaissance, youth, education, spiritual heritage, culture, mathematics, astronomy, geometry, music, Renaissance.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oni, Abu-l-Abbos al-Javhariy, Yahyo ibn Mansur kabi olimlar shular jumlasidan, Markaziy Osiyoning buyuk allomalari nomi dunyo madaniyati sahifasida oltin satrlar bilan yozib qoldirildi. Bu davrda, arab, fors, turkiy tillarda ijod etildi, tafakkur mevalari yozuvlarga muhrlanib,

Sharqning turli burchaklarigacha etib bordi. Uyg'onish davri avval Sharqda boshlanib, so'ngra Yevropaga ko'chgan. Tarixda dono shohlar, hokimlar o'z saroyiga ilm-u fozillarni, ziyolilarni to'plaganlar, ularga sharoit yaratib, kuch-g'ayratlarini mamlakat rivojlanishiga yo'naltirganlar. Jumladan, Ma'muniylar va Anushteginiy-Xorazmshohlar davlatining vakillari

Birinchi Renessansni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etganlar. Ushbu davr allomalarning ilmiy merosini o'rganish va uning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini yoritish dolzarb muammolardan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / MATERIALS AND METHODS). O'rta asrlar ma'naviy merosidan Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino asarlarida maxsus tilga olingan bo'lib, ularning ayrim qoidalaridan qurilish arxitekturasida ham keng foydalanganligini ko'ramiz. Masalan, X asrda Abu-l-Vafo al-Bo'zjoniy o'zining «Geometriyaviy qoidalarning hunarmandlarga kerakli tomonlari haqida kitob» asarida bino bezaklari yasash, quruvchi ustalarning tajribalari, turli geometriya usullari yordamida har xil naqshlar, badiiy usullari haqida hikoya qiladi[1]. Ayrim manbalarda o'sha davrdagi tasviriy va musavvirlik san'ati, xususan, odam suratini chizish haqida ma'lumotlar keltirildi. IX-X asrlarda fors tilida yozilgan Nizomiy Aruzii Samarqandiy qalamiga mansub manbada Xorazmshoh saroyidagi bir voqea tasvirlanadi: «Abu Nasr ibn Iroq musavvir edi. Xorazm shohi Mahmud unga Abu Alining suratini chizishni topshirdi, undan 40 dona surat ko'chirish uchun rassomlarni chaqirtirdi. Uning buyrug'iga ko'ra bu suratlarni barcha o'lkalarga jo'natildi. Ularning hokimlariga topshiriq berildi. Unga ko'ra suratdagi odamning nomi Abu Ali ibn Sinodir. Uni topib bizga yuborilsin»[2]. Bu parchadan ma'lum bo'ladiki, u davrda musavvirlik san'ati rivojlangan va podshohlar o'z saroylarida musavvirlar uchun sharoit yaratib berganlar. Mashhur mutafakkir Ibn Sinoning «Kitob ash-shifo» (كتاب الشفا), «Donishnoma» (دانشنامه), «Usul 'ilm al-handasa» (اصول علم الهندسة) risolalarida musiqaga oid mustaqil bo'limlar ham berilgan. Ulardan tashqari, maxsus «Risolai fi-l-musiq» asarini ham yozgan. Musiqaga oid atamalar, ma'lumotlar boshqa asarlarda ham keltirilgan. Hozirda xalqimiz orasida mashhur bo'lgan «Shashmaqom» kuylarining ayrim boshlang'ich asoslari o'sha davrlarda vujudga kelgan. Birinchi Renessans davri allomalarning merosi tadqiqotchi G.Masharipovning ilmiy tadqiqotlaridan foydalanish mumkin [5,6,7].

МУНОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). O'rta asrlar ma'naviy

merosidan Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino asarlarida maxsus tilga olingan bo'lib, ularning ayrim qoidalaridan qurilish arxitekturasida ham keng foydalanganligini ko'ramiz. Masalan, X asrda Abu-l-Vafo al-Bo'zjoniy o'zining «Geometriyaviy qoidalarning hunarmandlarga kerakli tomonlari haqida kitob» asarida bino bezaklari yasash, quruvchi ustalarning tajribalari, turli geometriya usullari yordamida har xil naqshlar, badiiy usullari haqida hikoya qiladi [3].

Abdulla Avloniy xulqning jamiyat hayotidagi o'rniga baho berar ekanlar: «Xulq har narsadan murakkabdir. Biri jasad, ikkinchisi nafsdirki, jasad nafsi ila bor narsalarni ko'zur. Ammo nafs idrok ila yaxshini yomondin, oqni qoradan ayirur. Jasadning ham, nafsning ham biror surati bordurki, yo yaxshi, yo yomon bo'latur. Jasadning surati hammaga ma'lum bir narsadirki, har vaqt ko'zga ko'rinib turadi, ammo nafsning surati ko'zga ko'rinmaydigan, aql ila o'lchanadig'on bir narsadirki, buni xulq deb atalur. Agar bir kishi yoshligida nafsi buzilib tarbiyasiz, axloqsiz bo'lib o'sdimi, bunday kishilardan yaxshilik kutmak befoydadir»[8].

Gurganch va Marv madrasalarida iste'dodli mudarrislar qo'lida ta'lim olgan Otsiz bilimdon va farosatli kishi bo'lgan. Gurganchni o'ziga poytaxt qilib olgan Otsiz Xorazmning qadimgi shon-shuhratini qaytadan tiklashga astoydil kirishdi. Tarqalib ketgan «Ma'mun akademiyasi»ni yangidan tashkil qildi. Davrning mashhur olimlari Gurganch shahriga kela boshlaydilar. Ular orasida Mahmud az-Zamaxshariy, Ismoil Jurjoniy, Abdukarim Sam'oniy Marvaziy, Yusuf Sakkokiy, Mavlono Faxriddin ar-Roziy, Rashididdin Vatvot, Adib Sobir Termiziy va boshqa taniqli siymolar bor edi. Xorazmshoh Otsiz davrida vorisiylik tamoyiliga amal qilingan, chunki Otsiz tarqalib ketgan Xorazm Ma'mun akademiyasi allomalari merosini davom ettirib, o'zi tashkil qilgan ilm maskanida fanning turli sohalarini rivojlantirdi.

NATIJARLAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Xorazmshohlar davlatida sulton Takash va Alouddin Muhammad davrlarida madaniy hayot ravnaq topgan. Ayniqsa, qasidago'y va dostonchi shoirlar ijodi gullab-yashnagan. Ulardan biri shoir va olim Rashididdin Muhammad al-Umariy (1115-1182) edi. Rashididdin Vatvot o'zining she'riyat nafosati haqidagi «Xadoyiq us-

sehr fi daqoyiqi ash-she'r» («She'r san'atining sehrli bog'lari») kitobini Xorazmshoh Otsizga bag'ishladi.

Vatvotning «Raso'il» («Nomalar») to'plami juda qimmatli bo'lib, ikki qismdan iborat: 1.Xalifalar, hukmdorlar (podshohlar), sultonlar, vazirlar, amirlar, valiyalar, qozilar va muftiyalarga bitilgan nomalar. 2.Ulamolar, shayxlar, mashhur kishilar, shoirlar, do'stlar va boshqalarga yozilgan maktublar. Bu esa davrning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotini o'rganishda g'oyat muhim ahamiyatga ega.

Xorazmshohlar davlatida fan, madaniyat, ijtimoiy va siyosiy hayotda yorqin iz qoldirgan buyuk allomalar yashagani manbalardan ma'lum. Shulardan biri al-Hakim Ali ibn Muhammad al-Hijoziy al-Qo'iniy bo'lib, u atoqli shifokor, tibbiy va barcha ilmlarning bilimdonidir. Uning tib ilmi va amaliga oid nomalari («Raso'il») bor. U «Kitob fil-hikmat» asarini adolatli jahongir Xorazmshoh Otsiz ibn Muhammad sharafiga bitgan[4].

Faylasuf olim Bahovuddin Abu Muhammad Abduljabbor ibn Muhammad Sobit ibn Xorogiy – Marv donishmandlaridan biri, falakiyot va mantiqqa doir asarlar muallifi. Xorazmshoh Otsiz Bahovuddin Xorogiyini qadrlab, Xorazmga chaqirib oladi. Bu olimning tarixga oid kitoblari ham bor. Jorulloh Abul Qosim Mahmud ibn Umar ibn Muhammad az-Zamaxshariy (1075-1144) – naxv, ya'ni grammatika, lug'at ilmlarida arab-u ajam olimlariga ustoz bo'lgani uchun an-Nahviy vaal-Lug'aviy laqablarini ham olgan. Ritorika, stilistika, falakiyot va boshqa fanlarga oid juda ko'p risolalar muallifi[5].

Shahobiddin Nasaviy yozishicha, Sirojiddin Ya'kub Sakkokiy falakiyotni chuqur bilgan. Ilm-fanning barcha sohalarida asarlar yozgan. Sulton Alouddin Muhammad va uning onasi Turkon xotun Sakkokiyga yuksak hurmat ko'rsatganlar. Abdul-Karim ibn Muhammad ibn Mansur Abu Sa'id ibn Abul-Muzaffar al-Marvaziy as-Sam'oni (vaf.1167) – Marvning mashhur ulamolalaridan, adib va tarixchi. Ko'p mamlakatlarni kevgan. «Kitobul-ansab» («Nasablar tarixi») va «Xayli tarixi Bag'dod» risolalari muallifidir [6]. Ushbu davrga xos asosiy manbalarni G.Masharipova[7] asarlari muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). X-XII asrlarda fanning turli sohalarida bo'yicha olimlar ijod etdilar. Ushbu davrlar Xorazmda, asosan, filologiya (ilmi adab, ilmi naxv), falsafa, ilohiyot, fiqh, tabiiy fanlar, ilmi zirot, tibbiyot, riyoziyot va falakiyot, me'morchilik, suv inshootlari (to'g'onlar, chig'irlar, koriz-qanotlar), kemasozlik, temirchilik, boshqa hunarmandchilik turlarining (duradgorlik, misgarlik, kulolchilik, ko'nychilik va h.k.) nazariy asoslari va amaliyoti haqida ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordilar. Shuningdek, Xorazmshohlar saroyida jahonning turli o'lkalaridan kelgan millat vakillari – turklar, eroniylar, hind-u xitoylar va slavyanlar ijod etganlar. Madaniyatlarning o'zaro ta'siri Xorazmda ilm-fan gurgirab rivojlanishi uchun zamin yaratdi. Ushbu davr allomalari merosidagi asosiy g'oyalar Uchinchi Renessans yoshlarini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Культура Среднего Востока. Градостроительство и архитектура. - Ташкент: Фан, 1989. – 101 с.
2. Самарканди Низами Арузи. Собрание редкостей или четыре беседы. - Москва, 1963. – 114 с.
3. Masharipova G.K. Xorazm Ma'mun akademiyasi allomalari tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy va ma'naviy merosining ijtimoiy tafakkur taraqqiyotiga ta'siri. Monografiya. – Toshkent: Navro'z, 2019. – 364 b.
4. Masharipova G.K. Abu Ali ibn Sino ilmiy-falsafiy va ma'naviy merosining jamiyat hayotidagi o'rni. Monografiya. – Toshkent, Navro'z nashriyoti, 2020. – 144 b.
5. Masharipova G.K. O'rta asrning buyuk kashfiyotlari – xorazmlik matematiklarning ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan hissalar. Monografiya. - Toshkent: Navro'z nashriyoti, 2021. – 210 b.
6. Abu Rayhon Beruniyning ilmiy merosi va falsafiy qarashlari. Monografiya. - Toshkent, Fan ziyosi nashriyoti, 2022. - 150 b.
7. Masharipova G.K. Anushtegin-xorazmshohlar davrida Ilm-fan va madaniy hayot. - Tashkent: Fan ziyosi, 2024. – 146 b.
8. Авлоний А. Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ.- Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 11 б.

ARTUR SHOPENGAUER: G'OYA HAQIDAGI TA'LIMOT VA NATURFALSAFA

*Sadullayev Sardor Saydiganiyevich, O'zMU mustaqil
izlanuvchisi*

ARTHUR SCHOPENHAUER: THE DOCTRINE OF IDEAS AND PHILOSOPHY OF NATURE

*Sadullayev Sardor Saidiganievich, independent researcher at
the National University of Uzbekistan*

АРТУР ШОПЕНГАУЭР; УЧЕНИЕ ИДЕИ И НАТУРФИЛОСОФИЯ

*Садуллаев Сардор Сайдиғаниевич, независимый
исследователь Национального университета Узбекистана*

Annotatsiya: Shopengauerning g'oyalar ta'limoti va naturfalsafasi uning metafizik tizimining muhim qismini tashkil qiladi. Unda tabiat makon-zamon shakllari orqali namoyon bo'ladigan ibtidoiy kuchlar sifatida tasavvur qilinadi. G'oyalar esa makon va zamondan tashqaridagi "abadiy nigoh" sifatida tabiatning asosiy kuchlarini ifoda etadi. Shopengauerga ko'ra, dunyo "olamiy iroda"ning tajallisi bo'lib, unda mavjudlik kurashi va iztirob ontologik asosga ega. Inson esa o'z intellektual qobiliyati orqali bu irodani inkor qilish va erkinlikka erishish imkoniga ega. Ushbu ta'limot estetika, ontologiya va tabiat falsafasining murakkab uyg'unligini ko'rsatadi.

Kalit tushunchalar: g'oyalar, olamiy iroda, makon va zamon, tabiat, hayotiy kuch, iztirob, mavjudlik uchun kurash, intellekt, dunyoning abadiy nigohi, erkinlik.

Annotation: Schopenhauer's doctrine of ideas and philosophy of nature constitutes an important part of his metaphysical system. In this system, nature is conceived as primordial forces manifesting through the forms of space and time. Ideas, in turn, represent the fundamental forces of nature as the "eternal gaze" that exists beyond space and time. According to Schopenhauer, the world is a manifestation of the "world will", in which the struggle for existence and suffering have an ontological foundation. The human being, endowed with intellectual capacity, is able to negate this will and attain freedom. This doctrine illustrates the complex unity of aesthetics, ontology, and the philosophy of nature.

Keywords: ideas, world will, space and time, nature, vital force, suffering, struggle for existence, intellect, eternal gaze of the world, freedom.

Аннотация: Учение Шопенгауэра о идеях и натурфилософии составляет важную часть его метафизической системы. В ней природа представляется как первичные силы, проявляющиеся через формы пространства и времени. Идеи же выражают основные силы природы как «вечный взор», находящийся вне пространства и времени. Согласно Шопенгауэру, мир – это проявление «мировой воли», в котором борьба за существование и страдание имеют онтологическую основу. Человек, обладая интеллектуальной способностью, способен отвергнуть эту волю и достичь свободы. Данное учение демонстрирует сложное единство эстетики, онтологии и философии природы.

Ключевые понятия: идеи, мировая воля, пространство и время, природа, жизненная сила, страдание, борьба за существование, интеллект, вечный взор мира, свобода.



<https://orcid.org/0009-0009-7680-7576>

e-mail:

manaviy@rambler.ru

KIRISH. Artur Shopengauerning falsafasi dunyoni tushunish va inson mavjudligining mohiyatini anglashda o'ziga xos yondashuvni taklif etadi. Uning g'oyalar ta'limoti va naturfalsafasi metafizikasining asosiy ustunlaridan biri bo'lib, tabiat, makon, zamon va iroda konsepsiyalarini chuqur tahlil qiladi. Shopengauer dunyoni "olamiy iroda"ning namoyoni sifatida ko'radi, bu iroda g'oyalar orqali makon va zamonda ko'payib, turli shakllarda zohir bo'ladi. Ushbu ta'limotda tabiatning kuchlari, insonning iztirobi va erkinlikka intilish kabi mavzular muhim o'rin tutadi. Ushbu matnda Shopengauerning g'oyalar haqidagi ta'limoti va uning naturfalsafadagi o'rni mufassal yoritilgan bo'lib, u falsafa va ontologiyaga qiziquvchilar uchun muhim manbadir.

TADQIQOT METOLOGIYASI.

Maqolada tarixiy-tahliliy, komparativistik, mantiqiy-tahliliy, falsafiy-ontologik, gnoseologik, aksiologik (qadriyatli) tahlil, axloqiy-etik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Brayan Magi[1] Artur Shopengauerning falsafasining to'liq va tizimli tahlilini taqdim etadi. Shopengauerning iroda, tasavvur, estetika va naturfalsafaga oid ta'limotlarini batafsil ko'rib chiqadi. Magi Shopengauerning Immanuel Kant va Platon bilan falsafiy bog'liqligini, shuningdek, uning XIX asr romantizmi va zamonaviy falsafa, san'atga (ayniqsa, musiqa va adabiyotga) ta'sirini muhokama qiladi. Rudiger Safranski[2] Artur Shopengauerning falsafasi va uning hayotini tarixiy va biografik kontekstda ko'rib chiqadi. Shopengauerning falsafiy ta'limotlari, xususan, iroda, tasavvur va naturfalsafaga oid g'oyalarini uning davri (nemis romantizmi, Kant va Hegel falsafasi) bilan bog'lab talqin qiladi. Safranski Shopengauerning g'oyalar va naturfalsafaga oid ta'limotlarini uning shaxsiy tajribalari va falsafiy muhiti nuqtayi nazaridan yoritadi. Kristofer Janavey [3] Artur Shopengauer falsafasining qisqacha, ammo mukammal tahlilini taqdim etadi. Iroda, tasavvur, estetika va naturfalsafaga oid asosiy g'oyalarni sodda va tushunarli tilda bayon qiladi. Janavey Shopengauerning g'oyalarining san'at bilan bog'liqligi va tabiatni iroda prizmasi orqali talqin qilishini alohida ta'kidlaydi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR. G'oyalar haqidagi ta'limot Artur Shopengauer metafizikasining asosiy qismlaridan birini tashkil

qiladi. G'oyalar unda estetika va tabiat falsafasida keng qo'llaniladi. Tabiat makon-zamoniylar obyektining qonun yaratuvchi mavjudligidir. Lekin bu obyektlar turli asoslidir. Ular o'zining har xilligi bilan hayratga soladi. Ularning manbalari haqida o'ylab Shopengauer shunday xulosaga keladi, makon va zamon ularni "ko'paytiruvchi" asos rolini o'ynaydi. Aslida, bir sifatli narsalar makon va zamonning turli shakllarida qayta-qayta namoyon bo'ladi.

Lekin tabiatda sifatli o'zgarishlar ham mavjud. Ularning tashkiliy qismlarini turli tirik organizmlar va noorganik moddalar tashkil qiladi. Noorganik moddalar shaxsiylik xususiyatlaridan mosuvodir, lekin ular tabiiy kuchlarning asosi namoyon bo'ladi. Shunday qilib, Shopengauerning fikriga ko'ra, makon va zamon hissiyotning aprior shakllarining natijasi sifatida tabiatni ibtidoiy kuchi ta'sirida bosqichma-bosqich paydo bo'ladi. Ularning asosida tortilish va itarilish aloqalari yotadi. Kimyoviy potensiyalar "hayotiy kuchning" fundamental rolini o'ynaydi. Hayotiy kuch esa – o'z-o'zicha mavhumlikdir. Ularning muayyan xususiyati voqelik kasb etadi, ya'ni ularga hayvonot olamidagi biologik turlar hamda insoniy individlar ham kiradi. Bu fikrlarni asoslash uchun Shopengauer tabiiy kuchlarning ontologik negizini topish talab qilinardi. Xuddi shunda unga g'oyalar ta'limoti asqotadi.

Tabiatning har bir asosiy kuchiga muayyan "aflotuncha g'oya" namunasiga mos keladi, ular qandaydir subyekt tasavvurida makon va zamondan tashqarida mavjud. Shopengauer bu tasavvurni "dunyoning abadiy nigohi", deb ataydi. Albatta, "dunyoning abadiy nigohi" cheklangan subyekt bilan aynan mos kelmaydi. Subyekt dunyoni makon va zamon orqali tasavvur qiladi. Subyekt bilan g'oyalar o'rtasida qandaydir umumiylik bor: ular mushohada qilinuvchi predmet bo'ladimi, g'oya yoki makon-zamon hodisasi bo'ladimi, o'z-o'zidan mavjud bo'la olmaydi, subyektga bog'liq bo'ladi. Ular mustaqil mohiyat sifatida haqiqiy substansiya bo'la olmaydi. Shopengauerning fikriga ko'ra, bor mavjud dunyo sarobdan iborat, uzundan-uzoq tushga o'xshaydi. Dunyoning abadiy nigohi, deb yozadi Shopengauer, "yagona mavjudlik, g'aroyib tushda namoyon bo'ladi, bu tushni hamma ishtirokchilar birdek ko'radi"[4.165].

“Olamiy ruh” tushida Irodaning bevosita tajallisi orqali g‘oyalar dunyosida tartib va uyg‘unlik hukm suradi. O‘tkinchi subyektlarning tushi voqeiy mavjudlik deb ataladi, u dahshatlidir. Hayot Shopengauerning ta’kidiga ko‘ra, azoblarning o‘rin almashinishidan iborat. Darhaqiqat, ko‘proq intellektga ega bo‘lganlar azob chekadilar. Lekin iztirob butun mavjudotni qamrab oladi, bu uning ontologik sababidir. Mazkur sabab makon va zamonning “yakkalashish tamoyiliga” asoslanadi. Makon individlarning cheksiz ko‘payishiga sharoit yaratib beradi. Har bir individ u yoki bu abadiy g‘oyaga mos keladi. Lekin g‘oyalar ko‘p, bunday sharoitda materiyaning yetishmasligi masalasi ko‘ndalang bo‘ladi, ular o‘rtasida kurash sodir bo‘ladi. Mavjudlik uchun kurash sodda shakllarni yuksakroq shakllar orqali siqib chiqarish sifatida davom etadi. Qator tabiiy inqiloblar sodir bo‘ladi. Dastlab bunda hayotning namoyonini kuzatish mumkin, so‘ngra yuqori darajadagi olamiy Irodaning tajallisi amalga oshadi (uning yo‘nalishiga ko‘ra Hayot irodasi deb atash mumkin) va yuksak darajada inson paydo bo‘ladi.

Inson qudrati – uning intellektidir. Intellekt umuman irodaviy intilishlar xizmatida bo‘ladi. U qanchalik qudratli bo‘lsa, unga ega bo‘lgan mavjudot, tiriklik uchun shuncha qattiq kurashadi. Boshqa tomondan intellektning rivojlanganligi subyektning azobli, halokatli hissiyotiga teng darajada qarama-qarshidir. Demak, hamma mavjudotlar ichidagi eng hayotga chanqog‘i bu – insondir. U o‘z mavjudligining zahmatini to‘laqonli anglaydi.

Shopengauer buni paradoks deb hisoblamaydi, balki irratsional Irodaga cho‘mgan olamning qonuniyatli oqibatidir. Bunday iroda iztirobni tug‘dira olmaydi, uning mohiyati yuqori darajadagi ijod mahsuli bo‘lgan insonda namoyon bo‘ladi. Shopengauer insonni aqlli mavjudot sifatida o‘z iztiroblarini kamaytira olish qobiliyatiga egaligini tushunadi. Bu maqsadga yetishning bir yo‘li davlatning kelib chiqishi, moddiy va huquqiy madaniyatning rivojidir. Shopengauer ishlab chiqarish va boshqa madaniy omillarning rivoji xulqning yumshashiga va zo‘ravonlikning kamayishiga olib kelishiga ishonadi.

Lekin inson tabiati umumiy baxtga erishishga to‘sqinlik qiladi. Zero, baxt yoki lazzatni

tanlashga to‘g‘ri keladi. Ular Shopengauerning fikriga ko‘ra, salbiy tushunchalardir. Lazzat iztiroblarning tugashidir, ya‘ni inson faqat qandaydir yukdan qutulgan paytidagina baxtni his qiladi. Agar hayotda hech qanday og‘irchilik qolmasa, unda zerikish boshlanadi. Bu esa eng og‘ir tuyg‘udir. Boshqa so‘z bilan aytganda, insonlarni baxtli qilishga intilish doimo mag‘lubiyat bilan tugaydi, chunki u haqiqiy vazifani qorong‘ulashtiradi.

Lekin ana shu haqiqiy vazifa nimadan iborat? Shopengauerning fikriga ko‘ra, Irodani inkoridan iborat. Mavjudotlar ichida faqat inson olamiy Irodaning qo‘lida qo‘g‘irchoqqa aylanmaydi, balki uni o‘ziga qarama-qarshi yo‘naltirishi mumkin. Insonning Irodaga qarshi isyoni tasodif emas. Zotan, Irodaning namoyon bo‘lishi qonuniyatlidir. Lekin Iroda erkin, u o‘zini ham inkor qilishi mumkin. O‘zidan chiqishi uchun u qorong‘u tomonini ko‘rishi kerak. Inson olamiy Irodaning ko‘zgusi rolini o‘ynaydi, va aynan inson orqali Irodaning qisman o‘zini inkor qilishi sodir bo‘ladi. Erkin irodaning yuqori darajadagi obyektivatsiyasi sifatida u (inson) zaruriyat zanjirini uzishga qodir, dunyoda erkinlikni namoyon qiladi. Erkinlik esa deyarlik kam holda uchraydi. Irodadan voz kechish turli shaklda namoyon bo‘ladi. Ulardan biri estetik qabul qilishdir. Ana shu holatdagi inson, vaqtinchalik o‘z intellektini irodaga xizmat qilishidan ozod qiladi, o‘zining individuallashgan makon-zamon chegarasidan chiqib ketadi, narsalarning mohiyatliy shaklini, g‘oyalarini ko‘radi.

XULOSA. Artur Shopengauerning g‘oya va naturfalsafaga oid ta’limoti uning iroda va tasavvur konsepsiyalariga asoslanadi. U dunyoni metafizik kuch – iroda va uning fenomenal ko‘rinishi – tasavvur sifatida talqin qiladi. G‘oyalar esa san‘at va estetikada muhim o‘rin tutadi, tabiat esa irodaning turli shakllari sifatida ko‘rinadi. Uning “Dunyo iroda va tasavvur sifatida” va “Tabiatda iroda to‘g‘risida” asarlari ushbu mavzuni o‘rganish uchun asosiy manbalardir. Ikkinchi darajadagi adabiyotlar esa Shopengauerning ta’limotini zamonaviy kontekstda tushunishga yordam beradi. Ushbu ta’limotlar falsafa, san‘at va ilmning uzviy bog‘lanishini ko‘rsatib, muhim falsafiy an’anaga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Magee, B. (1983). *The Philosophy of Schopenhauer*. Oxford: Oxford University Press.
2. Safranski, R. (1987). *Schopenhauer and the Wild Years of Philosophy* (E. Osers, Trans.). Cambridge, MA: Harvard University Press.
3. Janaway, C. (2002). *Schopenhauer: A Very Short Introduction*. Oxford: Oxford University Press.
4. Шопенгауэр А. Сочинения: В 6 т. – Т. 4. – М.: Инфра, 1999-2001.
5. Copleston F.A. *History of Philosophy // Vol. 7. Modern Philosophy From the Post-Kantian Idealists to Marx, Kierkegaard, and Nietzsche*. - New York-London-Toronto-Sydney Auckland, 2004.
6. Шопенгауэр А. Сочинения: В 6 т. –Т. 1. – М.: Инфра, 1999-2001.
7. Шопенгауэр А. Сочинения: В 6 т. –Т. 5. – М.: Инфра, 1999-2001.
8. Шопенгауэр А. Мир как воля и представление. – М.: Эксмо, 2006.
9. Кант И. Критика чистого разума. – Тошкент: Фан, 2004. – 512 б.
10. Руссо Ж.Ж. Инсон табиати ва тенглик ҳақида. – Тошкент: Университет, 2003.
11. Ницше Ф. Воля к власти. – М.: АСТ, 2010.
12. Соловьёв В.С. Основы философии морали. – Санкт-Петербург: Лань, 2002.
13. Буддизм асослари ва фалсафаси / Таҳрир: Рахимов Х. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015.
14. Фалсафа тарихи / Таҳрир: Комилов Н. – Тошкент: Фан, 2010. – 624 б.
15. Этика ва ахлоқ назарияси асослари / Таҳрир: Сафаров Б. – Тошкент: Иқтисод-Молия, 2012.
16. Ruzmatova, G. (2019). Eastern melodies in the text of Plato // *International Journal of Recent Technology and Engineering*. Vol. 8, Issue-2S6, July, – P. 444-448. IJRTE. ISSN: 2277-3878.
17. Ruzmatova, G. (2020). Comparativist analysis of Representations about Will in View of Friedrich Nietzsche and Jalaliddin Rumi // *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, Vol. 24, Issue 04, 2020. ISSN: 1475-7192. –P. 3215-3227.
18. Рuzmatova, Г. (2014). Рухият таҳлили фалсафаси. –Тошкент: Нишон-ношир, 2014.
19. Ruzmatova, G.M. (2023). Konfutsiychilik axloqiy negizlarida olamiy tartibot // *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal*. – 2023. 11-12-sonlar. – B. 916-923. / Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>.
20. Ruzmatova, G.M. (2024). Comparative studies of the Oriental and Western antropology // *ISJ Theoretical & Applied Science*, 12 (128), 191-195. Philadelphia, USA / Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-12-128-13>.



AZIZIDDIN NASAFIYNING HAYOTI VA ILMIY MEROSI

Narziyev Zubaydillo Ibodilloevich, Buxoro davlat pedagogika instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrası dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

LIFE AND SCIENTIFIC HERITAGE OF AZIZIDDIN NASAFI

Narziyev Zubaydillo Ibodilloevich, Associate Professor of the Department of "Social Sciences" of the Bukhara State Pedagogical Institute, Doctor of Philosophy in Philosophy (PhD)

ЖИЗНЬ И НАУЧНОЕ НАСЛЕДИЕ АЗИЗИДИНА НАСАФИ

Нарзиев Зубайдилло Ибодиллоевич, доцент кафедры «Общественные науки» Бухарского государственного педагогического института, доктор философии по философским наукам (PhD)

Annotatsiya: XIII asrda yashab ijod etgan, tasavvuf ta'limoti va falsafasi rivojiga beqiyos hissa qo'lgan buyuk vatandoшимиз Aziziddin Nasafiyning ha'iti va ijodi, ilmiy merosiga oid qisqacha ma'lumotlar berilgan.

Калит сўзлар: Aziziddin Nasafi, "Kashf ul haqoyiq", "Insoni kamil" asari, "Piri Siddiq", "Piri Hamza Sabzposh".

Abstract: Brief information is provided about the life, work, and scientific heritage of our great compatriot Aziziddin Nasafi, who lived and worked in the 13th century and made an invaluable contribution to the development of Sufi teachings and philosophy.

Key words: Aziziddin Nasafi, "Kashf ul Haqoyiq", "Insoni Kamil", "Piri Siddiq", "Piri Hamza Sabzposh".

Аннотация: В статье приведены краткие сведения о жизни, деятельности и научном наследии нашего великого соотечественника Aziziddina Nasafi, жившего и творившего в XIII веке и внесшего неоценимый вклад в развитие суфийского учения и философии.

Ключевые слова: Aziziddin Nasafi, "Kashf ul haqoyiq", "Insoni Kamil", "Piri Siddiq", "Piri Hamza Sabzposh".

КИРИШ (INTRODUCTION). Ўзбекистоннинг мустақилликка эришуви миллий маданиятимиз тарихини ўрганишга, унга ҳолисона фикр билдиришга катта имкониятлар яратди, осори-атика ёдгорликларимизни асраш, миллий қадриятларимизни тиклаш, қадимий бой тарихимизни бир ёқлама ёритиш, чегаралаш, маълум жараён ва илм-фан арбобларининг фаолияти ва хизматини инкор этишдек нотўғри ғоялар ва усуллардан тозалашга, хур фикрлиликка шароит туғдирди. Маданий меросимизни, ўтмиш қадриятларимизни кенг ва ҳар томонлама ўрганиш Ўзбекистон Республикаси биринчи Президенти И.А.Каримовнинг маърузаларида ва муҳтарам юртбошимиз Ш.М.Мирзиёев-

нинг маърузаларида бир неча бор таъкидланганидек, ҳозирги миллий маънавиятимизнинг чуқур тарихий илдизларининг шаклланиш босқичлари ва хусусиятларини очиқ бериш учун зарурдир. Бу эса, ўз навбатида, миллий онг, миллий ғурур, тарихимиз, ўтмиш авлодлар хизматида хурмат-эътиборни, халқ меҳнатига, ватанга севги туйғусини шакллантириш, янги жамиятимизнинг тўғри ривожини, келажагини оқилона белгилаш, юксак демократик давлат қуриш учун хизмат қилади.

МАВЗУГА ОИД АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ (LITERATURE REVIEW). А.Насафийнинг ҳаёти ва унинг илмий мероси



<https://orcid.org/0000-0003-0401-2992>

e-mail:
zubaydillonarziyev@gmail.com

ҳақида етарли даражада тадқиқотлар олиб борилмаган. Мутасаввифининг айрим асарлари ўзбек тилига таржима қилингани истисно этилса¹, унинг илмий мероси атрофлича ўрганилмаган. Жумладан, юртимизда Азизиддин Насафий асарларига бўлган қизиқиш мустақиллик йилларига тўғри келган. Филология фанлари доктори, профессор Нажмиддин Комилов Насафийнинг “Зубдат ул ҳақойиқ” асарини ўзбек тилига таржима қилиб, кенг китобхонлар оммасига тақдим этган. Мазкур мақолада ўзбек тасаввуфшунос олимлари Нажмиддин Комилов, Олимжон Давлатов ҳамда турк тасаввуфшунос олимлари Иброҳим Дюзен², Саломи Шимшек³, Шабан Аргун⁴ ларнинг тадқиқотларидан фойдаланилди. Насафийнинг асарларининг бу каби номаълумлиги унинг адабий ва ирфоний меросини янада тўлиқ ўрганиш ва тадқиқ этиш зарурлигини келтириб чиқаради.

ТАДҚИҚОТ МЕТОДОЛОГИЯСИ (RESEARCH ETHODOLOGY). Тадқиқотда анализ, синтез, тарихийлик, синергетика ва герменевтика усулларидан фойдаланилган.

ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР (ANALYSIS AND RESULTS). Тасаввуф ва ирфоннинг етук назарийгисини, ватандошимиз Азизиддин ибн Муҳаммад Насафий милодий XIII асрнинг бошида Насаф шаҳрида туғилган. Бу даврда Насаф ирфон ва тасаввуфнинг йирик марказларидан ҳисобланиб, фикх, тафсир, ҳадис ва калом илми бўйича ҳам йирик олимлар ушбу диёрдан етишиб чиққан. Бошланғич маълумотни туғилган шаҳрида олган Азизиддин таҳсилнинг кейинги босқичини Бухорои Шарифда давом эттиради. Бу ерда у тасаввуф, фалсафа, калом ва тиб илмларини чуқур ўзлаштиради. Азизиддин узок умр кўриб, Эрондаги Язд шаҳрининг Абркўҳ деган жойида вафот этади. Ҳозирга қадар Азизиддин Насафийнинг ҳаёти ҳақида мавжуд манбаларда кўп маълумотлар учрамайди. Ҳатто “Ислом энциклопедияси”да ҳам бу мутасаввиф ҳақида ҳеч қандай маълумот учрамайди. Шу нуқтаи назардан Насафийнинг ҳаёти, фикр ва қарашларини оз бўлса-да мавжуд

бўлган манбаларга таяниб ўрганиш мақсадга мувофиқдир. Шубҳасизки, миқдор ва сифат жиҳатидан муҳим асарлар яратган Азизиддин Насафий XIII асрнинг буюк мутасаввиф ва мутафаккирларидандир. Муҳим мавзуларда асарлар яратган мутасаввиф аксарият табақот ва тазкиранависларнинг эътиборидан четда қолганлигини ҳайратланарли ҳолат сифатида қайд этиш мумкин. Турк олими Иброҳим Дюзен юқоридаги яъни Насафийнинг кўпгина манбаларда қайд этилмаганини, табақот ва тазкиранависларнинг назаридан четда қолиб кетганлиги ҳолатини уларнинг лоқайдлиги ва бепарволигига боғлаб тушунтиради⁵. Чунончи, Абдурахмон Жомий ўзининг “Нафаҳот ул унс” асарида шуҳрат жиҳатидан юқори даражада тилга олинмайдиган сўфий ва мутасаввифларни тилга олган бўлса-да, Насафий ҳақида ҳеч қандай фикр билдирмаган. Хусайн Бойқаро “Мажолис ул-ушшоқ” асарида Азизиддин Насафий ҳақида айрим маълумотларни ёзиб қолдирган. Мазкур асарда мутасаввиф ҳақида берилган маълумотлар ҳам жуда ишончли эмас. Хусайн Бойқаро ўзининг маълумотларини Насафийнинг асарлари асосида очиб берган. Айрим ўринларда Хусайн Бойқаро берган маълумотлар Насафийнинг ўз асарларида ўзи томонидан берилган маълумотларга биров зид келиши кўзга ташланади. “Мажолис ул-ушшоқ”да Насафий ботиний ва зоҳирий илмларни бирлаштира олган, мутасаввифларнинг усул, ҳикмат ва истилоҳ (тушунча)лари мавзусида китоблар таълиф этган, асарларида калом илми тарафдорлари, файласуфлар ва ваҳдат ул вужуд таълимоти намояндаларининг фикрларини чуқур ўрганган бир зот сифатида тилга олинган⁶. “Мажолис ул-ушшоқ”даги маълумотга кўра, Насафий мўғуллар босқини даврида Бухородан ҳайдаб юборилиб, дўстлари ва болалари ўлдирилган. Мутасаввиф ночор ҳолатда Хуросонга келган ва у ердан Абркўҳга ўтиб, ҳижрий 661 йилда шу ерда вафот этган. Юқоридаги келтирилган фикрларга қўшимча

¹ Комил инсон ҳақида тўрт рисола. Форс-тожик тилидан Нажмиддин Комилов таржимаси. Тошкент.: “Маънавият”, 1997; Азизиддин Насафий. Комил инсон китоби. Нажмиддин Комилов, Олимжон Давлатов таржимаси. Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, Тошкент: 2021. -Б. 186.

² Ibrahim Düzen. Aziz Nesefi'ye göre allah, kainat ve insan. Istanbul. Furkan yayınlari.2000.-S.16

³ Nesefi. *Tenzil - Tasavvufta Varlık Bilgi ve İnsan*. Yayına Hazırlayan Selami Şimşek. Litera Yayıncılık. İstanbul. 2020.,190-s.

⁴ [Şaban Arğun](#). Sa'deddin Hammûyi -hayati, eserleri ve tasavvufi gorushleri. Ankara. 2023, 364-s.

⁵ Ibrahim Düzen. Aziz Nesefi'ye göre allah, kainat ve insan. Istanbul. Furkan yayınlari.2000.-S.15.

⁶ Ibrahim Düzen. Aziz Nesefi'ye göre allah, kainat ve insan. Istanbul. Furkan yayınlari.2000.-S.16.

сифатида таъкидлаш лозимки, “Мажолис ул-ушшоқ”да Азизиддин Насафийнинг “Кашф ул-хақойиқ” асарини ёзаётган пайтида тушида кўрган Пайғамбаримиз(с.а.в.), Саъдиддин Ҳамавий ва Абдуллоҳ Ҳафиф Шерозий билан бўлган суҳбати ҳам ўрин олган. Бироқ бу маълумот ҳам ишончли эмаслиги кўзга ташланади. Чунки юқорида келтирилган маълумотларга кўра, Насафий ҳижрий 670 йилда Бухорога кўчиб келгани ҳамда ҳижрий 680 йилда Абркўҳда бўлганини айтиб ўтган. Насафий тушида пайғамбар билан учрашганини ҳижрий 680 йил деб қайд этган.

Шустерий “Дабистон ул-мазоҳиб” асарида Насафийнинг асарларининг кўп ўқилиши ҳақида маълумот бериш билан биргаликда, мутасаввифнинг ҳаёти ҳақида ҳеч қандай маълумот қолдирмагани ҳайратланарлидир. Ризоқулихон Ҳидоят ўзининг “Мажма ул-фусаҳо” ва “Риёз ул-орифин” асарларида Насафийга бир неча сатр ажратган. Бироқ бу асарларда келтирилган маълумотлар ҳам жуда қисқа ва қадрсиздир. Ризоқулихон Ҳидоятнинг Азизиддин Насафий ҳақида “Мажма ул-фусаҳо” ва “Риёз ул-орифин” асарларида берилган маълумотлари Хусайн Бойқаронинг “Мажолис ул-ушшоқ” асарида иктибос тарзида олинганлиги эҳтимоли юқори бўлиб ҳисобланади. Масалан, Ризоқулихон Ҳидоят Насафий ҳақида “Азизиддин Насафий Саъдиддин Ҳамавийнинг муридларидан бири. У “Манозил ус-соирин”, “Мақсад ул-аксо”, “Кашф ул-хақойиқ”, “Усул ва фуруъ” билан биргаликда жуда кўп асарларни таълиф этган. Ҳижрий 616 йилда мўғуллар босқинидан қочиб, Эроннинг Абркўҳ деган жойида вафот этган”⁷ мазмунидаги жуда қисқа маълумотларни қолдирган. Шунингдек, Ризоқулихон Ҳидоят “Риёз ул-орифин” асарида юқоридаги маълумотларга илова сифатида Насафийнинг Муҳаммад Хоразмшоҳ билан замондош бўлганлигини қайд этган ва тўрт юз қирқ асарда яширинган сирларини ҳамда бу маълумотни Насафий “Кашф ул-хақойиқ” асарида очиқлаганини билдириб ўтган. Бироқ, таҳлил этилса, Ризоқулихон Ҳидоятнинг Насафий ҳақида берган маълумоти Хусайн Бойқаро берган маълумотларнинг такрорий ифодаси сифатида намоён бўлади. Шу нуқтаи назардан, биз Азизиддин Насафий ҳақида тўлиқроқ маълумотга эга бўлишимиз учун унинг асарларига

муружаат қилмасдан бошқа чорамиз йўқ. Алоҳида таъкидлаш ўринлики, Насафий ўз асарларида ўзи ҳақидаги маълумотларни тўғридан-тўғри очиқламаган ва вақти-вақти билан машғулоти, касби, саёҳатлари ва кўришиб суҳбатлашган инсонлари ҳақида маълумот берса-да, оиласи, таҳсили, хожа-лари ҳамда ҳаёти ҳақидаги маълумотларни беришни истамаган. Ўз даврининг машҳур мутасаввифи, файласуфи ва алломаси сифатида “Манозил ас-соириин” (Сайр этувчилар манзиллари), “Усул ва фуруъ” (Илдизлар ва бутуқлар), “Мабдаъ ва маъод” (Чиқиш ва қайтиш), “Мифтоҳ ул-асрор” (Сирлар калити), “Зубдат ул-хақойиқ” (Ҳақиқатлар қаймоғи), “Баён ут-танзил” (Нузул баёни), “Кашф ул-хақойиқ” (Ҳақиқатларнинг очилиши), “Нафси инсоний”, “Инсони комил”, “Ваҳдати вужуд” ва бошқа асарларида ўзининг тасаввуфий-фалсафий қарашларини баён этган⁸.

ХУЛОСА (CONCLUSION). Насафий ўзининг илмий мероси ва асарларида рух, инсоннинг руҳий камолоти, маънавий юксалиши, комил инсон, камолот даражалари, маърифат, ҳақиқат, инсон қалби, ахлоқ ва бошқа масалаларни таҳлил қилган. Унинг фалсафа, калом, фикҳ ва барча исломий илмлари билан биргаликда тасаввуфни ҳам эгаллаганлиги ва буларнинг барчасини аслида ваҳдат-ул-вужуд ҳақидаги қарашларига материал сифатида ишлатганлиги ҳақиқатдир. Шояд, Насафий илк даврларда бирор бир тариқатга кириб борган бўлса ҳам, кейинчалик мустақил ҳолда ўзига хос бир система билан тасаввуфий масалаларни ўрганганлиги ўзининг асарларида янада очиқ ёритиб берилган.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ (REFERENCES):

1. Азизиддин Насафий. Комил инсон китоби. Н.Комилов, О.Давлатов таржимаси. Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, Тошкент:2021.223-б
2. Ibrahim Düzen. Aziz Nesefi'ye göre allah, kainat ve insan. Istanbul. Furkan yayınları.2000.-334-s.
3. Комил инсон ҳақида тўрт рисола. Форс-тожик тилидан Нажмиддин Комилов таржимаси. Тошкент.: Маънавият, 1997.
4. Nesefî. *Tenzîl - Tasavvufta Varlık Bilgi ve İnsan*. Yayına Hazırlayan Selami Şimşek. Litera Yayıncılık. İstanbul. 2020., 190-s.
5. [Saban Arğun](#). Sa'deddin Hammûyi -hayati, eserleri ve tasavvufi gorusleri. Ankara. 2023, 364-s.
6. Чориев А. Инсон фалсафаси. Тошкент. 2008.

⁷ Ibrahim Düzen. Aziz Nesefi'ye göre allah, kainat ve insan. Istanbul. Furkan yayınları.2000.-S.17.

⁸ Чориев А. Инсон фалсафаси. Тошкент. 2008. -Б. 194.

SIYOSIY MAFKURA TARG'IBOT VA BOSHQARUV VOSITASI SIFATIDA

*Ismatov Shohruhbek Murod o'g'li, Buxoro davlat pedagogika instituti
o'qituvchisi, Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi*

POLITICAL IDEOLOGY AS A MEANS OF PROPAGANDA AND GOVERNANCE

*Ismatov Shohruhbek Murod oglu, teacher at the Bukhara State
Pedagogical Institute, independent researcher at Bukhara State
University*

ПОЛИТИЧЕСКАЯ ИДЕОЛОГИЯ КАК СРЕДСТВО ПРОПАГАНДЫ И УПРАВЛЕНИЯ

*Исмамов Шохрухбек Мурод оглы, преподаватель Бухарского
государственного педагогического института, независимый
исследователь Бухарского государственного университета*



<https://orcid.org/0009-0001-9635-2830>

e-mail:
ismatovshohruhbek@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi globallashuv sharoitida dunyodagi aksariyat davlatlarda demokratiya, erkinlik, fuqarolik jamiyatini qurish kabi g'oyalar muhim va dolzarb bo'lib bormoqda. Jahon tarixiga e'tibor qaratsak har bir xalq o'z milliy g'oyasi asosida birlashib, taraqqiy etgani, murakkab sinovlardan o'tib kelayotganiga amin bo'lmoqdamiz. Hozirgi globallashuv sharoitida mafkuraviy ziddiyatlar, mafkuraviy poligonlarga qaraganda bir muncha tahlikalli va xayfliroq bo'lib bormoqda. Chunki jamiyatni boshqarish muayyan bir g'oyaviy dastur yoki nazariyani taqozo etadi. Bu vazifani esa mafkura bajarishi shart. Mafkurasiz siyosiy hokimiyat bo'lmagani sababli uning siyosiy institutlari ham bo'lmaydi. Shuning uchun ijtimoiy hayotni tashkillashtiruvchi boshqaruvchi va muayyan maqsad sari yo'naltiruvchi dastur, ta'limot bo'lib xizmat qiladi. Mafkura bevosita siyosat bilan bog'liq. Siyosatning o'zgarishi ham mafkuraga ta'sir etmasdan qolmaydi. Aslida siyosatga oqilona yo'nalish berishi, uni jamiyat hayotining turli jabhalaridagi real holat bilan tanishtirishi lozim. Siyosatning mafkuraga tayanishi holati shundaki, mafkuraning jamiyat ma'naviy kayfiyatini, orzu-istaklarini, maqsad-manfaatlarini ifodalovchi g'oyaviy dasturdir.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, siyosiy mafkura, fuqarolik jamiyati, g'oya, siyosiy partiya, targ'ibot, ma'rifiy jamiyat, boshqaruv, davlat.

Annotation: In today's conditions of globalization, in most countries of the world, such ideas as democracy, freedom, and building a society of deficit are becoming important and relevant. By paying attention to world history, we are now convinced that every nation unites and develops based on its national idea, going through difficult trials. In the current conditions of globalization, ideological tension becomes, in some ways, more humiliating and dangerous than ideological dumping. This is because governing society requires a certain ideological program or theory. And this task must be carried out by ideology. Since without ideology, there is no political administration, and it will lack political institutions. Therefore, it serves as a manager, organizing public life, and programs, doctrines guiding towards a specific goal. Ideology is directly linked to politics. A change in policy cannot help but affect ideology.

Keywords: spirituality, political ideology, civil society, idea, political party, propaganda, enlightenment society, governance, state.

Аннотация: В современных условиях глобализации в большинстве стран мира становятся важными и актуальными такие идеи, как демократия, свобода, построение общества дефицита. Обращая внимание на мировую историю, мы сегодня убеждаемся, что каждый народ

объединяется и развивается на основе своей национальной идеи, проходит через сложные испытания. В нынешних условиях глобализации идеологическая напряженность становится в какой-то мере более униженной и опасной, чем идеологические свалки. Потому что управление обществом требует определенной идеологической программы или теории. И эта задача должна выполняться идеологией. Поскольку без идеологии нет политической администрации, у нее не будет политических институтов. Поэтому он служит в качестве управляющего, организующего общественную жизнь, и программы, учения, направляющие к определенной цели. Идеология напрямую связана с политикой. Смена политики не может не отразиться и на идеологии. На самом деле он должен дать политику разумное направление, познакомить ее с реальным положением дел в различных сферах общественной жизни. Состояние опоры политики на идеологию заключается в том, что идеология – это идеологическая программа, выражающая духовные настроения общества, его мечты, цели и интересы.

Ключевые слова: духовность, политическая идеология, гражданское общество, идея, политическая партия, пропаганда, общество просвещения, управление, государство.

KIRISH (INTRODUCTION). “Biz O‘zbekiston fuqarolari jamiyatimizning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy qiyofasi shiddat bilan o‘zgarib, hayotimizda yangicha munosabatlar, yangi imkoniyat va qadriyatlar shakllanayotganini hammadan ham ko‘proq his etmoqdamiz. Ayniqsa, “inson huquq va erkinliklari”, “qonun ustuvorligi”, “ochiqlik va oshkoralik”, “so‘z erkinligi”, “din va e‘tiqod erkinligi”, “jamoatchilik nazorati”, “gender tenglik”, “xususiy mulk daxlsizligi”, “iqtisodiy faoliyat erkinligi” singari fundamental demokratik tushunchalar va hayotiy ko‘nikmalar hozirgi vaqtda real voqelikka aylanib borayotgani e‘tibordir”, deya ta‘kidlagadi Prezident Sh.M.Mirziyoyev[1]. Agarki bashariyat tarixini, uning tafakkur rivojini tadrijiy ravishda ko‘zdan kechiradigan bo‘lsak, hayotda insonni kamolotga, yuksak marralarga chorlaydigan ezgu g‘oya va ta‘limotlar bilan yovuz va zararli g‘oyalar o‘rtasida azaldan kurash mavjud bo‘lib kelganini va bu kurash bugun ham davom etayotganini ko‘ramiz. Bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tig‘iz, shu qadar tezkorki, endi ilgargidek, ha, bu voqea bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo‘q, deb beparvo qarab bo‘lmaydi. Ana shunday kayfiyatga berilgan xalq yoki millat taraqqiyotdan yuz yillar orqada qolib ketishi hech gap emas. Bugungi hayotning o‘zi shundan iboratki, hozirgi sharoitda mafkura ta‘sir o‘tkazishning nihoyatda o‘tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini sog‘lom fikrlaydigan har qanday odam, albatta, kuzatishi muqarrar. Bu haqda gapirganda, men ilgari bildirgan ba‘zi fikrlarni takrorlash o‘rinli, deb o‘ylayman. Ta‘bir joiz bo‘lsa, aytish mumkinki,

bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko‘proq kuchga ega. Bu masalaning kishini doimo ogoh bo‘lishga undovchi tomoni shundaki, agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo‘lsa, buni sezish, ko‘rish, oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tazyiqni, uning ta‘siri va oqibatlarini tezda ilg‘ab yetish nihoyatda qiyin. Mana shunday vaziyatda odam o‘z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o‘tgan hayotiy-milliy qadriyatlarga, sog‘lom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo‘lmasa, har turli ma‘naviy tahdidlarga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko‘rinishdagi ta‘siriga bardosh berishi amrimahol. Buni kundalik hayotda uchrab turadigan ko‘plab voqealar misolida yaqqol kuzatish mumkin va ularning qanday og‘ir oqibatlariga olib kelishini uzoq tushuntirib o‘tirishning hojati yo‘q, deb o‘ylayman. O‘tgan yillar davomida dunyoda va mintaqamizda ro‘y bergan, biz bevosita o‘z boshimizdan kechirgan voqealar, mafkuraviy jarayonlarning rivoji bu xulosaning to‘g‘ri ekanini qayta-qayta isbotlamoqda. Siyosiy mafkura – jamiyatning siyosiy hayoti, siyosiy tizim tuzilishi, turli Ijtimoiy kuchlar va guruhlarning o‘rni va roli to‘g‘risidagi g‘oyalar, uning hokimiyatga ega bo‘lishi, undan foydalanish yo‘llari, mexanizmlari to‘g‘risidagi qarashlarini amalga oshirishga bo‘lgan ishonch, maqsadlar yo‘lidagi faoliyatdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI (LITERATURE REVIEW). “Siyosiy mafkura targ‘ibot va boshqaruv vositasi sifatida” nomli maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik” nomli kitobi, M.Qirg‘izboyev “Siyosatshunoslik”, O‘.B.Biturayev

“Siyosatshunoslikka kirish” o‘quv qo‘llanma, X.T.Odilqoriyev, Sh.F.G‘oyibnazarov “Siyosiy madaniyat” axborot manbalari keltirib o‘tilgan. Shuningdek, gazeta, jurnal, internet manbalarida axborotlar ilmiy tadqiqot ishiga kiritildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH ETHODOLOGY). Tadqiqotda analiz, sintez, tarixiylik, sinergetika va hermenevtika usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS). Bugungi dunyoda huquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurish yo‘lidan borayotgan har qanday mamlakat hayotida davlat boshqaruv tizimini zamon talablari asosida rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat taraqqiyotining yangi davri va bosqichi, eng avvalo, davlat boshqaruv tizimini bugungi va ertangi kun talablaridan kelib chiqib, yanada takomillashtirish nechog‘lik muhimligi bugungi kunda o‘z aksini ko‘rsatmoqda. Fuqarolik jamiyatini barpo etish, davlat boshqaruv tizimida modernizatsiya va innovatsiyon mexanizmlarni yangi ko‘rinishda namoyon etish, davlat va xalq o‘rtasidagi munosabatlarda siyosiy mafkuraning zamon talablari asosida targ‘ib qilishning yangicha uslublari, shakl-shamoyillari juda tez suratlarda o‘tib bormoqda. **XX-XXI** asrlarda g‘oyaviy kurashlar keskinlashgan bir davrda G‘arbda siyosiy mafkuralarning o‘zaro yaqinlashuvi va bir-birovini to‘ldirish davr bo‘ldi. Bu asrlarda bir vaqtning o‘zida siyosiy mafkuralarga nisbatan yangi uslubiy yondashuvlarning paydo bo‘lishi, siyosiy g‘oyalarning tug‘ilishi va o‘tmish merosining qayta tiklanish davri desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

XX asrda siyosiy g‘oya uchta asosiy yo‘nalish bo‘yicha rivojlandi:

-Akademik yo‘nalish;

-Ijtimoiy-falsafiy nazariyalar;

-Yaqqol ifodalangan amaliy yo‘nalishga ega bo‘lgan mafkuraviy

konsepsiyalar asosida shakllandi[2]. Umuman olganda fan-texnika sohasidagi ulkan yutuqlar siyosiy mafkuraga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmadi. Siyosiy mafkura, siyosat maydonini tahliliy model ko‘rinishida ifodalash mumkin. Maydon markazini siyosiy hodisalar va jarayonlar egallaydi. Siyosiy jihatdan uyushgan jamiyatda ularning rivojlanishi ko‘p jihatdan davlat organlari hamda boshqa siyosiy tashkilot va tuzilmalarning mavqeiga bog‘liq. Ular ishlab chiqadigan siyosat jamiyatga

nisbatan ma’lum darajada mustaqildir. Ammo turli ijtimoiy guruhlar manfaatlarining timsoli sifatida u mazkur maydonda mavjud asosiy ta’sirlarning o‘ziga xos teng ta’sir etuvchisi bo‘lib xizmat qiladi va odamlarning siyosiy borliqni va umuman, jamiyat hayotini uyushtirishga, hamkorlik qilish (yoki raqobatlashish) va aloqa qilishga bo‘lgan ehtiyojlarini aks ettiradi;

— katta ijtimoiy guruhlarining mafkuraviy qadriyatlarini vositasida yoki ularning negizida aniqlanadi;

— jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari, turli ijtimoiy guruhlarining iqtisodiy manfaatlarini aks ettiradi;

— ijtimoiy ong va siyosiy madaniyatning mazmuni va rivojlanish darajasi bilan belgilanadi.

Jamiyatda siyosiy mafkuraning o‘rni uning birlashtiruvchilik funksiyasi bilan belgilanadi. Umum e’tirof etgan siyosiy qadriyatlar, xulq-atvor qoidalari va andozalar, shuningdek, an’analar odamlarni yagona siyosiy mafkura va siyosiy tizimga birlashtiradi, bu esa jamiyatni boshqa jamiyatlardan farqlaydi. Siyosiy madaniyat va mafkura ostida odamlar o‘zlarini yagona davlat fuqarolari ekanligini anglab yetadi. Siyosiy mafkura asosan elitaning ma’naviy quroli bo‘lib xizmat qiladi. U yoki bu guruh manfaatlarining g‘oyaviy rasmiylashtirilganligi darajasi ana shu elitaning xulq-atvoriga bog‘liq bo‘ladi. Ammo hokimiyat munosabatlarida siyosiy mafkuraning haqiqiy o‘rni ijtimoiy ongning bu siyosiy mafkurani o‘zlashtirish xususiyatiga bog‘liqdir. Siyosiy mafkuraning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

— ijtimoiy ongni egallash;

— unga o‘tmish, bugun va kelajakni baholashning o‘z mezonlarini joriy etish;

— jamoatchilik fikri ko‘z o‘ngida siyosiy taraqqiyotning o‘zi taklif qilgan maqsad va vazifalarining ijobiy siymosini yaratish. Bunda siyosiy mafkura o‘z maqsadlari va ideallarini tarqatish, targ‘ib qilishdan ham ko‘ra ko‘proq o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarish yo‘lida izchil harakat qilishi lozim. Mafkurani jamiyatning barcha a’zolari emas, balki o‘z hayotini siyosiy ijodga bag‘ishlagan va jamiyat hayotining qonunlarini tushunib yetish bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar (mafkurachilar) ishlab chiqadi. Bunda nazariy siyosiy ongni ishlab chiqishga mualliflarning shaxsiy xislatlari ham katta ta’sir ko‘rsatishini qayd etib o‘tish kerak. Siyosiy mafkura umuman ijtimoiy ongga katta

ta'sir ko'rsatishi mumkin, chunki u faqat qarashlar tizimigina bo'lmay, balki davlat kuchiga, targ'ibot tizimiga ham egadir. Bunda u fan, xususan, san'at, din, barcha ommaviy axborot vositalari (televideniye, radio, gazeta va jurnallar, Internet)dan foydalanadi. Ammo demokratiya va oshkoralik taraqqiy etgan hozirgi zamon sharoitida hukmron mafkuraning cheksiz va nazoratsiz ta'siri kamayadi[3].

Yurtimizda mustaqillikning dastlabki davrida davlat boshqaruvida rahbar kadrlar siyosiy tafakkuridagi keskin o'zgarishlar uchun shart-sharoitlar yaratishga muhim ahamiyat berildi: 1) kommunistik mafkura va dunyoqarashdan voz kechildi; 2) milliy davlatchilik asoslari ham demokratik qadriyatlar, ham milliy g'oya negizida yaratila boshlandi; 3) huquqiy davlatga xos va mos bo'lgan siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-mafkuraviy o'zgarishlar amalga oshirila boshlandi; 4) fuqarolik jamiyati qurish islohotlari boshlandi; 5) jamiyatdagi barcha ijtimoiy qatlamlar manfaatlarini ifodalashga qodir bo'lgan ikki palatali parlament shakllantirildi; 6) hukumatning ikki tomonlama mas'uliyat asosida – mamlakat Prezidenti va parlament nazorati ostida faoliyat yuritishi yo'lga qo'yildi; 7) siyosiy partiyalarning jamiyatdagi va davlat boshqaruvidagi roli kuchaytirildi va hokazo. Mustaqillik tufayli mamlakatda yakka mafkura va yagona partiya hokimligi tizimiga barham berildi. Eskiha siyosiy elitani shakllantirish yo'li – kadrlar tayyorlashning sinfiy-partiyaviy, mafkuraviy tamoyillari o'rnida endi yangi, insoniy manfaatlar, erkinlik ustuvorligi kabi demokratik qadriyatlarga muhim e'tibor berila boshlandi. Yangi qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida "O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas", degan qoidaning belgilab qo'yilishi natijasida bir xil mafkuraviy dunyoqarashga ega bo'lgan, bir qolipga tushirilgan siyosiy elita tizimiga barham berildi. Shu tariqa mamlakatda siyosiy elita – rahbar va boshqaruv kadrlarini shakllantirishning yangi tizimiga asos solindi. Endi ana shu yangi tizimda amal qilishga xos va mos bo'lgan demokratik ijtimoiy hayot, bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari va boshqaruvning nomarkazlashtirish talablariga javob bera oladigan, hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanadigan siyosiy elitani shakllantirish islohotlari boshlandi. Bu

sobiq ittifoq davridagi elitani shakllantirish modelidan tubdan farq qilardi[4].

XULOSA (CONCLUSION). Shuni ta'kidlash joizki, hozirgi insoniyat taraqqiyoti bosqichida mafkura, xususan siyosiy mafkuraning o'rni va ahamiyati haqidagi masala eng dolzarb, ziddiyatli bo'lib, g'oyat ehtirosli qarama-qarshi munozaralarga sabab bo'lmoqda. Siyosiy mafkura hokimiyatning siyosiy munosabatlari mexanizmlari to'g'risidagi g'oyalar, qarashlar, tasavvurlarning ilmiy-nazariy metodologik asoslari ekanligini ta'kidlash joiz. Shu nuqtayi nazardan bugungi dunyoning mafkuraviy qiyofasi murakkab va serqirra bo'lib, ko'plab turli g'oya va siyosiy mafkuralar ta'sir hamda mavjudlik uchun o'zaro kurashmoqda. Mafkuralar orasida demokratik konservatizm, liberalizm, neoliberalizm, neokonservatizm, sotsial-demokratiya, sotsializm hamda milliy mafkuralar XXI asrda dunyo mamlakatlarining ijtimoiy va siyosiy hayotida o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Hozirgi vaqtda so'nggi yuz yillik ichida yuz bergan jamiyat hayoti barcha jabhalari qatori siyosiy mafkuralarning faol integratsiyalashuvi natijasi sezilarli darajada o'zgardi. Ma'naviyat insonga suv va havodek zarur. Ma'naviyatsiz hayot hamda kelajak insonga qorong'u. Ma'naviy va ma'rifiy ishlar hech qachon eskirmagan va har doim dolzarbligini yo'qotmagan. Bugungi global hayotda mafkuraviy tahdid va axborot xurujlari yanada kuchayganligi sir emas. Bugungi globallashuv asrida yoshlar ongi va qalbini egallash yo'lidagi kurash davom etayotgani barcha jabhalarda bo'lgani kabi o'quv yurtlarda ham, aholining turli qatlamlarida, ayniqsa uyushmagan yoshlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy va mafkuraviy targ'ibot ishlarini yanada rivojlantirishi targ'ibotning innovatsion usullarini jamiyat hayotiga tatbiq etish davr taqozosiga aylanmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. Sh.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. -Toshkent: O'qituvchi MU MCHJ, 2021. 74-bet.
2. Biturayev, O'.B. Siyosatshunoslikka kirish (o'quv qo'llanma). Toshkent: Barkamol fayz media, 2017-yil 47-48 bet.
3. X.T.Odilqoriyev, Sh.F.G'oyibnazarov. Siyosiy madaniyat. Nazariy-qiyosiy tadqiqot. Toshkent, 2004.
4. M.Qirg'izboyev. Siyosatshunoslik. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013-yil.

Qabul qilindi: 15.04.2025

Chop etildi: 31.05.2025

UDK: 94 (575.1)

**БУХОРО АМИРЛИГИ ЖАНУБИ-ШАРҚИЙ
ХУДУДЛАРИ МОДДИЙ МАДАНИЯТИДА МУХИМ
ЎРИН ТУТГАН МАҚБАРА ВА МАСЖИДЛАРНИНГ
АҲАМИЯТИ**

*Мухаммадиев Омон Маматалиевич, ДХХ ЧҚ “Ёш чегарачилар”
ҳарбий-академик лицейи тарих фани ўқитувчиси*

**THE SIGNIFICANCE OF THE MASQUES AND
MOSQUES WHICH ARE IMPORTANT IN THE
MATERIAL AND CULTURE OF THE SOUTH-EAST
REGIONS OF BUKHARA EMIRATE**

*Mukhammadiev Omon Mamatalievich, History teacher of the
military-academic lyceum “Young frontiersmen” of the DXX ChQ*

**ЗНАЧЕНИЕ МАСЖИДОВ И МЕЧЕТЕЙ,
ИМЕЮЩИХ ВАЖНОЕ ЗНАЧЕНИЕ В
МАТЕРИАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЕ ЮГО-ВОСТОЧНЫХ
ОБЛАСТЕЙ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА**

*Мухаммадиев Омон Маматалиевич, учитель истории военно-
академического лицея «Юные пограничники» СГБ ПК*



<https://orcid.org/0009-0004-0387-995X>

e-mail:

omonmukhammadiev
19@gmail.com

Аннотация: Мазкур мақола Бухоро амирлигининг жануби-шарқий ҳудудларида ислом архитектурасининг ахлоқий ва эстетик жиҳатларини ўрганишга бағишланган. Исломий меъморий обидалар нафақат диний марказлар, балки ахлоқий қадриятлар ва маданий мероснинг ифодаси сифатида талқин этилади.

Калим сўзлар: мақбара, хонақоҳ, чангак, дорбоз чўти, масжид, лангар, Самарқанд, Термиз, Амир Саййид Кулол, ҳиротлик Зайниддин Абу Бакр Тойбодий, Мир Саййид Шариф Журжоний, Саййид Барака.

Abstract: This article is devoted to the study of the ethical and aesthetic aspects of Islamic architecture in the southeastern regions of Bukhara Emirate. Islamic architectural monuments are interpreted not only as religious centers, but also as an expression of moral values and cultural heritage.

Key words: Maqbara, khanaqah, changak, gatekeeper's stick, mosque, langar, Samarkand, Termiz, Amir Sayyid Kulol, Zayniddin Abu Bakr Toybadi from Herat, Mir Sayyid Sharif Jurjani, Sayyid Baraka.

Аннотация: Статья посвящена изучению этических и эстетических аспектов исламской архитектуры юго-восточных регионов Бухарского эмирата. Исламские архитектурные памятники трактуются не только как религиозные центры, но и как выражение моральных ценностей и культурного наследия.

Ключевые слова: макбара, ханака, чангак, посох привратника, мечеть, Лангар, Самарқанд, Термиз, Амир Саййид Кулол, Зайниддин Абу Бакр Тойбади из Герата, Мир Саййид Шариф Джурджани, Саййид Барака.

КИРИШ. Ахлоқий жиҳатлар масжидлар, мадрасалар ва мақбаралардаги камтарлик, поклик ва руҳий юксалишга ундовчи меъморий ечимларда намоён бўлади. Эстетик жиҳатлар эса кошин ва мозаикалар, геометрик нақшлар,

арабий ёзувлар, шунингдек, ранг-баранглик ва табиат билан уйғунликда ўз ифодасини топади. Ушбу тадқиқот архитектура санъати орқали ўтмишдан келажак авлодга етказилган маънавий меросни англаш ва қадрлашга қаратилган. Ушбу

мақолада Қашқадарё вилояти Қамаши туманидаги Кўкбулоқ ҳудудидаги Лангар ота ҳақида сўз юритамиз. Бу қадимий кишлоқ Шаҳрисабз-Ғузор автомобиль йўли Қамаши чорраҳасидан жанубдаги 28 км масофадаги Томчи тоғи этаги ва Лангардарёнинг ўнг соҳилида жойлашган. Лангар Ота ҳақидаги дастлабки хулосалар тақдим этилди.

МУҲОКАМА. Ҳозирги ўзбек адабий тилида “лангар” сўзи икки маънода келади. Бири кемани бирон жойда тўхтатиб туриш учун занжирга боғлаб сув остига ташланадиган чангаксимон оғир темир. Иккинчиси, дорда мувозанатни сақлаб туриш учун хизмат қиладиган хода, лангар чўп.

“Лангар” асли форсча сўз бўлиб, кемани тўхтатиб туришга хизмат қиладиган оғир чангак, дорбоз чўпи, мусофирлар яшайдиган жой, хонақоҳ сингари маъноларни англатади[1]. Алишер Навоий асарларининг луғатида “лангар” сўзи дорбозларнинг мувозанат ёғочи, лангар чўпи; кемани тўхтатиб туриш учун кемадан сувга ташлаб қўйиладиган оғир чангак; мусофирхона деб изоҳланади[2]. Т.Нафасовнинг изоҳлашича, лангар сўзининг энг ибтидоий маъноси тўхтайдиган жой, турадиган макон. “Лангар” сўзининг тожик ва эски ўзбек тилларидаги маънолари тўхташ жойи, ғарибхона, карвонсарой, ибодатхона, ғариб-ғураболарга овқат бериладиган маскан, қабр, гўрхона, хонақоҳ, йўлдаги бекат, емхона, кеманинг чангакли оғир темири, дорвозчўп[3].

Марказий Осиёнинг қадимги йирик марказлари орасидаги қисқа, лекин кескин қиялик, нишаб ва хатарли сўқмоқлари бўйидаги дарвешларнинг тўхтайдиган ва дам оладиган таянч маскани лангар дейилган. Бундай жойлар шаҳарларда хонақоҳ, чўл жойларда *такия*, тоғларда лангар деб аталган. Вақтлар ўтиши билан жой номларига айланган. Одатда лангар номи билан аталадиган жойлар буюк одамларнинг қабри ёнида, қабристон ёки хонақоҳлар атрофида вужудга келади. Негаки, бундай ерлар зиёратга келган кишиларнинг тўхтайдиган, дам оладиган, овқатланадиган жойи бўлган. Шу сабаб, Лангар номи билан аталувчи кишлоқлар *Ҳазрати Лангар* ёки *Лангар ота* сингари номлар билан аталган[4].

Лангар номи билан аталувчи манзиллар Марказий Осиёнинг турли ҳудудларида,

жумладан: Қашқадарё вилоятидаги Қамаши ва Чирокчи туманларида, Самарқанд вилоятидаги Оқтоғнинг энг баланд чўққиси ва Хатирчи туманида, Навоий вилояти Навоий туманида, Наманган вилояти Тўрақўрғон туманида (Лангар бобо), Фарғона вилояти Фарғона туманида, Сурхондарё вилояти Бойсун ва Сариосиё туманларида, шунингдек, Тожикистон, Қозоғистон, Афғонистон, Хитойнинг Шинжонг-Уйғур мухтор вилояти ва бошқа ҳудудларда кўплаб учрайди[5].

Лангар ота зиёратгоҳи мақбара ва масжиддан иборат. Қабристон ва масжид ораси сой билан ажралган ва Томчи тоғидан тушган икки тумшукнинг бирида (жанубий) мақбара, иккинчисида (шимолӣ) масжид жойлашган.

Мақбара – кўҳна, улкан қабристон тепасидаги пистазор тошдевор билан айлантирилган ва муқаддас ҳисобланади. Унинг ўртасидаги мақбарага махсус йўлакдан борилади. Мақбара эшиги шарққа қараган. Ҳашаматли қўштабақали эшикка (янгиланган, эскиси олиб қўйилган) катта кулф осилган. Кулфнинг мис қопланган юзасидаги ёзувда мақбара Муҳаммад Содиқ томонидан қурилганлиги битилган. Мақбара бир хонадан иборат. Мақбара устига хона ичкарисидан, яъни эшикнинг чап (жануб) томонидаги устун ичидаги зинапоялардан чиқилади. Хонани эшик тўридаги (ғарб) ганч панжарали ойнабанд ёритади. Хонанинг ички ўлчами 7x7 метр бўлиб, гумбаз тўртта ғишт устунларда ўрнатилган. Мақбара 1905 (илон) йилги зилзила вақтида шикастланган. Аҳоли томонидан 50 йилларда пойдевор ташқи томондан бетонланиб, қўшимча мустаҳкамланган[6].

Мақбарада бешта қабр жойлаштирилган. Жанубдан шимолга қараб жойлашган тўртта қабрнинг учтасида (1,2,3) ўлчам бир хил. Қабртошнинг квадрат асоси (плинтуси) узун, ингичка (бўйи 17 см, эни 15 см) тоштахталардан иборат бўлиб, узунлиги 360 см ва эни 125 см ни ташкил этади. Унинг устига узунаси 2,25 см, эни 88 см ва қалинлиги 20 см ли қора мармар тахта (горизонтал) ва бош томонида баландлиги 170 см, эни 65 см ва қалинлиги 12 см қорамармардан ёдгорлик тоши (вертикал) ўрнатилган. Бу учта қабрнинг мармар тахта ва ёдгорлик бир хил ҳажмда бўлиши билан ўртадагисининг ёдгорлик тоши юза қисмидаги ўйма безаклар бошқача,

хошияли, юзасига Қуръондан оятлар битилган. Орқа томонининг фақат юқори қисмидагина оятлар битилган.

Мақбаранинг шимол қисмида оддийгина қабр (4) жойлашган. Унинг ўлчами узунаси 225 см, эни 62 см бўлиб, қабрнинг квадрат асоси узун ингичка (бўйи 17 см, эни 15 см) қора мрамартош тахталар билан айлантирилган. Гўр усти ганч билан сувалган. Мрамар тахта ва ёдгорлик тоши йўқ. Биринчи қабр (жануб) оёқ учида ташқаридаги 17 та қабрга ўхшаш қабр тошли гўр мавжуд. Ўлчами бир хил бўлган учта қабрдаги ёдгорлик тошларидаги ёзувларга кўра, ўртадаги қабр Саййид Ҳасаннинг, унинг чап томонидаги Муҳаммад Содикнинг, ўнг томонидаги қабр Худойкул ёки Худойдоднинг қабри эканлиги маълум бўлади[7].

Мақбара эшиги олди йўлакнинг икки чети тош терилган супани эслатади. Супаларда Саййид Ҳасандан кейин ўтган унинг йирик мартабали авлодлари: ўнг томондагисида 11 та эркак, чап супада 6 та аёл қабри жойлашган. Қайд этилган ҳамма 17 та гўр устига қора мрамар тош ўрнатилган. Уларнинг ҳажми (узунлиги 165-170 см, баландлиги 55 см, эни 35 см) деярли бир хил. Тошларнинг юқори қисми чети айлантириб жуда нозик ҳошияланган ва усти томони четида шамчироқ учун конуссимон чуқурча ўйилган. Тош тагкурси вазифасини ўтовчи узун, ингичка қорамрамар (эни 15 см, бўйи 17 см) тахталар устига ўрнатилган. Қора мрамартошлар табиий яхлит бўлиб, ичи дўмбирадек (девори қалинлиги 2-3 см) йўниб ўйилган. Бошқа жойда тайёрланиб уловларга ортиш қулайлиги учун унинг чети пармалаб тешилган ва темир-сим ўтказилган. Пистазор ичида булардан ташқари яна 600 га яқин қабр бошига қўйилган ҳар хил шаклдаги қора мрамар тошлар мавжуд[8].

Масжид – юқорида қайд этганимиздек, иккинчи тумшукда жойлашган. Масжид мажмуаси икки хона, айвон ва ҳовлидан иборат бўлиб, бир вақтда қурилган. Биринчиси катта ҳашаматли зал бўлиб, бешта ҳошияланган устунда кўтарилган. Деворлари пишиқ ғиштдан тикланган. Ўртадаги маҳобатли устун Муҳаммад алайҳиссалом, тўрт томондаги устунлар чориёрлар (Абу Бакр, Умар, Усмон, Али)га нисбат бериб қурилган дейишади. Тўрда (қибла) нақшли, юқорисида Қуръондан оятлар битилган меҳроб. Хона эшиги кўш табақали ва ҳошияли.

Ёруғлик ганч панжарали ойнабандлардан тушади.

Иккинчи хонада тўртта устун қурилган вақтда унинг қибла томони очик ва икки зал ораси эшик билан боғланган бўлган, кейинчалик хом ғишт билан беркитилган.

Айвон баландлиги 7 метрли 10 та ёғоч устундан кўтарилган. Ўртадаги 2 таси бир хил, узунасига ўйма ҳошияланган, қолган 7 таси оддий, яна биттаси бошқалардан ажралиб туради, юқори қисми ўйма ҳошияли, уни ғўза дарахтидан тайёрланган дейишади. Устунлар тагида тўртбурчак ва унинг устида ўғир (ҳовонча)симон мрамар тошлар устига кўтарилган. Бундан 170 йил муқаддам ер қимирлаши оқибатида масжидга зиён етган ва Сангардақдан келтирилган қатағон уста томонидан таъмирланган. Масжиднинг очик томони ва икки зални боғловчи эшик ана шу таъмирлаш даврида хом ғишдан терилган. Даҳма-мақбара ва масжид Ўзбекистоннинг ноёб ёдгорликлар гуруҳига киради.

И.Умаров ахборотчилари: Мадилло Ҳайитов (1924), Тош Кенжаев (1920), Саъдулло Зиётов (1941) ва бошқалар Лангар ота ҳақида сўзлаб берган ривоятга кўра, мақбара ичкарасидаги усти ганч билан сувалган қабр отаси билан мрамартошни филда ташиб келинишини кўришга келиб, шу ерда вафот этган Балх ҳокими қизининг қабри, Худойдод оёғи учидаги гўр унинг халифаси Шокирнинг, мақбара ташқарисида жойлашган супадаги 6 аёл қабрининг бири Хитой ҳукмдори қизининг қабридир. Қора мрамартош қопланган 17 та гўр Саййид Ҳасандан кейин ўтган саййид ва йирик бойларнинг қабридир[9].

ХУЛОСА. Бухоро амирлигининг жануби-шарқий ҳудудларида ислом архитектураси ахлоқий-эстетик тамойилларни нафақат қурилиш меъморчилиги, балки миллий ва диний қадриятлар орқали ҳам намоён қилади. Ушбу архитектура минтақанинг маданий ва диний меросини ўрганиш учун муҳим манба бўлиб, глобал даражада ислом санъатининг ёрқин намунаси сифатида қадрланади. Бу обидалар халқни ахлоқий поклик ва фазилатларга ундашда муҳим рол ўйнайди. Ушбу мавзунинг тадқиқ этиш минтақанинг маданий ва диний меросини чуқурроқ англаш имконини беради. Ушбу мавзу ахлоқий ва эстетик қадриятларнинг тарихий

илдизларини ўрганиш орқали бугунги жамият учун янги маънолар кашф этишга хизмат қилади.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Фарҳанги забони тожики. I том. – Б. 593.
2. Навоий асарлари учун қисқача луғат. – Б. 142.
3. Нафасов Т. Қишлоғингиз нега шундай аталган? – Б. 62.
4. Семенов А.А. Происхождение Термезских сейидов и их древняя усыпальница Султан-Садат. – С. 18.
5. 200-236-рақамли Термизий алломалар тўғрисида батафсил қаранг: Турсунов С., Муртазов Б., Алланов О. Термизий алломалар. 2015. – Б. 206-224.
6. Белявский Н.Н. Описание обрекогносцированного участка, заключающего пройденные пути в пределах Шаар-Сабиз Гузарского бекства и части нагорной Дербентской возвышенности // Сборник географических, топографических и статистических материалов по Азии. Вып. LVII, 1894, стр. 108-112.
7. Семенов А.А. Происхождение Термезских сейидов и их древняя усыпальница Султан-Садат. – С. 18.
8. 200-236-рақамли Термизий алломалар тўғрисида батафсил қаранг: Турсунов С., Муртазов Б., Алланов О. Термизий алломалар. 2015. – Б. 206-224.
9. Белявский Н.Н. Описание обрекогносцированного участка, заключающего пройденные пути в пределах Шаар-Сабиз Гузарского бекства и части нагорной Дербентской возвышенности // Сборник географических, топографических и статистических материалов по Азии. Вып. LVII, 1894, стр. 108-112.



Qabul qilindi: 15.04.2025

Chop etildi: 31.05.2025

UDK: 94 (575.1)

MUSTAQILLIK YILLARIDA SURXHONDARYO VILOYATI DAVRIY MATBUOTI

*Yo'ldosheva Zubayda Hamidovna, Termiz davlat pedagogika instituti
o'qituvchisi*

PERIODICAL PRESS OF SURKHONDARYA REGION IN THE YEARS OF INDEPENDENCE

*Yuldasheva Zubayda Hamidovna, Teacher of Termez State
Pedagogical Institute*

ПЕРИОДИЧЕСКАЯ ПЕЧАТЬ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

*Юлдашева Зубайда Хамидовна, преподаватель Термезского
государственного педагогического института*

Annotatsiya: O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ommaviy axborot vositalari, xususan, matbuot mamlakat hayotidagi o'zgarishlar va amalga oshirilayotgan islohotlar haqida aholiga ma'lumot yetkazishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Surxondaryo viloyatida ham har bir tuman o'z gazetasiga ega bo'ldi. Bu nashrlarda ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy o'zgarishlar muntazam berib borildi.

Kalit so'zlar: matbuot, gazeta, "Boysun ovozi", "Sherobod", "Chag'oniyon", "Chegara zarbdori", "Sariosiyo haqiqati".

Abstract: After Uzbekistan gained independence, the media, in particular the press, played a crucial role in informing the population about the changes in the life of the country and the reforms being implemented. In Surkhondaryo region, each district also had its own newspaper. These publications regularly reported on socio-political and spiritual changes.

Keywords: press, newspaper, "Voice of Boysun", "Sherobod", "Chagoniyon", "Chegara zarbdori", "Sariosiyo haqiqati".

Аннотация: После обретения Узбекистаном независимости средства массовой информации, в частности пресса, сыграли важнейшую роль в информировании населения об изменениях в жизни страны и проводимых реформах. В Сурхандарьинской области каждый район также имел свою газету. Эти издания регулярно сообщали о социально-политических и духовных изменениях.

Ключевые слова: пресса, газета, «Голос Бойсуна», «Шеробод», «Чагониён», «Чегара зарбдори», «Сариосиё хақиқати».

KIRISH. Mustaqilligimizning dastlabki yillarida milliy matbuotning o'рни ancha muhim bo'ldi, chunki aholiga mavjud tuzum va bo'layotgan islohotlar haqida ma'lumot beradigan asosiy vosita bu ommaviy axborot vositalari edi, shu sababdan, dastlab, kommunistik mafkuraviy nomlar bilan atalgan gazetalar va jurnallar nomi mahalliy-lashtirilib, yangi nom va tahrirda chop etila boshlandi. Deyarli har bir tumanning o'zining gazetalari chop etiladi va ularning dastlabki sahifalarida mahalliy hokimliklarning kengashlarida tasdiqlanayotgan qarorlar berib borilar edi.

MUHOKAMA. Surxondaryo tumanlari bo'yicha gazetalardan Boysun tumanining "Boysun ovozi", Sherobod tumanining "Sherobod", Denov tumanining "Chag'oniyon", Jarqo'rg'on tumanining "Chegara zarbdori" (birinchi muharriri Orifjonov (1932-1935-yy) va Sariosiyo tumanining "Sariosiyo haqiqati" 1932-yildan, Sho'rchi tumanining "Yangi hayot" 1936-yildan, Angor tumanining "Ilg'or" 1954-yildan, Muzrabot tumanining "Mehnat zafari" 1969-yildan, Qiziriq tumanining "Qiziriq tongi" 1975-yildan, Qumqo'rg'on tumanining "Mehnat sharafi" ("Qumqo'rg'on sadosi") 1978-yildan, Oltinsoy tumanining "Oltinsoy tongi" 1986-yildan,



<https://orcid.org/0009-0008-8258-376X>

e-mail:

zyuldasheva74@gmail.com

Uzun tumanining “Bobotog‘ tongi” 1991-yildan nashr qilib kelinmoqda[1].

Vohaning muhim gazetalaridan biri bu “Qumqo‘rg‘on sadosi” gazetasi hisoblanadi. Gazetaning ilk nashrlarining chiqib boshlashi esa 1978-yildan boshlangandir. Gazeta bugungi kunda Xalq deputatlari Qumqo‘rg‘on tumani kengashi va tuman hokimligining nashri hisoblanadi. Gazeta O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi viloyat hududiy boshqarmasi tomonidan 2012-yil 12-fevralda №11-042 raqam bilan ro‘yxatga olingan[2]. Bugungi kunda gazetada bosh muharrir sifatida Rayhon Mengniyozova ishlamoqda.

Deyarli har bir tumanning o‘z nashri bo‘lganidek, Angor tumanining o‘zining siyosiy va iqtisodiy hamda jamiyat hayotini yorituvchi gazetasi mavjuddir. Bu xalq deputatlari Angor tuman Kengashi va tuman hokimligining gazetasi “Angor yog‘dusi” nomli ijtimoiy-siyosiy gazetasi. “Angor yog‘dusi” ijtimoiy-siyosiy gazetasi 1980-yil 26-noyabrdan chiqa boshlagan va hozirgi kunda ham haftada bir marta chiqib turadi, gazeta uzoq yillar mobaynida tumanning asosiy xabarlarini yorituvchi matbuot sifatida faoliyat yuritgan. Gazeta viloyat Matbuot va axborot hududiy boshqarmasidan 2012-yil 6-dekabrda №11-054 raqami bilan ro‘yxatdan o‘tgan[2].

Boysun tumanining davriy matbuot nashri 1932-yil 1-maydan beri nashr etiladigan “Boysun” gazetasi. Gazetada Boysun tuman Kengashi va tuman hokimligi sessiyalarida ko‘rib chiqilgan masalalar va jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy masalalar berib boriladi. Bundan tashqari gazetada Hokimlar va Prezidentning xalqqa yo‘llagan murojaatnomalari ham ijtimoiy tarmqolar rivojlanishidan oldin berib borilgan va hozir ham berib borilmoqda. Hozirgi kunda gazetaning bosh muharriri Xolmurod Qorayevdir. Gazeta viloyat Matbuot va axborot hududiy boshqarmasidan 2012-yil 2-fevralda №11-043 raqami bilan ro‘yxatdan o‘tgan[4].

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach gazeta va jurnallar soni yanada ko‘paydi, ana shunday mustaqillik yillarida chiqa boshlagan gazetalaridan biri bu: “Davr mezoni” gaetasidir. “Davr mezoni” gazetasi vohaning yosh va raqobatbardosh gazetalaridan biridir, sababi gazeta tashkil etilganiga ko‘p bo‘lmaganiga qaramasdan unda nashr etilayotgan maqolalar ancha o‘tkirdir. “Davr mezoni” huquqiy-ijtimoiy, ma‘naviy-ma‘rifiy, madaniy-badiiy gazetasi 2010-yil 30-iyuldan chiqa boshlagan.

Bugungi kungacha 300 dan ko‘proq soni chiqqandir. Gazetaning bosh muharriri To‘ra Rahmonqulovdir. Gazeta viloyat Matbuot va axborot hududiy boshqarmasidan 2010-yil 12-aprelda №11-012 raqami bilan ro‘yxatdan o‘tgan[5].

Denov tumanining ijtimoiy-siyosiy gazetasi bu “Denov ovozi”dir. Gazeta 2012-yil may oyidan chiqa boshlagan. Uning birinchi sahifasi doimiy ravishda siyosiy va mahalliy yangiliklar berib boriladi. Gazetaning birinchi sahifalarida doimiy ravishda mahalliy hokimlikdagi siyosiy masalalari yoritib boriladi. Gazetaning bosh muharriri Sharifa Aliyevadir.

Denov tumanida faoliyat olib borayotgan yana bir muhim gazetalaridan biri bu “Chag‘oniyon” gazetasi. Ushbu gazetda tumanning dastlabki gazetalaridan biridir, gazeta 1932-yildan chiqa boshlagan va hozirgi kunda ham chiqmoqda. Gazetaning bugungi kungacha 11 500 dan ziyod sonlari chiqqan. Gazetaning har galgi sonlari tumandagi ijtimoiy-siyosiy yangiliklar bilan boshlanadi. Uning internetdagi rasmiy sayti chaganiyon@inbox.uz dir. Gazeta Surxondaryo viloyat Matbuot va axborot hududiy boshqarmasidan 2012-yil 10-fevralda №11-045 raqami bilan ro‘yxatdan o‘tgan[6]. Bugungi kunda bosh muharrir vazifasida Mamajonov Sirojiddin faoliyat yuritmoqda.

Surxondaryo viloyatining yana bir ommaviy axborot vositasidan biri bu Termiz shahridan chiqadigan “Janub quyoshi” gazetasi. Gazeta vohaning ijtimoiy-siyosiy gazetasi bo‘lib, 1962-yil 15-iyundan chiqa boshlagan. Gazetada, asosan, Termiz shahri xalq deputatlari Termiz tumani deputatlari sessiyalarini yoritish bilan boshlanadi. Hozirgi kunda gazetaning bosh muharriri sifatida Normurodov Do‘stmurod faoliyat olib bormoqda. Gazeta Surxondaryo viloyat Matbuot va axborot hududiy boshqarmasidan 2012-yil 24-aprelda №11-050 raqami bilan ro‘yxatdan o‘tgan. Gazetaning bugungi kungacha 5300dan ko‘proq soni chiqqan[7].

Jarqo‘rg‘on tumanidagi “Jarqo‘rg‘on” nomli ijtimoiy-siyosiy gazeta Xalq deputatlari Kengashi va tuman hokimligining rasmiy nashridir. Gazeta 1932-yil mart oyida “Jarqo‘rg‘on haqiqati” nomi bilan chiqa boshlagan. Gazetada Jarqo‘rg‘on tuman Kengashi va tuman hokimligi sessiyalarida ko‘rib chiqilgan masalalar va tumanda sodir bo‘layotgan jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy masalalar, huquqiy masalalar va maslahatlar, ma‘muriy sohada qilinayotgan o‘zgarishlarni yoritadi. Hozirgi kunda

Alisher Payanov uning bosh muharriri vazifasida ishlamoqda. Gazeta Surxondaryo viloyat Matbuot va axborot hududiy boshqarmasidan 2012-yil 6-yanvarda №11-041 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan[8].

Xalq deputatlari Sariosiyo tuman Kengashi va tuman hokimligining rasmiy gazetasi "Sariosiyo" gazetasidir. Gazeta 1932-yildan "Sariosiyo haqiqati" nomi bilan chiqa boshlagan. Gazeta Surxondaryo viloyat Matbuot va axborot hududiy boshqarmasidan 2012-yil 31-iyulda №11-053 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan. Bugungi kungacha gazetaning jami 8000 dan ko'proq soni chiqqan bo'lib, hozirgi kunda bosh muharrir lavozimida Azizov Abbas Rajabaliyevich ishlamoqda[9].

Sherobod tuman Kengashi va hokimligining rasmiy nashri "Sherobod hayoti" gazetasidir. Unda asosan, tuman Kengashi sessiyalari, vohadagi ijtimoiy-siyosiy yangiliklar, jamiyat hayotidagi o'zgarishlar, huquqiy masalalar ham yoritiladi. Hozirgi kunda gazetaning bosh muharriri sifatida Muhammadiyev Parda faoliyat olib bormoqda. Gazeta Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasidan 2020-yil 11-fevralda №11-075 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan[10].

Xalq deputatlari Oltinsoy tuman Kengashi va tuman hokimligining rasmiy nashri "Xalq va hayot" gazetasidir. Gazeta 1986-yil 1-maydan chiqa boshlagan. Hozirgi kungacha 2600 dan ko'proq sonlari chiqqan. Gazetada, asosan, Oltinsoy xalq deputatlari Oltinsoy tumani deputatlari kengashi sessiyalarini yoritish bilan boshlanadi. Hozirgi kunda gazetaning bosh muharriri sifatida Temirov Normurod faoliyat olib bormoqda. Gazeta Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasidan 2017-yil 7-avgistda №11-072 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan[11].

Mustaqillik yillarida chiqa boshlagan davriy nashrlardan biri bu "Tashrif" ijtimoiy-siyosiy gazetasidir. Uning birinchi soni 2015-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan. Gazetada Surxon vohasida bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy yangiliklar, undagi maqolalarda viloyatda bo'layotgan huquqiy, siyosiy, ma'naviy o'zgarishlar bilan yoritib boriladi. Rasmiy elektron pochta manzili *tashrif-gzt@mail.ru*. Bosh muharriri Husniddin Temirovdir. Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Surxondaryo viloyat hududiy boshqarmasidan 2016-yil 12-aprelda №10-065 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan[12].

Surxondaryo viloyatida tashkil etilgan yana bir bosma nashr "Surxondaryo sadosi" ijtimoiy-siyosiy gazetasidir. Gazeta 2018-yil 9-noyabrda viloyat Matbuot va axborot boshqarmasida №11-006 raqam bilan ro'yxatdan o'tgan[13]. Birinchi soni esa 2019-yil 18-yanvardan chiqa boshlagan. Gazetaning bugungi kundagi muharriri Oltiboyev O'ral O'tanovichdir.

XULOSA. XXI asrda shiddat bilan o'zgarib borayotgan ommaviy axborot vositalarining faoliyat ko'lami, inson va jamiyat hayotiga ta'siri misli ko'ril-magan darajada kuchayib bormoqda. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat bo'lib, jahonga yuz tutayotgan bir davrda matbuot hozirgi davrning dolzarb masalalarini yoritishda salmoqli hissa qo'shib keldi. O'tmishda hech qanday nashrga ega bo'lmagan vohamizda bugungi kunda 7 ta teleradiokanal, 32 ta bosma nashr faoliyat yuritib kelmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abduazimova N.A. Mustaqil O'zbekiston jurnalistikasi tarixi. T.: Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, 2007.
2. T.M.Qozoqboyev, M.Xudoyqulov. Jurnalistika-ga kirish. - T.: Iqtisod-Moliya, 2018. 53-bet.
3. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 1091-fond, 1-ro'yxat, 56-ish, 27-varaqlar.
4. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 1091-fond, 1-ro'yxat, 2108-ish, 83-85-varaqlar.
5. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 1091-fond, 1-ro'yxat, 2164-ish, 60-62 varaqlar.
6. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 1091-fond, 1-ro'yxat, 2108-ish, 23-varaq.
7. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 1091-fond, 1-ro'yxat, 1969-ish, 35-varaq.
8. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 1091-fond, 1-ro'yxat, 2108-ish, 59-varaq.
9. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 1091-fond, 1-ro'yxat, 2108-ish, 183-varaq.
10. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 1091-fond, 1-ro'yxat, 2106-ish, 12-varaq.
11. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 1091-fond, 1-ro'yxat, 2132-ish, 24-varaq.
12. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 1091-fond, 1-ro'yxat, 3312-ish, 46-47 varaqlar.
13. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 1091-fond, 1-ro'yxat, 2863-ish, 87-varaq.
14. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 1091-fond, 1-ro'yxat, 2796-ish, 55-56 varaqlar.
15. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 1091-fond, 1-ro'yxat, 3018-ish, 29-varaq.

BOYSUNLIK MUDARRISLAR

Tojiyev Jasur Alisher o'g'li, Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

TEACHERS FROM BOYSUN

Tojiyev Jasur Alisher oglu, teacher at Termez State Pedagogical Institute

УЧИТЕЛЯ ИЗ БОЙСУНА

Тоджиев Джасур Алишер оглы, преподаватель Термезского государственного педагогического института

Annotatsiya: Maqola Mulla Xudoyberdi Boysuniyning innovatsion g'oyalari, diniy va dunyoviy bilimlarni birlashtirishga intilishi, bu yo'lda chekkan qiyinchiliklari, shuningdek, Mulla Do'st Nodir Boysuniyning ilm yo'lidagi matonati va jamiyatdagi mavqeyi haqida batafsil ma'lumot beradi. Bu ikki boysunlik mudarrisning merosi mintaqa ma'rifatparvarlik harakatiga qo'shgan muhim hissasi sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: Mulla Xudoyberdi Boysuniy, Mulla Do'st Nodir Boysuniy, Hududiya madrasasi, din va dunyoviy fanlar, mudarris.

Abstract: The article provides detailed information about the innovative ideas of Mulla Khudoyberdi Baysuni, his desire to combine religious and secular knowledge, the difficulties he faced on this path, as well as Mulla Do'st Nodir Baysuni's perseverance in the path of knowledge and his position in society. The legacy of these two Baysuni mudarris is considered an important contribution to the regional enlightenment movement.

Keywords: Mulla Khudoyberdi Baysuni, Mulla Do'st Nodir Baysuni, Khududiya madrasah, religion and secular sciences, mudarris.

Аннотация: В статье дается подробная информация о новаторских идеях Муллы Худойберди Байсуни, его стремлении объединить религиозные и светские знания, трудностях, с которыми он столкнулся на этом пути, а также о настойчивости Муллы Дуст Нодира Байсуни на пути знаний и его положении в обществе. Наследие этих двух мударрисов Байсуни считается важным вкладом в региональное просветительское движение.

Ключевые слова: Мулла Худойберди Байсуни, Мулла Дуст Нодир Байсуни, медресе Худудия, религия и светские науки, мударрис.



<https://orcid.org/0009-0008-1123-456X>

e-mail:

tojiev4j@gmail.com

KIRISH. Boysun zamini azal-azaldan ilma-ma'rifat o'choqlari, buyuk allomalar va fozil insonlar yurti bo'lib kelgan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Boysundan yetishib chiqqan mudarrislar nafaqat o'z hududida, balki butun Buxoro amirligi miqyosida ham katta nufuzga ega bo'lishgan. Ular o'z davrining dolzarb muammolariga yechim izlab, ta'lim tizimini isloh qilish, yangi fanlarni joriy etish va erkin fikrlashni targ'ib qilish yo'lida mardona kurashganlar. Ushbu maqolada Boysunning ana shunday ilg'or fikrli, jasur va ilmga tashna ikki farzandi – Mulla Xudoyberdi Boysuniy va Mulla

Do'st Nodir Boysuniyning hayoti, faoliyati va ularning ma'rifiy merosi haqida so'z yuritimiz.

MUHOKAMA. Mudarris (arab. — dars beruvchi) — Madrasa o'qituvchisi. Mudarrislar o'qitiladigan muayyan fandan dars bergan. Hozir xorijiy Sharq mamlakatlari, shuningdek, O'zbekistondagi Madrasa va diniy universitetlarda faqat diniy ilmlardan emas, dunyoviy fanlardan dars beruvchilar ham Mudarris deb ataladi[5].

O'quv jarayonini tashkil etish odatda, mudarrislarining zimmasida bo'lib, ular quyidagi uch toifaga bo'lingan: birinchi toifa - a'lo darajali

mudarrislar deb atalgan ularga qozi ul-quzzot, raisi kalon, shayx ul-islom, oxun, a'lam, mufti askar kirgan. Ikkinchi toifa — o'rtada darajali mudarrislar deb atalgan. Bu toifadagi mudarrislar kiygan kiyimlariga qarab banoraspush va beqasampush deb atashgan. Bilim jihatidan esa ushbu toifaga chiqqan mudarrislar muftiy darajasiga erishganlar. Mazkur toifadagi mudarrislar taxminan 200 nafar bo'lib, ularni yana avsata tadrisiy – o'rtada mudarrislar deb ham ataganlar.

Uchinchi toifa — quyi darajadagi mudarrislar hisoblanib, ularni asfol tadrisiy deb atashgan. Ushbu toifadagi mudarrislar imom mudarrislar, ba'zan beqasambapush deb ham atalgan. Imom mudarrislar soni 300 dan ortiqroq bo'lgan. Madrasalar mudarrislar (madrasada tahsil oluvchi talabalarga dars bergan, ma'ruza qilgan) soni ularda ta'lim oluvchilar soniga qarab belgilangan. Buxoro madrasalarida dars beruvchi mudarrislar soni XX asr boshlarida taxminan 800 nafar deb ko'rsatiladi[1].

Boysunning Tuzbozor mahallasiga kiraverishda, bugungi kunda "Samo" kinoteatri o'rnida, 1870-yilda Buxoro amiri Muzaffarxon farmoni bilan me'moriy ahamiyatga ega bo'lgan "Hududiya" madrasasi qad rostlagan. Ushbu ta'lim maskanining bunyod etilishidan biroz o'tib, amir Abdulahadxon hukmronligi davrida ikkinchi madrasa qurilgan va bu ikki bino qo'sh madrasa nomi bilan mashhur bo'lgan. Bu majmuaning o'ziga xos tuzilishi bo'lib, markaziy hovlida yopiq, gumbazli sardoba (suv ombori) joylashgan edi. "Hududiya" madrasasida Mullo Xudoyberdi Boysuniy, Mullo Hol Oxund, Mirzo Abduholiq singari mudarrislar ilm-fan va tahlil bilan shug'ullanganlar[3].

Mulla Xudoyberdi Boysuniy, Boysunda dunyoga kelgan bo'lib, Buxoro shahridagi madrasada ta'lim oldi. U tezda o'z davrining yetakchi mudarrislaridan biri bo'lib, keng tanilgan ilm sohibiga aylandi. Niyozquli nomli madrasada talabalarga saboq bergan Mulla Xudoyberdi Boysuniy alohida hurmat va e'tiborga sazovor bo'lgan. O'zbekiston Milliy universiteti professori Begali Qosimovning ta'kidlashicha, amir Abdulahad ushbu madrasaga juda e'tiborli bo'lgan, hatto ba'zi mudarrislarining janozalarida shaxsan ishtirok etgan. Bundan tashqari, bu madrasa faqat eng kuchli, bilimdon va har tomonlama yetuk mudarrislarini tanlab olgan. Ular faqat dars berish bilan cheklanib qolishmagan, balki mavjud eskirgan o'qitish usullarini dadil tanqid qilib, ulardan voz kechishga

chaqirishgan. Shuningdek, ular o'qitishning yangi, ilg'or usullarini targ'ib qilib, maktab va madrasalarni isloh qilish g'oyasini olg'a surishgan. Mulla Xudoyberdi Boysuniy ana shunday islohotchi (reformator) mudarrislar qatorida salmoqli o'ringa ega bo'lgan. Uning safdoshlari Mulla Fozil G'ijduvoni, Abdulla Xo'jandiy, Mo'minxo'ja Vobkandiy, Xo'ja O'zbeklarning qarashlari va g'oyalari o'zbek, tojik, turkman va tatar talabalariga katta ta'sir ko'rsatgan.

Buyuk ma'rifatparvar va ilm-fan namoyandasi Shaxobiddin Marjoniy (1818-1889) o'zining nodir ilmiy asari — "Kitobi mustafad al-axbor fi ahvoli Qozon va Bulg'or" ("Qozon va Bulg'orning ahvoli xususida foydalanilgan xabarlar")ning 42-43-sahifalarida qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Unda Marjoniyning hijriy 1254-60-yillarda (milodiy 1838-1844-yillar atrofida) Buxoroning nufuzli ta'lim maskanlaridan biri bo'lgan Xalifai Niyozquli madrasasida tahsil olganligi bayon etiladi. U ushbu dargohda Abdulla Xo'jandiy, Mulla Fozil G'ijduvoni, Xo'ja binni O'zbek, al-Afsanjiy va alohida ehtirom bilan Hoji Mulla Xudoyberdi Boysuniy kabi buyuk olimlardan ilm o'rganganini ta'kidlaydi. Bu qaydlarda g'oyat muhim bir jihat diqqatimizni tortadi: Mulla Xudoyberdi Boysuniyning "Hoji" unvoni bilan zikr etilishi. Bu fakt, Boysuniyning muqaddas haj safarini ado etganini va shu bilan "hoji" sharaflini unvonini olganini shubhasiz tasdiqlaydi. Ko'plab manbalar va diniy an'analar tahliliga ko'ra, ushbu muborak ziyorat Mulla Xudoyberdi Boysuniyning umrining so'nggi yillarida, ya'ni keksaygan chog'ida amalga oshirilgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Zero, musulmon olamida haj ibodati ko'pincha hayotning yetukroq davriga to'g'ri keladi va bu ruhiy-ma'naviy tayyorgarlikni ham talab qiladi.

Ma'rifatparvar olim Sh.Marjoniy, G'ijduvonlik Fozil domla, Mo'min Xo'ja Vobkandiy va Mulla Xudoyberdi Boysuniy kabi mudarrislar ta'lim tizimini isloh qilish tashabbuskorlari bo'lishgan. Ularning asosiy maqsadi keraksiz darslarni bekor qilish, maktab va madrasalarda o'qitish jarayoniga yangiliklar kiritishdan iborat edi. Bu islohotchilarning dasturida oltita muhim masala ilgari surilgan:

1. Qur'oni Karimdagi diniy masalalarni odamlar erkin tushungan holda fikr yuritishlari ta'minlansin.
2. Shaxslarning boshqalarga ko'r-ko'rona ergashishi qat'iy man etilsin.

3. Madrasalardagi “hoshiya” va “sharh” kabi quruq mazmunli va talabalarning 8-10 yilini bekorga oluvchi, foydasiz darslar o‘quv dasturidan chiqarib tashlansin.

4. Madrasalarda Qur’oni Sharif va hadislarining tarjimalari, shuningdek, islom tarixi kabi muhim fanlar o‘qitilsin.

5. Arifmetika, tarix, jug‘rofiya (geografiya), tabobat (tibbiyot), handasa (geometriya), mantiq, falsafa va boshqa dunyoviy fanlarni o‘qitishga qarshilik ko‘rsatilmasin.

6. Islom dinini Muhammad payg‘ambar davridagi asl islom madaniyatiga qaytarish[3].

7. Erkin fikrlarni ilgari surish va bunday g‘oyalarni ommaga chiqish hech qachon oson bo‘lmagan. Bunday harakatlar asrlar davomida shakllangan qoidalarga kuchli zarba berardi. Shu sababli, bu kabi chiqishlar “shakkoklik” deb hisoblanib, qattiq jazo va shafqatsizlik bilan qarshi olinardi. Mulla Xudoyberdi Boysuniy bu xavflarni tushungan va o‘z safdoshlari bilan bunga tayyor edi. Demak, Mulla Xudoyberdi va uning hamfikrlari jur‘atli, mard va jasur insonlar bo‘lganlar. Amirning keskin qarshiligiga duch kelgan Mulla Xudoyberdi Boysuniy, domla Fozil G‘ijduvoni va Mo‘minxo‘ja Vobkandiy qamoqqa tashlanib, qattiq jazolarga tortildilar. Marjoniy esa Buxoroni tark etib, Qozonga jo‘nab ketishga majbur bo‘ldi. Zindonga tashlangan Mulla Xudoyberdi va uning safdoshlariga amirning buyrug‘i bilan orqalariga 75 darra urilgach, ular tavba qilishga majburlandi va o‘z faoliyatlarini davom ettirmaslikka qasam ichishga undaldi. Ushbu voqea ularning mudarrislikdan butunlay chetlatilishi bilan yakunlandi. Professor Begali Qosimov o‘zining “Salom, kelajak” asarida Shaxobiddin Marjoniy haqida yozar ekan, uning zabardast ustozlaridan biri sifatida Mulla Xudoyberdi Boysuniyni alohida eslab o‘tadi. Uni jahongashta va kitob shaydosi deb ta’riflaydi. Shuningdek, ilm yo‘lida “mujarrad”, ya’ni oila qurmay, tanholikda umr kechirganligini ham qayd etadi. Professor Begali Qosimov Mulla Xudoyberdi Boysuniyning vafot yilini 1847-yil deb ko‘rsatganligi bois, bu sanaga qariyb 150 yil to‘lganligi ma’lum bo‘ladi. Asli Boysunlik Buxoroi Sharifda shuhrat qozongan, islohotchi Mulla Xudoyberdi Boysuniy shon-sharafga burkangan ajdodlarimiz orasida eng faxrli o‘rinlardan birini egallaydi.

XIX asrning o‘rtalarida, bugungi Rabot qishloq yig‘inidagi Ko‘chkak qishlog‘ida Mulla Do‘st Nodir Boysuniy dunyoga kelgan. U oilada uchinchi farzand bo‘lgan. Otasi usta Qosim hunarmand (kosib) bo‘lsa-da, ilm-ma’rifatning qadr-qimmatini chuqur anglaganligi sababli, o‘g‘lining savodini chiqarishi va puxta bilim egallashi uchun barcha sharoitlarni yaratib bergan. Mulla Do‘st Nodir Boysuniy dastlab ona qishlog‘ida boshlang‘ich ta’lim olib, so‘ngra Boysundagi madrasada o‘qishini davom ettirgan. Keyinchalik, bilimni yanada oshirish maqsadida ilm markazi bo‘lgan Buxoroi Sharifga yo‘l oladi va u yerda madrasa tahsilini yakunlab, adabiy ijod bilan ham mashg‘ul bo‘ladi. U ilmda yuqori darajalarga erishib, yirik ulamo bo‘lib yetishadi va hayotining keyingi qismini Buxoroda o‘tkazadi. Dastlab madrasada mudarris (o‘qituvchi), keyinchalik esa qozi (sudya) lavozimlarida xizmat qiladi. U o‘zining chuqur bilimi, o‘tkir zakovati va nazmiy asarlari bilan keng jamoatchilik orasida mashhur bo‘ladi. Mulla Do‘st Nodir Boysuniy Buxoro amiri Abdullaxonning saroyida ham faoliyat yuritgan, bu uning jamiyatdagi mavqeyi yuqori bo‘lganidan dalolat beradi. U “Nodir” va “Mulla Do‘st Nodir” taxalluslarida go‘zal she’rlar yozgan. Taniqli adib Sadridin Ayniyning yozma manbalariga ko‘ra, Mulla Do‘st Nodir Boysuniy 1923-yilda vafot etgan. Uning ilmiy va adabiy merosi bugungi kunda ham tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilmoqda.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, Boysun zaminidan yetishib chiqqan bu ikki ulug‘ zot – Mulla Xudoyberdi Boysuniy va Mulla Do‘st Nodir Boysuniy – o‘z davrida ilm-ma’rifat, ta’lim islohotlari va adabiyot rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan, jamiyat taraqqiyoti uchun kurashgan fidoyi shaxslardir. Ularning qoldirgan boy merosi bugungi kunda ham o‘rganishga va qadrlashga arziydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Bobojonova Feruza. Buxoro amirligida ta’lim tizimi (XIX asr oxiri — XX asrning boshlari) // - Toshkent: Adib nashriyoti, 2014. 128 b.
2. Abdusattor Jumanazar. Buxoro ta’lim tizimi tarixi. Toshkent. 2017. - B. 55.
3. Tursunov S., Rashidov Q. Boysun. Toshkent: Akademhashr, 2011. –B. 560.
4. Хаников. Н. Описание Бухарского ханства. СПб. 1843. - С. 211-213.
5. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/mudarris-uz/>

ПРОЗВИЩА КАК КАРТИНА ВЕДЕНИЯ МИРА; ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Морозова Анастасия Владимировна

Термезский государственный педагогический институт

TAXALLUSLAR DUNYOQARASH MANZARASI SIFATIDA: LINGVOKULTUROLOGIK TAHLIL


Morozova Anastasiya Vladimirovna

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

NICKNAMES AS A REFLECTION OF WORLD PERCEPTION: LINGUOCULTURAL PERSPECTIVE

Morozova Anastasiya Vladimirovna

Teacher at Termez State Pedagogical Institute



e-mail:

anasteywa555@gmail.com

[Orcid: 0009-0002-4277-](https://orcid.org/0009-0002-4277-3469)

[3469](https://orcid.org/0009-0002-4277-3469)

Аннотация: В статье рассматриваются прозвища как важный элемент лингвокультурной картины мира. Прозвища исследуются с точки зрения их семантики, прагматики и культурной обусловленности. Выявляются сходства и различия в функционировании прозвищ в русском и английском языках, а также подчеркивается их роль в отражении народной классификации, ценностей и социального порядка.

Ключевые слова: прозвища, лингвокультурология, картина мира, национальная специфика, семантика, прагматика, культурная обусловленность, фольклор, народная классификация, социальная идентичность.

Annotatsiya. Maqolada taxalluslar lingvokulturologik dunyoqarashning muhim unsuri sifatida ko'rib chiqiladi. Taxalluslar ularning semantikasi, pragmatikasi va madaniy asoslanganligi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Rus va ingliz tillaridagi taxalluslarning funksional xususiyatlaridagi o'xshashlik va farqlar aniqlanadi hamda ularning xalqona tasnif, qadriyatlar va ijtimoiy tartibni aks ettirishdagi o'rni ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: taxalluslar, lingvokulturologiya, dunyoqarash, milliy xususiyat, semantika, pragmatika, madaniy shartlanganlik, folklor, xalqona tasnif, ijtimoiy identifikatsiya

Abstract. The article examines nicknames as an important element of the linguistic and cultural worldview. Nicknames are analyzed in terms of their semantics, pragmatics, and cultural conditioning. Similarities and differences in the functioning of nicknames in the Russian and English languages are identified, and their role in reflecting folk classification, values, and social order is emphasized.

Keywords: nicknames, linguoculturology, worldview, national specificity, semantics, pragmatics, cultural conditioning, folklore, folk classification, social identity.

ВВЕДЕНИЕ

(KIRISH/INTRODUCTION). Язык не только отражает действительность, но и формирует её восприятие. Одним из ярких проявлений народного мировоззрения являются прозвища — неофициальные, зачастую образные наименования, которые используются в повседневной коммуникации. В них находят

выражение отношение общества к личности, её социальная роль, особенности поведения и внешности.

Лингвокультурологический анализ прозвищ позволяет проследить, какие ценности и установки лежат в основе национальной картины мира [1].

Одним из ключевых понятий современной лингвокультурологии является

«картина мира» — совокупность представлений, через которые человек осмысляет действительность. Важной частью этой картины являются именованья, в том числе прозвища — неофициальные наименования, отражающие оценку, отношение и интерпретацию личности в рамках конкретного социума. Прозвища могут многое рассказать о национальных стереотипах, культурных кодах и способах классификации окружающего мира.

ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД (ADABIYOTLAR TANIHLI VA METOD/MATERIALS AND METHODS).

Цель исследования — выявить лингвокультурные особенности прозвищ как средства отражения картины ведения мира в русском и английском языках.

Задачи исследования:

Охарактеризовать прозвище как лингвокультурный знак.

Исследовать функции прозвищ в социальной коммуникации.

Материалом послужили аутентичные корпуса прозвищ (школьных, тюремных, военных, политических, сетевых), собранные из лингвистических и этнографических источников, англоязычных и русскоязычных форумов, художественных текстов и словарей прозвищ.

В исследовании были использованы следующие методы: сопоставительный анализ, лингвокультурный и семантический анализ, а также метод концептуального моделирования.

ОБСУЖДЕНИЕ (MUHOKAMA/DISCUSSION). Прозвища, или неофициальные имена, сопровождают человека в разных сферах жизни — от детства и школы до профессионального круга и интернет-коммуникации. Они формируются спонтанно, часто содержат оценку и представляют собой важный элемент лингвокультурной картины мира. Изучение прозвищ позволяет заглянуть в механизмы восприятия личности, проявления групповой идентичности и отражения культурных кодов [2].

Прозвища, или неофициальные имена, сопровождают человека в разных сферах

жизни — от детства и школы до профессионального круга и интернет-коммуникации. Они формируются спонтанно, часто содержат оценку и представляют собой важный элемент лингвокультурной картины мира.

Изучение прозвищ позволяет заглянуть в механизмы восприятия личности, проявления групповой идентичности и отражения культурных кодов. Верещагин — исследовали язык как средство репрезентации культуры. А.В. Суперанская — анализировала антропонимы, включая прозвища, с точки зрения их структуры и функций. В.Н. Серов — рассматривал прозвища как культурные тексты. David Crystal и Deborah Tannen освещали аспекты употребления прозвищ в английском языке в контексте социокультурной динамики [3].

Прозвища исследуются с позиций их семантики, прагматики, а также культурной обусловленности. Показано, что прозвища выполняют идентификационные, аксиологические и социорегулятивные функции, отражая народную классификацию и ценностные ориентиры общества. Освещаются основные научные подходы к изучению прозвищ и даётся обзор ключевых трудов в этой области.

Прозвище представляет собой лексическую единицу, маркированную в культурном и социальном аспектах. Оно отражает значимые черты носителя (внешность, поведение, происхождение, черты характера) через призму общественного восприятия. Например:

Русские прозвища: Лысый, Шустряк, Кавказец, Староста

Английские прозвища: Tiny, Red, Tex, Queen Bee [4].

РЕЗУЛЬТАТЫ (NATIJARLAR/RESULTS). Каждое прозвище выполняет не только идентификационную, но и аксиологическую функцию: оно оценивает и маркирует поведение как соответствующее/отклоняющееся от нормы.

Народная онтология: типизация через прозвища. Прозвища структурируют реальность, задавая шаблоны восприятия. К примеру: Медведь (силовой, грубый тип

мужчины) — в русском фольклоре; Fox (хитрая или привлекательная женщина) — в англоязычном дискурсе. Так формируются устойчивые культурные архетипы: «сильный», «умный», «хитрый», «смешной», «чужой». Эти прозвища одновременно

включают и обобщают отдельного человека в категорию [5].

Несмотря на универсальные типы прозвищ (зооморфные, метафорические, телесные, географические), существует культурно-специфическая интерпретация:

Тип прозвища	Русский язык	Английский язык
Зооморфное	Волк, лиса	Fox, Bear
По внешности	Косой, толстяк	Slim, Shoty
По поведению	Тихоня, Рембо	Joker, Psycho
Географическое	Сибиряк	Tex, Brooklyn

Прозвища выполняют в обществе ряд важных функций. Социально-регулятивная функция заключается в установлении статуса, иерархии и принадлежности к определённой группе. Аксиологическая функция выражает оценку, поощрение или наказание. Идентификационная функция помогает быстро и точно распознать индивида внутри коллектива. Мнемоническая функция способствует лучшему запоминанию за счёт яркого, образного характера прозвища [6].

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

(XULOSA/CONCLUSION). Прозвища — неотъемлемая часть лингвокультурной картины мира. Через них проявляется народная классификация людей, ценностные установки общества, отношение к «другому». Их изучение позволяет глубже понять механизм языковой репрезентации социального знания и структуру культурных кодов нации. Прозвища — это важный феномен на стыке языка и культуры. Их изучение позволяет глубже понять структуру лингвокультурной картины мира, механизмы социальной типизации и особенности коллективного мышления. Современные исследования подчеркивают необходимость комплексного подхода, включающего

лингвистический, социокультурный и когнитивный анализ.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА (ADABIYOTLAR RO'YXATI/ REFERENCES)

1. Allan K., Burrige K. Forbidden Words: Taboo and the Censoring of Language. — Cambridge, 2006.
2. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. — Cambridge University Press, 2003.
3. Halliday M.A.K. Language as Social Semiotic. — Edward Arnold, 1978.
4. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура. — М.: Индрик, 2005.
5. Живой фольклор и прозвищные практики: сб. статей. — М.: РГГУ, 2020.
6. Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. — М.: Наука, 1987.
7. Никитина Т.Г. Прозвища как объект лингвокультурного анализа // Вопросы языкознания. — 2012. №4.
8. Серов В.Н. Прозвища как культурный текст // Вестник МГУ. Серия 9: Филология. — 2010.

**O‘ZBEKISTONNING PARIJ BITIMIGA
QO‘SHILISHI VA GLOBAL IQLIM
O‘ZGARISHLARIGA QARSHI KURASHISH
BO‘YICHA HAMKORLIKNING AHAMIYATI**

Hikmatjon Kenjayevich Avezov

O‘zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti “O‘zbekiston tarixi” kafedrasida tayanch doktoranti



E-mail:

avezovhikmatjon@gmail.com

com

Orcid: 0009-

0000-6829-1252

**UZBEKISTAN'S ACCESSION TO THE PARIS AGREEMENT
AND THE IMPORTANCE OF COOPERATION IN THE
FIGHT AGAINST GLOBAL CLIMATE CHANGE**

Hikmatjon Kenjaevich Avezov

PhD Student (Base Doctoral Researcher), Department of «History of Uzbekistan», Faculty of History, National University of Uzbekistan

**ПРИСОЕДИНЕНИЕ УЗБЕКИСТАНА К ПАРИЖСКОМУ
СОГЛАШЕНИЮ И ЗНАЧЕНИЕ СОТРУДНИЧЕСТВА В
БОРЬБЕ С ГЛОБАЛЬНЫМ ИЗМЕНЕНИЕМ КЛИМАТА**

Хикматдҷон Кенжаевич Аvezов

Базовый докторант кафедры «История Узбекистана», исторический факультет, Национальный университет Узбекистана

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonning Parij bitimiga qo‘shilishi, uning milliy darajadagi majburiyatlari, amalga oshirilayotgan choralar hamda xalqaro hamkorlikning ahamiyati keng yoritiladi. O‘zbekistonning ushbu global tashabbusning muhim ishtirokchisiga aylanishi jarayonida olgan majburiyatlarining bajarilishi bilan bog‘liq ma‘lumotlar xronologik tarzda tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Parij bitimi, xalqaro hamkorlik, issiqxona gazlari, atrof-muhit, iqlim o‘zgarishlari, NDC, yashil energetika.

Аннотация: Данной статье подробно освещается присоединение Узбекистана к Парижскому соглашению, его обязательства на национальном уровне, принимаемые меры, а также важность международного сотрудничества. Хронологически анализируется процесс становления Узбекистана ключевым участником этой глобальной инициативы, особое внимание уделяется выполнению взятых обязательств.

Ключевые слова: Парижское соглашение, международное сотрудничество, парниковые газы, окружающая среда, изменение климата, ОНУВ (Определяемые на национальном уровне вклады), зеленая энергетика.

Annotation: This article provides a comprehensive analysis of Uzbekistan’s accession to the Paris Agreement, its nationally determined commitments, ongoing implementation measures, and the significance of international cooperation. The study chronologically examines Uzbekistan’s transformation into a key participant in this global initiative, with a focus on the fulfillment of its obligations.

Keywords: Paris Agreement, international cooperation, greenhouse gases, environment, climate change, NDC (Nationally Determined Contributions), green energy.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Global iqlim o'zgarishlari XXI asrning eng dolzarb muammolaridan biridir. Atmosferaga issiqxona gazlarining chiqindilari ortib borishi natijasida Yerdagi o'rtacha harorat oshib, iqlimning o'zgarishi global ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikka jiddiy xavf tug'diradi. Ushbu muammoni hal qilish uchun jahon hamjamiyati 2015-yilda Parij bitimini qabul qildi. Ushbu hujjat global haroratni sanoat inqilobidan oldingi davrga nisbatan 2 °C dan oshirmaslik, hattoki 1,5 °C darajagacha cheklash maqsadini belgilaydi [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). O'zbekiston Parij bitimiga 2017-yil 19-aprel kuni imzo chekdi va 2018-yil 27-iyun kuni uni ratifikatsiya qildi [5]. Ushbu qaror iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashishda milliy siyosatni global standartlarga moslashtirish istagining xalqaro hamjamiyat oldidagi o'ziga hos bir namoyishi bo'ldi. Mamlakatimiz Parij bitimi doirasida quyidagi asosiy majburiyatlarni bajarish vazifasini oldi:

Issiqxona gazlari va sanoat tarmoqlarining atmosferaga chiqaradigan chiqindilari miqdorini kamaytirish maqsadida 2030-yilga kelib milliy darajada aniqlangan hissa (NDC)ga ko'ra, O'zbekiston 2010-yil darajasiga nisbatan yalpi ichki mahsulotga (YAIM) bog'liq ravishda 35% gacha issiqxona gazlari chiqindilarini qisqartirishni maqsad qilgan [3].

Qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish va shu bilan birgalikda quyosh, shamol va gidroenergetika resurslaridan foydalanishni kengaytirish orqali energiya tizimini diversifikatsiya qilish, yashil iqtisodiyotga o'tish orqali atrof-muhitni muhofaza qilishni hisobga olgan holda barqaror rivojlanishni ta'minlash rejalashtirilgan. O'zbekiston Parij bitimi maqsadlarini amalga oshirish uchun bir qator chora-tadbirlarni qabul qildi, jumladan energetika sektoridagi islohotlar buning yorqin misoli bo'ladi, O'zbekiston hukumati 2030-yilga borib quyosh va shamol energetikasidan 8 GW quvvatli elektr energiyasini ishlab chiqarishni rejalashtirmoqda [4].

2022-yilda "Yashil energetika strategiyasi" qabul qilindi. Bu strategiya qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishni va energiya samaradorligini oshirish va bu orqali

mamlakatimizning xalqaro maydondagi imidjini muhtakamlashni nazarda tutadi. Yer va suv resurslarini muvofiq tarzda boshqarish ishini tashkil qilish orqali, Orol dengizining qurishi bilan bog'liq ekologik muammolarni hal qilish bo'yicha qator xalqaro loyihalar amalga oshirilmoqda. Suv resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlash va qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda tomchilatib sug'orish texnologiyalarining qo'llanish ko'lamini kengaytirish maqsadida mazkur intensiv texnologiyaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish agrar sektorda ilg'or sug'orish usullarini joriy etishning muhim omili hisoblanadi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Xalqaro hamkorlik yuqorida davlat oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda O'zbekiston BMTning Iqlim o'zgarishi bo'yicha konferensiyalarida faol qatnashmoqda. Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda bir qator "yashil" loyihalar amalga oshirilmoqda [5].

O'zbekistonning iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashda xalqaro hamkorlikdagi ishtiroki katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Xususan, Parij bitimi doirasidagi hamkorlik quyidagilarni ta'minlaydi:

Mamlakat xalqaro donor tashkilotlardan iqlim loyihalari uchun mablag' olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Masalan, "Yashil iqlim jamg'armasi" orqali bir qator loyihalar shu paytgacha moliyalashtirilgan va bundan buyon ham moliyalashtiriladi [4].

Innovatsion texnologiyalarni mamlakatga jalb qilish va mahalliy sharoitga moslashtirishda xalqaro hamkorlik muhim rol o'ynaydi.

Mintaqaviy iqlim o'zgarishlarini o'rganish va prognozlashda xorijiy tajribadan foydalanish imkoniyati oshadi.

Mamlakatimizda mavjud o'rmon xo'jaliklarini saqlab qolish va antropogen omillar sabab ziyon ko'rganlarini qayta tiklash, xususan, Orolbo'yi hududida ko'chatlar ekish orqali ekologik barqarorlikni ta'minlashda xalqaro yordam olish orqali mazkur vazifalarda sezilarli natijalarga erishish ehtimolini oshiradi [3].

NATIJARLAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). O'zbekistonning Parij bitimi doirasidagi faoliyati nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy sohalarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, iqlimga mos keluvchi "yashil" texnologiyalarning joriy etilishi iqtisodiy

samaradorlikni oshirish barobarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tan narhini pasayishida muhim omil bo'lmoqda[5].

Mamlakat global ekologik muammolarga yechim topishga hissa qo'shayotganini namoyon qilib, o'zining xalqaro doiralardagi obro'sini oshirdi. Buning natijasida O'zbekistonning xalqaro reyting va indekslardagi o'rni oshib bormoqda. Aholining hayot sifatini yaxshilash ijtimoiy himoya bilan uzviy bog'liq tarzda toza havo, toza suv resurslariga ega bo'lish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash orqali fuqarolar farovonligi ortadi. Shu maqsadda Jahon bankining "Toshkent uchun havo sifatini baholash" hisoboti va O'zbekistonda havo sifatini boshqarishni takomillashtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" ishlab chiqilgan. Jahon banki hamda O'zbekiston Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan O'zbekiston Iqtisodiyot va Moliya vazirligi ko'magida ishlab chiqilgan hisobotlarda mintaqa hukumatlari bilan muloqotni xabardor qilish va havo sifati bo'yicha keng qamrovli mintaqaviy bilim va hamkorlik platformasiga yo'l ochish maqsadida Markaziy Osiyodagi havo sifati bo'yicha qator tadqiqotlarning olib borilishi zarurligi alohida ta'kidlandi.

O'zbekistonda va butun dunyo bo'ylab havo sifati bilan bog'liq kasalliklar va bevaqt o'lim holatlarining aksariyati PM 2.5 bilan bog'liq bo'lib, Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) sog'liq uchun eng jiddiy tashvish beruvchi ifloslantiruvchi sifatida aniqladi. Toshkent, Markaziy Osiyoning boshqa shaharlari kabi, [IQAir](#) ma'lumotlariga ko'ra, dunyoning eng ifloslangan shaharlari qatoriga kiradi. O'zbekiston hukumati, shuningdek, AQM mahalliy, milliy va mintaqaviy darajada hamkorlikda, keng qamrovli va ko'p tarmoqli sa'y-harakatlarni talab qiladigan muammo ekanligini tan oladi. 2024-yil 21-mayda O'zbekiston Sog'liqni saqlash vazirligi turar-joy binolari havosi sifati bo'yicha yangi PM2.5 standartini qabul qildi, bu JSST tavsiyalariga mos keladi va amalga oshirilishi mumkin bo'lgan dastlabki oraliq maqsad va havo sifatini yaxshilash yo'lidagi ulkan bosqichdir.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). O'zbekistonning Parij bitimiga qo'shilishi mamlakatning iqlim o'zgarishlariga qarshi global hamkorlikdagi faol ishtirokini namoyish etadi. Mamlakat tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlash, balki iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni ham jadallashtirishga xizmat qiladi. Shu sababli, iqlimga mos keluvchi siyosatni davom ettirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish O'zbekiston uchun strategik ahamiyatga ega. Parij bitimi doirasidagi majburiyatlar milliy darajada amalga oshirilayotgani mamlakatni "yashil" iqtisodiyot sari yo'naltirmoqda va bu borada xalqaro hamjamiyat bilan hamkorlik iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashda barqaror natijalarga erishish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА/ REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. 02.06.2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Iqlim o'zgarishi va tabiiy ofatlar xavfiga nisbatan milliy harakatlar rejasini ishlab chiqish hamda samarali amalga oshirishni tashkil etish to'g'risida"gi Qarori. 14.08.2023.
3. O'zbekiston Respublikasining Parij kelishuvini tasdiqlash to'g'risidagi qonuni. *O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami*. 2018.
4. Milliy darajada belgilangan majburiyatlar (NDC) *O'zbekiston Respublikasining BMT Iqlim o'zgarishi bo'yicha konvensiyasiga taqdim etgan hisoboti*. 2021.
5. Parij kelishuvi. *Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi bo'yicha asosiy hujjati (UNFCCC)*. 2015.

KOMIL XORAZMIY FAOLIYAT YURITGAN DAVR SIYOSIY HAYOTI

Allanazarov Shoxruxbek Farxodovich
Urganch davlat pedagogika instituti “Tarix va geografiya”
kafedrasi o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

ПОЛИТИЧЕСКАЯ ЖИЗНЬ В ПЕРИОД ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КАМИЛЯ ХОРЕЗМИ

Алланазаров Шохрухбек Фарходович
Преподаватель кафедры «История и география»

Ургенчского государственного педагогического института,
самостоятельный исследователь

THE POLITICAL LIFE OF THE PERIOD DURING WHICH KOMIL KHOREZMI WAS ACTIVE

Allanazarov Shokhruxbek Farkhodovich
Teacher of the Department of “History and Geography” of
Urganch State Pedagogical Institute, independent researcher

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonasining yetuk siyosatdoni, mohir tarjimon, zabardast shoir bo‘lgan, o‘zbek adabiyoti, musiqasi rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan mashhur siymo - Komil Xorazmiy faoliyat yuritgan XIX asrning ikkinchi yarmidagi siyosiy hayoti yoritilgan va uning shu davrdagi o‘rni tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Komil Xorazmiy, XIX asr, siyosiy hayot, adabiy muhit, Muhammad Rahimxon II, musiqa rivoji, mustamlakachilik davri.

Аннотация: В данной статье освещается политическая жизнь второй половины XIX века — периода, в который жил и творил выдающийся государственный деятель своего времени, талантливый переводчик, самобытный поэт и известная личность, внесшая неоценимый вклад в развитие узбекской литературы и музыки — Камил Хорезми. Также проводится анализ его роли в этот исторический период.

Ключевые слова: Камил Хорезми, XIX век, политическая жизнь, литературная среда, Мухаммад Рахимхан II, развитие музыки, колониальный период.


Annotation: This article highlights the political life of the second half of the 19th century, during which the famous figure Komil Khorezmi an outstanding statesman of his time, a skilled translator, and a powerful poet who made an invaluable contribution to the development of Uzbek literature and music was active. His role during this period is also analyzed.

Keywords: Komil Khorezmi, 19th century, political life, literary environment, Muhammad Rahimkhan II, development of music, colonial period.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Har bir davr o‘z kechmishiga, tarixiy silsilasiga ega. Davrlararo ma‘lum bir umummushtaraklik hukm sursa ham, har bir zamon, fursatlarning o‘ziga xos, takrorlanmas, boshqa davrlarnikiga o‘xshamaydigan va qaytarilmas jihatlari bo‘ladi. XIX asr Vatanimiz tarixida, xususan, Xorazm hududida madaniy taraqqiyotning eng gurkiragan, ammo alg‘ov-dalg‘ovli davri, ko‘p

qarama-qarshiliklar silsilasida kechgan davr hisoblanadi. Ushbu davrning yetuk siyosatchisi, davlat va jamoat arbobi Komil Xorazmiy bo‘lib, uning faoliyat yuritgan davrida siyosiy hayotida birmuncha o‘zgarishlarga olib keldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / MATERIALS AND METHODS). Xorazm dunyo sivilizatsiyasi va



<https://orcid.org/0009-0004-8321-5687>

allanazarovshohruh@gmail.com

madaniyatiga bebaho hissa qo'shgan Sharq gavharidir. Bu ko'hna yurt jahonga dong'i ketgan ne-ne olim-u fozillar, sarkarda va sultonlar, aziz avliyolar, betakror shoir va hofizlar vatanidir [1]. Ushbu hududdan yetishib chiqqan davlat va jamoat arboblardan biri Komil Xorazmiydir. Komil Xorazmiy 1825-1899-yillarda yashagan bo'lib, u XIX asrning ikkinchi yarmida Xivadagi adabiy harakatning davomchisi, buyuk san'atkor, musiqashunos, mohir xattot va tarjimon, davlat arbobi, ma'rifatparvar shoirlardan biri edi. Yoshlikda Komilni erkalab, Pahlavon laqabi bilan chaqirganlari uchun uning nomi keyinchalik Pahlavon Niyoz Muhammad shaklida mashhur bo'lib ketadi [2]. Komil Xorazmiyning doimiy faoliyati Muhammad Aminxon davridan (1845-1855-yillar) xon qo'shinida otboqarlik xizmatidan boshlanib, Muhammad Rahimxon II davrida devonbegi darajasigacha ko'tarilgan [3]. U Muhammad Rahimxonning otasi Sayid Muhammadxon zamonasida saroyda oddiy xattot bo'lib, keyin mirzaboshilik mansabiga ko'tarilgan, so'ngra esa devonbegi sifatida katta ijtimoiy-siyosiy, madaniy ishlarni amalga oshirdi [4].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Pahlavon Niyoz Muhammad - Komil Xorazmiy Xiva xonligida 5 ta xon davrida faoliyat olib borgan: 1. Muhammad Aminxon (1845-1855); 2. Abdullaxon (1855-1856); 3. Qutlug'murodxon (1856-yil - 6 oy xonlik qilgan); 4. Sayid Muhammadxon (1856-1864); 5. Muhammad Rahimxon II (1864-1910) [5]. Komil Xorazmiyning doimiy uzluksiz faoliyati Xiva xoni qo'shinida otboqarlik xizmatidan boshlaganligini qayd qilish mumkin. Lekin bir ma'lumotni keltirib o'tish joizki, u madrasada o'qib yurgan kezlari, o'qishni tashlab, ma'lum muddat bobosi Xo'jash mahram savdo karvoniga qo'shilib, tijorat bilan shug'ullangan. Bu haqida Komil Avaz, Komil Xorazmiy to'g'risida yozgan kitobida, "otasi betobligi bois, oilasini boqish maqsadida 1841-yilda madrasa ta'limini tashlab, savdo karvonida tijoratchilik qilgan", - degan ma'lumotni keltirib o'tgan. 1847-yilda madrasa ta'limida o'qishni davom qildirgan [6]. Komil Xorazmiy faoliyatining eng gurkirab rivojlangan davri Muhammad Rahimxon II (Feruz) davriga to'g'ri keladi. Komil Xorazmiy Xiva xonligida Rossiya imperiyasining mustamlakachilik davrida (1873-yil) eng nufuzli devonbegi mansabigacha ko'tarilgan. Muhammad Rahimxon II ning Xorazm taxtiga kelishi xususida Muhammad Yusuf Bayoniy

shunday yozadi: "...hamma ittifoq bila turub, ko'runushxonaga kirib, Bobojon to'rani talab etib kelturdilar. Ul kun hijratning ming ikki yuz sakson birlanchisi muvofiqi sichqon yili va sunbulaning oxiri va rabius soniyning yigirma birlanchisi va panjshanba kuni erdi. Hamma yurt ulug'larining ittifoqlari bilan Bobojon to'ra, ya'ni Muhammad Rahim to'ra ibni Sayyid Muhammadxon jannatmakon xon bo'lub taxti davlatda o'lturdilar. Har tarafdin muborakbod ovozi baland bo'la berdi. Jarchilar ko'chalarda "Davr-davri Muhammad Rahim Bahodir!" - deb munodo (chaqiriq, jar solish) ura berdilar" [7]. Bundan ko'rinadiki, Muhammad Rahimxon II ning asl ismi Bobojon to'ra bo'lgan.

Muhammad Rahimxonni soniy Feruz xuddi otasi Sayid Muhammadxon singari har haftaning ikki kuni saroyda shoirlar mushoirasi, kitobxonlik kechalari o'tkazib borishni o'ziga odat qilib oldi. U Ogahiy, Bayoniy, Komil, Mirzo kabi shoirlarga ergashib g'azallar mashq eta boshlaydi. Uning nozikta'b g'azallarini ko'rgan Komil xonga Feruz taxallusini taklif etadi. "Feruz" - "baxtli", "toleli", "g'olib" degan ma'nolarini anglatadi. ... Feruz o'z zamonasida ajabtovur musiqashunos va bastakor edi. U shoir va san'atkor Komil Xorazmiyning tashviqi bilan eng qadimiy "Shoshmaqom" kuylarini to'liq o'rgandi va "Navo", "Segoh", "Dugoh" maqomlarig'a bog'lab kuylar ham yaratadi. Komil Xorazmiy bir she'rida Feruzning musiqa ilmiga munosabatini shunday ko'rsatadi:

Gar olsa ilgiga shoh tanbur,
Chekar ko'nglimdek o'tliq oh tanbur...
Qilur sayru maqomot ul jihatdin,
Erur Komilga xotirxoh tanbur [8].

Aynan Muhammad Rahimxonning adabiyotga, musiqa ilmiga bo'lgan qiziqishi tufayli Komil Xorazmiyning unga "Feruz" taxallusini taklif etganligini ko'rishimiz mumkin.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Xevada o'tgan jami qirq to'qqiz xon ichida eng uzoq davron surish Sayid Muhammad Rahimxon Bahodirxonni soniy Feruzga nasib etdi. U qirq yetti yil-u o'n besh kun taxtda o'tirish baxtiga musharraf bo'ldi. Chunki u o'z atrofiga adolat va haqiqat nuqtai nazaridan qarovchi amaldorlarni to'pladi. Avvalo doyi (tog'a)si dono Ibrohimxo'ja, shoir va mutarjim (tarjimon) Ogahiy, yetuk ijodkor, shoir va tarixchi Bayoniy, shoir va davlat arbobi Pahlavonniyoz mirzaboshi, uzoqni ko'ra biluvchi Ismoilxo'ja naqib, qozi Muhammad Latif oxun, jasur

va mard Matmurod devonbegi, uddaburon Rahmatullo yasavulboshi, Abdulla mahram va adolatpesha Shayxnazarboy kabi kishilar bilan birga ish yuritganligi tufayli mana shunday sharafga sazovor bo'ldi [9]. Bundan ko'rinadiki, Muhammad Rahimxon II mamlakatda madaniy taraqqiyotni yuksaltirishda maorif, fan, adabiyotga e'tibor berib, o'z atrofiga eng munosib, bilimli kishilarni to'plagan.

Manbalarning guvohlik berishicha, Feruz yirik shoir bo'lishi bilan birga, kuchli musiqashunos ham edi. Shoir Komilning tashviqi bilan Xorazm shoshmaqomini mukammal o'rganib va "Segoh", "Dugoh" maqomlariga boylab kuylar yaratgan edi. Ogahiy o'zining tarixiy asarlarida Muhammad Rahimxon soniy davrida cho'llardagi quruqliklarni qazish, vohani suv bilan ta'minlash ishlariga katta ahamiyat bergan [10]. Fuqaroparvar hukmdor bo'lgan Feruz o'z xalqining moddiy ahvolini yaxshilash yo'lida jon kuydirgan. Adolatli shoh, zukko shoir, ma'rifatparvar arbob, usta musiqashunos adabiy va musiqiy muhitning jonkuyar homiysi sifatida Muhammad Rahimxon soniy Xorazm tarixida muhim o'rinni egallaydi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Komil Xorazmiy faoliyat yuritgan davr – XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, Xorazm madaniy, ijtimoiy-siyosiy hayotining taraqqiyotida Muhammad Rahimxon soniy – Feruzning xizmatlari kattadir. Bu davrda xonlikda ulkan qurilishlar amalga oshirildi. Mamlakatda maorif, fanni yuksaltirish borasida rus-tuzem maktablari, qator madrasa va masjidlar qurildi. Davlatda ijtimoiy hayotni birmuncha yuksaltirish uchun esa, aholi foydalanadigan pochta, telegraf, kasalxona bunyod etildi. Savdo-sotiqni amalga oshirilishi uchun yetarli sharoit yaratildi. Saroy atrofida qirqdan ortiq shoir, yozuvchi, mutarjim, muarrix (tarixchi), xatto fan bilan mashg'ul bo'lib, yuzlab bayoz, devon, tarixiy va tarjima asarlar bunyodga keldi. Adabiyot va san'at taraqqiy etdi. Shuni alohida qayd etish lozimki, Feruz xalqqa shuncha yaqin bo'lganki, xatto, uning siymosi xalq latifalari, rivoyatlarida keng o'rin tutadi. Xalq bu asarlarda Feruzni odil va dono podsho, adabiyot va san'at homiysi, qiyinchiliklarni har doim yenga oluvchi siymo sifatida tasvirlaydi. Muhammad Rahimxon har bir shaxsga vazifa tayin etganda,

birinchi navbatda, uning ijodiy qobiliyatini ham e'tiborga olgan. Iqtidorli kimsalarga g'oyatda mehr bilan qaragan va muruvvatlar ko'rsatgan. Xususan, Feruzxon Komil Xorazmiyni mashhur xattot va mohir siyosatchi sifatida ko'rganligi shubhasizdir, fikrimcha.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xiva shahrida "Arda Xiva" xalqaro turizm markazining tantanali ochilish marosimidagi nutqi // Xalq so'zi, 2025. - № 89 (8984). – B. 1.
2. Ўзбек педагогикаси антологияси: Икки жиддлик. Ж.1. / (Тузувчи муаллифлар: К.Ҳошимов, С.Очил; Таҳрир хайъати: М.Хайруллаев ва бошқ.) - Т.: Ўқитувчи, 1995. - В.395.
3. Комил Аваз. Комил Хоразмий: Маърифий-бадий роман / -Урганч: "Хоразм" нашриёти, 2015. - В.289.
4. Феруз. Шоҳ ва шоир қисмати. Тарихий-бадий лавҳалар. (Сўзбоши муаллифи: Б.Назаров; Масъул муҳаррир Н.Жумаев). - Т.: Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. – В.45.
5. Матниёзов М, Олламов Я. Хоразм давлатчилиги тарихи. - Урганч, 2009. - В.265.
6. Комил Аваз. Комил Хоразмий: Маърифий-бадий роман / -Урганч: Хоразм нашриёти, 2015. - В.289.
7. Муҳаммад Юсуф Баёний. Шажараи Хоразмшоҳий. -Тошкент: Камалак, 1991. - В.189.
8. Феруз. Шоҳ ва шоир қисмати. Тарихий-бадий лавҳалар. (Сўзбоши муаллифи: Б.Назаров; Масъул муҳаррир Н.Жумаев). - Т.: Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. – В.57, 86.
9. Феруз. Шоҳ ва шоир қисмати: Сайид Муҳаммад Раҳимхони Баҳодирхони соний - Феруз ҳақида тарихий бадий лавҳалар / Д.Раҳим, Ш.Матрасул, Н.Жумахўжа. - Т.: Ўзбекистон, 1995. - В.12.
10. Masharipov O., Masharipov A. Xorazmnom. – Т.: 2020. – В. 299-303.

1930–1940-ЙИЛЛАРДА ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН ПРОКУРАТУРАСИ ХОДИМЛАРИГА НИСБАТАН СИЁСИЙ ҚАТАҒОНЛАР: ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТ ВА ТАҚДИРЛАР ТАҲЛИЛИ

*Зарипбаев Уснатдин Оракбаевич, Қорақалпоқ давлат
университети “Ўзбекистон ва Қорақалпоғистон тарихи”
кафедраси ассистенти*

POLITICAL REPRESSIONS AGAINST THE EMPLOYEES OF THE PROSECUTOR’S OFFICE OF KARAKALPAKSTAN IN THE 1930-1940 YEARS: HISTORICAL RESEARCH AND ANALYSIS OF FATE

*Zaripbaev Usnatdin Orakbayevich, Assistant of the Department of
History of Uzbekistan and Karakalpakstan of Karakalpak State
University*

ПОЛИТИЧЕСКИЕ РЕПРЕССИИ ПРОТИВ СОТРУДНИКОВ ПРОКУРАТУРЫ КАРАКАЛПАКСТАНА В 1930-1940 ГОДАХ: ИСТОРИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ И АНАЛИЗ СУДЕБ

*Зарипбаев Уснатдин Оракбаевич, ассистент кафедры
“История Узбекистана и Каракалпакстана” Каракалпакского
государственного университета*

Аннотация: Мақолада 1930–1940-йилларда Қорақалпоғистонда прокуратура ходимларига нисбатан олиб борилган сиёсий қатағонлар тарихи, уларнинг оқибатлари ва тарихий адолатни тиклаш бўйича кўрилатган чоралар ёритилади. Наир этилган китоблар, тергов материаллари ва биографик маълумотлар асосида қатағон қурбони бўлган ҳуқуқни муҳофаза қилувчи ходимларнинг тақдири ўрганилган. Тадқиқот прокуратура тизимидаги сиёсий тазйиқлар механизми ва уларнинг ҳуқуқий натижаларини таҳлил қилишга қаратилган.

Калим сўзлар: сиёсий қатағон, прокуратура, архив манбалари, ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари, тарихий адолат.

Abstract: The article highlights the history of political repressions against prosecution personnel in Karakalpakstan during the 1930s–1940s, their consequences, and the measures being taken to restore historical justice. Based on published books, investigative materials, and biographical data, the study examines the fates of law enforcement officers who became victims of repression. The research focuses on analyzing the mechanisms of political pressure within the prosecution system and their legal implications.

Keywords: political repression, prosecution, archival sources, law enforcement, historical justice.

Аннотация: В статье освещается история политических репрессий в отношении работников прокуратуры в Каракалпакстане в 1930–1940-е годы, их последствия и предпринимаемые меры по восстановлению исторической справедливости. На основе опубликованных книг, следственных материалов и биографических данных изучены судьбы сотрудников правоохранительных органов, ставших жертвами репрессий. Исследование направлено на анализ механизма политического давления в системе прокуратуры и его правовых последствий.

Ключевые слова: политические репрессии, прокуратура, архивные источники, органы правопорядка, историческая справедливость.



<https://orcid.org/0009-0002-5894-9043>

e-mail:

usnatdinz@mail.ru

КИРИШ. Халқимизнинг илғор вакиллари ўз зулмига тортган қатағон йиллари тарихини ўрганиш бугунги кунда асосий вазифалардан бири ҳисобланади. Совет давлатининг олиб борган қатағон сиёсати ва унинг фожиали оқибатлари ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари ходимларини ҳам четлаб ўтмади. Шулар қаторида прокуратура соҳасидаги қатағонга учраганларнинг қайғули тақдирини ўрганиш ва улар ҳақидаги бор ҳақиқатни халқимизга, келажак авлодга етказиш, бундай офатдан ҳозирги ҳамда келажак авлодларни огоҳлантириш орқали ҳар томонлама ўрганиб бориш ва кенг жамоатчиликка тарғиб-ташвиқ қилиш катта аҳамиятга эга. Президентимиз Шавкат Миромонович Мирзиёев айтганларидек, “Бу борада адолатни тиклаш бўйича кўп ишлар қилинмиш. Тарихчи олимлар иштирокида комиссиялар тузилди, архив ҳужжатлари ўрганиляпти. Охирги икки йилда Ўзбекистон Олий суди 850 нафардан зиёд, 2023 йил 240 нафар ана шундай жабрдийда ватандошларимизнинг номини оқлади. Бундай изланишларни ҳеч қачон тўхтатмаслигимиз керак. Негаки ҳақиқатни халқимиз билиши керак”, деб таъкидлади[1].

Тадқиқотнинг методологик ва назарий асослари. Ушбу тадқиқот Қорақалпоғистон прокуратураси ходимлари орасидаги қатағонлар, уларнинг оқибатларини ўрганиш ва тарихий адолатни тиклаш мақсадида архив маълумотларини тўплашга қаратилган.

Тадқиқотнинг манбавий асослари. Тадқиқот архив ҳужжатлари, жумладан, қарорлар, тергов ишлари баённомалари, статистик материаллар, шунингдек, тарихий манбаларнинг қиёсий таҳлили асосида амалга оширилди. Ишда тарихий-ҳуқуқий таҳлил, қиёсий-тарихий, шунингдек, биографик ёндашув усуллари қўлланилган.

АСОСИЙ ҚИСМ. Бизга маълумки, мустақиллик йилларида қатағон қурбонларининг номларини тиклаш бўйича мамлакатимизда бир қанча ишлар амалга оширилди. Хусусан, юртимизда 2001 йилдан буён ҳар йили 31 август “Қатағон қурбонларини хотирлаш куни” сифатида белгиланиб келинмоқда. Айниқса, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 8 октябрдаги Ф-5598-сонли “Қатағон қурбонларининг меросини янада чуқур ўрганиш ва улар хотирасини абадийлаштиришга доир

қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги фармойиши[2] ва 2024 йил 19 июлдаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Сиёсий қатағон қурбони бўлган юртдошларимиз ҳаёти ва фаолиятини ўрганиш, тарғиб этиш ҳамда уларнинг хотирасини абадийлаштириш борасидаги ишларни кенгайтириш тўғрисида”ги ПҚ-270-сонли қарори[3] илгари олиб борилган ишларни янада такомиллаштириш ва давом эттириш учун кенг кўламли ишларни амалга оширишда муҳим аҳамият касб этди.

Шунга қарамай ҳали ўрганилиши керак бўлган соҳалар ўзининг тадқиқ этилишини кутиб турганлигини кундалик ҳаёт кўрсатиб бермоқда. Шулар қаторида ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар бўлган прокуратура соҳасидаги қатағонлар ва уларнинг аянчли оқибатлари ҳали ўрганилмаган эди. Шу боис Ўзбекистон Республикаси Бош прокурорининг 40-ф-сонли фармойиши бу йўналишдаги ишларни амалга оширишда ўз ўрнига эга. Бу ишларни амалга ошириш учун ишчи гуруҳ тузилиши билан бирга йўл харитаси ҳам белгилаб олинди. Ишчи гуруҳга прокуратура ходимлари билан бирга Қорақалпоғистон Республикаси ва барча вилоятлардаги Қатағон қурбонлари музейи ходимлари ҳам киритилди. Уларнинг асосий вазифалари йўл харитасида белгилаб берилди. Фармойишда таъкидланганидек, “Ватанимиз истиклоли, халқимизнинг озодлиги ва эркинлиги йўлида мардона кураш олиб бориб, мустабид тузум даврида қатағон қилинган прокуратура органлари ходимлари хотирасини абадийлаштириш, уларнинг ҳаёт йўллари ва фаолиятини кенг жамоатчилик, айниқса ёшлар эътиборига асосли ҳамда тўлақонли етказиш, фуқароларда прокуратура органларининг шарафли фаолияти ҳақидаги тасаввурларини янада бойитиш, ёш мутахассисларда ғурур ва ифтихор туйғуларини кучайтириш” мақсадида 7 банддан иборат чора-тадбирлар белгиланган. Ушбу йўналишдаги фармойиш, ишчи гуруҳ режа-дастури Қорақалпоғистон Республикаси прокурори томонидан ҳам ишлаб чиқилиб, олдинда бажарилиши керак бўлган вазифалар белгилаб олинди. Бу борада биринчи навбатда қатағонга учраган прокуратура ходимларининг исми ва фамилияларини аниқлаш бўйича бугунги кунга қадар очиқ маълумотлар базасидан 1930 йилларда Қорақалпоғистон прокуратурасида

ишлаган ва қатағонга учраган 30 нафар ходим аниқланди[4]. Бугунги кунга келиб, қатағонга учраган инсонларни хотирлаш ва уларнинг мамлакатимиз олдидаги хизматларини тарғиб қилиш бўйича бир қанча ишлар амалга оширилди. Бу ишларни олиб бориш жараёнида совет даврида прокуратура органларида хизмат қилган бир неча прокурорларнинг авлодларини аниқлашга эришдик. 2024 йил март ойида ишчи гуруҳ аъзолари билан Тошкент шаҳрига қилган сафаримиз чоғида 1930 йилларда Қорақалпоғистон прокуратурасида хизмат қилган ва 1942 йил ноябрь ойида қатағонга учраган Мирзағул Бабаевнинг авлодлари, яъни ўғли Қаршиға Бабаев ва набираси Жамила Бабаева билан учрашиб суҳбатлашишга муваффақ бўлдик.

Мирзағул Бабаев 1942 йили 5 октябрда ҚҚАССР НКВД СПО терговчиси, милиция сержанти Мадгазин “Чимбой контрреволюцион кўзғолончилар ташкилоти” иштирокчилари сифатида М. Бабаев, Б. Тожиев, Н. Кийикбаев ва Б.Ратовларни қамоққа олиш ҳақидаги 823-сонли иш бўйича қарорга имзо чекади. Дастлаб бир неча сўроқлар ўтказилиб, терговчиларнинг қаттиқ босимларига қарамай, М.Бабаев барча айбловларни рад этади. Бироқ 23 октябрда у қамоққа олинади[5]. Шунча сургун ва қамок жазоларидан кейин 1957 йили 19 сентябрда СССР Олий судининг Жиноят ишлари бўйича суд ҳайъати СССР Ички ишлар халқ комиссарлиги ҳузуридаги Махсус кенгашнинг ҳукмини бекор қилади ва терговга тортилаётган шахсларни айбсиз деб топиб, иш юритишни тўхтатади.

2024 йил апрель ойида Қорақалпоқ давлат университети таркибидаги Қатағон қурбонларини хотирлаш музейи ходимлари билан бирга Бекман Тажиев авлодлари билан учрашдик. У 1931 йилдан бошлаб ҚҚАО прокурори ёрдамчиси, 1932 йилнинг 1 июнидан Қорақалпоғистон вилоят прокурори лавозимларида ишлаб, қонунни тўғри қўллаш ва амалга ошириш, фуқароларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, жазо органлари устидан конституциявий назорат олиб боришда ижобий фаолият юритишига қарамай, 1933 йил 10 августда РСФСР Жиноят Кодексининг 109-моддаси билан айбланиб, қамоққа олинади ва 6 йил муддатга қамок жазосига ҳукм этилади. У қамок муддатини СССР ИИХКнинг Ўрта Осиёдаги меҳнат лагерида оғир шароитда ўтаб,

1938 йил 25 ноябрда юртига қайтиб келган. 1939-1942 йилларда Б.Тажиев Чимбой тумани Жисмоний тарбия ва спорт кўмитаси раиси, туман Кенгаш Ижроия Кўмитаси котиби лавозимларида ишлайди. 1942 йил 10 июлда Бекман Тажиев “Чимбой туманида Совет ҳукуматига қарши қуролли кўзғолонни ташкил этганликда” айбланиб, ҚҚАССР ИИХКси томонидан қамоққа олинади. 1957 йил 19 сентябрда Ўзбекистон ССР Олий Суди Республика прокурорининг Б.Тажиев иши бўйича эътирозини қабул қилиб, уни айбсиз деб топади ҳамда СССР ИИХКнинг “Махсус мажлиси”нинг Тажиев ҳақида чиқарган ҳукмини бекор қилиб, уни оқлайди [6]. Қорақалпоғистон прокуратураси ходимлари орасидаги қатағонни ўрганиш нафақат тарихий адолатни тиклаш, балки совет давлатининг қатағон сиёсатининг кўлами ҳақида тўлиқроқ тушунчага эга бўлиш имкониятини беради. Тўпланган архив материаллари қатағонга учраган ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари ходимларининг тақдирини янада чуқурроқ ўрганиш зарурлигидан далолат беради.

Ўзбекистон Бош прокуратураси томонидан 2 жилдди “Тарихий хотира бекиёс” номли, прокуратура тизимида меҳнат қилиб, 1930 йилларда қувғинга учраган ходимлар ҳақидаги китоблар нашрдан чиқди. Ушбу китобнинг муаллифлари қаторида тарих фанлари доктори, профессор Нуржанов Сабит Узакбаевич ҳамда тарих фанлари номзоди, доцент Қудияров Алишер Раметуллаевичлар ҳам бор. Улар айбсиз айбланган бу прокуратура ходимлари ҳақида зарур тарихий ҳужжатларни, архив материаллари ва бошқа далиллар ёрдамида очиб берганлар[7].

Ушбу китобнинг I жилдига Қорақалпоғистон прокуратурасида ишлаган ва қатағонга учраган 11 прокуратура ходимининг таржимаи холи киритилган, улар орасида Көптитеў Нурмухамедов, Қарабай Ерманов, Ажимурат Мусаев, Алымжан Брамьков, Рашид Кембаев, Сапарбай Нуржанов, Алланазар Пирназаров, Пирмағамбет Кайипназаров, Мырзағул Бабаев, Дукен Назаров, Халмурат Темирхановлар бор. Иккинчи жилдда қатағондан жабр кўрган яна саккиз нафар прокуратура ходими: Аннақылыш Адакаев, Айтжан Бекмуратов, Бекман Тажиев, Машарип Нурмухаммедов, Шарип Садыров, Нурсултан Қозықулов, Ҳабибулла Нағматуллаев ва

Ортықбай Длимовларнинг ҳаёти, фаолияти ҳақида муҳим маълумотлар ўрин олган. Яна бир тарихий китоб 1930 йилларда Қорақалпоғистон прокуратурасида меҳнат қилган Алланазар Пирназаров ҳақида Б.Алланиязов, А.Қудияров ва К.Сейдановлар тўплаган маълумот ва материаллар асосида “Айыпсыз айыпланган ел азаматы” номи билан нашрдан чиқди[8].

Бу китоблар нафақат тадқиқотчилар учун муҳим тарихий манба, балки кенг жамоатчилик учун ҳам қимматли маълумотлар ҳисобланади. Кўрсатилган биографик маълумотлар, архив ҳужжатлари ва тарихий материаллар ўқувчиларга қатағон қурбони бўлган прокурор ходимларининг ҳаёти ва хизмати ҳақида маълумот беришга ёрдам беради. Ушбу тадқиқотлар 1930 йиллардаги қатағонларнинг мазмун-моҳияти ва оқибатларини чуқурроқ тушунишга, шунингдек, ўша даврдаги ҳуқуқни муҳофаза қилувчи ташкилотларнинг ишига янгича қараш шакллантиришга хизмат қилади. Бош прокуратуранинг ушбу ташаббуси, шунингдек, ўтказилган тадқиқотлар жамиятнинг қатағонлар ҳақидаги ҳақиқатни билиб олиши, ўтмишдаги қайғулардан сабоқ олиши ва пировардида келажак авлодлар учун адолатли келажакни таъминлашда катта аҳамиятга эга.

ХУЛОСАЛАР. Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, бу соҳада ҳали илмий ишлар давом этмоқда. Бу инсонлар ҳақида ва уларнинг эзгу ишларини кенг жамоатчиликка тарғиб-ташвиқ қилиш билан бирга, келажак ёшларни тарбиялашда хизмат қилади.

Келажакдаги тадқиқотларнинг истиқболли йўналишлари қуйидагилардан иборат: -қатағон қурбонларининг янги номларини аниқлаш мақсадида архив ҳужжатларини чуқур таҳлил қилиш; -қатағонларнинг Қорақалпоғистонда ҳуқуқни муҳофаза қилиш ташкилотлари фаолиятига таъсирини ўрганиш; -қатағонга учраган прокуратура ходимлари авлодларининг оилавий архивларини ўрганиш; -тўпланган материаллар асосида илмий анжуманлар ўтказиш ва монографиялар нашр этиш.

Албатта, бу вазифаларни ҳаётга татбиқ этиш учун Қорақалпоғистондаги қатағонга

учраган прокуратура ходимларининг шу даврдаги ниҳоятда оғир йилларда қонунни ҳимоя қилишдаги меҳнатларини ҳар томонлама ўрганиш орқали ёшларда чуқур тарбиявий фазилатларни шакллантиришимиз мумкин.

Қорақалпоғистонда тоталитар тузум ҳукмронлик қилган йилларда мамлакатни бошқарган зиёлиларимизнинг тақдири, совет тузумининг жазо ташкилотлари раҳбарлари ва ходимларининг адолатсиз ҳаракатлари архив ҳужжатлари асосида ёритилган, шу билан бирга қатағонга учраган давлат арбобларининг хизматлари кенг жамоатчиликни, ёш авлодни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда катта аҳамиятга эга.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Ўзбекистонда қатағон қурбонлари хотираси улар яшаган маҳаллаларда абадийлаштирилади.
<https://www.gazeta.uz/uz/2023/08/31/shahidlar/>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 08.10.2020 йилдаги Ф-5598-сонли фармойиши.
<https://lex.uz/docs/5041012>
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 19 июлдаги ПҚ-270-сон қарори.
<https://www.lex.uz/ru/docs/7027942>
4. Нуржанов С., Қудияров А. Қарақалпақстан прокуратураси хизматкерлерининг репрессияга ушыраўы.//Еркин Қарақалпақстан газетасы, 1-феврал 2024-йил №14 сон.
5. Нуржанов С.У., Қудияров А.Р., Зарипбаев У.О. Мырзагул Мусаевич Бабаев: жизненный путь и реабилитация // Вестник № 4 (67) 2024 год.
6. Ш.Бабашев. Қарақалпақстан республикасы тарийхындағы сиясий қурбанлар. -Нөкис: Қарақалпақстан, 2003.- 70-72 б.
7. Тарихий хотира беқиёс [Матн] / Р.Т. Шамсутдинов [ва бошк.]; нашр учун масъул Б.В.Ҳасанов. - Тошкент: Encyclopedia world, 2024. - 372 б.
8. Алланиязов Б., Қудияров А., Сейданов К. Айыпсыз айыпланган ел азаматы (репрессия қурбаны) – Нөкис, Билим, 2023. 120-бет.

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori A.R.Shohakimov taqrizi asosida

IBN SINONING IJTIMOY-SIYOSIY TA'LIMOTIDA IDEAL DAVLAT KONSEPSIYASI

Negmatov Bobir Madjitovich, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasi "Milliy iftixor va harbiy vatanparvarlik" kafedrasida professori, falsafa fanlari nomzodi

THE CONCEPT OF THE IDEAL STATE IN THE SOCIO-POLITICAL TEACHINGS OF IBN SINA

Negmatov Bobir Madjitovich, Professor of the Department of "National Pride and Military Patriotism" of the Academy of the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philosophy

КОНЦЕПЦИЯ ИДЕАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА В СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКОМ УЧЕНИИ ИБН СИНЫ

Негматов Бобир Маджитович, профессор кафедры «Национальная гордость и воинский патриотизм» Академии Вооруженных Сил Республики Узбекистан, кандидат философских наук



<https://orcid.org/0009-0006-9680-2615>

e-mail:

bobir.negmatov@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada buyuk mutafakkir Ibn Sinoning ideal konsepsiyasida o'z aksini topgan jamiyat va uning rivoji, davlatni boshqarishda hukmdorning o'rni, ijtimoiy-axloqiy fazilatlar haqidagi qimmatli fikrlari ilmiy-falsafiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: jamiyat, adolatli jamiyat, davlat, ideal davlat, davlatni boshqarish, hukmdor, axloq, axloqiy fazilatlar, ilm-fan, ma'naviy-axloqiy muhit.

Annotation: The article scientifically and philosophically analyzes the valuable ideas of the great thinker Ibn Sina about society and its development, the role of the ruler in governing the state, and socio-moral qualities, as reflected in his ideal concept.

Key words: society, just society, state, ideal state, state governance, ruler, morality, moral qualities, science, spiritual and moral importance.

Аннотация: В статье научно и философски анализируются ценные идеи великого мыслителя Ибн Сины об обществе и его развитии, роли правителя в управлении государством, о социально-нравственных качествах, отраженных в его идеальной концепции.

Ключевые слова: общество, справедливое общество, государство, идеальное государство, государственное управление, правитель, мораль, моральные качества, наука, духовно-нравственное значение.

KIRISH. Ma'lumki, yurtimizdan azaldan o'zlarining ilmiy-falsafiy, ma'naviy-ma'rifiy meroslari bilan dunyoga tanilgan ko'plab buyuk allomalar va mutafakkirlar yetishib chiqib, samarali faoliyat ko'rsatganlar. Ular aql-zakovati, tafakkur dunyosi va yuksak ilmiy salohiyatining mahsuli bo'lgan bebaho asarlari-yu olamshumul kashfiyotlari

ming yillar osha nafaqat diyorimiz, balki jahon ahlining betakror ma'naviy mulki sifatida ham ardoqlanadi. Ana shunday ulug' allomalardan biri Abu Ali ibn Sinodir (980-1037). Uning boy merosida ijtimoiy-siyosiy masalalar alohida o'rin egallaydi.

Buyuk qomusiy olim Ibn Sino ijtimoiy-siyosiy qarashlarining shakllanishida salafarlari bo'lmish

Arastu va Forobiylarning ilmiy meroslari muhim g'oyaviy manba bo'lib xizmat qildi. Ayniqsa, Forobiyning ideal jamiyat va uni boshqarish, komil inson va uning baxt-saodati haqidagi fikrlari Ibn Sinoning ijtimoiy-siyosiy qarashlarining shakllanishida muhim rol o'ynadi. Ibn Sino bu masalalarda Forobiy nazariyasiga asoslandi va uni rivojlantirdi. Shu o'rinda biz, o'rta asr manbalarining birida ta'kidlab o'tilgan quyidagi, ya'ni: "Ibn Sino Buxoroda, Nuh binni Mansur Somoniyning kitob xazinasida Forobiyning juda ko'p nomi eshitilmagan asarlarini uchratib, undan nihoyat darajada ko'p foydalangan" [1], degan jumlaning keltirishimiz o'rinlidir.

Ibn Sinoning e'tirof etishicha, davlat har bir odamning jamiyatdagi o'rnini aniq belgilab berishi, qanday faoliyat ko'rsatishini tashkil qilib berishi kerak. Ayniqsa, davlatda tekinxo'rlar, boshqalar hisobiga kun ko'ruvchilar bo'lishiga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Davlat bunday takomilga faqat fanni rivojlantirish orqali erishadi. Qomusiy olim savdo munosabatlarining jamiyat taraqqiyotida katta rol o'ynashini ham e'tirof etadi. Ibn Sino savdo aloqalari shaharlar o'rtasida yo'lga qo'yilishi lozimligini uqtiradi, chunki shundagina ijtimoiy taraqqiyot yuz beradi, odamlar o'rtasida tushunish vujudga keladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI. Chunonchi, Ibn Sinoning ijtimoiy-siyosiy qarashlari tizimida ideal davlat konsepsiyasi muhim o'rin tutadi. Bu masalada u o'tmishdoshlari qoldirgan ilmiy merosni rivojlantiradi va ulardan ijodiy foydalanadi. Xususan, alloma o'zining "Qush tili" (رسالة في لغة الطير), "Uy-ro'zg'or tutish qoidalari" (رسالة تدبير المنزل), "Ishoralar va tanbehlar" (الإشارات والتنبهات) kabi asarlarida davlatning ideal modeli haqida mulohaza yuritadi. Ibn Sino ideal davlat manzarasini quyidagicha tasvirlaydi: "Birinchi, mehnat insonning barcha qobiliyat va iste'dodlarini namoyon qilishning muhim usuli bo'lib, vujudning chiniqishi uchun zarurdir, shuning uchun ham hayotdagi ilg'or ideal davlatda barcha inson o'z foydasi uchun mehnat qilishga majbur; ikkinchi, mazkur davlatda barcha moddiy boyliklar barobar taqsimlanishi bilan birga, haddan tashqari boylar va o'ta qashshoqlar bo'lmaydi; uchinchi, barcha kishi halol mehnat bilan shug'ullanar va vijdonan savdo qilargan ekan, demak, hech kimga janjallar kerak emas, urushlar yo'qoladi, davlatlar o'rtasidagi siyosiy nizolar esa tinch yo'l bilan hal qilinadi; to'rtinchi, ideal davlatda odamlar jamiyatdagi

tartib va tarbiya ta'sirida o'z axloqlarini o'zgartiradilar va uzoq umr ko'radilar. Hozircha esa odamlar zolim, chunki ehtiyoj va boylar bor, shuning uchun ham ular bir-birlariga qarshilik ko'rsatadilar. Ideal davlatda esa odamlar barcha narsa bilan ta'minlangan bo'ladi va shu bois ixtiloflar kuzatilmaydi"[2].

Buyuk olimning tushuntirishicha, jamiyatning mavjudligi insonning ijtimoiy tabiatidan kelib chiqadi. Shu tariqa, Sharq peripatetizmi an'alarini davom ettirgan Ibn Sino kishilarni aqliy qobiliyatlariga muvofiq tabaqalashtiradi. Eng quyi tabaqaga – aqlni anglashga qodir bo'lmagan kishilar kiradi. Eng yuqori darajada esa – bevosita aqlni anglay biladigan kishilar turadi. U "Donishnoma" asarida shunday kishilarni, ya'ni "buyuk Payg'ambarlar"ni quyidagicha tasvirlaydi: "Ular aqlga to'g'ri keladigan narsalarni o'qituvchi (muallim) va yorliqlar yordamisiz, faqatgina taxmin va farishtalar olami bilan aloqa vositasida anglaydilar. Ular haqiqatda sirli olam holatini tafakkur yordamida idrok etadilar va kutilmagan yangiliklardan voqif bo'ladilar. Shu bois, vahiy farishtalar va inson o'rtasidagi aloqa hisoblanadi"[3]. Bularning hammasi mavjud bo'lishiga imkon beradigan jonning xislatlarini Ibn Sino "Payg'ambarlarning namoyon bo'lishi" yoki "Benuqson qobiliyat" deb ataydi.

Ibn Sinoning e'tirof etishicha, aynan payg'ambarlik qobiliyatiga ega bo'lganlar barcha kishilar ustidan boshliq bo'lishlari kerak. "Har qanday munosib kishi pastroq darajadagi kishilar ustidan hukmronlik qiladi, ularga rahbar bo'ladi, - deb fikrini davom ettiradi alloma, - Payg'ambar o'z fazilatiga ko'ra kishilarning barcha qatlamlaridan ustun turadi hamda ularga hukmronlik va rahbarlik qilishi shart"[4]. Aynan shunday faylasuf-payg'ambar fozil insonlar birlashmasi, ya'ni "adolatli shahar hukmdori" bo'lishi zarur. Zero, u "faol aql" tufayli "haqiqatni" biladi. Biroq oddiy kishilarga murojaat qilib, ularga Yagona va qodir yaratuvchining mavjudligi to'g'risida tasavvur berishi lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Alloma o'zining "Ishoralar va tanbehlar" asarida shunday yozadi: "Inson o'z shaxsiy talablari jihatidan boshqalardan ajralgan holda yashay olmaydi, chunki u insoniyatning boshqa vakillari bilan munosabatda bo'libgina ularni qondira olishi mumkin"[5]. Buning uchun barcha jamoa a'zolarini

birlashtirib turuvchi huquqiy qonunlar zarur bo'ladi. Jamoaning barcha a'zolari foydali mehnat bilan shug'ullanmoqlari zarur. U insonlarni jamiyatda tutgan o'rni va vazifalariga qarab uch guruhga ajratadi:

- davlat idoralarida xizmat qiluvchi va jamiyatni boshqarish ishlari bilan shug'ullanuvchilar, ya'ni rahbarlar, hukmdorlar;

- bevosita xom ashyo, zarur mahsulotlar ishlab chiqarish bilan mashg'ul bo'lganlar, ya'ni moddiy noz-ne'mat ishlab chiqaruvchilar;

- davlatni qo'riqlash, uni turli tashqi hujumlardan saqlashni ta'minlovchi harbiylar.

Jamiyatning bu guruhlari o'zaro bir-birlariga bog'liq va har doim muloqotda bo'ladilar, bir-birlarisiz yashay olmaydilar. Mutafakkirning bu fikrlari o'tmishdoshlari Aflotun, Arastu, Forobiylarning bu boradagi qarashlariga hamohangdir. Ma'lumotlarga qaraganda, Ibn Sino, harb ishiga oid "Qo'shinlar, soqchilar va askarlar, ularning ta'minoti va mamlakatlar soliqlari tadbiri" ("Tadbir al-jo'nd va al-mamolik va al-askar va arzoqihem va xiroj al-mamolik") nomli maxsus asar yozgan. Bu to'g'rida mashhur tib olimi Abu Ubayd Juzjoniyy (?-1047) tomonidan yozilgan Ibn Sinoning tarjimai holidan ma'lumot olish mumkin. Biroq asarning qaysi muallif tomonidan o'rganilganligi yoki ko'chirilganligi, uning qo'lyozmasi qayerda ekanligi haqida hech qanday ma'lumot saqlanmagan[6].

Mutafakkirning ta'kidlashicha, "hamkorlik uchun qonun va adolat zarur, qonun va adolat uchun esa qonun o'rnatuvchi kerak"[7]. O'z navbatida, qonun o'rnatuvchi jamiyatdagi tabaqalarning har biridan boshliq tayinlashi kerak. Alloma o'z mulohazasini davom ettirib, "adolatli shaharda har bir inson o'z o'rniga va muayyan ishiga (hunar nazarda tutilayapti – B.N.) ega bo'lishi zarur. Har bir kishi jamiyatga muayyan foyda keltirishi lozim"[8], deb mulohaza yuritadi.

Ibn Sino kishilar yaxshi yashashlari uchun adolat qoidalariga rioya qilgan holda, ularni hamkorlikda, birgalikda mehnat qilish zarurligini ta'kidlaydi. Uning talqinida, mehnat shunday o'lchovki, ya'ni u bilgan har bir jamiyat a'zolarini muhokama qilish mumkin. Biroq, mehnat faoliyati, Ibn Sino fikricha, bajariladigan vazifaga qarab taqsimlanishi zarur.

TAHLIL VA NATIJALAR. Olimning e'tirof etishicha, "Ijtimoiy foydali mehnat har bir

fuqaroning vazifasidir: mehnat qilish qobiliyatini yo'qotgan kishilar va noishlab chiqarish mehnati bilan shug'ullanuvchilar (harbiylar) davlat ta'minoti hisobida, bundan tashqari, jarimalar, jinoyatchilar va qonunbuzarlar (o'g'rilar, qimor o'yinlari ishqibozlari)ga qo'yilgan soliqlar natijasida to'ldiriladi"[9].

Ibn Sino fikricha, insonda qachonki uzrli sabab bo'lsagina, o'shanda u mehnat qilmasligi mumkin. Har bir inson davlatga qandaydir "foйда keltiradigan" faoliyat bilan shug'ullanishi lozim. Ibn Sino mehnat qilish qobiliyatini yo'qotgan va qashshoq kishilarni o'ldirish kerak, degan fikrni qo'llab-quvvatlovchilarni tanqid qiladi. Aksincha, uning ta'kidlashicha, davlat ularni himoya qilgan holda, ularning harakatlarini soliqlar yoki davlat foydalari hisobidan qoplashga majburdir. Ibn Sino foyda olishning nohaqqoniy usullarini qoralaydi. U aytadiki, adolatli ayirboshlashda inson bir xil moddiy qadriyatlarni yoki "ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni" qo'lga kiritadi.

Ibn Sino salafi Forobiy singari adolatli jamiyat qurish tarafdori bo'lgan. U adolatli jamiyatni odil va yetuk insonlar boshqarishlari kerak, deydi. Chunki Ibn Sinoning talqinida, bunday insonlar davlatni adolatli qonunlar asosida boshqaradilar. Jamiyat a'zolari ham bu qonunlarga itoat etishlari lozim. Qonunni buzish va adolatsizlik jazolanishi kerak. Hatto hokim-podshohning o'zi adolatsizlikka yo'l qo'ysa, xalqning unga qarshi qo'zg'oloni to'g'ri va jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanmog'i kerak. "Adolatli jamiyatni boshqaradigan hukmdor, Ibn Sino fikricha, adolatga erishish maqsadida xalqqa axloqiy xususiyatlarni va asriy an'analarni o'rgatishi lozim, adolat esa – inson xatti-harakatining eng yaxshi bezagidir" [10].

Buyuk gumanist adolatni yaxshilikning bosh mezoni sifatida e'tirof etadi va uni insonning ruhiy holati bilan bog'lagan holda quyidagi uch qismga ajratadi: 1) instinktlar orqali kelib chiqadigan qiyosiy qo'zg'alishlar (jinsiy his-tuyg'u, mazali ovqatga xohish, yaxshi kiyinish istagi); 2) g'azab va boshqa his-tuyg'ular orqali kelib chiqadigan his-tuyg'ular (qo'rquv, qayg'u, nafrat, hasad, rashk); 3) oqilona qo'zg'alishlar (kamtarlik, adolatlilik, donolik va boshqalar).

XULOSA VA TAKLIFLAR. Alloma o'zining "Uy-ro'zg'or tutish qoidalarini" risolasida hukmdorlarning axloqiy kamoloti haqidagi masalani ilgari suradi va hukmdor ruhini kamol toptirishni

siyosatning asosiy tamoyili, deb hisoblaydi. Uning yozishicha, hukmdorlar oddiy odamlarga nisbatan ko'proq o'z-o'zini kamol toptirishga muhtoj, chunki, oddiy insonlarning kundalik faoliyati hukmdornikiga qaraganda davlat uchun unchalik ahamiyatli emas, hukmdor esa noto'g'ri qonunlar chiqarishi, yaxshilarini axmoqona bajarishi yoki barcha qonunlarni yo'qqa chiqarishi mumkin. Shunday qilib, mutafakkir adolat qonunlariga aholi, hukmdor va hatto payg'ambarlar o'rtasidagi munosabatlarni ham bo'ysundiradi.

Ibn Sino qarashlari bo'yicha, insonning shakllanishida muhim rol ni uni o'rab turgan kishilar, birinchi navbatda, davlat boshlig'i o'ynaydi. Davlat boshlig'i qanday sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lsa, uning qo'l ostidagilari ham shu sifatlarni oladilar. Shundan kelib chiqib, Ibn Sino yozadi: "U (davlat boshlig'i) bitta ham dog' qolmasligi uchun hamma kamchiliklarini bartaraf qilishi kerak. So'ng boshqalarda yaxshi sifatlarni tarbiyalash bilan shug'ullanishi mumkin"[11].

Qomusiy olim o'z fikrini davom ettirib, "Odil hukmdorda davlatni boshqarish uchun quyidagi fazilatlar: davlatni boshqarishga qobiliyatligi; har bir ishni aql bilan bajarish qobiliyati; mustaqil fikrga ega bo'lishi; yuksak axloqiy xususiyatlarga ega bo'lishi; o'z manfaatlaridan ko'ra xalq manfaatlarini o'ylaydigan, ya'ni xalqparvar bo'lishi; qat'iy so'zli bo'lishi; bilimdon bo'lishi kabi xislatlar mujassam bo'lishi kerak"[12], deydi. Bizningcha, Ibn Sinoning adolatli jamiyat boshlig'ining fazilatlari haqida aytgan fikrlari Forobiyning ideal shahar boshlig'ining fazilatlari haqidagi fikrlariga yaqindir.

Xullas, buyuk alloma Ibn Sino o'zining ideal davlat konsepsiyasida jamiyat va uning rivoji, davlatni boshqarishda hukmdorning o'rni, shuningdek, ijtimoiy-axloqiy fazilatlar to'g'risidagi g'oyalarni ilgari surgan. Bugungi kunda ushbu g'oyalardan Yangi O'zbekistonda amalga

oshirilayotgan siyosiy, huquqiy va ijtimoiy islohotlar jarayonida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Хайруллаев М.М.Форобий ва унинг фалсафий рисоалари. –Т.: ЎзССРФА,1963,101-б.
2. Болтаев М.Н. Абу Али ибн Сина – великий мыслитель, ученый-энциклопедист средневекового Востока. – Казань: Мастер Лайн, 1999. – Б. 308-309.
3. Ибн Сина (Авиценна).Избранные философские произведения. – М.: Наука,1980,228-б.
4. Игнатенко А.А. В поисках счастья: (Общественно-политические воззрения арабо-исламских философов средневековья). – М.: Мысль, 1989. – Б. 143-144.
5. Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан. – Т.: Ўзбекистон, 1995, 68 - б.
6. Жузжоний Абу Убайд. Ибн Синонинг таржимаи холи (ترجمة ابن سينا). Қўлэзма ЎЗР ФА Абу Райхон Беруний номидаги Шаркшунослик институти қўлэзмалар фондида №2385 раками остида сақланмоқда.
7. Игнатенко А.А. В поисках счастья: (Общественно-политические воззрения арабо-исламских философов средневековья). – М.: Мысль, 1989, 148 - б.
8. О'sha asarda, 36-bet.
9. Сагадеев А.В. Ибн Сина (Авиценна). – М.: Мысль, 1980, 203 - б.
10. Григорян С.Н. Из истории философии Средней Азии и Ирана VII-XII вв. – М.: АН СССР, 1960, 83 - б.
11. Кирабаев Н.С. Социальная философия мусульманского Востока. – М.: УДН, 1987, 131 - б.
12. Сагадеев А.В. Ибн Сина (Авиценна). – М.: Мысль, 1980, 202 – б.

*Axborot texnologiyalari va menejment universiteti dotsenti, f.f.d
J.Ibragimov taqrizi asosida*

O‘ZBEK TILIGA AYNAN O‘ZLASHTIRILGAN MIKROSOFT WINDOWS OPERATSION TIZIMI TERMINLARINING IMLOSI VA TALAFFUZI

Maxammadov Bobir

*Andijon davlat chet tillari instituti mustaqil izlanuvchisi, f.f.f.d
(PhD)*

SPELLING AND PRONUNCIATION OF TERMS IN THE UZBEK LANGUAGE ADAPTATION OF MICROSOFT WINDOWS OPERATING SYSTEM

Makhammadov Bobir

*Independent researcher at Andijan State Institute of Foreign
Languages, PhD in Philology (Doctor of Philosophy)*

ОРФОГРАФИЯ И ПРОИЗНОШЕНИЕ ТЕРМИНОВ ОПЕРАЦИОННОЙ СИСТЕМЫ MICROSOFT WINDOWS, АДАПТИРОВАННЫХ К УЗБЕКСКОМУ ЯЗЫКУ

Махаммадов Бобир

*Соискатель Андижанского государственного института иностранных языков, кандидат
филологических наук (PhD)*

Annotatsiya: *Mikrosoft Windows operatsion tizimida qo‘llanilgan o‘zbek tilidagi terminlarining imlosi va talaffuzi aynan ushbu maqolada yoritiladi. Bundan tashqari maqolada Windows terminlari orasida uchraydigan o‘zlashma va tarjima holatidagi terminlarning yaroqliligi va berilishi o‘rganiladi.*

Kalit so‘zlar: *o‘z qatlam, o‘zlashma qatlam, leksema, imlo, talaffuz, QR-kod, cache memory.*

Abstract: *This article highlights the spelling and pronunciation of terms in the Uzbek language as used in the Microsoft Windows operating system. Additionally, the article examines the usage and validity of both adapted and translated terms that appear among Windows terminology.*

Keywords: *native layer, adapted layer, lexeme, spelling, pronunciation, QR code, cache memory.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются орфография и произношение терминов на узбекском языке, используемых в операционной системе Microsoft Windows. Кроме того, в статье отдельно изучается использование адаптированных и переведённых терминов Windows, а также их валидность.*

Ключевые слова: *собственный слой, адаптированный слой, лексема, орфография, произношение, QR-код, кэш-память.*

Kirish. Mikrosoft Windows operatsion tizimida qo‘llanilgan o‘zbek tilidagi terminlarining imlosi va talaffuzi aynan ushbu maqolada yoritiladi. Bundan tashqari ushbu maqolada Windows terminlari orasida uchraydigan o‘zlashgan va tarjima qilingan terminlarning qo‘llanilishi hamda validligi alohida o‘rganiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tahlil qilinayotgan maqolada terminlar o‘zbek

tilshunos olimlari R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalova tomonidan yozilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” o‘quv qo‘llanmasi, B.Mengliyev tomonidan yozilgan “Hozirgi o‘zbek tili” darslik va til korpuslarini yaratish bo‘yicha maqolalari, M.Umarxo‘jayevning “Umumiy tilshunoslik” nomli o‘quv qo‘llanmalari va M.Umarxo‘jayev tashabbusi bilan tashkil etilgan lug‘atshunoslik va



E-mail:
maxammadovuz@gmail.com

Tel: (97) 378 – 34 -45

tarjimashunoslik markazi (ALTAIIM) jamoasi tomonidan maktab o'quvchilari uchun turli fanlardan yaratilgan, mobil ilovalar uchun moslashadigan ko'p tilli lug'atida foydalanilgan terminlar yordamida tahlil qilindi.

O'zbek tiliga aynan o'zlashgan Windows operatsion tizimidagi terminlar to'g'risida fikr-mulohazalarni olib borishdan oldin o'zbek tili leksikasidagi o'z va o'zlashma qatlam to'g'risida ma'lumotlar berilishi kerak. Ushbu faslda mobil ilovalardagi aynan o'zlashgan so'zlar va ularning imlosi hamda talaffuzi bo'yicha tahlil olib boriladi.

Barchamizga ma'lumki, har bir tilning, shu jumladan, o'zbek tilining ham kelib chiqishiga ko'ra 2 xil sof va o'zlashgan leksemalari mavjud. Sof o'zbek tilidagi leksemalar qarindosh bo'lgan tillardan tarqalgan, asrlar davomida birgalikda qo'llanilganga aytiladi.

O'zbek tili leksemalari qatoriga rus tilidan va rus tili orqali Yevropa xalqlari tillaridan leksemalarning kirishi ikki muhim davrlarga bo'linadi:

1. O'rta Osiyo bosib olish davridagi voqealar;

2. Podsho hukumati ag'darilib, Rus hukumati tashkil topgan davrdan keyingi voqealar.

Tadqiqot metodologiyasi. Yuqorida sof va o'zlashgan ya'ni o'z va o'zlashma qatlam bo'yicha ma'lumotlar berildi. Bundan tashqari faslda tahlil qilinishi kerak bo'lgan aynan o'zlashgan leksemalar to'g'risida unutmazlik kerak. Leksemalarning aynan o'zlashishida quyidagi belgilarga albatta to'xtalib o'tish zarur, chunki bunday belgilar imlo va talaffuzda to'g'ri yozish hamda talaffuz qilish uchun xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot obyektini hisoblangan Windows operatsion tizimi terminologiyasi orasida turli ilovalar uchraydi, xususan, "Yandex.taxi", "Telegram", "PayME", "Google chrome" terminlarining o'zbek tilidagi talaffuzi va imlosi haqida qisqacha so'z yuritiladi.

"Google chrome" dasturida uchraydigan atamalardan biri "**rejim**" bo'lib, ushbu atama fransuz tilidan kirib kelgan "**regime**" tarzida yoziladi. O'zbek tiliga aynan o'zlashish jarayonida faqatgina ushbu atamaning asl tilidagi talaffuz shakli o'zbek tiliga ko'chadi. Ingliz-o'zbekcha lug'atlarda ham ushbu atamaning tarjimasini "**rejim**" tarzida berib o'tilgan. Demak, imloda qo'shimchalar qo'shilishi natijasida birorta fonetik o'zgarishlar yuz bermaydi,

faqat talaffuzda ushbu so'z chetdan o'zlashganligi sababli j harfli dj tarzida talaffuz qilinadi.

"**Ekran**" atamasi rus va o'zbek tilida "**screen**" atamasining tarjimasini hisoblanadi, demak rus tili orqali o'zbek tiliga o'zlashgan. Talaffuz hamda imlosi bo'yicha tahlil qilinganda, ekran so'zi 5 harf va 5 tovushdan iborat, so'z boshidagi e harfi ekran, eksport kabi o'zlashgan so'zlarda old qator o'rta-keng hamda lablanmagan unlini ifodalash uchun yoziladi. Lug'aviy va sintaktik shakl yasovchilar qo'shilsa ham imloda biror o'zgarishga uchramaydi.

"**Veb-sayt**" qo'shma atamasi ushbu mobil ilovada ko'p uchraydi. Ingliz tilida "**web-site**" tarzida uchraydi, o'zbekcha lug'atlarda har ikkala so'zning muqobili berilgan, lekin alohida tarjima qilinganda ma'no bo'yicha maqsadga yetib borilmaydi, shu sababli "**veb-sayt**" yoki "**veb-sahifa**" tarzida qoldirilgan maqsadga muvofiq. O'zbek tilining imlo qoidalari lug'atida ushbu atama juft so'z bo'lganligi sababli chiziqcha bilan yozilishi belgilangan[1]. Talaffuz qilinganda mazkur juft so'zning birinchi qismidagi {b} harfi {p} tarzida talaffuz qilinish holati mavjud.

Navbatdagi "**Payme**" mobil ilovasi aynan olingan terminlarining imlosi va talaffuzi bo'yicha tahlil qilinadigan bo'lsa, axborot texnologiyalariga yangi kirib kelgan so'zlardan biri bu vidjetlar. Inglizcha-o'zbekcha lug'atlarida ham o'zbek tilining imlo lug'atida ham ushbu atamani uchratish mushkul. Ingliz tili imlosida ushbu atama "**widget**" tarzida yoziladi. O'zbek tiliga aynan o'zlashtirilish jarayonida dj harfi to'liq "**vidjet**" tarzida ifodalanishi maqsadga muvofiq va talaffuzda ham dj harfi to'liq [vidjet] tarzida talaffuz qilinishi maqsadga muvofiq.

"**Virtual karta**" – birikmasi har ikkala atama aynan o'zlashgan atamalar sirasiga kiradi. O'zbek tilining imlo qoidalari ikki yonma-yon keladigan unlilar imlosi qoidasida – **ua** birikma unlilariga bir-ikkita misol keltirilgan, jumladan, *shuaro*, *burjua* va ushbu unlilar yonma-yon kelsa qanday aytilsa shunday yoziladi deb belgilab qo'yilgan. Shunga ko'ra "**virtual**" atamasida yozilish va talaffuz qilishini bir xil bo'ladi. "Virtual" atamasi sifat so'z turkumiga mansub bo'lganligi sababli barcha qo'shimchalar "karta" atamasiga qo'shiladi va shunday holatda ham karta atamasida na talaffuzda, na imloda o'zgarish bo'ladi.

"Payme" mobil ilovasida arab tilidan aynan o'zlashgan terminlardan biri "**hisob**" so'zi bo'lib,

imloda soʻz yasovchi va shakl yasovchi qoʻshilsa ham ushbu atama bilan biror oʻzgarish boʻlmaydi, talaffuzda esa bilinar bilinmas hisob soʻzidagi **b** harfi **p** tarzida talaffuz qilinadi. Xuddi shunday *raqam, ma'lumot, ruxsat, harakat* kabi arab tilidan aynan oʻzlashgan atamalar koʻplab uchraydi. Ularning barchasi imlo va talaffuzda bir xil holda yoziladi.

Garchi "Payme" mobil ilovasi oʻzbek dasturchilari tomonidan yaratilgan boʻlsada, undagi aksariyat terminlar toʻliq tarjima qilinmagan va muqobillari tanlanmagan. Masalan, toʻlov xizmatlari ruknidagi barcha xizmat turlari umuman tarjima qilinmagan, balki muqobili topilmagan.

"Telegram" mobil ilovasidagi terminlarni tahlil qilish jarayonida ham xuddi yuqoridagi mobil ilovalarga oʻxshab aksariyat aynan oʻzlashgan atamalar arab va fors tillaridan oʻzlashgan soʻzlardir. Masalan, *xabarlar, guruh, xotira, tovush, tarjimai hol, jildlar, rasm, siyosat kabilar*. Bundan tashqari boshqa xalqaro tillardan oʻzlashgan atamalar ham mavjud, misol tariqasida *chat, stiker, emoji, kontaktlar, QR-kod, onlayn, seans* kabi soʻzlar bunga misol boʻla oladi.

Ushbu mobil ilovada "ism" va "video" kabi aynan oʻzlashgan soʻzlar mavjud. Agar ularni talaffuz va imlo jihatdan birma bir tahlil qilinadigan boʻlsa, "ism" – arab tilidan kirib kelgan atama hisoblanadi [2] va uning imlodagi koʻrinishi ham xuddi shunday uch harfdan iborat, yaʼni bitta unli ikkita undosh harflardan, shulardan – s til oldi, sirgʻaluvchi, jarangsiz, - m – lab – lab undoshi, portlovchi, jarangli va - i unlisi old qator, tor unli va lablanmagan sanaladi, lekin talaffuzda – s tovushidan keyin {i} tovushi ortish holati ham uchraydi.

"Video" soʻzini tahlil qiladigan boʻlsak, chetdan kirib kelganligi bois ikkita unli yonma-yon kelish holati ham kuzatiladi. Oʻzbek tilining asosiy imlo qoidalari unli harflar imlosida yonma-yon kelgan unilar berilgan, lekin aynan –*eo* unilarining bir biriga yaqin kelishi boʻyicha fikr berilmagan. Ushbu soʻz tarkibida 5 ta harf va 6 ta tovush mavjud desak, adashmagan boʻlamiz, sababi – *eo* yonma-yon kelgan unilarda oʻrtada "y" aytilsa ham asl holicha imloda yozilaveradi.

"Telegram" mobil ilovasida yana bir lugʻatlar uchramaydigan va rus hamda oʻzbek tillariga oʻz holicha oʻtib kelayotgan "bot" nomli atama mavjud. Bir qarashda bu soʻz juda oddiy koʻrinadi, lekin bu atamaning oʻzbekcha

etimologiyasi berilgan, faqatgina oʻzbek tilining imlo lugʻatida ushbu atama bilan shakli bir xil soʻz uchraydi va bularning maʼnolari bir biridan butunlay farq qiladi. Mobil ilovada uchraydigan "bot" soʻzining maʼnosi "robot" atamasidan olingan va jarayonlarni avtomatik boshqarish maʼnosida qoʻllaniladi. 3 harf va 3 tovushdan iborat, imlo va talaffuzda ayni tarzda aytiladi va yoziladi. Ushbu atamaga "Oddiy foydalanuvchi ishlatadigan interfeyslar orqali maʼlum harakatlarni avtomatik va/yoki belgilangan jadval boʻyicha bajaradigan maxsus dastur" deya taʼrif berilgan[3].

Yana bir qiziq holat, ingliz tilida "channel" soʻzi lugʻatlarda berilgan va uning maʼnosi "suv oqadigan kanal" maʼnosida kelgan, lekin keyinchalik insoniyat hayotiga televideniye kirib kelgandan soʻng ingliz tilida aynan mana shu atamaning omonimlik xususiyati paydo boʻlgan, natijada "channel" soʻzi teledasturlar uchun qoʻllaniladigan kanal maʼnosida rus tili orqali oʻzbek tiliga aynan oʻzlashdi. Koʻrinib turganidek, "channel" tuzilish jihatdan oʻzbek tilidagidan birozgina farq qiladi, fonetik oʻzgarishlarga uchragan holda, "kanal" tarzida toʻgʻridan-toʻgʻri kirib keladi.

Boshqa mobil ilovalarda boʻlgani kabi "Yandex.taxi" mobil ilovasida ham aynan oʻzlashtirilgan terminlarni uchratish mumkin. Xususan, barcha uchun tanish boʻlgan "taxi" atamasi oʻzbek tilining imlo lugʻatida va mobil ilovada "taksi" tarzida berilgan, demak mobil ilovada imlo qoidalariga rioya qilingan holda ushbu soʻz tanlangan. 5 ta harf va 4 ta tovushdan iborat hamda qanday aytilsa, shunday yoziladi.

"Darvoza", "shahar", "jamoat", "yordam" kabi atamalar ham fors-tojik va arab tillaridan aynan oʻzlashgan soʻzlar hisoblanadi. Ular orasidan "shahar" soʻziga egalik qoʻshimchalari qoʻshilganda tovush tushish hodisasi sodir boʻladi, lekin boshqa holatlarda oʻz holicha saqlanib qoladi. Qolgan atamalarda talaffuz va imloda hech qanday oʻzgarish boʻlmasdan, shu holicha aytiladi va yoziladi.

Yakunda bir jihatni taʼkidlab oʻtish lozim, tilimizdagi oʻzlashma terminlarning ayrimlari tilimizning tabiatiga moslashadi. Ularni fonetik jihatdan moslashuvini quyidagilarda kuzatish mumkin:

1) fonemalarning qisqarishi: avianos (авианосец), raketanos (ракетаносец), minanos

(*миноносец*), farmatsevtik (*фарматсевтический*), akustik (*акустический*); 2) fonemalardagi tovush almashinuvi: mayoq (*маяк*), o'choq (*очаг*), plashch-palatka (*плащ-палатка*) kabilar. O'zbek tilida qurilishi jiddiy o'zgarishlarga uchragan o'zlashma terminlar kategoriyasiga qo'mita (комитет), bombardimon (бомбардировка), qo'mondon (командующий), pudrat (подряд) kabilarni kiritish o'rinlidir[4].

Mobil ilovalarda uchraydigan veb-sayt, veb-kamera, kesh-xotira kabi o'zlashtirilgan terminlarning chiziqcha bilan yozilishi alohida e'tibor bilan o'rganilishi lozim. O'zbek tili imlo qoidasiga ko'ra, chiziqcha asosan juft va takror so'zlarni yozishda qo'llaniladi. Bunday birikmalar ko'pincha sinonimik, antonimik, butun-bo'lak yoki yaqin ma'nodosh so'zlar asosida shakllanadi. Shu bois, yuqoridagi atamalarda chiziqchani ishlatilishi ularning strukturaviy va semantik xususiyatlari bilan bevosita bog'liq holda tahlil qilinishi zarur.

Mazkur terminlarning ingliz tilidagi ekvivalentlari — webcam, website, webpage, cache memory, compact disk, crossware — tarkibida esa chiziqcha belgisi qo'llanilmaydi. Bu holat ingliz tilidagi terminologik tizimda birikmalar ko'pincha bitik shaklida (ya'ni bir so'z sifatida) berilishiga asoslanadi. O'zbek tilida esa bunday birliklar o'zlashtirilganda ko'pincha ikkita mustaqil leksik komponent sifatida qabul qilinadi va ular o'rtasiga chiziqcha qo'yilishi kuzatiladi. Natijada, bu holat ingliz tilidan o'zlashtirilayotgan terminlarning morfografik jihatdan standart shakllaridan chetlanishga olib keladi[5].

Shunday qilib, terminlarning chiziqcha bilan yozilishi O'zbek tilining ichki qonuniyatlari bilan belgilanayotgan bo'lsa-da, ularning manba tilidagi grafemik ko'rinishlariga nisbatan farqlanishi terminlarni standartlashtirish jarayonida muvozanatli yondashuvni talab qiladi.

Qanchalik murakkab jarayon bo'lmasin, bugungi kunda terminlarni ixchamlashtirish, muomalaga kiritish uchun soddaroq ko'rinishga olib kelish, tarkiban ixchamlashtirish mutaxassislarning oldiga qo'yilayotgan birlamchi vazifalardan hisoblanadi. Aks holda, ular termin maqomida bo'lmaydi, termin o'rnida qo'llanuvchi so'zlar va

so'z birikmalari sifatida tushuniladi. Natijada ularning turli variantlari vujudga keladi, dubletlar paydo bo'ladi.

Xulosa va takliflar. Demak, xulosa qilish mumkinki, aynan o'zlashgan so'zlar genetik jihatdan shakli bir xil, lekin talaffuzda biroz farq qilishi mumkin. Tadqiqot ishida o'rganilayotgan "Google chrome", "Telegram", "Payme" va "Yandex.taxi" mobil ilovalarida qo'llanilgan terminlarning ko'pchiligi barcha dasturlarda bir xil tarzda qo'llanilgan, o'zbek tilida muqobili topilgan atamalar fors va arab tillaridan [6] o'zlashgan hamda boshqa dasturlarda ham xuddi shu shaklda uchraganligi sababli, yuqoridagi fikrimiz isboti sifatida dubletlar paydo bo'lgan. Bundan tashqari mobil dasturlarining ingliz tilidagi terminlarning o'zbek tilidagi muqobillarini termin emas balki so'z va so'z birikmasi tarzida ham qabul qilish mumkin, chunki dasturlarda foydalanilgan aksariyat terminlardan kundalik sharoitimizda foydalanamiz va termin maqomini olishi uchun asos mavjud emas. Ularning imlo va talaffuziga to'xtaladigan bo'lsak, chetdan o'zlashganligi sababli, talaffuzda ayrimlarida tovush ortishi kuzatiladi, ayrimlari esa asl holicha talaffuz qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mengliyev B.R.– Hozirgi o'zbek tili (kirish, fonetik sath, leksik-semantik sath) // darslik – Toshkent: "Tafakkur bo'stoni", 2018, B.177-178
2. Nazarov. S., Nazarova. F., Adizova. N., Poltayeva.D., English-uzbek dictionary. – Toshkent-2013, B.699
3. Butayev. Sh., Irisqulov.M., Inglizcha-o'zbekcha, o'zbekcha-inglizcha lug'at 70000 so'z va ibora // -Toshkent 2008, B.267
4. Begmatov.E., Madvaliyev A., O'zbek tilining imlo lug'ati 85000 dan ortiq so'z // Toshkent 2013, B.442
5. Rahmatullayev SH - O'zbek tilining etimologik lug'ati II (arab so'zlari va ular bilan hosilalar) //Toshkent 2003, B.175
6. Amirov D.M, Atadjanov A.YU va boshqalar – Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug'ati // Toshkent 2010, B.46

TAMADDUN NURI